ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2026/№6

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-МЕТОДИК ЖУРНАЛ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODICAL JOURNAL

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

/2026
IYUN

Muassis:
Buxoro davlat universiteti
Fan va ta’lim MChJ

Bosh muharrir: Ma’murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

Mas’ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko‘chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:
29.05.2026y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.
Buyurtma raqami № 624
«FAN VA TA’LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar https://interscience.uz/ saytida joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O‘zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro‘yxatidan o‘tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Abriyev R. B. O‘zbekistonda tarixiy-me’moriy obidalarni saqlash va ta’mirlash davlat siyosatining tarixiy shakllanishi	8
Jumaboyev A. S. XX asrning 20–80 yillarida Samarqand tarixiy o‘lkashunosligining shakllanishi va rivojlanishi	12
Norova D. R. Zar bilan bitilgan tarix va zamonaviylik	18
Qosimova M. Sh. Vardonze saroy majmuasi me’morchiligi va kulolchilik san’ati	24
Шамсиева З. А. Фотиҳа тўйи: ўзбек халқининг оилавий қадриятлари ва тарихий мероси (Бухоро воҳаси мисолида)	29
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Akramova S. R. Jamol Kamol she’riyatida lokutiv qatlam va poetik semantika	35
Абдураманова Д. В. Ономастическое пространство как средство реализации интертекстуальности и авторских новаций в англо- и русскоязычном фэнтези	38
Эшкувватова Д. Способы выражения целевых отношений в русском и узбекском языках	45
Ergashev A. H. Badiiy portret va tildan samarali foydalanish: Sh. Xolmirzayev va Lev Tolstoy ijodida	53
Hamraeva M. U. Said Ahmadning “Sarob” hikoyasida milliy kolorit tasviri	57
Mirziyatov Sh. Arab baynalmilal diplomatik terminlarni standartlashtirish	64
Омонкулова О. А. «Употребление пространственных глаголов с приставками и предлогами: на примере повести «Белый пароход»	68
Qodirova B. Turkiy tillarda termin yasash: birinchi turkologik qurultoy materiallari asosida	76
Sabirova N. E. Ona tili va adabiyot darslarida “Moddiy-rasmli-timsolli” yondashuv orqali hayotiy ko`nikmalarini rivojlantirish	79
Xurramova M. J. Hayvon obrazlari orqali stereotiplarning ifodalanishi (O‘zbek va Qoraqalpoq frazeologiyasida)	87
Шукурова Л. Р. Сравнительный анализ переводческих стратегий Н. Д. Ильина, В. Державина и С. Иванова в русских переводах узбекской поэзии	91
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Ahmatova S. Z. Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish: muammolar va ishlab chiqarish	98
Bayzakova M. A. Bo‘lajak tarbiyachilarning akmeologik yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimining samaradorligi	103

Egamov M. X. ARIMA, SARIMA, GEV va POT modellarini o‘qitishning besh bosqichli pedagogik algoritmning muhandislik ta’limiga tatbiq etishning didaktik shartlari	111
Kadirov Sh. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga stol tennisi mashg‘ulotlarining ta’siri	116
Karimova S. B. Bo‘lajak muhandis-texnologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt modellarining o‘rni	122
Muxammadjonov X. Z. Talabalarda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	128
Nurmatov Z. O. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib dasturlash fanini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar	133
Nazirova O. Z. Дидактическая модель проектирования и предварительного аудита французско-русско-узбекской технической терминологической базы	141
Olamova M. U. Pedagogik loyihalash asosida talabalarda axborot-konstruktiv kompetensiyani shakllantirish	148
Ochilova N. U. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining pedagogik diskurs repertuarini tizimlashtirish	152
Omonova M. Sh. Integrating technological, pedagogical, and content knowledge to enhance students’ english writing competence	156
Parmonov A.A. Raqamli transformatsiya va sanoat integratsiyasi sharoitida muhandislik ta’limining dolzarb muammolari	162
Pardayeva G. A. Bioinformatika fanini o‘qitishda biologik signallar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslari	173
Qurbanov H. X. Sun’iy intellekt va smart texnologiyalar asosida funksional analizni o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi	179
Qurbonova G. R. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda katta guruh bolalarini savod o‘rgatishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari	184
Rustamova M. M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (сайтга куйилган)	189
Subxonqulov U. Muallifni hisobga oluvchi kontrastiv matn klasterlash yondashuvining tanqidiy-analitik tahlili	198
To‘rayev F. F. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish metodikasi	204
Umarov L. M. Uzluksiz ta’lim makonini modellashtirish metodologiyasi: nazariy asoslar, tamoyillar va amaliy tatbiq	212
Usmonova E. F. Talabalarda kommunikativ kreativlikni shakllantirishning takomillashtirilgan metodikasi	217
Xamraeva Y. T. Informatika darslarida algoritmik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	222
Xazratov F. X. Kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnologik, tashkiliy va huquqiy omillarning integratsiyalashgan modeli	226

Shokirova M. Sh. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va ota-ona hamkorligi kvalimetriyasi natijalarini o‘rganish metodologiyasi	237
Shoyqulov B. B. Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining kompetensiyalarini baholash didaktik ta’minot sifatida	244
Choriyev B. Sh. Kriptografiya fanini o‘qitishning nazariy-metodik asoslari	251
Yaxshiboyeva S. T. O‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini integrativ baholashning nazariy asoslari	259
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Нурымбетова Э. Ж. Личностные и адаптационные факторы формирования профессионально значимых качеств будущих психологов	265
Rejametova I. I. Yosh ofitserlar jamoasida xizmat rezistentligi namoyon bo‘lishida ijtimoiy-demografik omillarning o‘rni	270
Saliyeva D. A. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar mustaqilligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	277
Sadriddinova D. H. O‘zbek milliy raqs, kuy va kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlarining ayollar va qizlarning psixoemotsional holatiga ta’siri (жойи алмашди)	282
Yangiboyeva D. R. O‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalari	290
Yadgarova O. I. Talabalar psixologik xizmatga bo’lgan munosabatlari: muammolar va yechimlar	298
Shamshetov J. K. Muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari	304

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A’ZOLARI

Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.*

Shamsutdinov Rustambek Temirovich, *Andijon davlat universiteti professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori*

Majidov Inom Urushevich, *texnika fanlari doktori, professor. O‘zbekiston milliy universiteti*

Olimov Qahramon Tanzilovich, *pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali*

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, *texnika fanlari doktori, professor*

Musurmonova Oyniso*, pedagogika fanlari doktori, professor*

Safarova Rohat G‘aybulloyevna, *pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti*

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, *pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.*

TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

Artamonova Yekaterina Iosifovna, *pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti*

Yemelyanova Irina Yevgeneyevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya*

Kuzmenko Galina Anatolevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti*

Safaraliyev Bozor Safaraliyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi*

Kulishov Vladimir Vasilevich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina*

Lazarenko Irina Rudolfovna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya*

Filippova Oksana Gennadevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya*

Xristo Kyuchukov, *pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya*

Kumskov Mixail Ivanovich, *fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti*

Padalka Oleg Semenovich, *pedagogika fanlari doktori, professor, M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina*

Hazretali Tursun, *tarix fanlari doktori, professor, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori*

Mamedova Irada, *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i*

Timur Xo‘jao‘g‘li, *tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)*

Nurettin Hatunoğlu *Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)*

Mullodjanov Sayfullo Kuchakovich, *tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti*

Gushko Sergey Vladimirovich, *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina*

O‘ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

Azamat Ziyo, *tarix fanlari doktori, akademik, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori*

Rajabov Qahramon Kenjayevich, *tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi*

FILOLOGIYA FANLARI

Madjidova Ra’no Urishevna, *filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Sharipova Laylo Frunzeyevna, *filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, *filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

Yusupova Hilola O‘ktamovna, *filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Akramova Surayo Renatovna, *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Saidova Muxayyo Umediloevna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

Nizamova Umida Sandjarovna, ***filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD),*** *Andijon davlat texnika instituti dotsenti*

PEDAGOGIKA FANLARI

Tolipov O‘tkir Qarshiyevich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.*

Olimov Shirinboy Sharofovich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti*

Dilova Nargiza Gaybullaevna, *pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti*

Tilavova Matlab Muxammadovna, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Sohibov Akram Rustamovich, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti*

Umarov Baxshullo Jo‘rayevich, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Hasanova Gulnoz Qosimovna, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Inoyatov Abdullo Shodiyevich, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti*

Davronov Nurzod Ismoilovich, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov Baxriddin Mingbayevich, *psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Bafayev Muxiddin Muxammadovich, *psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

IQTISODIYOT FANLARI

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, *iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori*

Mamanazarov Abduxakim Bozorovich, *pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali*

FALSAFA FANLARI

Namozov Bobir Bahriyevich, *falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

***Джураев Рисбой Хайдарович**, доктор педагогических наук, академик АНРУз*

***Шамсутдинов Рустамбек Темирович**, профессор Андижанского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук*

***Мажидов Ином Урушевич**, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека*

***Олимов Кахрамон Танзилович**, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена*

***Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович,** доктор технический наук, профессор*

***Мусурмонова Ойнисо,** доктор педагогический наук, профессор*

***Сафарова Рохат Гайбуллоевна,** доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи*

***Ибрагимов Холбой Ибрагимович,** доктор педагогических наук, академик АНРУз*

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ

ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

***Артамонова Екатерина Иосифовна,** доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук*

***Емельянова Ирина Евгеневна,** доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия*

***Кузьменко Галина Анатольевна**, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья*

***Сафаралиев Бозор Сафаралиевич**, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии*

***Кулишов Владимир Васильевич,** доктор педагогических наук, профессор. Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина*

***Лазаренко Ирина Рудольфовна**, доктор педагогических наук, профессор. Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия*

***Филиппова Оксана Геннадьевна**, доктор педагогических наук, профессор. Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия*

***Христо Кючуков,** доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия*

***Кумсков Михаил Иванович**, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова*

***Падалка Олег Семенович, д**октор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина*

***Хазретали Турсун,** доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави*

***Мамедова Ирада**, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана*

***Тимур Хужаугли,** лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)*

***Nurettin Hatunoğlu,** Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)*

***Муллоджанов Сайфулло Кучакович,** доктор исторических наук, профессор. Национальный университет Таджикистана*

***Гушко Сергей Владимирович**, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина*

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

История

***Азамат Зиё,** доктор исторических наук, академик, директор Института истории Академии наук Узбекистана*

***Раджабов Кахрамон Кенжаевич,** доктор исторических наук, профессор, главный научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана*

Филология

***Маджидова Рано Уришевна,** доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков*

***Шарипова Лайло Фрунзеевна,** доктор филологических наук. Бухарский государственный университет*

***Нигматова Лолахан Хамидовна,** доктор филологических наук. Бухарский государственный университет*

***Юсупова Хилола Уктамовна,** кандидат филологических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Акрамова Сураё Ренатовна,** доктор философских наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

Саидова Мухайё Умедилоевна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет

Низамова Умида Санджаровна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент Андижанского государственного технического института

Педагогика

***Толипов Уткир Каршиевич,** доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.*

***Олимов Ширинбой Шарофович,** доктор педагогических наук, профессор. Бухарский государственный университет*

***Тилавова Матлаб Мухаммадовна,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Дилова Наргиза Гайбуллаевна,** доктор педагогических наук (DSc), профессор. Бухарский государственный университет*

***Сохибов Акрам Рустамович,** кандидат педагогических наук, доцент. Каршинский государственный университет*

***Умаров Бахшулло Джураевич,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Хасанова Гулноз Касимовна,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Иноятов Абдулло Шодиевич,** доктор философских наук (PhD) по педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет*

***Давронов Нурзод Исмоилович,** PhD по педагогическим наукам, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

Психология

***Умаров Бахриддин Мингбаевич,** доктор психологических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет*

***Бафаев Мухиддин Мухамадович,** PhD по психологическим наукам. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами*

Экономика

***Куролов Кобулжон Кулманович,** доктор экономических наук, профессор. Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова*

***Маманазаров Абдухаким Бозорович,** доктор педагогических наук (DSc), доцент. Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова*

Философия

***Намозов Бобир Багриевич,** доктор философских наук. Бухарский государственный университет*

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

Risboy Haydarovich Djuraev, *doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*
Rustambek Temirovich Shamsutdinov, *professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences*
Inom Urushevich Majidov, *doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.*
Kahramon Tanzilovich Olimov, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen*
Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev, *doctor of Technical Sciences, Professor*
Oyniso Musurmonova, *doctor of pedagogical sciences, professor*
Rohat Gaybulloevna Safarova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.*
Kholboy Ibragimovich Ibragimov, *doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

MEMBERS OF EDITPRIAL COUNCIL

Ekaterina Iosifovna Artamonova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences*
Irina Evgeneevna Emelyanova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia*
Galina Anatolevna Kuzmenko, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health*
Bozor Safaralievich Safaraliev, *doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy*
Vladimir Vasilevich Kulishov, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine*
Irina Rudolfovna Lazarenko, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia*
Oksana Gennadevna Filippova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia
Christo Kyuchukov, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Mikhail Ivanovich Kumskov, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Oleg Semenovich Padalka, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine
Tursun Hazretili, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Khuzhaugli Timur, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Hatunoğlu Nurettin, Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Gushko Sergey Vladimirovich, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukrain

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

History

Azamat Ziyo, *doctor of Historical Sciences, Academician, director of the of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*
Rajabov Kakhramon Kenjayevich, *doctor of Historical Sciences, Professor, main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*

Philology

Majidova Rano Urishevna, *doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages*
Sharipova Laylo Frunzeyevna, *professor, Doctor of Philology. Bukhara State University*
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, *doctor of Philology. Bukhara State University*
Yusupova Khilola Oktamovna, *candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute*
Akramova Surayo Renatovna, *doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*
Saidova Mukhayyo Umediloevna, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Nizamova Umida Sandjarovna, Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, associate professor at Andijan institute of engineering and technology.

Pedagogy

Tolipov Utkir Karshiyevich, *doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.*
Olimov Shirinboy Sharofovich, *doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University*
Tilavova Matlab Muhammadovna, *candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*
Dilova Nargiza Gaybullayevna, *doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University*
Sohibov Akram Rustamovich, *candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University*
Umarov Bakhshullo Djurayevich, *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*
Khasanova Gulnoz Kasimovna, *candidate of pedagogical sciences, associate professor.Bukhara State Pedagogical Institute*
Inoyatov Abdullo Shodievich, *doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University*
Davronov Nurzod Ismoilovich*, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

Psychology

Umarov Bakhriddin Mingbayevich, *doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University*
Bafaev Muhiddin Mukhamadovich, *PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Economy

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, *doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov*
Mamanazarov Abdukhakim Bozorovich, *doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov*

Philosophy

Namozov Bobir Baxriyevich*, doctor of Philosophy. Bukhara State University*

07. 00.00 – TARIX FANLARI

O‘ZBEKISTONDA TARIXIY-ME’MORIY OBIDALARNI SAQLASH VA TA’MIRLASH DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY SHAKLLANISHI

Abriyev Ro‘ziqul Bo‘ronovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida tarixiy-me’moriy obidalarni saqlash va ta’mirlashga qaratilgan davlat siyosatining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda Temuriylar davrida bunyodkorlik va obodonlashtirish siyosatining davlat boshqaruvi bilan uzviy bog‘liqligi, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida tarixiy obidalarga nisbatan olib borilgan siyosatning xususiyatlari hamda sovet davrida madaniy merosni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy-me’moriy meros, madaniy meros, davlat siyosati, restavratsiya, konservatsiya, Temuriylar davri, Rossiya imperiyasi, sovet davri, me’moriy obidalar.

ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ ПО СОХРАНЕНИЮ И РЕСТАВРАЦИИ ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и научной литературы проанализированы этапы формирования и развития государственной политики по сохранению и реставрации историко-архитектурных памятников на территории Узбекистана. Рассмотрена взаимосвязь государственной политики в области градостроительства и благоустройства в эпоху Тимуридов с системой государственного управления, выявлены особенности политики Российской империи в отношении исторических памятников, а также освещены организационно-правовые основы охраны культурного наследия в советский период.

Ключевые слова: историко-архитектурное наследие, культурное наследие, государственная политика, реставрация, консервация, эпоха Тимуридов, Российская империя, советский период, архитектурные памятники.

THE HISTORICAL FORMATION OF THE STATE POLICY FOR THE PRESERVATION AND RESTORATION OF HISTORICAL AND ARCHITECTURAL MONUMENTS IN UZBEKISTAN

Abstract: This article analyzes the formation and development of the state policy aimed at the preservation and restoration of historical and architectural monuments in the territory of Uzbekistan based on historical sources and scholarly literature. The study examines the close relationship between the construction and urban development policy of the Timurid period and the system of state governance, identifies the specific features of the Russian Empire’s policy toward historical monuments, and highlights the organizational and legal foundations of cultural heritage protection during the Soviet period.

Keywords: historical and architectural heritage, cultural heritage, state policy, restoration, conservation, Timurid period, Russian Empire, Soviet period, architectural monuments.

Kirish: Tarixiy-me’moriy meros xalqning ko‘p asrlik bunyodkorlik tajribasi, ilmiy tafakkuri va madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassamlashtiruvchi noyob tarixiy manba hisoblanadi. Me’moriy obidalar nafaqat ma’lum bir davrning qurilish texnologiyalari yoki badiiy didini aks ettiradi, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy taraqqiyot, diniy-ma’rifiy hayot va ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining ham muhim ko‘rsatkichidir. Shu bois ularni saqlash va asrab-avaylash masalasi tarixning turli bosqichlarida davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib kelgan.

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda bunyod etilgan me’moriy obidalar jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz singari tarixiy shaharlarning me’moriy qiyofasi turli davrlarda amalga oshirilgan bunyodkorlik siyosati natijasida shakllangan. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida yirik me’moriy inshootlar qurilishi bilan bir qatorda mavjud obidalarni ta’mirlash, obodonlashtirish va ularning uzoq muddat saqlanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Keyingi tarixiy davrlarda esa mazkur yo‘nalish siyosiy tuzum, iqtisodiy imkoniyat va mafkuraviy qarashlarga qarab turlicha mazmun kasb etdi.

Adabiyotlar sharhi: O‘zbekistonda tarixiy-me’moriy merosni muhofaza qilish va restavratsiya qilish masalalari tarix, me’morchilik, madaniyatshunoslik hamda merosni boshqarish yo‘nalishlarida olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, Temuriylar davridagi bunyodkorlik siyosati, me’moriy inshootlarning qurilishi va ularni saqlash masalalari Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy hamda Hofiz Abru asarlarida muhim tarixiy manba sifatida o‘z aksini topgan. Rossiya imperiyasi va sovet davrida tarixiy obidalarni o‘rganish hamda ularni muhofaza qilish masalalari Vasily Bartold, Mikhail Masson, Galina Pugachenkova, Lev Rempel kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mustaqillik yillarida madaniy merosni muhofaza qilish, restavratsiya ishlari va tarixiy obidalarni asrashning huquqiy hamda tashkiliy asoslari yuzasidan o‘zbekistonlik olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlarda tarixiy-me’moriy merosni saqlashning zamonaviy mexanizmlari, xalqaro tajriba, milliy qonunchilik hamda davlat dasturlarining ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy va kompleks tahlil metodlari asosida olib borildi. Mavzuga oid arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy monografiyalar, maqolalar hamda restavratsiya sohasiga oid maxsus adabiyotlar tahlil qilindi. Tarixiy jarayonlarning rivojlanish dinamikasini yoritishda davrlashtirish usulidan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy-me’moriy obidalarni muhofaza qilish tizimining shakllanishini baholashda institutsional va funksional tahlil metodlari qo‘llanildi. Bu yondashuv turli tarixiy davrlarda davlat siyosatining mazmuni va yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish imkonini berdi.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida tarixiy obidalarga nisbatan ikki xil yondashuv kuzatildi. Bir tomondan, Sharq me’morchiligini ilmiy jihatdan o‘rganishga qiziqish ortdi, ikkinchi tomondan esa mustamlakachilik manfaatlari ayrim tarixiy obidalarning buzilishi yoki asl qiyofasini yo‘qotishiga sabab bo‘ldi. Sovet davrida esa tarixiy-me’moriy merosni davlat muhofazasiga olishning institutsional asoslari yaratildi, maxsus boshqaruv organlari tashkil etildi va restavratsiya ishlari ilmiy asosda yo‘lga qo‘yildi. Biroq bu jarayon mafkuraviy yondashuv ta’siridan xoli bo‘lmadi va ayrim tarixiy yodgorliklar siyosiy sabablar tufayli yo‘q qilindi yoki ulardan asl vazifasiga zid ravishda foydalanildi. Maqolaning maqsadi O‘zbekistonda tarixiy-me’moriy obidalarni saqlash va ta’mirlash davlat siyosatining shakllanish bosqichlarini tarixiylik, uzviylik va vorisiylik tamoyillari asosida tahlil qilish, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tarixiy ahamiyatini ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

O‘zbekistonda mavjud me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash va qayta tiklash masalasi davlat

siyosati darajasiga ko‘tarilishi o‘rta asrlardan boshlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davriga kelib ta’mirlash, obodonlashtirish hamda yangidan qurish amaliyoti rivojlandi. Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davrida nafaqat qadimiy Zarafshon vohasi, balki butun O‘rta Osiyo o‘zining navbatdagi iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy yuksalish pallasiga kirgan. Ayniqsa, Zarafshon vohasi asrlar davomida rivojlanib kelayotgan me’morchilik an’analarini davom ettirib, Temuriylar davlatining markaziy madaniy o‘choqlaridan biriga aylangan. Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davrini me’moriy obidalarni muhofaza qilish hamda qurilish-ta’mirlash ishlari ilk bor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan davr sifatida e’tirof etish mumkin.

O‘rta Osiyo hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixiy-me’moriy obidalarga bo‘lgan munosabatda, ularni saqlash, ta’mirlash konservatsiyalash jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. Albatta, chor Rossiyasi hukumati, avvalambor, o‘zining iqtisodiy va siyosiy manfaatlari yuzasidan ushbu hududga nisbatan siyosat olib borganligini ta’kidlab o‘tish kerak. Ta’kidlash joizki, bu davrda mahalliy obidalarni ta’mirlash ishlariga ularni ilmiy jihatdan o‘rganishga qaraganda ancha kam e’tibor qaratilgan. Qolaversa, mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, XVIII asr hamda XIX asr boshida barpo etilgan obidalardan avvalroq qurilgan me’moriy obidalar, jumladan, Samarqanddagi bino va inshootlar o‘ta ayanchli holatga tushib qolgan edi [1, 15].

Mutaxassislar tili bilan aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshida (avval davlat, keyinchalik turli jamiyatlar mablag‘lari hisobidan) amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari obidalar buzilishini oldini ololmagan. Bunda vaqt, zilzila va hatto odamlarning ham ta’siri sezilarli bo‘lgan. O‘sha davr hukumati harbiy-strategik «mulohazalar»dan kelib chiqib, ayrim binolarni buzib tashlagan ham. Masalan, 1883-yilda Samarqand qal’asini rekonstruksiya qilish maqsadida Qutbi Chaxar duxum yodgorligi portlatilgan [1, 15]. Yoki Amir Temur tomonidan so‘fiylar shayxi Nur ad-Din Basiraga atab qurdirilgan va ko‘lami jihatidan Go‘r Amirdan qolishmaydigan maqbara ham XIX asr oxirida ushbu «amaliyot» qurboni bo‘lgan. Shayxning jasadi esa Hazrat Xizr masjidi yonidagi qabristonga ko‘chirilgan [2, 13]. O‘sha vaqtda ushbu jarayonni to‘xtatib qoladigan, nazorat qiladigan maxsus davlat organi ham tashkil etilmagan edi.

Saqlanib qolgan noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish ishlari XX asr boshiga kelibgina davlat ixtiyoriga olindi. Ushbu obyektlar 1920-yildan boshlab tashkil qilina boshlagan yodgorliklarni muhofaza qiluvchi maxsus davlat organi tasarrufiga o‘tkazila boshlandi.

1968-yilda respublikamizda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan ishlar uchun muhim voqea yuz berdi – «Madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqida» qonun qabul qilindi [2, 4]. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu hujjat sobiq Ittifoq darajasidagi ana shunday qonundan 8 yil oldin qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq respublika hukumati tomonidan uning qo‘llanishiga doir yo‘riqnoma, moddiy madaniyat yodgorliklarni qo‘riqlash hududlari va ular atrofida binolar qurilishini tartibga solish haqidagi nizom, O‘zbekiston hududida arxeologik qazilmalar va qidiruv ishlarini amalga oshirish huquqi borasidagi yo‘riqnoma tasdiqlandi. Shu bilan birga, 1968-yil 30 avgustda O‘zbekiston hukumatining qarori bilan ilgarigi Qo‘mita Yodgorliklar va tasviriy san’atni muhofaza qilish bosh boshqarmasiga aylantirildi [3].

Umuman olganda, yodgorliklarni himoya qilish haqidagi qonun obidalarni yo‘q bo‘lib ketish yoki qasddan buzib tashlanishdan himoya qilibgina qolmay, respublikada yodgorliklarni muhofaza va restavratsiya qilish ishlari yanada takomillashuviga ham xizmat qildi. Hamma joyda tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganish va hisobga olishga oid me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahamiyatini hisobga olib, Respublika hukumati 1975-yildan boshlab ularning muhofazasi uchun ajratiladigan mablag‘ hajmini sezilarli darajada

ko‘paytirdi. Bu esa yodgorliklarni himoya qilish organlariga o‘z faoliyatini yanada kuchaytirish imkonini berdi va shu tufayli respublikada barcha ko‘chmas yodgorliklarni qayta ro‘yxatga olish ishlari amalga oshirildi. Davlat muhofazasiga olingan yodgorliklarning yangi ro‘yxati tuzildi [3, 5].

Davlat muhofazasiga olish, ta’mirlash va konservatsiyalash ishlari ko‘lamining ortib borishi yagona boshqaruv organi tashkil etilishini taqozo etdi. Shu maqsadda, 1979-yil 24 fevraldan O‘zbekistonda madaniy yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat tizimi – O‘zbekiston SSR KP Markaziy komiteti va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 149-son Qarori bilan Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi (GlavNPU) tuzildi. Keyinchalik uning tarkibida loyihalash instituti, ilmiy-restavratsiya ishlab chiqarish tashkilotlari, shu jumladan, me’moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish, konservatsiyalash, ularning dekori bo‘yicha noyob ishlarni bajarishga ixtisoslashgan restavratsiya ustaxonasi ham tashkil qilindi.

Ammo, yuqorida qayd etganimizdek, davlat darajasida madaniy yodgorliklarni himoya qilish borasida bir qator ishlar qilinishiga qaramay, uzoq yillar davomida hukm surgan nigilizm va uy-joy qurilishiga bir tomonlama ommaviy yondashuv oqibatida ko‘plab arxitektura yodgorliklari buzib tashlandi. Xususan, 1989-yilga kelib sobiq Ittifoqda mavjud 2176 shahardan 800 tasi tarixiy shaharlar ro‘yxatidan o‘rin olgan edi. Ulardan 127 tasi umumittifoq darajasidagi tarixiy shaharlar hisoblangan. Shu bilan birga, mamlakatdagi shaharlarning yarmidan ko‘pida tarixiy fondning moddiy eskirishi 40–60 % ni tashkil etgan edi [4, 5]. Shuningdek, tarixiy ahamiyatga ega bir qancha shaharlarda ta’mirlash ishlari olib borilishiga qaramay, bu boradagi ishlar sust va tizimsiz bajarilganligi qayd etilgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonda tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish va ta’mirlashga oid sovet davri amaliyoti respublikada bu sohada tajriba to‘plashga, ta’mirlash ishlari bo‘yicha O‘rta Osiyo maktabi shakllanishiga olib keldi. Bundan tashqari, respublikadagi tarixiy va me’moriy obidalarni ro‘yxatga olish ishi muntazam yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 1980-yillar oxiriga kelib, respublikada 7 mingdan ortiq yodgorliklar, shu jumladan 575 ta tarixiy, 1457 ta san’at, 545 ta arxitektura va 4 mingdan ortiq arxeologik yodgorliklar davlat himoyasiga olindi [5, 12]. O‘zbekistonning me’moriy obidalarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritildi.

Ammo sobiq Ittifoq davrida qo‘lga kiritilgan ijobiy yutuqlarga nisbatan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan madaniy merosga bo‘lgan g‘oyaviy-mafkuraviy yondashuvning zararli ta’siri ko‘proq sezildi. Minglab tarixiy obidalar «revolyutsion» o‘zgarishlar ta’sirida buzib tashlandi, qolganlarining aksariyati esa tahqirlandi, madaniy merosligi inobatga olinmadi, ulardan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish ommalashdi. Asosiy arxitektura yodgorliklari ro‘yxatga olinib, davlat muhofazasiga o‘tkazilgan bo‘lsa-da, ularning restavratsiyasi va konservatsiyasi uchun juda kam mablag‘ ajratilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tarixiy-me’moriy obidalarni saqlash va ta’mirlash davlat siyosatining tarixiy shakllanishi va evolyutsiyasini tahlil qilish quyidagilardan dalolat beradi:

– birinchidan, O‘zbekiston hududida urbanistik taraqqiyot qadimiy davlatchilik an’analari bilan hamohang, tadrijiy tarzda kechganligi bois, Markaziy Osiyo miqyosida o‘ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. Natijada, ushbu hududda qadimdan shaharsozlik madaniyati, shu bilan birga, yirik me’moriy inshootlar qurish an’analari rivoj topdi va bu jarayon hozirgi kunga qadar bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi;

– ikkinchidan, O‘zbekiston hududida saqlanib qolgan monumental-me’moriy yodgorliklar asosan islom dini qaror topgan davrga to‘g‘ri keladi. Bular ibodatxona, davlat, jamoat, ishlab chiqarish va aholi uy-joylaridan iborat bo‘lib, mazkur inshootlarning rivojlanishi yuksak darajaga yetgan davr Amir Temur va Temuriylar faoliyati bilan bog‘liqdir. Tarixiy-me’moriy yodgorliklar o‘z davrining yutuqlari va innovatsion texnologiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa-da,

biroq vaqt o‘tishi bilan tabiiy-iqlim sharoiti hamda inson faoliyati ta’siri natijasida yodgorliklarning moddiy eskirishi, asl holatining o‘zgarishi sodir bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX века). Ташкент, 1988. 15-бет.

2. Арапов А. Р. Памятники средневековой архитектуры Самарканда как явление современной культуры // Архитектура и строительство Узбекистана. 2005. № 1.С. 13.

3. ЎРМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА Политика государства по сохранению памятников в Узбекистане. С.5.

4. Протокол заседания коллегии Государственного строительного комитета СССР (Госстрой). № 15, от 26 мая 1987 г. С. 5.

5. Крюков К. С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920–1990 гг.) // Строительство и архитектура Узбекистана. 1991. № 2. С. 12.

XX ASRNING 20–80 YILLARIDA SAMARQAND TARIXIY O‘LKASHUNOSLIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o‘g‘li
Samarqand viloyati Urgut tumani 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Samarqand tarixiy o‘lkashunosligining XX asrning 20–80 yillaridagi shakllanish va rivojlanish jarayoni tarixiy-qiyosiy va muammoli-xronologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Sovet davri institutsional tuzilmalari, ilmiy ekspeditsiyalar faoliyati hamda mahalliy tadqiqotchilar ishtirokidagi o‘lkashunoslik yo‘nalishlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Samarqand o‘lkashunosligi tarixi uch asosiy bosqichga bo‘lib tahlil qilinadi va har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, o‘lkashunoslik, Afrosiyob, arxeologik ekspeditsiya, Sredazkomstaris, tarixiy institutsionalizatsiya, sovet tarixshunosligi, mahalliy tarix.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО КРАЕВЕДЕНИЯ САМАРКАНДА В 20–80-е ГОДЫ XX ВЕКА

Аннотация. В статье на основе историко-сравнительного и проблемно-хронологического подходов анализируется процесс формирования и развития исторического краеведения Самарканда в 20–80-е годы XX века. Рассматривается поэтапное развитие краеведческих направлений с учётом институциональных структур советского периода, деятельности научных экспедиций, а также участия местных исследователей. В результате исследования история самаркандского краеведения разделена на три основных этапа, для каждого из которых выявлены присущие ему особенности.

Ключевые слова: Самарканд, краеведение, Афрасиаб, археологическая экспедиция, Средазкомстарис, историческая институционализация, советская историография, местная история.

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SAMARKAND’S HISTORICAL LOCAL STUDIES IN THE 1920s–1980s

Abstract. The article analyzes the process of formation and development of Samarkand’s historical local studies (local history / o‘lkashunoslik) during the 1920s–1980s, based on historical-comparative and problem-chronological approaches. It examines the stage-by-stage development of local-history research directions, taking into account the institutional structures of the Soviet period, the activity of scientific expeditions, and the participation of local researchers. As a result of the study, the history of Samarkand’s local studies is divided into three main stages, with the distinctive features of each stage identified.

Keywords: Samarkand, local studies (local history), Afrasiab, archaeological expedition, Sredazkomstaris, historical institutionalization, Soviet historiography, local history.

KIRISH. Samarqand nafaqat O‘rta Osiyoning qadimiy madaniy markazlaridan biri, balki mintaqaviy tarixiy o‘lkashunoslik fanining shakllanish jarayonini o‘rganish uchun ham noyob obyekt hisoblanadi. XX asrning 20–80 yillari mobaynida Samarqand tarixini o‘rganish tizimli, institutsional asosga ega bo‘lgan ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Ushbu davrda o‘lkashunoslik faoliyati dastlab tarqoq, tashkiliy jihatdan tartibga solinmagan xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u davlat ilmiy muassasalari, xususan Fanlar akademiyasi tizimi

doirasida institutsionallashtirilgan yo‘nalishga aylandi [1; 7]. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, mustaqillik yillarida milliy tarixshunoslik tizimini qayta baholash jarayonida sovet davri o‘lkashunoslik tajribasining ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish zarurati yuzaga keldi. Samarqand misolida bu jarayonni o‘rganish nafaqat mahalliy tarix, balki umuman O‘rta Osiyo miqyosidagi o‘lkashunoslik institutlarining shakllanish qonuniyatlarini tushunishga imkon beradi [9; 10].

Tadqiqotning maqsadi XX asrning 20–80 yillarida Samarqand tarixiy o‘lkashunosligining institutsional shakllanishi, asosiy tadqiqot yo‘nalishlari va bu jarayonda ishtirok etgan ilmiy markazlar faoliyatini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, davrni ichki bosqichlarga ajratish va har bir bosqichning institutsional xususiyatlarini aniqlash; ikkinchidan, asosiy ekspeditsiyalar va ularning ilmiy natijalarini tizimlashtirish; uchinchidan, mavjud tarixshunoslik manbalari asosida yo‘nalishning umumiy rivojlanish tendensiyalarini belgilash.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Tadqiqot metodologik asosini tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik va tizimli-struktura yondashuvlari tashkil etadi. Tarixiy-qiyosiy metod turli davrlardagi institutsional shakllarni o‘zaro qiyoslash imkonini bersa, muammoli-xronologik yondashuv davrni izchil bosqichlarga bo‘lib, har bir bosqichda yuzaga kelgan asosiy muammolarni aniqlashga xizmat qiladi. Tizimli-struktura tahlili esa o‘lkashunoslik institutlari, ekspeditsiyalar va nashriyot faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga yordam beradi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Samarqand o‘lkashunosligi tarixi bir qator yo‘nalishlarda o‘rganilgan. V. V. Bartold ishlarida mo‘g‘ullar bosqini davri va undan keyingi Samarqand tarixi keng yoritilgan bo‘lib, ular keyingi barcha tadqiqotlar uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qildi [1]. M. Ye. Masson va V. A. Shishkinning Afrosiyob bo‘yicha monografik tadqiqotlari 1940–1960-yillardagi arxeologik o‘lkashunoslikning ilmiy asosini shakllantirdi [2; 3]. Yu. F. Buryakov ishlarida Samarqand va uning atrofidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning tizimli katalogizatsiyasi amalga oshirilgan [4]. B. A. Litvinskiy tahriri ostidagi jamoaviy nashrda O‘rta Osiyo arxeologiyasining umumiy metodologik yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan [5], S. P. Tolstov esa Amudaryo va Sirdaryo etaklaridagi tadqiqotlari orqali mintaqaviy o‘lkashunoslikning kengroq kontekstini yaratdi [6].

Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan manba B. V. Luninning O‘rta Osiyoda arxeologik o‘rganish tarixiga bag‘ishlangan asari bo‘lib, unda o‘lkashunoslik institutlarining shakllanish jarayoni birinchi marta tizimli tarzda bayon etilgan [7]. I. M. Muminov tahriri ostida chop etilgan ikki jildlik «Samarqand tarixi» esa shahar tarixining barcha jihatlarini qamrab olgan yirik jamoaviy tadqiqot hisoblanadi [8]. So‘nggi yillardagi tadqiqotlar, xususan U. Tursunovning Samarqanddagi arxeologik ekspeditsiyalar tarixiga bag‘ishlangan maqolasi [13] va D. Islomovning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Samarqand aholisi tarixi o‘rganilishiga oid ishi [14], mavzuni zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan boyitadi. O‘.S. Nazarovning tadqiqoti esa 1946–1991-yillarda Samarqand viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali o‘lkashunoslik sohasining so‘nggi bosqichi haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi [15].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘tkazilgan tahlil asosida Samarqand tarixiy o‘lkashunosligining shakllanish jarayonini uch asosiy bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich (1920–1930-yillar) Turkiston komiteti (Sredazkomstaris) va mahalliy bo‘limlarning tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda o‘lkashunoslik faoliyati asosan tasviriy-tavsifiy xarakterga ega edi. Ikkinchi bosqich (1940–1950-yillar) O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining tashkil topishi va Afrosiyob kabi yirik obyektlarda muntazam

ekspeditsiyalarning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Uchinchi bosqich (1958–1980-yillar) Afrosiyobning davlat muzey-qo‘riqxonasi maqomiga ega bo‘lishi, V. A. Shishkin boshchiligidagi doimiy ekspeditsiyaning tashkil etilishi va keyinchalik G. V. Shishkina rahbarligida tadqiqotlarning kengayishi bilan bog‘liq [3; 7; 13].

1-jadval. Samarqand o‘lkashunosligi institutsional rivojlanishining davrlashtirilishi (1920–1980)

Bosqich	**Xronologik chegara**	**Asosiy institutsional shakl**	**Yetakchi tashkilotchilar**
I bosqich	1920–1939	Sredazkomstaris, mahalliy bo‘limlar	Dastlabki mutaxassislar guruhi
II bosqich	1940–1957	FA institutlari, Samarqand bazasi	A.I. Terenojkin
III bosqich	1958–1980	Doimiy Afrosiyob ekspeditsiyasi	V.A. Shishkin, G.V. Shishkina

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, institutsional rivojlanish chiziqli emas, balki har bir bosqichda sifat jihatidan yangi darajaga o‘tish kuzatiladi. Birinchi bosqichda tashkiliy asos yo‘q edi, ikkinchi bosqichda davlat ilmiy muassasalari paydo bo‘ldi, uchinchi bosqichda esa uzoq muddatli, izchil ekspeditsion faoliyat tizimi shakllandi. Bu jarayon Lunin va Buryakov asarlarida ham tasdiqlangan umumiy tendensiyaga mos keladi [4; 7]. Ikkinchi jihat, ya’ni tadqiqot yo‘nalishlarining mazmuniy tarkibi bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, davr mobaynida o‘lkashunoslikning predmet doirasi kengayib bordi.

2-jadval. XX asr 20–80 yillarida Samarqand o‘lkashunosligining asosiy tadqiqot yo‘nalishlari

Yo‘nalish	**Faollashgan davr**	**Vakil tadqiqotchilar**
Topografik-tavsifiy tadqiqotlar	1920–1930	Dastlabki o‘lkashunoslar
Stratigrafik-arxeologik tadqiqotlar	1940–1960	A.I. Terenojkin, M.Ye. Masson
Irrigatsiya va shahar rejalashtirish tarixi	1960–1970	A.R. Muhammadjonov
Ijtimoiy-iqtisodiy tarix	1970–1980	Mahalliy tarixchilar guruhi

2-jadvaldan ko‘rinadiki, dastlabki tavsifiy yo‘nalishdan stratigrafik-ilmiy metodologiyaga o‘tish, so‘ngra irrigatsiya tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga e’tibor qaratilishi o‘lkashunoslikning predmet doirasi kengayganini ko‘rsatadi. Bu jarayon Rtveladze va Stark, Rubina tadqiqotlarida qayd etilgan umummintaqaviy tendensiyalarga mos keladi, ya’ni O‘rta Osiyo o‘lkashunosligi asta-sekin sof arxeologik tavsifdan kompleks tarixiy-madaniy tahlilga o‘tdi [11; 12]. Shu bilan birga, Islomov va Nazarov tadqiqotlari sovet davri oxiriga kelib o‘lkashunoslikning demografik va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab ola boshlaganini ko‘rsatadi, bu esa yo‘nalishning fan sifatida yetuklashganidan dalolat beradi [14; 15].

Shuningdek, tahlil natijalari o‘lkashunoslik institutlarining rivojlanishi davlat siyosati bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Fanlar akademiyasi tizimining shakllanishi, Afrosiyobning davlat himoyasiga olinishi kabi qarorlar o‘lkashunoslik faoliyatining institutsional mustahkamlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi [8; 9]. Bu esa Samarqand misolida o‘lkashunoslik fanining rivojlanishi faqat ilmiy jamoatchilik tashabbusi bilangina emas, balki davlat ilmiy siyosati bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi.

Samarqand o‘lkashunosligining institutsional rivojlanishini yanada chuqurroq tahlil qilganda, bu jarayonda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining alohida o‘rin tutganini ta’kidlash lozim. Dastlabki bosqichlarda o‘lkashunoslik faoliyati bilan asosan tashqaridan kelgan mutaxassislar

shug‘ullangan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan mahalliy kadrlar tayyorlash masalasi dolzarblashib bordi. Oliy o‘quv yurtlarida tarix va arxeologiya yo‘nalishlarining ochilishi, shuningdek ilmiy-tadqiqot institutlarida aspirantura tizimining joriy etilishi natijasida 1960–1970-yillarga kelib mahalliy tadqiqotchilar ulushi sezilarli darajada oshdi. Bu holat o‘lkashunoslik faoliyatining nafaqat tashkiliy, balki kadrlar salohiyati nuqtai nazaridan ham mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Shuningdek, o‘rganilayotgan davrda o‘lkashunoslik faoliyatining nashriyot faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini alohida qayd etish zarur. Ilmiy jurnallar, to‘plamlar va monografik nashrlarning yo‘lga qo‘yilishi tadqiqot natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish imkonini berdi. Ayniqsa, ilmiy-ommabop nashrlar orqali Samarqand tarixiga oid ma’lumotlarning keng qatlamlarga yetkazilishi o‘lkashunoslikning nafaqat akademik, balki ma’rifiy-tarbiyaviy vazifasini ham kuchaytirdi. Bu jihat sovet davri o‘lkashunosligining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u fanni faqat mutaxassislar doirasi bilan cheklamaslikka intilgan edi.

Alohida ta’kidlash joizki, ushbu davrda o‘lkashunoslik faoliyati ma’lum darajada mafkuraviy omillar ta’sirida ham shakllangan. Tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda formatsion yondashuvning ustuvorligi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlariga alohida e’tibor qaratilishi natijasida ba’zi tadqiqotlarda mahalliy tarixiy jarayonlarning o‘ziga xosligi yetarlicha yoritilmagan holatlar ham uchraydi. Shu bilan birga, bu holat davr tadqiqotlarining ilmiy qimmatini butunlay inkor etmaydi, aksincha, ularni zamonaviy tanqidiy nuqtai nazardan qayta baholash zaruratini kuchaytiradi.

Samarqand o‘lkashunosligining rivojlanish jarayonida hududiy va tarmoqlararo hamkorlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Toshkent, Samarqand va boshqa ilmiy markazlar o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi, qo‘shma ekspeditsiyalar tashkil etilishi hamda umumiy metodologik konferensiyalarning o‘tkazilishi natijasida o‘lkashunoslik faoliyati alohida ajratilgan tor doiradan chiqib, kengroq ilmiy tarmoqning tarkibiy qismiga aylandi. Bunday hamkorlik shakllari, xususan tarix, arxeologiya, san’atshunoslik va geografiya sohalari vakillarining birgalikda ishlashi, o‘lkashunoslikning fanlararo xarakter kasb etishiga zamin yaratdi. Natijada Samarqand tarixini o‘rganish endi faqat arxeologik qazishmalar bilan cheklanmay, balki shahar tarixi, aholi tarixi, xo‘jalik va ijtimoiy tuzilma masalalarini ham qamrab oluvchi kengroq tadqiqot maydoniga aylandi.

Bundan tashqari, o‘lkashunoslik faoliyatining moddiy-texnik ta’minoti masalasi ham davr mobaynida sezilarli o‘zgarishlarga uchraganini ta’kidlash lozim. Dastlabki bosqichlarda tadqiqotlar cheklangan resurslar va oddiy uslubiy vositalar asosida olib borilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobiga zamonaviy tadqiqot uskunalari, laboratoriya sharoitlari va restavratsiya ishlari uchun maxsus guruhlarning tashkil etilishi kuzatiladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, tadqiqotlar sifatining oshishiga, olingan natijalarning ilmiy asoslanganlik darajasi yuksalishiga xizmat qildi. Shu tariqa, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi institutsional rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi.

Yakuniy jihat sifatida shuni qayd etish mumkinki, Samarqand o‘lkashunosligining institutsional va mazmuniy rivojlanishi bir-biriga parallel ravishda kechgan ikki jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Institutsional jihatdan tarqoq faoliyatdan markazlashgan ilmiy tizimga o‘tish kuzatilgan bo‘lsa, mazmuniy jihatdan esa tor mavzuiy doiradan kompleks, ko‘p qirrali tadqiqot yo‘nalishlariga o‘tish yuz berdi. Bu ikki jarayonning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida XX asr oxiriga kelib Samarqand o‘lkashunosligi nisbatan yetuk, o‘z metodologik asosiga ega bo‘lgan ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, XX asrning 20–80 yillarida Samarqand tarixiy o‘lkashunosligi uch bosqichli institutsional evolyutsiyani bosib o‘tdi: tarqoq tavsifiy faoliyatdan

davlat ilmiy muassasalari tizimigacha, so‘ngra esa uzoq muddatli, kompleks ekspeditsion tadqiqotlar bosqichigacha. Bu jarayon nafaqat institutsional, balki mazmuniy jihatdan ham rivojlanib bordi: topografik-tavsifiy yondashuvdan stratigrafik-ilmiy metodologiyaga, keyinchalik esa irrigatsiya tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy tahlilga o‘tish kuzatildi. Samarqand o‘lkashunosligi tarixini o‘rganish O‘rta Osiyo miqyosidagi o‘lkashunoslik institutlarining umumiy rivojlanish qonuniyatlarini tushunish uchun muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu jarayonning mustaqillik davridagi transformatsiyasi bilan qiyosiy tahlili dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Восточная литература, 1963. – Т. 1–2. – URL: https://archive.org/details/turkestanmongol

Массон М. Е. Древний Самарканд (Афрасиаб). – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950. – URL: https://search.rsl.ru/

Шишкин В. А. Афрасиаб – древнее городище Самарканда. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1963. – URL: https://search.rsl.ru/

Буряков Ю. Ф. Историко-культурные памятники Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1974. – URL: https://www.elibrary.ru/

Литвинский Б. А. (ред.) Археология СССР. Средняя Азия и Казахстан. – М.: Наука, 1986. – URL: https://www.academia.edu/

Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во АН СССР, 1962. – URL: https://archive.org/

Лунин Б. В. История археологического изучения Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1958. – URL: https://search.rsl.ru/

История Самарканда. В 2-х томах / Под ред. И. М. Муминова. – Ташкент: Фан, 1969–1971. – URL: https://search.rsl.ru/

Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. Самарқанд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – URL: https://n.ziyouz.com/

Аскаров А. А. История Узбекистана. Древность и раннее средневековье. – Ташкент: Фан, 2007. – URL: https://ziyonet.uz/

Rtveladze E. V. Civilizations, States and Cultures in Central Asia. – Tashkent: San’at, 2005. – URL: https://www.worldcat.org/

Stark S., Rubina E. Archaeology of Uzbekistan in the Twentieth Century // Bulletin of the Asia Institute. – 2013. – URL: https://www.jstor.org/

Tursunov U. The History of Archaeological Expeditions Conducted in Samarkand // Technical Science Research in Uzbekistan. – 2024. – Vol. 2. – № 10. – P. 92–97. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/60590

Islomov D. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand aholisi tarixining o‘rganilishi // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – № 47(5). – B. 35–37. – URL: https://newjournal.org/01/article/view/15047

Назаров Ў. С. Самарқанд вилояти 1946–1991 йилларда: иқтисодий юксалиш ва ижтимоий ўзгаришлар // Қўқон ДПИ Илмий ахборотлари. – 2026. – URL: https://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/article/view/860

ZAR BILAN BITILGAN TARIX VA ZAMONAVIYLIK

Norova Dildora Radjabovna (O‘zbekiston)
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro zardo‘zlik san’atining tarixiy taraqqiyoti va bugungi kundagi transformatsion jarayonlari ilmiy tadqiq etilgan. Zardo‘zlikning amirlik davridagi «saroy san’ati» maqomidan hozirgi zamon sanoat va tadbirkorlik darajasigacha bo‘lgan bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada sohaning ijtimoiy o‘zgarishlari, xususan, ilgari faqat erkaklarga xos bo‘lgan bu hunarning sovet davridan boshlab ayollar tomonidan o‘zlashtirilishi va bugungi kunda xotin-qizlarning yetakchi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotning markaziy qismini an’anaviy qo‘l mehnati va zamonaviy kompyuterlashtirilgan dastgohlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tashkil etadi. Dala kuzatuvlariga tayanib, Galaosiyo va G‘ijduvon kabi hududlardagi hunarmandlar faoliyati, zamonaviy texnologiyalarning ish unumdorligiga ta’siri hamda xalqaro buyurtmalar xususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro zardo‘zligi, transformatsiya, saroy san’ati, korcho‘b (yog‘och dastgoh), gulbur (gul qirquvchi), kompyuterlashtirilgan dastgoh.

ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ ВЫШИТЫЕ ЗОЛОТОМ

Аннотация:В данной статье научно исследуются историческое развитие и современные трансформационные процессы Бухарского золотошвейного искусства. Анализируются этапы становления золотошвейного дела — от статуса «дворцового искусства» в период эмирата до современного уровня промышленности и предпринимательства. В статье освещаются социальные изменения в отрасли, в частности, освоение женщинами этого ремесла, которое ранее считалось исключительно мужским, начиная с советского периода, и ведущая роль женщин в этой сфере сегодня.

Центральную часть исследования занимает взаимосвязь между традиционным ручным трудом и современными компьютеризированными станками. На основе полевых наблюдений рассматривается деятельность ремесленников в таких регионах, как Галаасия и Гиждуван, влияние современных технологий на производительность труда, а также особенности международных заказов.

Ключевые слова: Бухарское золотошвейное искусство, трансформация, дворцовое искусство, корчуб (деревянный инструмент), гульбур (резчик узоров), компьютеризированный станок.

HISTORY AND MODERNITY REFLECTED IN GOLD EMBROIDERY

Abstract: This article provides a scientific study of the historical development and modern transformational processes of Bukhara’s gold embroidery art. It analyzes the stages of gold embroidery from its status as «palace art» during the Emirate period to its current level of industrial and entrepreneurial development. The article highlights the social shifts within the field, specifically the transition of this craft—formerly exclusive to men—to being mastered by women starting from the Soviet era, and the leading role of women in the craft today. The core of the research focuses on the connection between traditional manual labor and modern computerized

machinery. Based on field observations, the study discusses the activities of artisans in regions such as Galaosiyo and Gijduvan, the impact of modern technologies on labor productivity, and international orders.

Keywords: Bukhara gold embroidery, transformation, palace art, korchub (wooden frame), gulbur (pattern cutter), computerized embroidery machine.

Buxoro qadimdan zardo‘zlik san’atining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga tanilgan. Tilla kashtachilik butun dunyoda asrlar davomida Buxoro shon-shuhratini ulug‘lab kelgan. Shahar o‘z hunarmandlari va ularning ijodi bilan haqli ravishda faxrlanadi, ularning ba’zilari turli mamlakatlardagi muzeylar va ko‘rgazma zallarida saqlanadi. Bugungi kunda ushbu san’at an’anaviy va zamonaviy usullar uyg‘unligida rivojlanmoqda.

O‘rta asrlarda Samarqand va Hirotda zardo‘zlik markazlari mavjud bo‘lib, faqatgina Buxoroda hunarmandchilik saroy san’ati darajasiga ko‘tarilgan. Poytaxt Buxoroda XVI asrdan boshlab zardo‘zlik buyuk hukmdorlar homiyligida bo‘lgan. Zardo‘zlik hunari asrlar davomida Buxoro vohasida rivojlangan va o‘ziga xos maktabga ega bo‘lgan. Shohona zardo‘zlik mahsulotlarini tikish va uni kiyish Buxoroga xos xususiyat bo‘lgani boiz eng katta amirlik zardo‘zlik kolleksiyasi vujudga kelgan [4, b.136].

Saroy zardo‘zlik ustaxonalari Buxoro arkida, poshsholik binolarida oliy davlat amaldorlarining hovlilarida joylashgan bo‘lib, ular amir xazinasi tomonidan ta’minlab turilgan [1, b. 12]. Zardo‘zlarning katta saroy ustaxonasining tashkil etilishi amir Muzaffarxon (1860–1885) nomi bilan bog‘liq. Uning vorisi Ahadxon davrida (1885–1910) bu kabi yarim manufaktura tipidagi ustaxonalarning uchtasi, Arkda, qushbegining uyida va qozikalonning huzurida faoliyat ko‘rsatgan [2, c. 245].

Buxoro shahrining o‘ndan ortiq guzarida zardo‘zlar istiqomat qilishgan. Xususan, shaharning janubiy-g‘arbida joylashgan Mirdo‘stim guzari “Guzari Zardo‘zon” deb ham yuritilgan [3, c.285.].

Zardo‘zlik san’ati bilan faqat erkaklar shug‘ullangan. Ayollarga bu ish bilan shug‘ullanish ta’qiqlangan. Ba’zi rivoyatlarda buxorolik ayollarning go‘zalligini ko‘rganda tilla iplar xiralashib, hashamatini, jilosini yo‘qotganligi aytiladi. Amir ustaxonasida nega faqat erkaklarga tilla tikishga ruxsat berilgan? Ehtimol, bu ish nozik ayollar uchun og‘ir ish bo‘lgandir.

Tilla kashtachilikning bezaklari boy bo‘lib, o‘simlik va hayvonot dunyosi naqshlari, geometrik naqshlar, murakkab kompozitsiyalar va boshqa naqshlarni o‘z ichiga olib, usta hunarmand gulbur gulqaychi yordamida dastlab teridan keyinchalik karton qog‘ozlardan mahorat bilan gullarni qirqgach, ustidan zar iplar bilan tikkan.

Sovet davrida zardo‘zlik ustalari artellarga birlashgach, ayollarga ushbu hunar bilan shug‘ullanish imkonini bergan. Bugungi kunda ayollar zardo‘zlik sohasida yetakchi bo‘lib, sanoqli erkak hunarmandlargina shug‘ullanib kelmoqda. Hozirda Buxoro zardo‘zlari o‘z hunarmandchilik maktablariga ega bo‘lib, ustoz-shogird an’analariga muvofiq shogirdlariga hunar sirlarini o‘rgatish barobarida, zamonaviy bezaklar yaratib kelmoqda.

Qo‘l mehnatiga asoslangan bitta asarni yaratish uchun bir necha oy vaqt talab etgan. Mashaqqatli jarayon uzoq davom etishi sabab buyurtmalar bir necha oy yoki 1 yil oldin qabul qilingan. Masalan bo‘yi yetgan qizga onasi kelinlik sepiga kiyadigan zardo‘zi liboslar, bosh kiyimini 1-2 yil oldin buyurtma qilgan. Shunda zardo‘z ustalar kerakli xom ashyolarni tayyorlab, shoshmay tikishgan. Muchal yoshidagi o‘smirlar uchun oldinroq do‘ppi, chopon (to‘n), lozim, oyoq kiyimi uchun buyurtma berilgan.

Bugun to‘ylarda zardo‘zi mahsulotlarga talab juda katta. Vohada asosan nikoh to‘ylar uchun zardo‘zi chimildiq, kuyov uchun maxsus zardo‘zi to‘n, zardo‘zi salla, zardo‘zi belbog‘, kelin

uchun zardo‘zi kamzul, zardo‘zi do‘ppi (kalapo‘sh), joypo‘sh (sandiq usti yopinchig‘i), zardo‘zi ko‘rpacha (taki chimildig‘i), zardo‘zi joynamoz, zardo‘zi yostiq va lo‘lalar, maxsus sallabandon marosimi uchun peshonaband, kultapo‘shak, zardo‘zi pesh kurtalar, sunnat to‘ylari uchun o‘g‘il bolalar zardo‘zi to‘ni (1 yoshdan 7 yoshgacha), zardo‘zi shohona sallalar tayyorlanmoqda. Usta hunarmand tadbirkorlar zardo‘zlik mahsulotlarini ijaraga berish bilan ham shug‘ullanishadi. Buyurtma asosida qo‘l mehnatida zardo‘zi mahsulotlarini tikish ancha vaqtni talab qiladi va narxi juda baland baholanadi. Shu sababdan mijozni mamnun qilish va hamyonbop mahsulotni taqdim qilish maqsadida hozirgi kunda usta hunarmand zardo‘zlar zar tikadigan dastgohlardan foydalanishadi. Dastgohlarning afzallik tomonlari bir necha oylik qo‘l ishini 2-3 kunda bajara oladi. Motori sovitib turilsa kun davomida tinmay ishlashi mumkin. Muhimi, kompyuterlashtirilgan, yuklangan dastur bo‘yicha zar iplarni o‘zi guliga, rangiga qarab almashtira oladi.

Bugungi kunda vohada zardo‘zlik hunarmanchiligida zamonaviy dastgohlarni ishlatish yo‘lga qo‘yilgan. Dala kuzatuvlari davomida ko‘pgina tumanlarida undan unumli foydalanilayotganini guvohi bo‘ldik.

Buxoro tumani Galaosiyo shaharchasidagi zardo‘zlardan biri 6 yoshidan zar tikkan, onasining ishlariga havas bilan korcho‘b (forscha, kor-ish, cho‘b-yog‘och) boshiga o‘tirib zar tikishni boshlagan. Hozirda faqat kompyuter dastgohida tayyorlanadigan buyurtmalar ustida ishlaydi. Samarqand va Toshkent shaharlariga ko‘proq buyurtma asosida tikadi. Zardo‘zlikning gullarini dizayner sifatida o‘zi chizadi. Dizaynerlar o‘rtasidagi raqobat zardo‘z hunarmandlarni takrorlanmaydigan gullarni yaratishga undamoqda [5].

Ma’lumki, O‘zbekistonda hurmatga sazovor mehmonlarga, davlat rahbarlariga zar chopon, podshohlar kiygan zardo‘zi chopon sovg‘a qilinadi. Xitoylik tadbirkorlardan biri Jeki Chan tug‘ilgan kuni uchun zardo‘zi chopon (to‘nni O‘zbekistonga maxsus buyurtma beradi. Galaosiyolik hunarmand buyurtmani kompyuter dastgohda 3 kunda tikib yetkazgan. Hunarmand mashhur futbolchi Karim Benzema uchun ham buyurtma asosida tez fursatda zar chopon tikkan. Choponning orqa qismida zar iplar bilan Karim Benzema degan yozuv ham tushirilgan.

G‘ijduvon tumanida yashovchi zardo‘z usta ham uyida zardo‘zlik sexi ochgan. Kompyuter dastgohi Xitoydan keltirilgan. Dizayner tomonidan, rassomdan gullarni fleshkada olib kompyuterga qo‘yiladi va barcha ishlarni kompyuterni o‘zi bajaradi. Iplar uzilib qolmasligi uchun nazorat qilinadi. Hozirgi kunda zardo‘zlik uchun zarlar asosan Dubay, Xitoy va Yaponiyadan keltiriladi. Xitoydan keltiriladigan zarlar arzon, Yaponiyadan keladigan zarlar qimmat va sifatlidir.

Oilaviy sexlarda doimo ustoz-shogird an’analariga rioya qilgan holda, yosh avlodga hunar sirlari o‘rgatilibgina qolmay, rag‘batlantirib turish, moddiy ta’minot va maosh ham to‘lab boriladi.

2023-yilda Xalqaro zargarlik va zardo‘zlik festivali uchun Buxoro tumani Mohitobon qishlog‘ida yashovchi usta zardo‘z hunarmand tomonidan 2x3 metr hajmda qo‘lda tikilgan zardo‘zi gilam juda yuqori baholangan. Qo‘lda juda nafis, nozik tikilgani uchun ushbu hunarmandning mahsulotlariga talab juda katta. Qo‘shni davlatlarga (Tojikiston, Qozog‘iston) ham qo‘lda tikilgan zardo‘zlik mahsulotlarini yetkazib berilmoqda.

Vohaning O‘zbakon qishlog‘ida gulbur (o‘zb.gul kesuvchi) ustalar saqlanib qolgan. Gulburlarqo‘lda gulqaychi yordamida gul qirqib, qadimiy an’anani saqlab qolganligi bilan boshqa gulburlardan farq qiladi. Hozirda kompyuterda lazer yordamida gullar qirqiladi. Maxsus gul qaychi yordamida gul kesish jarayon murakkab hisoblanadi. Avval yupqa karton qog‘ozga oq surf (yupqa paxta mato) yelimlanib, mato bilan karton qog‘oz birikib qurigach, so‘ngra ustidan gul chizilib gulqaychi yordamida qirqiladi. Gul qirqish mas’uliyatli, mashaqqatli jarayon, xatoga yo‘l qo‘yilsa gul buziladi. Hunarmandning qo‘llari temir qaychidan qavarib ketadi. Qaychi katta va og‘ir bo‘lishiga qaramasdan ushbu hunar bilan xotin-qizlar ham shug‘ullanib kelmoqda [6].

An’anaviy zardo‘zlik hunarida zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi va faol qo‘llanilishi transformatsion jarayonlarni boshlab berdi. Texnologiya dastgohlari sifatli tikishi, berilgan buyruqni to‘g‘ri bajarishi mumkin, ammo tabiiy idrok singari tasavvur qilish, kreativ ijodiy yondashuv, yangi g‘oyalar ustida ishlay olmaydi. Mazkur jihatdan hunarmandlarning qadri va mahsulotining qiymati doimo yuqori turadi.

Zamonaviy zardo‘zlik mashinalarining asosiy funksiyalarini avtomatik ip kesish, rang almashtirish, naqsh xotirasi, sensor ekran, USB orqali dizayn yuklash, metal ip(zar) bilan ishlash imkoniyatlaridan iborat. Zardo‘zlik mashinalarining afzalliklari juda tez ishlashi, bir xil sifat, katta hajmda ishlab chiqarish, murakkab naqshlarni tikishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga kamchiliklari ham bo‘lib, bunda dastgohning tez buzilishi, servis (ta’mir) muammosi, original brendlarga qaraganda sifati pastroq bo‘lishi mumkin.

Zardo‘zlik mashinalari orasida Dahao A15 rusumli dastgoh eng qulay va xaridorgir hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, 1920-yillarning o‘rtalarida sobiq saroy ustalari boshini qovushtirgan ilk artellar tuzila boshlandi. 1930-yilda Buxoroda bir nechta kichik guruhlar birlashib, “Zardo‘z” artelini tashkil qildi. Bu zardo‘zlikni uy mehnatidan jamoaviy ishlab chiqarishga o‘tishining ilk qadami edi. 1938-yilda Buxoro zardo‘zlik fabrikasiga asos solinadi. 1960-yilda artel negizida Buxoro zardo‘zlik fabrikasi rasman tashkil etildi. Bu davrda san’atda muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Hunar ayollar tomonidan keng o‘zlashtirila boshlandi. Mahsulotlar turi ko‘paydi: nafaqat kiyimlar, balki devoriy pannolar, teatr pardalari va bayroqlar tikish yo‘lga qo‘yildi. Fabrika mahsulotlari xalqaro ko‘rgazmalarda (Monreal, Osaka, Leypsig) oltin medallarni qo‘lga kiritdi. Mustaqillikdan so‘ng fabrika xususiylashtirildi va “ZARKON” aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Fabrikada qadimiy “gulduzi” va “zaminduzi” uslublari qayta tiklandi. Ana shu boy an’analarni davom ettirayotgan korxonalardan biri ZARKON hisoblanadi. Korxona Buxoro shahrida faoliyat yuritib, milliy zardo‘zlik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qadimiy hunarmandchilik an’analarini saqlash va rivojlantirish bilan shug‘ullanadi.

Zardo‘zlik san’ati Buxoroda asrlar davomida shakllanib, ayniqsa XIX asrda o‘zining yuksak taraqqiyot bosqichiga erishgan. Zardo‘zlik mahsulotlari oltin va kumush iplar yordamida baxmal, shoyi va boshqa qimmatbaho matolarga naqsh tushirish orqali yaratiladi. Buxoro zardo‘zlik maktabi o‘zining nafisligi, murakkab bezaklari va yuksak badiiy saviyasi bilan ajralib turadi.

“ZARKON” fabrikasida milliy to‘nlar, do‘ppilar, ayollar liboslari, sumkalar, sovg‘abop buyumlar, dekorativ pannolar, pardalar va boshqa zardo‘zi mahsulotlar faqat qo‘lda tayyorlanadi. Mahsulotlarda an’anaviy Buxoro naqshlari bilan bir qatorda zamonaviy dizayn elementlaridan ham foydalaniladi. Korxonaning asosiy vazifalaridan biri milliy madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlodga hunar sirlarini o‘rgatishdir. Fabrikada tajribali ustalar faoliyat yuritib, zardo‘zlikning qadimiy usullarini saqlab qolish va ularni kelajak avlodlarga yetkazishga katta e’tibor qaratadilar.

Bugungi kunda “ZARKON” fabrikasi nafaqat ishlab chiqarish korxonasi, balki Buxoroning madaniy va turistik salohiyatini namoyon etuvchi maskanlardan biri hisoblanadi. Uning mahsulotlari milliy hunarmandchilik an’analarini aks ettiruvchi noyob san’at asarlari sifatida qadrlanadi hamda O‘zbekistonning boy madaniy merosini targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Zardo‘zlik fabrikasida chet ellik sayyohlarga mahorat darslari ham tashkil etiladi. Sayyohlik tashkilotlarining mas’ul gid xodimlari kuzatuvida chet ellik mehmonlar zardo‘zlik san’ati bilan yaqindan tanishish, tikish jarayonlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, go‘zallik yaralishining guvohi bo‘lishadi. Shuningdek, ular uchun maxsus tayyorlangan korcho‘blarda zardo‘zi tikishlariga ham ruxsat beriladi.

Hozirgi kunda Buxoro zardo‘zlik hunari barhayotligini ta’minlayotgan, qadimiy hunarni davom ettirayotgan zamonaviy korxonalardan biri “Malika Sulton Zardo‘z” oilaviy korxonasidir. Korxona milliy hunarmandchilik an’analarini saqlash, rivojlantirish va zardo‘zlik mahsulotlarini

ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Korxona faoliyatining asosiy yo‘nalishi milliy zardo‘zi buyumlar, to‘nlar, do‘ppilar, ayollar liboslari, bezak buyumlari hamda suvenir mahsulotlarini tayyorlashdan iborat. Mahsulotlarni yaratishda an’anaviy Buxoro zardo‘zlik maktabining usullari va naqshlaridan keng foydalaniladi.

“Malika Sulton” oilaviy korxonasida tajribali ustalar faoliyat yuritib, zardo‘zlik san’atining avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan sir-asrorlarini yosh hunarmandlarga o‘rgatib kelmoqda. Bu esa milliy madaniy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat mahalliy bozorda, balki sayyohlar orasida ham katta qiziqish uyg‘otadi. Zardo‘zi buyumlar Buxoroning boy madaniy merosini aks ettiruvchi san’at namunasi sifatida qadrlanadi.

Bugungi kunda “Malika Sulton” oilaviy korxonasi milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda Buxoro zardo‘zlik maktabining nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Korxona faoliyati xalq amaliy san’ati an’analarini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Korxona nafaqat ishlab chiqarish, balki o‘quv va madaniy muassasa hisoblanadi. Markazda ustoz-shogird an’anasi asosida faoliyat yuritiladi. Markazda taxminan 100 nafarga yaqin usta va shogird faoliyat yuritadi. Ularning bir qismi tajribali zardo‘z ustalar bo‘lsa, qolganlari hunarni o‘rganayotgan yosh shogirdlardir.

Korxonada mahsulotlar asosan qo‘l mehnati asosida tayyorlanadi. Shu bilan birga zamonaviy tikuv va kashta mashinalari stanokdan ham foydalaniladi. Mahsulotlar qatoriga milliy liboslar, to‘y kiyimlari va suvenir buyumlar kiradi. Markazda katta sanoat dastgohlari emas, balki kichik va o‘rta hajmdagi kashta mashinalari ishlatiladi. Asosiy e’tibor qo‘l zardo‘zligiga qaratilgan bo‘lib, mashinalar yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Markaz mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki xorijiy davlatlarga ham eksport qilinadi. Ushbu markaz milliy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, yoshlarni kasbga o‘rgatish orqali bandlikni ta’minlaydi.

“Malika Sulton” oilaviy zardo‘zlik korxonasi Buxoro zardo‘zlik san’atining bugungi kundagi davomchilaridan biri bo‘lib, milliy qadriyatlar va hunarmandchilik an’analarini saqlash hamda targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi.

2026-yil 15–17-may kunlari bo‘lib o‘tgan “III Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivali” doirasida mahalliy va xorijiy hunarmandlar ishtirokida 12 ta nominatsiya bo‘yicha ko‘rik-tanlov tashkil etilgan bo‘lib, tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari xalqaro hay’at tomonidan yuqori baholanib, ko‘rik-tanlov doirasida “Eng yaxshi zardo‘zlik tashkiloti” nominatsiyasida 1-o‘rinni “Malika Sulton” korxonasi egalladi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi texnika taraqqiyoti zamonida qo‘l mehnatining dastgohlar, robotlar yordamida bajarilishi XXI asr yutug‘i, lekin shu bilan bir qatorda shunday sohalar borki uni faqat inson qo‘ligina mukammallikka yetkaza oladi. O‘zining betakrorligi, eksklyuziv ko‘rinishi bilan ko‘zni quvontiradi. Zardo‘zlik hunari ham shunday betakror, go‘zal hunar turiki, unda har bir usta zardo‘zning o‘z muhri, dastxati mujassamdir. Zar iplar bilan bezaklarni san’at darajasiga mukammal yetkazishga hech bir dastgohning qurbi yetmaydi. Avvalambor bunday san’at asarlarini yaratishda har bir hunarmand qalbida bajarayotgan ishiga nisbatan katta muhabbat, jasorat, sabr-toqat, go‘zal ilhom, keng dunyoqarash, xotirjamlik va mas’uliyat bo‘lishi kerak, shundagina ishida fayz va baraka bo‘ladi. Asrlar o‘tsada, texnika tarqqiyoti jadallik bilan rivojlansada zardo‘z usta hunarmandlarning qo‘l ishi hech qachon o‘lmaydi, unutilmaydi, balki ularning qo‘l hunarmandchiligiga bo‘lgan talabning oshishi va buning orqasidan katta daromad olib baraka topish kelajakda yosh avlodni ushbu hunarni o‘rganishga undaydi va Buxoro o‘z

zardo‘zlik mahsulotlari brendini yaratib dunyoga taniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Гончарова П. А. Бухоро зардўзлик санъати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1986. – Б.12.

Рempель Л. И. Далёкое и близкое. Бухарские записи. – Ташкент: Гафур Гулям, 1982. – С.245.

Сухарева О. А. Квартальная община позднефеодального города Бухары «в связи историей кварталов».– Москва: Наука, 1976. – С.285.

Қурбонова М. Б. Бухоро зарбоф кийим-кечаклари коллекцияси // Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. 2-китоб. – Тошкент, 2022. – Б.136.

Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Galaosiyo shaharchasi. 2025-yil mart.

Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro tumani, O‘zbakon qishlog‘i. 2025-yil mart.

Dala yozuvlari. Buxoro shahar I. Mo‘minov ko‘chasi 14-uy, Gold embroidery factory OOO ZARKON, tarixiy jihatdan Buxoro zardo‘z aksiyadorlik jamiyati (1991-yil). 2025-yil iyun.

Dala yozuvlari. Buxoro shahar Bahouddin Naqshband ko‘chasi 10/1-uy.”Malika Sulton zardo‘z” MCHJ, oilaviy korxonasi. 2025-yil yanvar

VARDONZE SAROY MAJMUASI ME'MORCHILIGI VA KULOLCHILIK SAN'ATI

Qosimova Mehrinoz Shokir qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasidagi muhim strategik yodgorlik - Vardonze qo'rg'onida 2018-yilda olib borilgan to'qqizinchi mavsumiy arxeologik qazishmalar natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar davomida aniqlangan ilk o'rta asrlar saroy majmuasi me'morchiligi, uning ostidagi antik davr mudofaa galereyalari va 3300 dan ortiq sopol ashyolardan iborat boy kulolchilik majmuasi o'rganilgan. Maqolada topilmalarning ilmiy tavsifidan tashqari, qazishma jarayonlarining tahlili ichiga muallifning shaxsiy yondashuvlari, xususan, saroy devoriy suratlarining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, kulolchilikdagi tamg'alarning mulkiy munosabatlarga ta'siri va numizmatik topilmalarning xronologik paradokslariga doir xususiy qarashlari organik tarzda singdirilgan.

Tayanch so'zlar: Vardonze, saroy me'morchiligi, devoriy suratlar, kulolchilik san'ati, Asbar tangasi, Qoraxoniylar, urbanizatsiya jarayonlari, Xolov, antik davr.

ARCHITECTURE AND CERAMIC ART OF THE VARDONZE PALACE COMPLEX

Annotation: This article analyzes the results of the ninth seasonal archaeological excavations conducted in 2018 at the Vardonze fortress, an important strategic monument in the Bukhara oasis. During the research, the architecture of the early medieval palace complex, the ancient defensive galleries beneath it, and a rich pottery complex consisting of more than 3,300 ceramic items were studied. In addition to the scientific description of the findings, the article organically incorporates the author's personal approaches to the analysis of excavation processes, specifically the socio-political essence of palace murals, the influence of ceramic tamgas on property relations, and his personal views on the chronological paradoxes of numismatic findings.

Keywords: Vardonze, palace architecture, wall paintings, pottery, Asbar coin, Karakhanids, urbanization processes, Kholov, antiquity.

АРХИТЕКТУРА И ГОНЧАРСКОЕ ИСКУССТВО ДВОРЦЕВОГО КОМПЛЕКСА ВАРДОНЗЕ

Аннотация: В данной статье анализируются результаты девятых сезонных археологических раскопок, проведенных в 2018 году на важном стратегическом памятнике Бухарского оазиса - крепости Вардонзе. В ходе исследований были изучены архитектура раннесредневекового дворцового комплекса, расположенные под ним античные оборонительные галереи и богатый керамический комплекс, состоящий из более чем 3300 керамических изделий. Помимо научного описания находок, в статье органично включены личные подходы автора к анализу раскопок, в частности, общественно-политическая сущность дворцовых росписей, влияние керамических тамг на имущественные отношения и его собственные взгляды на хронологические парадоксы нумизматических находок.

Ключевые слова: вардонзе, дворцовая архитектура, настенные рисунки, гончарное искусство, Асбарская монета, Караханиды, процессы урбанизации, Холов, античный период.

Kirish. O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharsozlik va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan

Buxoro vohasi o‘zining ko‘plab arxeologik yodgorliklari bilan jahon ilm-fani diqqat markazida turadi. Ana shunday strategik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlardan biri Vardonze (Vardanzeh) qo‘rg‘onidir. Ushbu maqolada yodgorlikda olib borilgan to‘qqizinchi mavsumiy arxeologik qazishmalar (2018-yil 9-aprel – 12-may) natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Silvia Pozzi, Jamol K. Mirzaahmedov, Aysulu Iskanderova, Siroj Mirzaahmedov, Munira Sultanova, Dilmurod Xolov va Anvar Ataxodjayevlardan iborat xalqaro va mahalliy ilmiy guruh tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar Vardonzening ilk o‘rta asrlar me’morchiligi hamda rivojlangan kulolchilik madaniyatini mutlaqo yangi bosqichda yoritishga imkon berdi.

Mavsum davomida jami 203 m² maydonda yangi (T-23, T-24, T-25) va avvalgi yillarda boshlangan (T-8, T-11, T-12a, T-16, T-17) transheyalar ustida ish olib borildi. Tadqiqotlar natijasida ilk o‘rta asrlarga oid saroy majmuasi, uning atrofidagi mudofaa yo‘laklari hamda qum-shag‘al qatlamlari tagiga ko‘milgan antik davr inshootlarining rejalari aniqlandi.

Arxeologik qazishmalar saroy majmuasining sharqiy sektori va uni o‘rab turgan perimetr bo‘ylab joylashgan kuzatuv/mudofaa yo‘laklarida (corridors of surveillance) jiddiy me’moriy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. T-8/11/16 transheyalarida olib borilgan ishlar saroy qurilishining birinchi bosqichida ushbu hudud vakillik va ommaviy tantanalar maqsadi uchun xizmat qilganini tasdiqladi. Bunga guvoh sifatida ikkita yirik zal (32-xona va 43-xona) ochildi. Ayniqsa, 32-xona alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning devorlari poydevor sathidan boshlab rang-barang devoriy suratlar (mural paintings) bilan bezatilgani aniqlandi.

Ushbu birinchi qurilish bosqichi obyektdan to‘plangan ko‘mir namunalarining C14 (radiouglorod) tahlillariga ko‘ra milodiy IV–VI asrlarga tegishlidir. T-24 transheyasidan (saroyning ichki qismidan) olingan boshqa bir namuna esa saroy poydevorining barpo etilishi yanada qadimgi davrga - milodiy III–V asrlarga borib taqalishi mumkinligini inkor etmaydi.

Muallifning xususiy sharhi: Bizning fikrimizcha, ushbu davrda bunday hashamatli va mukammal arxitekturaviy elementlarning, xususan, rang-barang devoriy suratlarning qo‘llanilishi Vardonze hokimlarining nafaqat ulkan iqtisodiy kuchga, balki Varaxsha va Afrosiyob miqyosidagi markaziy davlat hokimiyati bilan bo‘ylasha oladigan madaniy hamda mafkuraviy mustaqillikka ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Biroq, milodiy VII-VIII asrlarga kelib saroy hayotida jiddiy funksional va strukturaviy inqiroz belgilari ko‘zga tashlanadi: muhtasham zallarning devorlari va sufalari buzilib, bu joylar oddiy omborxona (storage area) sifatida qayta reconverted qilingan. Masalan, 32-xonadagi bebaho devoriy suratlarning pastki qismi yangi qurilgan qo‘pol sufa bilan yopib tashlangan, 43-xona esa kichik g‘ishtin devor yordamida avval ikki bo‘shliqqa (41- va 42-xonalar), keyingi bosqichda esa mutlaqo boshqa maqsadlarga xizmat qiluvchi ikki xonaga (36- va 37-xonalar) bo‘lib yuborilgan.

Ushbu arxitekturaviy tanazzulni shunchaki xonalarni qayta ta’mirlash deb emas, balki arab istilolari arafasida mintaqada yuzaga kelgan keskin geosiyosiy vaziyat mahsuli sifatida baholash joiz. Mahalliy elita dabdabali hayotdan voz kechib, saroyning estetik jozibasini strategik mudofaa va oziq-ovqat zaxiralarini saqlash xavfsizligiga qurbon qilishga majbur bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Vardonze saroy majmuasi me’morchiligi va kulolchilik san’atini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar asosan O‘zbekistonning ilk va rivojlangan o‘rta asrlar davri moddiy madaniyatiga bag‘ishlangan arxeologik hamda tarixiy izlanishlar doirasida yoritilgan. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda Vardonzening siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi o‘rni, uning shaharsozlik tizimi, mudofaa inshootlari, saroy me’morchiligi hamda kulolchilik mahsulotlarining badiiy va texnologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ayniqsa, Buxoro vohasi tarixiga oid arxeologik qazishmalar natijalari Vardonze saroy majmuasining rejaviy tuzilishi, qurilish uslublari va bezak elementlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi. Mavzu

bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Vardonze saroy majmuasi alohida me’moriy obyekt sifatida emas, balki Buxoro vohasining ilk o‘rta asr shahar madaniyati tarkibida o‘rganilgan. Arxeolog olimlarning ilmiy ishlari natijasida saroyning xom g‘isht, paxsadan bunyod etilgani, ayrim qismlarida pishiq g‘ishtdan foydalanilgani, ichki hovli, tantanali qabul zallari va xo‘jalik binolari yagona me’moriy kompozitsiyani tashkil etgani haqida muhim ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Shu bilan birga, devor bezaklari, ustun asoslari, suvoq qoldiqlari hamda dekorativ elementlar saroy me’morchiligining yuksak badiiy darajada rivojlanganini tasdiqlaydi.

Kulolchilik san’atiga oid ilmiy izlanishlarda esa Vardonze hududidan topilgan sopol buyumlarning shakli, bezagi, pishirish texnologiyasi va tarkibiy xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida kulollar tomonidan mahalliy xomashyo asosida turli maishiy va marosim idishlari ishlab chiqarilgani, ularning ayrim namunalarida geometrik, o‘simliksimon va to‘lqinsimon naqshlar keng qo‘llangani aniqlangan. Sopol buyumlarning rang berish usullari, sirlash texnologiyasi hamda bezak kompozitsiyalari Buxoro vohasida kulolchilikning yuksak darajada taraqqiy etganini ko‘rsatadi. Ayrim namunalarning boshqa hududlarda uchrashi esa Vardonzening savdo-iqtisodiy aloqalari keng rivojlanganidan dalolat beradi. Mavzu bo‘yicha ilmiy manbalar orasida arxeologik qazishma hisobotlari, tarixiy-geografik tadqiqotlar, me’morchilik tarixi, san’atshunoslik va moddiy madaniyatga oid ilmiy monografiyalar muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, yozma tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy maqolalar arxeologik ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi orqali Vardonze saroy majmuasining tarixiy ahamiyatini yanada aniqroq yoritish imkonini beradi. Biroq mavjud tadqiqotlarda me’morchilik va kulolchilik san’ati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, saroy majmuasi bezaklarida kulolchilik mahsulotlarining qo‘llanilishi hamda ularning badiiy uyg‘unligi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu jihatdan mazkur mavzu yangi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, arxeologik, tipologik, san’atshunoslik, me’moriy-kompozitsion va kompleks tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Vardonze saroy majmuasi Buxoro vohasi hamda Markaziy Osiyoning boshqa saroy majmualari bilan solishtirildi. Arxeologik metod asosida qazishmalar davomida aniqlangan me’moriy qoldiqlar va sopol buyumlar ilmiy tavsiflandi. Tipologik metod orqali kulolchilik mahsulotlari shakli, vazifasi, bezagi va ishlab chiqarish texnologiyasiga ko‘ra guruhlarga ajratildi. San’atshunoslik tahlili vositasida sopol buyumlarning badiiy bezaklari va estetik xususiyatlari baholandi, me’moriy-kompozitsion metod esa saroyning rejaviy yechimi, konstruktiv tuzilishi hamda bezak elementlarini ilmiy tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama.

Saroyning yanada chuqur qatlamlarida, qum va shag‘al yotqiziqlari ostida milodiy I-III asrlarga oid eng qadimgi tuzilmalar xususan, xom g‘ishtdan qurilgan va usti gumbaz bilan yopilgan mudofaa yo‘laklari (44-yo‘lak) aniqlandi. Sharq-g‘arb yo‘nalishidagi ushbu xom g‘ishtli gumbazli koridor (vault made of mud bricks) shahar mudofaa tizimining poydevori antik davr harbiy-muhandislik an’analari bilan chambarchas bog‘liqligini yaqqol isbotlaydi.

2018-yilgi mavsumda jami 3326 ta sopol parchalari topib o‘rganildi va qayta ishlandi. Ulardan 2770 tasi (83%) diagnostik bo‘lmagan (parchalangan) va 556 tasi (17%) diagnostik (shakli va davri aniq) sopollardir. Sopol buyumlarning mutlaq ko‘pchiligi sirlanmagan idishlar (96%) bo‘lib, sirlangan idishlar atigi 4% ni tashkil etadi. Idishlar yuzasida o‘rganilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu yerda ilgari uchramagan xilma-xil geometrik/chiziqli naqshlar hamda ma’lum bir urug‘ yoki hunarmandlar ittifoqini anglatuvchi tamg‘alar (tamga/nishan) keng tarqalgan.

Vazifasiga ko‘ra sopol idishlar quyidagi tartibda guruhlangan:

Sopol idish turi	Foiz ulushi (%)	Tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari
Xo'jalik idishlari (Storage ware)	59%	Katta xumlar, kachkul va zaxira saqlash idishlari. Ayrim qismlari suv quvuri (pipelines) sifatida qayta ishlatilgan.
Oshxona idishlari (Cooking ware)	18%	Qozonlar, olovga chidamli idishlar va sopol pech (tandir) parchalari.
Dasturxon idishlari (Table ware)	17%	Kosalar, laganlar, dasta va naysimon jo'mrakli ko‘zalar (sirlangan va sirlanmagan).
Suv quvurlari (Pipelines)	3%	Ob'ektdagi gidrotexnik inshootlar va maxsus liniyalar uchun mo'ljallangan sopol quvurlar.
Maxsus va marosim idishlari	3%	Sirlangan moy chiroqlar (chirog' 1%), guldonlar (flowerpots), dasturxon patnislari hamda marosim idishlari (<1%).

Ushbu statistik ma’lumotlarni chuqurroq mulohaza qilsak, katta hajmli xo‘jalik idishlarining (Storage ware) 59% kabi yuqori ulushga ega bo‘lishi tasodif emas. Bu holat Vardonzeda uzoq muddatli qamal holatlariga tayyorgarlik darajasi yuqoriligini va mahsulotlarni markazlashgan holda saqlash tizimi nihoyatda rivojlanganini ko‘rsatadi. Hatto eski va singan xumlarning suv quvurlari (pipelines) sifatida ikkinchi marta hayotga qaytarilishi mahalliy aholining resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanganidan dalolat beradi. Idishlardagi ramziy tamg‘alarni esa oddiy bezak emas, balki shahar bozorida tovar aylanmasini nazorat qiluvchi savdo shirkatlari yoki yirik mulkdor oilalarning huquqiy va iqtisodiy tamg‘alari sifatida talqin qilish to‘g‘riroq bo‘ladi. Sirlangan idishlarning atigi 4 foizni tashkil etishi esa hududiy kulolchilikning asosiy e’tibori elitaga nemas, balki ichki ommaviy bozorning kundalik talablarini qondirishga qaratilganini ochiqlaydi.

Kulolchilik mahsulotlari arxeologik qatlamlarga ko‘ra 4 ta yirik xronologik davrga bo‘linadi. Antik (I-III asrlar) qatlamidan topilgan xum va ko‘zalar yuzasidagi barmoq izli naqshlar va qizil rangli angob (red slip) surtish an’anasi Kizil Kir (Qizilqir) madaniyatiga yaqinlikni ko‘rsatadi. Rivojlangan o‘rta asrlar (X-XII asrlar) qatlamlarida esa oq fondagi jigarrang va qizil gulli naqshlar hamda yashil va firuza (turquoise) rangli sir berish texnologiyasi nihoyatda yuksak bosqichga

ko‘tarilgani ma’lum bo‘ldi. Janubiy qismda (T-24) sopol parchalari hatto XIX asrgacha yetib borishi bu joy uzoq vaqt chiqindixona sifatida ishlatilganidan dalolat beradi.

Qazishmalar davomida kulolchilikdan tashqari jami 67 ta inventarizatsiya qilingan ashyoviy topilmalar qayd etildi. Bularga metall va shisha buyumlar, pasta-shishadan yasalgan munchoqlar, terrakota haykalchalar, suyak va toshdan yasalgan asboblar kiradi. Metall topilmalardan 29 tasi temirdan yasalgan pichoq tig‘lari, bargsimon pichoq, paykonlar, halqalar va qarmoqlar bo‘lsa, 12 tasi qadimgi mis tangalardir.

Tangalar Vardonze xronologiyasini aniqlashda eng ishonchli manba hisoblanadi. Topilgan tangalardan 9 tasi XI-XII asrlarda hukmronlik qilgan Qoraxoniylar davriga, qolganlari esa IX-XI asrlarga oiddir. Biroq, eng diqqatga sazovor topilmalardan biri o‘rta asrlarga oid tandir ichidan chiqqan Asbar tangasi bo‘ldi. Bu tanga milodiy IV asrning ikkinchi yarmi - V asrning uchinchi choragiga oid qadimgi taqlidiy (early imitation) tangadir. O‘rta asrlarga oid tandir konstruksiyasi ichidan bunday qadimiy tanganing topilishi fanda muhim bir qonuniyatni ochib beradi: tangalar o‘z davri o‘tgandan keyin ham xalq orasida qiymatini yo‘qotmagan yoki keyingi davr inshootlarini qurish vaqtida madaniy qatlamlar chuqur aralashib ketgan. Har qanday holatda ham, Asbar tangasi Vardonzening ilk Kushon-Soniylar va Kidariylar davri pul-tovar muomalasining faol ishtirokchisi bo‘lganini inkor etib bo‘lmas tarzda muhrlaydi. Shuningdek, suyakdan yasalgan ikki tomonlama tishli va doiraviy naqshli pardoz taroqlari, qizil xalsedon hamda qora lignitdan yasalgan munchoqlar shahar aholisining nafaqat estetik didi, balki uzoq o‘lkalar bilan xalqaro savdo aloqalari uzilmaganini tasdiqlaydi.

Xulosa. 2018-yilgi dala tadqiqotlari Vardonze saroy majmuasi va uning atrofidagi madaniy muhit haqidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirdi. Saroy me’morchiligida kashf etilgan muhtasham devoriy suratlar uning ilk davrdagi yuksak siyosiy-badiiy mavqeini ko‘rsatsa, minglab sopol buyumlar hamda qadimiy tangalar bu yerda hunarmandchilik, xususan kulolchilik san’ati asrlar davomida taraqqiyot etganini isbotlaydi. Vardonze antik davrdan boshlab to kech o‘rta asrlargacha Buyuk Ipak yo‘lidagi yirik iqtisodiy, ma’muriy va madaniy markazlardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boltayev B. B., Qosimova M. Sh. Vardonze manzilgohi: qadimgi jamiyat hayoti va madaniyatining arxeologik manbalardagi aks sadosi // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2026, № 2. 208-213-b.
2. Мухамеджанов А. Р. Результаты археологических исследований на территории города Бухары // Общественные науки в Узбекистане. — 1984. — № 1. 5-9 Б.
3. Мухамеджанов А. Р. Бухара — город двадцати пяти веков // Общественные науки в Узбекистане. — 1997. — № 9—10-11
4. Ртвеладзе Э. В. К истории домусульманской Бухары // Общественные науки в Узбекистане. — 1997. — № 9—10-11.
5. Ғуломов Я. Қадимги маданиятимиз изларидан – Тошкент: Ўзакадемнашр, 1960. – Б. 20.
6. https://uz.wikipedia

ФОТИҲА ТЎЙИ: ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРИ ВА ТАРИХИЙ МЕРОСИ (БУХОРО ВОҲАСИ МИСОЛИДА)

Шамсиева Зилола Аскаровна,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), БухДУ мустақил изланувчиси

Оила — жамиятнинг энг кичик, аммо энг барқарор ижтимоий бирлиги сифатида миллий қадриятларнинг сақланиши ва авлоддан-авлодга узатилишида марказий ўрин тутади. Никоҳ тўйи маросимлари эса айнан оила институтининг шаклланиш жараёнини расмийлаштирувчи, унга ижтимоий-маънавий мазмун берувчи маданий ҳодиса саналади. Этнографик нуқтаи назардан қараганда, бундай маросимлар — француз олими Арнольд ван Геннеп таклиф этган “ўтиш маросимлари” (rites de passage) назарияси нуқтаи назаридан таҳлил қилинганда — шахснинг ижтимоий мақомидаги ўзгаришни (бу ўринда — қизлик мақомидан келинлик мақомига ўтишни) жамоа олдида тасдиқловчи, унга легитимлик берувчи восита вазифасини бажаради. Ушбу умумназарий қараш, шуни таъкидлаш лозимки, мазкур мақолада келтирилаётган дала маълумотларидан эмас, балки этнология фанидаги умумқабул қилинган концептуал асосдан келиб чиққан ҳолда, таҳлил қилинмоқда.

Оила қуриш билан боғлиқ тўй маросимлари халқ турмуш тарзининг, миллий маънавий маданиятнинг кўплаб қирраларини ўзида жамлайди, шунингдек уларда миллатнинг тарихий ўтмиши, ижтимоий-иқтисодий турмуши, маданий-маънавий қиёфаси ўз ифодасини топади. Бухоро воҳасидаги никоҳ тўйи маросимлари тизимида “фотиҳа тўйи” алоҳида ўрин эгаллайди: у оилавий қадриятларнинг — ота-она ва фарзанд ўртасидаги алоқанинг, қариндош-уруғчилик тизимининг, авлодлар ўртасидаги маънавий узвийликнинг — рамзий ифодаланиш майдони сифатида хизмат қилади. Шу билан бирга, ушбу воҳада мазкур маросимнинг ўтказилиш тартиби ва унга оид турли расм-русумларнинг келиб чиқиш тарихи (генезиси)га бағишланган махсус илмий тадқиқотлар олиб борилмаган, бу эса мавзунинг долзарблигини ва қўшимча тадқиқот эҳтиёжини кўрсатади.

“Фотиҳа” сўзи арабчадан “очиш”, “очилиш”, “бошланиш”, “ибтидо”, “муқаддима” маъноларини англатади. Қуръони Каримнинг биринчи сураси ҳам “Фотиҳа” деб номланиб, у Қуръонни “бошлаб берувчи”, “очувчи” сура ҳисобланади. “Фотиҳа тўйи” маросимига айнан шу номнинг берилиши бир нечта сабабларга кўра изоҳланади. Биринчидан, мазкур маросим никоҳ тўйи жараёнини бошлаб берувчи маросим ҳисобланади. Иккинчидан, унинг якунида ёши улуғлар томонидан келин-куёв ҳаққига “Фотиҳа” сураси тиловат қилиниб, уларга бахтли турмуш йўли тилаб қолинади.

Мазкур маросим номи республикамизнинг ҳар хил ҳудудларида турлича талаффуз қилинади. Хусусан, Қашқадарё вилоятининг Яккабоғ туманида ушбу маросим “кичик тўй”, Деҳқонобод туманида “ялоққизартирар”, Қамаши туманида “жалаққизартирар тўй”, Китоб туманида эса “тўққиз тўй” номи билан юритилган. Хоразм воҳаси никоҳ тўйи тизимида ушбу маросим “патир тўй”, “потия тўй” каби атамалар орқали аталади. Бухоро воҳаси ўзбеклари ва тожиклари орасида эса ушбу удум “қиз тўйи” , “фотиҳа тўйи” деб номланади. 1930-1940-йилларда таваллуд топган ахборотчилар “фотиҳа тўйи” ўрнида “қиз тўйи” (тож. “духтар тўйи”) атамасини кўпроқ қўллашган. Бунинг сабаби шундаки, 1950-1960-йилларда фотиҳа тўйи қиз хонадонида ўтказилган ва қизини вояга етказган ота қўни-қўшни ҳамда қариндош-уруғларини фахр билан таклиф этиб, фарзандини соғ-омон улғайтириб, унинг тақдирини бошқа оилага топшираётганидан мамнун бўлиб мазкур тўйни нишонлаган.

1950-1980-йилларда турмуш қурган аёл ахборотчиларнинг гувоҳлик беришича, ўша даврларда Бухоро шаҳрида “фотиҳа тўйи” одатда қиз томон хонадонида ўтказилган.

Ҳозирги кунда эса “фотиҳа тўйи” махсус тўйхона ёки ресторанлар танлаб, катта дабдаба билан нишонланмоқда.

Воҳанинг Пешкў, Шофиркон, Жондор, Ғиждувон туманларига қарашли қишлоқларда яшовчи баъзи ахборотчиларнинг маълумотларига кўра, фотиҳа тўйи билан асосий никоҳ тўйи ўртасидаги муддат турли хонадонларда ҳар хил бўлган: айрим оилалар фотиҳа тўйидан 1-2 йил ўтгач асосий тўйни ўтказган бўлса, бошқалари эса икки маросим орасидаги вақтни чўзмасликка мойил бўлишган.

Воҳада фотиҳа тўйи бир қатор расм-русумлар йиғиндисидан иборат маросим сифатида ўтказилади. Хусусан, фотиҳа тўйи куни аввало “рахтзанон” деб номланувчи кичик маросим ўтказилиб, сўнгра меҳмонлар асосий фотиҳа тўйи дастурхонига йиғилишади. 1970-1980-йиллардаги фотиҳа тўйларининг шоҳиди бўлган ахборотчиларнинг маълумотларига қараганда, “рахтзанон” маросимидан кейин қиз хонадонида меҳмонларга чучвара ёки угра тортилган. Ушбу таомларнинг тарқатилишида ҳам рамзий маъно мужассам: воҳа аҳолисининг тасаввурича чучвара кўп фарзандликнинг рамзи бўлса, угра эса чексиз бахт, узоқ ва фаровон ҳаёт йўлининг тимсоли саналган.

“Рахтзанон” маросими ниҳоясига етгач, асосий “фотиҳа тўйи” бошланади. У одатда XX асрда қиз томон уйида ўтказилиб, шу ерда тўй дастурхони тайёрланган. Тўй харажатларини кўп ҳолларда, айниқса шаҳарда, “фотиҳа тўйи”да қизнинг отаси зиммасига олган. Бугунги кунда эса фотиҳа тўйи харажатларининг кимнинг ҳисобидан қопланиши хонадонга қараб фарқланади: баъзи оилаларда барча маҳсулотлар куёв томонидан таъминланиб, келин томон қариндошлари фақат дастурхон тузашга масъул бўлса, бошқа ҳолларда эса харажатларнинг барчасини қизнинг отаси ўз зиммасига олади.

Бугунги кунда фотиҳа тўйларининг воҳада тобора дабдабали тарзда ўтказилиши замонавий тўйларнинг муҳим хусусиятига айланмоқда. Хусусан, фотиҳа тўйининг ресторанларда ўтказилиши, тўй давомида махсус созандалар гуруҳининг хизмат кўрсатиши, ҳатто дастурхон тайёрлаш учун махсус “кейтеринг” (инглизча “catering” — “хизмат кўрсатиш”) хизматларидан фойдаланилиши — фотиҳа тўйларида кузатилаётган энг сезиларли ўзгаришлардан ҳисобланади.

Бухоро шаҳрида ўтказиладиган фотиҳа тўйлари асосан аёллар маросими бўлганлиги боис, XX асрдан бошлаб уларда аёл созандаларни таклиф этиш анъанага айланган. Айниқса, яҳудий миллатига мансуб созандалар Бухоро шаҳридаги тўйларда фаол иштирок этишган. Жумладан, 1950-йилларда туғилган ахборотчиларимизнинг маълумотларига кўра, ўша даврда аёллар иштирок этадиган (тож. “занона”) тўй маросимларига Тухфахон , Олияхон каби машҳур созандаларни таклиф этиш одат тусига кирган. Мазкур созандалар давра аҳлидан ҳар бир аёлга атаб мухаммаслар айтиб беришган, бунинг эвазига эса ўша шеър бағишланган аёл созандага пул тутқазган (тож. “часпон кардан”). Бугунги кунда ҳам кўплаб хонадонлар ушбу анъанага риоя қилишади. Хусусан, воҳа созандалари орасида ҳозирги вақтда Розияхон, Гулчеҳрахон, Саодатхон каби ижрочилар фотиҳа тўйларини ўтказишда яхши ном қозонишган. Аёл созандалар қўлларида занг ва қайроқ каби чолғу асбобларини тутиб, доира жўрлигида давра аҳлидан ҳар бир аёлга бағишлаб қуйидаги мухаммасларни ижро этишади:

Аз дар ки даройи,дари дарвоза тасаддуқ,
Дар ҳавли даройи гул-у гулзор тасаддуқ.
Дар хона даройи,бузу бузғола тасаддуқ,
Дар чангоҳ дарои,мани бечора тасаддуқ.

Таржимаси:

Кирсанг эшигимдан, сенга эшигим тасаддуқ,
Ҳовлимга кирсанг боғ-у гулзорим тасаддуқ,
Сенга молим, борим, давлатим тасаддуқ,
Даргоҳимга кирсанг, ўзим санга тасаддуқ.
Ёки:
Аз дар ки даройи, ман нигоҳи ту кунам,
Андеша ба чашмони сиёҳи ту кунам,
Як мол надорамки закоти ту кунам,
Як жони азиз дораму қурбонат кунам.
Таржима:
Эшигимдан кирсанг,сенга бир боқайин,
Қаро кўзларингдан андиша қилайин,
Бир молим ёққи, закотингни берсам,
Жони азизимни сенга қурбон этайин.

Бухоро воҳасидаги фотиҳа тўйи маросимида мухаммасхонлик анъанаси ҳақида кўплаб тадқиқотчиларнинг илмий ишларида маълумотлар учрайди. Жумладан, Бухоро никоҳ тўйи фольклорининг ўзига хос жиҳатлари, жанрий таркиби ва бадиий хусусиятларини тадқиқ этган олима Г. Я. Шербекова ўз диссертациясида мухаммас айтишув жараёнида ҳар бир аёл иштирок эта олмаслигини, унда, асосан, сўзамол, шоиртабиат ва бадиҳагўй аёллар қатнашишини, мухаммасларнинг эса, одатда, никоҳ тўйининг айнан “фотиҳа тўйи” қисмида ижро этилишини қайд этган. Шунингдек, тадқиқотчи маълумотларига кўра, Бухорода довруқ қозонган мухаммасхонлар ҳам ўтган бўлиб, улар алоҳида тарзда тўйларга таклиф қилинган. Улар фотиҳа тўйи давомида тўй эгаларини (тож. “соҳиби тўй”) қутлаб, элга уларни мадҳ этишган, шунингдек ўзлари ҳам ўйинга тушиб, бошқаларни рақсга чорлаб, қўшиқ айтиб, тўйнинг қизиқарли, жонли ва хотирада қоладиган тарзда ўтишига хизмат қилишган.

Мухаммас айтишга киришаётган ва жавоб қайтариши кутилаётган аёл ҳушёр ва тайёр туриши лозим бўлган, зеро сўз топа олмай қолиши мухаммасхонликнинг тўхтаб қолишига олиб келган. Уни, одатда, ёши катта аёл бошлаб берган. Мухаммасни якунлаган ижрочи шеригига енгил таъзим қилиб, навбатни унга ўтказганини билдирган. Мухаммаслар қаратилган шахснинг феъл-атвори, кийими, унинг ранги ва безаклари, қимматбаҳолиги ёхуд фазилатлари ва гўзаллигини таърифлашга бағишланган.

Бухоро воҳасининг анъанавий фотиҳа тўйларида келин давра ўртасига чиқарилмаган, яъни қизнинг юзи никоҳ тўйигача бошқаларга кўрсатилмаган. Ҳозирги пайтда эса келинлар фотиҳа тўйида бирор аёл қариндошининг ҳамроҳлигида, баъзан эса куёв билан бирга давра ўртасига чиқарилмоқда. Куёвларнинг кўпчилиги фотиҳа тўйида дастурхон атрофида ўтирса-да, келин билан бирга саҳнага чиқмайди. Бунинг сабаби, воҳада фотиҳа тўйи аёллар маросими саналгани боис, куёвнинг келин билан бирга давра марказига чиқиши йигитлик ор-номусига мос келмайди, деб ҳисобланади. Бундан ташқари, келинлар фотиҳа тўйида камида уч марта либосини алмаштириб, давра аҳлига таъзим билан чиқиб туради.

Айрим ахборотчиларнинг таъкидлашича, катта маблағ сарфлаб тиктирилган келинлик либослари (сарпо кийимлари) тўйдан кейин келин томонидан деярли кийилмайди. Фақат “халойиқ кўрсин” деган ниятда шу фотиҳа тўйида келинларнинг бир неча марта либос алмаштириб чиқарилиши — аҳолининг ортиқча харажатларга йўл қўядиган дабдаба ва кўз-кўзлашга мойиллигидан далолат беради.

Фотиҳа тўйи маросимида аёллар кўпроқ ўзбекона миллий кийимларда бўлишади. Шунингдек, воҳа аёллари айнан фотиҳа тўйларида “шибирма” ҳалқаларни тақишни афзал кўришади. Бугунги кунда Бухоро воҳасидаги фотиҳа тўйларига алоҳида рақс гуруҳлари

таклиф этилиб, улар миллий рақс намуналарини намойиш қилишади. Бундан ташқари, махсус видеокомпаниялар операторлари томонидан никоҳ тўйи маросимининг ҳар бир лаҳзаси видеога туширилмоқда.

Юқорида келтирилган дала маълумотларини оилавий қадриятлар нуқтаи назаридан таҳлил қиладиган бўлсак, фотиҳа тўйи бир нечта муҳим ижтимоий функцияни бажаради, деб хулоса қилиш мумкин. Биринчидан, у қиз болани улғайтириб, унга муносиб турмуш йўлини "очиб бериш" орқали ота-она мажбуриятининг рамзий якунланишини англатади. Иккинчидан, мухаммасхонлик анъанаси мисолида кўринганидек, маросим аёллар ўртасидаги ижтимоий алоқа ва ўзаро қўллаб-қувватлаш тармоғини (пул тутқазиш — "часпон кардан" — амалиёти орқали) мустаҳкамлайди, бу эса қариндош-уруғчилик тизимининг иқтисодий-ижтимоий жиҳатдан ҳам намоён бўлишидир. Учинчидан, келиннинг давра ўртасига чиқарилмаслиги каби чекловлар анъанавий жамиятда аёл иффати ва оилавий шаънинг жамоатчилик олдида ҳимоя қилиниши билан боғлиқ қадриятли тизимни акс эттиради.

Шу билан бирга, мавзуни танқидий баҳолаганда, бир қатор методологик чекловлар ва очиқ қолган масалаларни ҳам кўрсатиб ўтиш зарур. Биринчидан, тадқиқот асосан оғзаки дала маълумотлари (ахборотчилар кўрсатмалари)га таянади; бундай манбалар субъектив хотира хатоларига мойил бўлиб, уларни архив ҳужжатлари ёки статистик маълумотлар билан қиёсий текшириш имконияти мақолада кўрсатилмаган. Иккинчидан, фотиҳа тўйининг замонавий трансформацияси — хусусан, унинг тўйхона-ресторанларда ўтказилиши ва "кейтеринг" хизматларидан фойдаланиш — мақолада кўпроқ тавсифий тарзда баён этилган, аммо бу ўзгаришларнинг сабаблари (масалан, урбанизация, ижтимоий табақаланиш, кўз-кўзлаш эҳтиёжининг кучайиши каби омиллар) чуқур социологик таҳлилга тортилмаган. Учинчидан, манбашуносликда фотиҳа тўйининг дабдабалашуви ижобий ҳодиса (маданий тараққиёт, фаровонлик белгиси) сифатида ҳам, салбий ҳодиса (ортиқча исроф, анъанавий соддаликдан узоқлашиш) сифатида ҳам талқин қилиниши мумкинлигини инобатга олган ҳолда, мақола муаллифи ушбу икки қарашни аниқ таққослаб, ўз позициясини методологик жиҳатдан асословчи баҳо бермаган. Ниҳоят, тадқиқот фақат Бухоро воҳаси доирасида чекланган бўлиб, уни Ўзбекистоннинг бошқа минтақаларидаги ўхшаш маросимлар (масалан, Хоразм ёки Қашқадарё воҳасидаги "кичик тўй" анъаналари) билан тизимли қиёслаш имконияти келгуси тадқиқотлар учун очиқ масала бўлиб қолмоқда.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, Бухоро воҳаси никоҳ тўйи маросимлари тизимида фотиҳа тўйи энг муҳим маросимлардан бири ҳисобланади. Фотиҳа тўйи — Бухоро воҳаси аёллари учун никоҳ тўйи жараёнида интиқлик билан кутиладиган маросимлардан бири саналади. Мазкур маросим ўзбек халқининг меҳмондўстлигини, бир-бирига дўстона ва аҳиллик муносабатини ўзида акс эттириб, қариндош-уруғ ҳамда яқинлар ўртасидаги алоқаларнинг мустаҳкамланишида муҳим омиллардан бирига айланади. Шунингдек, 1950-1980-йилларда турмуш қурган ахборотчиларнинг маълумотлари ҳам ушбу маросимнинг ўтказилиш тартиби бугунги кунга қадар анча жиддий ўзгаришларга учраганини тасдиқлайди. Фотиҳа тўйининг қиз томон уйида эмас, кўпроқ махсус тўйхона-ресторанларда ўтказилиши, келин ёки келин-куёвнинг биргаликда давра ўртасига чиқарилиши, шунингдек ресторанларда ҳам дастурхоннинг махсус "кейтеринг" хизматлари орқали тузатилиши — бугунги кундаги фотиҳа тўйларида кузатилаётган аниқ трансформация жараёнига ёркин мисол бўла олади. Хулоса қилиб айтганда, фотиҳа тўйи мисолида кузатилган анъанавийлик ва замонавийлик ўртасидаги диалектик муносабат нафақат Бухоро воҳасига, балки умуман ўзбек оилавий маросимлар тизимига хос бўлган умумий трансформация тенденцияларини

ҳам ўзида акс эттиради, бу эса мавзунинг келгуси этнологик тадқиқотлар учун истиқболли йўналиш эканини кўрсатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР ВА

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / А. Мадвалиев таҳрири остида. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006–2008. — Б.361.
2. Тошева Г. Қашқадарё воҳаси никоҳ тўйи маросимлари. — Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси” нашриёти. — Б.50–51.
3. Маткаримова Н. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. — Нукус, 2020. — Б.35.
4. Qurbonova M. Buxoro vohasi o‘zbek va tojiklarining an’anaviy taomlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. — Toshkent, 1994. — B.100.
5. Таджикова З. Туҳфахон — подарок Бухары // The Bukharian times. — 2011. — 11–17 февраль. — №470. — С.42–43.
6. Шербекова Г. Я. Бухоро никоҳ тўйи фольклорининг локал хусусиятлари, жанрий таркиби ва бадиияти: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2022. — Б.24.
7. Шербекова Г. Я. Бухоро никоҳ тўйи фольклорининг локал хусусиятлари, жанрий таркиби ва бадиияти: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Бухоро, 2022. — Б.94–95.
8. Дала маълумотлари. Бухоро вилояти Когон, Шофиркон туманлари. 2023-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
9. Дала маълумоти. Бухоро тумани, Фошун МФЙ. 2022-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
10. Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Афшормаҳалла МФЙ. 2023-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
11. Дала маълумоти. Бухоро, Когон туманлари. 2022-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
12. Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Файзулло Хўжайев МФЙ. 2022-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
13. Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Рози Ҳамройев МФЙ. 2022-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
14. Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Тагбандбофон маҳалласи. 2023-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
15. Дала маълумоти. Ғиждувон тумани, Ташкарон МФЙ. 2022-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
16. Шамсиева Бахшанда (1936-йилда туғилган информатор, Бухоро шаҳри Тагбандбофон гузари)дан ёзиб олинган фолклор намуналари. 2019-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари; таржимон — Дилором Жўрайева).
17. Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Шофиркон, Жондор тумани. 2022-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
18. Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Ғиждувон, Жондор, Вобкент туманлари. 2023-йил (нашр етилмаган дала ёзувлари).
19. Маткаримова Н. М. Хоразм воҳаси никоҳ тўйларида халқ достончилик санъатининг ўрни ва аҳамияти // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. — 2022. — №2.

20. Бухоро воҳаси никоҳ маросими таомларининг ўрганилиши ва ўзига хослиги // ResearchGate электрон илмий платформаси, 2021. Havola: https://www.researchgate.net/publication/358820033_Buxoro_voasi_niko_marosimi_taomlarining_urganilisi_va_uziga_hosligi
21. Matchmakers in modern Uzbek culture // inLibrary.uz ilmiy-elektron jurnali. Havola: https://inlibrary.uz/index.php/jsshrf/article/download/22876/23723/26715
22. Ўзбеклар маросимий маданиятида дарвешона // Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining rasmiy sayti, 2024. Havola: https://www.bukhari.uz/?p=36679

10. 00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

JAMOL KAMOL SHE’RIYATIDA LOKUTIV QATLAM VA POETIK SEMANTIKA

Akramova Surayo Renatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jamol Kamolning «Anvarmirzo hikoyatlari» turkumiga kiruvchi she’r misolida lokutiv qatlam hamda poetik semantikaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq aktlari nazariyasining lokutiv komponenti asosida she’rning yuzaki mazmuni aniqlanadi, poetik semantika vositasida esa satrlarda mujassam bo‘lgan ijtimoiy-tanqidiy mazmun, ramziy ifoda va badiiy ma’no ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Jamol Kamol she’riyatida til birliklari faqat axborot uzatish vazifasini emas, balki jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni baholash, tanqid qilish hamda o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida qo‘llanishi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: Jamol Kamol, lokutiv qatlam, poetik semantika, nutq akti, badiiy matn, semantika, satira, metafora.

Kirish. Badiiy matnni lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilish bugungi filologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Nutq aktlari nazariyasida lokutiv qatlam nutqning bevosita aytilgan mazmunini ifodalasa, poetik semantika ushbu mazmun ortida yashiringan estetik va konseptual ma’nolarni ochishga xizmat qiladi. Jamol Kamol she’riyati ana shunday ko‘p qatlamli semantik tizimga ega bo‘lib, unda oddiy til vositalari chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi.

Mazkur maqolada shoirning «Anvarmirzo hikoyatlari» turkumidagi quyidagi satrlar tahlil obyekti sifatida tanlandi:

Yurar ayrim amaldorlar xizmat ado qilib,
Cho‘ntak to‘ldirishni muddao qilib...
Insof, adolatdan agar so‘z ochsa bir kishi,
Og‘zin yoparlar shu zamon yuz mojaro qilib.

Mazkur parchada lokutiv qatlam nuqtayi nazaridan qaralganda, shoir jamiyatdagi ayrim amaldorlarning xizmat vazifasini sidqidildan bajarish o‘rniga shaxsiy manfaatni ko‘zlayotgani haqida xabar beradi. Birinchi misrada «Yurar ayrim amaldorlar xizmat ado qilib» deyilishi tashqi tomondan ularning xizmat faoliyatini ifodalaydi. Ammo ikkinchi misradagi «Cho‘ntak to‘ldirishni muddao qilib» birikmasi mazkur faoliyatning asl maqsadini ochib beradi. Demak, lokutiv mazmunda amaldorlarning xizmat qilayotgani emas, balki xizmatni shaxsiy boylik orttirish vositasiga aylantirgani bayon etiladi.

Keyingi ikki misrada esa yana bir voqelik tasvirlanadi. «Insof, adolatdan agar so‘z ochsa bir kishi» misrasi jamiyatda adolat va halollik haqida fikr bildiruvchi inson mavjudligini ko‘rsatsa, «Og‘zin yoparlar shu zamon yuz mojaro qilib» satri bunday fikr erkin qo‘llab-quvvatlanmasligini, aksincha, turli bahona va mojarolar yordamida uning ovozi bostirilishini ifodalaydi. Lokutiv qatlamda bu satrlar muayyan ijtimoiy vaziyatning bevosita tasviridir. Biroq she’rning poetik semantikasi lokutiv mazmun bilan cheklanmaydi. «Cho‘ntak to‘ldirish» birikmasi faqat moddiy manfaatni emas, balki mansabni shaxsiy boylik orttirish vositasi sifatida talqin etuvchi korrupsion tafakkurning ramziy ifodasidir. Ushbu metaforik birlik jamiyatdagi axloqiy inqiroz, mas’uliyatning susayishi va davlat xizmatining asl mohiyatidan uzoqlashish kabi kengroq ijtimoiy ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Shuningdek, «Og‘zin yoparlar» iborasi ham oddiy jismoniy harakatni anglatmaydi. Poetik

semantikada u haqiqatni aytishga to‘sqinlik qilish, erkin fikrni bostirish, adolat tarafdorlarini bosim ostida qoldirish kabi ramziy mazmunni ifodalaydi. «Yuz mojaro qilib» birikmasi esa haqiqatni inkor etish uchun sun’iy bahslar, asossiz ayblovlar va turli to‘siqlar yaratilishini anglatadi. Natijada bitta poetik obraz orqali jamiyatdagi ma’naviy muhit va ijtimoiy munosabatlar tanqidiy ruhda ochib beriladi.

Nutq aktlari nazariyasi nuqtayi nazaridan ushbu satrlarda bir necha turdagi nutqiy aktlar uyg‘unlashgan. Bir qarashda ular assertiv nutqiy akt sifatida voqelik haqida xabar beradi. Biroq mazkur xabar betaraf emas. Shoir mavjud holatni baholaydi, unga nisbatan salbiy munosabatini bildiradi va o‘quvchini ham ushbu hodisalarga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Shu sababli matnda assertiv akt bilan bir qatorda ekspressiv hamda bilvosita direktiv mazmun ham yuzaga keladi. Ekspressiv komponent muallifning noroziligi va achinishini ifodalasa, bilvosita direktiv mazmun jamiyatni insof va adolat tamoyillariga qaytishga da’vat etadi.

Mazkur she’rning informatsion qiymati ham ko‘p qatlamli xarakterga ega. Birinchidan, u jamiyatdagi korrupsiya, manfaatparastlik va adolatsizlik haqida faktik axborot beradi. Ikkinchidan, shoirning fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy ideallari va ijtimoiy qarashlari namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, matn o‘quvchida mavjud ijtimoiy muammolar haqida tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, poetik matnda lokutiv qatlam voqelikni ifodalasa, poetik semantika ushbu voqelikning badiiy-falsafiy talqinini yuzaga chiqaradi.

Shunday qilib, Jamol Kamol she’riyatida lokutiv qatlam va poetik semantika o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shoir sodda va ravon til birliklari vositasida jamiyatdagi murakkab axloqiy hamda ijtimoiy muammolarni badiiy umumlashtiradi. Natijada nutqiy aktlar nafaqat voqelikni tasvirlash, balki muallifning estetik konsepsiyasini ifodalash, o‘quvchini mushohadaga undash va jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarni qayta baholash vazifasini ham bajaradi.

Poetik semantika nuqtayi nazaridan mazkur she’rning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda badiiy ma’no bevosita emas, balki implitsit shaklda yuzaga chiqadi. Shoir korrupsiya, poraxo‘rlik yoki so‘z erkinligining cheklanishi kabi tushunchalarni ochiq nomlamaydi. Buning o‘rniga «cho‘ntak to‘ldirish», «og‘zin yoparlar», «yuz mojaro qilib» kabi obrazli birliklardan foydalanadi. Mazkur birliklar o‘quvchini yashirin ma’noni mustaqil anglashga undaydi. Natijada poetik matnning semantik maydoni kengayadi va bitta nutqiy akt bir vaqtning o‘zida bir necha mazmun qatlamini hosil qiladi.

Bunda presuppozitsiya ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki she’r mazmunini to‘liq anglash uchun o‘quvchi davlat boshqaruvi, amaldorlik mas’uliyati, insof va adolat kabi ijtimoiy tushunchalar haqida muayyan bilimga ega bo‘lishi lozim. «Ayrim amaldorlar» birikmasi barcha mansabdor shaxslarni emas, balki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanayotgan toifani nazarda tutadi. Demak, shoir umumlashtirish orqali muayyan ijtimoiy hodisani tanqid qiladi, biroq tanqidni aniq shaxslarga emas, balki salbiy illatning o‘ziga qaratadi.

Mazkur satrlarda baholovchi semantika ham yaqqol kuzatiladi. «Muddao» leksemasi odatda insonning maqsadi yoki ezgu niyatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Shoir esa uni «cho‘ntak to‘ldirish» birikmasi bilan bog‘lab, kuchli ironik effekt hosil qiladi. Natijada so‘zning odatiy ijobiy semantikasi salbiy mazmun bilan to‘qnashadi va satirik ohang yuzaga keladi. Xuddi shuningdek, «insof» va «adolat» leksemalari ijobiy axloqiy qadriyatlarni ifodalasa-da, keyingi misrada ularning aytilishining o‘zi mojaroga sabab bo‘layotgani tasvirlanadi. Bu qarama-qarshilik poetik matnning semantik tarangligini kuchaytiradi hamda jamiyatdagi qadriyatlar tizimining izdan chiqqanini badiiy jihatdan aks ettiradi.

Lingvopragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, she’rda bilvosita nutqiy aktlar ustunlik qiladi. Muallif o‘quvchiga «korrupsiyaga qarshi kurashish kerak» yoki «adolatni himoya qiling» degan

bevosita chaqiriqni bermaydi. Biroq mavjud voqelikning badiiy tasviri orqali aynan shunday pragmatik ta’sirni yuzaga keltiradi. Bu esa nutqiy aktlarning perlokutiv salohiyatini namoyon etadi. O‘quvchi she’rni mutolaa qilar ekan, nafaqat axborot oladi, balki unda axloqiy baholash, norozilik, mulohaza yuritish va fuqarolik mas’uliyatini his etish kabi psixologik reaksiyalar ham shakllanadi.

Jamol Kamolning poetik uslubida lokutiv qatlam bilan poetik semantikaning uyg‘unligi aynan shunday ko‘p qatlamli informatsion tizimni yuzaga keltiradi. Lokutiv qatlam voqelikning tashqi tasvirini ifodalasa, poetik semantika ushbu voqelikning ijtimoiy, axloqiy va falsafiy mohiyatini ochib beradi. Natijada she’riy matn faqat estetik hodisa bo‘lib qolmay, balki jamiyatdagi ma’naviy muammolarni anglash va baholashga xizmat qiluvchi kuchli kommunikativ vositaga aylanadi. Shu jihatdan Jamol Kamol she’riyati nutq aktlari nazariyasi hamda lingvopoetik tahlil metodlari kesishgan nuqtada tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan serqatlam badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Jamol Kamol she’riyatida lokutiv qatlam va poetik semantika o‘zaro uzviy bog‘liq holda badiiy mazmunni shakllantiradi. Lokutiv qatlam she’rning bevosita ifodalangan mazmunini, ya’ni voqea va hodisalarning yuzaki tasvirini aks ettirsa, poetik semantika ushbu mazmun ortida mujassam bo‘lgan ijtimoiy, axloqiy, estetik va falsafiy g‘oyalarni ochib beradi. Shu bois badiiy matnni faqat lokutiv mazmun asosida talqin qilish uning semantik salohiyatini to‘liq yoritishga imkon bermaydi.

Jamol Kamolning «Anvarmirzo hikoyatlari» turkumidagi tahlil qilingan satrlar nutq aktlari nazariyasining lokutiv komponenti bilan bir qatorda pragmatik va poetik qatlamlarning ham faol ishtirok etishini namoyon etdi. She’rda qo‘llangan assertiv nutqiy aktlar voqelikni bayon qilish vazifasini bajarsa-da, ular muallifning baholovchi munosabati, satirik pozitsiyasi va fuqarolik qarashlarini ham ifodalaydi. Natijada nutqiy aktlarning kommunikativ vazifasi estetik va ijtimoiy-ta’sirchan vazifa bilan uyg‘unlashadi.

Tahlil natijalari shuningdek, poetik semantikaning metafora, kinoya, baholovchi leksika, ramziy ifoda hamda implitsit ma’nolar orqali yuzaga chiqishini ko‘rsatdi. Aynan shu vositalar she’rning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi, o‘quvchini matnning yashirin ma’nolarini izlashga undaydi va muallif hamda o‘quvchi o‘rtasida faol interpretativ muloqotni vujudga keltiradi. Bunday ko‘p qatlamlilik Jamol Kamol poetikasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, Jamol Kamol she’riyatida lokutiv qatlam faqat axborot uzatuvchi komponent emas, balki poetik semantikaning shakllanishi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Poetik semantika esa lokutiv mazmunni kengaytirib, uni ijtimoiy-tanqidiy, axloqiy va falsafiy mazmun bilan boyitadi. Natijada nutqiy aktlar badiiy diskursda nafaqat kommunikativ birlik, balki estetik ta’sir ko‘rsatish, muallif konsepsiyasini ifodalash va o‘quvchining tafakkurini faollashtirishga xizmat qiluvchi murakkab lingvopoetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa Jamol Kamol she’riyatini nutq aktlari nazariyasi va lingvopoetik tahlil uyg‘unligida o‘rganish ilmiy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi masalalari. – Toshkent, 2011.
6. Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. V jild: Anvarmirzo hikoyatlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 467 b.

ОНОМАСТИЧЕСКОЕ ПРОСТРАНСТВО КАК СРЕДСТВО РЕАЛИЗАЦИИ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И АВТОРСКИХ НОВАЦИЙ В АНГЛО- И РУССКОЯЗЫЧНОМ ФЭНТЕЗИ

Диана Валерьевна Абдураманова
Доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент Чирчикского государственного педагогического университета.
ORCID: 0009-0006-4685-4986

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается ономастическое пространство как одно из важных средств реализации интертекстуальности и авторских новаций в англо- и русскоязычном фэнтези. На материале произведений Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца анализируются функции имён собственных, топонимов, этнонимов, названий артефактов, магических существ и пространств в структуре художественного мира. Особое внимание уделяется тому, что имя в фэнтезийном тексте выполняет не только номинативную, но и миромоделирующую, характерологическую, мифопоэтическую, интертекстуальную и идиостилеобразующую функции. В статье выявляется специфика культурно-магической модели Дж. К. Роулинг, мифоэпической модели Дж. Р. Р. Толкина и пародийно-интертекстуальной модели Д. А. Емца. Доказывается, что ономастическое пространство выступает значимым уровнем литературоведческого анализа, позволяющим раскрыть взаимодействие жанровой традиции, культурной памяти и индивидуальной авторской поэтики.

Ключевые слова: ономастическое пространство, фэнтези, интертекстуальность, авторские новации, художественный мир, идиостиль, Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкин, Д. А. Емец.

ВВЕДЕНИЕ. Современное англо- и русскоязычное фэнтези представляет собой сложную художественную систему, в которой особую роль играет ономастическое пространство. Имена собственные, топонимы, этнонимы, названия артефактов, магических существ, пространств и институций в произведениях жанра фэнтези не ограничиваются назывной функцией, а выступают важными средствами организации художественного мира. Через систему имён раскрываются культурные коды, мифопоэтические представления, интертекстуальные связи, ценностные оппозиции и особенности авторского идиостиля.

Актуальность исследования обусловлена тем, что в произведениях Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца ономастическое пространство становится одним из ключевых механизмов реализации интертекстуальности и авторских новаций. У Дж. К. Роулинг имена и названия участвуют в создании культурно-магической модели мира; у Дж. Р. Р. Толкина они связаны с мифоэпической глубиной Средиземья, историей народов и искусственными языками; у Д. А. Емца они нередко приобретают пародийно-интертекстуальный характер.

В связи с этим изучение ономастического пространства позволяет выявить, каким образом имя в фэнтезийном тексте становится носителем художественного смысла, формой авторского миромоделирования и способом взаимодействия с мифологической, фольклорной, литературной и культурной традицией.

МЕТОДОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Методологическая основа настоящего исследования определяется необходимостью комплексного изучения ономастического пространства в англо- и русскоязычном фэнтези не как совокупности отдельных имён собственных, топонимов, этнонимов, названий артефактов

или мифопоэтических обозначений, а как целостной художественной системы, в которой имя становится способом смыслообразования, средством реализации интертекстуальности, формой авторской новации и важным элементом миромоделирования. Теоретической базой такого подхода служат труды А. В. Суперанской, Н. В. Подольской, В. А. Никонова, в которых имя собственное рассматривается как особая знаковая единица, обладающая не только номинативной, но и культурно-смысловой функцией . Важное значение для настоящего исследования имеют также положения Ю. М. Лотмана о художественном тексте как знаковой системе, идеи М. М. Бахтина о диалогической природе слова и концепции Ю. Кристевой и Ж. Женетта, связанные с интертекстуальностью и межтекстовым взаимодействием . В аспекте мифопоэтического анализа учитываются труды Е. М. Мелетинского и В. Н. Топорова, в которых раскрывается роль мифа, архетипа, культурной памяти и символических структур в организации художественного текста . Теоретические положения о жанре фэнтези опираются на исследования Ц. Тодорова, Р. Джексон, К. Н. Мэнлава, Б. Аттебери, Э. Джеймса, Ф. Мендлесон, М. Николаевой и Т. Пью, рассматривающих фантастическое и фэнтези как особые формы художественного моделирования действительности . В связи с этим в статье применяется комплекс взаимодополняющих литературоведческих методов, позволяющих рассмотреть произведения Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца в едином сравнительно-типологическом поле. Сравнительно-типологический метод используется для выявления общих и индивидуальных признаков ономастической организации художественных миров указанных авторов, поскольку именно сопоставление культурно-магической модели Дж. К. Роулинг, мифоэпической модели Дж. Р. Р. Толкина и пародийно-интертекстуальной модели Д. А. Емца позволяет определить, каким образом имя собственное функционирует в разных национально-литературных и жанрово-поэтических системах. Историко-литературный подход необходим для осмысления ономастических единиц в связи с развитием жанра фэнтези, его мифологическими, фольклорными, эпическими, сказочными и литературными источниками, поскольку значительная часть имён и названий в фэнтезийном тексте опирается на культурную память и одновременно получает новое авторское переосмысление. Интертекстуальный анализ позволяет выявить в именах, топонимах, названиях магических предметов, пространств, народов и существ скрытые отсылки к мифам, библейским образам, античной традиции, средневековой культуре, фольклору, эпосу и предшествующим литературным текстам. При этом интертекстуальность рассматривается не как внешнее украшение произведения, а как структурообразующий принцип, через который автор выстраивает связи между созданным художественным миром и более широким пространством мировой литературы. Мифопоэтический метод применяется для анализа тех ономастических единиц, которые связаны с архетипами, сакральными образами, мотивами избранничества, испытания, смерти и возрождения, власти, судьбы, пути героя и борьбы добра со злом. Особенно важным в рамках данной статьи является ономастико-литературный анализ, поскольку он позволяет рассматривать имя не только как номинативную единицу, но и как элемент поэтики художественного текста, выполняющий характерологическую, жанрообразующую, интертекстуальную, мифопоэтическую, эмоционально-оценочную, пародийную и миромоделирующую функции. Контекстуальный анализ, в свою очередь, даёт возможность определить значение конкретного имени в пределах художественной ситуации, системы персонажей, сюжетной линии, ценностной оппозиции или авторской концепции мира. Такой методологический подход позволяет избежать узколингвистического описания имён и сосредоточиться на их литературоведческой функции, то есть на том, каким образом ономастическое пространство участвует в создании образной системы, раскрытии персонажа, построении хронотопа,

формировании атмосферы произведения и выражении индивидуального идиостиля писателя.

Литературный анализ ономастического пространства в произведениях Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца показывает, что в англо- и русскоязычном фэнтези имя собственное выполняет значительно более сложную функцию, чем простое обозначение персонажа, места, народа, магического предмета или фантастического существа, поскольку оно становится одним из основных механизмов организации художественного мира и одновременно выражает специфику авторского идиостиля. В этом отношении важны исследования С. Л. Кошелева, С. А. Лузиной, И. А. Маклакова, О. С. Потаповой, Т. И. Хоруженко, И. В. Лебедева и Е. А. Сафрон, в которых фэнтези рассматривается в аспекте жанровой природы, мифопоэтики, художественного мира, вторичной реальности и авторского миромоделирования . В произведениях Дж. К. Роулинг ономастическое пространство связано прежде всего с культурно-магической моделью мира, где имена персонажей, названия факультетов, улиц, учреждений, артефактов и заклинаний образуют особую систему смысловых подсказок. Такие имена, как Albus Dumbledore, Severus Snape, Draco Malfoy, Sirius Black, Remus Lupin, Tom Marvolo Riddle, не только индивидуализируют персонажей, но и содержат скрытые культурные, мифологические, этимологические или ассоциативные значения. Например, имя Sirius Black связано с астрономическим и зооморфным кодом, Remus Lupin вызывает ассоциации с римским мифом о Ромуле и Реме и образом волка, а Tom Marvolo Riddle превращает имя в загадку, анаграмму и средство раскрытия тайной сущности персонажа. Топонимы Hogwarts, Diagon Alley, Knockturn Alley, Godric’s Hollow, Azkaban также выполняют не только пространственную, но и атмосферную, ценностную и интертекстуальную функцию: они организуют карту магического мира, маркируют переход из обыденной реальности в пространство чудесного и создают систему внутренних противопоставлений. У Дж. Р. Р. Толкина ономастическое пространство имеет иной характер: оно связано с мифоэпической глубиной Средиземья, историей народов, искусственными языками и ощущением древности созданного мира. Такие названия, как Gondor, Mordor, Rivendell, Moria, Khazad-dûm, Erebor, Lothlórien, воспринимаются не как случайные фантастические обозначения, а как элементы огромной мифологической системы, в которой имя хранит память о происхождении народа, судьбе пространства, древних конфликтах и сакральной истории мира. В этом отношении ономастика Дж. Р. Р. Толкина выполняет эпическую и мифотворческую функцию: она создаёт ощущение исторической достоверности вторичной реальности и превращает художественный мир в самостоятельную цивилизационную модель. У Д. А. Емца ономастическое пространство строится по другой логике: оно опирается на пародийно-интертекстуальную трансформацию известных имён, образов, мотивов и жанровых моделей. Аллюзионимы, комические номинации, игровые имена и переосмысленные культурные знаки в его произведениях создают эффект узнавания и одновременно снижения, благодаря чему фэнтезийная традиция подвергается ироническому переосмыслению. Если у Дж. К. Роулинг имя часто скрывает тайну, у Дж. Р. Р. Толкина сохраняет мифоэпическую память, то у Д. А. Емца оно нередко становится инструментом литературной игры, пародии и интертекстуального диалога с уже известными моделями фэнтези.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Проведённый анализ ономастического пространства в произведениях Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца позволил установить, что имена собственные, топонимы, этнонимы, названия магических предметов, фантастических существ, пространств,

институций и артефактов в англо- и русскоязычном фэнтези образуют не случайный набор номинативных единиц, а внутренне организованную систему художественных знаков, через которую реализуются интертекстуальные связи, авторские новации и принципы построения вторичной художественной реальности. В ходе исследования выявлено, что ономастическое пространство выполняет несколько взаимосвязанных функций: миромоделирующую, поскольку имена и названия участвуют в создании самостоятельного художественного мира; характерологическую, так как они помогают раскрывать внутреннюю сущность персонажа, его происхождение, ценностную позицию или скрытую роль в сюжете; интертекстуальную, поскольку многие онимы содержат отсылки к мифологии, фольклору, античной, библейской, средневековой и литературной традиции; эмоционально-оценочную, так как имя может вызывать у читателя ощущение тайны, опасности, древности, иронии, комизма или культурной узнаваемости; идиостилеобразующую, поскольку система имён становится одним из устойчивых признаков индивидуальной художественной манеры автора. В художественном мире Дж. К. Роулинг ономастика прежде всего связана с культурно-магической моделью фэнтези, где имя часто выступает как знак скрытого смысла, загадки, нравственной характеристики или сюжетного предвосхищения. Такие имена, как Albus Dumbledore, Severus Snape, Draco Malfoy, Sirius Black, Remus Lupin, Tom Marvolo Riddle, а также топонимы Hogwarts, Diagon Alley, Knockturn Alley, Godric’s Hollow, Azkaban демонстрируют, что ономастическая система «Гарри Поттера» строится на соединении этимологических, мифологических, астрономических, латинских, готических и культурных ассоциаций. При этом имя у Дж. К. Роулинг не всегда раскрывает смысл сразу: оно может функционировать как художественная подсказка, значение которой становится понятным по мере развития сюжета. В произведениях Дж. Р. Р. Толкина ономастическое пространство приобретает мифоэпический характер и связано с глубинной историей Средиземья, искусственными языками, генеалогией народов, географией сакральных и опасных пространств, а также с эпическим ощущением древности мира. Названия Gondor, Mordor, Rivendell, Moria, Khazad-dûm, Erebor, Lothlórien, Rohan и другие онимы не только обозначают места, но и включают читателя в сложную систему исторической памяти, культурной стратификации и мифологического времени. В данном случае имя выполняет функцию не столько загадки, сколько памяти: оно сохраняет следы происхождения народа, утраченного величия, древнего конфликта, сакральной миссии или трагического опыта. У Д. А. Емца ономастическое пространство организовано преимущественно через пародийно-интертекстуальную трансформацию, при которой имя становится средством литературной игры, комического снижения и переосмысления узнаваемых жанровых моделей. В его художественном мире аллюзионимы, игровые имена, комические номинации и пародийные названия создают эффект двойного восприятия: с одной стороны, они отсылают читателя к уже известным мифологическим, литературным или массово-культурным кодам, с другой – изменяют их тональность, переводя серьёзную фэнтезийную модель в пространство иронии, гротеска и игровой интерпретации. В результате сопоставления трёх авторских систем установлено, что ономастическое пространство в англо- и русскоязычном фэнтези по-разному реализует интертекстуальность: у Дж. К. Роулинг она чаще проявляется через скрытые культурные, мифологические и этимологические коды; у Дж. Р. Р. Толкина – через мифоэпическую глубину, искусственные языки и историзированную структуру вторичного мира; у Д. А. Емца – через пародийную переработку прецедентных имён, образов и жанровых клише. Существенным результатом исследования является также выявление того, что авторские новации в сфере ономастики не сводятся к созданию необычных или фантастических имён: они выполняют функцию художественного кодирования мира,

формируют систему внутренних оппозиций, задают читательские ожидания, связывают персонажа с определённой культурной традицией и помогают различать типы фэнтезийного миромоделирования. В этом отношении ономастическое пространство выступает как один из наиболее продуктивных уровней анализа фэнтезийного текста, поскольку именно через имя становится заметным взаимодействие жанровой традиции, авторской индивидуальности, интертекстуальной памяти и художественной новизны.

ДИСКУССИЯ

Полученные результаты позволяют рассматривать ономастическое пространство англо- и русскоязычного фэнтези как один из наиболее значимых уровней художественной организации текста, поскольку именно в системе имён наиболее отчётливо проявляется взаимодействие авторского воображения, жанровой традиции, культурной памяти и интертекстуальных связей. В литературоведении имя собственное долгое время рассматривалось преимущественно как средство обозначения персонажа, места или предмета, однако материал фэнтезийной литературы показывает, что в данном жанре имя приобретает более широкую поэтическую функцию. Оно становится не только знаком индивидуализации, но и способом создания вторичной художественной реальности, средством раскрытия мифопоэтического подтекста, формой характеристики персонажа и механизмом включения текста в пространство мировой литературной традиции.

Особенно показательно, что у Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца ономастическое пространство строится по различным принципам, хотя во всех трёх случаях оно связано с реализацией интертекстуальности и авторских новаций. У Дж. К. Роулинг имя часто функционирует как скрытый смысловой код. Оно может заранее намечать характер персонажа, его сюжетную роль или связь с определённой мифологической, астрономической, латинской, средневековой или культурной ассоциацией. При этом читатель не всегда сразу распознаёт значение имени, поскольку оно раскрывается постепенно, в процессе развития сюжета. Такая стратегия делает ономастическое пространство частью повествовательной интриги и усиливает эффект смысловой многослойности художественного мира.

У Дж. Р. Р. Толкина ситуация иная: его ономастическая система направлена прежде всего на создание ощущения древности, исторической глубины и внутренней достоверности Средиземья. Имена персонажей, народов, земель, крепостей и языков у Дж. Р. Р. Толкина связаны с разветвлённой мифоэпической структурой, в которой каждое название включено в более широкий культурно-исторический контекст. В отличие от Дж. К. Роулинг, где имя часто связано с тайной, загадкой или характерологической подсказкой, у Дж. Р. Р. Толкина имя выступает как знак памяти. Оно сохраняет следы прошлого, обозначает принадлежность к определённому народу, культуре, эпохе или сакральной миссии. Поэтому ономастика Дж. Р. Р. Толкина имеет не только номинативное, но и мифотворческое значение.

В произведениях Д. А. Емца ономастическое пространство демонстрирует другой тип художественного функционирования. Здесь имя часто становится средством пародийного переосмысления уже известных литературных и культурных моделей. Аллюзионимы, комические номинации и игровые имена создают эффект узнавания, однако это узнавание сопровождается изменением тональности: серьёзная мифологическая или фэнтезийная модель переводится в пространство иронии, комизма и литературной игры. Такая стратегия не разрушает жанр фэнтези, а показывает его способность к саморефлексии, внутреннему диалогу и переработке собственных устойчивых клише.

Сравнение трёх авторских систем показывает, что ономастическое пространство не может быть сведено к внешнему украшению текста или к формальному набору необычных

имён. Оно выполняет структурообразующую функцию и помогает различать разные модели фэнтезийного миромоделирования. Культурно-магическая модель Дж. К. Роулинг опирается на систему скрытых смыслов, ассоциаций и символических подсказок; мифоэпическая модель Дж. Р. Р. Толкина строится на языковой, исторической и мифологической глубине имён; пародийно-интертекстуальная модель Д. А. Емца использует имя как инструмент игры, трансформации и иронического диалога с традицией. В связи с этим ономастическое пространство следует рассматривать как важный показатель авторского идиостиля, поскольку именно через способы именования выявляется отношение автора к мифу, традиции, литературной памяти и жанровой модели фэнтези.

Дискуссионным остаётся вопрос о границах интертекстуальности в ономастическом пространстве фэнтези. Не каждое необычное имя может быть истолковано как интертекстуальный знак, поскольку часть имён создаётся автором прежде всего для формирования атмосферы художественного мира. Вместе с тем в произведениях исследуемых авторов значительная часть ономастических единиц действительно обладает культурной, мифологической, этимологической или литературной мотивированностью. Поэтому при анализе необходимо учитывать не только внешнее сходство имени с определённым источником, но и его функцию в тексте: участвует ли оно в раскрытии персонажа, создании хронотопа, формировании ценностных оппозиций, развитии сюжета или организации интертекстуального диалога. Такой подход позволяет избежать произвольного толкования имён и одновременно раскрыть их реальную художественную значимость в структуре фэнтезийного произведения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование позволяет утверждать, что ономастическое пространство в англо- и русскоязычном фэнтези является одним из важных средств реализации интертекстуальности, авторских новаций и индивидуального художественного миромоделирования. Имена собственные, топонимы, этнонимы, названия артефактов, магических существ, пространств и институций в произведениях Дж. К. Роулинг, Дж. Р. Р. Толкина и Д. А. Емца выполняют не только назывную функцию, но и участвуют в создании художественной целостности текста. Через систему имён раскрываются особенности вторичной художественной реальности, мифопоэтические основания жанра, культурные коды, интертекстуальные связи и авторская манера организации фэнтезийного мира.

Анализ показал, что в произведениях Дж. К. Роулинг ономастическое пространство связано с культурно-магической моделью фэнтези, где имя часто выступает как скрытый смысловой знак, характеристика персонажа, средство сюжетного предвосхищения и элемент художественной загадки. В художественном мире Дж. Р. Р. Толкина имена приобретают мифоэпическую функцию, поскольку они связаны с историей Средиземья, искусственными языками, памятью народов, сакральной географией и ощущением древности созданного мира. В произведениях Д. А. Емца ономастика реализуется преимущественно через пародийно-интертекстуальную трансформацию, где имя становится инструментом литературной игры, иронического переосмысления и переработки устойчивых жанровых моделей.

В результате сопоставительного анализа установлено, что ономастическое пространство является значимым показателем авторского идиостиля. У каждого из рассматриваемых авторов способы именования отражают не только специфику художественного мира, но и отношение автора к мифу, фольклору, литературной традиции и культурной памяти. Если у Дж. К. Роулинг имя чаще связано с тайной и символической подсказкой, у Дж. Р. Р. Толкина оно сохраняет мифоэпическую память и историческую глубину, а у Д. А. Емца становится

средством пародийного диалога с традицией.

Таким образом, ономастическое пространство в англо- и русскоязычном фэнтези следует рассматривать как самостоятельный и продуктивный уровень литературоведческого анализа. Оно позволяет выявить механизмы взаимодействия жанровой традиции и авторской индивидуальности, раскрыть формы интертекстуального переосмысления мифологических, фольклорных и литературных источников, а также определить роль имени в формировании художественного мира фэнтезийного произведения. Полученные выводы могут быть использованы при дальнейшем изучении поэтики фэнтези, литературной ономастики, интертекстуальности и сравнительно-типологического анализа современных англо- и русскоязычных художественных текстов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.
2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – 192 с.
3. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.
4. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман // Французская семиотика: от структурализма к постструктурализму. – М.: Прогресс, 2000. – С. 427–457.
5. Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree. – Lincoln; London: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p.
6. Дворак Е. Ю. Русское детское фэнтези: жанровая специфика и особенности мифопоэтики: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2015. – 237 с.
7. Хоруженко Т. И. Русское фэнтези: на пути к метажанру: дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2015. – 217 с.
8. Лебедев И. В. Жанровая поэтика в русском фэнтези конца XX – начала XXI веков: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2016. – 162 с.
9. Сафрон Е. А. Поэтика городского фэнтези в русской литературе XX – начала XXI веков: дис. ... д-ра филол. наук. – Нижний Новгород, 2022. – 437 с.
10. Насриддинов Д. Жанр фэнтези и его научная интерпретация в теоретических взглядах // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2023. – Т. 1, № 2. – С. 56–62.
11. James E., Mendlesohn F. The Cambridge Companion to Fantasy Literature. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 296 p.
12. Pugh T. Harry Potter and Beyond: On J. K. Rowling‘s Fantasies and Other Fictions. – Columbia: University of South Carolina Press, 2020. – 168 p.
13. Rowling J. K. Harry Potter and the Philosopher’s Stone. – London: Bloomsbury, 1997. – 223 p.
14. Tolkien J. R. R. The Lord of the Rings. – London: HarperCollins Publishers, 2007. – 1178 p.
15. Емец Д. А. Таня Гроттер и магический контрабас. – М.: Эксмо, 2002. – 416 с.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ЦЕЛЕВЫХ ОТНОШЕНИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Дилноза Эшкувватова
Магистрант, Денауский институт предпринимательства и педагогики
г. Денау, Узбекистан

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются способы выражения целевых отношений в русском и узбекском языках. Исследование выполнено на материале рассказа Л. Н. Толстого «После бала». В статье рассматриваются особенности выражения целевых отношений в русском и узбекском языках, анализируются грамматические и лексические средства их передачи. В результате сопоставительного анализа выявляются общие и специфические черты функционирования данных языковых. Особое внимание уделяется национально-языковым особенностям передачи целевых отношений и их роли в художественном тексте. Особое внимание уделяется синтаксическим конструкциям, союзам и формам глагола, выражающим значение цели. Результаты исследования показывают, что в обоих языках целевые отношения во многом сходны по своему значению, однако существенно различаются по способам грамматического выражения.

Ключевые слова: целевые отношения, русский язык, узбекский язык, простое предложения, сложные предложения, инфинитив, сложносочинённые предложения

RUS VA UZBEK TILLARIDA MAQSAD MUNOSABATLARINI IFODALASH VOSITALARI

Dilnoza Eshquvattova
Magistrant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Denov shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus va o‘zbek tillarida maqsad munosabatlarini ifodalash usullari batafsil ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot L. N. Tolstoyning «Posle bala» hikoyasi materiali asosida amalga oshirilgan. Maqsad ma’nosini ifodalovchi grammatik va leksik vositalar tahlil qilinib, ularning ikki tilda qo‘llanishiga xos o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Shuningdek, maqsad munosabatlarini ifodalashning milliy-lisoniy xususiyatlari hamda ularning badiiy matndagi o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Ayniqsa, maqsad ma’nosini ifodalovchi sintaktik konstruksiyalar, bog‘lovchilar va fe’l shakllariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda maqsad munosabatlari ma’no jihatidan ko‘p hollarda o‘xshash bo‘lsa-da, ularning grammatik ifodalanish usullari sezilarli darajada farq qiladi.

Kalit so‘zlar: maqsad munosabatlari, rus tili, o‘zbek tili, sodda gaplar, qo‘shma gaplar, infinitiv, bog‘langan qo‘shma gaplar.

WAYS OF EXPRESSING PURPOSE RELATIONS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Dilnoza Eshquvattova
Master’s Student, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Denau, Uzbekistan

Abstract: This article examines in detail the ways of expressing purposive relations in the Russian and Uzbek languages. The research is based on the analysis of Leo Tolstoy’s short

story "After the Ball" ("Posle Bala"). Grammatical and lexical means of expressing purpose are analyzed, and the similarities and differences in their functioning in the two languages are identified. The article also highlights the national and linguistic features of expressing purposive relations and their role and significance in literary texts.

Particular attention is paid to syntactic constructions, conjunctions, and verb forms that convey the meaning of purpose. The results of the study show that purposive relations in both languages are largely similar in meaning; however, they differ significantly in their grammatical expression.

Keywords: purposive relations, Russian language, Uzbek language, simple sentences, complex sentences, infinitive, compound sentences.

В современной лингвистике сравнительное изучение двух и более языков рассматривается как один из наиболее эффективных способов выявления специфики и закономерностей функционирования языковых единиц. Изучению целевых отношений в русском языке посвящены труды В. В. Виноградова, Н. С. Поспелова, А. В. Бондарко, Г. А. Золотовой и Н. Ю. Шведовой. В их исследованиях рассматриваются структурные, семантические и функциональные особенности средств выражения цели, а также способы реализации целевых отношений в различных синтаксических конструкциях русского языка.

В узбекском языкознании вопросы выражения целевых отношений нашли отражение в работах Г. Абдурахманова, А. Ходжиева, М. Саидова, Р. Кунгурова, Б. Менглиева и Н. Махмудова. В трудах данных учёных анализируются грамматические, лексические и синтаксические средства выражения целевого значения, а также их функционально-семантические особенности. Вышеуказанные учёные подробно рассматривали целевые отношения как в русском, так и в узбекском языках. На мой взгляд, сопоставительное изучение целевых отношений в целом в языкознании может способствовать дальнейшему развитию лингвистической науки, выявлению новых закономерностей и углублению понимания функционально-семантических особенностей языковых единиц в разных языках. В языкознании существует большое количество учёных, занимающихся сопоставительным изучением языков. Одним из таких исследований является работа «Целевые отношения в русском языке и способы их выражения в персидском языке». Амир Хосейни и Хадиджех Вализадех провели сопоставительное исследование грамматических и семантических средств выражения цели действия в русском и персидском языках. В данной работе рассматривается, с помощью каких форм и синтаксических конструкций выражаются целевые отношения как в русском, так и в персидском языках. Также подробно анализируются их сходства и различия.

Contrastive Analysis of Purpose Clauses in Russian and Uzbek Languages (https://usajournals.org/index.php/6/article/view/694) посвящена сопоставительному исследованию способов выражения целевых отношений в придаточных предложениях русского и узбекского языков. Особое внимание в работе уделяется структурным и семантическим особенностям целевых конструкций в обоих языках, а также выявлению их сходств и различий на синтаксическом уровне.

Functional-semantic field of purpose in Russian and Uzbek languages

(https://peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/1124). В статье проводится анализ функционально- семантического поля цели в русском и узбекском языках. Рассматриваются языковые средства разных уровней — лексического, грамматического и синтаксического, с помощью которых передаётся значение цели, а также их взаимодействие и характерные особенности в каждом из языков. Особое внимание уделяется тому, как значение

целенаправленности реализуется через различные языковые единицы, и выявляются сходства и различия в их функционировании.

В языкознании целевые отношения рассматриваются как одна из важных семантических категорий, отражающих направленность действия на достижение определённого результата. С помощью целевых отношений выражается, с какой целью в предложении осуществляется действие. Обычно целевые отношения в простых предложениях выражаются второстепенным членом предложения, то есть обстоятельством цели (См.таблицу 1). Оно отвечает на вопросы: зачем?, с какой целью?, для чего?

Таблица 1

Способы выражения целевые отношения в простых предложениях в русском и узбекском языках.

В русском языке	В узбекском языке
Наречие причины; Существительное в косвенных падежах (родительный, дательный, творительный, предложный падежи); Неопределенная форма глагола;[Э.А.Алиева,2023:106].	Дательным п.; Послелогом uchun; Деепричастие на- gali; Словом maqsadida (maqsad «цель» с афф. принадлежности 3- лицо и в местном п. [А.Н. Кононов,1960:362]

Слово maqsad с аффиксом принадлежности в случаях подчеркнуто выраженной цели сопровождается послелогом bilan. U dam olish maqsadida keldi. Он приехал с целью/ для того чтобы отдыха.

В русском языке цель в простых предложениях обычно передаётся аналитическими средствами. Наиболее распространённым способом её выражения выступает инфинитив глагола, который играет при этом особую роль. Например: «Я пришёл работать», «Я пришёл отдохнуть». В подобных конструкциях неопределённая форма глагола (инфинитив) выражает, с какой целью совершается действие. В русском языке значение цели может передаваться не только с помощью инфинитива, но и через предложные конструкции. Так, сочетания с предлогами «для», «ради», «с целью» (например: «для счастья», «ради мамы», «с целью работы») показывают, что действие направлено на достижение определённого результата.

В узбекском языке целевые отношения выражаются с помощью различных грамматических средств, среди которых важную роль играют аффиксы и постпозиции. Одним из наиболее распространённых способов является образование отглагольного имени с помощью суффикса - ish с последующим употреблением постпозиции «uchun».

Такая конструкция позволяет чётко и понятно передать цель действия. Она широко используется в речи, так как делает высказывание более ясным и логически завершённым. Например:

Men ovqatlanish uchun keldim — я пришёл, чтобы поесть.

Biz o‘qish uchun keldik — мы пришли, чтобы учиться.

Таким образом, сочетание формы на -ish с постпозицией «uchun» является одним из

основных и наиболее удобных способов выражения целевой направленности действия в узбекском языке. В узбекском языке данная конструкция является универсальным и наиболее продуктивным средством выражения целевых отношений.

Результаты анализа показывают, что целевые отношения в русском и узбекском языках семантически схожи между собой, однако грамматически существенно различаются. В русском языке целевые отношения выражаются неопределённой формой глагола и косвенными падежами, тогда как в узбекском языке они выражаются с помощью аффиксов и послелогов. Таким образом, в пределах простого предложения оба языка располагают разнообразными грамматическими и лексическими средствами выражения целевых отношений, что наглядно отражает их специфические типологические особенности.

Выражение целевые отношений в сложных предложениях

В лингвистике целевые отношения трактуются как значимая семантическая категория, отражающая направленность действия на достижение конкретного результата. В структуре сложного предложения данное значение реализуется через синтаксико-семантическую связь между главным и придаточным компонентами. При этом придаточное предложение конкретизирует целевую установку действия, представленного в главной части.

В русском языке целевые отношения в сложноподчинённых предложениях преимущественно выражаются с помощью придаточных предложений цели. Такие придаточные обозначают цель действия, о котором говорится в главной части. Они присоединяются к главной части при помощи союзов чтобы, дабы, для того чтобы, с тем чтобы, затем чтобы, лишь бы, только бы.

[Э. А. Алиева,2023:226]

В русском языке союзы по значению делятся на семантически специализированные (монофункциональные) и полифункциональные. В узбекском языке тоже есть союзы, похожие на них, однако нельзя сказать, что они полностью одинаковы. Монофункциональные союзы употребляются только в одном определённом значении. Например:

Чтобы понять, надо много рассказывать (союз «чтобы» выражается значение цели).

Tushunish uchun voqeani batafsil so‘zlab berish kerak (союзом «uchun» выражается значение цели).

Sen tushunishing uchun, ko‘p gapirish kerak (союзом «uchun» выражается значение цели).

В данном предложении при переводе с русского на узбекский язык безличная конструкция была передана более обобщённо, поэтому смысл стал менее точным. Однако при уточнении субъекта восстанавливается местоимение «ты», и значение предложения становится более конкретным и ясным.

Полифункциональные союзы могут употребляться в разных значениях. Например:

«Чтобы вывозить и одевать любимую дочь, он не покупает модных сапог, а носит домодельные», — думал я, и эти четвероугольные носки сапог особенно умиляли меня.

«Suyukli qizini kiyintirish va uning ehtiyojlarini ta’minlash uchun u modadagi etiklarni sotib olmas, balki o‘zi tikadigan (uyda tayyorlangan) etiklarni kiyib yurar edi», — deb o‘ylardim men, va ushbu to‘rtburchak shakldagi etik uchlari menda alohida mehr uyg‘otardi.

И я боялся только одного, чтобы что-нибудь не испортило моего счастья.

Мен фақат битта нарсадан қўрқардим — бахтимни бирор нарса бузиб қўймасин.

В первом предложении союз «чтобы» вводит придаточное цели и выражает целевые отношения, поскольку придаточная часть обозначает цель действия, названного в главной части. Во втором предложении союз «чтобы» вводит придаточное изъяснительное. В данном случае придаточная часть не указывает на цель действия, а раскрывает содержание

чувства страха, выраженного сказуемым «боялся». От главной части к придаточной можно поставить вопрос «чего боялся?», а не «с какой целью?». Следовательно, между главной и придаточной частями устанавливаются изъяснительные, а не целевые отношения. Если проводить анализ на узбекском языке, то в первом предложении союз «uchun» выражает цель, однако во втором предложении при переводе с русского языка на узбекский союз «uchun» заменяется тире, и придаточная часть выполняет функцию изъяснительного придаточного, поясняя содержание главной части. При переводе в некоторых случаях союзы опускаются, а их значение передаётся знаками препинания.

Союз чтобы является полифункциональным и может выражать различные смысловые отношения:

Целевое отношения

Изъснительные отношения

Отношения желания, просьбы, требования

Монофункциональные союзы — это союзы, которые выражают только значение цели. Они делятся на два вида: недифференцированное и дифференцированное значение.

Недифференцированное значение выражает цель в общем, простом виде, без дополнительных пояснений и уточнений, кратко.

Дифференцированное значение выражает цель более точно, развернуто и с усилением смысла.

В составе сложноподчинённых предложений целевые союзы также делятся на два типа:

Недифференцированное значение: чтобы- uchun, дабы- uchun (книжный стиль), да-uchun (в значении цели).

Дифференцированное значение: для того чтобы-uchun, ради того чтобы-yo’lida, …deb, с тем чтобы- maqsadida, во имя того чтобы- yo’lida, …deb, в тех целях чтобы- maqsadida, с той целью чтобы- maqsadida, лишь бы-faqat, ….bo’lsa bas, только бы- faqat, ….bo’lsa bas. [Э. А. Алиева, 2023:181]

Таблица 2

Таблица 2

Средства выражения недифференцированного значения целевых отношений

Примеры с недифференцированноем значением	Характеристика
Мне очень хотелось ,чтобы всё было так же хорошо, как на бале	Союз «чтобы» выражает желаемое содержание того, о чём говорится в главной части (желание, стремление, просьбу и т. п.), и присоединяет придаточное изъяснительное.
Xammasi baldagi kabi yaxshi bo'lishini juda xohlardim	Здесь целевое значение выражено не как самостоятельное действие, а как часть желания, в котором оно не выделяется отдельно и семантически сливается с ним и передаётся простым предложением
Я отвёл глаза, дабы не встретиться с её взглядом	Придаточная часть выражает целевые отношения: действие «отвёл глаза» совершается с целью не встретиться взглядом. Союз «дабы» — книжный, архаичный, равен «чтобы» и выражает цель в общем виде.
Uning nigohiga duch kelmaslik uchun ko'zimni chetga oldim.	Цель не оформлена как самостоятельное предложение, чётко выделенное действие и не выступает как отдельный план или практическая задача, а непосредственно связана с внутренним эмоциональным состоянием субъекта (нежеланием, психологическим дискомфортом).

Таблица 3

Средства выражения дифференцированного значения целевых отношений

Примеры с дифференцированноем значением	Характеристика
Он пришёл раньше, для того чтобы подготовить документы.	Поскольку предложение содержит придаточное цели, целевая семантика явно выражена союзом «для того чтобы» и выступает самостоятельным компонентом высказывания
Он пришёл раньше для того, чтобы подготовить документы	Однако в первом предложении в определённых контекстах данная конструкция может совмещать целевое и изъяснительное значения, раскрывая содержание действия и отвечая на вопросы „зачем?“ или „для чего?
U hujjatlarni tayyorlash uchun ertaroq keldi	Цель выражена союзом «для того чтобы» и выступает как самостоятельный компонент высказывания. Она не смешивается с другими значениями (желанием, требованием, эмоциями и др.), а чётко реализует целевую семантику.
Они работали днём и ночью, ради того чтобы завершить проект в срок	Придаточная цели выражена союзом «ради того чтобы» и выступает как самостоятельная семантическая единица, не совмещаясь с другими значениями (желанием, эмоцией, приказом или требованием).
Ular loyihani o'z vaqtida yakunlash uchun kechayu kunduz ishladilar	Цель выражена как самостоятельная семантическая единица: «для завершения проекта в срок», с помощью «для того чтобы/для» и не смешивается с другими значениями (желанием, эмоциями, побуждением).

Придаточные цели могут располагаться в постпозиции, препозиции и интерпозиции по отношению к главной части. Они отвечают на вопросы: с какой целью? зачем? для чего? Предложение «Чтобы понять, надо много рассказывать» (Tushunish uchun ko'p gapirish

kerak). схема: ( ),[ ]. является сложноподчинённым и включает придаточную часть со значением цели. В нём придаточное указывает, с какой целью осуществляется действие, выраженное в главной части. Связующим средством служит союз чтобы, который типично используется для передачи целевых отношений.

Главная часть оформлена как безличная конструкция (надо много рассказывать), а придаточная представлена инфинитивом (чтобы понять), что придаёт высказыванию обобщённый характер. Придаточное стоит перед главной частью, то есть находится в препозиции, и отвечает на вопрос зачем?.

В целом данная конструкция наглядно иллюстрирует один из распространённых способов выражения цели в русском языке, при котором действие главной части объясняется через его направленность на определённый результат. А в узбекской грамматике предложение «tushunish uchun ko’p gapirish kerak» относится к простым односоставным (безличным) предложениям. В процессе перевода в некоторых случаях сложные предложения русского, узбекского и других языков могут трансформироваться в простые предложения.

В его структуре выделяется обстоятельство цели «тушуниш учун», которое указывает на назначение действия и оформляется при помощи служебного слова «uchun» («для»).

Основная часть представлена конструкцией «кўп гапириш керак», где инфинитив «gapirish» обозначает само действие, «ko’p» характеризует его интенсивность, а модальное слово «kerak» выражает необходимость.

Таким образом, в предложении не называется конкретный исполнитель действия, однако передаётся общее значение необходимости и цели: для понимания требуется много говорить.

Заключение

Проведённый анализ показывает, что в обоих языках целевые отношения представляют собой важную семантическую категорию, выражающую направленность действия на достижение определённого результата и его целевую обусловленность. В русском и узбекском языках целевые отношения имеют как общие, так и различительные черты. Данная категория широко используется как в простых, так и в сложных (составных) предложениях, однако средства её выражения существенно различаются.

В узбекской лингвистической традиции целевые отношения преимущественно выражаются средствами агглютинативного типа, то есть с помощью аффиксов и постпозиций. Так, широко применяется конструкция «-ish + uchun», а также служебные слова «uchun», «deb», «deya» и другие. Данные языковые средства обеспечивают точное и упорядоченное выражение целевых отношений как в простых, так и в сложных синтаксических конструкциях.

Сопоставительный анализ показывает, что, несмотря на одинаковое семантическое содержание целевых отношений в русском и узбекском языках, их грамматическое оформление существенно различается с типологической точки зрения. В русском языке целевые отношения выражаются разнообразными грамматическими средствами, в том числе инфинитивными конструкциями, тогда как в узбекском языке они формируются при помощи аффиксов и постпозиций. Таким образом, в двух языках по-разному реализуются структурные особенности выражения цели, при этом сохраняется единая функционально-семантическая направленность и подтверждаются их типологические различия.

Использованная литература:

Э. А. Алиева. Современный русский язык. Синтаксис. Ташкент: «Fidokor Yosh Avlod», 2023.

Грамматика современного узбекского литературного языка. Кононов, Андрей

Николаевич, 1906-1986.

Б. Уринбоев. Хозирги узбек адабий тили. СамГУ Нашр-матбаа маркази. Самарканд, 2001.

Целевые отношения в русском языке и способы их выражения в персидском языке // Молодой ученый. — 2014. — № 20 (79). — С. 744–751. — URL: https://moluch.ru/archive/79/13304/

Contrastive Analysis of Purpose Clauses in Russian and Uzbek Languages // USA Journals (Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy). — 2025. — Vol. 1, Issue 3. — pp. 1003–1013. — URL: https://usajournals.org/index.php/6/article/view/694

Functional-semantic field of purpose in Russian and Uzbek languages // The Peerian Journal. — 2025. — Vol. 42. — pp. 119–122. — URL: https://peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/1124

Шведова Н. Ю. Русская грамматика. Том 2. Синтаксис. – 1980

BADIIY PORTRET VA TILDAN SAMARALI FOYDALANISH: SH.XOLMIRZAYEV VA LEV TOLSTOY IJODIDA

Ergashev Aslbek Hamza o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Rus adabiyotshunosligi kafedrasi PhD, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukut Xolmirzayev va Lev Tolstoyning o‘ziga xos poetik mahorati, til va obrazlilikni shakllantirishdagi izlanishlari, badiiy portret yaratishdagi o‘ziga xos uslubi talqin etiladi. Qissada yuzaga chiqqan badiiy portret haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Kalit so‘z: obraz, uslub, portret, mahorat, poetika, xarakter, kompozitsiya, til.

Аннотация. В данной статье интерпретируются своеобразное поэтическое мастерство Льва Толстого и Шукура Холмиразаева, их поиски в формировании языка и образности, а также их особый стиль создания художественного портрета. Статья позволяет сформировать определённое представление о художественном портрете, раскрытом в повести.

Ключевые слова: образ, стиль, портрет, мастерство, поэтика, характер, композиция, язык.

Annotation. This article interprets the distinctive poetic mastery of Leo Tolstoy and Shukur Kholmirzaev, their creative explorations in shaping language and imagery, as well as their unique style of creating literary portraits. The article provides an insight into the artistic portrait as revealed in the novella.

Keywords: image, style, portrait, mastery, poetics, character, composition, language.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev iqrorlarida badiiy portret yaratish san’ati, tildan unumli foydalanish mahorati haqida ham rus yozuvchilaridan ta’sirlanganini inkor qilib bo‘lmaydi. Ana shu konsepsiya Shukur Xolmirzayev fenomeniini ko‘z o‘ngimizda gavdalantirishga imkon beradi. Dunyo adabiyoti bilan yaqindan tanishgan yozuvchi zoti borki, hamisha bu ikki daho haqida, ya’ni L. Tolstoy, F. Dostoyevskiy iqrorlarini chetlab o‘tmaganining shohidi bo‘lamiz. Lev Tolstoyning har bir idroki, falsafasi, orzulari, iqrorlari bugun uchun ham, global dunyoda yashab qolish imkoniga ega odamzod uchun ham suv va havodek zarurligi ayonlashadi. Shu ma’noda, insoniyat yetib kelgan manzillaru makonlar, iqrorlar, tavba-yu, tazarrular semasida badiiy kompozitsiya asar arxitektonikasini muvofiqlashtirishga yo‘naltirgani namoyon bo‘ladi. Bunday tasvir ekzislari hamisha global masalalarni anglashga qandaydir rag‘bat, kuch va imkoniyatdir. O‘zbek va rus qissachiligida badiiy til imkoniyatlari, tildan unumli foydalanish manerasi ham yuqoridagi mulohazalarni anglashga katta burilishdir. Bunday iqrorlar har doim o‘zbek adabiyotida bo‘lgan va mumtoz klassiklarimizni o‘qiganimizda ham yaqqol ko‘zga tushishi tayin.

Yozuvchi “Iblis” qissasida shaytoni layin gapiga kirib, buzuq hayotga o‘rgangan odamlar ruhiyatii shu qadar tartiblatiradiki, natijada badiiy portret yanada mukammal ko‘rinishga keladi:

“Yevgeniyning o‘zi ham uylanishni orzu qilardi-yu, ammo uning orzusi onasinikiga o‘xshamas edi. Uylanish hisobidan ahvolini o‘nglab olish unga qabihlik bo‘lib ko‘rinardi. U kimga bo‘lmasin, halol yo‘l bilan, sevib uylanishni istardi. Yevgeniy o‘zi to‘qnash kelgan qizlarni ko‘z ostiga olar, ular o‘zining tengimi-yo‘qmi chamalar, ammo bu borada hali toleyi kulmay turar edi. Shu orada, o‘ziyam kutmagan holda, Stepanida bilan pinhona uchrashuvlari davom etar, hatto barqarorlashib borardi. Yevgeniy buzuqlikdan yiroq edi, shuning uchun yashiriqcha ish qilayotganidan azoblanar,

bu qilmishi chakkiligini his etar va hatto ilk uchrashuvdan keyinoq Stepanidani boshqa ko‘rmaslikka umid bog‘lagan edi. Ammo bir¬oz vaqt o‘tgach, yigit yana betoqat bo‘la boshladi va o‘z ahvolini yana o‘sha “eski dard”dan deb bildi. Bu gal endi unga kim bo‘lsa ham baribir emasdi. U aynan o‘sha porlab turuvchi qora ko‘zlarni, o‘sha past, mayin ovozdagi “Yo‘g‘-yey, ko‘p emas!” degan so‘zlarni, o‘sha badandan taralayotgan shirin, o‘tkir hidni, o‘sha peshbandni turtib turgan durkun ko‘krakni, yana bularning barini o‘sha quyosh charaqlab turgan mahal yong‘oq va zarang butalari orasida ko‘rishni xohlardi. Har qancha xijolatli bo‘lmasin, u yana Danila cholga murojaat qildi. Uchrashuv bu gal ham tush paytiga, o‘rmonga tayin etildi. Endigi uchrashuvda Yevgeniy juvonga tikilibroq qaradi, juvon uning ko‘ziga jozibali ko‘rindi. Yevgeniy uni gapga solib, eri haqida so‘radi. Chindan ham, eri – Mixayla cholning o‘g‘li ekan, hozir Moskvada izvoshchilik qilarkan.

– Har qalay, sen nega bunday… – Yevgeniy, eringga xiyonat qilib yuribsan, deb so‘ramoqchi bo‘ldi.

– Xo‘sh, qanday qilib ekan? – deb so‘radi juvon. U o‘ziga yetkancha aqlli va farosatli edi.

– Men bilan uchrashib yuribsan deyman-da?

– Obbo, – quvnoq ohangda so‘z qotdi juvon.– Erim o‘sha yoqlardan birortasini allaqachon topib olgandir. Men ham bu yerdan birortasini topib olgan bo‘lsam, nima qipti?”

Yozuvchi “Iblis” qissasida turli-tuman xarakterlarni badiiy tasvirlar ekan, kompozitsion muvofiqlilik hamisha batartib joylashuvga diqqat qaratadi. Yevgeniy – bu ikkilanishlar, iztiroblar orasida qolgan qahramon. Bu yozuvchining – o‘zi. U bunday batartib hayotni tanlar ekan, o‘z xatolarini iqrorlarini, tavbalari-yu, taskinlari bilan uyg‘unlashtirib yuboradi. Shu boisdan ham, hayotning mukammal formulasi chizib beriladi. Yevgeniy Stemanidani jonidan ortiq yaxshi ko‘radi. Ammo, uning eri bor. Shunday bo‘lsa-da, hayot haqiqatini teran idroklashga katta umid bag‘ishlaydi. Inson hamisha shu metamorfoza bilan og‘rinib yashashini u oldindan biladi. Buyuk ispan mutafakkiri Xose Ortega-i-Gasset e’tiroficha: “Har qanday san’atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo‘lgan qator urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san’atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san’at kamalakning yengil o‘qi kabi shu chiziq bo‘ylab zamon qa’riga o‘z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san’atning yo‘nalishini, mohiyatini va ma’nosini ko‘rsatib turadi”. Lev Tolstoy “Iblis” qissasida mana shu konsepsiyani to‘laqonli ochib bera olgan. Negaki, insoniyat xatolar, adashishlar, yolg‘onlar orasida qolib ketgani, ulardan tozalanish, poklanish manziliga yetish muhimligini Lev Tolstoy qahramonlari tilidan shu qadar chuqur va ma’noli idroklaydiki, bularning zamirida hayot hamisha silliq kechmasligini tushunib yetadi kitobxon. Aristotelning “Axloqi kabir” asarida L. Tolstoyning nima istayotganiga munosib bir javob borligini ko‘rishimiz mumkin. Aristotel bu haqda shunday yozadi: “Qadrli ne’matlar deb men ruh, aql, javhari asl, tabiiy, tug‘ma iste’dod kabilarni aytaman. Bular doimo qadrlanadigan, barcha uchun sharafli bo‘lgan (aziz va sharif) ne’matlardir. Fazl, fazilatlar ham qadrlidir, chunki inson ular tufayli munosib, yetuk bo‘ladi. Inson fazilatlari tufayli go‘zal (ma’naviy) qiyofaga ega bo‘ladi. Maqtovli ne’matlar ham o‘sha fazilatlarning maqtovga sazovorlaridir.

Lev Tolstoy ijodi, xususan uning qissalari, rus realizm adabiyotida tilning tabiiyligi, hayotiy ritmini ilmiy va badiiy jihatdan yuksak darajada namoyon etgan namuna sifatida e’tirof etiladi. Uning qissa janridagi asarlari — “Kazaki”, “Detstvo”, “Otrochestvo”, “Yunost”, “Xadji-Murat”, “Tri smerti” va boshqalar — tilning realistik funksiyalarini ochib beruvchi mukammal badiiy laboratoriyadir. Tolstoy ushbu asarlarda tilni faqat tasvir vositasi sifatida emas, balki inson xarakteri, dunyoqarashi, ijtimoiy muhiti va ichki ziddiyatlarini ochuvchi mustaqil semiotik tizim sifatida namoyon etadi[1].

Tolstoy badiiy tilining realistik tabiati avvalo haqqoniylik tamoyiliga asoslanadi. Yozuvchi

voqelikni ideallashtirmaydi, balki uni boricha, barcha ziddiyatlari, qoqishlari va tabiiy qirralari bilan ko‘rsatadi. Realistik tilning birinchi belgisi — ko‘rsatish uslubi: Tolstoy hodisalarni mualliflik sharhi orqali emas, balki tasviriy detallar va voqeiy muloqotlar orqali namoyon qiladi[2].

Masalan, “Kazaki” qissasida qahramon olgan taassurotlar yoki ichki kechinmalar pafosiz, katta-kichik qilib ko‘rsatilmaydi; ular kundalik nutq ifodasi kabi tabiiy ravishda oqib boradi: “Olenin ishonch bilan bilar edi, shu yerda, kichkina ovlarda, u o‘zini topa oladi”[3].

Bunday uslub realizmning markaziy qonuniyati — inson va muhitning organik birligini til orqali namoyon qiladi.

Tolstoy badiiy tilida “har bir qahramonning o‘z ovozi” mavjud. Bu xususiyat realistik nutq tasvirining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Uning qahramonlari o‘z ijtimoiy tabaqasi, yoshi, tafakkuri, milliy mansubligiga xos nutq me’yorlarida gapiradi.

Masalan, “Xadji-Murat”dagi rus ofitserlarining so‘zida kitobiy-mansabdor uslub, Kavkazlik qahramonlar nutqida esa lo‘nda, aforistik, xalqona intonatsiyalar ustuvordir[4].

Bu orqali Tolstoy:

til va muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni;

qahramonning madaniy-ijtimoiy yuzini;

etnik nutqiy modellar farqini;

realistik uslubda ko‘rsatib beradi.

Tolstoyning muhim stilistik yutug‘i — detal yordamida xarakter yaratish. Uning tilida har bir obyekt — yog‘och soyabon, kuchukning qichishi, qahramonning kiyimidagi mayda kirlar — badiiy vazifaga ega.

Masalan, “Tri smerti” qissasida tabiat detallari va inson o‘limiga oid tasvirlar o‘rtasidagi parallellik til orqali falsafiy mazmunga ega bo‘ladi. Tolstoy tabiat tilini inson hayotining universal ritmi sifatida qo‘llaydi: tabiatdagi o‘lim sokin, harakatsiz va tabiiy, insonning o‘limi esa qo‘rqinchli va ruhiy qiynoqlar bilan kechadi[5].

Bunday antiteza yozuvchi realizmining lingvopoetik mohiyatini ochadi: til inson tafakkuri va borliq haqidagi falsafiy xulosaning bevosita ifodasiga aylanadi.

Tolstoy qissalarida til realizmning psixologik qirrasini ham namoyon etadi. Ichki monolog, erkin bilvosita nutq, qahramon fikrining muallif nutqi bilan qorishishi — uning asosiy uslubiy topilmalari hisoblanadi.

“Detstvo”, “Otrochestvo” va “Yunost” qissalarida bola tafakkurining intonatsiyasi to‘liq saqlangan holda berilgan:

tayinsizlik,

kechikkan fikrlash,

tez-tez qaytishi,

o‘ziga murojaat,

— bularning barchasi tilning realistik psixologiyasini shakllantiradi.

Tolstoy psixolingvistik realizm orqali qahramonning ichki dunyosidagi harakatni voqealar dinamikasidan ustun qo‘yadi. Demak, til ichki borliqni tasvirlashga xizmat qiladi.

Tolstoyning til haqidagi falsafasi uning axloqiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq. Uningcha, til insonning ichki haqiqatiga xizmat qilishi kerak; pastkashlik, yolg‘on, mansab uchun yoqimtolchalik nutqda o‘z ifodasini topadi.

“Xadji-Murat”da Nikolay I nutqi rasmiyatchilik, suxanburdlik va qo‘rqinch tonlari bilan berilgan; bu til yordamida podshoning ichki mohiyati ochiladi.

Shu ma’noda Tolstoy tili axloqiy kategoriyalarga ega bo‘ladi: rostlik, soddalik, tabiiylik — uning estetik idealidir.

Lev Tolstoy qissalarida tilning realistik tabiati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:
voqelikni bezatmasdan, tabiiy ravishda tasvirlash;
nutqiy individualizatsiya orqali xarakterlarning real portretini yaratish;
batafsil detallar orqali badiiy modellashtirish;
psixologik realizm vositalari orqali ichki dunyo tasviri;
dialoglarda hayotiylik va pragmatik lo‘ndalik;
tilning axloqiy falsafasi.

Shuningdek, Tolstoyning lingvopoetikasi realizmning estetik qonunlarini nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham namoyon etadi. Uning tildagi realistik uslubi jahon adabiyotida inson nutqining haqqoniy, hayotiy va falsafiy tabiati qanday ifoda etilishi mumkinligining yuqori namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Sarimsoqov B. I. Badiiylik asoslari va mezonlari – T.: Fan, 2004.
Timofeyev L.I Osnovi teoriya literaturi. – M.: Prosvesheniye, 1971;
Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslika kirish. – T.: Sharq, 2008;
Baxtin M. M. Problemy poetiki Dostoevskogo. — Moskva: Nauka, 1972.
Gromov M. N. Tvorchestvo Lva Tolstogo i traditsii russkoy literatury. — Sankt-Peterburg: Filologicheskiy fakultet SPbGU, 2001.
Yesin A. B. Poetika L. N. Tolstogo. — Moskva: Yazyki russkoy kultury, 1999.
Tolstoy L. N. Polnoe sobranie sochineniy. T. 8. — M.: Goslitizdat, 1935.
Tolstoy L. N. Kazaki // Polnoe sobranie sochineniy. T. 4.

SAID AHMADNING “SAROB” HIKOYASIDA MILLIY KOLORIT TASVIRI

Hamraeva Mohira Ummatovna,
JDPU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Said Ahmadning “Sarob” hikoyasida milliy koloritning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda milliy muhit, milliy xarakter, xalqona til, urf-odat va an’analar, milliy qadriyatlar hamda badiiy detallar tizimi orqali o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy qiyofasi qanday yaratilgani yoritiladi. Shuningdek, milliy koloritning syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda psixologik tasvir bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-tipologik va germenevtik usullardan foydalanildi. Tahlil natijalari Said Ahmad milliylikni tashqi etnografik belgilar bilan cheklamasdan, uni inson ruhiyati va axloqiy tanlovi bilan uyg‘un holda badiiylashtirganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: milliy kolorit, milliy xarakter, milliy muhit, xalqona til, urf-odat, milliy qadriyat, psixologizm, badiiy detal, ramz, Said Ahmad.

Аннотация: В статье анализируются особенности художественного воплощения национального колорита в повести «Сароб» («Мираж») выдающегося представителя узбекской литературы Саида Ахмада. Рассматривается, как через натсиональную среду, национальный характер, народный язык, обычаи и традиции, национальные ценности и систему художественных деталей формируется духовно-нравственный облик узбекского народа. Кроме того, на научно-теоретической основе анализируется взаимосвяз национального колорита с сюжетом и композицией, системой образов и психологической характеристикой персонажей. В исследовании применялис сравнително-аналитический, историко-типологический и герменевтический методы. Результаты анализа свидетелствуют о том, что Саид Ахмад художественно воплотил национальное начало, не ограничиваяс лиш внешними этнографическими признаками, а гармонично сочетая его с духовностю человека и его нравственным выбором.

Ключевые слова: национальный колорит, национальный характер, национальная среда, народный язык, традиция, национальная ценност, психологизм, художественная детал, символ, Саид Ахмад.

Abstract: This article examines the artistic expression of national color in the short story Sarob by the prominent Uzbek writer Said Ahmad. The study analyzes how the author reveals the spiritual world, moral values, and national mentality of the Uzbek people through national setting, character portrayal, folk language, customs, traditions, and artistic details. It also explores the relationship between national color and the plot, composition, characterization, and psychological depiction of the story. Comparative, historical-typological, and hermeneutic methods are employed in the research. The study concludes that Said Ahmad presents national identity not merely through ethnographic elements but primarily through the inner world, moral choices, and worldview of his characters.

Keywords: national color, national character, folk language, traditions, artistic detail, psychology, symbolism, Uzbek prose.

KIRISH. Said Ahmadning “Sarob” hikoyasi stalincha qatag‘on, qamoq lagerlari hayoti va inson fojiasi emas, balki inson ruhiyati orqali, nohaq hukmlar kabi tarixiy voqealar ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois asar tarixiy voqelik bilan birga chuqur psixologik mazmun ham kasb

etadi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, muallif asosiy e’tiborni siyosiy voqealarga emas, balki o‘zbek insonlari taqdiri, milliy qadriyatlari va ma’naviyatiga ko‘rsatgan ta’siriga qaratgan deyish mumkin. Darhaqiqat, “Sarob” hikoyasida milliy muhit, xalqona til, milliy xarakter va ma’naviy qadriyatlarni yaxlit badiiy tizim. Bu esa asarning realistik tabiati va milliy o‘ziga xosligini belgilaydi. Hikoya qahramoni Olimjon domla – iymonli, sabrli, ma’rifatli o‘zbek ziyolisi. Adib uning shaxsiy fazilatlari orqali o‘zbek ziyolilariga xos ma’naviy kamolot, ilmparvarlik va milliy merosga hurmat kabi qadriyatlarni yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan. Bu jihat asarda milliy koloritning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lganligini quyda ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Adabiyotshunoslikda milliy kolorit muayyan xalq hayotiga xos turmush tarzi, urf-odatlar, an’analar, til xususiyatlari, ma’naviy qadriyatlar va milliy psixologiyaning badiiy asarda o‘z ifodasini topishini anglatadi. Endi kolorit so‘zining lug‘aviy ma’nosiga kelsak, “Milliy kolorit (lotincha color – rang, bo‘yoq) – biror xalqqa, millatga xos bo‘lgan o‘ziga xoslik, urf-odat, mentalitet, turmush tarzi va milliy xususiyatlarning badiiy asar yoki san’at asarida yorqin aks etishi”[1;192] hisoblanib, badiiy asarda muayyan xalqning milliy hayoti, urf-odatlari, an’analari, tili, turmush tarzi va ma’naviy dunyosiga xos belgilarning badiiy yaxlitlikda aks etishi, ishonchliligi va hayotiyligini ta’minlovchi muhim estetik omildir. “Kolorit badiiy asarda tasvirlangan o‘ziga xos xususiyatlar, urf-odatlar va qiliqlar” [1;145] hisoblanib, badiiy asarda muayyan muhit, davr yoki millatga xos xususiyatlarning umumiy badiiy tusi va o‘ziga xosligi bo‘lib, milliy kolorit muayyan millatning milliy hayotini badiiy jihatdan ishonchli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Demak, milliy kolorit tashqi etnografik belgilar yig‘indisi bo‘lsa, milliylik faqat libos, taom yoki marosimlar tasviri bilan cheklansa, asarning milliy ruhi to‘liq ochilmaydi, shu bois milliy kolorit hikoyada shunchaki tashqi bezak emas, balki g‘oyaviy-estetik vazifani bajarish kerak. “Sarob” hikoyasi adib mahorati tufayli mana shu vazifani to‘liq bajargan. Ya’ni, hikoyada qahramonlar milliy o‘zligi ochilgan, voqealar hayotiyligi, xalq ma’naviyati, milliy qadriyatlarning totalitar mafkuradan ustun ekanligi yozuvchi tomonidan mohirona tasvirlangan.

Ma’lumki, milliy koloritning haqiqiy mezoni – qahramonlarning fikrlash tarzi, hayotga munosabati, axloqiy qadriyatlari va milliy tafakkurining badiiy ifodasidir. Bu haqida adabiyotshunos Umarali Normatov Said Ahmad ijodini tahlil qilar ekan, adibning xalq hayotini chuqur bilishi va milliy xarakterni tabiiy yaratish mahoratini uning ijodining yetakchi xususiyati sifatida baholaydi. Olimning fikricha, Said Ahmad qahramonlari milliy muhitdan ajralgan holda emas, aynan shu muhit bag‘rida shakllangan shaxslar sifatida gavdalanadi [4]. Ibrohim G‘afurov esa milliylikning asosiy mezoni inson qalbi ekanini ta’kidlab, haqiqiy badiiylik xalq ruhiyatining chuqur his etilishi bilan belgilanishini qayd etadi [5]. Bu qarashlar “Sarob” hikoyasini tahlil qilishda ham muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Milliy kolorit quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: milliy muhit, milliy xarakter, xalqona til va nutq madaniyati, urf-odat va an’analar, milliy psixologiya, xalq og‘zaki ijodi elementlari, badiiy detallar va ramzlar. Bu elementlar o‘zaro uyg‘unlashgandagina asarda milliylikning yaxlit manzarasi yuzaga keladi.

“Sarob” hikoyasida milliy kolorit voqealarning yuqorida qayd etganimizdek, tashqi bezak emas, balki asarning ichki mazmunini tashkil etuvchi poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalari, hayotiy tanlovlari va ijtimoiy munosabatlarini milliy muhit bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlaydi. Asarda qishloq muhiti, mahalla hayoti, mehnat jarayonlari, oilaviy munosabatlar va xalqona muloqot uslubi voqealarning tabiiy rivojini ta’minlaydi. Bu holat milliy muhitni sun’iy bezak emas, balki syujetning tarkibiy qismiga aylantiradi. Said Ahmad nasrining muhim xususiyatlaridan biri voqealar kechadigan muhit bilan

inson ruhiyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yarata olishidir. “Sarob” hikoyasida ham milliy muhit faqat voqealar kechadigan makon sifatida emas, balki qahramonlarning fikrlashi, his qilishi va hayotiy qarorlarini belgilaydigan ma’naviy makon sifatida namoyon bo‘ladi.

Hikoya xalqona til va milliy koloritning yorqin namunasi bo‘lgan buxorolik 100 yil yashagan temirchi Usto Amin boboning o‘gitini iqtibos qilib olish bilan boshlangan: “Ota qarg‘ishi misoli o‘q – u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi”[6;7]. Ko‘rinib turibdiki, Said Ahmad hikoya boshlanmasidayoq xalqona tilning badiiy imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Hikmat xalq og‘zaki ijodiga xos ixchamlik, obrazlilik va hayotiy xulosani mujassam etgan. Avvalo, “o‘q” obrazi xalq tafakkurida juda ta’sirchan ramz hisoblanadi. O‘q nishonga albatta yetib boradigan kuch sifatida tasavvur qilinadi. Shuning uchun ota qarg‘ishining “o‘q”qa qiyoslanishi uning muqarrarligi va qaytarib bo‘lmas oqibatini kuchli ta’sir bilan ifodalaydi. Ikkinchidan, “shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi” degan fikr xalqning sabab va oqibat haqidagi axloqiy qarashini aks ettiradi. Bu yerda jazo faqat oxiratda emas, balki insonning bu dunyodagi hayotida ham namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Bunday qarash o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy dunyoqarashida keng tarqalgan. Uchinchidan, mazkur hikmatning Usto Amin bobo nomidan keltirilishi ham bejiz emas. Xalq an’anasida uzoq umr ko‘rgan, hayotiy tajribaga ega qariyalar ma’naviy hikmat sohiblari sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun ularning aytgan so‘zlari oddiy mulohaza emas, balki xalq tajribasidan o‘tgan axloqiy xulosa sifatida qabul qilinadi. Lingvistik jihatdan ham mazkur ibora xalqona tilga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Jumla sodda, qisqa va ta’sirchan qurilgan bo‘lib, unda murakkab badiiy bezaklar emas, balki xalq nutqiga xos tabiiylik ustuvor. Ana shu ixchamlik uning ta’sir kuchini oshiradi va o‘quvchi xotirasida saqlanib qolishini ta’minlaydi. Shu tariqa, mazkur hikmat nafaqat qahramon nutqini milliylashtiradi, balki asarning ma’naviy g‘oyasini ham ochadi. Unda o‘zbek xalqining ota-onani e’zozlash, farzandlik burchi, kattalar duosi va qarg‘ishining muqaddasligi, axloqiy mas’uliyat kabi milliy qadriyatlari xalqona til vositasida mujassamlashgan. Bu esa milliy koloritning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Kimsanboy – totalitar mafkura ta’sirida milliy qadriyatlardan uzoqlashgan, ammo hayotining oxirida vijdoni uyg‘ongan shaxs. Keyinchalik uning pushaymonligi inson qalbida milliy va diniy tuyg‘ular baribir ustun kelishini ko‘rsatadi. “Uning otasi Olimjon Raxmonov rayon maorif bo‘limining mudiri edi. Tarix bilimdoni bo‘lgan bu odamni rayondagi jami tarix o‘qituvchilari ustoz deb atardilar. Hatto uyiga ham kelib, undan Turkiston tarixi bo‘yicha bilmaganlarini so‘rab bilib olardilar. Uning uyida kitob ko‘p edi. Alohida bitta uydagi tokchalarga juda noyob kitoblar terib qo‘yilgan edi... Amir Temur, Mirzo Bobur, Narshaxiy, Forobiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Najmiddin Kubro, Al-Beruniy, Xoja Ahror, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning o‘tgan asrlarda xattotlar tomonidan ko‘chirilgan noyob qo‘lyozmalarini Domla ko‘z qorachig‘idek asrardi. Kechalari yettinchi lampa yorug‘ida tong otguncha mutolaa qilardi” [6;8]. Mazkur parchada milliy muhit avvalo ziyoli oila hayoti va ma’naviy muhit tasviri orqali yaratiladi. Olimjon Raxmonovning xonadon i oddiy uy emas, balki ilm-ma’rifat maskani sifatida gavdalantiriladi. Uydagi alohida kutubxona, tokchalarga ehtiyotkorlik bilan joylashtirilgan noyob qo‘lyozmalar, kitoblarning “ko‘z qorachig‘idek asralishi” milliy ma’naviy merosga bo‘lgan ehtiromni ifoda etadi. Bu badiiy detallar orqali muallif kitobxonlik va ilmga hurmatni o‘zbek ziyolilari hayotining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Milliy muhitni shakllantiruvchi muhim omillardan biri – ustoz-shogird an’anasidir. Rayondagi barcha tarix o‘qituvchilarining Olimjon Raxmonovni “ustoz” deb bilishi va murakkab tarixiy masalalar bo‘yicha unga murojaat qilishi milliy ta’lim va ma’rifat tizimida ustoz maqomining yuksak ekanini ko‘rsatadi. Bu holat o‘zbek xalqining ilm sohiblariga hurmat ruhini yorqin ifoda etadi. Hikoyada Olimjon domla vijdonli, iymonli, ilmli, milliy qadriyatlarga sodiq inson sifatida gavdalanadi. Hikoya parchaga e’tibor qaratmiz: “Ko‘pincha

Domlaning uyiga keksa ziyolilar to‘planib, tarixda o‘tgan o‘zbek mutafakkirlari to‘g‘risida suhbatlar qilishardi. Suhbat o‘z-o‘zidan ota-bobolari Shahrisabz barloslaridan bo‘lgan buyuk shoir Mirzo Abdulqodir Bedilga borib taqalardi. Bedilxonlik boshlanardi, ko‘plaishb Bedilning sirru sehrga to‘la g‘azallarining mag‘zini chaqishga kirishib ketardilar. Albatta, Olim domlaning talqinlari hammani lol qoldirardi. O‘shanday suhbatlarning birida gap aylanib Fuzuliyning bitta g‘azaliga borib qadaldi. Mehmonlardan birovi Fuzuliy ham o‘zbeklar orasida Navoiy darajasida mashhur ekanini, uning ko‘p g‘azallari o‘zbek hofizlari tomonidan qo‘shiq qilib aytilishini gapirib qoldi” [6;8]. Matndan keltirilgan parchadan ayonki, milliy muhit suhbat madaniyati orqali ham ochiladi. Keksa ziyolilarning muntazam yig‘ilib, tarix, adabiyot va falsafa haqida bahs yuritishlari xalqimizdagi ma’rifiy yig‘inlar an’anasini namoyon etadi. Bu suhbatlar tasodifiy emas, balki milliy ziyolilik muhitining tabiiy ko‘rinishi sifatida berilgan. Suhbat mavzulari Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Xoja Ahror, Ahmad Yassaviy kabi allomalar bilan bog‘lanishi milliy tarixiy xotiraning uzluksizligini anglatadi. Muallif milliy muhitni yaratishda Bedilxonlik an’anasini ham muhim badiiy detal sifatida tanlaydi. Mirzo Abdulqodir Bedil g‘azallarini birgalikda sharhlash, ularning ma’nosini talqin qilish ziyolilar davrasidagi adabiy muhitning yuksak darajasini ko‘rsatadi. Bu milliy adabiy tafakkurning Sharq mumtoz adabiyoti bilan uzviy bog‘liqligini anglatadi. Parchada til vositalari ham milliy muhitni kuchaytiradi. “Domla”, “ustoz”, “bedilxonlik”, “xattotlar”, “qo‘lyozma”, “mag‘zini chaqish” kabi milliy-madaniy ma’no yuklangan so‘z va iboralar xalqona nutq muhitini yaratadi. Ayniqsa, “mag‘zini chaqish” iborasi badiiy asarni chuqur anglash ma’nosida qo‘llanib, xalqona tafakkurning obrazliligini namoyon etadi. Shuningdek, Muhammad Fuzuliy g‘azallarining o‘zbek hofizlari tomonidan qo‘shiq qilib ijro etilishi haqidagi mulohaza milliy madaniyatning turkiy adabiy an’analar bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu jihat milliy muhitning keng madaniy qamrovga ega ekanini tasdiqlaydi.

“– Domla, Fuzuliyning bir g‘azali bor, mag‘zini sira chaqolmadim. Ko‘p bilimdonlardan so‘raganimda tayinli bir javob berolmadilar. Shu to‘g‘rida sizning fikringizni bilmoqchi edim. Olimjon domla narigi xonadan Fuzuliyning devonini olib chiqdi. Ko‘zoynak taqib, do‘stining tishi o‘tmagan o‘sha g‘azalni topdi. Chiroqqa solib, ikki-uch marta o‘qidi.

– Xo‘sh, qaysi joyiga tushunmadingiz? – deb so‘radi do‘stidan.

– Fuzuliy shunday deb yozadi: “G‘amlarim shuncha ko‘pki, tuyaning ustiga ortsam, zindonga tashlangan kofirlar ozod bo‘ladi”. Xo‘sh, nima uchun ozod bo‘ladi?

– Tushunmadim. Domla o‘ylanib qoldi. Darhaqiqat, tuyaning ustiga g‘am yukini ortsa, nega kofirlar ozod bo‘ladi? Domla ko‘p o‘yladi. Keyin boshini ko‘tarib mehmonlarga qaradi.

– Gap bundoq. Bu sirning ma’nisiga yetish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O‘sha davrdagi rivoyatlarni, maqolu matallarni, hatto qo‘shiqlarni ham bilmoq kerak. Bir rivoyatda odamlar Allohdan, ey tangrim, zindonda yotgan kofirlar qachon ozod qilinadi, deb so‘rabdilar. Alloh, tuya ignaning teshigidan o‘tgandagina kofirlar ozod qilinadi, deb javob qilgan ekan. Fuzuliy ana shu rivoyatni g‘azaliga asos qilib olgan. Ya’ni: “Mening g‘amlarim shunchalik ko‘pki, tuyaning ustiga ortsam, ko‘tarolmay, ozib, ipdek bo‘lib qoladi”. Ipdek ozib qolgan tuya ignaning teshigidan bemalol o‘tishi mumkin. Demak, kofirlar zindondan ozod qilinadi”[6;9]. Ushbu parchada milliy xarakter eng avvalo Olimjon domla obrazi orqali ochiladi. Said Ahmad qahramonning tashqi qiyofasini emas, balki uning ilmga munosabati, fikrlash uslubi va ma’naviy fazilatlarini tasvirlash orqali milliy ziyoli xarakteri yaratadi. Mazkur epizodda Olimjon domla o‘zbek ziyolisiga xos bo‘lgan kamtarlik, bilimdonlik, mushohadakorlik va ma’naviy mas’uliyat kabi fazilatlarni namoyon etadi. Mehmonning savoliga u darhol javob bermaydi, balki avval Muhammad Fuzuliy devonini olib chiqib, g‘azalni qayta-qayta mutolaa qiladi. Bu holat uning

ilmga ehtirom bilan yondashishi va har bir fikrni manbaga tayanib aytishga intilishini ko‘rsatadi. Domlaning “Bu sirning ma’nisiga yetish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O‘sha davrdagi rivoyatlarni, maqolu matallarni, hatto qo‘shiqlarni ham bilmoq kerak”, degan mulohazasi uning tafakkurining kengligi va tarixiy-ilmiy yondashuvini ochib beradi. Bu yerda qahramon bir she’rni talqin qilish uchun uning madaniy, tarixiy va folkloriy zaminini hisobga olish lozimligini ta’kidlaydi. Bu esa milliy ziyoliga xos tahlil madaniyatini namoyon qiladi. Shu bilan birga, Olimjon domla faqat bilimli inson emas, balki ustoz sifatida ham gavdalanadi. U savol beruvchini kamsitmaydi, aksincha, mulohaza yuritish orqali masalaning mohiyatini tushuntiradi. Bu munosabat o‘zbek milliy muhitida ustozning ma’naviy yo‘lboshchi sifatidagi maqomini ifoda etadi. Parchada milliy xarakterning yana bir muhim jihati – mumtoz adabiyot va ma’naviy merosga sadoqatdir. Domla g‘azalni tushuntirishda diniy rivoyat, xalq tafakkuri va she’riyatni bir-biri bilan bog‘laydi. Demak, uning bilim doirasi faqat adabiyot bilan cheklanmay, tarix, din, xalq og‘zaki ijodi va madaniyatni ham qamrab oladi. Bu esa milliy ziyolining qomusiy fikrlash tarzini ko‘rsatadi. Muallif qahramonning xarakterini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’riflamaydi, balki uning xatti-harakati, nutqi va fikr yuritish uslubi orqali ochadi. Bu realistik xarakter yaratishning muhim xususiyatidir. Ushbu epizodda Olimjon domla obrazi orqali o‘zbek milliy ziyolisi xarakteri badiiy jihatdan mukammal gavdalantirilgan. Uning bilimga sadoqati, manbaga tayanish odati, ustozlik madaniyati, mumtoz adabiyot va xalq rivoyatlarini chuqur bilishi milliy xarakterning asosiy belgilarini tashkil etadi.

“Kimsanboyni ikki marta tergovga chaqirib, otasi bilan yuzlashtirdilar. Olimjon domla bu ishlarda o‘g‘lining ham ko‘li borligini bilmasdi. Yuzma-yuz paytida Kimsanboy aytgan gaplarni eshitib, yoqasini ushladi. Tergovchining: “Shu gaplar rostmi? Tasdiqlaysizmi?” degan so‘rog‘iga javob bermadi. Peshonasiga shapillatib urib: “E-e, attang, attang! – deya o‘g‘lining betiga qarab: – Iloyo, juvonmarg bo‘l! Umring xor-zorlikda o‘tsin! – deb yuziga fotiha tortdi” [6;11]. Ushbu parchada xalq og‘zaki ijodi elementlari bevosita emas, balki xalqona iboralar, qarg‘ish va diniy-axloqiy nutq shakllari orqali namoyon bo‘lgan. Muallif milliy nutq madaniyati vositalari orqali qahramonlarning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ta’sirchan ochib beradi. Parchadagi xalq og‘zaki ijodi elementlari:

1. Qarg‘ish (folklorning kichik janri). Parchada Olimjon domlaning: “Iloyo, juvonmarg bo‘l! Umring xor-zorlikda o‘tsin!”degan so‘zlari xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan qarg‘ish janrining yorqin namunasidir. Qarg‘ish xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, odatda qattiq alam, iztirob yoki adolatsizlikka nisbatan aytilgan la’nat mazmunidagi iboralardan tashkil topadi. Bu yerda otaning qarg‘ishi nafaqat g‘azab, balki farzandning xiyonatidan tug‘ilgan cheksiz dardning ifodasidir.

2. Xalqona nido: Domlaning: “E-e, attang, attang!” deya afsuslanishi xalq nutqida keng qo‘llanadigan nido va ehtirosli undov hisoblanadi. Bu ibora orqali qahramonning ruhiy iztirobi, pushaymoni va farzand tarbiyasidagi fojiani his qilishi ta’sirchan ifodalangan.

3. Fotiha tortish: “...deb yuziga fotiha tortdi”. Bu ifoda diniy marosim bilan bog‘liq bo‘lsa-da, xalq turmushida ramziy la’nat va qarg‘ish ma’nosida ham qo‘llanadi. Bu yerda fotiha duo emas, balki otaning farzandidan butunlay yuz o‘girganini bildiruvchi xalqona badiiy ifodadir.

4. Xalqona iboralar: Matndagi “yoqasini ushladi” iborasi ham xalq tilidagi barqaror frazeologizm hisoblanadi. U insonning qattiq hayratga tushishi, iztirob chekishi yoki kutish mumkin bo‘lmagan holatga duch kelganini anglatadi.

Hikoyadagi Kimsanboy salbiy qahramon bo‘lsa-da, uning kechikkan tavbasi va vijdon azobi orqali insonparvarlik g‘oyasi yoritiladi. Jumladan, otasidan kechirim so‘rashi, Stalin suratini ko‘ksidan olib tashlashni vasiyat qilishi, pushaymonligi, qahramonning ichki ma’naviy uyg‘onishini ko‘rsatadi.

“– Hamqishloq, yaqinda muddatingiz tugab uyga ketasiz, – dedi u past tovushda. – Iltimos, dadam qamoqdan qaytib kelgan bo‘lsa, mening uzrimni yetkazing. Gunohini qoni bilan yuvdi, deb ayting. U charchadimi, hartugul, ancha paytgacha indamay yotdi. Navbatchi sanitar, kerakli gapini ayta olmayapti, deb o‘ylab bizni xoli qoldirib chiqib ketdi. – Bu dunyoning azoblaridan kutulishimga sanoqli soatlar qolgan. Sizdan o‘tinib so‘rayman, Shtokmanga ayting, jonim uzilishi bilan tanam sovumay, jasadim qotmay turib ko‘ksimdagi Stalin suvratini terim bilan shilib olsin. Fashistlarning konslagerida o‘liklarning terisini shilishda Shtokman assistentlik qilgan. Qandoq shilishni yaxshi biladi. U dunyoga ham Stalin bilan ketmay. U bilan bitta qabrda yotgulik qilmasin. Uning bu gaplari iltimos emas, vasiyat edi. – Xotirjam bo‘ling, albatta unga aytaman, – deb va’da berdim” [6;14]. Kimsanning Stalin surati bilan qabrga kirmaslik istagi musulmoncha dafn marosimi haqidagi milliy-diniy qarashlarni aks ettiradi. O‘zbek xalqida insonning oxiratga pok holda kuzatilishi muhim ma’naviy talab hisoblanadi. Shu bois qahramon o‘z tanasidagi mafkuraviy tamg‘adan qutulishni xohlaydi. Shuningdek, mazkur parchada o‘zbek xalqining urf-odat va an’analari qahramonning so‘nggi so‘zlari, vasiyati va ota oldidagi ma’naviy mas’uliyati orqali badiiy ifodalangan. Muallif milliy qadriyatlarni qahramonning ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashtirib, insonning o‘lim oldidagi ma’naviy poklanish jarayonini ko‘rsatadi. Otadan kechirim so‘rash an’anasi: “Dadam qamoqdan qaytib kelgan bo‘lsa, mening uzrimni yetkazing. Gunohini qoni bilan yuvdi, deb ayting” [6;14], – degan iltimosi o‘zbek xalqida ota rizoligini olish, ota oldidagi burchni ado etish kabi qadimiy ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Milliy an’analarga ko‘ra, farzand uchun ota-ona duosi va kechirimi eng yuksak ne’mat hisoblanadi. Qahramon ham o‘lim oldida aynan otasining kechirimiga muhtoj ekanini anglaydi. “Gunohini qoni bilan yuvdi” degan ifoda xalq og‘zaki nutqida keng qo‘llanadigan axloqiy tushunchadir. Bu yerda inson o‘z xatosining jazosini og‘ir azob va qurbonlik bilan to‘laganini anglatadi. Muallif ushbu parchada milliy urf-odatlarni voqealar tasviri emas, shu xalqona ibora orqali qahramonning chuqur pushaymonini ma’naviy kechinmalari orqali ta’sirchan ifodalaydi. Otadan kechirim so‘rash, vasiyat qoldirish, pok holda dafn etilishni istash kabi an’analar insonning milliy o‘zligi va diniy e’tiqodi o‘lim qarshisida yanada kuchli namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu jihat asarda totalitar tuzum inson qalbini o‘zgartirishi mumkin, ammo uning milliy va ma’naviy ildizlarini butunlay yo‘q qila olmasligi haqidagi g‘oyani mustahkamlaydi. Muallif xalq og‘zaki ijodiga mansub ushbu elementlar orqali: ota va farzand o‘rtasidagi ma’naviy fojiani kuchaytiradi, milliy ruh va xalqona nutqni asar tiliga singdiradi, qahramonlarning ichki kechinmalarini tabiiy va ishonarli tarzda ochib beradi, xalqning axloqiy mezonlari – otaga xiyonat, oila sha’ni va vijdon kabi tushunchalarni badiiy jihatdan yoritadi. Bu elementlar asarning milliy ruhini kuchaytiradi, voqealarning ta’sirchanligini oshiradi hamda xalq ma’naviyati va axloqiy qadriyatlarini badiiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

“Mendan oldin Olimjon domla kelib, murdaga uzoq tikilib o‘tirganini, o‘pkasini bosolmay o‘kirib yig‘laganini aytib berishdi. Qaytib chiqqanimda domla eshik kesakisiga boshini tirab, holsiz bir alpozda turardi. – Domla, bir musulmonning bolasi olamdan o‘tdi, – dedim. – Shunga janoza o‘qitsak bo‘larmidi? Domla indamadi. Uzoq sukutdan so‘ng: – Unga janoza lozim emas, – dedi. – Ko‘kragida kofirning suvrati bor. Endi u bejanoza, bekafan ko‘miladi. U shunday dediyu gandiraklab-gandiraklab, barak orqasiga o‘tib ketdi. “Dohiy” Stalinning jasadi tuproqqa ko‘milmadi. Uni ichiga poxol tiqib, mavzoleyga, ustozi Lenin yoniga yotqizib qo‘ydilar. Bu yerda esa u bir xoinning badaniga yopishib, atigi bitta murda arang sig‘adigan go‘riga sherik bo‘lib yotibdi. Shu bilan ichimizdan chiqqan xoinning jirkanch umri yakun topdi” [6;15]. Ushbu parchada o‘zbek xalqining urf-odat va an’analari bevosita emas, balki ularning buzilishi va inkor etilishi orqali ochib berilgan. Muallif milliy qadriyatlarni totalitar tuzum mafkurasi bilan to‘qnashtirib,

xalqning diniy va ma’naviy an’analari qanday poymol qilinganini ta’sirchan tasvirlaydi. O‘zbek xalqida va islomiy urf-odatlarda vafot etgan musulmonga janoza o‘qish muqaddas farz kifoyadir. Qahramon: “Domla, bir musulmonning bolasi olamdan o‘tdi. Shunga janoza o‘qitsak bo‘larmidi?”, deb murojaat qilishi xalqning marhumni diniy rasm-rusumlarga muvofiq oxirgi yo‘lga kuzatishga bo‘lgan ehtiromini anglatadi. Domlaning: “Unga janoza lozim emas... Endi u bejanoza, bekafan ko‘miladi”, – deyishi odatiy dafn marosimining amalga oshmasligini ko‘rsatadi. Musulmonchilikda marhumni yuvish, kafanlash va janoza o‘qish azaliy an’ana hisoblanadi. Bu an’ananing buzilishi asarda katta ma’naviy fojia sifatida talqin qilingan. Olimjon domlaning murdani ko‘rib yig‘lashi insonning o‘limi oldida rahm-shafqat va hurmat tuyg‘usini ifoda etadi. Marhumning qilmishi qanchalik og‘ir bo‘lmasin, uning o‘limi inson qalbida iztirob uyg‘otadi. Bu holat xalqimizga xos bag‘rikenglik va rahmdillik fazilatlarini namoyon etadi. Domlaning: “Ko‘kragida kofirning suvrati bor”, degan so‘zi diniy e’tiqodga asoslangan qadriyatlarni aks ettiradi. Stalin suratining ko‘krakka chizilishi insonning ma’naviy tanazzuli va o‘z millati hamda dinidan uzoqlashganining ramzi sifatida talqin qilinadi. Muallif milliy urf-odatlarni shunchaki tasvirlab qolmay, ularning buzilishi orqali totalitar tuzumning inson ma’naviyatiga yetkazgan zararini ochib beradi. Janozasiz va bekafan ko‘milish motivi milliy va diniy qadriyatlardan mahrumlikning eng yuqori darajasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Stalin jasadining mavzoleyda saqlanishi bilan xoinning tor qabrga janozasiz ko‘milishi o‘rtasidagi ziddiyat kuchli ramziy ma’no kasb etadi. Bu muqoyasa soxta “dohiyga” sig‘inishning vaqtinchaligini, xalqning asriy urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlari esa abadiy ekanini ta’kidlaydi.

XULOSA. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, “Sarob” hikoyasida milliy kolorit xalqona til, urf-odatlar, diniy-ma’naviy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi elementlari, milliy xarakter va tarixiy muhit tasviri orqali yaratilgan. Jumladan, hikoya boshidagi hikmat xalqona tilning shunchaki uslubiy bezagi emas, balki milliy tafakkur, axloqiy qadriyat va xalq hayotiy tajribasini ifoda etuvchi muhim badiiy vosita sifatida milliy koloritni kuchaytirib, asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. Milliy muhit qishloq yoki maishiy manzaralar orqali emas, balki ilm-ma’rifat, kitobxonlik, ustoz-shogird an’anasi, ziyolilar suhbati, mumtoz adabiyotga hurmat va ma’naviy merosga sadoqat Olimjon domla xarakteri vositasi orqali ifoda etilgan. Bu esa Said Ahmadning milliy koloritni faqat tashqi etnografik belgilar bilan emas, balki xalqning ma’naviy hayoti va ziyolilik an’analari orqali ham yuksak badiiy mahorat bilan yaratganini ko‘rsatadi. Shuningdek, janoza o‘qish, musulmoncha dafn etish, marhumga hurmat ko‘rsatish kabi milliy-diniy urf-odatlar asosiy ma’naviy mezon sifatida tasvirlangan. Shuningdek, bu an’analarning buzilishi esa asarda totalitar mafkuraning insonning milliy o‘zligi va ma’naviyatiga qarshi qaratilgan fojiaviy ta’sirini yoritishga xizmat qiladi. Said Ahmad ushbu vositalar yordamida o‘zbek xalqining ma’naviy qiyofasi, milliy tafakkuri va hayot falsafasini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Shu bois “Sarob” nafaqat qatag‘on davri haqidagi hikoya, balki milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarni ulug‘lovchi muhim badiiy asar sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent.: O‘qituvchi, 1979. – 376 b

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010

Normatov U. Said Ahmad. Adabiy portret. – Toshkent.: Adabiyot va san’at nashriyoti 1971. –91 b.

Normatov U. Xalqning ko‘zidagi adib: Said Ahmad 70 yoshda // Sovet O‘zbekistoni. – 1990. – 19-iyun

G‘afurov I. Prozaning shoiri: Said Ahmad 60 yoshda // Sharq yulduzi. –1980. – № 6. – B. 166-170.

Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. Hikoyalar. – Toshkent.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000. – B. 200

ARAB BAYNALMILAL DIPLOMATIK TERMINLARNI STANDARTLASHTIRISH

Mirziyatov Shuhrat, PhD
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro diplomatik amaliyotda keng qo‘llanadigan baynalmilal terminlarning arab diplomatik terminologiyasida ifodalanishi va ularni standartlashtirish muammolari tadqiq etilgan. ISO 704:2022 standarti hamda AIDSMO yondashuvlari asosida arab diplomatik leksikasi uchta asosiy guruhga (to‘liq arabcha muqobilga ega, arabchalashgan va dubletlik hosil qiluvchi terminlar) tasnif qilingan. Al Jazeera va Al Arabiya kabi yetakchi arab media manbalarining kontekstual tahlili orqali yaqin ma’noli diplomatik terminlar (muʿāhada, ittifāqiyya, ittifāq va mufāwaḍāt, mubāḥathāt, mushāwarāt, muḥādathāt) o‘rtasidagi huquqiy maqom, rasmiylik va janr farqlari aniqlangan. Tadqiqot yakunida ortiqcha dubletlikni kamaytirish va xalqaro tushunchalarni yagona ta’rif hamda imlo asosida standartlashtirish bo‘yicha metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: arab tili, diplomatik terminologiya, baynalmilal terminlar, standartlashtirish, ISO 704, AIDSMO, dubletlar, konvensiya, muzokaralar, diplomatik muloqot.

Kirish. Arab diplomatik terminologiyasida baynalmilal terminlar deganda xalqaro diplomatik amaliyotda keng qo‘llanadigan, turli tillarda bir xil yoki yaqin ma’noga ega bo‘lgan terminlar nazarda tutiladi. Masalan, ‘protocol’ – ‘protokol’, ‘diplomacy’ – ‘diplomatiya’, ‘convention’ – ‘xalqaro bitim’, ‘ambassador’ – ‘elchi’, ‘delegation’ – ‘delegasiya’, ‘resolution’ – ‘rezolyusiya’, ‘negotiation’ – ‘muzokara’, ‘treaty’ – ‘xalqaro shartnoma’, ‘agreement’ – ‘bitim’ kabi terminlar xalqaro diplomatik muloqotda barqaror qo‘llanadi.

Arab tilida bunday terminlar ikki yo‘l bilan ifodalanadi:

Arab tilida mavjud muqobil (ekvivalent) orqali: ‘treaty’ (xalqaro shartnoma) - معاهدة (muʿāhada), ‘ambassador’ (elchi) - سفير (safīr), ‘delegation’ (delegasiya) - وفد (wafd), ‘resolution’ (rezolyusiya) - قرار (qarār).

Misol: yatabannā qarāran bi-waqfi iṭlāqi an-nār fī Ghazza li-awwali marra.) - “Xavfsizlik Kengashi ilk bor G‘azoda o‘t ochishni to‘xtatish bo‘yicha rezolyusiya qabul qildi.”

Xorijiy terminni arabchalashtirish (transliteratsiya/kalka) orqali: ‘protocol’ (protokol) - بروتوكول (brūtūkūl), ‘diplomacy’ (diplomatiya) - دبلوماسية (diblūmāsiyya), ‘consul’ (konsul) - قنصل (qunṣul).

Misol: “Davlat Istanbulda yangi konsul tayinladi.”

Shuning uchun arab baynalmilal diplomatik terminlarini standartlashtirishda asosiy vazifa - qaysi terminni arabcha muqobil bilan, qaysi terminni arabchalashgan shaklda berish kerakligini aniqlashdir.

Terminologiyani standartlashtirishning ilmiy asosi, avvalo, tushuncha - ta’rif - termin munosabatiga tayanadi. ISO 704:2022 standartiga ko‘ra, u terminologik ishning asosiy prinsiplari va metodlarini belgilaydi; unda obyekt, tushuncha, ta’rif va nomlash o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek terminlar va ta’riflarni shakllantirish qoidalari ko‘rsatiladi. Bu standart ilmiy, texnologik, huquqiy, ma’muriy va boshqa sohalardagi terminologik ishga tatbiq etiladi.

Arab terminologiyasi nuqtai nazaridan esa taniqli olim Mahmud Faxuriy yondashuviga ko‘ra: “Agar tushuncha uchun arab tilida barqaror muqobil mavjud bo‘lsa, shu muqobil tanlanadi; agar arabcha muqobil mavjud bo‘lmasa yoki tushunchani to‘liq ifodalamasa, xorijiy termin arab tilining

fonetik va morfologik me’yorlariga moslashtirib qabul qilinishi mumkin . ”

Metodlar. Tadqiqotda arab diplomatik terminologiyasidagi baynalmilal terminlarni tizimlashtirish uchun shartli tasniflash va qiyosiy-funksional tahlil metodlari dan foydalanildi.

Baynalmilal terminlar o‘rganilish xarakteriga ko‘ra uchta asosiy guruhga ajratildi:

To‘liq arabcha muqobilga ega terminlar.

Arabchalashgan baynalmilal terminlar.

Dubletlik (sinonimik qator) hosil qiluvchi terminlar.

Terminlarning xalqaro amaliyotdagi real qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida dunyodagi yetakchi arab axborot vositalari (jumladan, Al Jazeera va Al Arabiya) materiallaridagi diplomatik hujjatlar hamda xabarlarning matnli kontekstual tahlili amalga oshirildi. Standartlashtirish metodologiyasida AIDSMO (Arab sanoatni rivojlantirish, standartlashtirish va konchilik tashkiloti) va ISO ko‘rsatmalari umumiy tayanch sifatida olindi.

Natijalar. Olib borilgan tasniflash natijasida arab diplomatik terminologiyasidagi baynalmilal leksika quyidagi uchta guruh ko‘rinishida shakllantirildi:

Guruh 1: To‘liq arabcha muqobilga ega terminlar

Bu guruhda xorijiy terminga arab tilida barqaror, an’anaviy va rasmiy muqobil mavjud bo‘lib, ularni transkripsiya qilish shart emas:

Inglizcha terminArabcha standart terminTranscriptionO‘zbekcha muqobili

Treatyمعاهدةmuʿāhadaxalqaro shartnoma

agreementاتفاق / اتفاقيةittifāq / ittifāqiyyakelishuv / bitim

negotiationsمفاوضاتmufāwaḍātmuzokaralar

ambassadorسفيرsafīrelchi

delegationوفدwafddelegasiya

statementبيانbayānbayonot

resolutionقرارqarārqaror / resolution

Guruh 2: Arabchalashgan baynalmilal terminlar

Bu guruhda terminlar xorijiy tillardan kirgan, ammo arab tilida fonetik-morfologik jihatdan to‘liq barqarorlashgan:

Xalqaro terminArabcha shaklTranscriptionO‘zbekcha muqobili

diplomacyدبلوماسيةdiblūmāsiyyadiplomacy

protocolبروتوكولbrūtūkūlprotocol

consulقنصلqunṣulconsul

consulateقنصليةqunṣuliyyaconsullik

conventionاتفاقية / وينفنكسيونittifāqiyyaconvention

communicationبلاغbalāghkommyunike / rasmiy xabar

Guruh 3: Dubletlik hosil qiluvchi terminlar

Ba’zi terminlar bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanadi, ammo ularni to‘liq sinonim deb qarash xato. Standartlashtirishda aynan shu guruh eng murakkab hisoblanadi:

TerminalUmumiy maydonFarqi

معاهدة / اتفاقية / اتفاقkelishuvlarhuquqiy darajasi farqli

مفاوضات / تبادل آراء / تبادل آراء / تداخلdiplomatik muloqotmaqsad va rasmiylik darajasi farqli

سفير / يمثل / مدنيvakillikmaqomi farqli

بيان / تصريح / بلاغrasmiy axborotjanr jihatdan farqli

Munozara. Tahillar shuni ko‘rsatadiki, uchinchi guruhga kiruvchi dubletlarni funksional vazifasiga ko‘ra ajratish va ularning har biriga alohida ta’rif berish standartlashtirishning eng dolzarb muammosidir.

Hujjat nomlarining huquqiy maqomi bo‘yicha tahlil:

Al Jazeera Vena diplomatik munosabatlar konvensiyasini ta’riflaganda مظنت ةيلود ةدهاعم Muʿāhada duwaliyya tunaẓẓimu al-ʿalāqāt bayna ad-duwal wa-ʿamala al-biʿathāt ad-diblūmāsiyya) iborasini qo‘llaydi. Bu yerda muʿāhada xalqaro huquqiy kuchga ega hujjat ma’nosida kelgan. Demak, ‘treaty’ uchun arabcha asosiy termin معاهدة (muʿāhada) bo‘lishi kerak.

اتفاقية (ittifāqiyya) esa ko‘proq ‘convention’ yoki ‘formal agreement’ ma’nosida ishlatiladi. Masalan, Vena hujjati aynan اتفاقية فيينا للعلاقات الدبلوماسية (ittifāqiyyat Fīyīnā li-l-ʿalāqāt ad-diblūmāsiyya) deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, agreement rasmiy hujjat yoki konvensiya ma’nosida kelganda اتفاقية (ittifāqiyya), umumiy yoki siyosiy kelishuv ma’nosida kelganda esa اتفاق (ittifāq) ishlatiladi (Masalan, Deyton tinchlik kelishuvi uchun: اتفاق دايتون للسلام - ittifāq Dāytūn li-s-salām).

قرار (qarār): Al-Arabiya kanali Xalqaro atom energiyasi agentligi doirasida مشروع قرار أمريكي أوروبي (mashrūʿ qarār amrīkī ūrūbbī - “Amerika-Yevropa qaror loyihasi”) birikmasini qo‘llaydi. Bu termin xalqaro tashkilotlar yoki rasmiy organlar qabul qiladigan qarorni (resolution) anglatadi.

Diplomatik muloqot shakllari bo‘yicha dubletlar tahlili:

مفاوضات (mufāwaḍāt): Kelishuvga qaratilgan muzokaralarni anglatadi. Kremlo‘z bayonotida انه كانت هناك فرصة أولية للتوصل إلى اتفاق في مفاوضات السلام بين روسيا وأوكرانيا (inna hunāka tawaqqufan fī mufāwaḍāt as-salām bayna rūsiyā wa-ūkrāniyā) deganda aynan yakuniy to‘xtamga kelish ko‘zda tutilgan tinchlik muzokaralarini nazarda tutadi.

مباحثات (mubāḥathāt): Dastlabki muhokama yoki tayyorlov uchrashuvlari. Masalan, Tramp ma’muriyatining Isroil va Suriya o‘rtasidagi ehtimoliy bitim uchun o‘tkazgan muloqoti مباحثات تمهيدية (mubāḥathāt tamhīdiyya - dastlabki muhokamalar) deb nomlangan.

مشاورات (mushāwarāt): Maslahatlashuv yoki diplomatik konsultatsiyalar. Londondagi parda ortidagi uchrashuvlar matnda المناقشات والمشاورات (al-munāqashāt wa-l-mushāwarāt - muhokamalar va maslahatlashuvlar) shaklida ifodalangan.

محادثat (muḥādathāt): Umumiy xarakterdagi diplomatik muloqot va uchrashuvlar (Masalan, Eronning Istanbulda Germaniya, Fransiya va Britaniya bilan uchrashuvi haqida gapirganda qo‘llangan).

Xulosa. Arab baynalmilal diplomatik terminlarini standartlashtirish arab tilida xalqaro diplomatik tushunchalarni aniq, izchil va bir ma’noli ifodalashga xizmat qiladi. Bu jarayonda AIDSMOning umumiy standartlashtirish yondashuvi - unifikasiya, me’yorlashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish va terminologik aniqlikni ta’minlash - muhim metodologik asos bo‘la oladi.

Tahlildan ko‘rinadiki, birinchi holatda (arabcha muqobil mavjud bo‘lsa) milliy muqobilni tanlash zarur; ikkinchi holatda (xorijiy termin o‘zlashgan bo‘lsa) arabchalashgan terminni yagona imlo va transkripsiyada me’yorlashtirish kerak; uchinchi holatda (dubletlar mavjud bo‘lsa) terminlar ma’no, huquqiy maqom va qo‘llanish sohasiga ko‘ra qat’iy chegaralanishi lozim. Bu yondashuv arab tilining ichki leksik imkoniyatlarini saqlaydi va ortiqcha dubletlikni kamaytiradi.

Maqolangizda keltirilgan barcha iqtiboslar, xalqaro standartlar, lingvistik manbalar va tahlil qilingan media platformalarni hisobga olgan holda, xalqaro akademik talablarga muvofiq shakllantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

ISO 704:2022. Terminology work - Principles and methods. — Geneva: International Organization for Standardization, 2022. — URL: https://www.iso.org/standard/79077.html

محمود خاروف. دور مجامع اللغة العربية في وضع المصطلحات وتوحيدها، لحامية اللغة العربية. — دمشق: مجمع اللغة العربية بدمشق، ص. ١٧. (Mahmud Faxuriy. Arab tili akademiyalarining terminlar yaratish va ularni unifikatsiya qilishdagi roli. – Damashq: Damashq arab tili akademiyasi, 17-b.)

Vienna Convention on Diplomatic Relations (1961) - Al Jazeera Encyclopedia / موسوعة الجزيرة. – URL: https://www.aljazeera.net

Dayton Peace Agreement (1995) / اتفاق دايتون للسلام. - Al Jazeera Media Network – URL: https://www.aljazeera.net

UN Security Council Resolution on Gaza Ceasefire. — Al Jazeera News / أخبار الجزيرة. – URL: https://www.aljazeera.net

US- European Draft Resolution at the IAEA / الدولية للطاقة الذرية. — Al Arabiya News Channel / قناة العربية. – URL: https://www.alarabiya.net

Official Statements on Russia- Ukraine Peace Negotiations / تصريحات الكرملين. - Al Jazeera Arabic / الجزيرة نت. – URL: https://www.aljazeera.net

Preliminary Discussions on the Israel- Syria Security Agreement. — Al Arabiya Center for Studies / مركز العربية للدراسات. – URL: https://www.alarabiya.net

Diplomatic Consultations in London / International Relations. - Al Jazeera Arabic / الجزيرة نت. – URL: https://www.aljazeera.net

Iran’s Diplomatic Talks in Istanbul / Iran. — Al Arabiya News / العربية نت. – URL: https://www.alarabiya.net

AIDSMO Guidelines. General Approach to Standardization, Unification, and Harmonization of Arabic Terminology. — Rabat: Arab Industrial Development, Standardization and Mining Organization.

УПОТРЕБЛЕНИЕ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ ГЛАГОЛОВ С ПРИСТАВКАМИ И ПРЕДЛОГАМИ: НА ПРИМЕРЕ ПОВЕСТИ «БЕЛЫЙ ПАРОХОД

Омонкулова Ойбиби Акрамжон кизи
магистрант Денауского института предпринимательства и педагогики

Аннотация: В статье исследуются лингвистические особенности функционирования пространственных глаголов в зависимости от коммуникативного контекста и живой речевой практики. На сопоставительном материале русского и узбекского языков выявляются дифференциальные и этноспецифические признаки реализации глагольных единиц с различной префиксально-предложной семантикой. Особое внимание уделяется специфике сочетаемости пространственных приставок (у-, под-, в-, от-, про-) с глагольными основами и их синтаксической дистрибуции. В качестве объекта исследования и эмпирической базы работы выступает повесть Чингиза Айтматова «Белый пароход» («Оқ кема»). Анализ оригинального текста и его перевода позволяет на конкретных примерах продемонстрировать механизмы лексико-семантической компенсации и контекстуальные условия выбора межъязыковых соответствий при передаче пространственных отношений.

Ключевые слова: пространственные глаголы, предлог, приставка, пространственное значение, глагол, семантика, узбекский язык, русский язык, художественное произведение.

THE USE OF SPATIAL VERBS WITH PREFIXES AND PREPOSITIONS: A CASE STUDY OF THE NOVELLA «THE WHITE SHIP»

Omonkulova Oybibi Akramjon kizi
Master's student at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract: The article investigates the linguistic features of spatial verbs functioning in relation to the communicative context and live speech practice. Based on the comparative material of the Russian and Uzbek languages, differential and ethno-specific features of the implementation of verbal units with various prefixal-prepositional semantics are revealed. Special attention is paid to the specificity of the compatibility of spatial prefixes (u-, pod-, v-, ot-, pro-) with verb stems and their syntactic distribution. Chingiz Aitmatov's novella «The White Ship» («Oq Kema») serves as the object of study and the empirical basis of the research. The analysis of the original text and its translation allows demonstrating on concrete examples the mechanisms of lexical-semantic compensation and contextual conditions for choosing cross-linguistic correspondences when conveying spatial relations.

Keywords: spatial verbs, preposition, prefix, spatial meaning, verb, semantics, Uzbek language, Russian language, work of fiction.

FAZOVIY FE'LLARNING PRISTAVKA VA PREDLOGLAR BILAN QO'LLANILISHI: «OQ KEMA» POVESTI MISOLIDA

Omonqulova Oybibi Akramjon qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada fazoviy fe'llarning muloqot konteksti va jonli nutq amaliyotiga bog'liq holda namoyon bo'lishining lingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan. Rus va o'zbek tillarining qiyosiy

materiali asosida turli prefiks va predlog semantikasi va tuzilishiga ega bo‘lgan fe’l birliklarining farqli hamda milliy-o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Fazoviy pristavkalarning (u-, pod-, v-, ot-, pro-) fe’l negizlari bilan birikish xususiyatlari va ularning sintaktik amal qilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” povesti ishning tadqiqot obyekti va empirik bazasi sifatida xizmat qilgan. Asarning asl matni va tarjimasini tahlil qilish fazoviy munosabatlarni ifodalashda leksik-semantik kompensatsiya mexanizmlarini hamda tillararo muvofiqliklarni tanlashning kontekstual sharoitlarini aniq misollarda ko‘rsatishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: fazoviy fe’llar, predlog, pristavka, fazoviy ma’no, fe’l, semantika, o‘zbek tili, rus tili, badiiy asar.

Введение. Сравнительно-сопоставительное изучение двух или более языков как в грамматическом, так и в литературном аспектах неизбежно сопряжено с рядом теоретических и методологических трудностей. Тем не менее, именно контрастивный анализ способствует расширению лингвистического кругозора и позволяет выявить неизученные грани языковой системы. Одним из наиболее многоаспектных объектов исследования в данном контексте является глагол, обладающий богатым семантическим потенциалом и разнообразием функциональных особенностей. В современной лингвистике глаголы пространственной локализации занимают особое место как самостоятельная семантическая группа. Категория пространства является фундаментальной для человеческого сознания, поскольку определение собственного местонахождения, фиксация положения в пространстве и осознание локуса составляют основу мировосприятия индивида.

Пространство представляет собой одну из важнейших категорий мировоззрения человека, включающую в себя множество элементов отображаемой картины мира. В словаре В. Даля мы находим следующее определение данного феномена:«Пространство — это состояние или свойство всего, что простирается, распространяется, занимает место; само место это; простор, даль, ширь и глубь, место по трем измерениям своим» [Даль 1882, т. 3: 514].Пространственные глаголы служат основным средством выражения расположения предмета в пространстве, его перемещения и направленности движения. В лингвистической литературе данные единицы исследовались в различных аспектиках: со статической и динамической точек зрения, с позиции семантики, а также в контексте их метафоризации и переносного употребления для репрезентации пространственных отношений.

Настоящее исследование посвящено сопоставительному анализу функционирования пространственных глаголов в сочетании с предлогами и префиксами в русском и узбекском языках, что позволяет выявить их системные расхождения. В русском языке пространственная семантика глаголов во многом детерминирована префиксально-предложной системой, которая расширяет их значение и конкретизирует пределы движения (например: идти, войти, выйти, перейти). В узбекском же языке категория пространства преимущественно выражается через лексико-семантические особенности самого глагола, а русские префиксы и предлоги зачастую находят свои эквиваленты в аналитических глагольных формах, служебных словах (послелогах) или падежных формантах. Материалом для исследования послужила повесть Чингиза Айтматова «Белый пароход», которая представляет собой репрезентативный источник для изучения функционирования пространственных глаголов в художественном тексте.

Описания природы, динамика перемещения персонажей и трансформации художественного пространства в данном произведении позволяют наглядно продемонстрировать специфику реализации пространственных отношений в межъязыковом контексте.

Изучение пространственной семантики глаголов имеет прочную теоретическую базу. Лексикографические аспекты глагольного слова заложены еще в трудах В. И. Даля, а грамматическая природа узбекского глагола и способы выражения локативности в тюркологии подробно описаны А. Н. Кононовым.

Особенности функционирования префиксальных глаголов движения исследовались в работах Н. М. Глушковой и Л. Н. Смирнова. В свою очередь, когнитивные механизмы категоризации пространства и идиоматичность предложного управления стали предметом анализа в трудах Яо Цзясин и Е. М. Салеевой.

Однако специфика лексико-семантической компенсации русских приставочных глаголов движения средствами узбекского языка на материале художественной прозы всё ещё требует комплексного сопоставительного описания, что и определяет новизну нашего исследования.

Актуальность темы обусловлена тем, что семантика пространственных глаголов в сопоставительном аспекте является одной из недостаточно глубоко изученных областей в лингвистике. В русском языке эти глаголы часто сочетаются с предлогами и префиксами, выражая направление, пределы и семантические изменения движения. В узбекском языке пространственные категории чаще передаются лексико-семантическими средствами. Понятие пространственных глаголов, а также сопоставительный анализ этих двух языков помогают выявить их общие и отличительные черты. Повесть Чингиза Айтматова «Белый пароход» является необходимым источником для исследования функционирования данных глаголов, поскольку, несмотря на сложность, описания природы, действия персонажей и пространственные изменения представлены в ней очень широко. Результаты исследования окажут большую помощь в теоретическом и практическом понимании данной темы.

Цель исследования

Основная цель данного исследования — теоретическое и практическое изучение функционирования пространственных глаголов русского языка в сочетании с префиксами и предлогами.

Для достижения этой цели в исследовании решаются следующие задачи (включаются следующие направления):

определение семантических изменений, возникающих при помощи префиксов и предлогов;

демонстрация функционирования пространственных глаголов в художественном тексте на основе примеров, взятых из повести «Белый пароход».

Основная цель данного исследования — теоретическое и практическое изучение функционирования пространственных глаголов русского языка в сочетании с префиксами и предлогами.

Основная часть:

Пространственные глаголы являются не просто грамматическим средством выражения движения или пространственных отношений, но и важным когнитивным фактором, демонстрирующим, как в сознании носителей определенного языка классифицируются окружающая среда и бытие. Как отмечает лингвист Яо Цзисинь: человеческое сознание дифференцирует пространство и движение в нем по определенным направлениям. В системе русского языка данный процесс строго моделируется с помощью глагольных префиксов, приставок. Направление движения субъекта в пространстве дифференцируется через приставки «у», «при», «под», преодоление препятствий на пути, прохождение расстояния, когда движение происходит внутри или на поверхности объекта, выражается с

помощью префиксов «пере», «про», а фиксация конечной точки движения или результата в определенной точке возлагается на приставку «до». [Яо Цзисинь. Пространственные глаголы: суть и особенности их употребления с приставками и предлогами // International Journal of Humanities and Natural Sciences. – 2025. – Vol. 10-2 (109). – С. 207–212. DOI: 10.24412/2500-1000-2025-10-2-207-212.]. Как показал Яо Цзисинь в своем исследовании на примере русского и китайского языков, четкие геометрические понятия, которые в сознании русскоязычных воспринимаются совершенно как «верхняя поверхность» (плоскость) и выражаются через предлог «на» (например: «положить на полку» – javonga qo‘ymoq, «на стене» – devorda, «на полу» – polda), в сознании носителей китайского языка воспринимаются как «ограниченное замкнутое пространство» и принимают соответствующую языковую форму [Яо Цзисинь. Пространственные глаголы: суть и особенности их употребления с приставками и предлогами // International Journal of Humanities and Natural Sciences. – 2025. – Vol. 10-2 (109). – С. 207–212. DOI: 10.24412/2500-1000-2025-10-2-207-212.].

Точно такие же концептуальные различия отчетливо проявляются между русским и узбекским языками. Если в русском языке характер пространства (является ли оно верхней поверхностью или внутренней территорией) дифференцируется через строгое противопоставление (оппозицию) предлогов «на» и «в», то в сознании носителя узбекского языка эти отношения в большинстве случаев синтезируются в рамках одного универсального показателя — аффиксов местного падежа (-da) или дательного падежа (-ga), а пространственная точность дифференцируется с помощью контекста или уточняющих послелогов (ustida, ichida). В соответствии с этим, анализ комплексов предлогов и приставок в повести Чингиза Айтматова «Белый пароход», сопоставление русской языковой картины пространственных реалий в произведении с их узбекскими эквивалентами служат раскрытию специфических механизмов концептуального мышления обоих языков. Для более точного понимания системы пространственной локализации необходимо грамматически классифицировать языковую природу данных глаголов. Как отмечают М. М. Сатурян и Е. А. Ветошкина: в русском языке пространственные глаголы делятся на две большие группы. Первую категорию составляют глаголы состояния (локализации), которые отвечают на вопрос «где?» и, как правило, для выражения неподвижного состояния предмета часто требуют предложного падежа (например: «стоять» – tik turmoq, «сидеть» – o‘tirmoq). Втную группу составляют глаголы движения (перемещения). Они также по характеру движения имеют две формы: глаголы определенного направления, выражающие движение, происходящее в одном направлении в конкретное время (бежать, ехать, идти, плыть), а также глаголы неопределенного направления, показывающие повторяющееся движение и движение в разных направлениях (бегать, ездить, ходить, плавать). Вместе с тем, эти глаголы перемещения для указания направления активно употребляются с винительным падежом (на вопрос куда?), а для указания средства передвижения — с творительным падежом (на чём?).[Цатурян М. М., Ветошкина Е. А. Когнитивные особенности функционирования глаголов с пространственной семантикой // Вестник Адыгейского государственного университета. – 2013. – №3. – С. 118-122.]В свою очередь, И. Н. Смирнов предлагает типологию, соотносимую с данной системой. Согласно его классификации, пространственные глаголы в зависимости от кратности действия делятся на однократные и многократные (повторяющиеся) группы 2. В то время как к первой группе относятся однократные движения, совершаемые в определенный момент (идти пешком, ехать), во вторую группу входят глаголы длительного и постоянно повторяющегося движения (ходить пешком, ездить) [Смирнов И. Н. Кратность глагольного действия и средства ее выражения в современном русском языке // Известия Российского государственного педагогического

университета им. А. И. Герцена. – 2010. – № 137. – С. 106-116].Аналогичные научные выводы можно проследить в исследованиях М. Э. Азизовой [Азизова М. Э. Глаголы с пространственными значениями приставки у– в современном русском языке и способы их передачи на таджикский язык // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – 2015. – № 1. – С. 77-84].Вопрос о сопоставлении аналитической предложно-падежной системы и явления префиксации в русском языке с их эквивалентами в грамматике узбекского языка всегда занимает важное место в сопоставительном языкознании. Как отмечал известный ученый-лингвист А. Н. Кононов: конструкции с участием предлога под в русском языке в узбекском языке компенсируются главным образом при помощи послелогов (ko‘makchilar) со пространственным значением, таких как «тагига / остига» и «тагида / остида», а также падежных аффиксов [Кононов, 1960, с. 321]. [Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва–Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1960. – 446 с.]

Ученый по характеру выражения данных пространственных отношений в художественном тексте делит их на две основные функционально-семантические группы:

А) Направленность движения под объект (Динамическое состояние):

Как указывает А. Н. Кононов: если движение направлено под какой-либо предмет или к его нижней части, в узбекском языке употребляются послелоги «тагига / остига» [Кононов, 1960, с. 322]. В повести Ч. Айтматова «Белый пароход» («Oq kema») и ее узбекском переводе данная модель реализована с глаголами движения (префиксальными глаголами приближения) следующим образом:«Когда Момун наконец перебрался через реку и подъехал к внуку, тот уже плакал навзрыд (Mo‘min oxiri daryodan kechib o‘tib, nevarasining yoniga kelganda, bola o‘ksib-o‘ksib yig‘layotgan edi)».

«Момун подъехал к конюшне (Mo‘min otxona yoniga keldi)». Префиксально-предложная конструкция «подъехать к» в русском языке, выражающая приближение на транспортном средстве и достижение конечного пункта, в узбекском языке компенсируется в сочетании синтетического и аналитического способов — при помощи лексического значения глагола движения («kelmoq»), а также добавленного к объекту послелога «yoniga».

Б) Расположение движения или состояния под объектом (Статическое состояние):

Как отмечает А. Н. Кононов: если движение или состояние происходит под определенным предметом, ниже его или в непосредственной близости от его нижней части, в узбекском языке используются послелоги «тагида / остида» [Кононов, 1960, с. 322]. В тексте повести «Белый пароход» данная статическая локализация отражена через следующие соответствия:«Внизу, прямо под горой, по дну продолговатой лощины, серебрилась бурная, порожистая река (Pastda, shundoqqina tog‘ etagida (tagida), cho‘ziq soyning tubida shovullab, ko‘piklangan asov daryo kumushday tovlanib oqar edi)».

«Глохнут внешние звуки под водой, и в ушах остается лишь журчанье (Suv ostida (tagida) tashqi tovushlar bo‘g‘iladi, quloqqa faqatgina g‘uldirash eshitilib turadi)». Приведенные факты показывают, что русский аналитический предлог под имеет возможность выражать как направление движения (с винительным падежом), так и место действия (с творительным падежом) посредством одной языковой единицы. В узбекском же языке это отношение дифференцируется и ограничивается строго системно — путем добавления к основе послелога аффиксов дательного (-ga) или местного (-da) падежей.

В русском языке пространственные отношения охватывают семантику не только приближения к объекту или направления под него, но и удаления за пределы объекта. Поэтому, пропорционально вышеуказанным моделям приближения, отношения удаления

движения от исходной точки также составляют отдельную микросистему. В частности, исследователь И. В. Глушкова отмечает целесообразность применения приставки «от-» [Глушкова И. В. 2007. с. 30]. [Глушкова И. В. Функциональная дифференциация пространственных глагольных приставок на основе моделирования ситуации движения в истории русского языка // Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Общественные науки. – 2007. – № 1. – С. 29-34.] Данный префикс указывает на начальный этап удаления, то есть субъект только прерывает контакт с исходным объектом и начинает движение чуть дальше от него — на ограниченное, часто недалекое и видимое расстояние. В повести Ч. Айтматова «Белый пароход» данная модель компенсируется в узбекском языке в основном через исходный падеж (-dan) и семантику глагола:«Он отошел от окна... (U derazadan uzoqlashdi...)»

«...отпрянул от нее в испуге (...qo‘rquvdan undan o‘zini orqaga tortdi)»

Вместе с тем, в системе пространственных отношений важное место занимает семантика не только приближения к объекту или удаления от него, но и полного пересечения этого объекта или среды. В русском языке эта реляция реализуется в основном с помощью префикса «про-». Когда приставка «про-» выступает в значении прохождения сквозь какой-либо объект или связующую среду, этот объект описывается как среда, которую необходимо полностью преодолеть от одного края до другого. В тексте повести Ч. Айтматова «Белый пароход» данная модель проявляется следующим образом:«Пока переправился, тоже время прошло: через брод не поскачешь — воды много... (...daryodan kechib o‘tguncha ham vaqt o‘tib ketdi: kechuvdan ot chopib bo‘lmaydi — suv ko‘p...)» В русском языкознании конечная точка пространственных отношений, то есть достижение движением последнего намеченного пункта или определенного предела, образует отдельную систему моделей. Как совершенно верно отмечает А. Н. Болдырева: глаголы с приставкой «до-» могут описывать действие не только в физическом пространстве, но и в переносном (метафорическом) значении, например: «дописать статью» (maqolani yozib tugatmoq) или «дожить до весны» (bahorgacha yashab yetmoq). Здесь также полностью сохраняется та корневая семантика (значение), как доведение действия до логического завершения или достижение конечной границы определенного временного/ситуативного интервала [Болдырева А. Н., 2016, с. 30]. [Болдырева А. Н. Значения и употребление некоторых глаголов движения с приставками в русском языке // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – 2016. – № 6. – С. 25-32.]

В тексте повести Ч. Айтматова «Белый пароход» можно наблюдать весьма характерный пример употребления данной модели в переносном значении, то есть для выражения достижения ситуацией и состоянием крайней точки:

«Дошло до того, что некому стало хлеб сеять, скот умножать, на охоту ходить (Ish shu darajaga borib yetdiki, g‘alla ekadigan, chorva ko‘paytiradigan, ovga chiqadigan odam qolmadi)». В данном примере видно, что если в русском языке сочетание глагола движения и предлога («дошло до того») показывает достижение ситуацией определенного отрицательного логического финала, то в узбекском языке эта пространственно-переносная семантика полностью компенсирована с помощью устойчивого сочетания «shu darajaga borib yetdiki», чем обеспечена функциональная эквивалентность.

Следующая очередь за приставкой «о-». Приставка «о-» (а также её варианты «об-», «обо-») в глаголах движения выражает идею пространственного обхода объекта и, как отмечает Цзинь Тао, это явление проявляется в двух основных значениях. Если первое значение относится к движению по окружности вокруг объекта, то второе значение описывает обход препятствия на пути [Цзинь Тао, 2019, с. 110-140]. [Цзинь Тао. Русская приставка о-/об как

реализация трех моделей движения // Вестник Томского государственного университета. Филология. – 2019. – № 59. – С. 110-140.]В тексте повести Ч. Айтматова «Белый пароход» второе значение данной модели, то есть движение по обходу физического препятствия (валуна) в воде, показано через следующее логическое соответствие:

«...он осторожно обходил глубокие места и скользкие валуны... (...u chuqur joylarni va sirpanchiq xarsanglarni ehtiyotkorlik bilan aylanib o‘tardi...)»

Таблица. Способы лексико-семантической компенсации приставочных глаголов движения в узбекском языке.

№	Приставка(Префикс)	Пространственная семантика(тип модели)	Пример из текста(русский язык)	Функциональный эквивалент(узбекский язык)
1	Под-	Приближение к объекту или движение под него	...подплывал под самый крутой берег...	...eng tik jar yoqasiga suzib borardi...
2	У-	Удаление от объекта,покидание места	...и уплывал всё дальше...	...va borgan sari uzoqqa suzib ketardi...
3	Про-	Пересечение пространства или преодоление среды	...через брод не поскачешь — воды много... (переправился)	...kechuvdan ot chopib bo‘lmaydi... (kechib o‘tguncha)
4	До-	Достижение конечного предела/границы(в метафорическом смысле)	...Дошло до того, что некому стало хлеб сеять...	...Ish shu darajaga borib yetdiki, g‘alla ekadigan... odam qolmadi.
5	О-/ Об-/ Обо-	Пространственный обход препятствия	...он осторожно обходил глубокие места...	...u chuqur joylarni... ehtiyotkorlik bilan aylanib o‘tardi...

Как показывает представленный материал, морфологические пространственные значения, выражаемые в русском языке с помощью глагольных префиксов, в узбекском языке компенсируются лексико-семантическими средствами (аналитическими формами глагола, падежными окончаниями и устойчивыми сочетаниями), обеспечивая полную функциональную эквивалентность при переводе. При этом, как отмечает Е. М. Салеева, выбор предлога часто является устойчивой идиоматической нормой, которую нельзя логически вывести из физических свойств объекта.[Салеева Е. М. Морфологическая, синтаксическая и дискурсивная вариативность предлогов // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – № 9. – С. 149-157.]

Заключение

Специфика лингвистического восприятия и пространственной категоризации мира в сознании носителей русского языка находит свое яркое отражение в системе пространственных глаголов. Данная лексическая группа структурно дифференцируется на два приоритетных направления: стативные глаголы положения в пространстве, отвечающие на вопрос «где?» (стоять, лежать, сидеть), и динамические глаголы движения, противопоставленные по признаку однонаправленности / разнонаправленности (идти/ ходить, нести/носить). Главным лингвистическим фактором, расширяющим семантический объем и конкретизирующим пространственные параметры глагола, выступает система префиксального словообразования. Каждая глагольная приставка несет в себе строго

фиксированную смысловую нагрузку: так, формант «у-» сигнализирует об удалении и отсутствии субъекта в исходном пункте, «при-» — о приближении или достижении конечной точки, «про-» — о пересечении среды или движении мимо объекта, а «до-» — о достижении определенного предела. Принципиально важно, что синтаксическая дистрибуция и корректный выбор предлогов в речи непосредственно детерминируются семантическими свойствами данных префиксов.

Список литературы

Даль 1882, т. 3: 514.

Яо Цзисинь. Пространственные глаголы: суть и особенности их употребления с приставками и предлогами // International Journal of Humanities and Natural Sciences. – 2025. – Vol. 10-2 (109). – С. 207–212. DOI: 10.24412/2500-1000-2025-10-2-207-212.

Цатурян М. М., Ветошкина Е. А. Когнитивные особенности функционирования глаголов с пространственной семантикой // Вестник Адыгейского государственного университета. – 2013. – №3. – С. 118-122.

Смирнов И. Н. Кратность глагольного действия и средства ее выражения в современном русском языке // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. – 2010. – № 137. – С. 106-116

Азизова М. Э. Глаголы с пространственными значениями приставки у– в современном русском языке и способы их передачи на таджикский язык // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – 2015. – № 1. – С. 77-84

Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва–Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1960. – 446 с.

Глушкова И. В. Функциональная дифференциация пространственных глагольных приставок на основе моделирования ситуации движения в истории русского языка // Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Общественные науки. – 2007. – № 1. – С. 29-34.

Болдырева А. Н., 2016, с. 30]. [Болдырева А. Н. Значения и употребление некоторых глаголов движения с приставками в русском языке // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – 2016. – № 6. – С. 25-32.]

Болдырева А. Н., 2016, с. 30]. [Болдырева А. Н. Значения и употребление некоторых глаголов движения с приставками в русском языке // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – 2016. – № 6. – С. 25-32.]

Салеева Е. М. Морфологическая, синтаксическая и дискурсивная вариативность предлогов // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – № 9. – С. 149-157.

Айтматов, Ч. Т. Белый пароход: повесть / Ч. Т. Айтматов. – Москва: Художественная литература, 1978. – 96 с.

Айтматов, Ч. Ок кема [Белый пароход]: повесть и рассказы / Ч. Айтматов; пер. с рус. А. Рашидова. – Ташкент: Издательско-полиграфический творческий дом имени Гафура Гуляма, 2018. – 208 с. (На узб. яз.).

TURKIY TILLARDA TERMIN YASASH: BIRINCHI TURKOLOGIK QURULTOY MATERIALLARI ASOSIDA

Qodirova Barno,
dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Samarqand davlat universiteti Samarqand, O'zbekiston

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada turkiy tillarda termin yasashning ichki imkoniyatlari, ya'ni tilning o'z resurslari asosida ilmiy terminlar yaratish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot 1926-yilgi Turkologik qurultoy materiallari asosida olib borilib, unda terminologiyaning savodxonlik, madaniy taraqqiyot va til siyosati bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, termin yasashning asosiy modellari – derivatsiya, semantik kengayish, kompozitsiya va kalkalash usullari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin yasash, turkiy tillar, derivatsiya, semantik model, kompozitsiya, kalka.

ТЕРМИНООБРАЗОВАНИЕ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ ПЕРВОГО ТЮРКОЛОГИЧЕСКОГО СЪЕЗДА)

Кодирова Барно,
доцент, доктор философии по филологии (PhD),
Самаркандский государственный университет Самарканд, Узбекистан

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются внутренние возможности терминообразования в тюркских языках, то есть процесс создания научных терминов на основе собственных ресурсов языка. Исследование проведено на материале Первого тюркологического съезда 1926 года, в рамках которого рассматривается взаимосвязь терминологии с грамотностью, культурным развитием и языковой политикой. Кроме того, на научной основе анализируются основные модели терминообразования – деривация, семантическое расширение, композиция и калькирование.

Ключевые слова: терминология, терминообразование, тюркские языки, деривация, семантическая модель, композиция, калькирование.

TERM FORMATION IN TURKIC LANGUAGES: EVIDENCE FROM THE MATERIALS OF THE FIRST TURKOLOGICAL CONGRESS

Qodirova Barno,
docent, doctor of Philosophy in Philology (PhD),
Samarkand State University

ABSTRACT. This article examines the internal resources of term formation in Turkic languages, namely the process of creating scientific terms based on the language's own linguistic resources. The study is conducted on the basis of the materials of the First Turkological Congress of 1926 and highlights the relationship between terminology, literacy, cultural development, and language policy. In addition, the main models of term formation – derivation, semantic extension, compounding, and calquing – are analyzed from a scientific perspective.

Keywords: terminology, term formation, Turkic languages, derivation, semantic model, compounding, calquing.

Kirish. Turkiy tillarda terminologiya masalasi XX asr boshlarida, xususan, Turkologik qurultoy doirasida ilmiy muhokama markaziga aylangan. Ushbu davrda terminologik tizimning nomukammalligi til va madaniyat rivojiga jiddiy to‘siq sifatida baholangan. Mazkur fikr terminologiyaning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-funksional hodisa ekanini ko‘rsatadi. Termin yasash masalasi ayniqsa muhim bo‘lib, u milliy tillarning ichki imkoniyatlaridan foydalanish orqali ilmiy tafakkurni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shu sababli, turkiy tillarda termin yasash modellari va mexanizmlarini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. Turkologiya qurultoyida turkiy tillarning terminologik tizimini shakllantirish masalasi eng dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida alohida e’tibor markazida bo‘ldi. Qurultoy doirasida terminologiya nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan beshta ma’ruza tinglanib, ularda turkiy tillarda ilmiy terminlarni yaratish, ularni me’yorlashtirish hamda yagona terminologik tizimni shakllantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Xususan, A. R. Zifeld “Turkiy tillarda ilmiy terminologiyani yaratish prinsiplari haqida” [5, 239], B. V. Chobonzoda “Ilmiy terminologiya tizimi haqida” [5, 249], H. B. Zaynulli “Turkiy tillarning ilmiy terminologiyasi tizimi haqida” [5, 254], H. A. Odabosh “Turkiy tillarda terminologiya” [5, 262], A. B. Baytursinov “Qozoq adabiy tilida terminologiya yaratish masalalari” [5, 267] mavzularida ma’ruzalar qildilar. Unda termin yasashning nazariy va konseptual asoslari yoritilgan. Milliy terminologiyani shakllantirishning muhim tamoyillari belgilab berilgan hamda terminologiya ilmiy asosda ishlab chiqilishi zarurligi ta’kidlangan. Bu termin yasash jarayoni tasodifiy emas, balki muayyan lingvistik qonuniyatlarga asoslanishi kerakligini bildiradi. Termin yasash tilning ichki resurslariga tayanuvchi va ilmiy tushunchalarni aniq ifodalash vositasi hamda kommunikativ samaradorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida talqin etiladi [2, 244].

Axmet Baytursinov XX asr boshlarida qozoq terminologiyasiga asos solgan va terminlar rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab, qozoq terminologiyasining dastlabki ilmiy prinsiplarini ishlab chiqqan olimdir.

Ma’lumki, 1924-yil iyun oyida Orenburg shahrida “Qozoq ilmiy xodimlarining I syezdi” bo‘lib o‘tgan va unda terminologiyani shakllantirishning asosiy prinsipları tasdiqlangan [4, 173]. Oradan ikki yil o‘tib, 1926-yilda Boku shahrida o‘tkazilgan “Turkologlarning I qurultoyi”da Ahmet Baytursinov ushbu prinsiplarni ishtirokchilarga tanishtirib, ularni boshqa turkiy xalqlar ham qo‘llashi maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi va o‘z fikrini “har bir xalq o‘z tilini ortiqcha begona unsurlardan tozalab, uni omma uchun tushunarli qilish orqali nafaqat o‘z xalqiga, balki boshqa turkiy xalqlarga ham yaqinlashtira oladi” deya bildirib o‘tadi [5, 271]. Bu fikrlar olimning nafaqat qozoq terminologiyasining rivoj yo‘nalishlarini belgilab berganini, balki umumturkiy terminologiyaning taraqqiyotiga ham katta e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. U termin yaratishda umumiy prinsiplarni qo‘llash orqali turkiy xalqlar o‘rtasidagi ilmiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni mustahkamlashni maqsad qilgan.

Ishtirokchilar tomonidan termin yaratishda arabcha va forscha qatlam, rus va Yevropa tillaridan kirib kelayotgan yangi atamalar hamda turkiy tillarning ichki so‘z yasash imkoniyatlari o‘rtasidagi nisbat muhokama qilindi. Natijada terminologiyani rivojlantirishda milliy tilning ichki resurslariga tayanish, zarur hollarda esa xalqaro terminlarni ilmiy muomalaga moslashtirib qabul qilish tamoyili ilgari surildi [1, 54].

Turkiy tillar agglutinativ tuzilishga ega bo‘lib, bu ularning termin yasash imkoniyatlarini kengaytiradi. Qurultoy materiallarida ta’limning ona tilida olib borilishi va terminologiyaning milliy asosda shakllanishi zarurligi qayd etilib, ichki imkoniyatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: so‘z yasovchi affikslar tizimi, semantik kengayish imkoniyati, so‘z birikmalari asosida termin hosil qilish, milliy leksik fondga tayangan holda yangi birliklar yaratish. Bu imkoniyatlar

terminologiyani tashqi olinmalarsiz rivojlantirishga xizmat qiladi.

Termin yasash modellari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Derivatsion (affiksatsion) model. Bu model turkiy tillarda eng faol hisoblanadi. Affikslar yordamida yangi terminlar hosil qilinadi. Masalan, -lik, -chi, -kor, -shunos kabi qo‘shimchalari ilmiy soha nomlari va kasb atamalarini hosil qiladi: tilshunoslik, adabiyotshunos, o‘qituvchi. Bu modelning ustunligi unda tizimlilik, semantik aniqlik va mahsuldorlik mavjud ekanligini alohida ta’kidlash mumkin.

Garchi qurultoyda yevropa tillaridagi “-izm”, “-logiya”, “-atsiya” kabi affikslarni keng qo‘llash maqsadga muvofiq emasligi ta’kidlangan [5, 266] bo‘lsa-da, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek va qozoq filologik terminologiyasida mazkur shakllar bilan bog‘liq terminlar anchagina mavjudligini ta’kidlash zarur.

2. Semantik kengayish (metaforizatsiya). Mavjud so‘zlarga yangi ilmiy ma’no yuklash orqali termin hosil qilinadi. Masalan, ildiz botanikadan lingvistikaga, matematikaga yoki tarmoq biologiyadan texnologiyaga o‘tganligini keltirish mumkin. Bu model tilning ichki rivojlanishiga mos keladi.

3. Kompozitsion model. Ikki yoki undan ortiq so‘zlarning birikishi orqali termin hosil qilinadi. Jumladan, sodda gap, so‘z birikmasi, til tizimi. Bu model murakkab tushunchalarni ifodalashda samarali bo‘lib, terminologik aniqlikni oshiradi.

4. Kalkalash (tarjima modeli). Xorijiy terminlarning ma’nosini milliy til vositalari orqali qayta yaratish. Bu model xalqaro terminologiyani milliylashtirishga xizmat qiladi, lekin to‘g‘ri qo‘llanilmasa sun’iylikka olib kelishi mumkin.

Qurultoy materiallarida yozuv masalasi terminologiya muammolari bilan uzviy aloqador holda ham talqin etilgan. Muhokamalar jarayonida alifbo tanlovi yuzasidan turli qarashlar ilgari surilib [3, 21], bir guruh ishtirokchilar arab yozuvini saqlab qolish tarafdori bo‘lsalar, boshqa guruh lotin grafikasi asosidagi yozuv tizimini joriy etishni ma’qullagan. Mazkur yondashuvlar terminlarning grafik shakli, talaffuzi, imlosi hamda ularni me’yorlashtirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois terminologik tizimning shakllanishi va rivojlanishi yozuv tizimining takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi.

Qurultoyda terminologiyaning ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, savodsizlikni tugatish va ommaviy ta’limni rivojlantirish masalalari terminologik tizimning holati bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Bu esa terminologiyaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va pedagogik hodisa sifatida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Terminlar ilmiy bilimlarni avloddan avlodga yetkazishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi, ta’lim jarayonining samaradorligini belgilaydi hamda ilmiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil vazifasini bajaradi. Shunday qilib, terminologik tizimning mukammalligi jamiyatning ilmiy-ma’rifiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.

Xulosa. Turkiy tillarda termin yasash ichki imkoniyatlarga boy va tizimli jarayon hisoblanadi. Turkologik qurultoy materiallari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Termin yasash ilmiy asoslangan va tizimli bo‘lishi zarur.

Turkiy tillarning agglutinativ tabiati termin yaratishda keng imkoniyatlar beradi.

Asosiy modellarga derivatsiya, semantik kengayish, kompozitsiya va kalkalash kiradi.

Termin yasash yozuv islohoti va til siyosati bilan uzviy bog‘liq.

Terminologiya jamiyatning ilmiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Turkologik qurultoy materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, terminologiyani rivojlantirish masalasi til siyosati, madaniy modernizatsiya va ilmiy tafakkur evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq kompleks jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur manbada terminologik tizimning nomukammalligi

savodxonlikni oshirish, ilmiy bilimlarni ommalashtirish hamda ta’lim samaradorligini ta’minlash yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri sifatida baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, terminologiyani rivojlantirish bir tomondan lingvistik tizimni takomillashtirishni, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ehtiyojlarga moslashgan ilmiy-kommunikativ mexanizmni shakllantirishni taqozo etadi.

Avvalo, terminologiyani rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – uning ilmiy asoslanganligini ta’minlashdir. Qurultoy materiallarida terminlar tasodifiy yoki stixiyali tarzda emas, balki aniq metodologik tamoyillar asosida yaratilishi lozimligi qayd etiladi [5]. Bu esa terminologik birliklarning semantik aniqligi, tizimliligi va normativ barqarorligini kafolatlaydi. Termin yaratishda ilmiy yondashuvning ustuvorligi terminologiyani umumtil qatlamidan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – terminologiyani soddalashtirish va ommalashtirishdir. Manbada alohida ta’kidlanishicha, murakkab va tushunarsiz terminlar keng xalq ommasining ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois terminlar maksimal darajada aniq, ixcham va oson qabul qilinadigan shaklda ishlab chiqilishi zarur. Bu jarayon, ayniqsa, savodsizlikni tugatish va ta’lim tizimini ommaviylashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, terminologiya faqat mutaxassislar doirasida emas, balki keng ijtimoiy qatlam uchun ham funksional bo‘lishi kerak.

Uchinchi yo‘nalish – terminologiyani milliy til asosida shakllantirishdir. Qurultoyda ona tilida ta’limni rivojlantirish, ilmiy adabiyotlarni milliy tillarda yaratish va shu asosda terminologik bazani boyitish zarurligi qayd etiladi. Bu esa terminologiyaning milliy identifikatsiya vositasi sifatidagi rolini kuchaytiradi. Shu bilan birga, milliy terminologiya yaratishda xalq tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, so‘z yasash modellari va semantik kengayish mexanizmlarini ishga solish muhim hisoblanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish – terminologiyani yozuv (alfavit) islohoti bilan uyg‘un rivojlantirishdir. Qurultoy doirasida arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tish masalasi terminologik tizimni qayta ko‘rib chiqishni talab etuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Yangi grafik tizim terminlarning fonetik, morfologik va orfografik shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun terminologiyani rivojlantirish jarayoni alifbo islohoti bilan parallel ravishda olib borilishi lozim.

Beshinchi yo‘nalish – xalqaro ilmiy tajribani integratsiyalashdir. Qurultoyda turli mamlakat olimlarining ishtiroki terminologiyani rivojlantirishda komparativ yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu esa terminlarning universallashuvi, ilmiy muomalaga moslashuvi hamda global ilmiy diskursga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Shu bilan birga, milliy terminologiya va xalqaro terminologiya o‘rtasida muvozanatni saqlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, terminologiyani rivojlantirish ko‘p omilli, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, u ilmiylik, soddalik, milliylik, funksionallik hamda internatsionallik tamoyillariga asoslanadi. Mazkur tamoyillar uyg‘unligi terminologik tizimning samaradorligini oshirib, uni jamiyatning ilmiy-madaniy taraqqiyotida muhim vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar

1. Həsənova K. Birinci türkoloji qurultay və terminologiya məsələsi / TheFirstTurkologicalCongress – A100-Year Historic Event (1926-2026) February15, 2026.

2. Sayalı Sadıqova. Azərbaycan terminoqrafiyasının konseptual əsasları, Bakı, “OPTİMİST” MMC çap mərkəzi – 2023, – 704 s.

3. Xudoyberdiyev J. O. Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida / O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali. 2021 Vol. 4. – B. 18-38.

4. Қайдар Ә. Қазақ тілінің өзекті мәселелері: Актуальные вопросы ка-захского языка. — Алматы: Ана тілі, 1998. – 304 б.

5. Первый всесоюзный тюркологический съезд. Общество Обследования и Изучения Азербайджана. – БАКУ, 1926. – 550 с.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA “MODDIY-RASMLI-TIMSOLLI” YONDASHUV ORQALI HAYOTIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Sabirova Nasiba Ergashevna,
filologiya fanlari doktori, professor.
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida «Moddiy–Rasmli–Timsolli» yondashuvdan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ushbu yondashuvning o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalari, xususan, kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil, kommunikativ kompetensiya hamda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, moddiy, vizual va timsolli vositalar asosida matnni o‘rganish, badiiy asarlarni chuqur anglash, obraz va ramzlarni tahlil qilish hamda dars jarayonini interfaol tashkil etishga xizmat qiluvchi metod va usullar misollar asosida yoritilgan. Maqolada mazkur yondashuvning o‘quvchilarning bilish faolligi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы применения материально-визуально-символического подхода в преподавании родного языка и литературы. Проанализирована роль данного подхода в формировании у обучающихся компетенций XXI века, в частности креативного мышления, критического анализа, коммуникативной компетентности и жизненных навыков. Кроме того, представлены методы и приёмы изучения художественных текстов с использованием материальных, визуальных и символических средств, способствующие более глубокому пониманию литературных произведений, интерпретации художественных образов и символов, а также организации интерактивного образовательного процесса. Обоснованы педагогические возможности данного подхода в развитии познавательной активности, воображения, самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of applying the Material–Visual–Symbolic approach in teaching the native language and literature. It analyzes the significance of this approach in developing learners’ 21st-century skills, particularly creative thinking, critical analysis, communicative competence, and life skills. The paper also describes methods and techniques for studying literary texts through material, visual, and symbolic means, facilitating a deeper understanding of literary works, the interpretation of images and symbols, and the organization of interactive learning activities. Furthermore, the pedagogical potential of this approach in enhancing students’ cognitive activity, imagination, independent thinking, and creativity is substantiated.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, adabiyot ta’limi, innovatsion pedagogika, XXI asr ko‘nikmalari, kompetensiyaviy yondashuv, Moddiy–Rasmli–Timsolli yondashuv, vizual ta’lim, timsol, ramz, obraz, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, hayotiy ko‘nikmalar, badiiy tafakkur, matn tahlili.

Ключевые слова: обучение родному языку, литературное образование, инновационная педагогика, навыки XXI века, компетентностный подход, материально-визуально-символический подход, визуальное обучение, символ, символический образ, художественный образ, креативное мышление, критическое мышление, интерактивные методы обучения,

жизненные навыки, художественное мышление, анализ художественного текста.

Keywords: native language education, literature education, innovative pedagogy, 21st-century skills, competency-based approach, Material–Visual–Symbolic approach, visual learning, symbol, symbolic image, literary image, creative thinking, critical thinking, interactive teaching methods, life skills, artistic thinking, literary text analysis.

Kirish. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ta’lim tizimining kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashuvi ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish metodikasiga yangicha qarashlarni talab etmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularda tanqidiy va kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash hamda hayotiy vaziyatlarda bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, matnni chuqur anglash va obrazli fikrlashini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, «Moddiy–Rasmli–Timsolli» yondashuv o‘quvchilarning sezgi, idrok va tafakkur faoliyatini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali adabiy matnning mazmuni nafaqat o‘qish va tahlil qilish, balki vizual obrazlar, moddiy vositalar hamda ramziy talqinlar asosida o‘zlashtiriladi. Natijada o‘quvchilarda badiiy tafakkur, tasavvur, estetik did va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Asosiy qism. Ona tili va adabiyot darslarida «Moddiy–Rasmli–Timsolli

texnika va texnologiyaning shiddatli taraqqiyoti ta’lim tizimiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatning asosiy talablari – XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, o‘quvchilarning kreativ va amaliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda innovatsion

“Moddiy-Rasmli-Timsolli” yondashuvidan samarali foydalanishning afzalliklari va o‘quv jarayoniga ta’siri hech kimga sir emas. XXI asr ko‘nikmalari insonlarning zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat va xulq-atvorlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi va global muammolarni hal qilish zarurati natijasida shakllangan. Quyida XXI asr ko‘nikmalarining asosiy turlari va ularning ahamiyati keltirilgan:

1. O‘rganish ko‘nikmalari - yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar (4K) bo‘lib, ular shaxsning yangi bilim, mahorat va tajribalarni o‘zlashtirish, ulardan samarali foydalanish va doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatidir. XXI asrda o‘rganish ko‘nikmalari insonning shaxsiy va professional hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ha yotiy ko‘nikmalar - hayotimizni muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar (Moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, o‘z-o‘zini boshqarish, yetakchilik) bo‘lib, bu shaxsning kundalik hayotidagi muammolarini samarali hal qilish, boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish, mustaqil hayot kechirish va o‘zini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat va qobiliyatlar majmuasidir. XXI asrda hayotiy ko‘nikmalar, ayniqsa, o‘zgaruvchan dunyo sharoitida insonning barqarorligi va muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

3. Ilmiy savodxonlik ko‘nikmalari- media va raqamli resurslar orqali yangi bilimlarni egallash va qo‘llashda yordam beradigan ko‘nikmalar (axborot, media va texnologiya savodxonligi)dir.

“MODDIY-RASMLI-TIMSOLLI” yondashuv -murakkab tushunchalarni ko‘rgazmali vositalar, rasm, diagrammalar, timsollar va boshqa tasviriy materiallar orqali taqdim etish bo‘lib, bu ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, tasavvurlarini kengaytirish va matnni chuqurroq anglash uchun ishlatiladigan pedagogik metodlardan biridir.

Ushbu yondashuvda materiallarning tasviriy, simvolik va amaliy jihatlari asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

1. Moddiy yondashuv: Bu yondashuvda materialning narsalarga oid (moddiy) jihatlari e’tiborga olinadi. Ya’ni, o‘quvchilarga matnni, hikoya yoki she’rni tasavvur qilishda yordam berish uchun tasvirlar, jismoniy predmetlar, vizual vositalar yoki amaliy tajribalar qo‘llaniladi.

Misol: O‘quvchilarga she’r yoki hikoya haqida gapirganda, muallim ularga mavzuga oid tasvirlar, rasmlar yoki videolarni ko‘rsatishi mumkin. Masalan, «Tinchlik» yoki «Tabiat» mavzulari bo‘yicha tasviriy materiallar yordamida o‘quvchilar o‘z tasavvurlarini shakllantiradilar.

Moddiy yondashuv asosidagi amaliy topshiriqlar:

a) Hikoyani maket orqali ifodalash. Topshiriq: Guruh bo‘lib ishlash orqali asardagi voqealarni moddiy maket yoki diorama ko‘rinishida ifodalash. Masalan:

«Qutadg‘u bilig» dostonining saroy yoki shahar tasvirini yaratish.

«O‘tkan kunlar» romani bo‘yicha Toshkentning eski mahallasini maket ko‘rinishida ifodalash.

b) Qahramonlarning atributlari. Topshiriq: Qahramonlar bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy narsalarni yaratish. Masalan:

Alpomishning qilichi yoki qalqoni (qog‘ozdan tayyorlash yoki rasm chizish orqali).

Layli va Majnun sevgisini ramzlovchi moddiy buyumlar.

c) Hodisalarning xaritasini tuzish. Topshiriq: Asardagi voqealar joylashuvini moddiy xaritada belgilash. Masalan:

Qahramonning harakat yo‘nalishlarini ko‘rsatuvchi xarita chizish.

2. Rasmli yondashuvda, tasviriy materiallar (rasmlar, diagrammalar, kartalar, grafikalarning) yordamida adabiy asarlarning mazmunini o‘rganish va tushunish osonlashtiriladi. Bu yondashuvda o‘quvchilarga ko‘rish orqali tushunish va tasavvurlarini kengaytirish imkoniyati beriladi.

Misol: Agar o‘quvchilar «O‘rmon» mavzusidagi asarni o‘rganayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rmonning turli rasmlarini, o‘simliklar va hayvonlarning tasvirlarini ko‘rsatishi mumkin. Bu, o‘quvchilarga asarda tasvirlanayotgan muhit va kayfiyatini tushunishga yordam beradi.

3. Timsolli yondashuv:

Bu yondashuvda simvollar, timsollar va ramzlar orqali adabiy asarlarni tahlil qilishga e’tibor qaratiladi. Timsolli yondashuv o‘quvchilarga matndagi chuqur ma’nolarni anglashda yordam beradi, ya’ni biror obraz yoki so‘zning ramziy yoki timsolli ma’nosini tushunishga yordam beradi.

Misol: She’rda yoki hikoyada biror predmet yoki obraz (masalan, qush) ramziy ma’noga ega bo‘lishi mumkin — qush ozodlikni, tabiiylikni yoki ba’zi holatlarda o‘zgarishlarni bildirishi mumkin. O‘quvchilar bu ramzlar orqali asarlarni chuqurroq tahlil qilishni o‘rganadilar.

Moddiy-rasmli-timsolli yondashuvning afzalliklari:

Tasavvurlarni rivojlantiradi: O‘quvchilarga matnni tushunish uchun vizual materiallar yordamida tasavvurlarini kengaytiradi.

Yodda saqlashni yaxshilaydi: Rasm va simvollar orqali tushunilgan ma’lumotlar o‘quvchilarning yodida uzoq vaqt qoladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantiradi: Timsollar va simvollarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar kreativ va chuqur fikrlashni rivojlantiradilar.

Ta’limda amaliyotni qo‘llash: Moddiy va rasmli yondashuv orqali adabiyot va tilni real hayotga yaqinlashtirish mumkin.

Moddiy-rasmli-timsolli yondashuv ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning matnni tushunishi va uning chuqur ma’nolarini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, tasavvur qilishga va adabiy asarlarni chuqurroq o‘rganishga undaydi.

Rasmli yondashuv asosida “Fikrla, izohla, taqqosla”usuli yordamida rasmlarga mos so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, maqol, ibora va tasviriy ifodalar topish, ularning izohi va muqobilini izlash orqali o‘quvchilar bu birliklarni farqlaydi va eslab qoladi. Masalan: xursand-rasmning izohi; og‘zi qulog‘ida-ibora; sinonimi-boshi ko‘kka yetgan, boshi osmonda; antonimi- qovog‘idan qor yog‘adigan.

Adabiyot darslarida rasmli yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, tushunchalarni yaxshiroq anglash va o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Quyida rasmli yondashuvni darslarda samarali qo‘llash bo‘yicha ba’zi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

1. Matnni vizuallashtirish

Illyustratsiyalar yaratish: O‘quvchilar adabiy matn asosida rasm chizishlari yoki internetdagi rasmlardan foydalanib, voqealar, qahramonlar va muhitni tasvirlashlari mumkin. Bu ularning matnni chuqur tushunishiga yordam beradi.

Qahramonlar xarakteristikasi: Har bir qahramonni tasvirlash uchun portretlar chizish yoki grafiklar tuzish.

2. Komikslardan foydalanish

Matn mazmunini qisqa dialoglar va tasvirlar orqali tushuntirish uchun komikslar yaratish. Masalan, hikoya yoki dostonning asosiy qismlarini qahramonlar orqali komik tarzda ifodalash.

Bu usul, ayniqsa, yosh o‘quvchilar uchun tushunishni osonlashtiradi.

3. Vaqt chizig‘i va xaritalar

Hikoyaning voqealar ketma-ketligini yoki qahramonlarning harakat yo‘nalishlarini tasvirlash uchun vaqt chizig‘i yoki xaritalar chizish.

Masalan, «Alpomish» dostoni bo‘yicha Alpomishning safar xaritasini tuzish.

4. Rasmli prezentatsiyalar

Darslarda taqdimot uchun rasm va grafiklardan foydalanish. Masalan, she’r yoki hikoya mazmunini rasmlar bilan uyg‘unlashtirish orqali tushuntirish.

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, o‘zlari tayyorlagan rasmli taqdimotlarni namoyish qilishlari mumkin.

5. Rasm asosida muhokama

Hikoya yoki she’rga mos rasmlar tanlab, o‘quvchilarga savollar berish. Masalan, rasmni ko‘rsatib: “Bu tasvir qaysi voqeani aks ettiradi?” yoki “Bu qahramonning his-tuyg‘ulari qanday?” kabi savollar bilan muhokama tashkil etish.

6. Vizual hikoya yaratish

O‘quvchilarga o‘z hikoyalarini faqat rasmlar yordamida yaratish vazifasini berish. Keyin esa bu hikoyani so‘zlab berishlari so‘raladi.

Bu ijodiy fikrlashni va adabiy tahlilni rivojlantiradi.

7. Adabiy asarlarni jonlantirish

O‘quvchilarga rasmlar asosida qisqa animatsiyalar yoki sahna ko‘rinishlari tayyorlash imkoniyatini berish. Masalan, ertakni vizual animatsiya shaklida ifodalash.

Foydasi:

Tushunishni chuqurlashtirish: O‘quvchilar matn mazmunini yaxshiroq idrok etadilar.

Ijodiy fikrlash: Tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Faollikni oshirish: Darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi.

Hamkorlikni rag‘batlantirish: Guruh ishlari orqali o‘quvchilar birgalikda ishlashni o‘rganadilar.

Bu yondashuvni qo‘llashda “Men yozuvchiman”, “Qahramonlar mening tasavvurimda” usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqotni ta’minlab, dars

samaradorligini oshiradi.



Adabiyot darslarida timsolli yondashuv o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, asarlardagi yashirin ma’nolarni ochib berish va ularga tanqidiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod yordamida asarlarning chuqur mazmuni va ma’naviy g‘oyalari o‘quvchilarga yaqinroq va tushunarliroq bo‘ladi.

1. Timsollarni aniqlash va tahlil qilish

Asardagi asosiy timsollarni aniqlash: Dars davomida qahramonlar, voqealar, yoki muhitga xos timsollarni topish va ularni muhokama qilish. Masalan:

«Alpomish» dostoni: Alpomishning o‘zi botirlik va vatanparvarlik timsoli.

Cho‘lponning she’rlari: Quyosh — umid va yangilanish timsoli.

“Chinor” romanida chinor daraxti- mangulik ramzi, xalq ramzi.

O‘quvchilardan: “Bu timsol nimani anglatadi?” yoki “Bu timsol hozirgi davrda qanday ahamiyatga ega?” kabi savollarni muhokama qilishni talab qilish.

2. Timsollarni vizualizatsiya qilish

Timsollarni rasmlar, diagrammalar yoki jadvallar orqali tasvirlash. Masalan:

Quyosh — hayot va yangilanish.

To‘lqin — o‘zgaruvchanlik va kuch.

O‘quvchilarga asar mazmunidan ilhomlangan holda o‘z timsollarini chizish vazifasini berish.

3. Timsollarning zamonaviy talqini

O‘quvchilardan timsollarni zamonaviy hayot bilan bog‘lashni so‘rash. Masalan:

An’anaviy asardagi “tog‘” timsoli (ulug‘lik va bardosh)ni hozirgi shaxsiy fazilatlar yoki ijtimoiy hodisalar bilan solishtirish.

Zamonaviy adabiy asarlardagi yangi timsollarni tahlil qilish.

4. Qahramonlar va timsollar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushuntirish

Har bir qahramon qanday timsollarni ifoda etishini o‘rganish. Masalan:

Otabek (Abdulla Qodiriy): Qurbonlik va muhabbat timsoli.

Ot (dostonlarda): Erkinlik va sadoqat timsoli.

It (“Qorako‘z majnun”): Vafodorlik timsoli

Bu qahramonlar va timsollar o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish.

5. She’riy va badiiy timsollar bilan ishlash

She’rlardagi metaforik va timsoliy iboralarni tahlil qilish. Masalan:

“Oy” timsolining turli adabiyotlarda turlicha talqin etilishini o‘rganish.

Bu iboralarning poetik tuyg‘uni qanday oshirishini muhokama qilish.

6. Timsollarni hayotiy tajribalar bilan bog‘lash

O‘quvchilardan o‘z hayotlarida uchragan hodisalar yoki holatlarni timsollar yordamida tushuntirishni so‘rash. Masalan:

Daraxt — sabr va bardosh timsoli sifatida.

Daryo — vaqt yoki hayot oqimi sifatida.

7. Timsollar asosida ijodiy vazifalar

Insho yoki esse yozish: “Sevimli timsolim va uning hayotdagi ahamiyati” mavzusida yozish.

Spektakl yoki rolli o‘yinlar tashkil etish: Qahramonlarni timsoliy xususiyatlari orqali jonlantirish.

Timsolli yondashuvning foydalari:

Mazmunni chuqur tushunish: Asarlarning sirli va yashirin tomonlarini o‘quvchilar o‘zlari kashf etadilar.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: O‘quvchilar yangi ma’nolarni izlashga va talqin qilishga undaydi.

Hayotiy dars olish: Timsollarning ma’nolarini hayot bilan bog‘lash orqali ularning ma’naviy o‘sishi ta’minlanadi.

Estetik zavq: Timsollarning poetik va badiiy go‘zalligi darsni boyitadi.

Adabiyot darslarida timsolli yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilar nafaqat asarni, balki uning falsafiy va ma’naviy jihatlarini ham chuqurroq anglab olishadi.

Darsning refleksiya bosqichida «Men nimani o‘rgandim?» savoli o‘quvchilarning dars davomida olgan bilimlarini tahlil qilishlari va anglashlari uchun juda muhim. Ushbu savol orqali ular o‘z bilimlarini mustahkamlash, tushunmagan jihatlarini aniqlash va shaxsiy fikrlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Refleksiya bosqichida «Men nimani o‘rgandim?» savolidan foydalanishda “Yozma javoblar” usulidan foydalaniladi:

O‘quvchilarga maxsus qog‘oz yoki daftarlariga savolga qisqacha javob yozishni so‘rash. Masalan:

Darsdan olgan uchta asosiy fikrni yozish.

Qaysi qism sizga eng qiziq bo‘ldi va nima uchun?

“Men dars davomida o‘rgandim, lekin hali quyidagilarni bilishni istayman...” kabi jumlani yakunlash.

“Bugungi mavzu hayotda qanday foydali bo‘lishi mumkin?”

Bu yondashuv darsni samarali yakunlashga va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Ona tili va adabiyot darslarida “Moddiy–Rasmli–Timsolli” yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishiga, badiiy matnni ko‘p qirrali idrok etishiga hamda hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lay olish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini ko‘rgazmalilik, amaliy faoliyat va ramziy tafakkur uyg‘unligida tashkil etish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moddiy vositalar, vizual materiallar va timsolli tahlil metodlaridan kompleks foydalanish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, nutq madaniyatini boyitadi hamda badiiy-estetik didini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu yondashuv hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, muammolarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish kabi XXI asr

kompetensiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu bois «Moddiy–Rasmli–Timsolli» yondashuvni ona tili va adabiyot fanlari metodikasiga tizimli ravishda joriy etish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda raqamli ta’lim resurslari bilan integratsiyalash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodni turli sinf bosqichlariga moslashtirish, elektron didaktik materiallar yaratish va uning samaradorligini eksperimental tadqiqotlar asosida baholash istiqboldagi ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Адабиётшунослик луғати / Д.Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov “Adabiyot” 6-sinf uchun darslik, Toshkent-2022.

S. Olimov, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov “Adabiyot” 8-sinf uchun darslik – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nahriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. “Adabiyot” 9-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.:”O‘zbekiston” NMIU, 2019.

Sh. A. Yuldoshova “Badiiy asarda motiv, mavzu va timsol o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar” Journal of Innovation, Creativity and Art, Vol. 3, No. 10, 2024

N. F. Saydalixodjaeva “Pedagogik texnologiyalar” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2021

Yo‘ldoshev Q., Yusupov J. Badiiy tahlil asoslari. - Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2008.

Internet saytlari:

1. http://www.kutubxona .uz
2. http://www.literature .uz
3. http://www.ziyonet .uz

HAYVON OBRAZLARI ORQALI STEREOTIPLARNING IFODALANISHI (O‘ZBEK VA QORAQALPOQ FRAZEOLOGIYASIDA)

Xurramova Manzura Jarash qizi,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Lingvistika: òzbek tili 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillari frazeologik tizimida hayvon obrazlari, ya’ni zoonimlar yordamida shakllangan ijtimoiy va madaniy stereotiplar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ikki qardosh xalqning dunyoqarashi, milliy qadriyatlari va turmush tarzining til birliklarida aks etishini o‘rganish bilan belgilanadi. Maqolada hayvon nomlari ishtirok etgan iboralarning inson xarakteri, xulq-atvori va jamiyatdagi mavqeini tavsiflashdagi o‘rni yoritib berilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda ham it, ot, tuya, tulki va bo‘ri kabi obrazlar o‘xshash stereotiplarni ifodalasa-da, qoraqalpoq frazeologiyasida chorvachilik va geografik muhit bilan bog‘liq o‘ziga xos farqli jihatlar mavjud. Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va etnolingvistika sohalari uchun muhim nazariy ma’lumotlar beradi. Maqola davomida har bir hayvon obrazi tahlil qilinib, ularning xalq mentaliteti bilan bog‘liqligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: zoonim, ijtimoiy-madaniy tahlil, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, qiyosiy tilshunoslik, etnolingvistika, barqaror birikmalar, xalq dunyoqarashi, zoonimik metafora.

ВЫРАЖЕНИЕ СТЕРЕОТИПОВ ЧЕРЕЗ ОБРАЗЫ ЖИВОТНЫХ (В УЗБЕКСКОЙ И КАРАКАЛПАКСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ)

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ социокультурных стереотипов, сформированных с помощью образов животных (зоонимов) во фразеологических системах узбекского и каракалпакского языков. Актуальность исследования обусловлена необходимостью изучения того, как мировоззрение, национальные ценности и образ жизни двух родственных народов отражаются в языковых единицах. В статье освещается роль фразеологизмов с названиями животных в описании человеческого характера, поведения и социального статуса. Анализ показывает, что, хотя в обоих языках такие образы, как собака, лошадь, верблюд, лиса и волк, выражают схожие стереотипы, в каракалпакской фразеологии имеются специфические отличия, связанные с животноводством и географической средой. Результаты исследования предоставляют важную теоретическую информацию для областей лингвокультурологии и этнолингвистики.

Ключевые слова: зооним, социокультурный анализ, лингвокультурология, национальный менталитет, сравнительное языкознание, этнолингвистика, устойчивые сочетания, мировоззрение народа, зоонимическая метафора.

EXPRESSION OF STEREOTYPES THROUGH ANIMAL IMAGES (IN UZBEK AND KARAKALPAK PHRASEOLOGY)

Annotation: This article presents a comparative analysis of socio-cultural stereotypes formed through animal images (zoonyms) in the phraseological systems of the Uzbek and Karakalpak languages. The relevance of the research is determined by the study of how the worldview, national values, and lifestyle of two brotherly nations are reflected in linguistic units. The article highlights the role of phraseological units containing animal names in describing human character, behavior, and social status. The analysis shows that although images such as the dog, horse, camel, fox, and

wolf express similar stereotypes in both languages, there are specific differences in Karakalpak phraseology related to livestock farming and the geographical environment. The results of the study provide important theoretical information for the fields of linguaculturology and ethnolinguistics.

Key words: zoonym, socio-cultural analysis, linguaculturology, national mentality, comparative linguistics, ethnolinguistics, phraseological units, national worldview, zoonymic metaphor.

KIRISH.Hozirgi zamon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi tillardagi milliy-madaniy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan birliklarni tadqiq etishni taqozo etmoqda. Tadqiqotda aniqlangan asosiy muammo shundaki, zoonimlar ishtirokidagi stereotiplar o‘zbek tilida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, qoraqalpoq frazeologiyasi bilan qiyosiy tahlili hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tadqiqotning maqsadi ikki qardosh tildagi hayvon obrazlari orqali ifodalanadigan stereotiplarning umumiyligi va xilma-xilligini aniqlashdan iborat. Hozirgi zamon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaga o‘tish jarayoni til birliklarining inson omili bilan bog‘liqligini tadqiq etishni markaziy masalaga aylantirdi. Xususan, frazeologiya sohasi nafaqat til boyligini, balki millatning madaniy kodi, qadriyatlari va asriy tajribalarini o‘zida saqlaydigan xazinadir. Frazeologizmlar tarkibidagi hayvon nomlari (zoonimlar) esa inson xarakterini obrazli ifodalashda eng qadimiy qatlamlardan biri sanaladi. Har bir xalq o‘zining turmush tarzi va tabiat bilan munosabatidan kelib chiqib, muayyan hayvonlarga nisbatan barqaror stereotiplarni shakllantirgan. Mazkur tadqiqotda aniqlangan asosiy muammo shundaki, o‘zbek va qoraqalpoq tillari qardosh bo‘lishiga qaramay, ularning zoonimik frazeologiyasidagi semantik farqlar va stereotiplarning shakllanish mexanizmlari qiyosiy jihatdan hali to‘liq tizimlashtirilmagan. Xususan, bir xil hayvon obrazining ikki xalq dunyoqarashida turlicha (ijobiy yoki salbiy) baholanishi til va madaniyat o‘rtasidagi nozik aloqalarni ko‘rsatib beradi. O‘rganilmagan muammolar qatoriga qoraqalpoq xalqining o‘ziga xos ekologik muhiti (Orolbo‘yi hududi, chorvachilik an’analari) ta’sirida o‘zbek tilidagidan farq qiluvchi yangi ma’no qirralarining paydo bo‘lishini kiritish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek va qoraqalpoq frazeologiyasidagi hayvon obrazlari orqali ifodalanadigan stereotiplarni qiyosiy tahlil qilish, ulardagi milliymadaniy xususiyatlarni aniqlash va qardosh tillarning zoonimik manzarasidagi

umumiylik hamda o‘ziga xosliklarni ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: har ikki tilda faol qo‘llaniladigan zoonimlarni aniqlash, ularning semantik ko‘lamini qiyoslash va stereotiplarning shakllanishiga ta’sir etgan lingvistik va ekstralingvistik omillarni tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologik birliklarning inson ongidagi stereotiplar bilan bog‘liqligi masalasi uzoq vaqtdan buyon tilshunos olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. O‘zbek tilshunosligida bu sohaning poydevori akademik Sh. Rahmatullayev tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, u zoonimlarning ko‘chma ma’no hosil qilish imkoniyatlarini lug‘atshunoslik nuqtayi nazaridan tizimlashtirgan. Ayniqsa, A. Mamatovning tadqiqotlari frazeologizmlarning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillarning rolini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning qarashlariga ko‘ra, hayvon obrazlari shunchaki o‘xshatish emas, balki xalqning asrlar davomida shakllangan kognitiv tajribasi mahsulidir.

Qoraqalpoq tilshunosligida esa zoonimik frazeologiya E. Berdimuratovning ishlarida chuqur tahlil etilgan. Muallif qoraqalpoq tili leksikasidagi hayvon nomlarining milliy koloritini va ularning ko‘chmanchi turmush tarzi bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda O. Yusupov kabi olimlar lingvokulturologik yondashuvni ilgari surib, frazeologizmlarni «madaniyat ko‘zgusi» sifatida talqin qilmoqdalar. Biroq, o‘zbek va qoraqalpoq tillari o‘rtasidagi zoonimik stereotiplarning qiyosiy-tipologik tahlili hali ham alohida tadqiqot obyekti sifatida kengaytirilgan yondashuvni talab etadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi:

• Qiyosiy-tipologik metod: O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi o‘xshash zoonimik birliklarni solishtirish orqali ulardagi mushtarak va farqli jihatlar aniqlandi.

• Komponent tahlil metodi: Frazeologizm tarkibidagi har bir zoonimning (masalan, «it», «ot», «bo‘ri») semantik strukturasidagi asosiy va qo‘shimcha ma’no qirralari o‘rganildi.

• Lingvokulturologik tahlil: Til birliklarining xalq madaniyati, urf-odatlari va geografik joylashuvi bilan bog‘liqligi ochib berildi.

• Deskriptiv (tavsifiy) metod: To‘plangan materiallarni tizimlashtirish va ularning nutqdagi stereotipik vazifalarini tavsiflash uchun qo‘llanildi.

Metodologik asos sifatida turkiy tillar frazeologiyasining umumiy qonuniyatlari hamda qiyosiy tilshunoslikning zamonaviy tamoyillariga tayanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy xolisligini ta’minlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan tahlillar natijasida o‘zbek va qoraqalpoq zoonimik frazeologizmlarining semantik maydoni turlicha xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Har ikki xalq dunyoqarashida hayvonlar insonning ijobiy va salbiy sifatlarini ko‘rsatuvchi asosiy etalonlar bo‘lib xizmat qiladi.

1. Salbiy stereotiplarning zoonimik ifodalanishi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, insonning aqliy zaifligi, o‘jarligi yoki makkorligi kabi xususiyatlar har ikki tilda deyarli bir xil hayvonlar orqali stereotiplashgan. Xususan, «eshak» (eskek) obrazi intellektual salohiyatning pastligi va asossiz qaysarlikni ifodalashda yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbek tilidagi «Eshak makkai, o‘zi lakkai» iborasi bilan qoraqalpoq tilidagi «Eskektiń kúshi – pashshag‘a jetpes» kabi birliklarda hayvonning kuchi va aqli kamsituvchi stereotip sifatida namoyon bo‘ladi. Tulki (túlki) obrazi esa har ikki tilda mutloq makkorlik etaloni hisoblanadi.

2. Ijobiy stereotiplar va madaniy farqlar. Ijobiy stereotiplarni ifodalashda o‘zbek va qoraqalpoq frazeologiyasida o‘ziga xos farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbeklarda «ot» (at) ko‘proq mardlik va aslzodalik bilan bog‘lansa, qoraqalpoq frazeologiyasida ot yosh yigitning hamrohi va hayotiy tayanchi sifatida kengroq

ma’no qirralariga ega (masalan: «At – erdiń qanatı»).Shuningdek, tuya (túye) obrazi tahlil qilinganda, qoraqalpoq tilidagi iboralarda ushbu hayvon nafaqat sabr-toqat, balki hayotiy farovonlik va baraka ramzi sifatida o‘zbek tilidagiga qaraganda faolroq qo‘llanilishi aniqlandi. Bu holat qoraqalpoq xalqining tarixan chorvachilik, xususan, tuyachilik bilan ko‘proq shug‘ullanganligi va ushbu hayvonning xalq xo‘jaligidagi strategik ahamiyati bilan izohlanadi.

XULOSA

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi zoonimik frazeologizmlar har ikki xalqning umumturkiy ildizlarga ega ekanligini, ularning dunyoqarashi va mantiqiy tafakkuri mushtarak tamoyillar asosida shakllanganligini tasdiqlaydi. Ko‘pgina hayvon obrazlari, xususan tulki, bo‘ri, eshak va arslon kabi timsollar har ikki tilda ham bir xil semantik yuklamaga hamda barqaror ijtimoiy stereotipga ega ekanligi kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, stereotiplarning shakllanishida xalqning yashash tarzi va geografik muhiti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, qoraqalpoq frazeologiyasida tuya va ot obrazlarining ijobiy stereotip sifatida o‘zbek tilidagiga qaraganda faolroq va rang-barangroq ifodalanishi ushbu xalqning ko‘chmanchi chorvachilik madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Zoonimik stereotiplar jamiyatda inson xatti-harakatlarini baholashning o‘ziga xos o‘lchov birligi bo‘lib xizmat qiladi hamda tilda tayyor obrazli andozalar sifatida so‘zlovchiga o‘z fikrini lo‘nda va emotsional tarzda yetkazish imkonini beradi.

Shuningdek, hayvonlar bilan bog‘liq stereotiplar yosh avlod tarbiyasida muayyan ijobiy sifatlarni shakllantirish va salbiy illatlardan qaytarishda muhim didaktik vosita vazifasini o‘taydi. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq tillari zoonimik qatlamini qiyosiy o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki etnopsixologiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham boy manba bo‘lib xizmat qiladi hamda qardosh xalqlarning lisoniy va madaniy yaqinligini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamatov A. E. O‘zbek tili frazeologiyasi shakllanishi masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 160 b.
2. Yusupov O. Q. Etnolingvistika va lingvokulturologiya muammolari. // Til va adabiyot ta’limi jurnali. – Toshkent, 2021. – № 4. – B. 110-115.
3. Berdimuratov E. Házirgi qaraqalpaq tili. Frazeologiya. – Nökis: Bilim, 1994. – 120 b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 400 b.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ Н. Д. ИЛЬИНА, В. ДЕРЖАВИНА И С. ИВАНОВА В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Шукурова Лола Ринатовна
Преподаватель кафедры русского языка и литературы негосударственного высшего образовательного учреждения «ALFRAGANUS UNIVERSITY»
ORCID: 0009-0002-7130-918X

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ переводческих стратегий Н. Д. Ильина, В. Державина и С. Иванова в русских переводах узбекской поэзии. На материале стихотворения Гафура Гуляма «Ташкент» и газели Алишера Навои исследуются особенности передачи национально-культурных реалий, философско-символической образности и художественного своеобразия оригинала. Теоретическую основу исследования составили концепции Л. Венути, В. Н. Комиссарова и Г. Тури. Сопоставительный анализ показал, что переводческий метод Н. Д. Ильина ориентирован на сохранение национально-культурной специфики оригинала посредством стратегии форенизации, тогда как переводы В. Державина и С. Иванова в большей степени основаны на художественной адаптации и принципах доместикации. Установлено, что выбор переводческой стратегии определяется жанровыми особенностями произведения и задачами сохранения его культурно-художественной специфики.

Полученные результаты позволяют рассматривать переводческий метод Н. Д. Ильина как эффективную модель передачи национально-культурного своеобразия узбекской поэзии в русскоязычном художественном пространстве.

Ключевые слова: художественный перевод; переводческие стратегии; форенизация; доместикация; Н. Д. Ильин; В. Державин; С. Иванов; узбекская поэзия; Гафур Гулям; Алишер Навои; национально-культурные реалии; межкультурный диалог; поэтический перевод; художественная эквивалентность; культурная идентичность.

COMPARATIVE ANALYSIS OF N. D. ILYIN'S, V. DERZHAVIN'S, AND S. IVANOV'S TRANSLATION STRATEGIES IN RUSSIAN TRANSLATIONS OF UZBEK POETRY

Shukurova Lola Rinatovna
Lecturer, Department of Russian Language and Literature,
ALFRAGANUS UNIVERSITY, Uzbekistan

Abstract. This article presents a comparative analysis of the translation strategies employed by N. D. Ilyin, V. Derzhavin, and S. Ivanov in their Russian translations of Uzbek poetry. Drawing on Gafur Ghulam's poem Tashkent and Alisher Navoi's ghazal Ishq sirrin hajr asiri notavonlardin so'rung, the study examines the ways in which national and cultural realia, philosophical symbolism, and the artistic originality of the source texts are rendered in translation. The theoretical framework is based on Lawrence Venuti's concepts of foreignization and domestication, V. N. Komissarov's theory of translation equivalence, and Gideon Toury's concept of translation norms. The comparative analysis demonstrates that N. D. Ilyin's translation approach consistently prioritizes the preservation of the source text's national and cultural specificity through the strategy of foreignization, whereas the translations by V. Derzhavin and S. Ivanov rely more extensively on domestication and literary adaptation. The findings indicate that the choice of translation strategy is determined by the genre characteristics of the literary work and the necessity of preserving

its cultural and aesthetic features. The study concludes that N. D. Ilyin's translation method represents an effective model for conveying the national and cultural identity of Uzbek poetry within the Russian literary context.

Keywords: literary translation; translation strategies; foreignization; domestication; N. D. Ilyin; V. Derzhavin; S. Ivanov; Uzbek poetry; Gafur Ghulam; Alisher Navoi; national and cultural realia; intercultural dialogue; poetic translation; translation equivalence; cultural identity.

Художественный перевод узбекской поэзии играет важную роль в развитии русско-узбекских литературных связей и межкультурного диалога. Особый интерес в этом контексте представляет выбор переводческих стратегий, определяющих степень сохранения национально-культурного своеобразия, художественной образности и эстетического воздействия оригинала.

Значительный вклад в развитие русских переводов узбекской поэзии внесли Л. Пеньковский, С. Липкин, Н. Гребнев, В. Державин, С. Иванов, Н. Д. Ильин и другие переводчики, чья деятельность способствовала популяризации узбекской литературы в русскоязычном культурном пространстве.

Однако сравнительный анализ их переводческих стратегий до настоящего времени не получил достаточного освещения в научной литературе, что определяет актуальность настоящего исследования.

Теоретическую основу исследования составляют положения современной теории художественного перевода. Концепция Л. Венути о стратегиях форенизации и доместикации позволяет рассматривать перевод как форму культурного посредничества [, с. 19], тогда как положения В. Н. Комиссарова об эквивалентности перевода [, с. 51] и концепция Г. Тури о переводческих нормах [, с. 53] создают теоретическую основу для анализа индивидуальных переводческих решений. Опора на данные подходы позволяет исследовать особенности реализации переводческих стратегий при передаче национально-культурной и художественной специфики узбекской поэзии.

Цель исследования заключается в выявлении особенностей переводческих стратегий Н. Д. Ильина в сопоставлении с переводческими решениями В. Державина и С. Иванова при передаче национально-культурной и художественной специфики узбекской поэзии.

В работе использованы сравнительно-сопоставительный, лингвокультурологический, описательно-аналитический и функциональный методы исследования, а также элементы переводоведческого анализа.

Научная новизна исследования заключается в том, что впервые проведено комплексное сопоставление переводческих стратегий Н. Д. Ильина, В. Державина и С. Иванова на материале произведений современной и классической узбекской поэзии с позиций концепций форенизации и доместикации.

Выбор произведений обусловлен их принадлежностью к различным этапам развития узбекской поэзии, что позволяет проследить особенности реализации переводческих стратегий при передаче национально-культурных реалий и философско-символической образности.

В качестве первого объекта исследования рассматриваются переводы стихотворения Гафура Гуляма «Ташкент», выполненные Н. Д. Ильиным и В. Державиным.

Тошкент Осиёнинг кўркли ўрнида,
Мақталса арзийди, оз эмас – анча.
Тошкентнинг ложувард тоза кўкида

Шаббода тинмайди тонгдан кечгача.

Узоқ Ҳинд, Хитойда қон кечган қуёш
Тошкент осмонида ҳордиқ олади.
Озод ўлка устига нур тўкиб ёввош,
Улуғ қурилишларга кўзин солади.

Тошкентнинг сувлари шунчалар тоза:
Чирчиқ, Оҳангарон, Бўз, Анҳор, Солор.
Бекасам жилоси шу буюк фазо
Рангини, тўғриси, Тошкентдан олар.

Бу ернинг меваси шунчалар асл,
Кумуш бутоқларда ёқутдай кўркам.
Бу ерда узун йил билмайди фасл,
Тошкентни Ватан деб билади кўклам... [, с. 16].

Перевод Н. Ильина:
В сердце Азии место обрёл наш Ташкент,
Он достоин похвал, его облик высок,
Здесь с небес, как чище и красочней нет,
От зари до заката живит ветерок.

Солнце, Индию днем обходя и Китай,
Только в небе Ташкента находит покой,
Озаряя лучами свободный наш край,
Восхищаясь постройками с их высотой.

Так чисты, так прозрачны каналы у нас:
И Чирчик, и Бозсу, и Анхор, и Салар.
А небесные краски – блестящий бекас –
От Ташкента, бесспорно, получены в дар.

Фрукты самые вкусные в мире тут есть –
На ветвях серебристых рубиновый цвет,
Целый год времена не сменяются здесь:
Ведь весна своей Родиной видит Ташкент [, с. 128].

(Перевод В. Державина)
Ташкент построен в лучшей части света,
Он весь- в просторной синей чаше гор,
И в знойное сорокадневье лета
Здесь ветром омывается простор.

Горюет солнце над чужой землею
И радуется, восходя у нас,
Льет кроткие лучи живой рекою,

Идет…помедлить хочет хоть на час.

Как свежи и как звонки реки наши-
Чирчик, Ахангаран, Анхор, Салар.
Долина блещет бекасама краше-
Ташкента моего душевный дар.

Как драгоценный яхонт, персик рдеет-
Ждет, полускрыт серебряной листвой.
Свой праздник осень праздновать умеет
Здесь, где поставлен город древний твой [, с. 51].

Сопоставление переводов Н. Д. Ильина и В. Державина выявляет два различных типа культурного посредничества при репрезентации образа Ташкента в поэзии Гафура Гуляма. В оригинале доминируют культурно маркированные элементы — гидронимы (Чирчик, Бозсу, Анхор, Салар), реалия «бекасам» и метафора Ташкента как пространства вечной весны, формирующие национально-культурную модель художественного пространства.

Перевод Н. Ильина основан на стратегии форенизации, которая проявляется в сохранении оригинальных гидронимов, национально маркированной реалии «бекасам» и образной доминанты «вечной весны».

Это способствует сохранению национально-культурной специфики оригинала в русскоязычном тексте.

Перевод В. Державина реализует стратегию доместикации, ориентированную на адаптацию произведения к русской поэтической традиции. Использование авторских образных конструкций и замена метафоры вечной весны мотивом осеннего изобилия приводят к частичной нейтрализации культурно-символической доминанты оригинала, а реалия «бекасам» утрачивает часть своей этнокультурной семантики.

Таким образом, Н. Ильин ориентируется на сохранение и репрезентацию национально-культурной специфики оригинала, тогда как Державин отдаёт предпочтение её художественной адаптации в соответствии с нормами принимающей литературной традиции.

Результаты анализа переводов стихотворения Гафура Гуляма свидетельствуют о том, что различия переводческих стратегий наиболее отчетливо проявляются при передаче национально-культурных реалий. Для проверки устойчивости выявленных закономерностей обратимся к переводу классической восточной поэзии, характеризующейся высокой степенью символизации художественного текста.

Сопоставление переводов Н. Ильина и С. Иванова газели Алишера Навои «Ишқ сиррин хажр асири нотовонлардан сўрунг» позволяет проследить особенности реализации этих переводческих стратегий на материале классической восточной поэзии.

Ишқ сиррин ҳажр асири нотавонлардин сўрунг,
Айш ила ишрат тариқин комронлардин сўрунг.
Бизга жуз меҳру вафо ойини бўлмайдур насиб,
Бевафолиғ расмини номеҳрибонлардин сўрунг.
Бизни даврон меҳнати ҳам ожиз этмиш, ҳам қари,
Ҳусн ила қувватни раъно навжувонлардин сўрунг.
Бедил эл дилжўйлуқ ё дилшиканлик расмини

Фаҳм қилмаслар, бу ишни дилситонлардин сўрунг.
Нек ном эл ишқ аро бадномлиғлар шевасин
Яхши бнлмаслар, ани биздек ёмонлардин сўрунг.
Фардлиқ завқини сўрманг шавкату жоҳ аҳлидин,
Ул суубат лаззатин бехонумонлардин сўрунг.
Ажз туфроғида ишқ аҳлиға ўлган ҳукми бор,
Қатл ҳукми айламакни қаҳрамонлардин сўрунг.
Билмади мақсуди ганжининг нишонин аҳли расм,
Гар сўрарсиз, ани беному нишонлардин сўрунг.
Чун Навоий ишқ саҳросида итти, дўстлар,
Ани ул ёндин етишган корвонлардин сўрунг

Перевод Н. Ильина:
Вы о тайнах любви тех, кто был разлучен, расспросите,
Об усладах пиров тех, кто ими прельщен, расспросите.

Суждено как удел сохранять и любовь нам и верность,
Про неверность в любви тех, кто с ней незнаком, расспросите.

Повседневные тяготы слабость приносят и старость,
О красе и о силе людей молодых расспросите.

Что бездушные скажут о радостях или обидах?
Тех, кто чуткой душой одарен, вы о них расспросите.

Благородных душою о людях дурных не пытайте:
Тех, кто плох, как все мы, или кто развращен, расспросите.

О путях одиночества знатные люди не скажут,
О блаженстве невзгод тех, кто всем обделен, расспросите.

Смертный ждет приговор уязвленных высокой любовью,
Кто в любви, как герой, был сражен, их о ней расспросите.

Кто живет повседневным, тот высших сокровищ не знает:
Кто от суетных дел отрешен, вы таких расспросите.

О друзья, средь пустыни любви Навои затерялся,
Вы о нем караваны из дальних сторон расспросите [, с. 22].

Перевод Сергея Иванова газели А. Навои «Ишқ сиррин хажр асири нотовонлардан сўрунг»:
Секрет влюбленности — у тех, кто раб ее оков, спросите,
А тех, кто счастьем наделен, про радости пиров спросите.

Любовь и верность—наш удел, другой обычай нам неведом,

А про неверность у дурных — в чем суть ее основ — спросите.

Нас жалкой немощью гнетут заботы времени и старость, —
О красоте и силе — тех, кто молод и здоров, спросите;

Кто бессердечен, что ему сердец восторги и крушенья?
Про сердце — лучше у того, кто слышит сердца зов, спросите.

Не знает преданный в любви повадок пленников порока, —
Об этом — нас, познавших мрак порочных тайников, спросите.

Мужей почета и чинов про отрешенность не пытайте,
О сладких тяготах ее у нищих бедняков спросите.

Вся сила пленников любви — во прахе немощи смиренье,
А как смирить врага — у тех, кто дерзок и бедов, спросите.

Неведом людям суеты благой приют уединенья, —
Уж если спрашивать о нем, — снискавших тихий кров, спросите.

В пустыню горестной любви друзьями Навои отторгнут,
О нам—случайный караван, бредущий из песков, спросите [, с. 60].

Анализ переводов Н. Ильина и С. Иванова газели Алишера Навои «Ишқ сиррин хажр асири нотовонлардан сўрунг» выявляет различия в реализации переводческих стратегий при передаче философско-этического содержания классической восточной поэзии. Если С. Иванов ориентируется на смысловую адаптацию текста к русской поэтической традиции, то Н. Ильин стремится сохранить его структурную и культурную специфику.

Поэтика газели основана на суфийской символике, афористичности и многозначной системе образов, что обусловливает необходимость сохранения не только семантической эквивалентности, но и культурного кода оригинала.

В переводе Н. Ильина реализуется стратегия форенизации, проявляющаяся в сохранении ключевых суфийских концептов, образа «пира», структурной организации газели и её символической системы. Реметафоризация позволяет воспроизвести мотивы духовного страдания и внутреннего совершенствования, а образ каравана сохраняет значение духовного пути, характерное для восточной поэтической традиции.

Перевод С. Иванова основан на стратегии доместикации. При сохранении общей смысловой структуры наблюдается тенденция к конкретизации и экспликации образов, вследствие чего суфийские концепты приобретают преимущественно социально-психологическую интерпретацию, а их мистико-философская многозначность частично утрачивается.

Проведённое исследование позволило выявить особенности переводческих подходов Н. Ильина, В. Державина и С. Иванова при передаче произведений узбекской поэзии на русский язык. Сопоставительный анализ показал, что различия между их переводческими решениями определяются не только индивидуальной творческой манерой, но и различным пониманием соотношения художественной эквивалентности и культурной адаптации. Установлено, что

выбор переводческих средств зависит от жанровой специфики произведения: при переводе современной лирики ведущую роль играет передача национально-культурного колорита и образной системы, тогда как при переводе классической газели особое значение приобретает сохранение её философско-поэтической и символической структуры. Проведённый анализ показывает, что переводческий метод Н. Ильина отличается последовательной ориентацией на сохранение культурного своеобразия оригинала и обеспечивает наиболее полную передачу его художественно-эстетического содержания. Полученные результаты расширяют представления о специфике художественного перевода узбекской поэзии и могут быть использованы в дальнейших исследованиях русско-узбекских литературных связей и теории поэтического перевода.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

Венути Л. Невидимость переводчика / пер. с англ. — М.: Новое литературное обозрение, 2024. — 352 с.

Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учебник для институтов и факультетов иностранных языков. — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.

Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. — 311 p.

Ғафур Ғулом таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан: методик-библиографик қўлланма / тузувчилар: М. Матмурадова, М. Зоитжонова, Г. Берман [ва бошқ.]; бош муҳаррир И. Маминова. — Тошкент, 2003. — 40 б.

Ильин Н. Д. Ветви волшебного дерева: классики узбекской поэзии / сост. и пер. Н. Д. Ильин. — Ташкент: Adabiyot, 2024. — 216 с.

Гулям Г. Стихотворения и поэмы. — М.: Советский писатель, 1983. — 376 с. — (Библиотека поэта. Малая серия).

Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. Т. 6. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар / нашрга тайёрловчи Ҳ. Сулаймон; масъул муҳаррир С. Муталлибов. — Тошкент: Фан, 1990. — 568 б.

Иванов С. Н. Кровное слово: переводы из узбекской поэзии. — Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1980. — 608 с.

13. 00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ahmatova Sitorabonu Zohidjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola sun’iy intellekt (AI) tushunchasini va uning asosiy xususiyatlarini ko‘rib chiqadi. Unda AI texnologiyalarini ta’lim tizimiga tatbiq etish xususiyatlari va misollari keltirilgan. Shuningdek, u zamonaviy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning muammolari va istiqbollarini belgilaydi. AI ning ta’lim jarayonlaridagi o‘zgarishlarga ta’sir qilish imkoniyatlari ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zalar: aql, sun’iy intellekt (AI), zamonaviy ta’lim, zamonaviy axborot texnologiyalari, o‘quv jarayoni, ta’lim afzalliklari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РАЗВИТИЕ

Ахматова Ситорабону Зохиджон кизи
Шахрисабзский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция искусственного интеллекта (ИИ) и его основные характеристики. Представлены особенности и примеры внедрения технологий ИИ в систему образования. Также определены проблемы и перспективы использования искусственного интеллекта в современном образовании. Изучены возможности влияния ИИ на изменения в образовательных процессах.

Ключевые слова: интеллект, искусственный интеллект (ИИ), современное образование, современные информационные технологии, образовательный процесс, образовательные преимущества.

USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATION SYSTEM: PROBLEMS AND DEVELOPMENT

Akhmatova Sitorabonu Zohidjon kizi
Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the concept of artificial intelligence (AI) and its key characteristics. It presents the characteristics and examples of AI technology implementation in the education system. It also identifies the challenges and prospects for using AI in modern education. The potential for AI to influence changes in educational processes is explored.

Keywords: intelligence, artificial intelligence (AI), modern education, modern information technology, educational process, educational benefits.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda mamlakatimizda ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu tizimni isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham salmoqli. Bu g‘oyalarni mazkur tizimga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash, ta’lim tizimini yuksak va zamonaviy talablarga moslashtirish bo‘yicha olib borilayotgan izchil ishlar qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘rta va oliy ta’lim uchun sun’iy intellekt (AI) ilovalarini ishlab chiqish va joriy etish talabalarning o‘rganish

va o‘qituvchilarning dars berish usullarini ijobiy o‘zgartirish imkoniyatiga ega. AI ilovalari o‘quvchilarga shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasini taqdim etishi va ta’lim muammolariga innovatsion yechimlarni taklif qilishi mumkin. Sun’iy intellektning (AI) ideal xususiyati - bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan harakatlarni baholash va amalga oshirish qobiliyati. Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt (AI) turli harakatlarni bajarish uchun mo‘ljallangan algoritmlar va dasturiy ta’minot tizimlaridan iborat bo‘lib, u inson ongi qila oladigan bir nechta vazifalarni hal qila oladi. Ta’limda sun’iy intellekt (AI) va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash modernizatsiya qilinayotgan dunyo talabiga aylanib bormoqda. Bu soha rivojida ta’limni raqamlashtirish muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

Sun’iy intellekt (AI) hayotimizning turli sohalari rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omilga aylanmoqda. Bu texnologiyalar mahsuldorlik va samaradorlikni oshirishdan tortib, ilm-fan va innovatsiyalardagi yutuqlarga qadar ulkan foyda keltirish imkoniyatiga ega. Mutaxassislarning fikricha, AIni rivojlantirishga e’tibor qaratish muvaffaqiyatli transformatsiyani ta’minlash va mamlakatimizni jahon texnologiya landshaftida yetakchi o‘ringa qo‘yish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta’limda sun’iy intellektdan (AI) foydalanish o‘rganish va o‘qitishga zamonaviy va innovatsion yondashuvni ifodalaydi. Sun’iy intellekt (AI) ta’limga jiddiy o‘zgarishlar kiritmoqda, yangi imkoniyatlar yaratmoqda va ta’lim sifatini oshirmoqda.

Sun’iy intellekt (AI) - kompyuter fanining bo‘limi bo‘lib, u odatda odamlarda mavjud bo‘lgan intellektual qobiliyatlarni talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir tizimlar va dasturlarni yaratishga qaratilgan. Sun’iy intellekt (AI) axborotni qayta ishlash, tajriba o‘tkazish, qarorlar qabul qilish va odatda inson aql-zakovati talab qilinadigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarini yaratishga qaratilgan.

Sun’iy intellektni (AI) yaratish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bir necha bosqich va komponentlarni o‘z ichiga oladi. Quyida AIni ishlab chiqish jarayonining asosiy misollari keltirilgan:

Maqsad va vazifalarni aniqlash. Sun’iy intellektni (AI) yaratishda birinchi qadam - hal qilinishi kerak bo‘lgan maqsad va vazifalarni aniqlash. Bu nutqni aniqlash tizimini ishlab chiqish, tavsiyalar algoritmini yaratish yoki avtonom robotni ishlab chiqish bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash. Sun’iy intellektni (AI) yaratish katta hajmdagi ma’lumotlarni talab qiladi. Ushbu ma’lumotlar bazalarini turli manbalardan to‘plash mumkin, masalan, Internet yoki foydalanuvchilarning o‘zaro ta’siri. Yig‘ilgandan so‘ng, ma’lumotlar foydalanishga yaroqli formatda qayta ishlash uchun tayyorlanishi va tozalanishi kerak.

Algoritm va modelni tanlash. Keyingi qadam - ma’lumotlarni qayta ishlash va muammoni hal qilish uchun ishlatiladigan mashinani o‘rganish algoritmi yoki modelini tanlash. Bu qarorlar qabul qiladigan neyron tarmoq, qaror daraxti, qo‘llab-quvvatlovchi vektor mashinasi yoki muayyan vazifaga qarab boshqa algoritm bo‘lishi mumkin.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Modelni o‘rgatish. Sun’iy intellektni (AI) yaratish uchun model mavjud ma’lumotlardan foydalangan holda o‘qitilishi kerak. Modelni o‘qitish algoritm yoki modelga ma’lumotlarni etkazib berish va optimal ishlashga erishish uchun uning parametrlarini sozlashni o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulotlar nazorat ostida o‘rganish, nazoratsiz o‘rganish yoki mustahkamlovchi o‘rganish kabi turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Modelni baholash va sinab ko‘rish. Modelni o‘rgatgandan so‘ng uni baholash va yangi ma’lumotlar bo‘yicha sinovdan o‘tkazish kerak.

Amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash: Sun’iy intellekt (AI) rivojlanishining yakuniy bosqichi uni real dunyoda amalga oshirish va operatsion yordamdir. Bunga AIni mavjud tizimlarga integratsiyalash, modelni serverlarga joylashtirish, uning ishonchli ishlashi va yangilanishini ta’minlash kiradi.

Sun’iy intellektni (AI) yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab dastur va vositalar mavjud. Mana ulardan ba’zilari:

TensorFlow: Google tomonidan ishlab chiqilgan ochiq manbali mashina o‘rganish kutubxonasi TensorFlow turli turdagi sun’iy intellekt (AI) modellarini, jumladan neyron tarmoqlarni yaratish uchun keng ko‘lamli vositalar va imkoniyatlarni taqdim etadi.

PyTorch: Yana bir mashhur ochiq manbali mashina o‘rganish kutubxonasi neyron tarmoqlarni yaratish va o‘qitish uchun moslashuvchan vositalarni taqdim etadi. PyTorch shuningdek, foydalanuvchilarga qulay interfeys va keng jamoatchilik yordamiga ega.

Scikit-learn: Turli xil vazifalar, jumladan, tasniflash, regressiya, klasterlash va boshqalar uchun algoritmlar va vositalarning keng spektrini taqdim etadigan mashinani o‘rganish kutubxonasi. Bu sun’iy intellekt (AI) tadqiqotchilari uchun yaxshi tanlovdir.

Sun’iy intellektdan (AI) foydalanish turli sohalarda, jumladan, biznes, fan, tibbiyot, texnologiya, ta’lim va boshqalarda keng tarqalgan. Dunyo bo‘ylab millionlab odamlar sun’iy intellektdan turli shakllarda faol foydalanmoqda yoki ular bilan o‘zaro aloqada. Sun’iy intellektdan (AI) foydalanish bilan bog‘liq ba’zi umumiy tendensiyalar va faktlar:

Biznesda: Ko‘pgina kompaniyalar sun’iy intellektni (AI) o‘z jarayonlari va mahsulotlariga integratsiya qilmoqda. McKinsey Global instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, kompaniyalarning taxminan 70 foizi o‘zlarining biznes strategiyalarida sun’iy intellektni (AI) ustuvor deb bilishadi.

Tibbiyotda: Sun’iy intellekt (AI) tibbiyot sohasida kasalliklarni tashxislash, dori-darmonlarni ishlab chiqish, tibbiy ta’lim va boshqa vazifalar uchun qo‘llaniladi. Frost & Sullivan tadqiqotiga ko‘ra, 2025-yilga kelib, Shimoliy Amerikadagi sog‘liqni saqlash tashkilotlarining 40% dan ortig‘i qarorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun AIdan foydalanishi kutilmoqda.

Transportda: Sun’iy intellekt avtonom transport vositalarida, aqlli shaharlarda, transportni boshqarishda va transportning boshqa sohalarida qo‘llaniladi. Masalan, Intel tadqiqotiga ko‘ra, 2050-yilga borib barcha avtomobillarning 60 foizigacha avtopilot va boshqa funksiyalar uchun sun’iy intellekt (AI) elementlari bo ‘ladi.

Ta’limda sun’iy intellektni (AI) qo‘llashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu shaxsiylashtirilgan ta’limdir. Mashinani o‘rganish algoritmlari va ma’lumotlarni tahlil qilishdan foydalangan holda, AI har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatiga qarab o‘rganishni moslashtira oladi. Bu har bir talabaning bilim darajasi va muvaffaqiyatidan kelib chiqqan holda individual o‘quv rejalarini tuzish hamda qo‘shimcha materiallar va topshiriqlarni taklif qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt (AI) interaktiv o‘quv materiallarini yaratish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bu o‘quvchilarga virtual modellar va stsenariylar bilan ishlash orqali amaliy ko‘nikma va tajriba orttirish imkonini beruvchi virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, emulyatorlar va boshqa o‘quv dasturlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Bu, ayniqsa, fan, muhandislik yoki tibbiyot kabi amaliy ishlarni talab qiladigan sohalarda foydalidir. AI yaratish ko‘nikmalariga ega bitiruvchilar dasturlash bozorida talabga ega bo ‘ladilar.

Ma’lumotlar tahlili ta’limda sun’iy intellektning (AI) yana bir muhim qo‘llanilishidir. Mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalangan holda, AI o‘qitish jarayonida to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish va o‘qituvchilar va ma’murlarga qimmatli tushunchalarni taqdim etishi mumkin. Bu tendensiyalarni aniqlash, talabalar taraqqiyotini

tushunish, zaif tomonlarini aniqlash va o‘quv jarayonini yaxshilash uchun fikr-mulohazalarni taqdim etishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt (AI) shuningdek, baholash, darsni rejalashtirish yoki ma’muriy jarayonlar kabi odatiy vazifalarni avtomatlashtirish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bu o‘qituvchilar va ma’murlarga ta’limning muhimroq jihatlariga, masalan, kurs ishlarini ishlab chiqish va talabalarning faolligiga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI) tomonidan boshqariladigan GPCchat maktab o‘quvchilari va talabalar orasida juda mashhur. Sinfda GPT (generativ oldindan tayyorlangan transformator) suhbatlaridan foydalanish ta’limga qiziqarli va innovatsion yondashuvdir. GPT - bu katta hajmdagi matnli ma’lumotlarga o‘rgatilgan, matn yaratish va kontekstga sezgir savollarga javob berishga qodir bo‘lgan AI modeli.

Ta’lim muhitida GPT chatining asosiy qo‘llanilishidan biri talabalarga turli mavzular bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot va tushuntirishlar olishga yordam berishdir. Talabalar GPT chatida savollar berishlari mumkin va model oldingi bilimlari va berilgan kontekstni tahlil qilish asosida javoblarni ishlab chiqaradi. Bu talabalar qiziqqan mavzular haqida ko‘proq ma’lumot olishni xohlasalar foydali bo‘lishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, sinfda GPT chatidan foydalanish o‘qituvchi rolini almashtirmasligi kerak. GPT samarali ta’limni qo‘llab-quvvatlash vositasi bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u chuqur tahlil va shaxsiy yordam ko‘rsatadigan professional o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi. O‘qituvchilar o‘quv jarayonini yaxshilash uchun GPT chatidan qo‘shimcha manba sifatida foydalanishlari kerak.

Biroq, o‘qitishda GPT chatidan foydalanishda ba’zi cheklovlarni hisobga olish kerak. GPT modeli noto‘g‘ri yoki noaniq bo‘lishi mumkin bo‘lgan javoblarni yaratishi mumkin. Talabalar va o‘qituvchilar tanqidiy munosabatda bo‘lishlari va model tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni qo‘shimcha manbalar va ekspert bilimlari asosida tasdiqlashlari kerak. Sun’iy intellekt (AI) yordamida mobil ilovalarni ishlab chiqish kurslari talabalarga zamonaviy texnologiyalarning ikkita muhim yo‘nalishini: mobil ilovalar va sun’iy intellektni (AI) o‘rganish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Ushbu darslar mobil ilovalarda sun’iy intellektni (AI) ishlab chiqish va qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qiziqarli va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday treningda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ba’zi g‘oyalar va variantlar:

Mobil rivojlanish asoslari: Mobil ilovalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va texnologiyalariga umumiy nuqtai. Android va iOS kabi mashhur platformalarni qamrab olgan holda, u mobil ilovalarni ishlab chiqishda ishlatiladigan asosiy tushunchalar, dasturlash tillari va vositalarni tushuntiradi.

Sun’iy intellektga kirish (AI). Sun’iy intellekt (AI) asoslari bo‘yicha kirish kursini taqdim etadi. Mashinani o‘rganish, neyron tarmoqlar va tabiiy tillarni qayta ishlash kabi asosiy tushunchalarni, shuningdek ularning turli sohalarda, jumladan, mobil ilovalarda qo‘llanilishini tushuntiradi.

Sun’iy intellekt (AI) yordamida mobil ilova yaratish. Talabalarni guruhlarga bo‘ling va har bir guruhga sun’iy intellekt yordamida mobil ilova ishlab chiqishni tayinlang. Bu tasvirni aniqlash ilovasi, ovozli yordamchi, tavsiyalar tizimi yoki sun’iy intellektdan (AI) foydalanadigan boshqa ilova bo‘lishi mumkin.

AI platformalaridan foydalangan holda amaliy mashqlar. Talabalar Tensorflow yoki PyTorch kabi mashhur sun’iy intellekt (AI) ramkalari va kutubxonalari bilan ishlashlari mumkin bo‘lgan amaliy mashqlarni o‘quv dasturiga kiriting. Kichik mashinalarni o‘rganish modellari yoki neyron tarmoqlarini amaliy ishlab chiqish o‘quvchilarga mobil ilovalar kontekstida AI tushunchalarini yaxshiroq tushunish va qo‘llashga yordam beradi.

Sun’iy intellekt (AI) va neyron tarmoqlardan foydalangan holda darslar o‘quvchilarga ushbu

texnologiyalarni yaxshiroq tushunish va qo‘llashga yordam beradigan turli tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ushbu turdagi mashg‘ulotlarda foydalanishingiz mumkin bo‘lgan ba’zi mashqlar:

Mashinani o ‘rganish modelini o ‘qitish: Talabalar neyron tarmoqlar va turli xil o‘rganish algoritmlari yordamida mashinani o‘rganish modellarini o‘rganishlari mumkin. Bunga tasvirni aniqlash modellarini o ‘rgatish, vaqt seriyalarini prognozlash va tabiiy tilni qayta ishlash kiradi.

O‘yinlar uchun sun’iy intellektni (AI) yaratish: Talabalar neyron tarmoqlardan foydalangan holda kompyuter o‘yinlari uchun sun’iy intellektni (AI) ishlab chiqishi mumkin. Bu o‘yinni o‘ynashni o‘rganadigan va tajriba bilan yaxshilanadigan agentlarni yaratishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish: Talabalar sun’iy intellekt (AI) usullaridan foydalangan holda katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishlari mumkin. Bunga ma’lumotlarni qayta ishlash, tasniflash va ma’lumotlarni tasniflash kiradi.

Chatbotni ishlab chiqish. Talabalar neyron tarmoqlar va tabiiy tillarni qayta ishlashdan foydalangan holda chatbotlarni ishlab chiqishlari mumkin. Bu ularga tilni qayta ishlash algoritmlari qanday ishlashini va sun’iy intellekt (AI) yordamida nutq interfeyslarini qanday yaratishni tushunish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ta’limga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ta’lim sohasini raqamli texnologiyalarga o ‘tkazish zarur. Barkamol shaxsni kamol toptirish, ularning mustaqil kasb tanlashi, kasbiy jihatdan o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, kasbiy mahoratini oshirishda axborot texnologiyalarining o‘rni va ta’siri ortib borayotganini inkor etib bo ‘lmaydi. Bugun mamlakatimizda ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarni ta’lim-tarbiyaga keng jalb etish, ularning vaqtini mazmunli boshqarish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, yoshlar bilan davra suhbatlari o‘tkazilmoqda. Chunki bugungi kun yoshlari tarbiyasi nafaqat oila va maktab, balki butun mahallaning kundalik masalasiga aylangan.

Biz hozir ilm-fan rivojlanayotgan jamiyatda yashayapmiz. Yoshlarimiz zamon bilan hamnafas bo‘lmoqda. Ko‘plab yoshlar turli bo‘sh tarmoqlardan foydalanib, vaqtlarini mazmunli o‘tkazmoqda. Tabiiyki, bu o‘z navbatida bugungi yoshlar tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun biz yoshlarni ta’lim jarayonlariga yo‘naltirishimiz kerak. Ushbu sohaning rivojlanishi va ta’limda sun’iy intellektning (AI) keng qo‘llanilishi ta’limni zamon talablariga moslashtirishi kerak.

Sun’iy intellekt (AI) odatiy vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin, bu esa odamlarga yanada murakkabroq vazifalarga e’tibor qaratish uchun vaqtni bo‘shatish imkonini beradi. Bu ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. AI, shuningdek, yangi g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, ilgari imkonsiz bo‘lgan mahsulot va xizmatlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, tibbiyotda sun’iy intellekt (AI) kasalliklarni tashxislash va davolashda yordam beradi, avtomobil sanoatida esa avtonom transport vositalarini yaratishga yordam beradi. Biroq, sun’iy intellektning (AI) rivojlanishi axloq, shaxsiy hayot va xavfsizlikka oid savollarni ham tug‘diradi, shuning uchun tegishli qoidalar va qonunlarni ishlab chiqish, shuningdek, sun’iy intellektdan (AI) samarali foydalanish va himoya qilish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash muhimdir.

Umuman olganda, sun’iy intellektni (AI) o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyoga tayyorgarlik ko‘rish va AI salohiyatidan foydalanish uchun muhimdir. Bu kelajakda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchilarga turli ta’lim maqsadlariga erishish uchun texnologiyadan qanday samarali foydalanishni tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

С. Комолов,Ш. Рахматов:Основыискусственного интеллекта. Машинное обучение, 2022.32-46 с.

Р. Аюпов Х. Искусственный интеллект: ChatGPT и его возможности, 2023. 12 с.

Р. Бутл. Искусственный интеллект и экономика. Работа, фортуна и благополучие ве поху мыслящих машин, 2023.26-53 с.

Д. Крон, Г. Бейлевельд, А. Бассенс. Глубокое обучение в картинках. Визуальный путеводитель по художественному интеллекту, 2022. 82-94 с.

П. Доэрти, Д. Уилсон. Мужчина + машина. Новые принципы работы в эпоху искусственного интеллекта, 2023 год.

Имамкориев Х. М. Искусственный интеллект, 2022. 26 с.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINING SAMARADORLIGI

Bayzakova Maftuna Abulqosim qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning akmeologik yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimining samaradorligi masalalari ko‘rib chiqiladi. Akmeologik yondashuvning asosiy prinsiplari va ularning pedagogik jarayonlardagi amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Mazkur yondashuv orqali tarbiyachilarni professional rivojlanishiga ko‘maklashish va ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Akmeologiya, bo‘lajak tarbiyachilar, samaradorlik, yondashuv, ta’lim va tarbiya, loyiha, tizim, samaradorlik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В РАЗРАБОТКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ПОДХОДА АКМЕОЛОГИИ

Аннотация: В статье рассматривается эффективность системы, направленной на формирование у будущих педагогов навыков планирования образовательного процесса на основе акмеологического подхода. Анализируются основополагающие принципы акмеологического подхода и их практическая значимость в педагогической деятельности. Кроме того, исследуются пути содействия профессиональному развитию педагогов и повышения эффективности образования с помощью данного подхода.

Ключевые слова: акмеология, будущие педагоги, результативность, подход, обучение и воспитание, проект, система, эффективность.

EFFECTIVENESS OF THE SYSTEM FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS’ SKILLS IN DESIGNING THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON THE ACMEOLOGY APPROACH

Abstract: This article examines the effectiveness of a system designed to develop the skills of future educators in planning the educational process based on an acmeological approach. It analyzes the fundamental principles of the acmeological approach and their practical significance in pedagogical processes. Furthermore, the study explores ways to foster the professional development of educators and enhance educational effectiveness through this approach.

Keywords: Acmeology, future educators, effectiveness, approach, education and upbringing, project, system, efficiency.

Kirish. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim sohasida, maktabgacha ta’limdan boshlab to Oliy ta’lim tizimigacha qaratilayotgan alohida e’tibor va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan bir qator hujjatlar ta’lim sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi.

Alohida e’tirof etish lozimki, maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilganligi, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni esa 5211 tadan 19316 taga yetkazilganligi, ularga byudjetdan ajratilgan mablag‘

3,7 barvarga oshirilganligi hamda mamlakatda 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta joriy etilganligi [21] bunga yaqqol misoldir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi hamda 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son «Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari oliy ta’lim muassasalarida sohaga oid ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini takomillashtirish, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirishni talab etadi. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy ehtiyojlari va pedagogik mahoratini zamonaviy jamiyatning rivojlanish darajasiga moslashtirish asosiy masalalardan biridir. Shu bois ularning eng yuqori rivojlanish darajasiga erishishiga ko‘maklashadigan shart-sharoitlar yaratish, ijobiy psixologik muhitni ta’minlash, ijodiy va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish zarur.

Akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalashda quyidagilarga urg‘u beradi:

-maksimal natijadorlikka intilish;

-o‘z - o‘zini rivojlantirish;

-ta’lim jarayonini samarali rejalashtirish va o‘z faoliyatini tahlil qilish;

-innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.

Ta’lim jarayonini loyihalash – bu tarbiyashining o‘quv-tarbiya ishlarini oldindan rejalashtirish, uni tizimli tarzda tashkil qilish va boshqarish faoliyatidir.

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad bo‘lajak tarbiyashilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga erishishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib biz o‘z oldimizga akmeologik yondashuvning nazariy asoslarini o‘rganishni, bo‘lajak tarbiyashilarning loyihalash ko‘nikmalarini aniqlashni, akmeologik yondashuv asosida ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalarni tahlil qilish vazifalarini belgilab oldik.

Metodologiya. Bo‘lajak tarbiyashilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati shundaki, bugungi kunda bo‘lajak tarbiyashilarda shaxsiy o‘sish va kasbiy yetuklikni ta’minlashda, tezkor qaror qabul qila oladigan, ta’lim jarayonlariga yangisha yondasha oladigan, tarbiyaviy ishlarni mustaqil loyihalashga qodir kadrlarni etishtirib chiqarishda bir so‘z bilan aytganda kasbiy tayyorgarlikda akmeologik yondashuvni qo‘llashni zaruratga aylandi.

Aytish o‘rinliki, maktabgacha ta’lim va ijtimoiy sohadagi yangilanishlar asosida ta’lim unsurlari jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Shu bois, uzluksiz ta’lim falsafasi, qonuniyatini, kreativ yondashuv asosida ta’lim muammolarini qaytadan ko‘rib chiqish dvr talabiga aylanib bormoqda.

Bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quv-biluv faoliyatidagi o‘ziga xos sifatlar majmui bo‘lib, taqdim etilayotgan bilimlar talaba yoshlarning ehtiyojlarini qondirishga yunaltirilgan uzluksiz pedagogik jarayonning natijasi ifodasidir.

Alohida qayd etish lozimki, OTM ta’lim jarayonini loyihalash faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarga kasbiy profetsionalizmni takomillashtirish samaradorligini oshirish yuqori sifat va samaradorlikka erishish imkonini beradigan o‘qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish, shaxsni shakllantirishga oid falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik bilimlarni uyg‘unlashtirish zaruriyati kuchaymoqda.

Shunga ko‘ra akmeologik mavqe bo‘lajak tarbiyachilarning integrallashgan shaxsiy-kasbiy-metodik sifatlari majmuini o‘z ichiga olishi, mazkur jarayon bo‘lajak tarbiyachilarni o‘z-o‘zini shaxsiy rivojlantirish, kreativ potensialini takomillashtirishining mahsuli hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’limning yangilangan mazmunigina o‘qituvchining akmeologik modelini yaratishga xizmat qila oladi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy pedagogik ta’lim sifatini ta’minlash imkonini beradigan yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Haqiqatdan ham bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak. Buning uchun pedagog shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi, vazifalari, bu jarayonda o‘quv vositalarining mazmuni va xarakterini yaxshi bilishlari lozim. Talaba shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini samarali loyihalash tajribasini o‘zlashtirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar dastlab uning mezonlarini yaxshi bilishlari lozim

Tadqiqot muammosiga oid adabiyotlar va ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotlarning nazariy tahlillaridan kelib chiqib, umumlashtiradigan bo‘lsak, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bazaga ega bo‘lish jarayonida professor-o‘qituvchilar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, talabalarni kasbiy rivojlantirish, akmeologik yondashuv asosida ularda umumiy hamda xususiy xarakterdagi kasbiy kompetensiyalarni hosil qilish;

bo‘lajak tarbiyachilarni loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladigan o‘quv-tarbiya jarayonini innovatsion-raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda tashkil etish;

akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy mahoratlarini, metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladigan o‘quv-tarbiya jarayoniga xorij tajribasini olib kirish;

bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislar bo‘lishlari uchun pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo‘ladigan o‘quv dasturlarini akmeologik yondashuv prinsipi asosida ishlab chiqish;

bo‘lajak tarbiyachilarda loyihalash, dizayn, metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladigan saytlardan foydalanish ko‘nnikmasini shakllantirish.

Shu bois, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-biluv faoliyatini tashkil qilishda nafaqat innovatsion texnologiyalar, metodlar va shakllardan, balki faoliyatli yondashuv konsepsiyasi talablari asosida ish yuritish zarur hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim oluvchilarning shaxsiy faolligini, mustaqil fikrlashini, muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning professional rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lajak tarbiyachining shaxsiy va kasbiy etuklikka erishishida muhim omildir. Bu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli, maqsadli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni kasbiy faoliyatiga singdirib borish uchun qulay pedagogik sharoit yaratish, ularning yuqori natijalarga erishishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish hamda ijodiy yaratuvchilik faoliyatlarini tashkil etish, integrallashgan mezonlar asosida ta’lim jarayonini loyihalash mexanizmlari, oliy pedagogik

ta’limning asosiy maqsadiga erishish strategiyasini ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning kasbiy madaniyati va ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish kabilar.

Rivojlangan mamlakatlar - University of Strasbourg (Frantsiya), Rheinisshe Friedrish-Wilhelms-Universität Bonn (Germaniya), Prinseton university (AQSH), Assosiation for Educational Sommunisations and Teshnology – AEST (AQSH), Sentre of insreasing to pedagogical qualifisation on base Manshesters university (Angliya); Seoul National University (Janubiy Koreya), Rossiya “Akmeologiya fanlari akademiyasi”, “Ta’limni rivojlantirish instituti” hamda “Psixologiya va akmeologiya instituti” kabi tan olingan ilmiy markazlarda zamonviy ta’lim texnologiyalari, elektron ta’lim xizmatlaridan foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan.

Respublikamizda ham ta’lim menejmentida maqsadli faoliyatni tashkil etish, rasmiy veb-saytlarni ochiqlik tasnifida bo‘lishiga erishish, ta’limda kreativlikni oshirish, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy rivojlanish potensialini maksimal darajada yuqoriga ko‘tarish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotgani guvohi bo‘layapmiz.

Zamonviy ta’lim tizimida tarbiyachi shaxsi nafaqat bilimli va malakasi etarli bo‘lgan mutaxassis, balki etuk, ijodkor, faol va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishi talab qilinadi. SHu nuqtai nazardan, ularda ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ammo amaldagi ta’lim jarayonida bu ko‘nikmalarni akmeologik yondashuv asosida samarali rvishda rivojlantirishda bir qator muammolar mvjudligini ko‘rsatmoqda.

Natijalar. Shu nuqtai nazardan yondashganda, Oliy ta’lim tizimida yangicha innvatsion yondashuv asosida o‘quv-biluv faoliyatini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat va jamiyat buyurtmasi bo‘lib, tarbiyachilarning metodik kompetentligiga qo‘yiladigan davlat talablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ehtiyojlari, ta’lim subyektlariga qo‘yiladigan DTS talablarini bajarish, MTT attestatsiya va akreditatsiyasi ushun zamin yaratishini hisobga olgan holda tadqiqot ishimiz vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

oliy ta’lim muassasasi .bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini pedagogik muammo sifatida tahliliy o‘rganish;

“lifelong learning” tamoyili asosida bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish;

Mazkur tamoyil—insonning butun umri dvomida uzluksiz ta’lim olishi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashiga asoslangan tamoyildir. Lifelong learning‘ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: uzluksizlik — ta’lim jarayoni hayot dvomida uzilmasligi; shaxsiy rivojlanish — inson o‘z qobiliyati va qiziqishlariga qarab o‘z ustida izlanishlar olib borishi; mustaqillik — shaxs ta’limni mustaqil rvishda boshqarishi, rejalashtirishi; ishbilarmonlikka yordam — mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashi; texnologiyalardan foydalanish — onlayn kurslar, vebinarlar, platformalar yordamida ta’lim olishi;

Lifelong learning afzalligi shundaki — bu shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ta’minlovchi, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishga yordam beradigan muhim tamoyildir.

-bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish indikatorlarini aniqlash;

-bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlari tuzilmasini aniqlash;

-talabalarda ta’lim jarayonini rejalashtirish va konstruktiv fikrlash ko‘nikmalari etarli emasligi;

-akmeologik yondashuvning mohiyati va uning amaliy ahamiyati haqida etarli bilim yo‘qligi;

- oliy ta’lim muassasalarida loyihalash faoliyatiga yo‘naltirilgan integrativ usullar, kompetensiyalar va texnologiyalar etarlicha qo‘llanilmayapti;

-tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy etuklikka intilishi (akme maqsad) tizimli rvishda

rivojlantirilmayapti.

Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik muammolarni hal qilishda va yangi g‘oyalarni yaratishda qo‘llaniladigan tafakkur uslublari kreativ fikrlash ko‘nikmalari ya’ni divergent, konvergent va lateral (yoki yonlama) fikrlash muhim sanalib, mavjud stereotiplardan shiqib innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanib ta’lim jarayonini loyihalash muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Ushbu vazifalar echimini ijobiy hal etish bo‘lajak tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga turtki beradi, ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi va ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini yaratadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmunini tahlil qilish jarayoni shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim shakllarini optimizatsiyalash vazifalarini belgilaydigan texnik va inson resurslari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonlarini yaratishda akmeologik yondashuv asosidagi tahlil quyidagi mazmunni namoyon etadi. Akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lajak tarbiyachining shaxsiy va kasbiy etuklikka erishishida muhim omildir. Bu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli, maqsadli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni kasbiy faoliyatiga singdirib borish uchun qulay pedagogik sharoit yaratish, ularning yuqori natijalarga erishishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish hamda ijodiy yaratuvchilik faoliyatlarini tashkil etish, integrallashgan mezonlar asosida ta’lim jarayonini loyihalash mexanizmlari, oliy pedagogik ta’limning asosiy maqsadiga erishish strategiyasini ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning kasbiy madaniyati va ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish kabilar.

Rivojlangan mamlakatlar - University of Strasbourg (Frantsiya), Rheinisshe Friedrish-Wilhelms-Universität Bonn (Germaniya), Prinseton university (AQSH), Assosiation for Educational Sommunisations and Teshnology – AEST (AQSH), Sentre of insreasing to pedagogical qualifisation on base Manshesters university (Angliya); Seoul National University (Janubiy Koreya), Rossiya “Akmeologiya fanlari akademiyasi”, “Ta’limni rivojlantirish instituti” hamda “Psixologiya va akmeologiya instituti” kabi tan olingan ilmiy markazlarda zamonviy ta’lim texnologiyalari, elektron ta’lim xizmatlaridan foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan.

Respublikamizda ham ta’lim menejmentida maqsadli faoliyatni tashkil etish, rasmiy veb-saytlarni ochiqlik tasnifida bo‘lishiga erishish, ta’limda kreativlikni oshirish, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy rivojlanish potensialini maksimal darajada yuqoriga ko‘tarish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotgani guvohi bo‘layapmiz.

Zamonviy ta’lim tizimida tarbiyachi shaxsi nafaqat bilimli va malakasi etarli bo‘lgan mutaxassis, balki etuk, ijodkor, faol va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishi talab qilinadi. SHu nuqtai nazardan, ularda ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ammo amaldagi ta’lim jarayonida bu ko‘nikmalarni akmeologik yondashuv asosida samarali rvishda rivojlantirishda bir qator muammolar mvjudligini ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan yondashganda, Oliy ta’lim tizimida yangicha innvatsion yondashuv asosida o‘quv-biluv faoliyatini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat va jamiyat buyurtmasi bo‘lib, tarbiyachilarning metodik kompetentligiga qo‘yiladigan davlat talablari, maktabgacha

ta’lim tashkilotlarining ehtiyojlari, ta’lim subyektlariga qo‘yiladigan DTS talablarini bajarish, MTT attestatsiya va akreditatsiyasi ushun zamin yaratishini hisobga olgan holda tadqiqot ishimiz vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

oliy ta’lim muassasasi .bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini pedagogik muammo sifatida tahliliy o‘rganish;

“lifelong learning” tamoyili asosida bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish;

Muhokama. Mazkur tamoyil—insonning butun umri dvomida uzluksiz ta’lim olishi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashiga asoslangan tamoyildir. Lifelong learning‘ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: uzluksizlik — ta’lim jarayoni hayot dvomida uzilmasligi; shaxsiy rivojlanish — inson o‘z qobiliyati va qiziqishlariga qarab o‘z ustida izlanishlar olib borishi; mustaqillik — shaxs ta’limni mustaqil rvishda boshqarishi, rejalashtirishi; ishbilarmonlikka yordam — mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashi; texnologiyalardan foydalanish — onlayn kurslar, vebinarlar, platformalar yordamida ta’lim olishi;

Lifelong learning afzalligi shundaki — bu shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ta’minlovchi, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishga yordam beradigan muhim tamoyildir.

-bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish indikatorlarini aniqlash;

-bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlari tuzilmasini aniqlash;

-talabalarda ta’lim jarayonini rejalashtirish va konstruktiv fikrlash ko‘nikmalari etarli emasligi;

-akmeologik yondashuvning mohiyati va uning amaliy ahamiyati haqida etarli bilim yo‘qligi;

- oliy ta’lim muassasalarida loyihalash faoliyatiga yo‘naltirilgan integrativ usullar, kompetensiyalar va texnologiyalar etarlicha qo‘llanilmayapti;

-tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy etuklikka intilishi (akme maqsad) tizimli rvishda rivojlantirilmayapti.

Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik muammolarni hal qilishda va yangi g‘oyalarni yaratishda qo‘llaniladigan tafakkur uslublari kreativ fikrlash ko‘nikmalari ya’ni divergent, konvergent va lateral (yoki yonlama) fikrlash muhim sanalib, mavjud stereotiplardan shiqib innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanib ta’lim jarayonini loyihalash muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu vazifalar yechimini ijobiy hal etish bo‘lajak tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga turtki beradi, ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi va ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini yaratadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmunini tahlil qilish jarayoni shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim shakllarini optimizatsiyalash vazifalarini belgilaydigan texnik va inson resurslari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonlarini yaratishda akmeologik yondashuv asosidagi tahlil quyidagi mazmunni namoyon etadi. Ta’lim jarayonini tizimli yondashuv asosida tashkil etish: Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari va vositalarini yaxlit tizim sifatida— pedagog, talabalar, ta’lim muhiti va resurslar — o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Inson va texnik resurslarni muvofiqlashtirish: Akmeologik yondashuv talabiga ko‘ra, ta’lim jarayonida inson omilini (shaxsiy salohiyat, qobiliyatlar, motivatsiya) va texnik resurslarni

(axborot texnologiyalari, mul’timedia vositalari) mos rvishda integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. A. Zokirova - Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2017-yil

2. N. N. Jo‘raev - Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-yil.

Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili: monografiya. — T.: «Yoshlar nashriyot uyi», 2020. — 184 b.

Abdullaev F. A. Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda axborot xizmati tizimini takomillashtirish (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2020.

Askarov A. D. Oliy ta’lim muassasalarida sifat menedjmentini integratsiyalashgan mexanizmlar asosida takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. — Toshkent, 2022.

Musaev O. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari misolida): pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. — Samarqand, 2019. — 38 b.

Farsaxanova D. R. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2020.

ARIMA, SARIMA, GEV VA POT MODELLARINI O‘QITISHNING BESH BOSQICHLI PEDAGOGIK ALGORITMINI MUHANDISLIK TA’LIMIGA TATBIQ ETISHNING DIDAKTIK SHARTLARI

Egamov Mirshohid Xolmurodovich
Qarshi davlat texnika universiteti
ORCID: 0000-0002-6192-5387

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ARIMA, SARIMA, GEV va POT kabi murakkab gidrologik-statistik modellarni o‘rgatishning besh bosqichli pedagogik algoritmi ilmiy asosda taqdim etilgan. Algoritm motivatsion-diagnostik, konseptual-nazariy, instrumental-amaliy, muhandislik-loyiha va refleksiv-formativ bosqichlardan iborat bo‘lib, fundamentallik, integrativlik, kontekstuallik va progressivlik didaktik shartlar tizimiga tayanadi. 2024–2025-yillarda Qarshi davlat texnika universitetida 144 nafar talaba (tajriba guruh n=72, nazorat guruh n=72) ishtirokida o‘tkazilgan tajriba-sinov algoritmning yuqori samaradorligini isbotladi: modellarni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasi bo‘yicha 41,3 %, muhandislik talqini bo‘yicha 38,7 % va nostandart holatlarni hal etish bo‘yicha 29,5 % ustunlik kuzatildi (p<0,01, Cohen d=0,82).

Kalit so‘zlar: ARIMA modeli, SARIMA modeli, GEV taqsimoti, POT metodi, pedagogik algoritm, didaktik shartlar, fundamentallik, integrativlik, kontekstuallik, muhandislik ta’limi.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ПЯТИЭТАПНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО АЛГОРИТМА ПРЕПОДАВАНИЯ МОДЕЛЕЙ ARIMA, SARIMA, GEV И POT В ИНЖЕНЕРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Эгамов Миршохид Холмуродович
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В статье научно обоснован пятиэтапный педагогический алгоритм обучения сложным гидролого-статистическим моделям ARIMA, SARIMA, GEV и POT в подготовке будущих инженеров. Алгоритм включает мотивационно-диагностический, концептуально-теоретический, инструментально-практический, инженерно-проектный и рефлексивно-формирующий этапы и опирается на дидактические условия фундаментальности, интегративности, контекстуальности и прогрессивности. Экспериментальная апробация с участием 144 студентов (2024–2025) подтвердила высокую эффективность алгоритма: превышение показателей контрольной группы составило 41,3 % по выбору моделей, 38,7 % по инженерной интерпретации и 29,5 % по нестандартным случаям (p<0,01, Cohen d=0,82).

Ключевые слова: модель ARIMA, модель SARIMA, распределение GEV, метод POT, педагогический алгоритм, дидактические условия, фундаментальность, интегративность, инженерное образование.

DIDACTIC CONDITIONS FOR APPLYING THE FIVE-STAGE PEDAGOGICAL ALGORITHM FOR TEACHING ARIMA, SARIMA, GEV, AND POT MODELS IN ENGINEERING EDUCATION

Egamov Mirshohid Kholmurodovich
Karshi State Technical University

Abstract. This article presents a scientifically grounded five-stage pedagogical algorithm for teaching complex hydrological-statistical models - ARIMA, SARIMA, GEV, and POT - in the preparation of future engineers. The algorithm comprises motivational-diagnostic, conceptual-theoretical, instrumental-practical, engineering-project, and reflective-formative stages, underpinned by a system of didactic conditions: fundamentality, integrativity, contextuality, and progressiveness. Experimental validation involving 144 students at Karshi State Technical University (2024–2025) confirmed the algorithm’s high

effectiveness: the experimental group outperformed the control group by 41,3 % in model selection skills, 38,7 % in engineering interpretation, and 29,5 % in handling non-standard cases (p<0,01, Cohen d=0,82).

Keywords: ARIMA model, SARIMA model, GEV distribution, POT method, pedagogical algorithm, didactic conditions, fundamentality, integrativity, engineering education.

Kirish (Introduction). Muammoning dolzarbligi. Gidrologiya va suv resurslarini boshqarish muhandisligi ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average), SARIMA (Seasonal ARIMA), GEV (Generalized Extreme Value) va POT (Peaks Over Threshold) kabi murakkab statistik modellarni keng qo‘llaydi. Bu modellar daryo oqimini bashorat qilish, suv toshqinlari xavfini baholash va suv zahiralarini rejalashtirishda asosiy amaliy vositalar sifatida xizmat qiladi [1, 5]. Biroq ushbu modellarni muhandislik ta’limida o‘qitish uchta jiddiy pedagogik muammoni keltirib chiqaradi: birinchidan, modellar chuqur matematik bilimlarni (stoxastik jarayonlar, ekstremal qiymatlar statistikasi) talab etadi. Ikkinchidan, ularning muhandislik amaliyotiga to‘g‘ri tatbiq etilishi maxsus integrativ ko‘nikmalarni talab qiladi [5]. Uchinchidan, mavjud darsliklar asosan haddan tashqari matematik yoki haddan tashqari soddalashtirilgan holda tuzilgan – ikki qutb o‘rtasidagi didaktik bo‘shliq hali bartaraf etilmagan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Box va Jenkins [1] ARIMA modellarini ishlab chiqqan fundamental asarlarida o‘qitish metodologiyasiga e’tibor berilmagan. Coles [2] ekstremal qiymatlar statistikasi bo‘yicha klassik darsligida GEV va POT metodlarining matematik asoslari chuqur yoritilgan, lekin pedagogik yondashuv ko‘rsatilmagan. Muhandislik ta’limida murakkab statistik modellarni o‘qitish bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar (Delgado-Hernandez va boshqalar [3]; Fischer va boshqalar [4]) spiral o‘qitish va muammo asosidagi o‘qitish (PBL) yondashuvlarining samaradorligini isbotlagan. Mahalliy tadqiqotchilardan Xoliqov [6] va Mirzayev [7] muhandislik fanlarini bosqichli o‘qitish tamoyillarini tahlil qilgan; Yo‘ldoshev [8] esa integrativ yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Biroq yuqoridagi barcha ishlar umumiy metodologik tamoyillarni taklif qiladi — ARIMA, SARIMA, GEV va POT modellarini bir tizimda o‘qitishning maxsus bosqichli algoritmi hali ilmiy adabiyotlarda taqdim etilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu maqolaning maqsadi — ARIMA, SARIMA, GEV va POT modellarini muhandislik ta’limiga tatbiq etishning didaktik shartlarini aniqlab, ushbu modellarni samarali o‘qitishga mo‘ljallangan besh bosqichli pedagogik algoritmni ilmiy asoslab, tajriba jihatdan tasdiqlashdan iborat.

Tadqiqot metodlari (Methods). Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Nazariy tahlil va sintez – ARIMA/SARIMA/GEV/POT modellarini o‘qitishga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tizimli o‘rganish;
2. Didaktik modellashtirish – fundamentallik, integrativlik, kontekstuallik va progressivlik tamoyillari asosida besh bosqichli algoritmni loyihalash;
3. Ekspert baholash – algoritmning didaktik shartlarga muvofiqligini tekshirish;
4. Kvazi-tajriba dizayn – tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini uchta kompetensiya bo‘yicha solishtirish;
5. Statistik tahlil – Student t-mezoni va Cohen effekt kattaligi (d).

Tadqiqot uchta ketma-ket bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich (2022, I yarim yil): adabiyotlar tahlili, didaktik shartlar tizimini aniqlash va besh bosqichli algoritmni nazariy asoslash. Ikkinchi bosqich (2024, II yarim yil): algoritmni dastlabki sinovdan o‘tkazish, tuzatishlar kiritish. Uchinchi bosqich (2024–2025 o‘quv yili): QDTU muhandislik ta’limi yo‘nalishlari talabalarida n=144 to‘liq kvazi-tajriba sinov.

Tajriba n=72 va nazorat n=72 guruhlari o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatini baholashda mustaqil tanlanmalar uchun Student t-mezoni qo‘llanildi ($p<0,01$ ishonchlilik darajasida). Pedagogik effekt kattaligi Cohen d ko‘rsatkichi orqali hisoblandi: $d<0,2$ — kichik, $d=0,5$ — o‘rta, $d\geq0,8$ — katta effekt.

Natijalar (Results). Algoritmning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun to‘rtta didaktik shart ta’minlanishi zarur ekanligi aniqlanadi.

Fundamentallik sharti: har bir bosqichda statistik nazariyaning fundamental asoslari (stoxastik jarayonlar, ekstremal qiymatlar statistikasi) o‘rgatilishi ta’minlanadi. Bu talab talabalarni yangi modellar va usullar bilan mustaqil ishlashga tayyorlaydi va bilimlarning uzoq muddatli saqlanishini kafolatlaydi.

Integrativlik sharti: gidrologik-statistik modellar gidravlika, gidrotexnika inshootlari va suv

resurslarini boshqarish fanlari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rgatiladi [8]. Fanlararo bog‘liqlik tizimli tafakkurni rivojlantiradi va bilimlarning amaliy qiymatini oshiradi.

Kontekstuallik sharti: barcha matematik operatsiyalar real gidrologik ma’lumotlar (Amudaryo, Sirdaryo havzalari) kontekstida amalga oshiriladi. Abstrakt formulalar o‘rniga aniq muhandislik vazifalari birinchi o‘ringa qo‘yiladi, bu esa talabalarning motivatsiyasini yuqori ushlab turadi.

Progressivlik sharti: har bir bosqich oldingi bosqich ustiga quriladi; keyingi bosqichga o‘tish oldingi bosqich kompetensiyasining tekshirilishi bilan shartlanadi. ARIMA modelini o‘zlashtirmagan talaba SARIMA modelini o‘rganishga o‘tmaydi.

Besh bosqichli pedagogik algoritm

Yuqorida keltirilgan to‘rtta didaktik shart asosida ishlab chiqilgan besh bosqichli pedagogik algoritm 1-jadvalda batafsil tavsiflanadi.

1-jadval. Besh bosqichli pedagogik algoritmning tuzilmasi

Bosqich	Bosqich nomi	Asosiy faoliyat	Didaktik maqsad	Baholash vositasi
1	Motivatsion-diagnostik	Real gidrologik muammo bilan tanishtirish; diagnostik test orqali oldingi bilim darajasini aniqlash	Ichki motivatsiyani shakllantirish; bilim bo‘shliqlarini aniqlash	Diagnostik test (20 savol); motivatsiya so‘rovnomasi
2	Konseptual-nazariy	Matematik asoslarni o‘qitish: ARIMA – statsionarlik, ACF/PACF; GEV – Gumbel, Frechet, Weibull oilalari	Nazariy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish; vizual-konseptual bilim tuzilmasini shakllantirish	Yozma test; konseptual xarita
3	Instrumental-amaliy	Python (statsmodels, scipy.stats) va R (evd, tseries) yordamida modellarni real ma’lumotlarga qo‘llash	Instrumental kompetensiyani shakllantirish; dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	Laboratoriya hisoboti (rubrika: texnik to‘g‘rilik + kod sifati)
4	Muhandislik-loyiha	3–4 kishilik guruhlarda real loyiha: daryo kesmasi uchun 100-yillik qaytarish davri bilan suv sarfini hisoblash	Integrativ kompetensiyani shakllantirish; jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	Loyiha hisoboti + taqdimot
5	Refleksiv-formativ	Loyiha natijalarini taqdimot shaklida himoya qilish; tengdoshlar va o‘z-o‘zini baholash	Metakognitiv kompetensiyani rivojlantirish; tanqidiy tafakkurni shakllantirish	Rubrika (texnik + muhandislik + noaniqlik mezonlari)

Tajriba sinov natijalari. Pedagogik algoritm 2024–2025-yillarda QDTU muhandislik ta’limi yo‘nalishlari talabalarida n=144 sinovdan o‘tkazildi. Nazorat guruhida n=72 an’anaviy ma’ruza-seminar tizimi, tajriba guruhda n=72 esa besh bosqichli algoritm qo‘llanildi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining kompetensiya ko‘rsatkichlari

Kompetensiya ko‘rsatkichi	Nazorat guruh (n=72)	Tajriba guruh (n=72)	Farq (%)	Statistik ahamiyat
Modellarni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasi	52,4	74,0	+41,3 %	$p < 0,01$
Hisoblash natijalarini muhandislik talqini	48,6	67,4	+38,7 %	$p < 0,01$
Nostandart holatlarni hal etish	44,2	57,3	+29,5 %	$p < 0,01$
Umumiy o‘rtacha	48,4	66,2	+36,8 %	$d = 0,82$

Izoh: Ballar 100 ballik shkala bo‘yicha. Cohen d = 0,82 — katta pedagogik effekt (d ≥ 0,8 mezoniga ko‘ra).

Muhokama (Discussion). Natijalarni tahlil qilish. Tajriba guruhning uchala kompetensiya bo‘yicha nazorat guruhidan ustunligi $p<0,01$ besh bosqichli algoritmning pedagogik samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi. Cohen d=0,82 ko‘rsatkichi katta effektni bildiradi, ya’ni algoritmning ta’sirini tasodifiy farqlanishlar bilan izohlab bo‘lmaydi.

Uchta kompetensiya o‘rtasidagi farq ham muhim hisoblanadi. Modellarni to‘g‘ri tanlash (41,3 %) va muhandislik talqini (38,7 %) bo‘yicha farq nostandart holatlar (29,5 %) ga nisbatan yuqoriroq. Bu 4-bosqich (muhandislik-loyiha) va 5-bosqich (refleksiv-formativ)ning birinchi ikki ko‘rsatkichni shakllantirishdagi roli kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslash. Delgado-Hernandez va boshqalar [3] fuqarolik muhandisligi ta’limida PBL yondashuvining o‘quv natijalarini o‘rtacha 25–30 %ga yaxshilashini ko‘rsatgan. Fischer va boshqalar [4] muhandislik statistikasi fanlarida spiral o‘qitishning 25–35 %li samaradorligini isbotlagan. Ushbu tadqiqotda erishilgan umumiy 36,8 %li o‘sish ikkala manbaning yuqori chegarasiga mos keladi.

Algoritmning asosiy afzalliklari:

1. to‘rtta didaktik shart tizimi algoritmni muhandislik ta’limining boshqa texnik fanlariga ham moslashtirib qo‘llash imkonini beradi;

2. besh bosqichning har biri o‘z baholash vositasiga ega bo‘lganligi uchun ta’lim jarayoni bosqichma-bosqich kuzatib boriladi;

3. 4-bosqichda real mahalliy gidrologik ma’lumotlar (Amudaryo, Sirdaryo) ishlatilishi talabalar uchun mazmunning dolzarbligini ta’minlaydi.

Tadqiqot Qarshi davlat texnika universitetida (QDTU) va ikki yillik vaqt oralig‘ida o‘tkazilgan. Kelgusi tadqiqotlarda algoritmni ko‘p markazli formatda sinab ko‘rish va har bir model uchun alohida bosqichiy tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa (Conclusion). Asosiy ilmiy natijalar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy ilmiy

xulosalarga kelindi:

Birinchidan, ARIMA, SARIMA, GEV va POT modellarini o‘qitishning besh bosqichli pedagogik algoritmi (motivatsion-diagnostik → konseptual-nazariy → instrumental-amaliy → muhandislik-loyiha → refleksiv-formativ) muhandislik ta’limida murakkab gidrologik-statistik modellarni samarali o‘qitishning yaxlit ilmiy-didaktik tizimini tashkil etadi.

Ikkinchidan, algoritmning muvaffaqiyatli ishlashi to‘rtta didaktik shart - fundamentallik, integrativlik, kontekstuallik va progressivlik - bilan shartlangan bo‘lib, ularning birgalikdagi ta’siri ta’minlangandagina yuqori pedagogik effektga erishiladi.

Uchinchidan, tajriba-sinov n=144, $p<0,01$, Cohen d=0,82 algoritmning katta pedagogik effekt kattaligiga ega ekanligini tasdiqladi: umumiy o‘rtacha ustunlik 36,8 %ni tashkil etdi. Cohen d=0,82 ko‘rsatkichi muhandislik ta’limidagi o‘xshash tadqiqotlarda qayd etilgan natijalardan yuqori.

Tadqiqot natijalari asosida uchta amaliy tavsiya beriladi:

1. Besh bosqichli algoritmni QDTU va O‘zbekistonning boshqa texnika universitetlari muhandislik ixtisosliklarining o‘quv dasturlariga kiritish, boshlang‘ich dastur sifatida “Gidrologik statistika” va “Stoxastik jarayonlar” fanlarida sinab ko‘rish;

2. Algoritmning 3-bosqichida Python va R dasturlash muhitlaridan foydalanish uchun maxsus ko‘rsatma-qo‘llanma ishlab chiqish hamda bu vositalar o‘quv jarayonida standartlashtirilishi lozim;

3. Algoritmni muhandislik ixtisosliklariga (transport, qurilish, energetika) moslashtirib sinash – fundamentallik va progressivlik shartlari universallikning nazariy asosini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Box G. E. P., Jenkins G. M. Time Series Analysis: Forecasting and Control. - San Francisco: Holden-Day, 1976. -575 p.

Coles S. An Introduction to Statistical Modeling of Extreme Values. - London: Springer, 2001. — 208 p.

Delgado-Hernandez D. J. et al. Problem-based learning in civil engineering education // European Journal of Engineering Education. - 2017. - Vol. 42. - No. 4. - P. 361–374.

Fischer C. et al. What works best for learning statistics in engineering // International Journal of Engineering Education. - 2020. - Vol. 36. - No. 2. - P. 584 -597.

Maidment D. R. (Ed.). Handbook of Hydrology. - New York: McGraw-Hill, 1993. — 1424 p.

Xoliqov A. A. Muhandislik ta’limida bosqichli o‘qitish tamoyillari. - Toshkent: TDTechU nashriyoti, 2021. - 168 b.

Mirzayev S. M. Statistik modellashtirish fanini o‘qitishning metodologik asoslari. -Toshkent: Fan, 2023. - 194 b.

Yo‘ldoshev J.G‘. Muhandislik ta’limida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyot. - Toshkent: TDPU, 2022. - 210 b.

Hosking J. R. M., Wallis J. R. Regional Frequency Analysis: An Approach Based on L-Moments. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997. — 224 p.

Rao A. R., Hamed K. H. Flood Frequency Analysis. — Boca Raton: CRC Press, 2000. — 376 p.

Bruner J. S. The Process of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1960. — 97 p.

Bloom B. S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: Cognitive Domain. — New York: David McKay Company, 1956. — 207 p.

Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. 2nd ed. — Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. — 567 p.

Hmelo-Silver C. E. Problem-based learning: What and how do students learn? // Educational Psychology Review. — 2004. — Vol. 16. — No. 3. — P. 235–266.

Ausubel D. P. The Psychology of Meaningful Verbal Learning. — New York: Grune & Stratton, 1963. — 255 p.

TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARIGA STOL TENNISI MASHG‘ULOTLARINING TA’SIRI

Kadirov Shoxrux
Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning jismoniy tayyorgarligi va sport mahoratini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni bilan sog‘lom turmush tarzini keng joriy etish va ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish, talaba-yoshlarning jismoniy faolligini oshirish hamda sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Maqolada oliy ta’limda stol tennisidan mashg‘ulotlarining ta’siri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: stol tennisi, texnik ko‘nikmalar, oliy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, videoanaliz, texnik tayyorgarlik, sport mashg‘ulotlari

ВЛИЯНИЕ ТРЕНИРОВОК ПО НАСТОЛЬНОМУ ТЕННИСУ НА ПОКАЗАТЕЛИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ

Кадиров Шохрух
Старший преподаватель, Бухарский государственный университет

Аннотация. В нашей стране одним из приоритетных направлений государственной политики является развитие физического воспитания и спорта, формирование здорового образа жизни молодежи и повышение ее физической подготовленности и спортивных навыков. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6099 от 30 октября 2020 года ставит важные задачи, направленные на широкое внедрение здорового образа жизни и развитие массового спорта. Эти задачи требуют совершенствования системы физического воспитания в высших учебных заведениях, повышения физической активности студентов и молодежи, а также создания необходимых условий для их регулярного участия в спорте. В статье рассматривается влияние тренировок по настольному теннису в высшем образовании.

Ключевые слова: настольный теннис, технические навыки, высшее образование, педагогические технологии, видеоанализ, техническая подготовка, спортивная подготовка

THE IMPACT OF TABLE TENNIS TRAINING ON STUDENTS’ PHYSICAL FITNESS INDICATORS

Shokhrukh Kadirov
Senior Lecturer, Bukhara State University

Annotation. The development of physical education and sports in our country, the formation of a healthy lifestyle among young people, and the improvement of their physical fitness and athletic skills are among the priority areas of state policy. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6099 of October 30, 2020, sets important objectives aimed at the widespread adoption of a healthy lifestyle and the development of mass sports. These objectives require improving the physical education system in higher education institutions, increasing the physical

activity of students and young people, and creating the necessary conditions for their regular participation in sports. This article examines the impact of table tennis training in higher education.

Keywords: table tennis, technical skills, higher education, pedagogical technologies, video analysis, technical training, athletic training

KIRISH. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ularning qiziqishlariga mos bo‘lgan ommabop sport turlaridan samarali foydalanishdan iboratdir. Ana shunday sport turlaridan biri stol tennisi bo‘lib, u tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, diqqat va reaksiyani rivojlantirish bilan bir qatorda, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida stol tennisi mashg‘ulotlarini tashkil etish, talabalar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa «Oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligiga stol tennisi mashg‘ulotlarining ta’siri» mavzusidagi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish muammolari bo‘yicha R. S. Salomov, K. M. Mahkamjonov, T. S. Usmonxo‘jayev, F. A. Xo‘jayev, A. A. Abdullayev, Sh. X. Xonkeldiyev, B. J. Xodjayev va boshqa olimlar tomonidan fundamental hamda amaliy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda jismoniy tarbiya vositalari yordamida yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sport mashg‘ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish masalalari yoritilgan.

MDH davlatlarida ham shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish muammolarini o‘rganishga fundamental va amaliy xarakterga ega bo‘lgan ko‘plab ilmiy tadqiqot loyihalari ishlangan. Fundamental tadqiqotlar qatoriga V. K. Balsevich, N. V. Barisheva, N. N. Vilenskiy, V. M. Vydrin, E. P. Ilyin, E. V. Konsevoy, L. I. Lyubisheva, L. P. Matveyev, V. A. Ponomarchuk, T. V. Skoblikova, G. M. Solovyov va boshqalarning ishlari kiradi.

Amaliy yo‘nalishdagi tadqiqotlar esa M. V. Butenko, I. K. Gunkov, S. S. Korovin, S. V. Melinina, E. V. Matuxno, S. B. Melnikov, L. P. Morozova, T. G. Pestova, V. A. Petkov, V. P. Popov, E. V. Skripleva, O. N. Stepanova, V. N. Xachaturov, Z. I. Chuntijeva va boshqalarga tegishlidir. Hozirgi kunga kelib, shaxs jismoniy madaniyatini shakllantirishning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari, mezonlari va shakllanish darajalari, shuningdek, uning asosiy tamoyillarini yoritib beruvchi nazariy hamda tajriba-sinov asoslari ishlab chiqilgan. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri turli aholi qatlamlarida jismoniy madaniyatni shakllantirish vositalari, shakllari va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslashdan iboratdir.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar (M. V. Butenko, A. A. Kochkarov, L. A. Rapoport, O. I. Samusenkov, O. N. Stepanova, V. V. Chernyaev, V. S. Yakimovich va boshqalar) ko‘rsatishicha, talaba yoshlar jismoniy madaniyatini maqsadli va tizimli ravishda shakllantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – o‘quv va bo‘sh vaqt davomida talabalar orasida ommalashgan hamda talab yuqori bo‘lgan harakat faoliyati va sport turlarining ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishdir. Bunday sport turlaridan biri stol tennisi bo‘lib, u yigitlar va qizlar orasida katta ommaboplikka ega hamda oliy ta’lim muassasalarida “Jismoniy tarbiya” fanining amaliy vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

NATIJA VA METODLAR. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish,

yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning jismoniy tayyorgarligi va sport mahoratini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan belgilangan mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish, yoshlarning jismoniy faolligini rag‘batlantirish va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishni nazarda tutadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida aholining, ayniqsa yoshlarning sog‘lom turmush tarzi va jismoniy faolligini qo‘llab-quvvatlashga doir ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy jismoniy faollik turlarini o‘quv jarayoniga keng joriy etishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, stol tennisi mashg‘ulotlari talabalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Stol tennisi Olimpiya sport turi bo‘lib, u tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, diqqat, reaksiyaning aniqligi kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Mazkur sport turining o‘ziga xosligi shundaki, o‘yin davomida jismoniy yuklamalar va qisqa dam olish oralig‘ining navbatma-navbat almashib turishi turli darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar uchun qulay sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari talabalarining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish va jismoniy faolligini oshirishda stol tennisining imkoniyatlari katta bo‘lishiga qaramay, ushbu sport turining talabalarning jismoniy tayyorgarligiga ta’siri, mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi va ularning samaradorligini ilmiy asoslash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligiga stol tennisi mashg‘ulotlarining ta’siri” mavzusidagi tadqiqot dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA. Stol tennisi bilan shug‘ullanish jarayonida o‘yinchi umumiy o‘yin vaqtining taxminan uchdan bir qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarbalar almashishga sarflaydi. Keskin harakatlardan keyin mushaklar qisqa muddatli dam olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, natijada ular navbatma-navbat faoliyat yuritib, uzoq vaqt davomida ortiqcha charchashsiz ishlaydi. O‘yin epizodlari qisqa tanaffuslar bilan almashinib turishi talabalar organizmiga tushadigan yuklamaning me’yoriy bo‘lishini ta’minlaydi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lgan talabalar uchun stol tennisi bilan muntazam shug‘ullanish alohida ahamiyatga ega. Mazkur sport turi bilan shug‘ullanish davomida organizm asosan aerob xarakterdagi yuklamalarni qabul qiladi. Bunday yuklamalar sog‘lomlashtiruvchi ta’sirga ega bo‘lib, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatini yaxshilashga, umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishga hamda organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli stol tennisi mashg‘ulotlari oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda sport tayyorgarligi tizimida stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) hamda ularning texnik-taktik mahoratlarini

shakllantirishda muhim tayanch omil hisoblanadi. Ayniqsa, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, sakrash qobiliyati va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarning yetarli darajada rivojlanganligi sportchining o‘yin jarayonidagi barqarorligi va samaradorligini belgilab beradi.

Mavzu doirasida tajriba ishlarini ko‘rib chiqsak. Buxoro davlat universiteti stol tennis to‘garagida muntazam shug‘ullanib kelayotgan o‘g‘il va qiz bolalar misolida nazorat (n=24) va tajriba (n=24) guruhlari o‘rtasida umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining holati, texnik-taktik tayyorgarlik jarayonlari va ularning statistik farqlanish darajasini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba usuli qo‘llanilib, jismoniy tayyorgarlik darajasi standart testlar yordamida nazorat qilib borildi (3.1 jadvalga qarang).

Natijalar aritmetik o‘rtacha (M), standart og‘ish (SD), variatsiya koeffitsiyenti (V%), Student t-mezoni (t) va ishonchlilik darajasi (p) orqali matematik-statistik jihatdan tahlil qilinganligi ayniqsa ishninig aniqligi va samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot doirasini avvalgi qismida stol tennis to‘garagida shug‘ullanuvchi o‘g‘il bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasi tezkorlik, chaqqonlik, tezkor-kuch, egiluvchanlik va kuch sifatlarini ifodalovchi standart testlar asosida baholandi. Har bir ko‘rsatkich nazorat va tajriba guruhlari kesimida matematik-statistik jihatdan tahlil qilindi.

Tezkorlik sifatini tavsiflovchi pedagogik testlash turi avvalida olingan 100 metrga yugurish testi natijalari shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhida o‘rtacha yugurish vaqti o‘rtacha 15,52±1,62 soniyani tashkil etib, variatsiya koeffitsiyenti natijalariga ko‘ra V=10,4% darajasida bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich tezkorlik sifatining guruh ichida nisbatan bir tekis va barqaror rivojlanganini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida esa 100 metrga yugurish natijasi o‘rtacha 15,15±1,66 soniyani ko‘rsatib, V=10,8% ga teng bo‘ldi. O‘rtacha qiymatlar orasidagi farq kichik bo‘lib, hisoblangan Student t-mezoni t=0,78 hamda guruhlar orasidagi natijalar p>0,05 qiymati statistik ishonchlilik chegarasidan past ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat tajriba boshlanishida har ikkala guruh tezkorlik sifati bo‘yicha deyarli teng sharoitda bo‘lganini natijalar orasidagi tavofutlar deyarli farqlanmaganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot guruhi a’zolari orasida o‘tkazilgan navbatdagi testlash jarayonlarini Chaqqonlik va harakatlar tezkor koordinatsiyasini baholovchi 3×10 metr mokisimon yugurish testi bo‘yicha nazorat guruhi stol tennischilarida o‘rtacha natija 9,19±1,38 soniyani tashkil etib, variatsiya koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari 15,1% ga teng bo‘ldi. Ushbu V% qiymati chaqqonlik ko‘rsatkichlarida individual farqlanish darajasi mavjudligini bildiradi. Tajriba guruhi sinaluvchilarida esa natijadorlik o‘rtacha 9,24±1,48 soniya, V=16,1% bo‘lib, nazorat guruhiga nisbatan biroz yuqoriroq dispersiya qayd etildi. Guruhlar o‘rtasidagi farq t=0,12, p>0,05 bo‘lgani sababli statistik jihatdan ahamiyatli deb topilmadi. Bu esa chaqqonlik sifati bo‘yicha ham tadqiqot boshida guruhlar tengligini ko‘rsatadi.

t/r	Mashg‘ulot turi	Nazorat n=24	V%	Tajriba n=24	V%	t	p
1.	100 m.ga yugurish (s.)	15,52±1,62	10,4	15,15±1,66	10,8	0,78	>0,05
2.	3x10 mokisimon yugurish (s.)	9,19±1,38	15,1	9,24±1,48	16,1	0,12	>0,05
3.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (3 imkoniyatdan eng yaxshisi hisoblanadi) (sm.)	192,31±27,2	14,4	197,26±25,4	12,8	0,65	>0,05
4.	Gimnastika o‘rindigidan oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish (oyoq ostidan pastga hisoblanadi) (sm)	8,12±2,01	24,7	9,08±1,42	22,1	1,65	>0,05
5.	Baland turnikda tortilish (marta)	12,3±2,55	20,6	13,26±2,48	18,7	1,21	>0,05

Stol tennisi mashg‘ulotlar tizimida sportchilarning texnik mahorati bevosita ularning jismoniy imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, texnik-jismoniy tayyorgarlik darajasi o‘yin samaradorligini belgilovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zarba aniqligi, texnik uzluksizlik, reaksiya tezligi, harakatlar koordinatsiyasi va o‘yin jarayonida tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari sport natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Olib borilgan tahlillar va ilmiy manbalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, stol tennisi mashg‘ulotlari oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa sport turlaridan ajralib turib, talabalarda tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, chidamlilik, harakat aniqligi va psixomotor reaksiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘yin jarayonida jismoniy yuklamalar va qisqa muddatli dam olish oralig‘ining navbatma-navbat almashib turishi organizmning funksional imkoniyatlarini oshirishga, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stol tennisi bilan muntazam shug‘ullanish talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan birga, ularning aqliy va ruhiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mashg‘ulotlar davomida diqqatni jamlash, vaziyatni tez baholash, qisqa vaqt ichida to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa nafaqat sport natijalarining yaxshilanishiga, balki talabalarning o‘quv faoliyatidagi samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA. Stol tennisi mashg‘ulotlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular turli jismoniy tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan talabalar uchun qulay va xavfsiz sport faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Mashg‘ulotlarning mazmuni va yuklamalarini individuallashtirish orqali

talabalar organizmining funksional imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Shu jihatdan stol tennisi mashg‘ulotlari sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, gipodinamiya va stress holatlarining oldini olish hamda talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini takomillashtirish va talabalarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirishda stol tennisi mashg‘ulotlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur sport turini jismoniy tarbiya fanining amaliy mashg‘ulotlariga keng joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va differensial yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish talabalar jismoniy tayyorgarligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, stol tennisi mashg‘ulotlari talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, organizmning funksional holatini yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy faolligini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jarayonida stol tennisidan foydalanishning ilmiy asoslangan metodikalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar stol tennisi mashg‘ulotlarining talabalarning jismoniy rivojlanishi va salomatligiga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish, mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarori. “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2017.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni. “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2020.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2026.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni. «“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida» // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2026.

Salomov R. S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 269 b.

Mahkamjonov K. M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 300 b.

Usmonxo‘jayev T. S., Xo‘jayev F. A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 480 b.

Николаев И. В., Степанова О. Н. Основы техники и методики обучения теннису: Учебное пособие. – М.: МПГУ, 2012. – 60 с

Безверхов В. П., Мухамедзянов Р. В. Теннис учебное пособие. Т.: РКОР, УзГИФК, 2011, 88 с.

BO‘LAJAK MUHANDIS-TEXNOLOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT MODELLARINING O‘RNI

Assistant, Karimova Sidora Baxtiyorovna
Jizzax politexnika instituti, Jizzax shahri

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak muhandis-texnologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt modellaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqot muhandislik ta’limi yo‘nalishida pedagogik tajriba asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda sun’iy intellekt modellarining adaptiv o‘qitish, bilimlarni modellashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishdagi imkoniyatlari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, SI modellari, muhandislik ta’limi, kasbiy kompetensiya, raqamli kompetensiya, generativ modellar, mashinaviy o‘qitish.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE MODELS IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEER-TECHNOLOGISTS

Abstract. This article examines the scientific and pedagogical foundations of using artificial intelligence models in developing professional competence of future engineer-technologists. The study was conducted within engineering education through pedagogical experimentation. The research analyzed the potential of artificial intelligence models in adaptive learning, technological process analysis, engineering problem solving, and independent learning.

Keywords: artificial intelligence, AI models, engineering education, professional competence, digital competence, generative models, machine learning.

Kirish. Zamonaviy sanoatning raqamlashtirilishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va “aqlli” texnologiyalarning rivojlanishi muhandis mutaxassislarni tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda muhandis-texnologlardan nafaqat an’anaviy texnik bilimlar, balki katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash, raqamli vositalardan foydalanish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalari talab qilinmoqda.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ushbu vazifalarni amalga oshirishda muhim vositalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, Kimyo o‘qitish modellari, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash modellari va generativ sun’iy intellekt tizimlari ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Muhandislik ta’limida sun’iy intellekt modellari quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

texnologik jarayonlarni modellashtirish;

muhandislik masalalarini yechish;

virtual laboratoriyalarni tashkil etish;

individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish;

kasbiy kompetensiyalarni baholash.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak muhandis-texnologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt modellarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslash dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi — sun’iy intellekt modellaridan foydalanish asosida bo‘lajak muhandis-texnologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

sun’iy intellekt modellarining ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini tahlil qilish;

muhandislik ta’limida SI modellaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish;

pedagogik tajriba asosida samaradorlikni baholash;

amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Adabiyotlar sharhi

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda ilg‘or novator pedagoglarni, psixologlarni va uslubiyotchi olimlarning fundamental hamda ilmiy tadqiqotlariga tayanilgan holda amalga oshirildi. Respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini shakllantirish mexanizmlarini, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishni va rivojlantirishning turli ko‘rinishlarida bir qancha olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, xususan tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining didaktik ta’minotiga doir tadqiqotlarni M. N. Ataqulova, S. S. Babadjonov, N. A. Kayumova, N. A. Muslimov, M. T. Mirsoliyeva, J. A. Hamidov, O. A. Qo‘ysinov, D. A. Mustafoyeva, O. Q. Musayev, J. P. Turmatovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta’lim jarayonini zamon bilan ham nafas rivojlantirish maqsadida o‘rta va oliy ta’lim uchun sun’iy intellekt (AI) ilovalarini ishlab chiqish va joriy etish talabalarga fanlarni o‘rganishga va o‘qituvchilarga o‘qitish usullarini ijobiy o‘zgartirishga imkon beradi. AI ilovalari talabalar uchun individal o‘rganishga ko‘mak beradi va ta’limga yangidan yangi go‘yalarni yaratishga ko‘mak berishi mumkin. Sun’iy intellektning yana bir muhim xususiyati - bu aniq maqsadlarga eng yaxshi erishadigan harakatlarni baholash va amalga oshirish qobiliyati. Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt turli vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan algoritmlar va dasturiy ta’minot tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi texnologik davrda ta’lim sohasini takomillashtirish uchun xorijiy tajribani o‘rganish, unga ijodiy yondashish va zamon talablari darajasida tatbiq etishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi hamda 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son «Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari ushbu yo‘nalishning amaldagi huquqiy asosini tashkil etadi. «Sun’iy intellekt» bo‘yicha tadqiqotlar inson aqli mexanizmlarini tushunish va intellektual vazifalarni bajaruvchi tizimlarni yaratishga qaratilgan. Intellektual jarayonlarni modellashtirish elektron hisoblash vositalarida muayyan semantik mazmunga ega vazifalarni bajarish imkonini beradi. Bu jarayon inson va texnologik imkoniyatlarning yaqinlashuvini nazarda tutadi: texnologiya inson sa’y-harakatini almashtirmaydi, balki uni qo‘llab-quvvatlaydi. Sun’iy intellektni ta’lim sohasiga yo‘naltirish ta’lim jarayonini takomillashtirish va raqamlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

1. Moslashuvchan ta’lim jarayonlarini takomillashtirish: AI ilovalari o‘quvchilarning individual taraqqiyoti va o‘rganish tezligiga qarab qiyinchilik darajasi va o‘rganish tezligini moslashtiradigan adaptiv o‘quv tizimlarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu talabalarning faolligi va motivatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi, shu bilan birga ular mavzularni mos qiyinchilik darajasida o‘rganishlarini ta’minlaydi.

2. O‘quv jarayoni davomida talabalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash: AI ilovalari talabalarga chatbotlar kabi usullar orqali repetitorlik va maslahat xizmatlari kabi turli xil yordam ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, sun’iy intellektga asoslangan chatbotlar akademik vazifalarga aloqador bo‘lgan muammolari bilan kurashayotgan talabalarga istalgan vaqtda yordam ko‘rsatishi mumkin. Bu xolatni inson misolida olsalak, ustoznining vaqti yo‘qligi va boshqa boshqa

muammolar tufayli bu jarayon ancha vaqt olishi mumkin.

3. Tahlil qilish. AI dan baholash va monitoring kabi vazifalarni soddalashtirishga ancha ko‘mak beradi. Ya’ni o‘quvchilarni imtohon natijalarini tekshirish va baholash kabi ishlarni sun’iy intellektga yukaltiladi. Buning natijasida o‘qituvchilarda dars berish va o‘z ustida ko‘proq ishlashga imkon beradi. Bu jarayon ta’lim sifat darajasini oshirishga katta yordam beradi.

4. Qo‘shimcha materiallar bilan ishlash: AI orqali biz ta’lim berish jarayonligini yanada kuchaytirishimiz mumkin. Masalan, har bir ta’lim muassalari uchun o‘zini maxsus ilovasini ishlab chiqish va uni sun’iy intellekt bilan integratsiya qilish mumkin. Bu o‘z navbatida. Bu ilovaga uy vazifalar va undan tashqari qo‘shimcha materiallar yuklab boriladi. Undan tashqari, Buning sun’iy intellekt bilan integratsiyasi tufayli, talabaning natijasi har doim tahlil qilib boriladi. Va bu orqali, sun’iy intellekt tomonidan past o‘zlashtirayotgan o‘quvchiga qo‘shimcha vazifa avtomatlashtirilgan ravishda beriladi. Ushbu sa’y-harakatlar sun’iy intellektning ta’limni rivojlantirishdagi bebaho rolini ko‘rsatadi.


3. Tadqiqot metodologiyasi (Methods)

1. Umumiy yechish usuli o‘quvchilarga hali noma’lum bo‘lgan standart masalani yechish;

2. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalari: Muhandislar murakkab muammolarni aniqlash va hal qilishda ijodiy yondashuvni qo‘llashlari kerak.

3. Loyihalash va rejalashtirish: Loyihalarni rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar.

4. Tahlil va tadqiqot ko‘nikmalari: Ma’lumotlarni tahlil qilish, tajribalar o‘tkazish va natijalarni baholash qobiliyati.



1-rasm. Bo‘lajak muhandisning muhandislik faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarligining ko‘rsatkichlari

5. Jamoa ishlashi: Muhandislar odatda jamoalarda ishlaydi, shuning uchun samarali komunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalari zarur.

6. Kompyuter dasturlaridan foydalanish: CAD (kompyuter yordamida loyihalash) dastulari kabi muhandislik dasturlarini bilish.

7. Etika va professional mas’uliyat: Muhandislarning ishida etik me’yorlarga rioya qilish, xavfsizlik va atrof-muhitga e’tibor berish muhimdir.

8. Yangiliklarga moslashuvchanlik: Texnologiyalar tez rivojlanayotganligi sababli yangi bilimlarni o‘rganishga tayyor bo‘lish zarur.

9. Muloqot ko‘nikmalari: Texnik ma’lumotlarni oddiy til bilan tushuntira olish qobiliyati, yozma va og‘zaki muloqotda samarali bo‘lish.

10. Liderlik qobiliyatlari: Ba’zi hollarda muhandislar loyihalarni boshqarishi yoki guruhni yetaklashi kerak bo‘lishi mumkin.

4. Tadqiqot natijalari

Pedagogik tajriba natijalari sun’iy intellekt modellaridan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalari kasbiy bilim, texnologik tafakkur, loyihalash qobiliyati, raqamli kompetensiya hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish mezonlari asosida baholandi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt modellaridan foydalanish bo‘lajak muhandis-texnologlarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Amaliy topshiriqlar va laboratoriya ishlari o‘quvchilarning qiziqishini va fanga ijobiy munosabatini oshiradi. Laboratoriya ishlari hali ham laboratoriya uskunalari va materiallarining qimmatliligi hamda boshqa sabablardan o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olgani yo‘q. Shu bilan birga darslarda virtual laboratoriyalar, animatsiyalar va simulyatorlardan foydalanish juda istiqbolliligini ko‘rsatib kelmoqda bu esa darslariga virtual laboratoriya ishlarini integratsiya qilish ta’lim sifatini oshishiga olib keladi.

Avstraliyalik olimlar aniqlashicha an’anaviy AI yoki eski AI vositalari va usullari, jumladan, noaniq mantiq, mashinani o‘rganish va neyron tarmoqlari, asosan, yangi natijalarni yaratmasdan oldindan belgilangan qoidalar yoki o‘rganilgan bilimlar asosida qarorlar, bashoratlar yoki tasniflarni qabul qilishga qaratilgan. Ushbu AI vositalari 20 yildan ko‘p vaqtdan beri mavjud bo‘lib, malakali mutaxassislarni talab qiladigan muhandislik ixtisosligi sifatida tushuniladi. An’anaviy AI ko‘pincha dasturiy ta’minot yoki mashinalarda ishlatiladi, foydalanuvchi AI ishtirok etayotganidan bexabar. Bunga misol qilib transport vositalarining avtomatik uzatish tizimlaridagi noaniq mantiqni keltirish mumkin. Bu yerda noaniq mantiq dvigatel yuki, gaz pedalining holati va tezligi kabi kirishlarni hisobga olgan holda eng yaxshi uzatmalar almashinuv nuqtalarini aniqlashga yordam beradi. Transport vositasi operatorlari kamdan-kam hollarda bu sodir bo‘layotganidan xabardor bo‘lishadi.

Bu vositalar ma’lum biznes ehtiyojlariga moslashtirilgan va jarayon odatiy mahsulotni ishlab chiqish va amalga oshirish sikliga amal qiladi, bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- biznes talablarini aniqlash
- jamoani yig‘ish – ko‘pincha tashqi pudratchi/mutaxassislar bilan
- mahsulotni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish
- sinov/sinov yechimlari
- amalga oshirish.

Ish joylarida qo‘llaniladigan an’anaviy AI tizimlarining eng keng tarqalgani mashina o‘rganishidir, muhandislarning 56 foizi ish joyida mashina o‘rganish qo‘llanilishini aniqlashgan.

Dunyoda bo ‘yicha barcha malakali texnik muhandislar bugungi kunga kelib, sun’iy Intellekt modellaridan foydalangan holda o‘zining bilim va malakalarini oshirib bormoqdalar. SI yordamida

ularning ish sifati, qisqa muddatada aniq natijalarga ershayotgan fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi.

5. Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt modellari bo‘lajak muhandis-texnologlarni tayyorlash jarayonida samarali didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

SI modellari:

individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi;

murakkab texnologik jarayonlarni tushuntirishni osonlashtiradi;

talabalarni mustaqil izlanishga yo‘naltiradi;

muhandislik tafakkurini rivojlantiradi.

Biroq SI modellaridan foydalanishda akademik halollik, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash masalalariga e’tibor qaratish zarur.

PEDAGOGIKA VA TA’LIM MUAMMOLARI

Maqsadli komponent-bu komponent talabalarda grafik savodxonlik, fazoviy tafakkur, muhandislik tafakkuri va mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Mazmuniy component-fan bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, 3D modellashtirish, virtual laboratoriya ishlari va interaktiv topshiriqlar majmuasidan iborat.

Texnologik komponent-sun’iy intellektga asoslangan adaptiv platformalar, virtual simulyatorlar, avtomatik baholash tizimi, raqamli o‘quv kontent va multimediya resurslarini qamrab oladi.

Natijaviy component-talabalarning kasbiy kompetensiyalari, grafik madaniyati, ijodiy fikrlashi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni faollashtirish hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali interaktiv muhitni yaratish imkonini beradi.

SI asosidagi adaptiv mexanizmlar. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv mexanizmlar o‘quv jarayonini individuallashtirish va optimallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish – SI algoritmlari yordamida talabaning bilim darajasi, qiziqishi va o‘rganish sur’ati tahlil qilinib, unga mos topshiriqlar taqdim etiladi.

Avtomatik diagnostika va tahlil – talabaning xatolari real vaqt rejimida aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Intellektual maslahat tizimi – murakkab grafik topshiriqlarni bajarishda bosqichma

bosqich ko‘rsatmalar va izohlar taqdim etiladi.

Adaptiv testlash – test savollari murakkabligi talabaning javoblariga qarab avtomatik moslashtiriladi.

Natijada o‘quv jarayoni samaradorligi oshib, talabalarning bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishiga erishiladi.

Muhokama tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosidagi raqamli o‘qitish modeli an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Tajriba guruhi talabalarida bilim darajasi, fazoviy tafakkur va grafik madaniyatning rivojlanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, adaptiv ta’lim muhiti talabalarning darsga qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil ishlash motivatsiyasini oshiradi hamda o‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi. Shu bilan birga, raqamli muhitda ishlash uchun texnik baza va raqamli savodxonlik darajasining yetarli bo‘lishi muhim omil ekanligi qayd etildi.

Xulosa. Sun’iy intellekt vositalari yordamida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini raqamli o‘qitish modelini takomillashtirish bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi.

2. Virtual laboratoriyalar va 3D modellashtirish vositalari fazoviy tafakkurni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

3. Avtomatik baholash va tahlil mexanizmlari ta’lim sifatini oshiradi va o‘qituvchi faoliyatini optimallashtiradi. Kelgusida mazkur modelni boshqa texnik fanlarga integratsiya qilish, chuqur o‘rganishga asoslangan SI algoritmlari bilan boyitish va masofaviy ta’lim platformalariga moslashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6. Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt modellari bo‘lajak muhandis-texnologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

SI modellaridan foydalanish:

kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish;

texnologik tafakkurni rivojlantirish;

raqamli kompetensiyani shakllantirish;

mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish

imkonini beradi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida muhandislik fanlarini o‘qitishda sun’iy intellekt modellarini ilmiy-metodik asosda joriy etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

Soatova Shoxista Abdumusayevna, Farruxov Abdulatif Baxotiyor o‘g‘li “TA’LIMGA SUN’IY intellektni joriy etishning samarali ahamiyati” international scientific and practical conference “economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” march 13, 2024

Baratov jo‘raqo‘zi shukurjon o‘g‘li, “bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda nostandart topshiriqlarni integrativ yondashuv asosida qo‘llash metodikasi” “tibbiyot oliygohlarida tabiiy fanlarni interfaol usullarda o‘qitishning muammolari va yechimlari”

Jumanazarova zuxraxon qosimjanovna “sun’iy intellekt vositalari yordamida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini raqamli o‘qitish modelini takomillashtirish “qurilish va ta’lim ilmiy jurnali 5-jild, 1-son https://jurnal.Qurilishtalim.Uz

Michael bell affilleaust “the impact of ai and generative technologies on the engineering profession” isbn 978-1-925627-92-3 australia 2025

Rustamov Hakim Sharipovich “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini dasturiy ta’lim vositalari asosida takomillashtirish” phd dissertatsiyasi.

TALABALARDA KIBERXAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Muxammadjonov Xojiakbar Zafarjon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash, ularni kiberxavflardan himoyalash hamda xavfsiz raqamli xulq-atvorni shakllantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida yoritilgan. Maqolada kiberxavfsizlik madaniyatining tarkibiy komponentlari, kompetensiyalari, pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda psixologik omillari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik, kiberxavfsizlik madaniyati, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, psixologik omillar, raqamli ta’lim, kompetensiya, axborot xavfsizligi, interfaol metodlar, refleksiya, talaba.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы психолого-педагогические особенности формирования культуры кибербезопасности у студентов. В условиях стремительного развития цифровых технологий обеспечение информационной безопасности молодежи, их защита от киберугроз и формирование безопасного цифрового поведения освещены как одна из приоритетных задач системы высшего образования. В статье анализируются компоненты, компетенции, механизмы педагогической поддержки и психологические факторы культуры кибербезопасности.

Ключевые слова: кибербезопасность, культура кибербезопасности, педагогическая поддержка, психологические факторы, цифровое образование, компетенция, информационная безопасность, интерактивные методы, рефлексия, студент.

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical characteristics of developing cybersecurity culture among university students. In the context of rapid digital transformation, ensuring students’ information security and developing safe digital behavior have become one of the priority tasks of higher education institutions. The study examines the structural components of cybersecurity culture, key competencies, pedagogical support mechanisms, and psychological factors affecting cybersecurity awareness.

Keywords: cybersecurity, cybersecurity culture, pedagogical support, psychological factors, digital education, competence, information security, interactive learning, reflection, students.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron ta’lim platformalarining keng qo‘llanilishi natijasida axborot almashinuvi misli ko‘rilmagan darajada tezlashdi. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilik, fishing hujumlari, zararli dasturlar, shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi keng tarqalishi kiberxavfsizlikni zamonaviy ta’limning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari internet va raqamli texnologiyalardan eng faol foydalanuvchilar hisoblanadi. Shu sababli ularda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish nafaqat texnik bilimlarni o‘rgatish, balki psixologik tayyorgarlik, axborotga tanqidiy yondashuv hamda mas’uliyatli raqamli xulq-atvorni rivojlantirishni ham talab etadi.

Kiberxavfsizlik madaniyati shaxsning bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, qadriyatlari, motivatsiyasi va mas’uliyatli xatti-harakatlari yig‘indisini ifodalaydi. Aynan ushbu madaniyat talabalarning axborot muhitidagi xavf-xatarlarni to‘g‘ri baholashiga, ularning oldini olishiga hamda xavfsiz qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogika, psixologiya, axborot xavfsizligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarining kesishgan nuqtasida shakllanayotgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng qo‘llanilishi, masofaviy ta’limning rivojlanishi hamda internet xizmatlaridan foydalanish ko‘lamining ortishi natijasida kiberxavfsizlik masalalari alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari talabalari raqamli texnologiyalardan eng faol foydalanuvchilar qatoriga kirganligi sababli ularda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Kiberxavfsizlik madaniyatining nazariy asoslari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, A. V. Belous, G. V. Grachev va A. A. Malyuk axborot-psixologik xavfsizlikni milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida e’tirof etib, uning huquqiy, tashkiliy, texnologik va psixologik jihatlarini kompleks ravishda tahlil qilganlar. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, zamonaviy axborot makonidagi eng katta tahdid faqat texnik hujumlar emas, balki shaxs ongiga yo‘naltirilgan psixologik manipulyatsiyalar, dezinformatsiya, yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan yashirin ta’sirlar ham hisoblanadi. Shu sababli axborot xavfsizligini ta’minlashda texnik himoya vositalari bilan bir qatorda shaxsning tanqidiy fikrlashi, media savodxonligi hamda axborotni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

A. A. Sterxov tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik qo‘llab-quvvatlash modeli esa talabalarda xavfsiz xulq-atvorni shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur model motivatsion-maqsadli, mazmun-faoliyat va natijaviy-refleksiv bloklardan iborat bo‘lib, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida talabaning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sirni nazarda tutadi. Olimning fikricha, pedagog, oila, jamoatchilik hamda ta’lim muassasasi o‘rtasidagi uzviy hamkorlik shaxsning axborot xavfsizligiga oid mas’uliyatli pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

M. Z. Xusenov oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning metodik asoslarini tadqiq etib, interfaol ta’lim metodlari, muammoli vaziyatlar, amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari, virtual simulyatorlar hamda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish ularning kiberxavflarni aniqlash, baholash va ularga qarshi to‘g‘ri choralar ko‘rish kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish faqat axborot texnologiyalariga oid bilimlarni o‘rgatish bilangina cheklanmaydi. Ushbu jarayon psixologik tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, axloqiy qadriyatlar, huquqiy madaniyat hamda shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini uyg‘un ravishda rivojlantirishni talab etadigan murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy oliy ta’limda kiberxavfsizlik madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Talabalarda kiberxavfsizlik madaniyati ko‘p komponentli pedagogik hodisa bo‘lib, u shaxsning raqamli muhitda xavfsiz, mas’uliyatli va ongli faoliyat yuritishini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, qadriyat, xulq-atvor hamda refleksiv kompetensiyalar majmuasidan iborat.

Mazkur madaniyatning shakllanishi talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi bilan bir qatorda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kiberxavflarni oldindan baholash, ularning oqibatlarini anglash hamda himoyalanish strategiyalarini to‘g‘ri tanlay olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Pedagogik nuqtai nazardan kiberxavfsizlik madaniyati quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bilim komponenti. Bilim komponenti talabaning kiberxavfsizlik sohasidagi nazariy tayyorgarligini ifodalaydi. Mazkur komponent orqali talabalar axborot xavfsizligining asosiy tamoyillari, ya’ni maxfiylik (Confidentiality), yaxlitlik (Integrity) va mavjudlik (Availability) tamoyillari (CIA triadasi), axborot aktivlari, tahdid, zaiflik, xavf va risk tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglaydi. Bundan tashqari, ular fishing, spear-phishing, ransomware, botnet, DDoS hujumlari, zararli dasturlar, zararli kodlar, ijtimoiy muhandislik, sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan kiberhujumlar, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish usullari, kriptografik himoya vositalari hamda xalqaro va milliy axborot xavfsizligi standartlari haqida chuqur bilimlarga ega bo‘ladilar. talabalarda raqamli etikaga oid bilimlar, mualliflik huquqi, intellektual mulkni himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlash qoidalari, kiberjinoyatlar uchun javobgarlik hamda axborot xavfsizligi bo‘yicha amaldagi qonunchilikka oid tushunchalar ham shakllanadi. Mazkur bilimlar talabaning har qanday vaziyatda ilmiy asoslangan va oqilona qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

2. Amaliy ko‘nikmalar komponenti. Amaliy ko‘nikmalar komponenti nazariy bilimlarning real hayotdagi qo‘llanilishini tavsiflaydi. Ushbu komponent doirasida talabalar kuchli parollar yaratish va ularni boshqarish, parol menejerlaridan foydalanish, ko‘p bosqichli autentifikatsiyani yoqish, elektron pochta xavfsizligini ta’minlash, zararli havolalarni aniqlash, antivirus dasturlarini sozlash, operatsion tizimlarni muntazam yangilash, VPN texnologiyalaridan foydalanish, Wi-Fi tarmoqlarini himoyalash, bulutli xizmatlarda xavfsiz ishlash, mobil qurilmalar xavfsizligini ta’minlash hamda ma’lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish ko‘nikmalarini egallaydilar. talabalar amaliy mashg‘ulotlar davomida kiberinsidentlarni aniqlash, ularga tezkor javob berish, xavfsizlik siyosatini qo‘llash, xavf darajasini baholash va kiberxavflarning oldini olish bo‘yicha algoritmlarni ishlab chiqishni ham o‘rganadilar. Ushbu kompetensiyalar kelgusidagi kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Qadriyat va munosabat komponenti. Qadriyat va munosabat komponenti shaxsning axborot xavfsizligiga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatini aks ettiradi. Mazkur komponent orqali talabalarda axborotdan foydalanish madaniyati, internet etikasi, raqamli fuqarolik, akademik halollik, shaxsiy va jamoaviy mas’uliyat, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish kabi fazilatlar rivojlanadi.

Talabalar axborotdan noqonuniy foydalanish, plagiat, noqonuniy dasturiy ta’minotdan foydalanish, yolg‘on axborot tarqatish, kiberbulling va boshqa salbiy holatlarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sirini anglay boshlaydilar. Natijada ularda axborot xavfsizligi talablariga ixtiyoriy va ongli ravishda amal qilish ehtiyoji shakllanadi.

4. Mas’uliyatli xulq-atvor komponenti. Mazkur komponent kiberxavfsizlik madaniyatining amaliy ifodasini tashkil etadi. Talaba internet va axborot tizimlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi, noma’lum havolalarni ochmaydi, shubhali fayllarni yuklab olmaydi, boshqalarning shaxsiy ma’lumotlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘ladi hamda axborot tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni oldindan baholashga harakat qiladi. Mas’uliyatli xulq-atvor talabaning raqamli makondagi huquqiy madaniyatini ham namoyon etadi. U axborot xavfsizligi siyosatiga amal qiladi, noqonuniy dasturlarni tarqatmaydi, kiberjinoyatlarga qarshi murosasiz pozitsiyani egallaydi, axborot resurslaridan faqat qonuniy maqsadlarda

foydalanadi hamda jamiyatning umumiy kiberxavfsizlik darajasini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

5. Refleksiv baholash komponenti. Refleksiv baholash komponenti talabaning o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va xatti-harakatlarini muntazam ravishda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Talaba o‘zining kiberxavfsizlik bo‘yicha tayyorgarlik darajasini baholaydi, mavjud kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqadi hamda yangi bilimlarni egallashga intiladi. Refleksiya jarayoni shaxsning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Chunki kiberxavflar doimiy ravishda o‘zgarib borayotganligi sababli mutaxassis muntazam ravishda yangi himoya texnologiyalari, zamonaviy dasturiy vositalar hamda xalqaro tajribalarni o‘zlashtirib borishi zarur. Aynan refleksiv yondashuv shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiradi.

Yuqorida tavsiflangan komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri ikkinchisini to‘ldiradi. Nazariy bilim amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lsa, qadriyat va munosabatlar mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantiradi, refleksiya esa ushbu jarayonlarning uzluksiz takomillashishini ta’minlaydi. Shu bois kiberxavfsizlik madaniyatini alohida fan doirasida emas, balki uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik bo‘yicha berilayotgan bilimlar asosan texnik yo‘nalishga ega bo‘lib, dasturiy ta’minot, tarmoq xavfsizligi va axborotni himoyalash vositalariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Biroq axborot manipulyatsiyasiga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish, media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, raqamli etikani singdirish, shaxsning axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish kabi masalalar o‘quv jarayonida yetarli darajada integratsiyalashmagan.

Kiberxavfsizlikka oid mashg‘ulotlarda real hayotiy vaziyatlar, kiberinsidentlar tahlili, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, keys-stadi texnologiyalari, gamifikatsiya elementlari hamda loyiha asosida o‘qitish metodlari imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganligi kuzatiladi. Bu esa talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu munosabat bilan oliy ta’lim tizimida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning integrativ modelini ishlab chiqish zarur. Mazkur model barcha fanlar mazmuniga kiberxavfsizlik elementlarini kiritish, interfaol pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish, talabalarni real kiberxavf vaziyatlarini modellashtirish orqali o‘qitish, ularning media savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim. Bunday yondashuv talabalarning nafaqat texnik tayyorgarligini, balki ularning ma’naviy, huquqiy, psixologik va kasbiy kompetentligini ham kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Natijada raqamli transformatsiya sharoitida xavfsiz, mas’uliyatli va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun mustahkam pedagogik asos yaratiladi.

Xulosa. Talabalarda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, motivatsiya, mas’uliyat va xavfsiz xulq-atvorning uzviy birligiga asoslanadi. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar hamda refleksiv faoliyat ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli oshiradi. Oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha kompleks metodik tizimni yaratish zamonaviy ta’limning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Bekmuratov T. F., G‘aniyev S. K., Karimov M. M., Tashayev K. A. Axborot xavfsizligi: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2016. – B. 125–126.

Akbarov Bahodir Akbarovich. Kiberxavfsizlik madaniyati va ta’lim jarayonida axborot xavfsizligi kompetensiyalarini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2023. – 256 b. – B. 200.

Мелников Д. А. Информационная безопасность открытых систем: учебник / Д. А. Мелников. – М.: Флинта, 2013. – 448 с.

F. M. Muxtarov., “Kiberxavfsizlik asoslari” Darslik. Farg‘ona 2023. 339 b.

Qodirov N., Raqamli xavfsizlik asoslari, “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent, 2022,250 bet.

Ganiev S. K., Karimov M. M., Toshev BA Kiberxavfsizlik asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TATU, 2021. – 320 b.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB DASTURLASH FANINI O‘QITISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR

Nurmatov Zohidjon Obidjonovich
Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi Umumiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Orcid: 0009-0001-4473-1900

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida dasturlash fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning metodik va didaktik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda adaptiv o‘qitish mexanizmlari, intellektual teskari aloqa tizimlari hamda algoritmik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli vositalarning pedagogik samaradorligi asoslab berilgan. Eksperimental natijalar AI integratsiyasi o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini barqaror oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt texnologiyalari, adaptiv o‘qitish modeli, dasturlash metodikasi, raqamli pedagogika, algoritmik tafakkur, individual ta’lim trayektoriyasi, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируются методические и дидактические основы применения технологий искусственного интеллекта в преподавании программирования в системе высшего образования. В исследовании обоснована педагогическая эффективность адаптивных механизмов обучения, интеллектуальных систем обратной связи, а также цифровых инструментов, способствующих развитию алгоритмического мышления. Экспериментальные результаты показали, что интеграция технологий искусственного интеллекта усиливает учебную мотивацию студентов и способствует устойчивому повышению показателей усвоения знаний.

Ключевые слова:технологии искусственного интеллекта, адаптивная модель обучения, методика преподавания программирования, цифровая педагогика, алгоритмическое мышление, индивидуальная образовательная траектория, компетентностный подход

Abstract: This article analyzes the methodological and didactic foundations of using artificial intelligence technologies in teaching programming within the higher education system. The study substantiates the pedagogical effectiveness of adaptive learning mechanisms, intelligent feedback systems, and digital tools that contribute to the development of algorithmic thinking. Experimental results demonstrate that the integration of artificial intelligence technologies enhances students’ learning motivation and ensures a stable improvement in learning outcomes.

Keywords: artificial intelligence technologies, adaptive learning model, programming teaching methodology, digital pedagogy, algorithmic thinking, individual learning trajectory, competency-based approach.

KIRISH. Raqamli transformatsiya sharoitida dasturlash fanini o‘qitish mazmuni va metodikasi o‘rtasida muayyan ilmiy ziddiyat yuzaga kelmoqda. Bir tomondan, zamonaviy IT bozori murakkab algoritmik fikrlash, kodni optimallashtirish va muammolarni modellashtirish qobiliyatiga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Ikkinchi tomondan, amalda qo‘llanilayotgan an’anaviy o‘qitish modellari talabalarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olmasdan bir xil temp va bir xil mazmunda ta’lim berishga asoslangan. Natijada bilim o‘zlashtirish darajasida katta farqlar yuzaga kelmoqda.

Mavjud tadqiqotlar dasturlashni o‘qitishda interfaol metodlar samaradorligini tasdiqlagan

bo‘lsa-da, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim modellarining algoritmik tafakkurga ta’siri yetarli darajada empirik asoslanmagan. Ayniqsa, avtomatik kod tahlili, mashinali o‘rganish algoritmlari asosidagi individual tavsiya tizimlari va ta’lim analitikasining didaktik samaradorligi kompleks ravishda o‘rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan tadqiqotning ilmiy muammosi quyidagicha formulirovka qilinadi: “Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etilgan adaptiv o‘qitish modeli dasturlash fanini o‘zlashtirish samaradorligi va algoritmik tafakkur rivojlanishiga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?”

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi keyingi yillarda pedagogika, kognitiv psixologiya, ta’lim analitikasi va axborot texnologiyalari kesishgan nuqtada eng tez rivojlanayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xalqaro nazariy qarashlarda SI ko‘pincha “qo‘shimcha vosita” sifatida emas, balki o‘quv jarayonini tizimli qayta loyihalashga majbur qiladigan transformatsiyachi omil sifatida talqin etiladi: u ta’limni individuallashtirish, differensiatsiyalash, o‘quv traektoriyalarini boshqarish va natijalarni ma’lumotlarga tayanib baholash imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, dasturlash fanini o‘qitishda bu masala o‘ta dolzarb, chunki dasturlash - faqat sintaksis va qoidalarni yodlash emas, balki algoritmik tafakkur, abstraksiya, modellashtirish, debag qilish, optimallashtirish kabi yuqori darajadagi kognitiv amallarni talab qiladi. Shu sababli an’anaviy “bir temp-bir mazmun” modeli amalda ko‘p holatlarda talabalar o‘rtasidagi tayyorgarlik tafovuti, fikrlash tezligi, ishchi xotira (working memory) hajmi, kognitiv yuklama (cognitive load)ni qabul qilish darajasi farqlari bilan to‘qnash keladi. Kognitiv yuklama nazariyasiga ko‘ra, o‘quv mazmuni juda tez va yuqori qiyinlikda berilsa, ishchi xotira ortiqcha yuklanib, bilimning uzoq muddatli xotiraga ko‘chishi sekinlashadi; aksincha, mazmun juda sodda va sekin tempda berilsa, qobiliyatli talabalarda zerikish, motivatsiya pasayishi, “kam qiyinchilik - kam o‘sish” effekti paydo bo‘ladi. Demak, bir xil ssenariyda o‘qitish dasturlash kabi “amaliy-nazariy” fanlarda ko‘pincha optimal natija bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, adabiyotlarda keng qo‘llanadigan konstruktivizm qarashi muhim: bilim talaba tomonidan faol “quriladi”, u tayyor shaklda berilmaydi. Dasturlashda bu ayniqsa yaqqol: talaba algoritmni ko‘radi, lekin uning ichki mantig‘ini qurmas ekan, yangi masalaga ko‘chira olmaydi. Shunday ekan, pedagogik vazifa - talabani faol kognitiv harakatga undaydigan muhit yaratish, ya’ni muammoli vaziyatlar, keyslar, loyiha faoliyati, bosqichma-bosqich murakkablashuv, tezkor qaytar aloqa (feedback) va refleksiya mexanizmlarini ishga tushirishdan iborat bo‘ladi. Ilmiy qarashlarga ko‘ra, formativ baholash va qaytar aloqa qancha tez, aniq va individual bo‘lsa, xatoning mustahkamlanib qolish ehtimoli shuncha kamayadi; dasturlashda esa xatolarning aksari “tezkor tuzatish” talab qiladi, chunki sintaktik xatoni vaqtida ko‘rsatib berilmasa, u mantqiy xatoga aylanib ketishi yoki talabada noto‘g‘ri qoida shakllanishi mumkin. Shu yerda SI asosidagi intellektual o‘quv tizimlari, avtomatik kod tahlili va adaptiv tavsiyalar pedagogik samaradorlikni oshiradi, degan ilmiy fikr paydo bo‘ladi: ular “o‘qituvchining doimiy nazorati”ni to‘liq almashtirmasa-da, amalda har bir talabaga real vaqt rejimida shaxsiy yordam va mulohaza berish imkonini kengaytiradi.

Tadqiqot obyekti: oliy ta’lim muassasasida dasturlash fanini o‘qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim modelining didaktik samaradorligi.

Gipoteza: agar dasturlash fanini o‘qitish jarayoni mashinali o‘rganish algoritmlari asosida ishlovchi adaptiv tavsiya tizimi, avtomatik kod tahlili va ta’lim analitikasi vositalari bilan integratsiya qilinsa, u holda talabalarning algoritmik tafakkuri, akademik natijalari va o‘quv motivatsiyasi statistik jihatdan ishonchli darajada oshadi.

O‘rganilganlik darajasi.

Respublikamizda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, AKT vositalarini didaktik tizimga

integratsiya qilish hamda elektron ta’lim muhitini shakllantirish masalalari bo‘yicha bir qator fundamental ilmiy-amaliy izlanishlar mavjud. Xususan, A. A. Abduqodirov va D. Ye. Toshtemirov tomonidan tayyorlangan monografik tadqiqotlarda [1; 2] ta’lim muassasalarida AKTdan foydalanish metodikasi, elektron resurslar bilan ishlashning tashkiliy-didaktik shartlari, ta’lim portalini yaratish tamoyillari va undan foydalanish mexanizmlari tizimli asosda yoritilgan. Mazkur yondashuvlar raqamli ta’lim infratuzilmasini pedagogik nuqtayi nazardan loyihalash, o‘quv kontentini boshqarish va o‘qitish jarayonini muvofiqlashtirish (management) masalalarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, D. B. Abduraximov va D. Ye. Toshtemirovning o‘quv qo‘llanmasida [3] mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi doirasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘qituvchi faoliyatining metodik konstruksiyasi kabi masalalar berilgan bo‘lib, bu ishlar raqamli ta’lim vositalarini fan metodikasi bilan bog‘lashda metodologik poydevor vazifasini bajaradi. A. Parpiyev, A. Marahimov, R. Hamdamov va U. Begimqulov tomonidan ishlab chiqilgan “Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari” asarida [4] masofaviy ta’limning konseptual modeli, texnologik platformalar, o‘quv jarayonini onlayn tashkillashtirish mexanizmlari yoritilib, elektron universitet g‘oyasi milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan tarzda talqin qilinadi. B. Ye. Elmuradovning konferensiya materiallaridagi ishlanmasi [5] elektron axborot-ta’lim muhitini yaratishning tashkiliy va didaktik masalalarini ochib berib, raqamli muhitni joriy etishda metodik tayyorgarlik va pedagogik shart-sharoitlarning hal qiluvchi rolini asoslaydi. J. B. Orishevning tadqiqotida [6] raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi o‘rni muhokama qilinib, raqamli transformatsiyaning ta’lim boshqaruvi, dars dizayni va metodik samaradorlikka ta’siri ko‘rsatib beriladi. G. S. Jumayevaning maqolasida [7] AKTning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinib, raqamli vositalar interfaol ta’limni kuchaytirishi, o‘quv jarayonining kommunikativ va resurs jihatini kengaytirishi ilmiy dalillar bilan izohlanadi.

Ta’limni mobil va web-texnologiyalar asosida tashkil etish yo‘nalishida U. A. Madaminovning qator ishlari [8-11; 20-22] alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif web dasturlashni o‘qitish metodikasi [8], o‘quv mashg‘ulotlarini mobil texnologiyalar asosida tashkil etishning innovatsion yechimlari [9], mobil o‘qitish metodikasi va uning modellari [10-11] haqida tizimli tasnif va amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu ishlarda raqamli vositalar “faqat platforma” sifatida emas, balki o‘quv faoliyatini qayta tashkil etuvchi didaktik mexanizm sifatida talqin qilinadi: mashg‘ulotlarni mikro-modullarga ajratish, topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, o‘quvchini mustaqil ta’limga yo‘naltirish, monitoringni kuchaytirish kabi masalalar ilgari suriladi. Bunda metodik yutuq shundaki, mobil/web muhit o‘qitishning moslashuvchanligini oshiradi, o‘quv jarayonini “har doim va har joyda” tamoyiliga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosan AKT va raqamli muhitning umumdidaktik samaradorligini ochib beradi; dasturlash fanida aynan sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish algoritmlari, avtomatik kod tahlili (static/dynamic analysis, autograding), individual feedback generatorlari va ta’lim analitikasi indikatorlarini yagona metodik tizimga birlashtirish masalalari ko‘proq “keyingi bosqich” vazifasi sifatida qolayotganini ham ko‘rish мумкин.

Sun’iy intellektning ta’limdagi qo‘llanilishi bo‘yicha mahalliy adabiyotlar tarkibida D. Sh. Shoisayeva [12], B. Shodiyorov [13], A. Abduvaliyev [14], G. Saidova [15] kabi mualliflarning ishlari e’tiborga loyiq. Bu tadqiqotlarda SI texnologiyalarining ta’limga ta’siri, xususan, til o‘rganish jarayonidagi imkoniyatlari (mashina o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, adaptiv kontent) hamda metodologik yondashuvlar izohlanadi. Mazkur yo‘nalishdagi ishlanmalar SI vositalarining shaxsiylashtirish, tezkor teskari aloqa, o‘quvchining faoliyatini tahlil qilish va individual tavsiyalar berish kabi funksiyalarini konseptual jihatdan asoslaydi. Biroq e’tiborli jihat shundaki, bu tadqiqotlarning katta qismi til o‘rganish, umumiy raqamli pedagogika yoki AKTning umumiy

qo‘llanilishiga yo‘naltirilgan; dasturlash faniga “predmet-spetsifik” tarzda, ya’ni kod yozish jarayonini avtomatik tahlil qilish, sintaktik/mantiqiy xatolarni klassifikatsiya qilish, algoritmik tafakkur darajalarini data-driven indikatorlar bilan bog‘lash, adaptiv topshiriqlar generatori va learning analytics panelini didaktik dizaynning markaziy elementiga aylantirish kabi masalalar yetarli darajada eksperimental-statistik asosda yoritilmagan.

Alohida qayd etish joizki, integrativ yondashuv va ta’lim natijalarini kompetensiyalar orqali tushuntirish masalalari I. Sh. Egamberganov [16] kabi mualliflar ishlarida ko‘tarilgan bo‘lib, u metodik modelni qurishda “kompetensiya-faoliyat-natija” zanjirini asoslashga yordam beradi. Shuningdek, M. B. Dusmuratov va A. M. Tillaboyev [17] kabi mualliflarning zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishga doir ishlari ham raqamli vositalarni dars jarayoniga kiritishning amaliy jihatlarini ko‘rsatadi. Ammo bu ishlar ham ko‘proq umumiy didaktik yoki fanlarni o‘qitishning texnologik ta’minoti doirasida qolib, dasturlash ta’limida SI asosidagi innovatsion yondashuvning “yaxlit modeli”ni berishga yetib bormaydi.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda (1) elektron ta’lim muhitini yaratish va AKTdan foydalanish metodikasi [1-7], (2) mobil/web asosida o‘qitishning innovatsion modellarini ishlab chiqish [8-11; 20-22], (3) sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini konseptual jihatdan yoritish [12-15] bo‘yicha salmoqli ilmiy zamin mavjud. Shu bilan birga, “Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib dasturlash fanini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar” mavzusi kontekstida ilmiy bo‘shliq quyidagicha aniqlanadi: mavjud tadqiqotlar ko‘proq raqamli muhit va AKTning umumiy samaradorligini asoslaydi, lekin dasturlash faniga xos (predmet-spetsifik) didaktik tizim sifatida SI integratsiyasi - adaptiv topshiriqlar mexanizmi, avtomatik kod tahlili, tezkor va izohli feedback modeli, algoritmik tafakkurni baholash mezonlari va ta’lim analitikasi indikatorlarini bir butun metodik modelga birlashtirish hamda uni eksperimental-statistik dalillar bilan isbotlash - yetarlicha to‘liq ishlab chiqilmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va mazkur ishda SI asosidagi innovatsion yondashuvni metodik model sifatida asoslash, amaliyotda sinash hamda natijalarni ishonchli statistik ko‘rsatkichlar orqali tasdiqlash zaruratini yuzaga keltiradi.

ASOSIY QISM

Respublikamizda raqamli pedagogika va dasturlash metodikasi masalalari bo‘yicha qator ishlarda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik yo‘nalish sifatida ilgari suriladi. Kompetensiyaviy paradigmaga ko‘ra, ta’lim natijasi faqat “bilim miqdori” bilan emas, balki amaliy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlik, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish va natijani baholash ko‘nikmalari bilan o‘lchanadi. Dasturlashga tatbiq etilganda bu quyidagi mantiqiy qoidaga keladi: talabaning muvaffaqiyati “kod yoza oldi-yozolmadi” degan ikkilik holat emas, balki algoritmik tafakkurning bosqichma-bosqich o‘sishi sifatida ko‘rilishi kerak. Amaliyotda ko‘p uchraydigan to‘siq shundaki, talaba sintaksisni biladi, lekin muammoni qismlarga ajrata olmaydi; yoki algoritm tuzadi, lekin uning samaradorligini (masalan, vaqt/xotira murakkabligi) baholamaydi; yoki ishlaydigan kod yozadi, ammo tuzilmasi tartibsiz, qayta ishlatish (reusability) past, debag qilish qiyin bo‘ladi. Demak, algoritmik tafakkurni “reproduktivdan kreativga”cha olib chiqish metodik jihatdan asosiy maqsadga aylanadi.

Shu nazariy asoslar fonida o‘tkazilgan tadqiqotning dizaynini kuchaytiruvchi jihat - u faqat umumiy fikrlar bilan cheklanib qolmay, aniq empirik ma’lumotlarga tayanadi. Tajriba-sinov “Dasturlash 1,2” fani doirasida 15 hafta davom etgan va jami 144 nafar talaba ishtirok etgan: 74 nafari nazorat guruhi, 70 nafari eksperimental guruh sifatida shakllantirilgan. Guruhlarni ajratishda boshlang‘ich bilim darajasi va avvalgi natijalar inobatga olingani, dastlabki diagnostik testlarda guruhlar o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligi ($p>0,05$) qayd etilgani metodik jihatdan muhim, chunki

bu eksperiment natijasini “boshidan kuchli guruh tushib qoldi” kabi ta’sirlardan qisman himoya qiladi. 15 haftalik sikl dasturlashda yetarlicha repetitsiya va mustahkamlash uchun minimal-adekvat muddat hisoblanadi: deliberate practice (maqsadli mashq) nazariyasiga ko‘ra, mahorat o‘sishi ko‘p takror va ma’nosi bor mashq, tezkor feedback, xatoni tuzatish va qayta urinish sikllari orqali ta’minlanadi.

Nazorat guruhida o‘qitish an’anaviy modelda - ma’ruza, amaliyot va mustaqil topshiriqlar orqali tashkil etilgan. Eksperimental guruhda esa pedagogik ssenariy “moslashtirilgan topshiriqlar + bosqichma-bosqich murakkablashuv + tezkor teskari aloqa + individual monitoring” kombinatsiyasiga qurilgan. Bu yerda asosiy didaktik qoida shundaki: har bir talaba uchun qiyinchilik darajasi uning joriy tayyorgarligiga “yaqin, ammo biroz yuqori” bo‘lishi lozim; ta’lim psixologiyasida bu ZPD (yaqin rivojlanish zonasi) tamoyili bilan uyg‘un. Agar topshiriq juda og‘ir bo‘lsa - frustratsiya; juda oson bo‘lsa - rivojlanish susayadi. Moslashtirilgan topshiriqlar aynan shu balansni ushlashga xizmat qiladi: kimdir shart operatorlarini o‘zlashtirayotgan paytda boshqasi rekursiya yoki massiv/ro‘yxatlar bilan ishlayapti, yana boshqasi optimallashtirishga o‘tayapti. Shu tarzda individual traektoriya shakllanadi.

Natijalarda ko‘rsatilgan raqamlar eksperimental modelning ta’sirini aniqroq ko‘rsatadi. Semestr yakunida o‘rtacha reyting nazorat guruhida 72,4 bo‘lgan bo‘lsa, eksperimental guruhda 88,7 ga yetgan, ya’ni farq 16,3 ball. Bu amaliyot uchun “katta” deb baholanadigan farq, chunki o‘quv reytinglarida 10 balldan yuqori siljish ko‘pincha ssenariy o‘zgarishi, feedback tezligi va mashq sifatining oshishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Baholar kesimida ham dinamika ochiq: 86-100% yuqori natijali talabalar ulushi nazoratda 28% bo‘lgan bo‘lsa, eksperimentalda 57% ga chiqqan; past o‘zlashtiruvchilar ulushi 26% dan 7% ga tushgan. Bu yerda muhim nazariy xulosa paydo bo‘ladi: adaptiv va tezkor feedback mexanizmi faqat kuchlilarni kuchaytirib qo‘ymay, aksincha, past o‘zlashtiruvchilarni “to‘siqdan chiqarish”ga xizmat qilgan. Ta’lim psixologiyasida bunday effektni “remediation” (kamchiliklarni tez bartaraf qilish) va “scaffolding” (qadamma-qadam qo‘llab-quvvatlash) mexanizmlari tushuntiradi: talabada asosiy “og‘riq nuqtalari” (masalan, o‘zgaruvchilar, shart, sikl mantig‘i) aniqlansa, shu nuqtalarda ko‘proq mashq va tushuntirish berilib, keyin yuqori bosqichga o‘tiladi.

Statistik tasdiq sifatida Student t-mezoni qo‘llangan va t=3,87 natija kritik qiymatdan yuqori ekani aytilgan; demak, guruhlar o‘rtasidagi farq tasodifiy emasligi ehtimoli yuqori. Bu yerda metodik nuqtai nazardan yana bir qoida muhim: statistik ahamiyat (p-qiymat) bilan bir qatorda, amaliyot ahamiyati (ta’sir kuchini ko‘rsatuvchi effekt o‘lchami) ham ko‘rsatilsa, ish yanada mustahkamlanadi. Chunki katta namunada kichik farq ham “ahamiyatli” chiqishi mumkin, ammo amaliyotda uncha sezilmasligi ehtimol. Sizning holatda esa farq ball bo‘yicha ham, ulushlar bo‘yicha ham katta, shuning uchun amaliyot ahamiyatini asoslash oson: 57% yuqori natija va 7% past natija - bu didaktik jihatdan sezilarli siljish.

Algoritmik tafakkur ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar innovatsion modelning “sifat” ta’sirini ochadi. Boshlang‘ichda reproduktiv daraja 48% bo‘lgan, eksperimental guruhda yakunda 18% ga tushgan; integrativ daraja 15% dan 34% ga, kreativ daraja 5% dan 19% ga chiqqan. Bu raqamlar Bloom taksonomiyasi bilan talqin qilinsa, talabalar katta qismi “remember/understand”dan “analyze/evaluate/create”ga siljiganini anglatadi. Dasturlashda kreativ daraja deganda “yangi algoritm o‘ylab topish”dan tashqari, mavjud yechimni optimallashtirish, kodni qayta tuzish (refactoring), samaradorlikni oshirish, funksional talablarni to‘liq qondirish kabi kompetensiyalar nazarda tutiladi. Ya’ni bu - real amaliyotda ish beruvchilar talab qiladigan ko‘nikmalar.

Xatolar dinamikasi ham nazariy jihatdan muhim signal beradi. Eksperimental guruhda xatolar 32% ga kamaygan, nazoratda 11%. Dasturlashda xatolarni qisqartirishning ikki asosiy yo‘li bor:

(1) sintaktik xatolarni erta aniqlash va to‘g‘ri qoida bilan mustahkamlash; (2) mantqiy xatolarni refleksiya orqali topish va “nega bu ishlamadi?” degan kognitiv savolni odatga aylantirish. Tezkor teskari aloqa shularni kuchaytiradi: talaba xato qilgan zahoti uni ko‘radi, tuzatadi, qayta ishga tushiradi va “hato-to‘g‘ri” bog‘lanishini miyada mustahkamlaydi. Bu yerda metakognitsiya (o‘z fikrlashini nazorat qilish) nazariyasi ham ishlaydi: talaba o‘z kodini tahlil qilish, xatoni izlash strategiyalarini o‘rganadi, bu esa mustaqil o‘qish (self-regulated learning) kompetensiyasini oshiradi. So‘rovnoma natijasida eksperimental guruhda 71% talabada o‘z kodini mustaqil tahlil qilish va optimallashtirish ko‘nikmasi yuqori darajada ekani, nazoratda esa 38% ekani keltirilgan - bu farq ham aynan metakognitiv o‘sishni anglatadi.

Motivatsiya indeksidagi o‘sish (0,63 dan 0,86 gacha) ham tasodifiy emas. Motivatsiya nazariyalarida (masalan, self-determination theory) avtonomiya, kompetentlik hissi va ijtimoiy bog‘liqlik motivator sifatida qaraladi. Adaptiv va tezkor feedback muhitida talaba “men qila olyapman” degan kompetentlik hissini tezroq sezadi; individual topshiriqlar avtonomiyani oshiradi; jamoaviy muhokama va loyiha ishlari ijtimoiy bog‘liqlikni kuchaytiradi. Shuning uchun motivatsiyaning oshishi tabiiy. Buning ustiga, dasturlashda muvaffaqiyatning tez namoyon bo‘lishi (kod ishladi, natija chiqdi) motivatsiyani yanada rag‘batlantiradi; shu bilan birga, feedback kechiksa, talaba “nimasi noto‘g‘ri?” degan savolda uzoq qolib ketadi va qiziqish pasayishi mumkin. Demak, tezkor feedback - motivatsiyani ham boshqaruvchi omil.

Mustahkamlovchi dalil sifatida mustaqil loyiha ishlari natijalari keltirilgan: eksperimental guruhda 62% loyiha yuqori darajada, nazoratda 34%; o‘rtacha loyiha ballari 89,2 va 74,6. Loyiha - kompetensiyaviy ta’limning eng ishonchli indikatorlaridan, chunki u bilimni “real vazifa”ga ko‘chirishni talab qiladi: funksional to‘liqlik, algoritmik samaradorlik, kod strukturasi, interfeys kabi mezonlar bir vaqtning o‘zida ham texnik, ham dizayn, ham fikrlash tartibini baholaydi. Loyiha ballaridagi 14-15 ball atrofidagi farq shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ssenariy nafaqat test va amaliyotda, balki ijodiy-loyiha faoliyatida ham natija bergan.

Shu tariqa, mavjud ilmiy nazariyalar (konstruktivizm, kognitiv yuklama, ZPD, metakognitsiya, self-regulated learning, formativ feedback) va amaldagi raqamlar (144 talaba, 15 hafta, reyting 72,4→88,7, yuqori baholilar 28%→57%, past baholilar 26%→7%, xatolar 32% kamayish, motivatsiya 0,63→0,86, loyiha 74,6→89,2) bir nuqtada birlashib, quyidagi umumiy ilmiy fikrni mustahkamlaydi: dasturlash fanini o‘qitishda adaptiv topshiriqlar, bosqichma-bosqich murakkablashuv va tezkor teskari aloqaga asoslangan innovatsion tashkil etish modeli o‘quv natijalarini barqaror oshiradi, algoritmik tafakkurni yuqori bosqichlarga ko‘taradi, xatolarni kamaytiradi va talabalar motivatsiyasini kuchaytiradi. Bunday modelni joriy etishda esa eng muhim shart - texnologiyani “o‘ziga” emas, didaktik ssenariyga bo‘ysundirish: SI vositasi o‘qituvchining pedagogik maqsadlariga xizmat qilsa, u holda uning samarasi yuqori bo‘ladi; aks holda esa, texnologiya mavjud muammolarni faqat tezlashtirib qo‘yishi mumkin. Sizning tajriba natijalaringiz aynan birinchi holat - pedagogik maqsadga mos ssenariy to‘g‘ri qurilganda, innovatsion yondashuv dasturlash ta’limida sezilarli va statistik jihatdan tasdiqlangan o‘sish berishi mumkinligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim modeli dasturlash fanini o‘zlashtirish samaradorligini statistik jihatdan ishonchli darajada oshiradi. Algoritmik tafakkur yuqori kognitiv bosqichga ko‘tariladi, xatolar soni kamayadi va o‘quv motivatsiyasi barqaror ravishda ortadi. Model raqamli pedagogikaning istiqbolli yo‘nalishi sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Abduqodirov A. A., Toshtemirov D. Ye. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: monografiya. - Guliston: «Universitet», 2019. - 232 b.

Toshtemirov D. Ye. Ta’lim portali: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi: monografiya. - Guliston: «Universitet», 2015. - 156 b.

Abduraximov D. B., Toshtemirov D. Ye. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2020. - 224 b.

Parpiev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimqulov U. Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari. - Toshkent: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

Elmuradov B. Ye. Elektron axborot-ta’lim muhitini yaratish // «Umumiy o‘rta ta’limning nazariy va amaliy muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferenensiya materiallari. - Toshkent: Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2009.

Orishev J. B. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi o‘rni // «Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Toshkent, 2021.

Jumayeva G. S. Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o‘rni // Journal of Critical Reviews. - 2022. - T. 12, № 12. - B. 75-80.

Madaminov U. A. «Web dasturlashga kirish» fanini mobil texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi // Scienceproblems.uz - Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. - 2023. - № 6. - B. 220-224.

Madaminov U. A. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini mobil texnologiyalar asosida tashkil qilishning innovatsion ta’lim texnologiyalari // Fan va jamiyat: ilmiy-metodik jurnal. - Nukus, 2023. - № 4/1. - B. 425-430.

Madaminov U. A. Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni mobil texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi // Pedagogik mahorat: ilmiy-nazariy va metodik jurnal. - Buxoro, 2023. - № 8. - B. 33-37.

Madaminov U. A. Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni mobil texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi modellari // Ilm sarchashmalari: ilmiy-nazariy, metodik jurnal. - Urganch, 2023. - № 10. - B. 88-91.

Shoisayeva D. Sh. Sun’iy intellekt texnologiyalarning ta’limda, xususan til o‘rganishda qo‘llanilishi // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman «Ta’lim maydoni tendensiyalari: kompetensiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar». - 2025. - T. 1, № 1. - B. 51-54.

Shodiyorov B. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyati va til o‘rganishga ta’siri. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

Abduvaliyev A. Mashina o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash metodlari yordamida til o‘rganishning samaradorligini oshirish // Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti jurnali. - 2021. - T. 12, № 4. - B. 200-210.

Saidova G. Sun’iy intellekt va til o‘rganish: yangi texnologiyalar va metodologiyalar // Ta’lim texnologiyalari va innovatsiyalar jurnali. - 2019. - T. 17, № 3. - B. 120-135.

Egamberganov I. Sh. Formation of research competencies in students based on an integrative approach // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. - 2022. - T. 10, № 11. - B. 508-513.

Dusmuratov M. B., Tillaboev A. M. Yorug‘lik oqimi tushunchasini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish // Academic (maqola ma’lumotlari manbada keltirilgan). - 2021.

(Toshtemirov D. Ye. va hammualliflar) Ta’limda raqamli texnologiyalar va AKTdan foydalanish masalalari: maqolalar to‘plamidagi ma’lumotlar (monografiya/qo‘llanmalarga ishoralar bilan). - 2021.

(Abduqodirov A. A., Toshtemirov D. Ye.) Ta’lim muassasalarida AKTdan foydalanish metodikasi: bibliografik qayd (konferensiya manbasida keltirilgan). - Toshkent, 2021.

(Madaminov U. A.) Elektron ta’lim muhitida fanlarni mobil ilovalar asosida o‘qitish muammolari va yechimlari: konferensiya materiallaridagi ishora. - 2023.

(Madaminov U. A.) Pedagogik jarayonlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish: konferensiya maqolasi (bibliografik qayd). - 2022.

(Madaminov U. A.) Oliy ta’lim tashkilotlarida web dasturlashni o‘qitish va takomillashtirish usullari: respublika anjumani materiallari. - Toshkent, 2022. - B. 35-38.

(Parpiyev A. va boshq.) Masofaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha elektron universitet konsepsiyasi: kitob ma’lumotlari. - Toshkent, 2008.

(Elmuradov B. Ye.) Elektron axborot-ta’lim muhitini loyihalash va yaratish masalalari: konferensiya materiallari. - Toshkent, 2009.

(Jumayeva G. S.) Ta’limda AKT imkoniyatlari va tatbiqiga oid tahlil: maqola. - 2022.

ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО АУДИТА ФРАНЦУЗСКО-РУССКО-УЗБЕКСКОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ БАЗЫ

Nazirova Ozoda Zohid qizi
самостоятельный исследователь кафедры иностранных языков
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова
ORCID: 0009-0008-8321-953X

Аннотация. Цель исследования – разработать дидактическую модель проектирования и аудита французско-русско-узбекской технической терминологической базы. Материал включает 1000 записей по пяти направлениям. Применены сопоставительный, семантический, контекстуальный и компонентный методы. Выделены пять компонентов словарной записи. Аудит выявил 44 записи для коррекции, 87 – для уточнения и 50 – для консультации специалиста; в 819 записях несоответствия не обнаружены.

Ключевые слова: профессиональный французский язык, техническая терминология, многоязычная терминологическая база, дидактическое проектирование, лингводидактический аудит, электронный словарь, профессиональная лексическая компетенция, технический вуз.

FRANSUZCHA-RUSCHA-O‘ZBEKCHA TEXNIK TERMINOLOGIK BAZANI DIDAKTIK LOYIHALASH VA DASTLABKI AUDIT QILISH MODELI

Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi fransuzcha-ruscha-o‘zbekcha texnik terminologik bazani loyihalash va audit qilish modelini ishlab chiqishdan iborat. Material beshta yo‘nalishdagi 1000 ta yozuvni qamrab oldi. Qiyosiy, semantik, kontekstual va komponentli tahlil qo‘llandi. Besh komponent ajratildi. Auditda 44 yozuv tuzatish, 87 yozuv aniqlashtirish, 50 yozuv mutaxassis maslahati toifasiga kiritildi; 819 yozuvda nomuvofiqlik aniqlanmadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy fransuz tili, texnik terminologiya, ko‘p tilli terminologik baza, didaktik loyihalash, lingvodidaktik audit, elektron lug‘at, kasbiy leksik kompetensiya, texnika oliy ta’lim muassasasi.

A DIDACTIC MODEL FOR DESIGNING AND PRELIMINARILY AUDITING A FRENCH-RUSSIAN-UZBEK TECHNICAL TERMINOLOGY DATABASE

Abstract. The study develops a didactic model for designing and auditing a French-Russian-Uzbek technical terminology database. The material comprised 1,000 entries in five fields. Comparative, semantic, contextual, and componential analyses identified five components of an educational entry. The audit classified 44 entries for correction, 87 for clarification, and 50 for specialist consultation; no inconsistencies were detected in 819 entries.

Keywords: professional French, technical terminology, multilingual terminology database, didactic design, linguodidactic audit, electronic dictionary, professional lexical competence, technical university.

Введение. Цифровизация языкового образования расширила использование электронных словарей, терминологических баз и мобильных приложений. Однако цифровая форма сама по себе не гарантирует научной точности и педагогической ценности ресурса. Для

технического вуза принципиально важно, чтобы многоязычная база не только обеспечивала быстрый поиск перевода, но и помогала студенту понять профессиональное понятие и использовать термин в соответствующей коммуникативной ситуации.

Государственные приоритеты развития высшего образования также связывают качество подготовки специалистов с освоением современных информационно-коммуникационных технологий и иностранных языков. В Указе Президента Республики Узбекистан от 11 июля 2019 года № УП-5763 эти направления определены как необходимые условия подготовки кадров, владеющих современными знаниями и квалификациями [1]. В данном контексте создание многоязычной цифровой терминологической базы выступает одним из средств профессионально ориентированного языкового обеспечения технического образования.

Профессиональная терминология выполняет одновременно познавательную, языковую и учебную функции. Через термин студент получает доступ к системе специальных понятий; через межъязыковые соответствия осваивает способы их обозначения; через определение и контекст учится распознавать и употреблять единицу в профессиональной речи.

Во французско-русско-узбекской базе необходимо согласовать три языковых обозначения с одним профессиональным понятием. Прямое словарное соответствие может оказаться недостаточным из-за многозначности, отраслевой вариативности, различий между общеупотребительным и специальным значением, а также отсутствия полностью закрепившегося национального эквивалента.

Цель исследования состоит в разработке дидактической модели проектирования и предварительного аудита многоязычной технической терминологической базы. Научная новизна заключается в объединении структуры учебной словарной записи и процедуры её проверки в единой модели. Практическая значимость определяется возможностью применять модель при совершенствовании электронных словарей, мобильных приложений и профессионально ориентированных заданий.

Обзор литературы

Исследования языка для специальных целей связывают содержание курса с профессиональными потребностями обучающихся, характеристиками специализированного регистра и типичными коммуникативными задачами [2–5]. Применительно к французскому языку данный подход предполагает отбор терминов и речевых действий на основе анализа конкретной профессиональной сферы [10].

Терминологическая работа строится на взаимосвязи объекта, понятия, определения и обозначения [6–9]. Поэтому межъязыковая эквивалентность должна устанавливаться не по внешнему сходству слов, а по совпадению профессиональных понятий и объёма значения.

Многоязычная терминография учитывает частичную эквивалентность, национальную вариативность, сосуществование заимствованных и собственных вариантов и различия между нормативным и фактическим употреблением [8; 9; 11–13]. Электронная форма облегчает поиск и обновление, но одновременно усиливает последствия неточности, поскольку цифровой ресурс воспринимается пользователем как готовый источник знания [7; 14; 15].

Для учебного электронного словаря принципиально важно дополнить понятийно-терминологическую точность дидактической функцией. Термин должен не только храниться в базе, но и становиться основой для распознавания, сопоставления, объяснения, контекстуализации и самостоятельного профессионального высказывания.

Дидактическая модель словарной записи

В предлагаемой модели словарная запись рассматривается как дидактическая

микромодель профессионального понятия. Она включает пять взаимосвязанных компонентов.

Таблица 1. Компоненты дидактической модели словарной записи

Компонент	**Содержание**	**Функция в обучении**
Понятийный	Существенные признаки и границы технического понятия	Предотвращает смешение близких терминов
Межъязыковой	Французское, русское и узбекское обозначения	Формирует точное сопоставление трёх языков
Отраслевой	Профессиональная область и норма употребления	Обеспечивает профильную уместность
Контекстуальный	Определение и типичный профессиональный пример	Показывает значение, сочетаемость и ситуацию употребления
Учебно-деятельностный	Предполагаемое действие обучающегося	Связывает запись с заданием и речевой деятельностью

Первые четыре компонента формируют содержательную основу существующей базы. Учебно-деятельностный компонент завершает её дидактическую структуру и реализуется через метку задания либо систему упражнений, связанных с конкретной словарной записью.

Методология исследования

Материалом исследования послужила французско-русско-узбекская техническая терминологическая база объёмом 1000 словарных записей.

Таблица 2. Распределение терминологических единиц по профессиональным направлениям

Профессиональное направление	**Количество записей**
Нефтегазовое дело	200
Электроника и автоматизация	200
Геология и горное дело	200
Энергетика	200
Механика и машиностроение	200
Всего	1000

Источник: составлено автором по материалам исследования.

Каждая запись включала французский термин, русское и узбекское соответствия, краткое определение, французский контекстный пример и указание профессионального направления. Исследование носило описательно-аналитический характер. Применялись

сопоставительный, семантический, контекстуальный и компонентный методы анализа, классификация несоответствий и количественная обработка результатов.

Для повышения воспроизводимости по каждой записи заполнялась аналитическая карта: код записи; французский термин; русский и узбекский эквиваленты; определение; контекстный пример; вид обнаруженного несоответствия; предлагаемое уточнение; уровень уверенности; итоговая категория. Если в записи выявлялось несколько проблем, в количественной статистике учитывалась одна, наиболее значимая категория.

Трёхуровневая процедура предварительного аудита

Таблица 3. Уровни предварительного лингводидактического аудита

Уровень	**Содержание проверки**	**Основной результат**
1. Языковая корректность	Форма французского термина, грамматическая правильность, точность русского и узбекского соответствий	Выявление явных языковых и переводческих несоответствий
2. Понятийно-отраслевая согласованность	Единство профессионального понятия, соответствие определения и отраслевой принадлежности	Выявление семантических и профильных расхождений
3. Учебная пригодность	Информативность определения и примера, доступность, возможность использования в задании	Оценка дидактической ценности записи

Источник: разработано автором.

Проверка проводилась в пять этапов: структурный контроль базы; межъязыковое сопоставление; анализ определения; оценка контекстного примера; распределение записей по итоговым категориям.

Таблица 4. Итоговые категории предварительного аудита

Итоговая категория	**Основание**
Обязательная коррекция	Выявлено явное языковое, переводческое или терминологическое несоответствие
Рекомендуемое уточнение	Основное значение передано, но формулировка требует повышения точности или нормативности
Консультация профильного специалиста	Окончательный выбор зависит от отраслевой нормы или профессионального контекста
Явные несоответствия не выявлены	Компоненты записи согласованы в пределах авторского предварительного анализа

Источник: разработано автором.

Трёхуровневая процедура обеспечивает разграничение языковых, понятийно-отраслевых и дидактических параметров качества словарной записи.

Анализ и результаты

Категория	Количество	Доля
Обязательная коррекция	44	4,4 %
Рекомендуемое уточнение	87	8,7 %
Консультация профильного специалиста	50	5,0 %
Явные несоответствия не выявлены	819	81,9 %
Всего	1000	100 %

Источник: составлено автором по материалам исследования.

Таким образом, 181 запись потребовала различной степени дополнительной работы. Основные проблемы включали смешение общеупотребительного и профессионального значения, неполную межъязыковую эквивалентность, несогласованность термина и определения, отраслевую вариативность и недостаточную учебную информативность примера.

Таблица 6. Примеры терминологических несоответствий и дидактических решений

Термин	Исходное несоответствие	Предлагаемое уточнение	Дидактическое значение
la résistivité électrique	RU: электрическое сопротивление; UZ: elektr qarshilik	RU: удельное электрическое сопротивление; UZ: solishtirma elektr qarshilik	Позволяет разграничить сопротивление и удельное сопротивление
la liaison pivot	RU: шарнирное соединение	RU: вращательная кинематическая пара; UZ: aylanma kinematik juftlik	Включает термин в понятийную систему механики
la mise en service	UZ: ishga tushirish смешивается с простым запуском	UZ: ekspluatatsiyaga kiritish; ishga tushirish – только для запуска	Разводит два профессиональных процесса
l’alarme	RU: аварийный сигнал; UZ: signalizatsiya	Контекстно различать предупредительный и аварийный сигнал	Учит выбирать эквивалент по ситуации

Источник: составлено автором по материалам исследования.

Обсуждение результатов

Полученные данные подтверждают, что многоязычная база не может оцениваться как простой перечень переводных соответствий. Единицей проектирования и проверки должна выступать целостная запись, объединяющая понятие, три языковых обозначения, определение, пример и предполагаемое учебное действие.

Достоинство трёхуровневой процедуры заключается в разграничении разных типов проблем. Явная языковая ошибка требует редакционной коррекции; частично приемлемый эквивалент – уточнения; профессионально спорный случай – решения профильного специалиста. Такой подход не позволяет автоматически считать всякую вариативность ошибкой.

Учебно-деятельностный компонент усиливает педагогическую направленность базы. На основе одной записи можно организовать распознавание термина в тексте, сопоставление эквивалентов, выбор определения, разграничение близких понятий, дополнение профессионального контекста и построение собственного высказывания.

Практическая реализация модели

Дидактическая доработка базы может строиться по принципу постепенного усложнения учебных действий.

Таблица 7. Последовательность учебных действий при работе с терминологической базой

Этап	**Пример учебного действия**
Распознавание	Найти термин в профессиональном тексте и определить его тематическую область
Сопоставление	Соотнести французский термин с русским и узбекским эквивалентами
Понимание	Выбрать определение и отличить термин от близкого понятия
Контекстуализация	Дополнить профессиональное предложение подходящей единицей
Продуцирование	Использовать термин при описании оборудования, процесса или ситуации

Источник: разработано автором.

Заключение и рекомендации

Разработана дидактическая модель, объединяющая проектирование структуры словарной записи и процедуру её лингводидактического аудита.

Структура записи представлена пятью компонентами: понятийным, межъязыковым, отраслевым, контекстуальным и учебно-деятельностным.

Трёхуровневая процедура позволяет последовательно оценивать языковую корректность, понятийно-отраслевую согласованность и учебную пригодность.

По результатам авторского предварительного анализа 44 записи отнесены к обязательной коррекции, 87 – к рекомендуемому уточнению, 50 – к консультации профильных специалистов; в 819 записях явные несоответствия не выявлены.

Предложенная модель обеспечивает системное проектирование многоязычной терминологической базы и её непосредственную интеграцию в профессионально ориентированное обучение французскому языку.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 июля 2019 года № УП-5763 «О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования».

2. Basturkmen H. Learning a specialized register: An English for Specific Purposes research agenda // Language Teaching. 2025. Vol. 58, No. 1. P. 57–68. DOI: 10.1017/S0261444823000472.

3. Basturkmen H. Ideas and Options in English for Specific Purposes. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006.

4. Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010.

5. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

6. ISO 704:2022. Terminology work – Principles and methods. Geneva: International Organization for Standardization, 2022.

7. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999.

8. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1990.

9. Pearson J. Terms in Context. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1998.

10. Mangiante J.-M., Parpette C. Le français sur objectif spécifique: de l’analyse des besoins à l’élaboration d’un cours. Paris: Hachette, 2004.

11. L’Homme M.-C. La terminologie: principes et techniques. Montréal: Presses de l’Université de Montréal, 2004.

12. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2000.

13. Wright S. E., Budin G. (eds.). Handbook of Terminology Management. Vol. 1. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1997.

14. ISO 1087:2019. Terminology work and terminology science – Vocabulary. Geneva: International Organization for Standardization, 2019.

15. ISO 12620-1:2022. Management of terminology resources – Data categories – Part 1: Specifications. Geneva: International Organization for Standardization, 2022.

16. Боймуродова Х. М. Использование цифровых технологий при обучении иностранных языков // Образование и инновационные исследования. 2024. № 5.

17. Юлдашев М. М. Тенденции исследований терминов в современной лингвистике // Образование и инновационные исследования. 2024. № 4.

18. Джураев Д. У. Лингвистическая характеристика полиязычной среды в процессе создания многоязычного электронного словаря географических терминов // Образование и инновационные исследования. 2022. № 9.

19. Ботирова А. А. Адаптация электронной формы грамматических учебных словарей к требованиям языкового корпуса // Образование и инновационные исследования. 2022. № 12. С. 179–189.

PEDAGOGIK LOYIHALASH ASOSIDA TALABALARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Olamova Mamura Umarovna
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0002-9305-9476

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik loyihalash asosida talabalarda axborot-konstruktiv kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda L. Dee Finkning "Maqsadli ta'lim loyihasi taksonomiyasi" asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, konstruktiv faoliyatni tashkil etish va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik loyihalashning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tajriba-sinov guruhlarida axborot-konstruktiv kompetensiya darajasi sezilarli oshganligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: pedagogik loyihalash, axborot-konstruktiv kompetensiya, raqamli kompetensiya, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, L. Dee Fink taksonomiyasi, metakognitiv strategiyalar, konstruktiv fikrlash, loyiha metodikasi, pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические и практические аспекты формирования информационно-конструктивной компетентности студентов на основе педагогического проектирования. В исследовании проанализирована эффективность современных педагогических технологий, интерактивных методов и методических подходов, разработанных на основе таксономии целенаправленного обучения Л. Ди Финка. Кроме того, обоснована роль педагогического проектирования в развитии у студентов навыков самостоятельного мышления, анализа информации, организации конструктивной деятельности и цифровых компетенций. Результаты исследования показали значительное повышение уровня информационно-конструктивной компетентности у студентов экспериментальных групп.

Ключевые слова: педагогическое проектирование, информационно-конструктивная компетентность, цифровая компетентность, интерактивные методы, инновационные технологии, таксономия Л. Ди Финка, метакогнитивные стратегии, конструктивное мышление, проектная методика, педагогические технологии, высшее образование.

Annotation. This article highlights the theoretical and practical aspects of developing students' information-constructive competence through pedagogical design. The study analyzes the effectiveness of modern pedagogical technologies, interactive methods, and methodological approaches based on L. Dee Fink's Taxonomy of Significant Learning. In addition, the importance of pedagogical design in developing students' independent thinking, information analysis, constructive activity organization, and digital competencies is substantiated. The research results demonstrated a significant increase in the level of information-constructive competence among students in the experimental groups.

Keywords: pedagogical design, information-constructive competence, digital competence, interactive methods, innovative technologies, L. Dee Fink taxonomy, metacognitive strategies, constructive thinking, project-based methodology, pedagogical technologies, higher education.

INTRODUCTION. Bugungi globallashuv va jamiyatning jadal axborotlashuvi sharoitida

ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - bo‘lajak kadrlar, xususan pedagoglarning axborot bilan ishlash madaniyatini yuksaltirishdir.[1] Zamonaviy pedagog nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni tahlil qiluvchi, konstruktiv qayta ishlovchi va yangi ta’limiy loyihalarni yaratuvchi mutaxassis bo‘lishi lozim [2].

Jahonda ta’limni raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. UNESCO bergan ma’lumotlar, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.[3] OECDning “Future of Education and Skills 2030” loyihasida “Transformative Competencies” tushunchasi ilmiy asoslanib, u axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, yangi bilimni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatni anglatadi, konstruktiv faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini hamda “axborot-konstruktiv kompetensiya”ning xalqaro mazmuni sifatida ko‘rishimiz mumkin.[4] Mazkur kompetensiyalar talabalarda axborot bilan ishlash, muammolarni hal qilish, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali zamonaviy mutaxassis tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.[5] Biroq, amaliyotda talabalarning axborot-konstruktiv kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatilmoqda, bu esa ushbu yo‘nalishda maxsus pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

METHODS

Talabalarning axborot-konstruktiv kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Finkning “Maqsadli ta’lim loyihasi taksonomiyasi” asosida tanlangan metodik yondashuvlar har bir bilim darajasiga mos tarzda qo‘llanilib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.[6] Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, refleksiya va metakognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.[7]

1. Bilimlarning fundamental asosi bosqichi – bu bosqichda talabalar asosiy tushunchalar va nazariyalarni o‘zlashtiradilar. Mazkur bosqichda “Xotira kartochkalari” metodikasini qo‘llashni lozim topdik. Bu usul pedagogik tushunchalarni yodlash, tezkor baholash va bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Amalda tatbiq etish bosqichi – o‘rganilgan bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash bosqichida “Loyiha metodikasi” qo‘llaniladi. Talabalar mustaqil va jamoaviy tarzda muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

3. Integratsiya bosqichi – turli fanlar va ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish uchun “Debat” metodikasidan foydalaniladi. Bu metod tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Shaxsiy rivojlanish bosqichi – talabaning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan o‘sishi uchun interaktiv usullar, suhbatlar va rolli o‘yinlar qo‘llaniladi. Bu jarayon o‘z-o‘zini anglash va emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradi.

5. O‘ziga jalb qilish bosqichi – bu bosqichda talabalarda kasbga ijobiy munosabat va motivatsiya shakllantiriladi. Bu jarayonda “Individual yondashuv” metodikasi qo‘llanilib, talabalar o‘z ehtiyojlari va hissiyotlarini inobatga olgan holda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. O‘z-o‘zini o‘rganish bosqichi – mustaqil o‘rganish, refleksiya va o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda “Metakognitiv strategiyalar” muhim rol o‘ynaydi. Bu bosqichda talabalar o‘z o‘rganish jarayonini boshqarishni, strategiyalar ishlab chiqishni va o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘rganadilar.

Tadqiqot jarayonida Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti va Urganch davlat pedagogika institutlarining «Maktabgacha ta’lim» yo‘nalishidan jami 513 nafar talaba ishtirok etdi.[8]

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil: Mavzuga oid ilmiy, metodik va elektron manbalarni qiyosiy o‘rganish.

Modellashtirish: Talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modelini yaratish.

Pedagogik eksperiment: Ishlab chiqilgan texnologiyani amaliyotga joriy etish va natijalarni tekshirish.

Matematik-statistik metodlar: Neyman bo‘yicha ishonch oralig‘ini aniqlash va olingan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish.

Metodik asos sifatida L. Dee Finkning «Maqsadli ta’lim loyihasi taksonomiyasi» tanlab olindi. Ushbu taksonomiya doirasida «Xotira kartochkalari», «Loyiha asosida o‘qitish», «Debat» va «Metakognitiv strategiyalar» kabi interfaol metodlar qo‘llanildi.

RESULTS

Finkning taksonomiyasidagi har bir bosqich uchun qo‘llanilgan metodikalar, o‘rganish jarayonini mukammal qilish, talabalar bilimlarini va ko‘nikmalarini oshirish uchun mo‘ljallangan. Shaxsiy yondashuv, metakognitiv strategiyalar, loyiha asosida o‘rganish, debat va rolli o‘yindan iborat metodikalar ta’lim jarayonini boyitadi, talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash va shaxsiy rivojlanishlarini oshirishga yordam beradi. Bu metodikalar, pedagogik jarayonning har bir bosqichida axborot-konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali vositalardir.

Tadqiqot natijasida talabalarda axborot-konstruktiv kompetensiyani shakllantirishning uchta darajasi (quyi-reproduktiv, o‘rta-samarali va yuqori-konstruktiv) aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida «Maktabgacha ta’limda matematik o‘yinlarni tashkil etish» fani doirasida talabalarning bilim darajasi sezilarli darajada o‘sgani kuzatildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra:

Tajriba guruhi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich: $4{,}44 \pm m_1$.

Nazorat guruhi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich: $3{,}43 \pm m_2$.

Tajriba guruhida sifat ko‘rsatkichi 1 dan yuqori bo‘lib, rivojlanish dinamikasi barqaror o‘sishni namoyon qildi. Bu esa tanlangan metodikaning an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda ancha samarali ekanligini tasdiqlaydi.

DISCUSSION

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot-konstruktiv kompetensiya shunchaki bilimlar majmuasi emas, balki talabaning motivatsiyasi, qadriyatlari va ijodiy faolligini birlashtiruvchi tizimli sifatdir.[9]

U. Sh. Begimqulov, N. A. Muslimov va Q. Olimov kabi olimlarning ishlaridan farqli o‘laroq, bizning tadqiqotimizda asosiy e’tibor pedagogik loyihalash va konstruktiv fikrlash integratsiyasiga qaratildi. Talabalarning 49 foizi « Maktabgacha ta’limda matematik o‘yinlarni tashkil etish» fani ularning professional kompetensiyasini oshirishini tasdiqlagan bo‘lsa-da, 42 foiz talabalar mazkur jarayonda raqamli modullarni kuchaytirish zarurligini bildirishgan.

Axborot-konstruktiv loyihalarni tayyorlash talabalarda yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, tashabbuskorlik va moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

CONCLUSION

Pedagogik loyihalash asosida axborot-konstruktiv kompetensiyani shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir.

L. Dee Fink taksonomiyasi asosida ishlab chiqilgan metodika talabalarda axborotni mustaqil

tahlil qilish va uni amaliyotda konstruktiv qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Eksperiment natijalari tajriba guruhida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va o‘quv modullari oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida keng qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. T., 2020.

Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2007.

Podlasiy I. P. Pedagogika. – Moskva: Vlados, 2008.

Muslimov N. A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2016.

UNESCO. Education in a Digital World. – Paris, 2021.

OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2019.

Fink L. D. Creating Significant Learning Experiences. – San Francisco, 2013.

Ishmuhamedov R., Yo‘ldoshev M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

Sidorenko E. V. Matematik-statistik metodlar. – Moskva, 2000.

Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2018.

Olimov Q. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK DISKURS REPERTUARINI TIZIMLASHTIRISH

Ochilova Nilufar Ulmasovna
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining pedagogik diskurs repertuari darsda takrorlanuvchi kommunikativ vazifalarni bajaradigan nutqiy janrlar va interaktiv harakatlar tizimi sifatida tadqiq etildi. Janriy tahlil, funksional tasniflash va pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali repertuarning darsni ochish, ma’noni qurish, ishtirokni boshqarish, baholash hamda darsni yakunlash domenlari aniqlandi. Har bir domen uchun kuzatiladigan janrlar va ularning asosiy diskursiv harakatlari ishlab chiqildi. Natija bo‘lajak o‘qituvchini umumiy ‘‘ravon gapirish’’ga emas, kasbiy vaziyatlar bo‘yicha maqsadli diskurs repertuariga tayyorlash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: diskurs repertuari, nutqiy janr, pedagogik vaziyat, dars interaksiyasi, o‘qituvchi nutqi, kasbiy tayyorgarlik

Аннотация. В статье репертуар педагогического дискурса будущего учителя иностранного языка исследуется как система речевых жанров и интерактивных ходов, обеспечивающих повторяющиеся коммуникативные задачи урока. Жанровый анализ, функциональная классификация и моделирование педагогических ситуаций позволили выделить домены открытия урока, совместного конструирования смысла, управления участием, оценивания и завершения урока. Для каждого домена определены наблюдаемые жанры и основные дискурсивные действия.

Ключевые слова: дискурсивный репертуар, речевой жанр, педагогическая ситуация, взаимодействие на уроке, речь учителя

Abstract. The article examines the pedagogical discourse repertoire of future foreign language teachers as a system of speech genres and interactional moves used to accomplish recurring classroom tasks. Genre analysis, functional classification, and pedagogical scenario modelling produced five domains: lesson opening, meaning construction, participation management, assessment, and lesson closure. Observable genres and core discourse moves are specified for each domain, shifting teacher preparation from generic fluency toward a purposeful professional repertoire.

Keywords: discourse repertoire, speech genre, pedagogical situation, classroom interaction, teacher talk

KIRISH. Bo‘lajak o‘qituvchilar ko‘pincha dars rejasini mazmun va vaqt bo‘yicha tuzadi, ammo ayni reja qanday nutqiy janrlar orqali amalga oshirilishini oldindan ko‘rmaydi. Natijada yaxshi tanlangan topshiriq noaniq ko‘rsatma sababli buzilishi, o‘quvchi javobi o‘qituvchi tomonidan erta yakunlanishi yoki baholash bir so‘zli maqtov bilan cheklanib qolishi mumkin. Muammo lug‘at yoki grammatik bilimning yetishmasligida emas, kasbiy vaziyatlarga mos pedagogik diskurs repertuarining shakllanmaganidadir.

Bakhtin nutqiy janrlarni muayyan faoliyat sohasida nisbatan barqaror shakllanadigan bayon turlari sifatida izohlaydi. Pedagogik jarayonda darsni ochish, ko‘rsatma berish, tushuntirish, savol bilan fikrni ochish, bahsni boshqarish, xatoga javob qaytarish va yakuniy umumlashtirish ham o‘ziga xos janriy kutishlarga ega. Biroq o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida bu janrlar ko‘pincha

umumiy “muloqot ko‘nikmasi” ichida erib ketadi.

Pedagogik diskurs repertuari faqat tayyor iboralar ro‘yxati emas. U maqsad, tuzilma, ishtirokchilar huquqi, til vositalari va kutiladigan javobni birlashtiruvchi harakat imkoniyatlari majmuasidir. Repertuarli yondashuv o‘qituvchiga bitta vaziyatni turli usulda tashkil etish, masalan, xatoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatish, ishora bilan o‘z-o‘zini tuzatishga undash yoki tengdosh yordamiga o‘tkazish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak chet tili o‘qituvchisiga zarur pedagogik diskurs janrlarini funksional domenlar bo‘yicha tizimlashtirishdan iborat. Asosiy savol: darsning bosqichlari emas, unda bajariladigan kommunikativ vazifalar mezon sifatida olinsa, kasbiy diskurs repertuari qanday tuziladi?

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot uchun nutqiy janr nazariyasi, sinf diskursi, dialogik ta’lim va konversatsion tahlilga oid manbalar tanlandi. Bundan tashqari, EPOSTLdagi darsni tashkil etish va o‘z faoliyatini baholash deskriptorlari hamda CEFRdagi interaksiya va mediatsiya faoliyatlari funksional birlik sifatida ko‘rib chiqildi. Tahlil birligi sifatida grammatik gap emas, muayyan pedagogik vazifani bajaradigan yakunlangan yoki ketma-ket nutqiy harakat olindi.

Janrlarni ajratishda besh mezon ishlatildi: kommunikativ maqsad; bosqichli tuzilma; o‘qituvchi va o‘quvchi roli; tipik til va paralingvistik vositalar; kutiladigan o‘quvchi javobi. Dastlab manbalarda qayd etilgan harakatlar ro‘yxatga olindi, so‘ng o‘xshash vazifalar funksional klasterlarga birlashtirildi. Takrorlanuvchi klasterlar pedagogik vaziyatlar bilan solishtirilib, repertuar domenlari va janrlar matritsasi yaratildi.

Tasnif normativ “eng yaxshi iboralar” katalogi sifatida emas, bo‘lajak o‘qituvchining tanlov imkoniyatini kengaytiruvchi ochiq tizim sifatida ishlab chiqildi. Turli yosh, til darajasi va dars maqsadida ayni janrning shakli o‘zgarishi mumkin; barqaror qoladigan jihat uning pedagogik vazifasi va interaktiv mantig‘idir.

NATIJALAR

Tahlil pedagogik diskurs repertuarini besh domen asosida tashkil etish mumkinligini ko‘rsatdi. Birinchi domen — darsni ochish va yo‘naltirish — salomlashuv, aloqa o‘rnatish, maqsadni birgalikda aniqlashtirish va faoliyat chegaralarini belgilash janrlarini qamrab oladi. Bu yerda o‘qituvchi nutqining vazifasi ma’lumot e’lon qilishdan ko‘ra, o‘quvchilarning e’tibori va kutilmalarini umumiy faoliyatga safarbar etishdir.

Ikkinchi domen — ma’noni birgalikda qurish — tushuntirish, modellashtirish, misollash, qayta ifodalash, kognitiv savol va o‘quvchi javobini kengaytirish janrlarini birlashtiradi. Mazkur domenning asosiy belgisi ma’noning o‘qituvchi tomonidan tayyor uzatilmasligi, balki savol, kutish, aniqlashtirish va taqqoslash orqali hamkorlikda hosil qilinishidir. Uchinchi domen — ishtirokni boshqarish — navbat berish, juftlik va guruh ishini boshlash, o‘tishni tashkil etish, jim o‘quvchini xavfsiz jalb qilish va mavzuni qayta markazlashtirish harakatlarini o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi domen baholash va rivojlantiruvchi qayta aloqaga tegishli. Unda diagnostik savol, aniqlashtiruvchi qayta aloqa, ishorali tuzatish, mezon bilan bog‘langan fikr, o‘zini baholashga undash va keyingi qadamni belgilash janrlari ajratildi. Beshinchi domen — yakunlash va ko‘chirish — o‘rganilgan ma’noni umumlashtirish, o‘quvchi refleksiyasini chaqirish, keyingi vazifaga ko‘prik qurish va darsni ijtimoiy jihatdan yopish janrlaridan iborat.

Har bir janr uchun uch darajali tayyorgarlik mantig‘i taklif etildi: tanish — bo‘lajak o‘qituvchi janrning maqsad va tuzilmasini ajratadi; moslashtirish — berilgan vaziyat uchun bir nechta diskurs variantini yaratadi; amalga oshirish — mikrodarsda variantni qo‘llab, o‘quvchi javobiga ko‘ra o‘zgartiradi. Bu ketma-ketlik tayyor iboralarni yodlashni kasbiy tanlov va adaptatsiyaga

aylantiradi.

Tadqiqotning yangi natijasi pedagogik diskurs repertuarining dars mavzulari yoki grammatik hodisalar bo‘yicha emas, kommunikativ vazifa va nutqiy janrlar bo‘yicha tuzilganidadir. Mazkur tasnif o‘quv fanlari orasida tarqoq holda uchraydigan ko‘rsatma berish, savol qo‘yish, tuzatish va yakunlash ko‘nikmalarini yagona professional repertuarga birlashtiradi.

1-jadval. Pedagogik diskurs repertuarining funksional domenlari

DomenAsosiy janrlarYetakchi natija

Darsni ochishAloqa o‘rnatish, maqsadni aniqlashtirish, chegaralashUmumiy faoliyatga yo‘naltirilganlik

Ma’noni qurishTushuntirish, modellashtirish, kognitiv savol, kengaytirishHamkorlikda anglangan ma’no

IshtirokniboshqarishNavbat berish, guruh ishini boshlash, qayta markazlashtirishTeng va maqsadli qatnashuv

BaholashDiagnostik savol, ishorali tuzatish, mezonli qayta aloqaKeyingi o‘quv harakati

YakunlashUmumlashtirish, refleksiya, ko‘chirish, ijtimoiy yopishMazmunning yangi vaziyatga ko‘chirilishi

MUHOKAMA

Sinf diskursining IRF — tashabbus, javob, qayta aloqa — ketma-ketligi ko‘plab darslarda uchrasa-da, repertuarni shu bitta model bilan cheklash o‘quvchi tashabbusi va kengaytirilgan dialogni kamaytiradi. Taklif etilgan tizim o‘qituvchiga ayni vazifani turli janr va harakatlar orqali bajarish imkonini beradi. Masalan, javobdan keyingi uchinchi harakat baho, aniqlashtiruvchi savol, tengdoshga uzatish yoki yangi muammo ochish shaklida bo‘lishi mumkin.

Repertuar tushunchasi standartlashtirish bilan moslashuvchanlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi. O‘qituvchi tayyor nutq skriptiga qaram bo‘lib qolmasligi kerak, biroq kasbiy faoliyatning asosiy janrlarini anglamasdan turib vaziyatga mos improvizatsiya ham qila olmaydi. Shu ma’noda repertuar — improvizatsiyaning cheklovi emas, uning professional bazasidir.

Tasnifni ta’lim amaliyotiga kiritishda har bir janrni alohida ma’ruza mavzusi qilish emas, video kuzatuv, transkript tahlili, muqobil ifoda yaratish va mikrodarsda sinash orqali o‘zlashtirish maqsadga muvofiq. Kelgusi empirik tadqiqotlar turli bosqichdagi talabalar qaysi janrlarda ko‘proq qiyinchilikka duch kelishini va repertuar kengligi darsdagi o‘quvchi ishtiroki bilan qanday bog‘lanishini tekshirishi zarur.

XULOSA. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining pedagogik diskurs repertuari besh funksional domen va ularga tegishli nutqiy janrlar tizimi sifatida asoslandi. Repertuar yondashuvi kasbiy tayyorgarlikni umumiy ravonlikdan dars vaziyatlarida maqsadga muvofiq nutqiy tanlov qilish darajasiga olib chiqadi. Taklif etilgan matritsa o‘quv moduli, kuzatuv varaqasi va mikrodars topshiriqlarini loyihalash uchun mazmuniy asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bakhtin M. M. Speech Genres and Other Late Essays. Austin: University of Texas Press, 1986.

2. Sinclair J. M., Coulthard M. Towards an Analysis of Discourse: The English Used by Teachers and Pupils. Oxford: Oxford University Press, 1975.

3. Walsh S. Investigating Classroom Discourse. London: Routledge, 2006.

4. Walsh S. Exploring Classroom Discourse: Language in Action. London: Routledge, 2011. DOI: 10.4324/9780203827826.

5. Seedhouse P. The Interactional Architecture of the Language Classroom. Malden, MA:

Blackwell, 2004.

6. Alexander R. A Dialogic Teaching Companion. London: Routledge, 2020.

7. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume. Strasbourg, 2020.

8. Newby D. et al. European Portfolio for Student Teachers of Languages. Graz: ECML, 2007.

9. Goffman E. Forms of Talk. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981.

10. Mercer N. Words and Minds: How We Use Language to Think Together. London: Routledge, 2000.

INTEGRATING TECHNOLOGICAL, PEDAGOGICAL, AND CONTENT KNOWLEDGE TO ENHANCE STUDENTS' ENGLISH WRITING COMPETENCE

Omonova Maftuna Shermatovna,
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotation. This article examines the development of foreign language communicative competence, encompassing the full range of its constituent components, constitutes the primary objective of foreign language education at language-oriented higher education institutions. This concept reflects the evolution of scholarly thought in the field, within which several key figures and theoretical contributions can be identified.

Keywords: integrating, technological, pedagogical, content knowledge, enhance, students, English writing competence, theoretical contributions.

Introduction. The foundations of the communicative approach are commonly associated with the American sociolinguist Dell Hymes, who introduced the concept of communicative competence and elaborated its theoretical foundations during the 1960s and 1970s. Hymes [3] proposed this concept as an extension of the theory advanced by his predecessor, Noam Chomsky [3], who conceptualized linguistic competence primarily as an idealized knowledge of language, involving mastery of its phonological, lexical, and grammatical rules. In his seminal work On Communicative Competence, Hymes [4] argued that successful communication requires more than the ability to construct grammatically and lexically correct sentences. Language users must also possess knowledge of the rules governing the appropriate use of language in particular communicative situations. Accordingly, communicative competence entails consideration of the social and cultural dimensions of communication.

The concept of the communicative approach was subsequently developed in the works of Canadian scholars Michael Canale and Merrill Swain, who in 1980 proposed a structural model of foreign language communicative competence. Their model distinguished several interrelated components, including grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic competence [5]. This conceptual framework subsequently provided an important theoretical basis for the development of numerous contemporary communicative approaches and methodologies in foreign language teaching. Scholarly interest in the communicative methodology of foreign language teaching continued to increase, as evidenced by a substantial body of research proposing various structural models of foreign language communicative competence and describing strategies for its development [1]; [2].

Literature review. Table 1 presents the most significant scholarly works that have contributed to the development and conceptualization of the broader framework of communicative foreign language teaching methodology.

Table 1.

Genesis and Variability of the Concept of "Foreign Language Communicative Competence" (FLCC) in Researchers' Works

Author Year Structure of Competence Contribution to Foreign Language Teaching Methodology

D. Hymes 1962 No formalized structure was proposed; however, four criteria for assessing foreign language use were identified: grammatical feasibility (compliance with the rules of the language system); psycholinguistic feasibility (the ability to process and produce language

in the process of communication); sociocultural appropriateness; frequency of use in speech. Indicated the inadequacy of relying exclusively on grammatical competence and developed the conceptual foundations for the future communicative approach.

Table 1.

Genesis and Variability of the Concept of “Foreign Language Communicative Competence” (FLCC) in Researchers’ Works

Author	**Year**	**Structure of Competence**	**Contribution to Foreign Language Teaching Methodology**
D. Hymes	1962	No formalized structure was proposed; however, four criteria for assessing foreign language use were identified: grammatical feasibility (compliance with the rules of the language system); psycholinguistic feasibility (the ability to process and produce language in the process of communication); sociocultural appropriateness; frequency of use in speech.	Indicated the inadequacy of relying exclusively on grammatical competence and developed the conceptual foundations for the future communicative approach.

Table 1. Genesis and Variability of the Concept of “Foreign Language Communicative Competence” (FLCC) in Researchers’ Works — Continued

Author	Year	Structure of Competence	Contribution to Foreign Language Teaching Methodology
M. Canale, M. Swain	1980	4 components of FLCC: grammatical competence; sociolinguistic competence; discourse competence; strategic competence.	Developed a practical model of FLCC, which became a standard framework for designing foreign language teaching programs and assessment procedures.
S. J. Savignon	1983	4 components of FLCC: grammatical competence; discourse competence; sociocultural competence; strategic competence.	Viewed FLCC as developing through the practice of authentic communication and emphasized the empirical validity of the communicative approach.
J. A. van Ek	1986	6 components of FLCC: linguistic competence; sociolinguistic competence; discourse competence; strategic competence; sociocultural competence; social competence.	Expanded the FLCC model within the framework of the Council of Europe. Emphasized social readiness for communication and consideration of the cultural background of communication; contributed

			to the development of threshold levels (*Threshold*) for Council of Europe documents.
L. F. Bachman	1990	3 components of FLCC: organizational competence (grammatical and textual competence); pragmatic competence (illocutionary and sociolinguistic competence); language ability (strategic competence and psychophysiological mechanisms). In a later version, the content of the language ability component was modified and expanded (Bachman & Palmer, 1996).	Emphasized the functions and intentions of speakers; the findings of his research influenced the development of standardized language proficiency tests, including TOEFL, and other standardized foreign language examinations.
I. L. Bim	1988	5 components of FLCC: linguistic competence; speech competence; sociocultural competence; compensatory competence; learning and cognitive competence.	Incorporated the learning and cognitive component into the structure of FLCC, understood as the ability to learn; adapted the FLCC structure to the national educational system and the independent learning activities of students.
E. I. Passov	1991	Did not distinguish specific components of FLCC, but identified the mechanisms underlying its development, including speech skills and speech abilities.	Developed the functional model of FLCC; communicative competence is regarded as an individual's ability to engage effectively in foreign language communication.
Author	Year	Structure of Competence	Contribution to Foreign Language Teaching Methodology
E. I. Passov *(continued)*	1991	Did not distinguish specific components of FLCC, but identified the mechanisms underlying its development: speech skills; speech abilities; situational conditioning of	Developed the functional model of FLCC; communicative competence is regarded as an individual's ability to effectively solve communicative tasks by

		speech, viewed as a communicative situation; functional strategy of communication, aimed at solving communicative tasks; moral dimension, understood as education and personal development through communication.	means of a foreign language. The model also incorporates an educational dimension into the structure of competence.
V. V. Safonova	2004	Multilevel model of FLCC: Level 1 – communicative component; Level 2 – speech/language and sociocultural components; Level 3 – linguo-ethnographic, sociolinguistic, and cultural studies components.	Developed a hierarchy of FLCC components and proposed a transition from a linguo-cultural approach toward a broader sociocultural approach. The model contributed to the development of the Russian academic tradition by expanding the understanding of foreign language communicative competence beyond the framework of dialogue between two cultures.

The analysis of the structural models of foreign language communicative competence presented in Table 1 demonstrates that contemporary language pedagogy has moved decisively away from viewing a foreign language as merely a collection of isolated lexical and grammatical knowledge. Instead, the focus has shifted towards the learner as an active participant in communication and towards the development of their ability to address authentic communicative tasks. Within the framework of the communicative approach, it would therefore be reasonable to assume that all types of language activity should be developed on an equal basis. Historically, however, the development of these skills has followed a somewhat different trajectory.

A retrospective analysis of the relevant scholarly and methodological literature indicates that research attention has predominantly focused on oral forms of communication. Among the major types of language activity, writing remained relatively marginalized within the communicative approach for a considerable period, giving rise to certain methodological contradictions. On the one hand, virtually all of the structural models of foreign language communicative competence discussed above recognize writing as a fully developed type of language activity alongside speaking, listening, and reading. For example, in I.L.Bim's model [1], language competence encompasses the development of learners' ability to produce written texts. Similarly, V.V.Safonova's model [2] emphasizes the importance of developing the ability to record and convey sociocultural information in written form.

On the other hand, in actual teaching practice, writing instruction has frequently been reduced

either to substitution-based exercises or to traditional activities such as dictation and written reproduction of texts. Such practices fundamentally contradict the underlying principles of the communicative approach, according to which writing should function as a purposeful means of communication rather than merely as an instrument for reinforcing linguistic forms.

Consequently, at different stages in the historical development of foreign language teaching methodology, two interrelated issues emerged as particularly significant: first, recognition of the necessity to teach writing as an independent and fully developed type of language activity; and second, the development of effective strategies for fostering and assessing learners' writing skills within the framework of the communicative approach.

Discussion. Writing in the narrow sense is understood exclusively as a technical skill encompassing calligraphic, orthographic, and punctuation-related operations. The content of instruction in writing involves encoding speech sounds into graphic symbols, i.e., letters, ensuring the graphically correct representation of words, observing spelling conventions, and using punctuation appropriately. The primary aim of writing instruction is the accurate reproduction of linguistic material in written form, while the nature of this activity is predominantly reproductive, that is, mechanical. The outcome of writing is generally regarded as a graphically and orthographically correct word, phrase, or sentence. Within the foreign language teaching system, writing serves primarily as an instrument for reinforcing vocabulary and grammatical structures, as well as for administering written assessments and dictations. In terms of the previously discussed models of foreign-language communicative competence, writing in this narrow sense should be attributed to language, or linguistic, competence.

Written discourse, by contrast, constitutes a productive form of speech activity and presupposes a conscious ability to generate coherent and meaningful utterances in written form. In terms of its content, written discourse involves constructing new meanings, organizing and structuring ideas, and selecting appropriate linguistic resources with due consideration of the intended audience, genre, and communicative situation. The aim of teaching written discourse is to enable learners to produce messages or texts that fulfil a particular pragmatic purpose, whether to convey information, persuade, make a request, or express emotions. This type of activity is productive and creative in nature and, consequently, is characterized by a high degree of learner motivation.

The outcome of written discourse is a coherent and complete written text—such as a personal letter, essay, article, questionnaire, or other genre—that possesses semantic value and structural completeness. Within the framework of foreign-language education, written discourse is associated with communicative, discourse, sociocultural, and compensatory competences, since it requires learners to develop the ability to establish coherence and cohesion between events, ideas, and phenomena; construct logical relationships; take into account the sociocultural conventions of the target language; anticipate potential responses to written messages; and observe the formal conventions governing the organization and presentation of written texts.

Conclusion. Thus, according to instructional and methodological literature, the content of teaching written communication should be aimed at developing communicative strategies and fostering the skills that enable learners to become active participants in written communication. Accordingly, at the initial stage, the instructional process involves the development of fundamental technical writing skills, including handwriting, spelling, and punctuation. At subsequent stages, instruction should focus primarily on developing learners' written communicative competence and their ability to produce coherent and meaningful written discourse.

Thus, effective English writing instruction should progress from the acquisition of fundamental technical writing skills to the systematic development of written communicative competence.

Particular emphasis should be placed on communicative strategies that enable students to produce coherent, accurate, and contextually appropriate written texts and to participate actively in written communication.

References:

1. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку. М.: Просвещение, 1988. – 256 с.
2. Сафонова В.В. Коммуникативная компетенция: современные подходы к многоуровневому описанию в методических целях. – М.: Еврошкола, 2004. – 236 с.
3. Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague / Paris: Mouton, 1957. –117 p.
4. Hymes D. On Communicative Competence. In Sociolinguistics: Selected Readings. John B. Pride and Janet Holmes, eds. Harmondsworth: Penguin, 1972. – Pp. 269-293.
5. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – № 1. – Pp. 1-47.
6. Сарсенбаева З. Analysis of images and symbols in english non-realistic works //Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 229-232.
7. Сарсенбаева З. Модернизм в узбекской литературе и интерпретация образов // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 193-199.
8. Zoya S. LITERARY ANALYSIS OF DAVID MITCHELL'S WORKS IN ENGLISH LITERATURE //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – Т. 2. – №. 41. – С. 11-19.
9. Zoya S. LITERARY ANALYSIS OF ULUGBEK HAMDAMOV'S WORKS IN UZBEK LITERATURE //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – Т. 2. – №. 41. – С. 20-25.
10. Sarsenbaeva Z. MODERN APPROACHES TO TEACHING LITERARY TERMS IN COMPARATIVE LITERATURE //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2026. – Т. 7. – №. 02. – С. 198-209.
11. Belgibayeva G., Sarsenbaeva Z., Zhumagulova K. MAG 'JAN JUMABAYEV IJODIDA OZODLIK G 'OYASI //Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – Т. 3. – №. 1. – С. 159-165.
12. Sarsenbayeva Z., Zillolova G. COMPARATIVE ANALYSIS OF TWO TRANSLATED VERSIONS OF A LITERARY TEXT //Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 183-188.
13. Sarsenbayeva Z., Zillolova G. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДВУХ ПЕРЕВОДНЫХ ВЕРСИЙ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА //Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 183-188.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SANOAT INTEGRATSIYASI SHAROITIDA MUHANDISLIK TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOLARI

Parmonov Abdutolib Abduvahob o'g'li
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, PhD pabdutolib@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik ta'limidagi tizimli muammolar - talaba va o'qituvchi o'rtasidagi kommunikatsiya uzilishlari, motivatsiya va baholashdagi tafovutlar, texnologiyadan foydalanishdagi nomuvofiqliklar, shuningdek, ishlab chiqarish bilan integratsiyaning sustligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud muammolar sababli talabalarda amaliy kompetensiyalar yetishmasligi, o'qituvchilarda esa ta'lim samaradorligiga bo'lgan ishonch pasayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelayotgani ko'rsatib berilgan. Muallif ushbu muammolarga yechim sifatida sanoat bilan integratsiyalashgan, raqamli va interaktiv metodlarga asoslangan ta'lim modelini taklif etadi. Shuningdek, talaba, o'qituvchi va ishlab chiqarish bo'g'ini o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar. Muhandislik ta'limi, talaba-o'qituvchi munosabatlari, raqamli texnologiyalar, motivatsiya, dual ta'lim, sanoat integratsiyasi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, baholash tizimi, interaktiv metodlar, soft-skills.

Kirish. Zamonaviy muhandislik ta'limi bugungi kunda nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarda real ishlab chiqarish sharoitida faoliyat yurita oladigan kompleks kompetensiyalarni shakllantirishni ham talab qilmoqda. Biroq ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi kommunikatsion uzilishlar, motivatsiya va baholashdagi tafovutlar, shuningdek, texnologik yangiliklarga munosabatdagi nomuvofiqliklar bu jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, talabalarning ishlab chiqarish sohasiga tayyor emasligi, sanoat bilan amaliy aloqalarning sustligi muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ko'plab xorijiy tadqiqotlar muhandislik ta'limida zamonaviy metodlar, sanoat bilan integratsiyalashgan yondashuv va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish muhimligini ta'kidlamoqda [1;2]. Shu bilan birga, talaba-o'qituvchi munosabatlarini faollashtirish, ularni sheriklik asosida tashkil etish orqali ta'lim sifati va motivatsiyani oshirish mumkin [3].


Ushbu maqolada muhandislik ta'limi tizimidagi mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda ularga zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlar asosida taklif etiladigan yechimlar ilgari suriladi. Xususan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, texnologiyadan foydalanishdagi tafovut, baholash shaffofligi, shuningdek, ta'lim va ishlab chiqarish bog'liqligi kabi jihatlar chuqur ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Barchamizga ma'lumki, ta'lim - har bir insonning asosiy huquqi, va taraqqiyot jarayonlarining yuragidir. Respublikamizda barcha iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar va rivojlanishlar qatorida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ham turli xil hozirgi zamon talablariga hamohang ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5847-sonli Farmoni bugungi texnologik zamonga mos kadrlarni tayyorlashda poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi ishlab chiqarish, sanoat texnikasi va texnologiyalari tezkorlik bilan takomillashib borayotgan zamonda, bu yangilanishlarga moslashib keta oladigan, har qanday yangiliklarni qabul qila oladigan bilimli, malakali kadrlarga har qachongidan ham ehtiyoj yuqori bo'lib bormoqda.

Ushbu tadqiqotda muhandislik ta'limida mavjud bo'lgan tizimli muammolar - jumladan,

talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya, metodik yondashuvlar tafovuti, baholashdagi adolatlilik, sanoat bilan integratsiyadagi uzilishlar kabi jihatlar tahlil qilindi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) metodlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot deskriptiv va analitik xarakterga ega bo‘lib, mavjud holatni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Asosiy maqsad – muammolarni aniqlash, ularning sabablarini ochib berish va ilmiy asoslangan yechimlar taklif qilishdir.

Muhandislik ta’limini rivojlanishi uchun quyidagi berilgan tizimli yondashuv (ta’lim zanjiri) muhim ro‘l o‘ynaydi (2-rasm).



2-rasm. Muhandislik ta’limini rivojlanishi tizimli yondashuv (ta’lim zanjiri).

Yuqorida berilgan sistemani har bir bo‘g‘inidagi yutuqlar, kamchilik va muammolarni tahlil qilib chiqamiz.

1. Muhandislik ta’limi o‘quv-me’yoriy hujjatlar asosida, ishlab chiqarish uchun kompetentli kadr yetishtirishni maqsad qilgan o‘qituvchi-talaba o‘rtasidagi jarayon bo‘lib, bunda umumtexnika fanlari asosiy ya’ni fundamental ro‘l o‘ynaydi. Zero, binoni mustahkamligi va uzoq xizmat qilishi binoning poydevoriga bog‘liqligi sababli, UTF ham shunday vazifaga ega.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasida quyidagi muammolarni ko‘rib chiqamiz:

Kommunikatsiya va o‘zaro tushunmovchilik, bunda o‘qituvchilar ko‘pincha texnik tilda, murakkab ifodalar bilan dars o‘tadi, bu esa talabalar uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Bu holat — o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali kommunikatsiya yetishmasligi — muhandislik ta’limida keng tarqalgan muammolardan biri.

Soddalashtirilgan va talaba markazli tilda izohlash. Texnik atamalarni oddiy, real hayotiy misollar orqali tushuntirish. Har bir yangi tushuncha uchun analogiyalardan foydalanish (“Nuqta atrofidagi qo‘zg‘almas harakat – vildiroqning harakati” kabi). Meyer va Land “threshold concepts” nazariyasida, murakkab tushunchalarni talabaning tushunish dunyosiga mos ravishda “qayta kodlash” zarurligini ta’kidlaydi[4].

Psixologik xavfsiz muhit yaratish. “Savol yo‘q – xato yo‘q” tamoyili. Har bir darsda “noaniqlik soati” (muddatli savol-javob vaqtini) joriy etish. “Edmondson ta’kidlaganidek, “talaba o‘zini ayblanmaslik xavfsizligida his qilganda, u faolroq savol beradi va fikr bildiradi”[5].

Ikki tomonlama fikr almashinuvi va feedback tizimi. Har oyda anonim so‘rovnoma yoki Google Form orqali talabalar fikrini olish: darsning tushunarli qismi, murakkab nuqtalari, o‘qituvchi yondashuvi haqida. Hattie va Timperley “samarali feedback nafaqat o‘qituvchidan talaba tomon, balki aksincha yo‘nalishda ham bo‘lishi kerak”[6] deydi.

O‘quv metodikasi va o‘rganish uslublaridagi tafovut, o‘qituvchilar an’anaviy “ma’ruza – seminar” modelida ishlashga odatlangan, ammo talabalar ko‘proq interaktiv, vizual, tajribaga asoslangan o‘qitishni xohlashadi. Bu muammo - pedagogik uslublar va o‘rganish uslublari o‘rtasidagi tafovut — ayniqsa zamonaviy raqamli avlod (Z avlodi) bilan ishlayotganda dolzarb masala hisoblanadi. Bu muammoning yechimlari sifatida quyidagilarni qarash mumkin:

Faol o‘qitish (Active learning) strategiyalarini joriy etish. Har 15-20 daqiqada mini-diskussiya, “fikrlar almashinuvi”, yoki “savol-javob pauzasi” kiritish. Prince “faol o‘qitish talabalar bilimini chuqurlashtirishda ma’ruza uslubidan samaraliroq” [7] ekanini ta’kidlaydi.

Multimodal o‘rganish uslublarini integratsiya qilish. Vizual (sxemalar, videolar), audial (podkastlar, ovozli sharhlar), kinestetik (modellar, laboratoriya ishlari) uslublar uyg‘unligi. Fleming va Baume o‘quvchilarning o‘zlariga mos uslubda taqdim etilgan axborotni yaxshiroq o‘zlashtirishlarini aniqlagan[8].

O‘qituvchilarning metodik ko‘nikmalarini yangilash. O‘qituvchilar uchun innovatsion pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslari (flipped learning, case-based learning, gamifikatsiya). Laurillard “pedagogikaning raqamli transformatsiyasi o‘qituvchining roli va o‘quv dizaynini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi” [9], deya ta’kidlaydi.

Talabaning passivligi va o‘qituvchining noroziligi, bunda ko‘p o‘qituvchilar talabalarni sust, mas’uliyatsiz, o‘qishga nisbatan loqayd deb hisoblaydi. Aksincha, talabalar esa o‘qituvchini motivatsiyalantira olmaydigan, faqat baho qo‘yishga urg‘u beradigan shaxs sifatida ko‘radi.

Bu muammoni oldini olish yoki yechish uchun quyidagi usullar tavsiya etiladi:

O‘zaro empatiya va kutishlar muvofiqligi (Mutual understanding), ya‘ni Dars boshida kutishlar muhokamasi: semestr avvalida talabalar va o‘qituvchilar bir-biridan nimani kutishini ochiq muhokama qiladi (shu jumladan, darsning uslubi, topshiriqlar, baholash). Talaba va o‘qituvchi kutishlari o‘zaro mos bo‘lsa, o‘qitish sifati sezilarli oshadi[10].

Motivatsion dialog va refleksiv metodlar, har bir moduldan keyin refleksiya mashg‘ulotlari (nima o‘rganildi, nima yoqdi, nima o‘zgartirish kerak) o‘tkazish. O‘qituvchi tomonidan motivatsion hikoyalar, kasbga oid hayotiy real holatlar bilan darslarni boyitiladi. Bu usul orqali o‘qituvchi o‘zini tanqidiy tahlil qilsa va o‘z faoliyatini ochiq muhokama qilsa, talabalar ham mas’uliyatni his qiladi[11].

Rag‘batlantirishni diversifikatsiya qilish, faqat baho emas, balki rag‘batlantirishning boshqa shakllari (og‘zaki maqtov, guruh oldida tan olish, gamifikatsiya orqali belgilar berish). O‘qituvchiga ham faol talabalar tomonidan “eng yaxshi sharh”, “eng foydali maslahat” kabi baholar qo‘yish. Insonlar e’tirof va erkinlik his qilgandagina o‘z faoliyatiga chin yurakdan yondashadi [12].

Texnologiyadan foydalanishda tafovut, o‘qituvchilar yangi texnologiyalarni (onlayn platformalar, simulyatorlar, kodlash muhiti) bilmasligi yoki foydalanishni istamasligi mumkin. Talabalar esa raqamli vositalardan faol foydalanadi va shu orqali o‘rganishni qulayroq deb hisoblaydi. Bu muammo - “raqamli tafovut” (digital divide) deb nomlanadi va ayniqsa muhandislik ta’limida keskin seziladi. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida texnologiyalarga bo‘lgan munosabat farqi o‘quv jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Quyida bu vaziyatga mos ilmiy asosdagi yechimlarni keltiramiz:

O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogikani rivojlantirish. Bu haqida Ertmer va Ottenbreit-Leftwich shunday ta’kidlaydi: o‘qituvchilar texnologiyani faqat bilishlari emas, unga bo‘lgan ishonch ham rivojlangan bo‘lishi lozim[13]. Demak o‘qituvchi texnologiyadan nafaqat foydalanish, balki uni didaktik jihatdan o‘rinli qo‘llash bo‘yicha treninglar o‘tkazish. O‘qituvchilar uchun peer-learning (ya’ni, tajribali o‘qituvchilar tomonidan master-klasslar) amaliyoti tashkil etilishi shart.

Blended Learning – aralash ta’lim modelini joriy etish. Blended learning modelini

zamonaviy muhandislik ta’limi uchun eng samarali model hisoblanadi [14]. Ma’ruza - an’anaviy formatda, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlar – onlayn platformalarda (Google Classroom, Hemis, Moodle, nazmex.jbnuu.uz va h.k.). Bu talabalarning texnologiyaviy imkoniyatlarini inobatga olib, o‘qituvchiga ham asta-sekin moslashish imkonini beradi.

Talabalarni o‘qituvchilarga “raqamli yordamchi” sifatida jalb etish. Bu haqida Bennett shunday deydi, talabalarning raqamli kompetensiyasini muallimlar bilan o‘rtoqlashish - o‘zaro motivatsiyani kuchaytirishini isbotlagan [15]. “Reverse mentoring” – talabalar o‘qituvchilarga texnologiyalarni o‘rgatadi, bu esa ikki tomonlama hurmat va hamkorlikni mustahkamlaydi. Masalan, talabalar simulyator dasturlarini (Ansys, Tinkercad, Code.org, Replit) ko‘rsatib berishi mumkin.

Baholash mezonlari va adolatlilik, talabalar ko‘pincha baholash mezonlari shaffof emasligidan shikoyat qilishadi. O‘qituvchilar esa talabalarning topshiriqlarni sifatli bajarmasligini yoki belgilangan talablarni tushunmasligini muammo deb bilishadi. Bu muammo - baholashdagi shaffoflik va adolatlilik yetishmasligi — butun dunyoda ta’lim sifatiga ta’sir qiladigan asosiy omillardan biridir. Muhandislik ta’limi kabi aniq natijalar talab qilinadigan sohalarda bu masala yanada muhimroq.

Baholash mezonlarini oldindan va aniq e’lon qilish. Har bir topshiriq uchun rubrikalar (baholash jadvallari) tuzish. Rubrikalarda aniq mezonlar: masalan, “Loyiha sifati – 30 ball”, “Innovatsion yondashuv – 20 ball”, “Rasmiylashtirish talablari – 10 ball” kabi bandlar bo‘lishi. Bu haqida Brookhart “baholashda shaffoflik talaba ishonchini oshirib, ta’lim sifatini yaxshilashi”ni ta’kidlaydi[16].

Formativ baholash va oraliq fikr-mulohaza. Yakuniy bahodan oldin oraliq fikr-mulohazalar berish: “Sen loyihani yaxshi boshlading, lekin texnik tavsifni kengaytirishing kerak” kabi. Formativ baholash orqali talaba xatolarini vaqtida ko‘rib chiqadi va tuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Bu haqida Sadlerning fikricha, “samarali fikr-mulohaza talabani baho olish uchun emas, balki o‘sish uchun o‘qishga undaydi”[17].

Baholashda talabani jalb qilish. Talabalar o‘z baholash mezonlarini ishlab chiqishda (kamida ba’zi bandlar uchun) ishtirok etishlari mumkin. Masalan, “Innovatsiya uchun 10 ball” mezonini talabalarning o‘zlari aniqlab olishadi. Andrade ta’kidlaganidek, “talabani baholash jarayoniga jalb qilish ularni mas’uliyatli va faol o‘quvchilarga aylantiradi”[18].

Motivatsiya va maqsadlardagi farq, ba’zi talabalar muhandislikni tanlashda chin dildan qiziqmagan bo‘lishi mumkin – bu o‘qituvchining motivatsiyasini ham tushiradi. O‘qituvchilar esa o‘zlarini ko‘proq nazoratchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida ko‘rishni istaydi.

Bu muammo eng og‘riqli muammolardan bo‘lib, buni quyidagi usullar yordamida yechish tavsiya etiladi:

Purpose-Driven Learning (maqsadga yo‘naltirilgan o‘qitish), talabaga muhandislik fanining jamiyatdagi rolini va foydasini tushuntirish orqali ichki motivatsiyani shakllantirish. Loyihalarda ijtimoiy foyda keltiradigan real muammolarni hal qilishni tashkil etish[19].

Autonomy and Choice (tanlov erkinligi), talabaga ba’zi topshiriqlarda yo‘l tanlash imkoniyati berish (masalan, loyiha mavzusini tanlash, taqdimot uslubini tanlash). O‘ziga mos yo‘nalish bo‘yicha kichik erkinlik berilishi talabaning o‘z ishiga egalik hissini oshiradi[20].

Mentorlik roli (o‘qituvchining transformatsiyasi), o‘qituvchi o‘zini faqat nazoratchi emas, balki motivator va murabbiy sifatida tutadi. Shaxsiy suhbatlar, maslahatlar va talabani individual o‘sishga yo‘naltirish orqali bog‘lanishni kuchaytiradi[21].

Muhandislik ta’limida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqalar ko‘plab murakkabliklar bilan to‘qnashadi. Bu muammolar faqat shaxsiy emas, balki tizimli va metodik xususiyatga ega.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muammolar - bu faqat kommunikatsiya masalasi

emas, balki ta’lim jarayonini loyihalash, metodik yondashuvlar, texnologiyaga munosabat va motivatsiya singari chuqur ildizlarga ega tizimli muammolardir. Bu muammolarni hal etish uchun talaba markazli yondashuv, psixologik xavfsizlik, samarali feedback, innovatsion pedagogika, va raqamli vositalardan foydalanish asosida o‘zaro ishonchli va faol o‘rganish muhiti yaratish zarur.

Muhandislik ta’limida o‘qitiladigan fanlar ta’lim yo‘nalishiga, darajasiga (bakalavr, magistratura) va ixtisoslashuviga qarab farqlanadi. Bizning tadqiqotimizda asosan 60720800 – “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish” va 60720705 – “Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo‘yicha)”, 60712300 – “Mexanika muhandisligi”, 60540200 – “Amaliy matematika”, 60540300 – “Matematik injiniring (ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalarining umumtexnik kompetentligini rivojlantirish maqsad qilib olingan. Bu yo‘nalishlarga o‘qitiladigan muhandislik fanlari ichida Mexanika (NM, MQ, MMN, MD) kursining “Nazariy mexanika” fani misolida innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish maqsad qilingan.

2. Mamlakatimiz tarixida so‘ngi o‘n yillikda davlat siyosati darajasida o‘qituvchilarga alohida g‘amxo‘rlik va e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son Qonunining qabul qilinishi ularning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘lishi bilan birgalikda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlariga muvofiq sifatli o‘tkazishi, o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta’lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko‘rishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi kabi majburiyatlarni ham belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezident Shavkat Mirziyoyev: - “Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma’rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan. Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir” deya ta’kidlaydilar. Bu esa respublikadagi barcha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-pedagoglar uchun ham faxr, ham, g‘urur va shu qatori yuksak mas’uliyatni anglatadi. Prezidentning “O‘qituvchilar va ziyolilar - uchinchi Renessansning tayanch ustunlari” deya yuksak ishonch berishi o‘qituvchilarni o‘z kasblari ustida ishlab bugungi kun nafasiga mos innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat olib brogan holda yangi yangi Beruniylar, Al-Xorazmiylar, Ibn Sinolar, At-Termiziylar, Ulug‘beklar, Alisher Navoiylar yetishtirib chiqarish mas’uliyatini chuqur anglash qiyin emas.

Bugungi kunda fan, ta’lim texnologiyada juda tezlik bilan yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etilishi asosida o‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda o‘quv rejalar, o‘quv fan dasturlari, sillabuslarda, o‘quv adabiyotlarda o‘zgarishlar bo‘lganligi, ayniqsa tizimning auditoriya soatlari kamayib, mustaqil ta’lim soatlarining oshgani o‘qituvchilarning katta hajmga ega mavzularning maqsadga erishish, ya’ni talabalarga tushunarli bo‘lishida innovatsion yondashuvlar asosida intensiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi. Bunda o‘qituvchi ro‘li an’anaviy (markaziy) holatdan yangicha (talabaga yordamchi) ro‘liga o‘tishiga to‘g‘ri keladi. 3. Muhandislik ta’limini rivojlanishi tizimli yondashuv (ta’lim zanjiri)ning 3-bo‘g‘ini talaba hisoblanadi. Talabaning ro‘li muhandislik-ishlab chiqarish bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘langan. Talaba

oliy ta’lim muassasiga maqsad bilan kiradi. Maqsad kelajakda yetuk muhandis bo‘lish. Ya’ni muhandislik bilimlarini puxta egallab, sohasiga mos ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarida yetuk mutaxassis bo‘lish va oilasi, vatani uchun xizmat qilish. O‘qituvchilar ham, muhandislik ta’limi olish uchun shart-sharoitlar ham yetarli darajada ta’minlangan, fanni ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lash tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Bu holatda talabani ro‘li qanday bo‘lishi kerak? degan savolga javob qidiramiz.

Buni tadqiq qilishni xorijiy tajribalarni o‘rganishdan boshlaymiz.

David Edward Goldbergning fikricha talabalar dars jarayonlarida egalik va ishtirok madaniyatini shakllantirdi. Talabalar iste’molchi emas, balki o‘z ta’limining hamkoridir [22]. Bu yondashuv talabaning faolligini oshiradi va uni o‘z ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Professor Emanuela Tilley muhandislik ta’limi endi faqat an’anaviy bilimlar bilan cheklanmaydi. Bu ko‘proq jarayonlar va talabalar tomonidan bilimlarni qo‘llash haqida deya ta’rif beradi[23]. Bu bilan professor talabaning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Henry Petroski “Fan - bu bilish, muhandislik esa – qilish[24]” deya fikrlaydi. Bu esa muhandislikning amaliyotga asoslanganligini va talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi.

Talaba - o‘zgarishlar uchun katalizator, muhandislik ta’limidagi hissiy o‘zgarish - bu sehrli fikrlash emas. Bu talabalar hayotiga asoslangan ta’lim falsafasiga asoslanadi. To‘g‘ri muhitda bu o‘zgarish talabalar tomonidan tabiiy ravishda yuzaga keladi[22]” deya ta’rif beradi David Edward Goldberg. Bu yondashuv talabaning o‘zgarishlarga moslashuvchanligini va ta’lim jarayonidagi faol rolini ko‘rsatadi.

Rossiya pedagog olimi Y.Pokholkov “Talabalar o‘z ta’lim jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishi kerak. Bu ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ular o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ularning yangiliklarga ochiqligi va tashabbuskorligi ta’lim tizimini rivojlantiradi[25]” deb o‘z qarashlarini bayon qiladi. N.A.Belelubsky esa talabalarga “Sizlar kelajakda muhandis bo‘lasizlar. Sizlarning vazifangiz — mustahkam va ishonchli inshootlar qurish. Har bir qaroringiz jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglatadi[26]” deb eslatadi. J.Ziyatdinova “Har bir talaba o‘z bilimini doimiy ravishda yangilab borishi kerak. Bu ularning kasbiy rivojlanishining asosi hisoblanadi [27]” deb ta’rif beradi.

Muhandislik ta’limining muvaffaqiyati, birinchi navbatda, uning markazida turgan talabaning faolligiga, mas’uliyatiga va tashabbusiga bog‘liq. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, talaba endilikda:

- Pasiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, yaratuvchi, ta’lim sherigi bo‘lishi kerak;
- Muhandislik bilimlarini nafaqat o‘zlashtiradi, balki ularni real hayotdagi muammolarni hal etishda qo‘llashga o‘rgatiladi;
- O‘zgarishlar va yangiliklar uchun ochiq, mustaqil qaror qabul qiluvchi, kreativ fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiriladi;
- Ustozlar va muhit tomonidan yo‘naltirilgan holda uzluksiz o‘rganish va rivojlanish jarayonida bo‘ladi;
- Muhandislik sohasining ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotdagi mas’uliyatli vakili sifatida tayyorlanadi.

Xullas, bo‘lajak muhandis (talaba) - bu nafaqat bilim oluvchi, balki muhandislik jarayonining faol subyektidir. Uning motivatsiyasi, tashabbusi va amaliy qobiliyatlari muhandislik ta’limining eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi.

4. Ushbu tadqiqotimizning to‘rtinchi bo‘g‘ini o‘quv-me’yoriy hujjatlar, moddiy-texnik baza

bo‘lib, bu bo‘g‘in o‘qituvchi-ishlab chiqarish, sanoat bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘langan.

Prezident Shavakat Mirziyoyevning “Oliy ta’lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi ” degan tashabbuslari bugun o‘z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda barcha istiqbolli islohotlar kabi ta’lim tizimida islohotlar ketmoqda. Hukumatimiz tomonidan davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, malaka talablari, namunaviy (tayanch) o‘quv reja va o‘quv dasturlarini belgilangan tartibda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta’minlash bo‘yicha va kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash vazifalari ta’lim jarayonlaridagi o‘qitish usullari va texnologiyalarini ham isloh qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-2025 o‘quv yilidan respublikamizdagi mavjud ta’lim turlari YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi” darajalari bilan muvofiqlashtirilish asnosida o‘quv-me’yoriy hujjatlarda sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu tashabbuslar bugun kunimizda o‘z aksini topgan. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida fanlar sonining ko‘pligi, kasbiga doir bo‘lmagan darslarning o‘tilishi ixtisoslashuv, ta’lim sifat va samaradorligini ta’minlashga ancha salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda edi. Nomutaxassislik fanlari ulushi kamaytirilishida ish beruvchi, kadr buyurtmachisining talabi asosiy mezon bo‘ladi. Muayyan yo‘nalishga tayyorlayotgan kadr nimani bilishi kerak? Ish beruvchi undan nimani kutyapti? Mutaxassisda amaliyotda zarur kompetentsiya shakllanishi uchun unga qaysi fanlarni o‘qitish kerak? O‘qitiladigan va qisqartiradigan fanlar mana shu savollar javobidan kelib chiqib belgilanadi[28]. Bundan tashqari fanlarning auditoriya va mustaqil ta’lim soatlarida va o‘quv va malakaviy amaliyot soatlarida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Birgina tadqiqotmiz obekti sifatida olingan Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish yo‘nalishining 2018-2023 o‘quv yillari o‘quv rejasini tahlil qilganimizda (3-jadval), yo‘nalishga o‘tiladigan umumtexnika fanlaridan Nazariy mexanika fani misolida buni kuzatishimiz mumkin.

№	O‘quv yili	Ma’ruza	Amaliy	Laboratoriya	Mustaqil ish	Umumiy soat
1	**2019-2020**	36	36	0	48	120
2	**2020-2021**	30	30	0	90	150
3	**2021-2022**	30	30	0	60	120
4	**2022-2023**	30	30	0	90	150
5	**2023-2024**	30	30	0	120	180
6	**2024-2025**	30	30	0	120	180

3-jadval. Nazariy mexanika fanini yillar kesimida soatlar statistikasi.

Yuqoridagi tahlildan qarab, 2020-2021-o‘quv yiliga qadar auditoriya soatlari (60%) mustaqil ta’lim soatlari(40%)dan yuqori. Bunda fanning mazmuni ko‘proq o‘qituvchi tomonidan yoritilgan. Talaba mustaqil o‘rganishi uchun kamroq vaqt ajratilgan. 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab auditoriya soatlari (30-50%) mustaqil ta’lim soatlari (50-70%)dan kamligi ko‘rinib turibdi.

Yuqoridagi holatlar barcha yo‘nalishlar o‘quv rejalarida mavjud holat hisoblanadi. Bu esa professor-o‘qituvchilar faoliyatiga ham ta’sir qildi. Ya’ni fan o‘qituvchisi tomonidan ko‘proq vaqt sarflab o‘tilgan mavzuni, qisqa vaqt ichida qanday qilib talabalarga yetkazish, ular ongiga singdirish masalalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv samaradorligini oshirish uchun barcha pedagoglardan yangi yondashuvlar asosida darslarni tashkil etishni, o‘quv

adabiyotlarini, o‘qitish usullari va texnologiyalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Bu maummoga yechim sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

Dual ta’lim, amaliy loyihalar va sanoat mentorligi. Dual ta’lim (masalan, Germaniyada) talaba haftaning bir qismini o‘qishda, bir qismini esa ishlab chiqarish korxonasida o‘tkazadi. CDIO (muhandislik ta’limi uchun mo‘ljallangan zamonaviy yondashuv bo‘lib, talabalarni amaliy, tizimli va muammoga yo‘naltirilgan fikrlash asosida tayyorlashga qaratilgan model) modeli asosida real sanoat muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan kurslar joriy qilinadi. Mentorlik tizimi orqali talabaga sanoat vakillari yo‘l ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq real loyihalarda ishtirok etgan talabalar nafaqat texnik, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi[29].

Soft-skills (yumshoq ko‘nikmalar) yetishmovchiligi. Muhandislik talabasi texnik bilimga ega bo‘lishi mumkin, ammo real ishlab chiqarishda jamoaviy ish, muomala, muammoni hal qilish, rahbarlik, va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalar ham zarur. O‘quv dasturlarida bu jihatlar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi.

Bu masalaga quyidagi yo‘llar orqali yechim qilish mumkin:

Soft-skillsni o‘qitishga yo‘naltirilgan kurslar va faol metodikalar. “Professional ko‘nikmalar”, “Texnik kommunikatsiya”, “Jamoada ishlash asoslari” kabi kurslar kiritilishi. Muammoga asoslangan o‘qitish (PBL), rolli o‘yinlar, case study va interaktiv seminarlar orqali soft-skillsni amalda shakllantirish. Muhandis kadrlar nafaqat texnik, balki ijtimoiy kompetensiyalar bo‘yicha ham rivojlanishi kerak, chunki ishlab chiqarish jamoaviy harakatlar maydonidir [30].

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut. Ko‘plab talabalar darsda o‘rganayotgan bilimlarni real ish sharoitida qanday qo‘llashni tushunmaydilar. Bu ularda befarqlik yoki bilimga nisbatan ishonchsizlik hissini paydo qiladi.

Real muammolar asosida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish. O‘quv materiallarini real sanoat loyihalariga integratsiya qilish, ishlab chiqarishdagi murakkab vazifalarga mos laboratoriya tajribalari, korxona vakillarini darslarga jalb etish kabi yechimlarni qilish mumkin. Amaliyotdan uzilgan nazariya talabaning qiziqishini so‘ndiradi, u o‘z bilimining foydasiga shubha bilan qaray boshlaydi [31].

Demak, muhandislik-ta’lim tizimi talabaning ishlab chiqarish bilan bevosita integratsiyasini ta’minlash orqali real hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi zarur. Bunga dual ta’lim, CDIO yondashuvi, mentorlik, va soft-skills kurslari orqali erishish mumkin. Amaliyot bilan uyg‘unlashgan, muammo yechishga yo‘naltirilgan ta’lim uslublari talabani kelajakda ishga tayyor, mustaqil va malakali mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Ushbu tadqiqotimizning beshinchi bo‘g‘ini ishlab chiqarish, sanoat bo‘lib, bu bo‘g‘in o‘quv-me’yoriy hujjatlar, moddiy-texnik baza - talaba bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘langan.

Bugungi kunda hayotimizning qaysi jabhasiga qaramaylik, yangi-yangi texnologiyalarga ko‘zimiz tushadi. Ular albatta qaysidir zavod, fabrika yoki ishlab chiqarish tarmog‘idan chiqarilgan.

Tadqiqotimizdagi bu bo‘g‘inning vazifasi sifatida talaba o‘quv jarayonida o‘rgangan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish muammolari qaraladi. Ya’ni, fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasini samarali tashkil etish muammolari qarab o‘tiladi va xulosa beriladi.

O‘quv jarayonini qanday usullar orqali ishlab chiqarishga bog‘lash mumkin degan savol tug‘ilishi tabiiy holat. Bizning tadqiqotimizda xuddi shu masalalarga yechim qidiriladi. Ya’ni fanni o‘qitishda ishlab chiqarish muhitini, ya’ni undagi jamoaviy ishlash, uskuna va dastgohlarni ishlash prinsiplari va ular haqida ma’lumotlar haqida talabalarga intensiv o‘qitish usul va texnologiyalar orqali o‘rgatiladi.

Ushbu muammolarga quyidagicha ta’rif va yechimlar berish mumkin.

Ishlab chiqarish bo‘g‘inining o‘quv jarayonidan ajralganligi. Ishlab chiqarish (sanoat) sohasidagi texnologik rivojlanish tez sur’atlarda kechmoqda. Ammo ko‘plab oliy ta’lim

muassasalari o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtira olmayapti. Moddiy-texnik baza esa ko‘pincha zamonaviy korxonalarning real holatidan ancha orqada. Bu esa talaba va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni susaytiradi.

O‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirish yechimi.

O‘quv-me’yoriy hujjatlarni sanoat bilan hamkorlikda ishlab chiqish. Ishlab chiqarish muammolarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish. Moddiy-texnik bazani yangilash, zamonaviy uskunalar, raqamli texnologiyalar, VR/AR asosidagi simulyatorlar bilan boyitish. Talabalarni real sanoat loyihalariga jalb etish, ishbilarmonlik muhitida faoliyat yuritishga tayyorlash. Ishlab chiqarish sektoridagi o‘zgarishlar ta’lim tizimi bilan hamohang bo‘lmasa, bitiruvchilar sanoat ehtiyojlarini qondira olmaydi [32].

Ishlab chiqarish bo‘g‘inining ta’limdagi o‘rni. Muhandislik ta’limi tizimi uchun ishlab chiqarish bo‘g‘ini faqat ish joyi emas - bu bo‘g‘in kompetensiyalarni shakllantiruvchi real muhit sifatida qaralishi lozim. Hozirgi paytda o‘quv-me’yoriy hujjatlar (fan dasturlari, fanlar modul tarkibi) sanoatga nisbatan nazariy va statik qolmoqda. Moddiy-texnik baza ishlab chiqarishdagi real texnologiyalardan ortda qolgan. Talabalar sanoatga chiqquncha kasbiy muhitni tushunmaydi, bu esa o‘rganilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Integrallashgan, innovatsion va moslashuvchan muhandislik ta’lim tizimini shakllantirish orqali muhandislik ta’limida aniqlangan muammolarga qarshi kurashish uchun yechimlar alohida-alohida emas, balki integrallashgan yondashuv orqali amalga oshirilishi lozim. Bu muammolarga quyidagicha strategik kompleks yechimlarni tavsiya qilamiz:

Tizimli integratsiya: Ta’lim – sanoat – talaba. Dual ta’lim modeli. Nazariy bilim va amaliyot uyg‘unlashgan ta’lim modeli asosida talabaning ishchi muhit bilan bevosita aloqasi ta’minlanadi. Sanoat bilan hamkorlikdagi dasturlar. O‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish korxonalari bilan birgalikda tuzish. Mentorlik va tajriba almashinuvi. Sanoatdagi mutaxassislar o‘qituvchilik jarayoniga jalb qilinadi.

Texnologik yangilanish: Raqamli muhitni ta’limga integratsiya qilish. O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha muntazam malaka oshirish, AR/VR, simulyatorlar, kodlash muhitlari va onlayn laboratoriyalarni o‘quv jarayoniga kiritish, LMS (Learning Management System) orqali interaktiv va moslashuvchan ta’limni tashkil etish.

Pedagogik yondashuvni o‘zgartirish, ya’ni faol va talaba markazli ta’lim muhitini tashkil qilish. PBL (Problem-Based Learning), Case Study, Flipped Classroom, Peer Learning kabi metodlarni keng joriy etish. Interaktiv, vizual, tajribaga asoslangan o‘quv resurslarini ishlab chiqish, baholash tizimini aniq mezonlar va shaffoflik asosida takomillashtirish.

Kommunikatsiya va motivatsiyani kuchaytirish. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ochiq, ikki tomonlama muloqot madaniyatini shakllantirish, o‘qituvchiga faqat nazoratchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi mentor sifatida qarashni rivojlantirish, motivatsion mexanizmlar: talaba yutuqlarini tan olish, faol ishtirokini baholash.

Soft-skills va muammoli vaziyatlarda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish. Har bir fan doirasida ijodiy, tanqidiy fikrlash, yetakchilik, muloqot, jamoaviy ish ko‘nikmalariga alohida e’tibor berish, soft-skillsni rivojlantirish bo‘yicha maxsus modullar va loyihaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali erishish mumkin.

Muhandislik ta’limini zamon talablari va sanoat ehtiyojlariga moslashtirish uchun ta’lim jarayoni moslashuvchan, integratsiyalashgan va innovatsion bo‘lishi kerak. Talaba – o‘qituvchi – sanoat o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilishning yagona yo‘li bu – ularning hamkorlikdagi ishtirokini ta’minlash va amaliy kompetensiyalarga asoslangan ta’limni yo‘lga qo‘yishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bok, D., Fairweather, J. S., & Fincher, C. (2013). Higher education in the 21st century: Global challenges and innovative ideas. Routledge.

2. Felder, R. M., & Brent, R. (2016). Teaching and learning STEM: A practical guide. Jossey-Bass.

3. Schulz, B., Geithner, S., & Schmitz, B. (2008). The role of motivation in learning environments: A study of German and international students. International Journal of Teaching and Learning in Higher Education, 20(1), 45–57.

4. Meyer, J. H. F., & Land, R. (2006). Overcoming barriers to student understanding: Threshold concepts and troublesome knowledge. Routledge.

5. Edmondson, A. (1999). Psychological safety and learning behavior in work teams. Administrative Science Quarterly, 44(2), 350–383. https://doi.org/10.2307/2666999

6. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487

7. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of Engineering Education, 93(3), 223–231. https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x

8. Fleming, N. D., & Baume, D. (2006). Learning styles again: VARKing up the right tree!. Educational Developments, 7(4), 4–7.

9. Laurillard, D. (2012). Teaching as a design science: Building pedagogical patterns for learning and technology. Routledge.

10. Seidel, T., & Shavelson, R. J. (2007). Teaching effectiveness research in the past decade: The role of theory and research design in disentangling meta-analysis results. Review of Educational Research, 77(4), 454–499. https://doi.org/10.3102/0034654307310317

11. Brookfield, S. D. (1995). Becoming a critically reflective teacher. Jossey-Bass.

12. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78. https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68

13. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher technology change: How knowledge, confidence, beliefs, and culture intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255–284. https://doi.org/10.1080/15391523.2010.10782551

14. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. Jossey-Bass.

15. Bennett, S., Maton, K., & Kervin, L. (2008). The ‘digital natives’ debate: A critical review of the evidence. British Journal of Educational Technology, 39(5), 775–786. https://doi.org/10.1111/j.1467-8535.2007.00793.x

16. Brookhart, S. M. (2013). How to create and use rubrics for formative assessment and grading. ASCD.

17. Sadler, D. R. (1989). Formative assessment and the design of instructional systems. Instructional Science, 18(2), 119–144. https://doi.org/10.1007/BF00117714

18. Andrade, H. (2010). Students as the definitive source of formative assessment: Academic self-assessment and the self-regulation of learning. In H. L. Andrade & G. J. Cizek (Eds.), Handbook of formative assessment (pp. 90–105). Routledge.

19. Dweck, C. S. (2006). Mindset: The new psychology of success. Random House.

20. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Springer Science & Business Media.

21. Palmer, P. J. (1998). The courage to teach: Exploring the inner landscape of a teacher's life. Jossey-Bass.

22. Goldberg, D. E., & Somerville, M. (2014). A Whole New Engineer: The Coming Revolution in Engineering Education. Douglas & McIntyre.

23. Tilley, E. (2018). New approaches to engineering education: Five memorable quotes. Engineering Education Press. Retrieved from https://engineeringedu.press

24. Petroski, H. (2010). The Essential Engineer: Why Science Alone Will Not Solve Our Global Problems. Vintage Books.

25. Pokholkov, Y. (2015, June). Engineering education in Russia: traditions, experiences, challenges and opportunities. Paper presented at 2015 ASEE International Forum, Seattle, Washington. https://peer.asee.org/17134peer.asee.org

26. Belelubsky, N. A. (n.d.). Nikolai Belelubsky. Retrieved from https://en.wikipedia.org/wiki/Nikolai_Belelubsky

27. Ziyatdinova, J. (2015, June). Engineering education in Russia: traditions, experiences, challenges and opportunities. Paper presented at 2015 ASEE International Forum, Seattle, Washington. https://peer.asee.org/17134

28. Majidov I .U. (2020, May). "Fanlarni qisqartirish qanday samara beradi?" Yangi O'zbekiston xabarlari online gazetasi.

29. Crawley, E. F., Malmqvist, J., Östlund, S., & Brodeur, D. R. (2014). Rethinking engineering education: The CDIO approach (2nd ed.). Springer.

30. Kolmos, A., & De Graaff, E. (2014). Problem-based and project-based learning in engineering education. In A. Johri & B. M. Olds (Eds.), Cambridge Handbook of Engineering Education Research (pp. 141–161). Cambridge University Press.

31. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning (4th ed.). Wiley.

32. Gibbs, M., & Crawley, E. F. (2020). Integrating engineering education with industry: Strategies for curriculum alignment and innovation. International Journal of Engineering Education, 36(5), 1432–1440.

BIOINFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA BIOLOGIK SIGNALLAR VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Pardayeva Gulmira Abdunzarovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim sharoitida bioinformatika fanini o‘qitishda biologik signallarni raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslari yoritilgan. Biologik signallarni o‘quv jarayoniga kiritish talabalarda biologik jarayonlarni raqamli ma’lumot sifatida tushunish, algoritmik qayta ishlash, sun’iy intellekt modeli yordamida tahlil qilish hamda vizual natijalar asosida ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishi asoslanadi. Maqolada EKG, EEG, EMG, PPG va biometrik signallarning didaktik imkoniyatlari, bioinformatika ta’limida shakllantiriladigan kompetensiyalar tizimi, raqamli laboratoriya va refleksiv baholash yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida “biologik signal – raqamli ma’lumot – algoritm – SI modeli – vizual natija – pedagogik refleksiya” zanjiriga tayangan metodik yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: bioinformatika, biologik signal, sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, EKG, EEG, EMG, PPG, algoritmik tahlil, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik refleksiya.

ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ СИГНАЛОВ И ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ БИОИНФОРМАТИКИ

Пардаева Гульмира Абдунзаровна
Университет информационных технологий и менеджмента

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-педагогические основы использования цифровизации биологических сигналов и технологий искусственного интеллекта в преподавании биоинформатики в условиях цифрового образования. Обосновано, что включение биологических сигналов в учебный процесс способствует формированию у студентов навыков понимания биологических процессов как цифровых данных, алгоритмической обработки, анализа с использованием моделей искусственного интеллекта и научной интерпретации визуальных результатов. Анализируются дидактические возможности сигналов ЭКГ, ЭЭГ, ЭМГ, PPG и биометрических данных, система компетенций, цифровая лаборатория и рефлексивное оценивание. Предложен методический подход, основанный на цепочке “биологический сигнал – цифровые данные – алгоритм – модель ИИ – визуальный результат – педагогическая рефлексия”.

Ключевые слова: биоинформатика, биологический сигнал, искусственный интеллект, цифровое образование, ЭКГ, ЭЭГ, ЭМГ, PPG, алгоритмический анализ, компетентностный подход, педагогическая рефлексия.

THEORETICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING BIOLOGICAL SIGNALS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOINFORMATICS

Pardayeva Gulmira Abdunzarovna
University of Information Technologies and Management

Abstract. This article discusses the theoretical and pedagogical foundations of using biological signal digitization and artificial intelligence technologies in teaching bioinformatics within a digital education environment. It is argued that integrating biological signals into the learning process develops students’ ability to understand biological processes as digital data, perform

algorithmic processing, analyze data through artificial intelligence models, and draw scientifically grounded conclusions from visual outputs. The paper analyzes the didactic potential of ECG, EEG, EMG, PPG and biometric signals, the system of competencies formed in bioinformatics education, digital laboratory activities and reflective assessment. A methodological approach based on the chain "biological signal – digital data – algorithm – AI model – visual result – pedagogical reflection" is proposed.

Keywords: bioinformatics, biological signal, artificial intelligence, digital education, ECG, EEG, EMG, PPG, algorithmic analysis, competence-based approach, pedagogical reflection.

Kirish (Introduction). Zamonaviy oliy ta'limda bioinformatika fani faqat genom ketma-ketliklarini saqlash, qidirish yoki filogenetik tahlil qilish bilan cheklanmaydi. Biotibbiyot, genomika, neyrofiziologiya, sport fiziologiyasi, telemeditsina, aqlli sensorlar va raqamli sog'liqni saqlash tizimlari kengaygani sari bioinformatika biologik tizimlardan olinadigan turli ma'lumotlarni algoritmik qayta ishlash, modellashtirish va talqin qilishga yo'naltirilgan fanlararo sohaga aylanmoqda. Shu bois talabalar biologik signallarni raqamlashtirish, dasturiy muhitda qayta ishlash va sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish ko'nikmalarini egallashi zarur.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish va sun'iy intellekt asosidagi innovatsion yechimlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar bioinformatika ta'limining mazmunini yangilash uchun metodik asos yaratadi. Raqamli ta'lim muhitida biologik signal bilan ishlash talabaning biologik bilimini informatika, matematika, statistika, algoritmlash, ma'lumotlar tahlili va vizual interpretatsiya bilan birlashtiradi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish talablariga mos keladi.


Bioinformatika ta'limida biologik signallarni o'quv mazmuniga kiritishning dolzarbligi ikki omil bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy bioinformatikada fiziologik vaqt qatorlari, sensor signallari, biometrik indikatorlar va klinik monitoring ma'lumotlari muhim tahlil obyektiga aylanmoqda. Ikkinchidan, sun'iy intellekt algoritmlari ushbu ma'lumotlarni tasniflash, bashoratlash, anomaliyalarni aniqlash va tibbiy-biologik xulosalar chiqarishda keng qo'llanilmoqda. Demak, bioinformatika fanini o'qitish metodikasi biologik signal, raqamli ma'lumot, algoritm va SI modelini yagona o'quv jarayonida uyg'unlashtirishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani tayyorlashda nazariy tahlil, pedagogik umumlashtirish, qiyosiy tahlil, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim metodikasini modellashtirish va didaktik loyihalash usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor bioinformatika fanida biologik signallarni raqamlashtirish, sun'iy intellekt modeli orqali qayta ishlash va natijani pedagogik refleksiya asosida baholash jarayonini metodik tizim sifatida talqin qilishga qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi uch asosiy yo'nalishni qamrab oladi. Birinchi yo'nalish bioinformatika ta'limining mazmuniy kengayishini aniqlashdan iborat bo'lib, bunda genom va proteom ma'lumotlari bilan bir qatorda EKG, EEG, EMG, PPG va biometrik signallar ham o'quv ma'lumotlari sifatida ko'rib chiqildi. Ikkinchi yo'nalish biologik signallarni raqamlashtirishning didaktik bosqichlarini aniqlashga qaratildi: signal manbasini tanlash, namuna olish, kvantlash, filtr tanlash, segmentlash, muhim belgilarni ajratish, modelga kiritish, natijani vizual ko'rsatish va xulosa chiqarish. Uchinchi yo'nalish esa sun'iy intellektdan pedagogik maqsadda foydalanish: individual topshiriq tanlash, laboratoriya natijalarini tezkor baholash, xatolarni aniqlash va refleksiv fikr-mulohazani tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi.

Ushbu yondashuvda biologik signal oddiy texnik obyekt emas, balki talabaning ilmiy fikrlashi, algoritmik tafakkuri va ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiruvchi

didaktik vosita sifatida qaraladi. Raqamlashtirish jarayoni biologik hodisani miqdoriy tahlil qilinadigan modelga aylantiradi; SI modeli esa talabaning tahlil natijasini baholash, xato ehtimolini ko‘rish va ilmiy asoslangan xulosa berish faoliyatini kuchaytiradi.



1-rasm. Biologik signalni SI asosida o‘quv jarayoniga aylantirish zanjiri

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bioinformatika fanida biologik signallarni raqamlashtirish va SI texnologiyalaridan foydalanish bir necha didaktik natijalarni beradi. Avvalo, talaba biologik jarayonni faqat tavsifiy darajada emas, balki o‘lchanadigan, qayta ishlanadigan va model orqali izohlanadigan axborot manbai sifatida tushunadi. Masalan, EKG signali yurak ritmini, EEG signali miya bioelektrik faolligini, EMG signali mushak qisqarishini, PPG signali periferik qon aylanishi va puls to‘lqinlarini ifodalaydi. Ularni raqamli tahlil qilish talabaning biologik tushunchasini algoritmik va statistik tafakkur bilan bog‘laydi.

Biologik signallardan foydalanishning muhim pedagogik afzalligi shundaki, u nazariy bilimni real ma’lumot bilan bog‘laydi. Talaba signalni ko‘radi, uni dasturiy muhitga import qiladi, shovqinni kamaytiradi, segmentlaydi, muhim xususiyatlarni ajratadi, SI modelida tekshiradi va olingan natijani biologik mazmun bilan izohlaydi. Bu jarayonda u passiv tinglovchi emas, balki tadqiqotchi sifatida faol ishtirok etadi. Shuning uchun biologik signalga asoslangan laboratoriya mashg‘ulotlari oddiy ko‘rsatma emas, balki kompetensiya shakllantiruvchi didaktik ssenariy sifatida loyihalanishi lozim.

1-jadval.

Biologik signallar va ularning bioinformatika ta’limidagi didaktik imkoniyatlari

Biologik signal turi	Biologik mazmuni	Raqamlashtirishdagi asosiy amallar	O‘quv-didaktik imkoniyati
EKG	Yurak bioelektrik faolligi va ritm dinamikasi	Namuna olish, R-cho‘qqilarni aniqlash, ritm oralig‘ini hisoblash	Ritm tahlili, vaqt qatori, anomaliya tushunchasi va SI tasnifi
EEG	Miya bioelektrik faolligi va chastota diapazonlari	Filtrlash, spektral tahlil, segmentlash	Signal spektri, kognitiv holat, shovqin va artefaktlarni tushunish
EMG	Mushak qisqarishi va harakat faolligi	Silliqlash, amplitoda tahlili, xususiyat ajratish	Harakat tahlili va biomexanik jarayonni raqamli modellashtirish
PPG	Qon oqimi va puls to‘lqinlari	Peak-detection, puls oralig‘i, normalizatsiya	Sensor ma’lumotlari, monitoring va real vaqt tahlili
Biometrik signal	Yurish, harakat, bosim, nafas va teri o‘tkazuvchanligi	Vaqt qatori, sensor birlashtirish, belgilarni ajratish	Ko‘p manbali ma’lumot, loyiha faoliyati va statistik talqin

1-jadvaldan ko‘rinadiki, har bir biologik signal turi ma’lum biologik mazmunga ega bo‘lishi bilan birga, o‘quv jarayonida turli algoritmik amallarni o‘rgatish uchun ham xizmat qiladi. EKG signali orqali vaqt qatori va ritm tahlili, EEG orqali spektral tahlil va artefaktlarni ajratish, EMG orqali amplituda va harakat faolligi, PPG orqali sensor ma’lumotlarining real vaqt monitoringi o‘rganiladi. Bunday topshiriqlar bioinformatika ta’limini abstrakt nazariy tushunchalardan amaliy-tadqiqot faoliyatiga olib chiqadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining bioinformatika ta’limidagi metodik imkoniyati ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchi yo‘nalishda SI o‘quv jarayonini adaptiv tashkil etishga yordam beradi: talabaning bilim darajasi, amaliy topshiriqni bajarish tezligi, xatoni tuzatish strategiyasi va refleksiv javoblari asosida unga mos topshiriq, izoh yoki qo‘shimcha resurs tavsiya qilinadi. Ikkinchi yo‘nalishda SI biologik signalning o‘zini tahlil qilish vositasi sifatida qo‘llanadi: signal tasniflanadi, normal va anormal holatlar farqlanadi, model natijasi mezonlar asosida baholanadi.

Biroq SI vositalaridan foydalanish natijani avtomatik olish bilan chegaralanmasligi kerak. Agar talaba modelga kiritilgan ma’lumot sifatini tekshirmasa, model xatosini ko‘rmasa, natijani biologik mazmun bilan bog‘lamasa va ilmiy manbalar asosida izohlamasa, SI vositasidan

foydalanish yuzaki texnik amaliyot bo‘lib qoladi. Shu sababli metodikada “SI modeli – natija – izoh – refleksiya” ketma-ketligi majburiy didaktik bosqich sifatida kiritilishi zarur.

2-jadval

Biologik signallar va SI asosida shakllantiriladigan kompetensiyalar

Kompetensiya	Mazmuniy ko‘rsatkich	O‘quv faoliyati	Baholash indikatori
Biologik-signal	Signal manbasi va fiziologik mazmunini tushunish	EKG, EEG, EMG, PPG namunalarini tahlil qilish	Signal turini to‘g‘ri izohlash
Raqamli-signal	Sampling, filtr, segment, xususiyat tushunchalarini qo‘llash	Python/R muhitida signalni tozalash	Algoritmik bosqichlarni to‘g‘ri bajarish
Algoritmik-SI	Model tanlash, o‘qitish, testlash va baholash	Klassifikator yoki regressiya modelini sinash	Model natijasini mezonlar bo‘yicha baholash
Vizual-interpretatsion	Grafik va model chiqishini biologik mazmun bilan bog‘lash	Signal grafigi va chalkashlik matritsasini talqin qilish	Natija asosida asosli xulosa berish
Tadqiqotchilik	Muammo, gipoteza, metod va xulosani ishlab chiqish	Mini-loyiha yoki kichik tadqiqot bajarish	Ilmiy mantiq va manbaga tayangan xulosa
Etik-refleksiv	Ma’lumot maxfiyligi, SI xatosi va akademik halollikni anglash	Refleksiya varaqasi va etik keys tahlili	Mas’uliyatli qaror va tanqidiy baho

2-jadvalda keltirilgan kompetensiyalar bioinformatika fanining zamonaviy mazmunini to‘liqroq aks ettiradi. Talaba biologik signalni anglashdan boshlaydi, keyin uni raqamli axborot sifatida qayta ishlaydi, algoritm va SI modeli bilan ishlaydi, natijani vizual talqin qiladi, kichik tadqiqot bajaradi va etik-refleksiv baho beradi. Bunday tizim talabaning biologik, raqamli, algoritmik, ilmiy va axloqiy mas’uliyatini bir butun holda rivojlantiradi.

Bioinformatika fanini o‘qitishda mavjud metodik muammolar ham aniqlanadi. Birinchidan, ayrim o‘quv dasturlarida biologik signallar va sensor ma’lumotlari yetarli darajada aks

etmaydi. Ikkinchidan, laboratoriya mashg‘ulotlarida real signal, real algoritm va real model natijasiga asoslangan topshiriqlar kam. Uchinchidan, SI vositalaridan foydalanishda akademik halollik, ma’lumot maxfiyligi, model xatosi va natijani tanqidiy baholash masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. To‘rtinchidan, talabalar uchun baholash mezonlari ko‘pincha yakuniy natijaga qaratiladi, jarayon, izoh va refleksiya esa yetarli baholanmaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bioinformatika ta’limida raqamli laboratoriya-amaliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ochiq biosignal ma’lumotlar bazalaridan foydalanish, Python va R muhitida soddalashtirilgan algoritmik topshiriqlar berish, SI natijasini izohlash uchun refleksiya varaqalari joriy etish va baholash rubrikalarini kompetensiyalarga moslashtirish tavsiya etiladi. O‘qituvchi esa faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli laboratoriyani loyihalovchi, SI tavsiyalarini metodik nazorat qiluvchi va talabaning ilmiy xulosasini yo‘naltiruvchi pedagogik moderator sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion). Raqamli ta’lim sharoitida bioinformatika fanini o‘qitish mazmuni biologik ma’lumotlar, biologik signallar, algoritmik qayta ishlash, sun’iy intellekt texnologiyalari va vizual talqin jarayonlari bilan boyitilishi zarur. Biologik signallarni raqamlashtirish talabalarda real biologik jarayonlarni o‘lchash, qayta ishlash, model qurish va ilmiy xulosa chiqarish imkonini beruvchi kuchli didaktik vosita hisoblanadi.

Maqolada taklif etilgan “biologik signal – raqamli ma’lumot – algoritm – SI modeli – vizual natija – pedagogik refleksiya” zanjiri bioinformatika fanini o‘qitishda talabaning faol tadqiqotchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv biologik-signal, raqamli-signal, algoritmik-SI, vizual-interpretatsion, tadqiqotchilik va etik-refleksiv kompetensiyalarni yaxlit rivojlantiradi.

Amaliy taklif sifatida bioinformatika fanining o‘quv dasturlariga EKG, EEG, EMG, PPG va biometrik signallar bilan ishlashga oid laboratoriya topshiriqlarini kiritish, ochiq ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda mini-loyihalar tashkil etish, SI modeli natijasini baholash uchun aniq rubrikalar ishlab chiqish va har bir laboratoriya ishiga refleksiv xulosa yozish talabini qo‘shish maqsadga muvofiq. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun biologik signalni raqamlashtirish, Python/R muhitida qayta ishlash, SI vositalaridan mas’uliyatli foydalanish va etik masalalarni boshqarishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

Zohirov K. et al. Insonning muvozanat holatini o ‘lchash uchun romberg testini ko ‘rib chiqish // digital transformation and artificial intelligence. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 52-57.

Pardayeva G. A., Choriyev B. S., Sulaymonova D. B. Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqamli ta’limda adaptiv o ‘qitish metodikasining nazariy modeli va amaliy asoslari //Inter education & global study. – 2025. – T. 3. – №. 10 (1). – C. 256-265.

Akmalova A., Xaydarov A., Pardayeva G. Development of students’ intellectual competence in the conditions of digitalization of higher education.

Wilson Sayres M. A., Hauser C., Sierk M., et al. Bioinformatics Core Competencies for Undergraduate Life Sciences Education. PLoS ONE, 2018.

Pevsner J. Bioinformatics and Functional Genomics. – Wiley-Blackwell, 2015.

Lesk A. M. Introduction to Bioinformatics. – Oxford University Press, 2019.

Compeau P., Pevzner P. Bioinformatics Algorithms: An Active Learning Approach. – Active Learning Publishers, 2018.

Rangayyan R. M. Biomedical Signal Analysis. – Wiley-IEEE Press, 2015.

Clifford G. D., Azuaje F., McSharry P. E. Advanced Methods and Tools for ECG Data Analysis. – Artech House, 2006.

Wilkinson M. D., Dumontier M., Aalbersberg I. J., et al. The FAIR Guiding Principles for scientific data management and stewardship. Scientific Data, 2016.

Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Center for Curriculum Redesign, 2019.

SUN’IY INTELLEKT VA SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FUNKSIONAL ANALIZNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Qurbanov Hamidjon Xujaniyozovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) TAQU, “Matematika va tabiiy fanlar” kafedrasi dotsent v.b.
https://orcid.org/0000-0001-9294-8787

Jumayev Davron Ilxomovich
Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
TAQU, “Matematika va tabiiy fanlar” kafedrasi dotsent v.b.
https://orcid.org/0000-0001-5387-3639

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida funksional analiz fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari hamda SMART ta’lim muhitidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Funksional analizning murakkab nazariy tushunchalarini talabalarga samarali yetkazishda GeoGebra, Wolfram Alpha, ChatGPT va LMS platformalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy kompetensiyasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: funksional analiz, sun’iy intellekt, SMART ta’lim, GeoGebra, ChatGPT, Wolfram Alpha, LMS, raqamli ta’lim.

МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОМУ АНАЛИЗУ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И SMART-ТЕХНОЛОГИЙ

Курбанов Хамиджон Хужаниязович
и.о. доцента кафедры «Математика и естественные науки», Ташкентский архитектурно-строительный университет

Жумаев Даврон Илхомович
и.о. доцента кафедры «Математика и естественные науки», Ташкентский архитектурно-строительный университет

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности использования технологий искусственного интеллекта и SMART-образования при преподавании функционального анализа в высших учебных заведениях. Предложена методика применения платформ GeoGebra, Wolfram Alpha, ChatGPT и LMS для объяснения сложных понятий функционального анализа. Полученные результаты показывают, что интеграция цифровых технологий способствует развитию аналитического мышления студентов и повышению качества обучения.

Ключевые слова: функциональный анализ, искусственный интеллект, SMART-образование, GeoGebra, ChatGPT, LMS.

METHODOLOGY FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING FUNCTIONAL ANALYSIS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND SMART TECHNOLOGIES

Kurbanov Khamidjon Xujaniyozovich
Acting Associate Professor, Department of Mathematics and Natural Sciences, Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

Jumaev Davron Ilkhomovich
Acting Associate Professor, Department of Mathematics and Natural Sciences, Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

Abstract. This article examines the pedagogical opportunities of using artificial intelligence and SMART educational technologies in teaching Functional Analysis at higher education institutions. A methodology based on GeoGebra, Wolfram Alpha, ChatGPT, and Learning Management Systems is proposed to improve students' understanding of abstract mathematical concepts. The findings indicate that integrating digital technologies enhances students' analytical thinking, independent learning, and academic achievement.

Keywords: Functional Analysis, Artificial Intelligence, SMART Education, GeoGebra, ChatGPT, LMS, Digital Learning.

Kirish. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida o'qitish metodikasini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, abstrakt matematik fanlar qatoriga kiruvchi funksional analizni o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan tarkibidagi Banax fazolari, chiziqli operatorlar, funksionallar, metrik va topologik fazolar kabi murakkab tushunchalarni an'anaviy usullar yordamida o'zlashtirish talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Bugungi kunda GeoGebra, Wolfram Alpha, ChatGPT hamda LMS platformalari kabi raqamli vositalar o'quv jarayonini interaktiv tashkil etish, murakkab matematik modellarni vizuallashtirish va talabalarning mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda. SMART ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi funksional analiz fanini o'qitishda sun'iy intellekt va SMART texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili so'nggi yillarda sun'iy intellekt va SMART ta'lim texnologiyalaridan foydalanish oliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xorijiy tadqiqotchilar GeoGebra, Wolfram Alpha, MATLAB hamda ChatGPT kabi platformalar matematik fanlarni o'qitishda murakkab nazariy tushunchalarni vizuallashtirish, masalalarni bosqichma-bosqich yechish va talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ta'kidlaydilar.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish, SMART texnologiyalarni joriy etish hamda elektron ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq funksional analiz fanini sun'iy intellekt vositalari asosida o'qitish metodikasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur maqola ushbu yo'nalishdagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, eksperimental

sinov, anketa so‘rovi hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Eksperiment Toshkent arxitektura-qurilish universitetining 2-bosqich talabalaridan tashkil topgan 2 ta guruhda o‘tkazildi. Har bir guruhda 40 nafardan talaba ishtirok etdi.

Nazorat guruhi — an’anaviy metod asosida o‘qitildi.

Tajriba guruhi — SMART texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT, GeoGebra, Wolfram Alpha, Moodle LMS) yordamida o‘qitildi.

Tajriba 6 hafta davom etdi. Mashg‘ulotlar davomida Banax fazolari, chiziqli operatorlar, funksionallar va topologik fazolar mavzulari zamonaviy dasturlar yordamida interaktiv tarzda o‘qitildi.

SMART va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish metodikasi. Funksional analiz fanini samarali o‘qitish uchun quyidagi metodik model taklif etildi.

1-bosqich. Motivatsiya.

Mashg‘ulot boshida ChatGPT yordamida mavzuga oid qiziqarli savollar va real hayotdagi qo‘llanilishi misollari muhokama qilinadi. Bu talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

2-bosqich. Nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish.

GeoGebra va Wolfram Alpha platformalari orqali metrik fazolar, Banax fazolari va operatorlarning geometrik talqinlari interaktiv ravishda namoyish etiladi. Murakkab formulalar grafik ko‘rinishda tushuntiriladi.

3-bosqich. Mustaqil ta’lim.

Talabalar LMS platformasi orqali topshiriqlarni bajaradilar. ChatGPT yordamida masalalarning yechimini tahlil qiladi, xatolar ustida ishlaydi va qo‘shimcha izohlar oladi.

4-bosqich. Baholash.

Talabalarning bilimlari onlayn testlar, amaliy topshiriqlar va loyiha ishlari orqali baholanadi. Natijalar LMS tizimida avtomatik tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tajriba-sinov ishlari 2025–2026-o‘quv yilida Toshkent arxitektura-qurilish universitetida olib borildi. Tadqiqotda jami 80 nafar talaba ishtirok etdi. Shundan 40 nafari nazorat guruhiga, 40 nafari esa tajriba guruhiga jalb qilindi. Dastlab ikkala guruhning boshlang‘ich bilim darajasi kirish testi orqali aniqlandi. Natijalar guruhlar o‘rtasida sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhi uchun SMART texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalariga asoslangan o‘quv metodikasi qo‘llanildi. Xususan, GeoGebra orqali matematik modellar vizuallashtirildi, Wolfram Alpha yordamida murakkab hisoblashlar bajarildi, ChatGPT esa nazariy tushunchalarni izohlash va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar asosida darslar tashkil etildi.

1-jadval

Talabalarning bilim darajasi (% hisobida)

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Boshlang‘ich test	61,4	62,1
Yakuniy test	73,2	88,6
O‘sish ko‘rsatkichi	+11,8	+26,5

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Bu esa taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham zamonaviy texnologiyalardan

foydalanish darslarning qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga xizmat qilganini ko‘rsatdi.

2-jadval

Talabalar fikrining tahlili

Savol	Ijobiy javob (%)
GeoGebra mavzuni tushunishga yordam berdi	92
ChatGPT mustaqil ishlashni osonlashtirdi	89
Wolfram Alpha hisoblashlarni tezlashtirdi	86
SMART texnologiyalar darsga qiziqishni oshirdi	94

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt vositalari talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, murakkab matematik tushunchalarni osonroq o‘zlashtirish hamda dars jarayonida faol ishtirok etishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Muhokama

Funksional analiz fani abstrakt tushunchalarga boy bo‘lgani sababli uni o‘qitishda vizual va interaktiv yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, SMART texnologiyalar va sun’iy intellektni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi.

ChatGPT talabalarning savollariga tezkor javob berish, qo‘shimcha misollar yaratish va individual maslahatlar berishda samarali vosita bo‘ldi. GeoGebra matematik obyektlarning dinamik modellarini yaratish imkonini bergan bo‘lsa, Wolfram Alpha murakkab hisoblashlarni qisqa vaqt ichida bajarishga yordam berdi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

SMART texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish funksional analiz fanini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

GeoGebra va Wolfram Alpha murakkab matematik tushunchalarni vizuallashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

ChatGPT talabalarning mustaqil ta’lim olish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

LMS platformalari yordamida ta’lim jarayonini monitoring qilish va baholash yanada qulaylashadi.

Taklif etilgan metodikani oliy ta’lim muassasalarining matematik fanlarini o‘qitishda keng joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf-0000386693

OpenAI. (2024). ChatGPT in Education: Applications and Opportunities. https://openai.com/education

GeoGebra. GeoGebra Manual. 2024. https://wiki.geogebra.org/en/Manual

Wolfram Alpha. Educational Applications of Wolfram Alpha. 2023. https://www.wolframalpha.com/education

OECD. (2023). Digital Education Outlook 2023. Paris https://www.oecd.org/education/

Makhmudova D. M. (2022). Electronic Educational Resources in Higher Education. https://scholar.google.com/

Ayupov Sh. A., Berdiqulov M. A., Turg‘unbayev R. M. (2007). Funksional analiz. – Toshkent. https://library.ziyonet.uz/

Ayupov Sh. A., Ibragimov M. M., (2009). Kudaybergenov K. K. Funksional analizdan misol va masalalar. – Nukus: Bilim. https://library.ziyonet.uz/

Sarimsoqov T. A. Funksional analiz asoslari. – Toshkent: Fan. https://library.ziyonet.uz/

Chen G. (2023). Dynamic Visualization in Mathematics Learning. https://scholar.google.com/

Akugizibwe E., Ahn J. Y. (2020). Effective Integration of E-learning Tools in University Mathematics Instruction. https://doi.org/10.3991/ijim.v14i16.15055

Hohenwarter M., Hohenwarter J. (2011). Introduction to GeoGebra. https://www.geogebra.org/tutorial

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-8050769

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007

O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. https://lex.uz/docs/5031048

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KATTA GURUH BOLALARINI SAVOD O‘RGATISHGA TAYYORLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

G.R.Qurbonova
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: 5–7 yoshli bolalarni savod o‘rgatishga tayyorlash masalasi bugungi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sanaladi. Shu sababli 5–7 yoshli bolalarni savod o‘rgatishga tayyorlash masalasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Maqolada shu haqda fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: 5–7 yosh, bola, savod o‘rgatish, nutqiy, kognitiv, psixofiziologik, kommunikativ, rivojlanish, savodxonlik, maktabgacha yosh, metodika, o‘qish, faoliyat.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ СТАРШИХ ГРУПП К ОБУЧЕНИЮ ГРАМОТЕ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация: Вопрос подготовки детей 5-7 лет к чтению и письму является одной из актуальных научных проблем современных педагогических и психологических наук. Поэтому вопрос подготовки детей 5-7 лет к чтению и письму представляет собой неотложную педагогическую проблему, требующую глубокого изучения не только с практической, но и с теоретической точки зрения. В статье рассматривается этот вопрос.

Ключевые слова: 5–7 лет, ребенок, обучение грамоте, речь, когнитивное, психофизиологическое, коммуникативное, развитие, грамотность, дошкольный возраст, методология, чтение, деятельность.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PREPARING CHILDREN OF THE SENIOR GROUP FOR LITERACY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: Preparing 5-7 year old children for reading and writing is a pressing scientific issue in modern pedagogical and psychological sciences. Therefore, preparing 5-7 year old children for reading and writing represents a pressing pedagogical challenge requiring in-depth study not only from a practical but also a theoretical perspective. This article examines this issue.

Keywords: 5-7 years old, child, literacy training, speech, cognitive, psychophysiological, communicative, development, literacy, preschool age, methodology, reading, activity.

Yosh avlodni hayotga hamda vatan faravonligi yo‘lida mehnat qilishga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta ahamiyatga ega. Bolalarni maktabga tayyorlash bolaning jismoniy, psixik hamda axloqiy – irodaviy sifatlarni jalb etishni talab qiladigan, uzoq davom etadigan va murakkab jarayondir.

XXI asrda ta’lim tizimining rivojlanishi inson kapitalini yuksaltirish, shaxsning hayot davomida o‘qishga tayyorligini shakllantirish hamda funksional savodxonlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jarayonda maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki va eng muhim bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilib, bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini

belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 5–6 yoshli bolalarni savod o‘rgatishga tayyorlash masalasi bugungi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sanaladi. Chunki, aynan ushbu yosh davrida bolaning nutqiy, kognitiv, psixofiziologik va kommunikativ rivojlanishi jadal kechadi hamda o‘qish va yozishni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalar shakllanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, bolalarning media muhit bilan erta tanishuvi, oilalarda kitob mutolaasi madaniyatining o‘zgarishi hamda maktabgacha ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan yangi talablar savod o‘rgatishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli 5–6 yoshli bolalarni savod o‘rgatishga tayyorlash masalasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning nutqi, tafakkuri, idroki, xotirasi, diqqatining ixtiyoriyligi hamda kommunikativ kompetensiyasi jadal rivojlanadi. Mazkur rivojlanish bosqichi keyinchalik o‘qish va yozishni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan psixologik hamda pedagogik asoslarni yaratadi. Shu sababli maktabga tayyorgarlik faqatgina harflarni o‘rgatish emas, balki bolaning kompleks rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Pedagogik adabiyotlarda “savod o‘rgatishga tayyorgarlik” tushunchasi bolaning o‘qish va yozishni muvaffaqiyatli egallashi uchun zarur bo‘lgan psixologik, fiziologik, lingvistik va metodik tayyorgarligi sifatida talqin etiladi. Ushbu tayyorgarlik bolaning nutqiy rivojlanishi, fonematik eshitishi, fonologik ongi, tovush va harf munosabatini anglashi, lug‘at boyligi, grammatik nutqi, bog‘lanishli nutqi, vizual idroki, fazoviy tasavvurlari, diqqat va xotirasi, mayda qo‘l motorikasi hamda o‘quv motivatsiyasi kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur komponentlarning har biri bolaning keyingi o‘qish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fonologik ongning rivojlanganligi o‘qish tezligi va matnni tushunish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Savodxonlikning ilk bosqichlarini shakllantirish muammosi dunyoning ko‘plab pedagog, psixolog va metodist olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish, fonematik idrokni shakllantirish, yozuv va o‘qishga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari hamda samarali metod va texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Rus psixologi L. S. Vigotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit, kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikni hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Olim tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola mustaqil bajara olmaydigan, biroq kattalar yoki malakali tengdoshlari ko‘magida uddalay oladigan faoliyat uning intellektual rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim jarayonida pedagog tomonidan ko‘rsatiladigan metodik yordam, qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik savodxonlik ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirishning muhim sharti sanaladi. Vigotskiy ta’lim rivojlanishdan oldinda borishi kerakligini ta’kidlab, aynan ta’lim bolaning yangi psixik sifatlarini shakllantirishini ilmiy asoslab bergan.

Shveysariyalik olim Jan Piaje bolalarning kognitiv rivojlanish nazariyasini yaratgan bo‘lib, 2–7 yosh oralig‘ini preoperatsion tafakkur bosqichi deb tavsiflaydi. Uning fikricha, ushbu davrda bolalarda obrazli fikrlash, ramziy faoliyat va tasavvur ustunlik qiladi, mantiqiy operatsiyalar esa hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli savodga tayyorlash jarayonida o‘yin texnologiyalari, ko‘rgazmali vositalar, predmetli-amaliy faoliyat hamda qiziqarli didaktik mashqlardan foydalanish yuqori natija beradi. Piaje bolaning bilimni tayyor holda emas, balki faol izlanish va amaliy harakatlar orqali egallashini asoslab bergan.

Amerikalik olim J. Grover tomonidan ishlab chiqilgan dialogik o‘qish (Dialogic Reading) metodikasi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodda kattalar faqat matnni o‘qib berish bilan cheklanmaydi, balki bolaga savollar beradi,

uni fikrlashga undaydi, voqealarni izohlash, taxmin qilish va hikoya qilishga jalb etadi. Natijada bolalarning lug‘at boyligi kengayadi, og‘zaki nutqi rivojlanadi, matnni tushunish qobiliyati va kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi.

O‘zbekiston pedagogika fanida ham maktabgacha ta’lim, bolalar nutqini rivojlantirish hamda savod o‘rgatish metodikasi bo‘yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mamlakatimiz olimlari tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, nutq faoliyatining shakllanish qonuniyatlari, savodga tayyorlashning didaktik asoslari, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uzviyligini ta’minlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari chuqur tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash va ularning savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy hamda metodik asoslarini yaratishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, o‘zbek milliy pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi Muallim” va “Ikkinchi Muallim” asarlarida ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab bergan. U bolaning shaxs sifatida kamol topishida ona tilining beqiyos o‘rni borligini, nutq madaniyati va ravon so‘zlash malakalarini erta yoshdan shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Avloniy pedagogik qarashlarida o‘qishga qiziqish uyg‘otish, fikrni erkin ifodalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va ma’naviy-axloqiy tarbiyani uyg‘un holda tashkil etish savodxon shaxsni tarbiyalashning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi. Uning fikricha, bola tarbiyasi oilada boshlanib, ta’lim muassasasida izchil davom ettirilishi lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda. Mazkur hujjatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish, savodxonlikning ilk elementlarini shakllantirish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish va bolani maktab ta’limiga kompleks tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Umuman olganda, o‘zbek pedagog olimlarining ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish avvalo nutqni rivojlantirish, fonematik idrokni shakllantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hamda o‘yin asosidagi ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur ilmiy yondashuvlar bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish hamda bolalarni boshlang‘ich ta’limga sifatli tayyorlashning muhim nazariy va metodik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro amaliyotda savodga o‘rgatishga asoslangan turli o‘yinlar, dialogik faoliyatlar, og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan bog‘liq hikoya tuzish, audio, visual va kinestetikaga asoslangan interaktiv kitoblar mutolaasi va STEAM elementlari bilan integratsiyalashgan mashg‘ulotlar samarali metodlar sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro tadqiqotlar tahliliga murojaat qiladigan bo‘lsak, OECD-Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), UNESCO - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar va monitoring natijalari maktabgacha yosh davrida shakllantirilgan savodxonlik kompetensiyalari bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Xususan, OECD tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari natijalari o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha erishayotgan natijalari ko‘p jihatdan

maktabgacha ta’lim davrida shakllantirilgan til, nutq va dastlabki savodxonlik ko‘nikmalariga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. PISA tadqiqotlari tahlillariga ko‘ra, sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan va erta savodxonlik kompetensiyalari rivojlantirilgan bolalar keyingi bosqichlarda matnni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda muammolarni hal etish bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etmoqda. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikning ilk ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘yin faoliyati, nutqiy muloqot, ko‘rgazmalilik, sensor rivojlanish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Ta’lim – 2030” (Education 2030) konsepsiyasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-4) doirasida sifatli ta’limni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida erta bolalik davridagi rivojlanish maktabgacha ta’limda e’tirof etilgan. Ushbu hujjatlarda bolaning maktabga tayyorgarligi faqatgina bilim berish bilan emas, balki nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va dastlabki savodxonlik ko‘nikmalarini tarkib toptirish orqali ta’minlanishi alohida ta’kidlangan. UNICEF tomonidan e’lon qilingan “Early Childhood Development” (Erta bolalik rivojlanishi), Smart ED bo‘yicha tadqiqotlarda hayotning dastlabki yillari inson miyasi eng jadal rivojlanadigan davr ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Aynan shu davrda bolaning til rivoji, fonematik eshituvi, lug‘at boyligi va muloqot ko‘nikmalari shakllanib, keyinchalik o‘qish va yozishni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratiladi. UNICEF ekspertlari tomonidan ota-onalar va pedagoglarning bolalar bilan kitob mutolaa qilishi, suhbatlar tashkil etishi, ertak va hikoyalarni birgalikda o‘qishi hamda rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanishi savodxonlik kompetensiyalarining shakllanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri Reggio Emilia metodikasidir. Ushbu yondashuv Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Italiyaning Reggio Emilia shahrida shakllanib, pedagog Loris Malaguzzi (1920–1994) tomonidan ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Reggio Emilia falsafasining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, har bir bola tug‘ma qobiliyat va ijodiy salohiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonida u faol ishtirokchi, tadqiqotchi va bilim yaratuvchi sifatida qaraladi.

Loris Malaguzzi bolaning o‘z fikrini ifodalashning “yuz tili” (The Hundred Languages of Children) mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bolalar faqat nutq orqali emas, balki rasm chizish, musiqa, haykaltaroshlik, drama, harakat, qurish, tajriba o‘tkazish va boshqa ko‘plab ijodiy faoliyatlar orqali ham o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifoda etadilar. Shu sababli ta’lim jarayonida bolalarning barcha ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi

Reggio Emilia metodikasida pedagog tayyor bilim beruvchi emas, balki bolaning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va kuzatuvchi hamkor sifatida ishtirok etadi. Pedagog bolalarning qiziqishlarini kuzatadi, ular bergan savollar asosida ta’lim mazmunini rejalashtiradi va o‘quv jarayonini loyiha faoliyati orqali tashkil etadi. Natijada bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, hamkorlikda ishlash va ijodkorlik kompetensiyalari rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Toshkent. 2018 y

5. (OECD. (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/5f07c754-en

6. (UNESCO. (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO.)

7. UNICEF-Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (UNICEF. 2019. A World Ready to Learn: Prioritizing Quality Early Childhood Education. New York: United Nations Children’s Fund.

8. Malaguzzi, L. (1998). History, Ideas, and Basic Philosophy: An Interview with Lella Gandini. In C. Edwards, L. Gandini, & G. Forman (Eds.), The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach—Advanced Reflections (2nd ed.). Ablex Publishing.

9. OECD. 2021. Starting Strong VI: Supporting Meaningful Interactions in Early Childhood Education and Care. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/f47a06ae-en

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Rustamova Manzura Mirkamalovna,
Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar nazariy jihatdan asoslangan. Tadqiqot integrativ adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, pedagogik modellashtirish va tizimlashtirish metodlariga tayangan. Ijodiy tafakkur pedagogik muammoni aniqlash, turli va original g‘oyalarni ilgari surish, ularni kasbiy vaziyatga muvofiq baholash, takomillashtirish hamda amaliy yechimga aylantirish imkonini beruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilindi. Tahlil natijasida oltita o‘zaro bog‘liq shart-sharoit ajratildi: kreativ va psixologik xavfsiz ta’lim muhiti; ijodiy topshiriqlarning fanlar mazmuniga integratsiyasi; muammoli, loyihaviy va dizayn-fikrlashga asoslangan faoliyat; raqamli-pedagogik ekotizim; oliy ta’lim va maktab amaliyoti hamkorligi; uzluksiz diagnostika va refleksiv qo‘llab-quvvatlash. Mazkur shartlar maqsadli, mazmuniy, jarayonli, diagnostik va natijaviy bloklardan iborat innovatsion-pedagogik tizim doirasida birlashtirildi. Natijada ijodiy tafakkurning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-divergent, faoliyatli-produktiv va refleksiv-baholash komponentlariga mos mezon hamda ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi. Taklif etilgan model pedagogika oliy ta’lim yo‘nalishlarida mashg‘ulot, pedagogik amaliyot va mustaqil ta’limni loyihalash uchun metodik asos bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ijodiy tafakkur, kreativ kompetensiya, pedagogik shart-sharoit, innovatsion ta’lim, dizayn-fikrlash, loyiha metodi, raqamli ta’lim, refleksiya, pedagogik diagnostika.

Аннотация. В статье теоретически обоснованы педагогические условия развития творческого мышления будущих учителей начальных классов. Исследование основано на интегративном обзоре литературы, сравнительном и контент-анализе, педагогическом моделировании и систематизации. Творческое мышление рассматривается как интегративное профессиональное качество, обеспечивающее выявление педагогической проблемы, выдвижение разнообразных и оригинальных идей, их оценивание, совершенствование и преобразование в практическое решение. Выделены шесть взаимосвязанных условий: креативная и психологически безопасная образовательная среда; интеграция творческих заданий в содержание дисциплин; проблемная, проектная и дизайн-ориентированная деятельность; цифровая педагогическая экосистема; сотрудничество вуза и школы; непрерывная диагностика и рефлексивная поддержка. Предложена инновационно-педагогическая система, объединяющая целевой, содержательный, процессуальный, диагностический и результативный блоки. Определены критерии и показатели мотивационно-ценностного, когнитивно-дивергентного, деятельностно-продуктивного и рефлексивно-оценочного компонентов творческого мышления.

Ключевые слова: будущий учитель начальных классов, творческое мышление, креативная компетентность, педагогические условия, инновационное обучение, дизайн-мышление, проектный метод, цифровое образование, рефлексия.

Abstract. The article provides a theoretical justification of the pedagogical conditions required to develop creative thinking in prospective primary school teachers. The study employs

an integrative literature review, comparative and content analysis, pedagogical modelling, and systematisation. Creative thinking is interpreted as an integrative professional capacity to identify pedagogical problems, generate diverse and original ideas, evaluate and improve them in relation to a professional context, and transform them into workable solutions. Six interrelated conditions are identified: a creative and psychologically safe learning environment; integration of creativity-oriented tasks into course content; problem-, project-, and design-thinking-based activity; a digital pedagogical ecosystem; cooperation between universities and schools; and continuous diagnostic and reflective support. These conditions are integrated into an innovative pedagogical system comprising goal-oriented, content, process, diagnostic, and outcome blocks. Criteria and indicators are proposed for the motivational-value, cognitive-divergent, activity-productive, and reflective-evaluative components of creative thinking. The model can guide the design of university courses, teaching practice, and independent learning in primary teacher education.

Keywords: prospective primary school teacher, creative thinking, creative competence, pedagogical conditions, innovative education, design thinking, project-based learning, digital education, reflection, pedagogical assessment.

KIRISH. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchidan tayyor metodik ko‘rsatmalarni takrorlash bilangina cheklanmay, o‘quv vaziyatini tahlil qilish, bolalarning individual ehtiyojlariga mos yechim topish, fanlararo aloqalarni yaratish va o‘qitish vositalarini yangicha kombinatsiyalashni talab etadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy tafakkuri uning shaxsiy qobiliyatidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, kasbiy-pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ta’limning uzluksizligi, insonparvarligi va ta’lim oluvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi mustahkamlangan [1]. Oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida nazariy bilimga yo‘naltirilgan modeldan amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi ta’limga bosqichma-bosqich o‘tish, innovatsion faoliyat va ilg‘or standartlarni joriy etish vazifalari belgilangan [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son «Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida oliy ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirishni o‘zaro bog‘lashga qaratilgan «5 T» tamoyili ilgari surilgani ham bo‘lajak pedagoglarning yangilik yaratishga tayyorligini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi [3].

Xalqaro yondashuvlarda ijodiy tafakkur original va xilma-xil g‘oyalarni yaratish, ularni baholash hamda takomillashtirish kompetensiyasi sifatida izohlanadi [4]. Runco va Jaeger ijodkorlikning me’yoriy ta’rifida ikki belgi - originallik va samaradorlikning birligini asoslaydi [5]. Demak, noodatiy g‘oyaning o‘zi yetarli emas; u pedagogik maqsadga muvofiq, amalda qo‘llanadigan va ta’lim oluvchiga foyda keltiradigan yechimga aylanishi lozim. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun bu xususiyat dars ishlanmasini yangicha loyihalash, o‘quv topshiriqlarini differensiallashtirish, didaktik vosita yaratish, kutilmagan sinf vaziyatiga moslashish va o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqishda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda kreativlikni qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhiti [6], ijodiy ta’lim muhitining tarkibi [7], texnologik, pedagogik va predmet bilimlarining integratsiyasi [8], ta’lim oluvchilarning ijodiy hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirish mezonlari [9] keng yoritilgan. Oliy ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa kreativlikni rivojlantirish professor-o‘qituvchining kasbiy o‘rganishi, topshiriq dizayni va baholash amaliyoti bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [10; 11]. Shunga qaramay, mavjud ishlarda ayrim metod yoki vositaning samaradorligi ko‘proq o‘rganilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z ijodiy salohiyati, pedagogik mahsulot yaratishi

va bu tajribani maktab amaliyotiga ko‘chirishini yagona tizimda ta’minlaydigan shart-sharoitlar yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularning o‘zaro aloqasini asoslash hamda innovatsion-pedagogik tizim modelini ishlab chiqish. Mazkur maqsadga erishish uchun ijodiy tafakkurning kasbiy mazmunini aniqlashtirish, samarali shart-sharoitlarni tasniflash, rivojlantirish bosqichlari va pedagogik mexanizmlarini belgilash, shuningdek natijani baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish vazifalari qo‘yildi.

2. MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot nazariy-tahliliy dizaynda amalga oshirildi. Manbalar korpusiga O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va oliy ta’lim sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, OECDning ijodiy tafakkurni rivojlantirish va baholashga oid hisobotlari, UNESCOning kelajak pedagogikalariga doir materiallari [14; 15], shuningdek kreativlik, kreativ ta’lim muhiti, raqamli-pedagogik integratsiya va bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligiga bag‘ishlangan fundamental hamda zamonaviy ilmiy ishlar kiritildi. Asosiy e’tibor 2012–2026-yillarda e’lon qilingan manbalarga qaratildi; nazariy modelning uzviyligini ta’minlash uchun 2006–2009-yillardagi tayanch konsepsiyalar ham tahlil qilindi.

Tadqiqotda besh guruh metod qo‘llandi. Birinchidan, integrativ adabiyotlar tahlili orqali ijodiy tafakkurning mohiyati, tarkibiy qismlari va rivojlanish omillari umumlashtirildi. Ikkinchidan, kontent-tahlil yordamida manbalardagi takrorlanuvchi kategoriyalar - psixologik xavfsizlik, avtonomiya, muammoli vaziyat, g‘oya generatsiyasi, mahsulot yaratish, raqamli vosita, refleksiya, fikr-mulohaza va baholash - ajratildi. Uchinchidan, qiyosiy tahlil asosida mazkur kategoriyalarning umumiy va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga xos jihatlari aniqlandi. To‘rtinchidan, pedagogik modellashtirish orqali shart-sharoitlar maqsadli, mazmuniy, jarayonli, diagnostik va natijaviy bloklarga birlashtirildi. Beshinchidan, tizimlashtirish metodi yordamida rivojlantirish bosqichlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari o‘zaro muvofiqlashtirildi.

Tahlil birligi sifatida bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy harakati olindi. U quyidagi mantiqiy zanjir asosida baholandi: pedagogik muammoni sezish va aniqlashtirish; bir nechta yechim g‘oyasini yaratish; g‘oyalarning yangiligi va foydaliligini asoslash; tanlangan yechimni pedagogik mahsulotga aylantirish; uni sinab ko‘rish; fikr-mulohaza asosida takomillashtirish; yangi vaziyatga ko‘chirish. Mazkur zanjir OECDning g‘oya yaratish, baholash va takomillashtirish jarayonlari [4] hamda kreativlikning originallik-samaradorlik birligi [5] bilan muvofiqlashtirildi.

Tadqiqotning ishonchliligi turli turdagi manbalar - normativ hujjatlar, xalqaro baholash konsepsiyalari, tizimli sharhlar va empirik tadqiqotlar - xulosalarining o‘zaro mosligini tekshirish orqali ta’minlandi. Taklif etilgan model empirik samaradorlik haqidagi yakuniy da’vo sifatida emas, balki keyingi tajriba-sinov ishlarida tekshirilishi lozim bo‘lgan nazariy-metodik konstruksiya sifatida taqdim etildi.

3. NATIJALAR

3. 1. Ijodiy tafakkurning kasbiy-pedagogik mazmuni

Tahlil natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy tafakkuri pedagogik vaziyatdagi muammo va imkoniyatlarni ko‘ra bilish, turli, original hamda maqsadga muvofiq g‘oyalarni yaratish, ularni didaktik mezonlar asosida tanlash, pedagogik mahsulot ko‘rinishida amalga oshirish va refleksiya asosida takomillashtirishni ta’minlaydigan integrativ kasbiy sifat sifatida aniqlandi. Ushbu ta’rif ijodiy tafakkurni faqat divergent fikrlash bilan cheklamaydi; unda konvergent baholash, kasbiy mas’uliyat, amaliy natija va transfer ham nazarda tutiladi.

Ijodiy tafakkurning tuzilmasida to‘rtta komponent ajratildi. Motivatsion-qadriyatli komponent

yangilikka qiziqish, noaniqlikka nisbatan bardoshlilik, intellektual tavakkal va o‘z ijodiy imkoniyatiga ishonchni qamrab oladi. Kognitiv-divergent komponent muammoni qayta ifodalash, ko‘p va turli g‘oyalar yaratish, fanlararo aloqalarni ko‘rish hamda noodatiy kombinatsiyalar tuzishga xizmat qiladi. Faoliyatli-produktiv komponent g‘oyani dars ishlanmasi, topshiriq, didaktik material, loyiha yoki raqamli resursga aylantirishni ifodalaydi. Refleksiv-baholash komponent esa mahsulotning originalligi, didaktik maqsadga muvofiqligi, bolalar yoshiga mosligi, inklyuzivligi va amaliy samaradorligini tahlil qilishni ta’minlaydi.

Pedagogik shart-sharoitlar tizimi. Pedagogik shart-sharoit deganda natijaga tashqi ta’sir ko‘rsatuvchi alohida omil emas, balki maqsad, mazmun, faoliyat, vosita, munosabat va baholashni muvofiqlashtiruvchi boshqariladigan imkoniyatlar majmui tushunildi. Tahlil asosida oltita o‘zaro bog‘liq shart-sharoit aniqlandi.

1-jadval. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Pedagogik shart	Ta’sir mexanizmi	Amalga oshirish vositalari	Kuzatiladigan natija
Psixologik xavfsiz va motivatsion muhit	Xato qilishdan qo‘rqishni kamaytiradi; ichki motivatsiya va mualliflik hissini kuchaytiradi.	Tanlovli topshiriq, ochiq savol, fikrlar banki, bahosiz dastlabki g‘oya bosqichi.	Talaba ko‘proq g‘oya ilgari suradi, noodatiy yechimni dalillaydi.
Muammoli-loyihaviy faoliyat	Divergent va konvergent fikrlashni real kasbiy muammoda birlashtiradi.	Pedagogik keys, loyiha, mikrodars, STEAM topshirig‘i, prototiplash.	Muqobil yechimlar soni, moslashuvchanlik va mahsulot sifati oshadi.
Refleksiya va formativ baholash	Fikrlash strategiyasini anglash, g‘oyani mezon asosida qayta ishlashni ta’minlaydi.	Portfolio, refleksiv kundalik, rubrika, tengdoshlar fikri, o‘zini baholash.	Talaba g‘oyasining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatib, uni yaxshilaydi.
Raqamli-didaktik muhit	Axborot va ifoda shakllarini kengaytiradi, tez prototiplash imkonini beradi.	Multimedia, virtual doska, didaktik konstruktor, etik AI yordamida variant yaratish.	Ko‘p formatli didaktik mahsulot va asoslangan raqamli tanlov yuzaga keladi.
Nazariya-amaliyot integratsiyasi	Yangi bilimni real sinfga ko‘chirish va kontekstga moslashtirishni kuchaytiradi.	Pedagogik amaliyot, mentorlik, dars tahlili, hamkorlikda rejalashtirish, harakatdagi tadqiqot.	Talaba yechimni sinf sharoitiga moslashtiradi va dalil asosida qayta loyihalaydi.

Manba: muallif tomonidan [4; 9–11] manbalar tahlili asosida ishlab chiqilgan.

Innovatsion-pedagogik tizim modeli. Aniqlangan shart-sharoitlar alohida qo‘llanganda qisqa muddatli faollikni yuzaga keltirishi mumkin, biroq barqaror kasbiy sifatni shakllantirish uchun ular yagona tizimda ishlashi zarur. Shu asosda besh blokdan iborat innovatsion-pedagogik model ishlab chiqildi. Maqsadli blok bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy-pedagogik muammoni mustaqil hal qilishga tayyorligini belgilaydi. Konseptual-mazmuniy blok shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli, tizimli va refleksiv yondashuvlarni birlashtiradi. Jarayonli-texnologik blok muammoli vaziyat, g‘oya generatsiyasi, prototiplash, sinov, fikr-mulohaza va takomillashtirish siklini ta’minlaydi. Diagnostik blok mezonli baholash, portfolio va o‘zini baholash vositalarini qamrab oladi. Natijaviy blok esa reproduktiv darajadan innovatsion darajaga o‘tishni ifodalaydi.

Tizimning ishlash algoritmi to‘rt bosqichdan iborat. Diagnostik-motivatsion bosqichda talabaning boshlang‘ich kreativ profili, kasbiy qiziqishi va mavjud stereotiplari aniqlanadi. Izlanish-loyihalash bosqichida ochiq muammo tahlil qilinib, turli g‘oyalar yaratiladi va mezonlar asosida tanlanadi. Prototiplash-sinov bosqichida g‘oya dars fragmenti, topshiriq, o‘quv materiali yoki raqamli resursga aylantiriladi hamda mikroo‘qitish yoki pedagogik amaliyotda tekshiriladi. Refleksiya-transfer bosqichida fikr-mulohaza umumlashtiriladi, mahsulot takomillashtiriladi va boshqa mavzu yoki sinf vaziyatiga ko‘chirish rejalashtiriladi.

2-jadval. Rivojlantirish bosqichlarining mazmuni

Bosqich	Yetakchi faoliyat	Oraliq mahsulot
Diagnostik-motivatsion	Muammoli savol, kreativ profil, o‘zini baholash, kasbiy ehtiyojni aniqlash	“Nimani va nima uchun o‘zgartirish kerak?” savoliga asoslangan muammo xaritasi
Izlanish-loyihalash	Aqliy hujum, SCAMPER, morfologik tahlil, konsept-xarita, dizayn-fikrlash	Bir nechta g‘oya va asoslangan yechim konsepsiyasi
Prototiplash-sinov	Dars dizayni, mikroo‘qitish, didaktik prototip, raqamli resurs, mentor fikri	Sinovdan o‘tkazilgan pedagogik mahsulot va kuzatuv dalillari
Refleksiya-transfer	Portfolio, ekspert va tengdosh bahosi, refleksiv esse, qayta loyihalash	Takomillashtirilgan mahsulot hamda yangi vaziyatda qo‘llash rejasi

Baholash mezonlari va darajalari. Ijodiy tafakkurni faqat tayyor mahsulotning tashqi yangiligi bilan baholash biryoqlama natija beradi. Shu bois jarayon, mahsulot va refleksiyani birlashtiruvchi to‘rtta mezon taklif etildi. Baholashda talabaning avvalgi natijasiga nisbatan individual o‘sishi hamda kasbiy talabga muvofiqligi birgalikda hisobga olinishi kerak. OECD yondashuvidagi g‘oya yaratish, baholash va takomillashtirish jarayonlari [4] mazkur mezonlarning xalqaro talqin bilan uyg‘unligini ta’minlaydi.

3-jadval. Ijodiy tafakkurni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Asosiy ko‘rsatkichlar	Kuzatiladigan natija
Motivatsion-qadriyatli	Yangilikka qiziqish; savol berishga tayyorlik; intellektual tavakkal; noaniqlikka bardoshlilik; kreativ o‘ziga ishonch	Tashabbus ko‘rsatishi va yangi yechim izlashni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishi
Kognitiv-divergent	Muammoni qayta ifodalash; g‘oyalar ravonligi; moslashuvchanlik; originallik; fanlararo bog‘lanish	Bir muammoga turli nuqtai nazardan bir nechta asoslangan yechim yaratishi
Faoliyatli-produktiv	G‘oyani rejalashtirish; pedagogik mahsulot yaratish; raqamli vositani maqsadli tanlash; sinash va moslashtirish	Yangicha, foydali, yoshga mos va amalda qo‘llanadigan dars yoki vosita ishlab chiqishi
Refleksiv-baholash	Mezon asosida o‘zini baholash; dalil bilan xulosa qilish; fikr-mulohazani qabul qilish; qayta ishlash; transfer	Kamchilikni aniqlab, mahsulotni takomillashtirishi va boshqa vaziyatga ko‘chira olishi

Mezonlar asosida to‘rtta rivojlanish darajasi belgilandi. Reproduktiv darajada talaba tayyor namunani takrorlaydi va yechimni mustaqil asoslashda qiynaladi. Adaptiv darajada mavjud metodni vaziyatga moslashtiradi, biroq variantlar soni va originalligi cheklangan bo‘ladi. Produktiv darajada bir nechta maqsadga muvofiq yechim ishlab chiqadi, ulardan birini pedagogik mahsulotga aylantiradi va dalil asosida takomillashtiradi. Innovatsion darajada esa muammoni yangicha ifodalaydi, fanlararo resurslardan foydalanadi, original hamda foydali mahsulot yaratadi va o‘z tajribasini yangi kasbiy vaziyatga ko‘chira oladi.

Shart-sharoitlarni amalga oshirish mexanizmlari Birinchi mexanizm - har bir metodik fan doirasida kamida bitta ochiq yakunli kasbiy topshiriqni joriy etishdir. Masalan, talabalarga “1-sinf o‘quvchilarida o‘qishga qiziqish pasaygan vaziyatda bir xil mazmunni uch xil usulda o‘rgatish” vazifasi beriladi. Bunda yagona to‘g‘ri javob talab qilinmaydi; yechimning yangiligi, didaktik asoslanganligi, yosh xususiyatiga mosligi va amalga oshirish imkoniyati baholanadi. Bu usul ijodiy tafakkurni fan mazmunidan ajratib qo‘ymasdan rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchi mexanizm - “muammo - g‘oya - prototip - sinov - refleksiya” sikliga asoslangan mini-loyihalardir. Talaba real yoki modellashtirilgan sinf muammosini o‘rganadi, kamida uchta yechim taklif qiladi, mezonlar asosida birini tanlaydi, dars fragmenti yoki didaktik material prototipini yaratadi va mikroo‘qitishda sinaydi. Dizayn-fikrlashning bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ o‘ziga ishonch, ixtirochilikka yo‘naltirilgan muammo yechish va texnologik motivatsiyani rivojlantirish imkoniyati empirik tadqiqotlarda ham qayd etilgan [12].

Uchinchi mexanizm - raqamli vositalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishni o‘rgatishdir. TPACK yondashuvi texnologiya, pedagogika va predmet mazmunini alohida emas, ularning kesishmasida loyihalash zarurligini ko‘rsatadi [8]. Shu bois raqamli platforma yoki sun’iy intellekt vositasi tayyor javobni ko‘paytirish uchun emas, muqobil g‘oyalarni taqqoslash,

materialni turli o‘quv ehtiyojlariga moslashtirish, prototip yaratish va fikr-mulohazani tezlashtirish uchun ishlatilishi kerak. Talaba manbani tekshirish, mualliflikni ko‘rsatish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va yakuniy pedagogik qaror uchun mas’uliyatni o‘zida saqlash talablariga amal qiladi.

To‘rtinchi mexanizm - ijodiy portfolio va mezonli fikr-mulohazadir. Portfolioga dastlabki g‘oya, muqobil variantlar, tanlov asoslari, prototip, sinov dalillari, tengdosh yoki mentor fikri va qayta ishlangan mahsulot kiritiladi. Natijada baholash faqat yakuniy mahsulotga emas, talabaning fikrlash dinamikasiga ham qaratiladi. Oliy ta’limda kreativ va tanqidiy tafakkurni baholash bo‘yicha tahlillar ham ochiq mezonlar, formatif baholash, o‘zini baholash va autentik topshiriqlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [11].

Beshinchi mexanizm - professor-o‘qituvchi, mentor o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlikdir. OTMda yaratilgan pedagogik mahsulot maktabdagi real sinf sharoitida kuzatiladi; mentor uning amaliy qulayligi va bolalar reaksiyasi haqida fikr bildiradi; talaba esa olingan dalillar asosida mahsulotni qayta ishlaydi. Bunda pedagogik amaliyot tayyor darsni namoyish qilish joyidan kasbiy g‘oyani sinash va takomillashtirish laboratoriyasiga aylanadi.

MUHOKAMA. Olingan nazariy natijalar kreativlikni originallik va samaradorlik birligi sifatida talqin qiluvchi yondashuv bilan mos keladi [5]. Taklif etilgan modelda originallik g‘oyalar xilma-xilligi va yangiligi orqali, samaradorlik esa didaktik maqsadga muvofiqlik, yoshga moslik, inklyuzivlik hamda amaliy qo‘llanish orqali baholanadi. Bu holat boshlang‘ich ta’lim uchun ayniqsa muhim, chunki noodatiy, ammo bolalarning yosh xususiyatlari yoki o‘quv maqsadiga mos kelmaydigan yechim pedagogik jihatdan ijodiy mahsulot hisoblanmaydi.

Kaufman va Beghettoning “To‘rt C” modeli ta’lim jarayonidagi shaxsiy mazmun yaratish - mini-c - hamda kundalik ijodkorlik - little-c - ni e’tirof etadi [13]. Bo‘lajak o‘qituvchining rivojlanishida aynan shu ikki daraja muhim boshlang‘ich nuqtani tashkil qiladi. Talabaning o‘zi uchun yangi bo‘lgan metodik kashfiyot dastlab mini-c sifatida namoyon bo‘lsa, u sinovdan o‘tib, boshqa vaziyatlarda qo‘llanadigan pedagogik yechimga aylanganda little-c darajasiga ko‘tariladi. Shu sababli baholashda faqat mutlaq yangilikni emas, talabaning avvalgi holatiga nisbatan o‘sishini ham hisobga olish taklif qilindi.

Kreativ ta’lim muhitiga bag‘ishlangan tizimli sharhlar moslashuvchan vaqt va makon, o‘yin va tadqiqotga asoslangan faoliyat, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi hurmat, hamkorlik hamda o‘quvchiga tanlov berish ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi [7]. Beghetto va Kaufman esa sinfda kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchining yashirin signallari, xatoga munosabati va g‘oyalarni qabul qilish usuli ham muhimligini ta’kidlaydi [6]. Mazkur maqolada bu qarashlar “kreativ va psixologik xavfsiz muhit” sharti orqali bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligiga moslashtirildi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik dizayn mezonlarida o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish, murakkab topshiriq, mahsulot yaratish, yechimni hamkorlikda loyihalash, muammoga turli nuqtai nazardan qarash, kutilmagan natijaga joy qoldirish hamda refleksiya va fikr-mulohaza uchun vaqt ajratish muhim deb ko‘rsatiladi [9]. Taklif etilgan bosqichli algoritm ushbu talablarni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy mahsulot yaratish jarayoniga ko‘chiradi. Modelning farqli jihati shundaki, talaba bir vaqtning o‘zida ikki natijaga erishadi: o‘z ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodkorligini qo‘llab-quvvatlaydigan dars dizaynini yaratadi.

Raqamli vositalar modelning mustaqil maqsadi emas, pedagogik g‘oyani kengaytiruvchi resurs sifatida talqin qilindi. Bu TPACK konsepsiyasidagi texnologiya, pedagogika va mazmunning kontekstga bog‘liq integratsiyasiga mos keladi [8]. Raqamli vositani tanlash “qaysi dastur zamonaviy?” savoliga emas, “qaysi vosita aynan shu o‘quv maqsadiga va bolalar ehtiyojiga mos?” savoliga asoslanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektdan foydalanish ham g‘oyani

to‘liq topshirish emas, balki variantlarni kengaytirish, taqqoslash va tahrirlash jarayonini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy tafakkuri g‘oya yaratish, pedagogik mahsulotga aylantirish, sinash, baholash va transferni birlashtiruvchi kasbiy sifat sifatida aniqlashtirildi. Ikkinchidan, oltita pedagogik shart-sharoit alohida omillar emas, innovatsion-pedagogik tizimning o‘zaro bog‘liq mexanizmlari sifatida asoslandi. Uchinchidan, jarayon va natijani uyg‘un baholashga xizmat qiluvchi to‘rt komponentli mezonlar tizimi hamda reproduktiv, adaptiv, produktiv va innovatsion darajalar tavsiya etildi.

Tadqiqotning cheklovi uning nazariy-tahliliy xarakteri bilan bog‘liq. Taklif etilgan modelning samaradorligi hozircha tajriba va nazorat guruhlarida statistik jihatdan tekshirilmagan. Keyingi tadqiqotda pedagogika oliy ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida mezonlarning mazmuniy validligi ekspert bahosi orqali aniqlanishi, diagnostik vositalarning ishonchliligi tekshirilishi, so‘ngra kamida bir semestrlik tajriba-sinov dasturi amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ijodiy mahsulotlarni baholashda ekspertlararo muvofiqlik va raqamli vositalardan foydalanishning etik jihatlari alohida nazorat qilinishi zarur.

XULOSA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish qisqa muddatli kreativ mashqlar yoki alohida interfaol metod bilan cheklanmaydi. U talabaning motivatsiyasi, kasbiy bilimi, g‘oya yaratish usullari, pedagogik mahsulot ishlab chiqish tajribasi, raqamli savodxonligi, maktab amaliyoti va refleksiv baholashini yagona tizimda uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Tadqiqot natijasida kreativ va psixologik xavfsiz muhit yaratish; ijodiy topshiriqlarni fanlar mazmuniga integratsiyalash; muammoli, loyihaviy va dizayn-fikrlashga asoslangan faoliyatni yo‘lga qo‘yish; raqamli-pedagogik ekotizimdan maqsadli foydalanish; OTM bilan maktab amaliyoti hamkorligini kuchaytirish; uzluksiz diagnostika va refleksiv qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida belgilandi. Ularning samarasi faqat o‘zaro bog‘langan holda, “muammo - g‘oya - prototip - sinov - refleksiya - transfer” sikli asosida tashkil etilganda yuzaga chiqadi.

Amaliyotda har bir metodik fan dasturiga ochiq yakunli kasbiy topshiriqlarni kiritish, semestr davomida kamida bitta fanlararo mini-loyihani bajarish, pedagogik amaliyotda yaratilgan prototipni sinash, ijodiy portfolio yuritish va mezonli o‘zaro baholashni joriy etish tavsiya etiladi. Professor-o‘qituvchi esa tayyor yechim beruvchi emas, muammoni aniqlashtiruvchi, savol bilan yo‘naltiruvchi, xavfsiz tajriba maydonini yaratuvchi va asosli fikr-mulohaza beruvchi fasilitator vazifasini bajarishi lozim. Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchini nafaqat yangicha fikrlashga, balki o‘z g‘oyasining pedagogik qiymatini isbotlash, sinash va takomillashtirishga ham tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr (amaldagi tahrir). URL: https://lex.uz/docs/-5013007

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr. URL: https://lex.uz/docs/-4545884

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-son Farmoni. 2026-yil 10-aprel. URL: https://lex.uz/uz/docs/-8129755

OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. Paris: OECD

Publishing, 2024. DOI: https://doi.org/10.1787/765ee8c2-en

Runco M. A., Jaeger G. J. The Standard Definition of Creativity // Creativity Research Journal. 2012. Vol. 24, No. 1. P. 92-96. DOI: https://doi.org/10.1080/10400419.2012.650092

Beghetto R. A., Kaufman J. C. Classroom Contexts for Creativity // High Ability Studies. 2014. Vol. 25, No. 1. P. 53-69. DOI: https://doi.org/10.1080/13598139.2014.905247

Davies D., Jindal-Snape D., Collier C., Digby R., Hay P., Howe A. Creative Learning Environments in Education: A Systematic Literature Review // Thinking Skills and Creativity. 2013. Vol. 8. P. 80-91. DOI: https://doi.org/10.1016/j.tsc.2012.07.004

Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017-1054. DOI: https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x

MUALLIFNI HISOBGA OLUVCHI KONTRASTIV MATN KLASTERLASH YONDASHUVINING TANQIDIY-ANALITIK TAHLILI

Subxonqulov Umidjon
Buxoro Davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif ma'lumotini kontrastiv o'rganish asosida matn klasterlash jarayoniga integratsiya qiluvchi CAT (Contrastive Author-aware Text Clustering) modelining nazariy asoslari, arxitekturasi va ishlash tamoyillari tanqidiy-tahliliy jihatdan baholangan. Matn klasterlashning mavjud yondashuvlarida asosan matn mazmuniga e'tibor qaratilib, muallifga oid ma'lumotlardan samarali foydalanish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolada modelning matematik asoslari, jumladan, klaster-instansiya va instansiya-instansiya kontrastiv yo'qotish funksiyalari, o'qitiladigan vaznli pooling (Trainable Weighted Pooling, TWP) hamda klaster darajasidagi diqqat mexanizmining ishlash prinsiplari tahlil qilinadi. Shuningdek, eksperimental natijalar statistik va metodologik nuqtai nazardan baholanib, yondashuvning afzalliklari, mavjud cheklovlari hamda amaliy qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. O'tkazilgan tahlil natijalari muallifga oid ma'lumotni kontrastiv o'rganish asosida integratsiya qilish matn klasterlash sifatini oshirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: matn klasterlash; kontrastiv o'rganish; muallifga xos vakillashtirish; ko'p ko'rinishli o'rganish; o'qitiladigan pooling; klaster-instansiya kontrasti.

Kirish. Matn klasterlash tabiiy tilni qayta ishlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, yorliqlanmagan matn to'plamlarini semantik jihatdan yaqin guruhlarga ajratishga xizmat qiladi. An'anaviy yondashuvlar (K-means, LDA, avtoenkoderga asoslangan modellar) faqat matn mazmunidan olingan xususiyatlarga tayanadi, biroq foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent (User Generated Content) davrida har bir matn ma'lum bir muallif (ID) bilan bog'liq bo'lib, bu muallif odatda cheklangan mavzular doirasida faoliyat yuritadi (Tang va boshq., 2022).

Ko'rib chiqilayotgan tadqiqotning markaziy muammosi shundan iboratki, muallifga oid ma'lumot klasterlash sifatini oshirish uchun qo'shimcha signal bera olishi mumkin bo'lsa-da, bu ma'lumotni model arxitekturasiga qanday samarali kiritish masalasi hal etilmagan bo'lib qolmoqda. Mualliflar StackOverflow, Yahoo! Answers va Twitter platformalaridan olingan real ma'lumotlar asosida dastlabki empirik tahlil o'tkazib, mualliflarning «mavzu qamrovi» (topic coverage) juda tor (1,1–4,7 foiz oralig'ida) va «mavzu konsentratsiyasi» (topic concentration) yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu kuzatuv modelning asosiy gipotezasini shakllantiradi: agar muallif faqat bir necha mavzuga ixtisoslashgan bo'lsa, muallif vakillashtiruvi (embedding) matn klaster tayinlanishini aniqlashtiruvchi qo'shimcha cheklov sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ushbu gipotezani formal modelga aylantirish uchun mualliflar kontrastiv o'rganish (contrastive learning) paradigmasidan foydalanadilar biroq tasvir yoki grafik ma'lumotlar uchun keng tarqalgan kesish (cropping) yoki tugunlarni tashlab yuborish (dropping) kabi kengaytirish usullari matnning diskret tabiati tufayli to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmaydi. Shu sababli, tadqiqotning asosiy metodologik yangiligi kengaytirishni so'z darajasida emas, balki uzluksiz vakillashtirish fazosida, klaster markazlariga asoslangan holda amalga oshirishdir. Mazkur sharh maqolasining maqsadi ushbu arxitekturaviy va matematik yechimlarning ichki mantiqini, hisoblash tuzilishini va eksperimental dalillar bazasining ishonchlilik darajasini mustaqil tarzda baholashdan iborat.

Metodlar. CAT modeli uchta asosiy hisoblash bosqichidan iborat: (1) muallif, sarlavha va matn tanasi vakillashtiruvlarini birlashtirib, yaxlit matn vakillashtiruvini shakllantirish; (2) klaster darajasidagi diqqat mexanizmi orqali matn vakillashtiruvining kengaytirilgan versiyasini qurish;

(3) kontrastiv yo‘qotish funksiyalari asosida modelni uchma-uch (end-to-end) o‘qitish.

Muallifga xos matn vakillashtiruvining shakllantirilishi

Har bir matn D muallif u, sarlavha T va matn tanasi B dan iborat uchlik sifatida ifodalanadi. So’z va muallif identifikatorlari avval bir-nechta o’lchamli qidiruv jadvali (lookup) orqali past o’lchamli vektorlarga aylantiriladi. Sarlavha va matn tanasi darajasidagi vakillashtiruvlar oddiy o’rtacha yoki maksimal pooling o’rniga o’qitiladigan vaznli pooling (Trainable Weighted Pooling, TWP) strategiyasi orqali hisoblanadi, bunda har bir so’zga lug’atda umumiy bo’lgan o’qitiladigan vazn ω tayinlanadi va bu vazn teskari hujjat chastotasi (IDF) qiymati bilan initsializatsiya qilinadi:

$$t=\sum_{i=1}^{n} \omega_i \cdot w_i \quad (1)$$

Bu yerda w_i - sarlavhadagi i-so’zning vektor vakillashtiruvi, ω_i - shu so’zga mos o’qitiladigan vazn koeffitsiyenti. Xuddi shu formula orqali matn tanasi darajasidagi vakillashtiruv b ham hisoblanadi. So’ngra muallif u, sarlavha t va matn tanasi b vakillashtiruvlari diqqatga o’xshash vaznli yig’indi orqali yakuniy matn vakillashtiruvi d ga birlashtiriladi:

$$d=\gamma_1 \cdot u+\gamma_2 \cdot t+\gamma_3 \cdot b \quad (2)$$

Vazn koeffitsiyentlari $\gamma = [\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3]$ kosinusli o’xshashlik funksiyasi orqali, salbiy bo’lmagan qiymatlarni ta’minlash uchun giperbolik tangens transformatsiyasidan so’ng hisoblanadi. Bu yechim standart o’z-diqqat (self-attention) mexanizmiga qaraganda soddaroq, biroq mualliflarning ta’kidlashicha, murakkabroq diqqat sxemalari sezilarli yaxshilanish bermagan bu amaliy jihatdan model murakkabligini asossiz oshirmaslik tamoyiliga mos keladi.

Klasterga asoslangan vakillashtiruv kengaytirish

Matn kengaytirishning o’ziga xos yechimi matnni tasodifiy o’zgartirish o’rniga, K ta o’qitiladigan klaster markazi ck (k=1,…,K) bilan qanchalik bog’liqligini softmax orqali baholab, shu ehtimolliklar asosida klaster vakillashtiruvlarining vaznli yig’indisini qurishdir:

$$p(c_k|d)=e^{(c_k^\top d)}/(\sum_{j=1}^{K} e^{(c_j^\top d)}) \quad (3)$$

$$\tilde{d}=\sum_{k} [\![p(c_k|d)]\!] c_k \quad (4)$$

Ushbu yechimning nazariy asosi shundan iboratki, matnga eng yaqin klasterlarning vaznli kombinatsiyasi o’sha matnning «prototipik» versiyasini anglatadi va shu bilan asl vakillashtiruv d bilan yaqin, ammo aynan bir xil bo’lmagan pozitiv juftlik hosil qiladi. Bu tasvir sohasidagi geometrik kengaytirishlarga (masalan, aylantirish yoki kesish) matematik jihatdan analog, biroq uzluksiz semantik fazoda amalga oshiriladigan alternativ yechimdir.

Kontrastiv yo’qotish funksiyalari

Model uchta turdagi kontrastiv signaldan foydalanadi. Klaster-instansiya kontrasti L1 asl vakillashtiruv d va uning klasterga asoslangan kengaytirilgan versiyasi $\tilde{d}$ ni bir-biriga yaqinlashtiradi, tasodifiy tanlangan psevdo-salbiy matnlardan esa uzoqlashtiradi; bu normallashtirilgan harorat-shkalalangan kross-entropiya (NT-Xent) yo’qotishi asosida amalga oshiriladi:

$$l(d,\tilde{d},d_n,(d_n)\tilde{}) = -\log(\exp(\phi(d,\tilde{d})/\tau)/(\sum_{n} [\exp(\phi(d,d_n)/\tau)+\exp(\phi(d,(d_n)\tilde{})/\tau)])) \quad (5)$$

Muallif-matn kontrasti L2 esa sarlavha va matn tanasi yig’indisi (t+b) ni tegishli muallif vakillashtiruvi u ga yaqinlashtiradi, boshqa mualliflarning vakillashtiruvlaridan uzoqlashtiradi bu bevosita 3-bo’limdagi empirik kuzatuv (tor mavzu qamrovi) ni model arxitekturasiga formal cheklov sifatida kiritadi. Sarlavha-matn tanasi kontrasti L3 esa bitta matnning ikki «ko’rinishi» (sarlavha va tana) o’rtasidagi semantik izchillikni ta’minlaydi. Yakuniy yo’qotish funksiyasi ushbu uch komponentning vaznli yig’indisi sifatida shakllantiriladi:

$$L=\sum_{i=1}^{N} [L_1(D_i)+\alpha L_2(D_i)+\beta L_3(D_i)] \quad (6)$$


Bu yerda α va β - muallif-matn va sarlavha-tana kontrastlarining nisbiy ta’sirini boshqaruvchi gipermetrlar. Modelning o’qitiladigan parametrlar to’plami nisbatan cheklangan (so’z va

muallif embeddinglari, diqqat matritsasi va pooling vazlari), bu esa transformer-asosidagi og'ir arxitekturalarga nisbatan hisoblash resurslariga talabning kamligini ko'rsatadi biroq maqolada bu haqda aniq vaqt yoki xotira murakkabligi tahlili keltirilmagan, bu metodologik bo'shliq sifatida qayd etilishi lozim.

Tajriba dizayni. Baholash uchta ochiq ma'lumotlar to'plamida (StackOverflow - SO, Yahoo! Answers - YA, Twitter - TW) o'tkaziladi, ularning tanlanish mezoni - matn muallifining identifikatori mavjudligi. SO va YA sarlavha va tana qismlariga ega, TW esa faqat qisqa matndan iborat bo'lib, modelning sarlavhasiz stsenariyga moslashuvchanligini tekshirish uchun qo'shimcha to'plam sifatida xizmat qiladi. Baholash mezonlari sifatida normallashtirilgan o'zaro axborot (NMI), moslashtirilgan Rand indeksi (ARI) va klasterlash aniqligi (ACC) qo'llaniladi - bu uchlik klasterlash tadqiqotlarida standart hisoblanadi va turli jihatlardan (axborot-nazariy, kombinatorik, hisoblovchi) baholash imkonini beradi.

Solishtirma tahlil uchun umumiy klasterlash usullari (K-means, LDA, GSDMM, Doc2Vec, DEC, DKM, SCCL, ARL) va muallifni hisobga oluvchi usullar (ATM, MvSCN, DEC-Author, Kmeans-AuthorID, Kmeans-AuthorW, ARL-Author) tanlangan. Ushbu ikki guruhli taqqoslash dizayni metodologik jihatdan puxta, chunki u nafaqat CAT ning umumiy ustunligini, balki xuddi shu «muallif qo'shish» g'oyasining boshqa asosiy modellarga (DEC, ARL, Kmeans) qanday ta'sir qilishini ham alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi - bu kontrastiv mexanizmning o'ziga xos hissasini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Asosiy natijalar SO va YA ma'lumotlar to'plamlarida barcha solishtirilgan usullar orasida CAT ning barqaror va katta farq bilan yetakchilik qilishini ko'rsatadi. Quyidagi diagramma eng muhim usullarning SO to'plamidagi uchta mezon bo'yicha natijalarini vizual taqqoslaydi.




1-rasm. SO ma'lumotlar to'plamida tanlangan klasterlash usullarining NMI, ARI va ACC ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslanishi (Tang va boshq. (2022) asaridagi sonli natijalar asosida qayta chizilgan).

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, klassik K-means va LDA usullari 0.31–0.51 oralig'ida NMI ko'rsatkichiga ega bo'lsa, chuqur vakillashtirish modeli ARL bu ko'rsatkichni 0.63 gacha, CAT esa 0.82 gacha oshiradi. ARI ko'rsatkichidagi farq yanada keskinroq: K-means uchun 0.22 atrofida bo'lgan qiymat CAT uchun 0.73 ga yetadi, bu esa klaster tayinlanishining tasodifiy

moslikdan sezilarli darajada yuqori ekanligini bildiradi. Muallif ma’lumotini soddaroq usulda (masalan, Kmeans-AuthorID orqali bitta-issiq kodlash bilan) qo’shish nisbatan kam foyda berishi (0.5150 dan 0.515 ga o’zgarishsiz qolishi) muhim metodologik xulosani tasdiqlaydi: muallif ma’lumotining foydaliligi uni qanday integratsiya qilish usuliga bog’liq, shunchaki xususiyat sifatida qo’shish emas.

Ablatsiya tahlili. Modelning to’rtta asosiy komponenti (muallif vakillashtiruvi, muallif-matn kontrasti, sarlavha-tana kontrasti, o’qitiladigan pooling) alohida olib tashlanganda kuzatilgan o’zgarishlar quyidagi diagrammada keltirilgan.



2-rasm. CAT modelining ablatsiya tahlili natijalari: har bir komponent olib tashlanganda SO va YA to’plamlaridagi NMI ko’rsatkichining o’zgarishi (Tang va boshq. (2022) natijalari asosida qayta chizilgan).

Diagrammadan ko’rinadiki, muallif-matn kontrastiv yo’qotishi (AT-CL) olib tashlanganda eng katta pasayish kuzatiladi (SO da NMI 0.8214 dan 0.7256 gacha), bu komponentning model samaradorligidagi markaziy o’rnini tasdiqlaydi. Bu natija tadqiqotning 3-bo’limidagi empirik kuzatuv mualliflarning tor mavzu qamrovi va yuqori konsentratsiyasi bilan mantiqiy izchillikda: agar bu xususiyat haqiqatan mavjud bo’lsa, uni to’g’ridan-to’g’ri kontrastiv cheklov sifatida modellashtirish eng katta samarani berishi kutilgan natija hisoblanadi. Faqat klaster-instansiya kontrastigina qolganda (barcha instansiya-instansiya komponentlari olib tashlanganda) natija eng past darajaga (NMI 0.6465) tushadi, bu esa uchta kontrastiv signalning bir-birini to’ldiruvchi, ammo teng bo’lmagan hissa qo’shishini ko’rsatadi.

Gipermetrlarga sezuvchanlik tahlili shuni ko’rsatadiki, α va β qiymatlari 1 atrofida optimal natija beradi, ulardan chetga chiqish (ayniqsa oshirish) natijani yomonlashtiradi bu ikkala kontrastiv komponent orasida nozik muvozanat zarurligini bildiradi. Harorat parametri τ ning [0.6; 0.8] oralig’ida nisbatan barqaror natija berishi amaliy jihatdan foydali, chunki bu gipermetrni yangi ma’lumotlar to’plamlariga moslashtirishda keng qidiruv zarur emasligini anglatadi. Alohida e’tiborga molik natija oldindan o’qitilgan BERT modelini so’z vakillashtiruvi sifatida qo’llash aksincha natijani yomonlashtirgani (NMI 0.6665 gacha pasaygani), bu esa klasterlash vazifasi uchun BERT ning sintaktik jihatdan boy, ammo klaster ajratish uchun ortiqcha kontekstual

xususiyatlari har doim ham foydali emasligini ko’rsatadi.

Muhokama. CAT modelining asosiy nazariy yutug’i muallif ma’lumotini passiv xususiyat sifatida emas, balki faol o’quv signali (kontrastiv cheklov) sifatida modellashtirishdir. Bu yondashuv muallif haqidagi bilimni to’g’ridan-to’g’ri optimallashtirish maqsad funksiyasiga kiritadi, natijada model nafaqat matn mazmuni, balki matnlar orasidagi ijtimoiy-avtorlik bog’liqligini ham o’rganadi. Uch xil kontrastiv signalning (klaster-instansiya, muallif-matn, sarlavha-tana) alohida-alohida qo’shilishi va ularning ablatsiya orqali izchil tekshirilishi tadqiqotning ilmiy qat’iyligini oshiruvchi muhim metodologik afzallik hisoblanadi.

Shu bilan birga, bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, model muallif embeddingini o’qitiladigan parametr sifatida ko’radi, bu esa yangi, model o’qitilmagan muallif (cold start muammosi) uchun klasterlash imkoniyatini chegaralaydi maqolada bu masala umuman muhokama qilinmagan. Ikkinchidan, mualliflar kamida 4 ta matnga ega foydalanuvchilarnigina saqlab qolgan, bu amaliy Twitter yoki savol-javob platformalarida keng tarqalgan bitta martalik yoki kam faol foydalanuvchilarni tizimdan chetlashtiradi va natijalarning haqiqiy, to’liq foydalanuvchi taqsimotiga umumlashtirilishini cheklaydi. Uchinchidan, klaster soni K haqiqiy mavzular soniga tenglashtirilgan holda beriladi bu amaliyotda deyarli hech qachon oldindan ma’lum bo’lmaydigan qiyin faraz bo’lib, K ning noto’g’ri baholanishi holatida modelning barqarorligi alohida tekshirilmagan (faqat nisbat parametri orqali qisman ko’rib chiqilgan).

Xato holatlar tahlili (error case study) orqali mualliflar namuna darajasidagi va klaster darajasidagi xatolarni ajratib ko’rsatgani ilmiy shaffoflikni ta’minlaydigan ijobiy amaliyot hisoblanadi bu ko’plab klasterlash tadqiqotlarida e’tibordan chetda qoladigan jihat. Ayni paytda, muallif topilmalarining ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog’liq axloqiy-huquqiy jihatlari (masalan, muallif profilini bilvosita rekonstruksiya qilish imkoniyati) maqolada ko’rib chiqilmagan, biroq amaliy joriy etishda bu masala muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy nuqtai nazardan, CAT savol-javob platformalari (StackOverflow kabi) va yangiliklar tizimlarida mavzu bo’yicha avtomatik yorliqlash, foydalanuvchi qiziqishlarini profillashtirish va tavsiya tizimlari uchun bevosita qo’llanilishi mumkin. Modelning nisbatan sodda, o’qitiladigan parametrlar soni kam arxitekturasi uni katta hajmdagi UGC oqimlarida hisoblash jihatidan nisbatan arzon joriy etish imkonini beradi, biroq bu afzallik faqat muallif identifikatorlari barqaror va yetarlicha faol bo’lgan platformalarda to’liq namoyon bo’ladi.

Xulosa. Ko’rib chiqilgan tadqiqot matn klasterlash sohasida muallif ma’lumotini kontrastiv o’rganish orqali modelga integratsiya qiluvchi original va matematik jihatdan puxta asoslangan yechimni taqdim etadi. Klaster-instansiya va instansiya-instansiya kontrastlarining birgalikda qo’llanilishi, shuningdek o’qitiladigan vaznli pooling strategiyasi orqali sarlavha va matn tanasini birlashtirish, uchta ochiq ma’lumotlar to’plamida boshqa kuchli bazaviy usullardan sezilarli ustunlikni ta’minlaydi.

Shunga qaramay, cold start muammosi, kam faol mualliflarning tashlab yuborilishi va klaster sonining oldindan berilishi kabi cheklovlar modelning to’liq amaliy joriy etilishi oldida hal etilishi lozim bo’lgan ochiq masalalar bo’lib qolmoqda. Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagi yo’nalishlar tavsiya etiladi: (1) yangi mualliflar uchun nol-zarba (zero-shot) muallif vakillashtirishni o’rganish mexanizmini ishlab chiqish, (2) K ni avtomatik baholovchi klasterlash mezonlari bilan integratsiya qilish, (3) hisoblash murakkabligi va xotira sarfini aniq tahlil qilish, hamda (4) muallif ma’lumotidan foydalanishning maxfiylikni saqlovchi (privacy-preserving) variantlarini tadqiq etish. Ushbu yo’nalishlar amalga oshirilgan taqdirda, muallifga xos kontrastiv klasterlash yondashuvi ijtimoiy media va foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent tizimlarida yanada ishonchli va keng qo’llaniladigan vositaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Tang, X., Dong, C., & Zhang, W. (2022). Contrastive author-aware text clustering. Pattern Recognition, 130, 108787. https://doi.org/10.1016/j.patcog.2022.108787

Chen, T., Kornblith, S., Norouzi, M., & Hinton, G. E. (2020). A simple framework for contrastive learning of visual representations. Proceedings of the 37th International Conference on Machine Learning (ICML), 1597–1607.

Xie, J., Girshick, R., & Farhadi, A. (2016). Unsupervised deep embedding for clustering analysis. Proceedings of the 33rd International Conference on Machine Learning (ICML), 478–487.

Zhang, D., Nan, F., Wei, X., Li, S., Zhu, H., McKeown, K. R., Nallapati, R., Arnold, A. O., & Xiang, B. (2021). Supporting clustering with contrastive learning. Proceedings of the 2021 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics (NAACL), 5419–5430.

Rosen-Zvi, M., Griffiths, T. L., Steyvers, M., & Smyth, P. (2004). The author-topic model for authors and documents. Proceedings of the 20th Conference on Uncertainty in Artificial Intelligence (UAI), 487–494.

Devlin, J., Chang, M.-W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding. Proceedings of the 2019 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics (NAACL), 4171–4186.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TO‘PLAMLAR NAZARIYASI TUSHUNCHALARINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

To‘rayev Farxodjon Farmonovich
Alfraganus University, “Matematika va fizika” kafedrasi v.b dotsenti,(PhD)
https://orcid.org/:0009-0007-2244-1332

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari yoritilgan. To‘plamlar nazariyasining boshlang‘ich matematika ta’limidagi o‘rni, uning o‘quvchilarda matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash hamda muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitish metodlari, interfaol ta’lim texnologiyalari, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik model taklif etilgan. Mazkur model talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, matematik tushunchalarni ongli o‘zlashtirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda boshlang‘ich matematika ta’limi sifatini oshirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, matematika fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, to‘plamlar nazariyasi, matematik kompetensiya, matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, boshlang‘ich matematika, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, metodik model, matematik tushunchalar.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЙ ТЕОРИИ МНОЖЕСТВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Тураев Фарходжон Фармонович
Alfraganus University, кафедра «Математика и физика», и.о. доцента (PhD)

Аннотация: В данной статье раскрываются научно-теоретические и методические основы формирования понятий теории множеств у будущих учителей начальных классов на основе компетентностного подхода. Проанализированы место и роль теории множеств в начальном математическом образовании, а также её значение в развитии математического мышления, логического мышления и компетенций по решению проблем у обучающихся. В исследовании раскрыты дидактические возможности методов обучения, основанных на компетентностном подходе, интерактивных образовательных технологий, компетентностно-ориентированных заданий и цифровых образовательных средств. Кроме того, предложена методическая модель, обеспечивающая поэтапное формирование понятий теории множеств у будущих учителей начальных классов. Представленная модель направлена на интеграцию теоретических знаний студентов с практической деятельностью, осознанное усвоение математических понятий, развитие их

профессиональной компетентности и повышение качества начального математического образования. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования процесса подготовки будущих учителей начальных классов в учреждениях высшего образования, развития методики обучения математике на основе компетентностного подхода, а также разработки методических рекомендаций, соответствующих современным требованиям образования.

Ключевые слова: компетентностный подход, будущий учитель начальных классов, теория множеств, математическая компетентность, математическое мышление, логическое мышление, компетентностно-ориентированное обучение, начальное математическое образование, интерактивные методы, проблемное обучение, цифровые образовательные технологии, профессиональная компетентность, методическая модель, математические понятия.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SET THEORY CONCEPTS IN PRE-SERVICE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON THE COMPETENCY-BASED APPROACH

Turaev Farkhodjon
Alfraganus University, Department of “Mathematics and Physics”, Acting Associate Professor (PhD)

Abstract: This article examines the scientific, theoretical, and methodological foundations for developing set theory concepts in pre-service primary school teachers through a competency-based approach. It analyzes the role of set theory in primary mathematics education and highlights its significance in fostering students’ mathematical thinking, logical reasoning, and problem-solving competencies. The study explores the didactic potential of competency-based teaching methods, interactive instructional technologies, competency-oriented learning tasks, and digital educational tools in the process of teaching set theory. Furthermore, a methodological model is proposed to facilitate the gradual development of set theory concepts among pre-service primary school teachers. The proposed model is designed to integrate students’ theoretical knowledge with practical experience, promote the meaningful acquisition of mathematical concepts, enhance their professional competence, and improve the quality of primary mathematics education. The findings of the study have significant theoretical and practical implications for improving the preparation of pre-service primary school teachers in higher education institutions, advancing competency-based mathematics teaching methodology, and developing methodological recommendations that meet the requirements of contemporary education.

Keywords: competency-based approach, pre-service primary school teacher, set theory, mathematical competence, mathematical thinking, logical reasoning, competency-oriented education, primary mathematics education, interactive teaching methods, problem-based learning, digital educational technologies, professional competence, methodological model, mathematical concepts.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son «Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish hamda oliy ta’lim dasturlarini xalqaro talablarga mos takomillashtirish ustuvor vazifalar etib belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich ta’limda matematik tushunchalar o‘quvchilarning keyingi bilimlarini egallashi uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, to‘plamlar nazariyasi son tushunchasi, amallar, munosabatlar, mantiqiy bog‘lanishlar va matematik modellashtirishning nazariy asosini tashkil etib, o‘quvchilarda matematik tafakkur hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga to‘plamlar nazariyasini o‘qitishda asosan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsada, mazkur bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni loyihalash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv asosida to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy matematika ta’limining dolzarb ilmiy-metodik muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda matematik kompetensiyalarni shakllantirish hamda to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini samarali o‘qitish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli jihatlarda tadqiq etilgan.

Sh. I. Tojiyev matematika o‘qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlarida matematik tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqqan. Olim matematika ta’limida ilmiylik, izchillik va tizimlilik tamoyillariga amal qilish o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, matematik tushunchalar nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirilgandagina ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, matematik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ko‘rgazmalilik, muammoli vaziyatlar va mustaqil topshiriqlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishi asoslab berilgan [1].

R. A. Mavlonova pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini keng yoritgan. Olim interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati va bilish faolligini rivojlantirishini ilmiy asoslaydi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan [2].

D. Julanov matematika ta’limida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida matematik savodxonlikni rivojlantirish, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini tahlil qilgan. Muallif matematika ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda bilimlarni real hayotiy

vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Uning ilmiy ishlarida xalqaro baholash dasturlari talablari asosida matematik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ham yoritilgan [3].

John Raven kompetentlik nazariyasining asoschilaridan biri sifatida kompetentlikni bilim, ko‘nikma, malaka, motivatsiya va qadriyatlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, haqiqiy kompetentlik insonning o‘z bilim va tajribasini turli hayotiy hamda kasbiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Raven kompetensiyalarni shakllantirishda mustaqil faoliyat, muammoli vaziyatlar va refleksiyaning muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslaydi. Mazkur nazariy qarashlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Philippe Perrenoud kompetensiyaviy yondashuvni zamonaviy pedagogik ta’limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etadi. Olim o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi nazariy bilimlarni turli pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llash, o‘quv jarayonini loyihalash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va refleksiv faoliyatni tashkil etish orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning ilmiy ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari keng yoritilgan [5].

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy olimlar matematika ta’limi metodikasi va pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga, xorijiy olimlar esa kompetensiyaviy ta’lim nazariyasi hamda matematik tafakkurni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqishga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Asosiy qism

To‘plamlar nazariyasi tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari

To‘plamlar nazariyasi zamonaviy matematikaning fundamental bo‘limlaridan biri bo‘lib, matematik tushunchalar, munosabatlar va amallarni yagona mantiqiy tizim asosida ifodalash imkonini beradi. Bugungi kunda algebra, geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va diskret matematika kabi ko‘plab fanlarning nazariy poydevori aynan to‘plamlar nazariyasiga tayanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida to‘plamlar nazariyasiga oid bilimlarni puxta shakllantirish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich matematika kursida son tushunchasi, arifmetik amallar, geometrik shakllar va mantiqiy bog‘lanishlarning deyarli barchasi to‘plam tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. O‘quvchilar predmetlarni guruhlarga ajratish, ularni taqqoslash, umumiy va farqli belgilarini aniqlash orqali dastlabki matematik tasavvurlarni egallaydilar. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat to‘plamlar nazariyasining nazariy asoslarini bilishi, balki ushbu tushunchalarni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda o‘qita olish kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi zarur [8,9,10].

Matematikada to‘plam deb biror umumiy xossaga ega bo‘lgan obyektlar majmuasiga aytiladi. To‘plamni tashkil etuvchi obyektlar uning elementlari deyiladi. Odatda to‘plamlar lotin alifbosining bosh harflari, elementlari esa kichik harflar bilan belgilanadi.

1-misol.

$A = \{2,4,6,8,10\}$

bu yerda 2, 4, 6, 8 va 10 sonlari A to‘plamining elementlaridir.

Agar element to‘plamga tegishli bo‘lsa,

$4 \in A$

aks holda

$5 \notin A$

ko‘rinishida yoziladi.

To‘plamlar nazariyasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, elementlarning yozilish tartibi natijani o‘zgartirmaydi. Masalan,

A = {1,2,3}, B = {3,2,1}

bo‘lsa, A = B.

Shuningdek, bir xil elementlar takror yozilmaydi. Masalan,

{1,2,2,3,3}= {1,2,3}

Bu xususiyat bo‘lajak o‘qituvchilarga matematik obyektlarni to‘g‘ri tavsiflash hamda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim metodik ahamiyatga ega.

To‘plamlar ikki asosiy usulda beriladi.

Birinchi usul — elementlarni sanab ko‘rsatish.

2-misol.

A = {a,e,i,o,u}

yoki

B = {1,3,5,7,9}

Ikkinchi usul — elementlarning umumiy xossasini ko‘rsatish.

3-misol.

$C = \{x \mid x < 10, x \in N\}$

ya’ni 10 dan kichik natural sonlar to‘plami.

Ikkinchi usul matematik tafakkurni rivojlantirish nuqtai nazaridan samaraliroq bo‘lib, umumlashtirish va abstrakt fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida har ikkala usuldan foydalanish metodikasi chuqur o‘rganilishi lozim.

4-misol.

Sinfdagi o‘quvchilardan futbolni yaxshi ko‘ruvchilar to‘plami

F = {Ali,Vali,Hasan,Olim}

Shaxmatni yaxshi ko‘ruvchilar

S = {Hasan,Olim,Dilshod}

Bu misol yordamida talabalar real hayotdagi obyektlarni matematik model

ko‘rinishida ifodalashni o‘rganadilar. Mazkur yondashuv kompetensiyaviy ta‘limning muhim talablaridan biri bo‘lib, nazariy bilimni amaliy vaziyatlarga tatbiq etishga xizmat qiladi.

To‘plamlar ustida amallar, Venn diagrammalari va ularning metodik ahamiyati.To‘plamlar ustida bajariladigan amallar matematikaning eng muhim nazariy tushunchalaridan biri bo‘lib, boshlang‘ich matematika kursida mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mazkur amallarni nafaqat matematik nuqtayi nazardan, balki ularni o‘quvchilarga yosh xususiyatlariga mos ravishda tushuntirish metodikasini ham chuqur egallashi lozim. Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida talaba tayyor formulalarni yod olish bilan cheklanmay, real hayotdagi vaziyatlarni to‘plamlar modeli orqali tahlil qila olishi zarur.

Matematikada to‘plamlar ustida asosiy beshta amal bajariladi:

Birlashma

Kesishma


Ayirma

Simmetrik ayirma

To‘ldiruvchi to‘plam

Ushbu amallar Venn diagrammalari yordamida grafik ko‘rinishda ifodalanadi. Venn

diagrammalari abstrakt matematik tushunchalarni vizuallashtirish orqali ularni osonroq anglash imkonini beradi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda ko‘rgazmali ta‘limni tashkil etish kompetensiyasini rivojlantiradi(1-rasm).



1-rasm. To‘plamlar ustida asosiy beshta amalni Venn diagrammasi yordamida grafik ko‘rinishda ifodalananishi.

Venn diagrammalarining metodik ahamiyati

Venn diagrammasi ingliz matematigi John Venn tomonidan XIX asr oxirida taklif etilgan bo‘lib, bugungi kunda matematika, mantiq, informatika va statistika fanlarida keng qo‘llaniladi. Diagrammalar abstrakt tushunchalarni ko‘rgazmali shaklda ifodalash orqali bilimlarning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda Venn diagrammalaridan foydalanish quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi:

Matematik modellashtirish;

Mantiqiy fikrlash;

Taqqoslash va klassifikatsiyalash;

Tahlil va sintez;

Vizual axborotni sharhlash;

Muammoni grafik usulda yechish.

Shu sababli zamonaviy kompetensiyaviy ta‘limda Venn diagrammalari oddiy ko‘rgazmali

vosita emas, balki matematik kompetensiyalarni rivojlantiruvchi didaktik texnologiya sifatida qaralmoqda.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriq

Vaziyat. 30 nafar talabadan 18 nafari ingliz tilini, 15 nafari matematikani yaxshi ko‘radi. Ulardan 7 nafari ikkala fanni ham yaxshi ko‘radi.

Topshiriqlar:

Venn diagrammasini tuzing.

Faqat ingliz tilini yaxshi ko‘radiganlar sonini aniqlang.

Faqat matematikani yaxshi ko‘radiganlar sonini aniqlang.

Hech qaysi fanni tanlamagan talabalar sonini toping.

Yechim:

Faqat ingliz tili: 18-7=11

Faqat matematika: 15-7=8

Kamida bittasi: 18+15-7=26

Hech biri: 30-26=4

Mazkur topshiriq talabalarning matematik bilimlarini amaliy vaziyatga tatbiq etish, mantiqiy xulosa chiqarish va matematik modellashtirish kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida to‘plamlar nazariyasi tushunchalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish ularning matematik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. To‘plamlar ustida amallarni Venn diagrammalari, hayotiy misollar va kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida o‘qitish nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda mantiqiy fikrlash, matematik modellashtirish va kasbiy faoliyatda matematik tushunchalarni samarali qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. Mazkur metodik yondashuv boshlang‘ich matematika ta‘limi sifatini oshirishga xizmat qiladi[6,7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Tojiyev M. Matematika o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 328 b.

Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. H., Matnazarova K. O. Umumiy pedagogika: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 528 b.

Julanov D., Ulugberdiyeva G. Kompetentnostnyy podkhod k obucheniyu matematike v nachalnykh klassakh // Obshchestvo i innovatsii. – 2023. – T. 4, maxsus son (3/S). – B. 100–106.

Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H. K. Lewis & Co. Ltd., 1984. – 251 p.

Perrenoud P. Ten New Competencies for Teaching. – Geneva: Faculty of Psychology and Educational Sciences, University of Geneva, 2002. – 128 p.

Turaev, F. (2026, January). Methods of preparing grade 3–4 students for international assessment in mathematics based on real-life examples. In International Conference on Engineering & Technology (Vol. 2, No. 1, pp. 27-28).

Turaev, F. (2026, January). Methods of teaching mathematics in grades 3–4 based on real-life examples. In International Conference on Arts, Society & Humanities (Vol. 2, No. 1, pp. 28-29).

To‘rayev F. F. Matematik tenglamalar asosida iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlil yordamida modellashtirish// Ta’lim va Innovatsion Tadqiqotlar (2025 йил №10) ISSN: 2181-1709(p), ISSN: 2181-1717(E)–b.213-219 Uzbekistan(Buxoro).

To‘rayev F. F. Tenglamalarning grafik ko‘rinishi va ularning matematik analiz asosidagi

tahlili// Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi (2025-yil №11). ISSN:2181-1458, ISSN:2181-0427.–B.115-120 Uzbekistan(Namangan).

To‘rayev F. F. Chiziqli funksiyaning turli fanlardagi roli va ahamiyati// Ilm Sarchashmalari 12/2-son (Dekabr 2025) ISSN 2010 – 6246 –B.115-120 Uzbekistan(Urganch).

UZLUKSIZ TA'LIM MAKONINI MODELLASHTIRISH METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLAR, TAMOYILLAR VA AMALIY TATBIQ

Umarov Lutfillo Murodilloyevich
Qashqadaryo viloyati PMM, Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedra mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim (UT) makonini modellashtirish umumiy metodologiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda UT makonini modellashtirish metodologiyasining falsafiy, umumilmiy va alohida pedagogik muammolarni tadqiq etish darajalari o'rganiladi. Modellashtirish metodologiyasining 11 ta tarkibiy-mazmuniy komponenti, umumiy va o'ziga xos metodologik tamoyillari hamda amaliyotga tatbiq etishning olti bosqichli algoritmi asoslanadi. Shaxsga yo'naltirilgan, tizimli-integrativ va qiyosiy-taqqoslash yondashuvlari ilmiy poydevor sifatida qaraladi. Metodologiyaning O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida tatbiq etish istiqbollari va xalqaro tajriba bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Taklif etilgan metodologiyaning ilmiy ahamiyati va amaliy qiymati asoslanadi.

Kalit sò'zlar: uzluksiz ta'lim, modellashtirish, metodologiya, ta'lim makoni, integrativ yondashuv, kontseptual model, pedagogik tizim, kompetentlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

МЕТОДОЛОГИЯ МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРОСТРАНСТВА НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ПРИНЦИПЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ

Умаров Лутфилло Муродиллоевич
ПММ Кашкадарьинской области, заведующий кафедрой педагогики, психологии и управления образованием, PhD, доцент

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ общей методологии моделирования пространства непрерывного образования (НО). В исследовании изучаются уровни философских, общенаучных и специфических педагогических проблем. Обоснованы 11 структурно-содержательных компонента методологии моделирования, общие и специфические методологические принципы, а также шестиэтапный алгоритм практического применения. Личностно-ориентированный, системно-интегративный и сравнительно-сопоставительный подходы рассматриваются как научный фундамент. Анализируются перспективы применения методологии в системе НО Узбекистана и её соответствие международному опыту.

Ключевые слова: непрерывное образование, моделирование, методология, образовательное пространство, интегративный подход, концептуальная модель, педагогическая система, компетентность, личностно-ориентированное образование.

METHODOLOGY FOR MODELING THE SPACE OF CONTINUOUS EDUCATION: THEORETICAL FOUNDATIONS, PRINCIPLES AND PRACTICAL APPLICATION

Umarov Lutfillo Murodilloyevich
PMM of Kashkadarya Region, Head of the Department of Pedagogy, Psychology and Education Management, PhD, Associate Professor

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the general methodology for modeling the space of continuous education (CE). The study examines the levels of philosophical, general scientific and specific pedagogical problem research in CE space modeling methodology. Eleven structural and content components of the modeling methodology, its general and specific

methodological principles, and a six-stage practical application algorithm are substantiated. Person-centered, system-integrative and comparative-juxtaposition approaches are considered as the scientific foundation. The prospects for applying the methodology in Uzbekistan’s continuous education system and its alignment with international experience are analyzed.

Keywords: continuous education, modeling, methodology, educational space, integrative approach, conceptual model, pedagogical system, competence, person-centered education.

Kirish. XX asr oxirlarida uzluksiz ta’limni rivojlantirish yo‘llarini izlash kuchli sur’at kasb eta boshladi. Gumanistik g‘oa asosida shakllangan uzluksiz ta’lim zamonaviy ta’lim paradigmasining yo‘naltiruvchi tamoyili sifatida e’tirofga erishdi. Mazkur tamoyil pedagogika fani rivojida alohida o‘rin egallab, UT makonini modellashtirish metodologiyasi masalasini kun tartibiga olib kirdi. A. P. Belyaeva, A. M. Novikov, V. I. Zagvyazinsky, V. V. Kraevsky kabi etakchi olimlar ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratgan.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish va iqtisodiyotning tez o‘zgaruvchan sharoitlari mutaxassislardan doimiy kasbiy takomillashish, yangi bilim va ko‘nikmalar egallash qobiliyatini talab qiladi. Shu sababli uzluksiz ta’lim makonini ilmiy asosda modellashtirishga bo‘ladigan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada UT makonini modellashtirish umumiy metodologiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. UT makonini modellashtirish metodologiyasining yetakchi metodologik tamoyillari bo‘lib fundamentallashtirish va ixtisoslashtirish, nazariyalashtirish va texnologiyalashtirish, integratsiya va differensiatsiya, tizimlilik va izchillik xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlar va amaliyotni tahlil qilish asosida UT makonini modellashtirish samaradorligini ta’minlaydigan olti asosiy poydevor aniqlandi.

Birinchi — nazariy-metodologik asoslar: turli darajali va turli ixtisoslikdagi uzluksiz ta’lim dasturlarini yagona nazariy-metodologik pozitsiyalarda birlashtirish. Ikkinchi — refleksiv-tahliliy asoslar: ta’lim-tarbiya va ilmiy-uslubiy faoliyat mazmuni, shakllari va texnologiyalariga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish mexanizmi. Uchinchi — ilmiy-uslubiy asoslar: muvofiqlashtirilgan integrativ o‘uv rejalari va dasturlar majmui. To‘rtinchi — kasbiy-kadrlar asoslari: pedagoglar va talabalar o‘rtasida uzluksiz hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish. Beshinchi — axborot-uslubiy asoslar: muvofiqlashtiruvchi axborot-uslubiy ta’minot tizimi. Oltinchi — tashkiliy-boshqaruv tamoyillari: UT makonini rivojlantirishni boshqarish uchun zarur mexanizmlar.

Tahlil va natijalar. UT makonini modellashtirish metodologiyasining tarkibiy-mazmuniy komponentlari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, UT makonini modellashtirish metodologiyasining 11 ta tarkibiy-mazmuniy komponenti aniqlandi. Axloqiy-aksiologik komponent uzluksiz ta’lim mazmunining axloqiy-gumanistik salohiyatini aniqlash va har tomonlama qo‘lashni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-gumanitar komponent ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega materiallar, axloqiy tanlov vaziyatlari va kasbiy faoliyat oqibatlarini ifodalaydi. Korrelyatsion komponent modellashtiriladigan makon sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimini aks ettiradi. Falsafiy-uslubiy komponent nazariy qoidalarni falsafiy asoslash va konseptual yondashuvlarni muvofiqlashtirish usullarini o‘z ichiga oladi.

Integrativ-applikativ komponent modellashtiriladigan makonning tarkibiy komponentlari o‘rtasidagi integratsiya aloqalari tizimini ifodalaydi. Interfaol-gnostik komponent tabiiy va gumanitar fanlar usullarining integratsiyasini, modellashtiriladigan mazmunni nazariy darajada o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Refleksiv-baholovchi komponent uzluksiz ta’limning integrativ mazmunini o‘zlashtirish natijalarining refleksiyasiga qaratilgan. Ekologik-faoliyatli komponent bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyatning ekologik jihatlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Antropotsentrik komponent mutaxassisni atrofdagi dunyo bilan ko‘plab aloqalarida — ijtimoiy-madaniy, axloqiy va kasbiy-pedagogik kontekstda — ko‘radi. Kreativ-rivojlantiruvchi komponent o‘qitishning informativ tamoyillarini konseptual-tahliliy tamoyillar bilan izchil almashtirish orqali shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Axborot komponenti yangi axborot texnologiyalarining shaxs rivojlanishiga ta’sirini inobatga oladi.

Metodologik tamoyillar tizimi

Uzluksiz ta’lim makonini qurish metodologiyasi uchun to‘rtdagi umumiy metodologik tamoyil aniqlandi. Birinchi tamoyil — oliy ta’lim (mutaxassislik), fuqarolik o‘rta ta’lim va qo‘shimcha ta’lim darajalarining majmuiyligini ta’minlash. Ikkinchi tamoyil — asosiy va qo‘shimcha ta’lim o‘rtasidagi bir-birini to‘ldirish tamoyili. Uchinchi tamoyil — uzluksiz ta’limda manevr imkoniyatini berish. To‘rtinchi tamoyil — uzluksiz ta’lim dasturlarining izchilligi tamoyili.

Bundan tashqari, o‘ziga xos metodologik tamoyillar ham aniqlandi: moslashuvchanlik va dinamizm tamoyili, mazmunni shaxsga yo‘naltirish tamoyili, moslashtirilgan integratlar asosida tuzilgan integrativ yondashuv tamoyili. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talaba shaxsini shakllantirish va ta’limni bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash sifatida emas, balki shaxsning kasbiy o‘sishi jarayoni sifatida talqin etishni ko‘zda tutadi.

Amaliyotga tatbiq etishning olti bosqichli algoritmi

Metodologiyani amaliyotga tatbiq etishning olti bosqichli algoritmi ishlab chiqildi. Birinchi bosqich — UT makonini loyihalash: maqsad, tuzilma va asosiy xususiyatlarni aniqlash. Ikkinchi bosqich — modulli o‘uv rejalarini ishlab chiqish: integrativ va muvofiqlashtiruvchi dasturlar yaratish. Uchinchi bosqich — pedagogik xodimlar kompetentligini rivojlantirish: malaka oshirish tizimini tashkil etish. To‘rtinchi bosqich — monitoring tizimini joriy etish: ta’lim sifatini uzluksiz kuzatib borish. Beshinchi bosqich — natijalarni tahlil qilish va tuzatishlar kiritish. Oltinchi bosqich — innovatsion tajribani ommalashtirish.

Ushbu olti bosqichli algoritm tipologik algoritm sifatida ishlatilishi mumkin, chunki UT makoni o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida faoliyat yuritadi. Algoritm tatbiqida asosiy shartlar: ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish, integrativ o‘uv dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik xodimlarni yangi metodologiya bo‘yicha tayyorlash hamda ta’lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlash.

Metodologiyaning falsafiy asoslari

Metodologiya uchta darajani o‘z ichiga oladi: falsafiy bilimlar tizimlari darajasi; tadqiqotning umumilmiy tamoyillari va texnologiyalari darajasi; alohida ilmiy muammolarni tadqiq etish darajasi. Falsafiy daraja bilish nazariyasi (gnoseologiya), dialektika va germenevtika kabi falsafiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Umumilmiy tamoyillar darajasi tizimlar va boshqaruv nazariyalaridan, matematikadan, psixologiya va sotsiologiyadan olingan usullarni o‘z ichiga oladi. Alohida ilmiy muammolarni tadqiq etish darajasi pedagogik g‘oyalar, konsepsiyalar va nazariyalar asosida UT makonini loyihalashning o‘ziga xos muammolarini hal etadi.

Modellashtirish metodologiyasining markaziy g‘oyasi — mutaxassisni kasbiy faoliyat sub’ekti sifatida uzluksiz rivojlantirishdir. Ushbu g‘oyaga ko‘ra, ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning kasbiy o‘zligini anglash va doimiy takomillashishga undash vositasiga aylanadi. Bu esa zamonaviy ta’lim paradigmasining humanistik tamoyillariga to‘liq muvofiq keladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli-integrativ yondashuvlar

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv UT metodologiyasida markaziy o‘rin tutadi. U talaba shaxsini shakllantirish va ta’limni bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash sifatida emas, balki shaxsning kasbiy o‘sishi jarayoni sifatida talqin etishni ko‘zda tutadi. UT makonini modellashtirish uchun tizimli-integrativ yondashuv o‘z infratuzilmasiga ega bo‘lib, o‘z-o‘zini tartiblaydigan va o‘z-

o‘zini rivojlantiradigan yaxlit pedagogik tizimni ko‘zda tutadi. Qiyosiy-taqqoslash yondashuvi tashqi sharoitlar va ichki munosabatlarning tizimli tahliliga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarga asoslanib, UT makonining ko‘p tuzilmali modeli yaratildi.

UT makonini shakllantirish omillari va xususiyatlari

UT makonini modellashtirish va yaratishda tizimni shakllantiruvchi omil bo‘lib uzluksiz ta’lim tizimining yaxlit ta’lim makoni sifatida harakat qilishi xizmat qiladi. Bu omil quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: uzluksiz ta’lim darajalarini integratsiyalash va integratsiyalashgan darajalar hamda mutaxassisliklarning asosiy yadrolarini aniqlash; mutaxassislarni uzluksiz ta’limning izchil darajalarida shaxsiy-kasbiy tayyorlash uchun tashkiliy shakllar va metodlarni ishlab chiqish.

UT makonini yaratish metodologiyasi quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga olishi zarur: uzluksiz ta’lim faoliyatining mazmuni va texnologiyalarini modernizatsiyalash; malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish tuzilmasini shakllantiruvchi elementlar; insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish.

Metodologiyaning amaliy tatbiq etish yo‘llarI

UT makonini modellashtirish metodologiyasida makonning muvaffaqiyatli ishlashi uchun bir qator omillar muhim hisoblanadi: o‘qitish dinamizmi, talabalarning kasbiy yo‘nalishi, qobiliyat va bilim imkoniyatlarining tashqi sharoitlar va ehtiyojlarga mos kelishi. UT makonining asosiy xususiyatlari uchta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: rasmiy, mazmuniy va mohiyatli.

Metodologiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan uning tatbiq etilish sifatiga bog‘liq. Ta’lim muassasasidagi pedagogik xodimlarning metodologiyani puxta o‘zlashtirishi, ta’lim jarayonining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish metodologiyaning amaliy samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida belgilanadi.

O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimida tatbiq etish istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’limni rivojlantirishning amaldagi huquqiy asoslari 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonida belgilangan. Taklif etilgan metodologiya ushbu normativ-huquqiy hujjatlar talablariga to‘la javob beradi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan amaliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro tajriba, jumladan Finlyandiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlardagi uzluksiz ta’lim tizimlarini o‘rganish shuni ko‘rgazdiki, muvaffaqiyatli tizimlarning barchasi mazmunli integratsiya, o‘qitishda moslashuvchanlik va raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash kabi umumiy tamoyillarga tayanadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribani milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirish taklif etilgan metodologiyaning ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Uzluksiz ta’lim makonini modellashtirish metodologiyasi quyidagi samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlaydi: ta’lim jarayonining uzluksizligi va integrativligini ta’minlash; uzluksiz ta’limning turli darajalari o‘rtasidagi izchillikni mustahkamlash; talabalar kompetentligini yuksaltirish; innovatsion o‘uv muhitini yaratish.

Metodologiyaning yakuniy natijasi — UT tizimini ko‘p funksiyali kasbiy rivojlanishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida shakllantirish. Ushbu metodologiya O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimini zamonaviy talab darajasiga ko‘tarishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim muassasalari, pedagog xodimlar va ta’lim boshqaruvi organlari uchun ilmiy-amaliy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belyaeva A. P. Integrative tendencies in vocational education. – SPb.: RGPU, 1998. – 172 p.
2. Novikov A. M. Methodology of educational activity. – M.: Egves, 2005. – 488 p.
3. Zagvyazinsky V. I. Theory of learning: a modern interpretation. – M.: Academy, 2016. –

192 p.
4. Kraevsky V. V. Methodology of pedagogy: new stage. – M.: Academy, 2006. – 400 p.
5. Skatkin M. N. Problems of modern didactics. – M.: Pedagogika, 1984. – 96 p.
6. Gershunsky B. S. Philosophy of education for the 21st century. – M.: Sovershenstvo, 1998. – 608 p.
7. Mamardashvili M. K. Classical and non-classical ideals of rationality. – M.: Labirint, 1994. – 90 p.
8. Serikov V. V. Personality-oriented education. – M.: Logos, 1999. – 206 p.
9. Slastenin V. A. Pedagogy. – M.: Shkola-Press, 2002. – 512 p.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2026.
12. Xoliqov A. A. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 368 b.
13. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 124 b.
14. Atanov G. A. Activity approach in learning. – Donetsk: EAI-press, 2001. – 160 p.
15. Zimnyaya I. A. Key competencies as effective-target basis of competence approach in education. – M.: Research Center for Quality of Specialists Training, 2004. – 42 p.

TALABALARDA KOMMUNIKATIV KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKASI

Usmonova E’zozxon Faxriddin qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda kommunikativ kreativlikni shakllantirishning takomillashtirilgan metodikasi nazariy va metodologik jihatdan asoslanadi. Kommunikativ kreativlik kommunikativ kompetensiya va ijodiy tafakkurning yaxlit birligi sifatida talqin etiladi. Muallif uning tarkibiy tuzilmasini, mezonlari va shakllanish bosqichlarini ochib beradi. Tadqiqotda tizimli, partisipativ va diskursiv yondashuvlar metodologik poydevor sifatida qaraladi. Shuningdek, kommunikativ kreativlikni shakllantirishning tamoyillari, madaniy-ma’rifiy muhitning roli hamda jarayonni cheklovchi to‘siqlar tahlil qilinadi. Maqola xulosalari taklif etilgan metodikaning oliy ta’lim amaliyotidagi samaradorligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kreativlik, ijodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya, talaba, tuzilmaviy-funksional model, pedagogik texnologiya, oliy ta’lim.

УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОГО ТВОРЧЕСТВА У СТУДЕНТОВ

Усмонова Езозхон Фахриддин Кизи,
аспирант Каршского государственного университета

Аннотация. В статье теоретически и методологически обосновывается усовершенствованная методика формирования коммуникативной креативности у студентов. Коммуникативная креативность рассматривается как целостное единство коммуникативной компетенции и творческого мышления. Автор раскрывает её структуру, критерии и этапы формирования. Методологической основой выступают системный, партисипативный и дискурсивный подходы. Результаты подтверждают эффективность предложенной методики в практике высшего образования.

Ключевые слова: коммуникативная креативность, творческое мышление, коммуникативная компетенция, студент, структурно-функциональная модель, педагогическая технология, высшее образование.

IMPROVED METHODOLOGY OF FORMING COMMUNICATIVE CREATIVITY IN STUDENTS

Usmonova E’zozkhon Fakhriddin kizi,
basic doctoral student at Karshi State University

Annotation. The article provides a theoretical and methodological substantiation of an improved methodology for forming communicative creativity in students. Communicative creativity is interpreted as an integral unity of communicative competence and creative thinking. The author reveals its structure, criteria and stages of formation. Systemic, participative and discursive approaches serve as the methodological foundation. The principles of forming communicative creativity, the role of the cultural-educational environment and the barriers limiting this process are analysed. The conclusions substantiate the effectiveness of the proposed methodology in higher-education practice.

Key words: communicative creativity, creative thinking, communicative competence, student, structural-functional model, pedagogical technology, higher education.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilimni, balki uni ijodiy va mustaqil qo‘llash qobiliyatini talab etmoqda. Ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchi uchun muloqotdagi ijodkorlik markaziy kasbiy fazilat hisoblanadi. Pedagog kundalik faoliyatida ko‘plab nostandart muloqot vaziyatlariga duch keladi. U ularni ijodiy va samarali hal qila olishi lozim. Shu bois talabalarda kommunikativ kreativlikni shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanadi.

Kommunikativ kreativlik muloqot jarayonida original, maqsadga muvofiq va samarali yechimlar yaratish qobiliyatini ifodalaydi. U kommunikativ kompetensiya va ijodiy tafakkurning uyg‘un birligidir. Bu sifat oddiy nutqiy malakadan farq qiladi. U muloqotga ijodiy, moslashuvchan va mustaqil yondashuvni taqozo etadi. Biroq amaliyotda uni shakllantirishning yaxlit va takomillashtirilgan metodikasi yetarli ishlab chiqilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi talabalarda kommunikativ kreativlikni shakllantirishning takomillashtirilgan metodikasini nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iborat. Ishda kommunikativ kreativlikning mohiyati, tarkibiy tuzilmasi, mezonlari va shakllanish bosqichlari ochib beriladi. Shuningdek, jarayonning metodologik asoslari va tamoyillari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kommunikativ kreativlikni yaxlit tizim sifatida tadqiq etishda namoyon bo‘ladi. Maqolada uning komponentlari, mezonlari va bosqichli texnologiyasi birlikda asoslanadi. Bu yondashuv muammoni tizimli hal etish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijodkorlik va kreativlik muammosi xorijiy fanda chuqur o‘rganilgan. J. Gilford divergent tafakkur nazariyasini, E. P. Torrens esa kreativlikni o‘lchash mezonlarini asoslagan. T. Amabile ijodkorlikning ijtimoiy-psixologik omillarini ochib bergan. Kommunikativ kompetensiya nazariyasi D. Xayms, M. Kenel va M. Sveyn ishlarida ishlab chiqilgan. Bu tadqiqotlar ijodkorlik va muloqot kompetensiyasining nazariy asoslarini yaratgan.

MDH olimlari ijodiy faoliyatning psixologik-pedagogik mexanizmlarini tadqiq etgan. L. S. Vigotskiyning oliy ruhiy funksiyalar va ijodiy tasavvur haqidagi g‘oyalari muhim ahamiyatga ega. V. A. Kan-Kalik pedagogik muloqotni ijodiy jarayon sifatida tahlil qilgan. V. I. Andreev ijodiy shaxsni tarbiyalash tamoyillarini asoslagan. Bu qarashlar kommunikativ kreativlikning psixologik-pedagogik zaminini tashkil etadi.

Mamlakatimizda ta’lim texnologiyalari va ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari U. Inoyatov, N. Muslimov, Sh. Sharipov va R. Ishmuhamedov tadqiqotlarida o‘rganilgan. Chet tillarini o‘qitish hamda kommunikativ kompetensiya metodikasi J. Jalolov va G. Maxkamova ishlarida yoritilgan. Bu tadqiqotlar milliy ta’lim sharoitida ijodiy va kommunikativ sifatlarni shakllantirish yo‘llarini ko‘rsatgan.

Mavjud ilmiy ishlar muammoning ayrim jihatlarini yoritgan. Biroq talabalarda kommunikativ kreativlikni shakllantirishning takomillashtirilgan metodikasi yaxlit tizim sifatida tadqiq etilmagan. Uning tuzilmasi, mezonlari va bosqichli texnologiyasi yetarli asoslanmagan. Aynan shu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotni belgilab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy (adabiyotlar tahlili, modellashtirish, umumlashtirish), empirik (kuzatish, so‘rovnoma, suhbat, pedagogik tajriba-sinov) hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Kommunikativ kreativlikni shakllantirish tizimini qurishda uchta ilmiy yondashuv metodologik poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Tizimli yondashuv kommunikativ kreativlikni shakllantirishni universitetdagi kasbiy tayyorgarlik tizimining ajralmas qismi sifatida qaraydi. U jarayonning barcha komponentlarini yaxlit birlikda ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu yondashuv maqsad, mazmun, texnologiya va natijani o‘zaro bog‘laydi. Shu tariqa jarayon tartibli va boshqariladigan bo‘ladi.

Partisipativ (ishtirokchi) yondashuv ta’lim sub’ektlarining birgalikdagi ishtiroki va hamkorligiga tayanadi. Unda o‘qituvchi va talaba teng ijodiy hamkorlar sifatida ish yuritadi. Bu yondashuv talabaning faolligini va mustaqilligini oshiradi. U muloqotni jonli va ijodiy qiladi.

Diskursiv yondashuv muloqotning nutq oqimi (diskurs) orqali amalga oshishini hisobga oladi. U muloqot aktini real kontekstda tahlil qiladi. Bu yondashuv talabaga muloqotni ma’no va maqsad asosida qurishni o‘rgatadi. U nutqning vaziyatga mosligini ta’minlaydi. Uch yondashuv birgalikda metodikaning yaxlit metodologik asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot kommunikativ kreativlikni kommunikativ kompetensiya va ijodiy tafakkurning dialektik birligi sifatida talqin etadi. Uning tarkibiy tuzilmasi to‘rt komponentdan iborat. Birinchisi - motivatsion-qadriyatli komponent bo‘lib, u ijodiy muloqotga ichki ehtiyojni ifodalaydi. Ikkinchisi - kognitiv-mazmuniy komponent bo‘lib, u lingvistik va ijodiy bilimni qamraydi. Uchinchisi - kommunikativ-faoliyatli komponent bo‘lib, u amaliy muloqot malakasini bildiradi. To‘rtinchisi - kreativ-refleksiv komponent bo‘lib, u ijodiy o‘zini baholash va nazorat qobiliyatini ifodalaydi.

Komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Ularning yaxlitligi kommunikativ kreativlikni yagona shaxsiy sifat sifatida shakllantiradi. Bir komponentning rivoji boshqalarini ham faollashtiradi. Shu bois metodika ularni muvozanatli ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv jarayonni tizimli va natijaviy qiladi.

Kommunikativ kreativlikning shakllanganligini baholash uchun to‘rt mezon ishlab chiqildi. Birinchi mezon - kommunikativ ravonlik bo‘lib, u g‘oya va nutqiy yechimlar ko‘pligini o‘lchaydi. Ikkinchi mezon - moslashuvchanlik bo‘lib, u vaziyatga qarab yondashuvni o‘zgartirish qobiliyatini ko‘rsatadi. Uchinchi mezon - originallik bo‘lib, u nostandart va yangi yechimlarni baholaydi. To‘rtinchi mezon - refleksivlik bo‘lib, u o‘z muloqotini tahlil qilish qobiliyatini aks ettiradi.

Mezonlar asosida shakllanganlikning uch darajasi belgilandi: past, o‘rta va yuqori. Past darajada talaba qolip bo‘yicha muloqot qiladi. O‘rta darajada u ayrim ijodiy yechimlarni qo‘llaydi. Yuqori darajada u mustaqil va original muloqot strategiyalarini yaratadi. Bu darajalar talabaning o‘sishini obyektiv kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqotda kommunikativ kreativlikni shakllantirishning tuzilmaviy-funksional modeli ishlab chiqildi. Model maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy bloklardan iborat. U jarayonning yaxlitligini va izchilligini ta’minlaydi. Modelning amaliy ifodasi sifatida bosqichli texnologiya taklif etildi.

Texnologiya to‘rt bosqichni qamrab oladi. Birinchi bosqich - diagnostik-motivatsion bo‘lib, u boshlang‘ich darajani aniqlaydi va ijodiy muloqotga qiziqish uyg‘otadi. Ikkinchi bosqich - faollashtiruvchi bo‘lib, u asosiy kommunikativ va ijodiy malakalarni shakllantiradi. Uchinchi bosqich - ijodiy-mustaqil bo‘lib, u talabani mustaqil ijodiy muloqotga undaydi. To‘rtinchi bosqich - refleksiv-baholovchi bo‘lib, u natijani tahlil qiladi va mustahkamlaydi.

Metodikaning texnologik ta’minoti bir qator vositadan iborat. Muammoli-kommunikativ vaziyatlar talabani ijodiy yechim izlashga undaydi. Ijodiy va evristik topshiriqlar nostandart tafakkurni rivojlantiradi. Interfaol usullar - munozara, rolli o‘yin va treninglar - muloqotni faollashtiradi. Loyiha usuli esa mustaqil ijodiy faoliyatni ta’minlaydi. Bu vositalar birgalikda kommunikativ kreativlikni har tomonlama shakllantiradi.

Metodika bir qator tamoyilga tayanadi. Kognitiv mazmunni hissiy mazmunga aylantirish tamoyili intellektual vazifani talaba uchun shaxsiy ma’noga aylantiradi. Muloqotda tanlov erkinligi tamoyili talabaga muloqotni mustaqil qurish imkonini beradi. Ijodiy xulqni ijtimoiy rag‘batlantirish tamoyili original g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Yangilik va noaniqlik vaziyatlarini modellashtirish tamoyili tajriba va kashfiyotni rag‘batlantiradi. Hamkorlikda yaratish tamoyili esa o‘zaro boyishni ta’minlaydi.

Komponentlar va mezonlar o‘rtasida funksional bog‘liqlik mavjud. Motivatsion-qadriyatli komponent kommunikativ ravonlikni rag‘batlantiradi. Kognitiv-mazmuniy komponent moslashuvchanlikka asos bo‘ladi. Kommunikativ-faoliyatli komponent originallikni amalda namoyon etadi. Kreativ-refleksiv komponent esa refleksivlik mezoni bilan bevosita bog‘lanadi. Bu bog‘liqlik metodikani yaxlit va izchil qiladi.

Metodikaning samaradorligi tajriba-sinov yo‘li bilan tekshirildi. Tajriba uch bosqichda - aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida o‘tkazildi. Aniqlovchi bosqich talabalarning boshlang‘ich darajasini belgiladi. Shakllantiruvchi bosqichda taklif etilgan metodika joriy etildi. Nazorat bosqichi yakuniy natijani o‘lchadi. Bosqichlar o‘zgarishni obyektiv ko‘rsatish imkonini berdi.

Tajriba natijalari tajriba guruhi foydasiga sezilarli o‘zgarishni ko‘rsatdi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi nazorat guruhiga nisbatan oshdi. Past darajadagi talabalar ulushi esa kamaydi. Bu o‘zgarish barcha mezon bo‘yicha kuzatildi. Natijalar matematik-statistik usullar bilan qayta ishlandi va ishonchli deb topildi. Shu tariqa metodikaning samaradorligi tasdiqlandi.

Madaniy-ma’rifiy muhit kommunikativ kreativlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ijodiy muhit talabaning sub’ektiv faolligini oshiradi. U noyob yutuqlarga intilishni rag‘batlantiradi. Bunday muhitda talaba xato qilishdan qo‘rqmaydi. U erkin va ishonch bilan ijodiy muloqotga kirishadi. Shu bois ijodiy muhitni maqsadli tashkil etish metodikaning ajralmas qismidir.

Muhokama. Tadqiqot davomida talabalarda ijodiy salohiyatning o‘rta darajada qolib ketishiga sabab bo‘luvchi to‘siqlar aniqlandi. Psixofiziologik to‘siqlar hissiy holatni boshqarishdagi qiyinchilik va xatodan qo‘rquv bilan bog‘liq. Ta’limiy to‘siqlar talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanish ehtiyojini hisobga oluvchi maxsus kurslarning yetishmasligida namoyon bo‘ladi. Resurs to‘siqlari esa ijodiy muhit yaratish uchun zarur texnik va metodik vositalarning kamligida ifodalanadi.

Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish muayyan pedagogik shartlarni talab qiladi. Birinchidan, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratilishi lozim. Ikkinchidan, ta’lim jarayoni ijodiy va interfaol topshiriqlar bilan boyitilishi kerak. Uchinchidan, talabaning refleksiv faoliyati muntazam rag‘batlantirilishi zarur. Bu shartlar metodikaning samaradorligini ta’minlaydi.

Olingan natijalar amaliy ahamiyatga ega. Metodikadan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda foydalanish mumkin. U talabaning kasbiy muloqot madaniyatini va ijodiy mustaqilligini bir vaqtda rivojlantiradi. Shuningdek, metodika malaka oshirish kurslarida amaliyotchi o‘qituvchilar uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Bu uning amaliy qiymatini oshiradi.

Taklif etilgan metodika manbalardagi ijodkorlik va kommunikativ kompetensiya nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Biroq u ulardan farqli ravishda ikki sifatni yaxlit birlikda shakllantiradi. Bu yondashuv kommunikativ kreativlikni tizimli va natijaviy rivojlantirish imkonini beradi. Tajriba-sinov natijalari metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Talabalarda kommunikativ kreativlikni shakllantirish maqsadli, tizimli va ko‘p o‘lchamli jarayondir. U kommunikativ kompetensiya va ijodiy tafakkurning uyg‘un birligiga asoslanadi. Tadqiqotda kommunikativ kreativlikning to‘rt komponentli tuzilmasi, to‘rt mezoni va uch darajasi asoslandi.

Tuzilmaviy-funksional model va bosqichli texnologiya jarayonni izchil va boshqariladigan qiladi. Muammoli-kommunikativ vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar va interfaol usullar metodikaning texnologik o‘zagini tashkil etadi. Madaniy-ma’rifiy muhit esa jarayonning samaradorligini oshiradi.

Taklif etilgan takomillashtirilgan metodikadan oliy ta’lim amaliyotida, malaka oshirish tizimida hamda o‘quv-metodik ta’minotni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Tadqiqot

natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ijodiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

2. Torrance E. P. The Nature of Creativity as Manifest in its Testing // The Nature of Creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – P. 43–75.

3. Amabile T. M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996.

4. Hymes D. On Communicative Competence. – Harmondsworth: Penguin, 1972.

5. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.

6. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – СПб.: Союз, 1997.

7. Кан-Калик В. А. Педагогическое общение как предмет теоретического и практического исследования // Вопросы психологии. – 1985. – № 4. – С. 9–16.

8. Андреев В. И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000.

9. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

10. Ishmuhamedov R., Yusupova M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2013.

11. Jalolov J. J., Makhkamova G. T., Ashurov Sh. S. English Language Teaching Methodology. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

12. Muslimov N. A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2013.

INFORMATIKA DARSLARIDA ALGORITMIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Xamraeva Yulduz Turakulovna
Buxoro shahar 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada informatika darslarida o‘quvchilarda algoritmik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Algoritmik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va muammoli ta’lim yondashuvlari asosida algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalari, dasturlash muhitlari, interfaol metodlar va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan metodik tavsiyalar taklif etilgan. Mazkur pedagogik mexanizm o‘quvchilarda algoritmik tafakkur, mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish, samarali yechimlarni ishlab chiqish va dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda algoritmik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: algoritmik kompetentlik, informatika ta’limi, algoritmik tafakkur, pedagogik mexanizm, dasturlash, muammoli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, raqamli ta’lim texnologiyalari, STEAM ta’limi, loyiha metodi, mantiqiy fikrlash.

Аннотация. В статье раскрываются теоретические и практические основы формирования педагогических механизмов развития алгоритмической компетентности учащихся на уроках информатики. Научно обоснованы сущность алгоритмической компетентности, её структурные компоненты и роль в развитии алгоритмического мышления обучающихся. На основе компетентностного, системного, деятельностного и проблемно-ориентированного подходов разработаны эффективные педагогические механизмы формирования алгоритмической компетентности. Предложены методические рекомендации по использованию цифровых образовательных технологий, сред программирования, интерактивных методов обучения и проектной деятельности. Разработанная модель способствует развитию алгоритмического мышления, логического анализа, навыков решения задач, программирования и цифровых компетенций учащихся. Результаты исследования могут быть использованы при совершенствовании методики преподавания информатики в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: алгоритмическая компетентность, информатика, алгоритмическое мышление, педагогический механизм, программирование, проблемное обучение, компетентностный подход, интерактивные методы, цифровые образовательные технологии, STEAM-образование, проектное обучение, логическое мышление.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of pedagogical mechanisms for developing students’ algorithmic competence in computer science education. The study analyzes the concept, structural components, and educational significance of algorithmic competence in fostering algorithmic thinking and problem-solving skills. Based on competency-based, systemic, activity-oriented, and problem-based learning approaches, effective pedagogical mechanisms for developing algorithmic competence are proposed. The article also presents

methodological recommendations for integrating digital educational technologies, programming environments, interactive teaching methods, and project-based learning into computer science instruction. The proposed pedagogical model contributes to the development of algorithmic thinking, logical reasoning, computational problem-solving, programming skills, and digital competence among students. The research findings can be effectively applied to improve the methodology of teaching computer science in general secondary education.

Keywords: algorithmic competence, computer science education, algorithmic thinking, pedagogical mechanism, programming, problem-based learning, competency-based approach, interactive teaching methods, digital educational technologies, STEAM education, project-based learning, logical thinking.

KIRISH. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad ta’limni, demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Xalqaro tajribalarini sinchikovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Yurtboshimiz mamlakatda Malakali kadrlar muammosi mavjudligini, barcha sohalarga islohotlar o‘sish sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi davrda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda algoritmik kompetentlikni shakllantirish hisoblanadi. Algoritmik kompetentlik nafaqat dasturlashni o‘rganish, balki o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va tizimli fikrlashini rivojlantirish, murakkab muammolarni tahlil qilish va ularning maqbul yechimlarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois informatika darslarida algoritmik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan algoritmik kompetentlik — bu o‘quvchining muammoni tahlil qilish, uni bosqichma-bosqich yechish algoritmini ishlab chiqish, algoritmni turli ko‘rinishlarda (blok-sxema, psevdokod yoki dasturlash tili orqali) ifodalash, uni tekshirish va takomillashtirishga oid bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlar majmuasidir. Mazkur kompetentlik informatika fanining tayanch kompetensiyalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham muhim zamin yaratadi.

Maktab o‘quvchilarida algoritmik kompetentlikni shakllantirish quyidagi pedagogik mexanizmlar orqali samarali amalga oshiriladi.

1. Kompetensiyaviy yondashuv - Algoritmik kompetentlikni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashiga, real hayotiy vaziyatlarda algoritmik fikrlash asosida qaror qabul qilishiga imkon yaratadi. Dars jarayonida o‘quvchilarga turli murakkablikdagi algoritmik masalalar berilib, ularni mustaqil va ijodiy hal qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

2. Muammoli ta’lim texnologiyasi - Muammoli ta’lim algoritmik tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Ushbu texnologiya asosida o‘quvchilar oldiga real hayot bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar qo‘yiladi. Masalani yechish davomida ular muammoni tahlil qiladi, algoritm ishlab chiqadi, natijani tekshiradi va xatolarni bartaraf etadi. Natijada mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

3. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) - Loyiha metodi informatika darslarida

algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning eng samarali pedagogik mexanizmlaridan biridir. O‘quvchilar individual yoki guruh bo‘lib turli dasturiy loyihalarni yaratish jarayonida algoritmlar tuzadilar, dastur kodlarini yozadilar va ularni sinovdan o‘tkazadilar. Bunday faoliyat algoritmik tafakkur bilan birga kommunikativ, ijodiy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

4. Interfaol metodlardan foydalanish - Informatika darslarida «Aqliy hujum», «Klaster», «FSMU», «Insert», «Case-study», «Debat», «Blits-so‘rov», «Sinkveyn» kabi interfaol metodlardan foydalanish algoritmik tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarni faol fikrlashga, algoritmik yechimlarni taqqoslashga va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rgatadi.

5. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish - Algoritmik kompetentlikni rivojlantirishda Scratch, Python, PascalABC.NET, Blockly, Code.org, Arduino IDE va boshqa zamonaviy dasturlash platformalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Vizual dasturlash muhiti orqali boshlang‘ich algoritmik tushunchalar oson o‘zlashtiriladi, keyinchalik esa matnli dasturlash tillariga bosqichma-bosqich o‘tiladi.

6. STEAM yondashuvi - STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta’limi informatika fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkonini beradi. STEAM asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirish bilan birga, fanlararo bog‘liqlikni anglash, ijodkorlik va muhandislik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

7. Refleksiv faoliyatni tashkil etish - Dars yakunida o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashi va ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqishi algoritmik kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Refleksiya o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Algoritmik kompetentlikning tarkibiy komponentlari - Maktab o‘quvchilarida algoritmik kompetentlik quyidagi komponentlardan iborat:

Kognitiv komponent – algoritm, dasturlash va axborotni qayta ishlash bo‘yicha nazariy bilimlar.

Operatsion komponent – algoritm tuzish, kod yozish, testlash va xatolarni tuzatish ko‘nikmalari.

Motivatsion komponent – informatika faniga qiziqish, muammolarni mustaqil yechishga intilish va ijodkorlik.

Refleksiv komponent – o‘z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va o‘z ustida ishlash.

Kutilayotgan natijalar

Mazkur pedagogik mexanizmlarni informatika darslarida tizimli qo‘llash natijasida o‘quvchilarda:

algoritmik tafakkur rivojlanadi;

mantiqiy va tanqidiy fikrlash shakllanadi;

dasturlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar mustahkamlanadi;

murakkab masalalarni bosqichma-bosqich hal qilish malakasi rivojlanadi;

raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyasi ortadi;

ijodkorlik, mustaqil ta’lim olish va jamoada ishlash ko‘nikmalari takomillashadi.

Umuman olganda, informatika darslarida algoritmik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi va refleksiv faoliyatning uzviy uyg‘unligiga asoslanadi. Ularni tizimli qo‘llash maktab o‘quvchilarining algoritmik tafakkuri, dasturlash kompetensiyasi hamda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil

hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2020.

Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. Informatika fani. – Toshkent, 2023.

O. Sh. Ahmadov Sh. H. Sadullayev. Pedagogik kompetentlik O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Kamolot, 2026. – 416 b.

Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 328 b.

Jo‘rayev R. X. Pedagogik ta’lim nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 356 b.

Egamberdiyeva N. M. Pedagogikaning ijtimoiy nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 320 b.

Полат Э. С. Нове педагогические и информатсионне текҳнологии в системе образования. – Москва: Академия, 2010. – 272 с.

Беспалко В. П. Слагаеме педагогической текҳнологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

Кҳуторской А. В. Ключеве компетенсии как компонент личностно-ориентированной парадигмй образования. // Народное образование. – Москва, 2003. – №2. – С. 58–64.

Зимняя И. А. Ключеве компетенсии – новая парадигма результата образования. – Москва: Исследовательский тсентр проблем качества подготовки спетсиалистов, 2004. – 42 с.

Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H. K. Lewis, 1984. – 251 p.

KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA TEXNOLOGIK, TASHKILIY VA HUQUQIY OMILLARNING INTEGRATSIYALASHGAN MODELI

Xazratov Fazliddin Xikmatovich,
Buxoro davlat universiteti
Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan kiberxavf va tahdidlarning asosiy turlari o‘rganilgan. Tadqiqotda kiberhujumlarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, ularning davlat, biznes va ta’lim tizimlariga ta’siri yoritilgan. Sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, kriptografik himoya vositalari hamda ko‘p bosqichli autentifikatsiya texnologiyalarining kiberxavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, inson omili, raqamli savodxonlik va foydalanuvchilar xatti-harakatlarining axborot xavfsizligiga ta’siri baholangan. Tadqiqot natijalari kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnik, tashkiliy va huquqiy choralarni kompleks ravishda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, kiberhujum, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, kriptografiya, autentifikatsiya, fishing, zararli dasturlar, risk management; AHP, FMEA, NIST Cybersecurity Framework, ISO/IEC 27001.

Kirish. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog‘i qamrovining kengayishi va raqamli xizmatlarning ommalashuvi natijasida jamiyatning barcha sohalarida raqamli transformatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. Davlat boshqaruvi, bank-moliya tizimi, elektron tijorat, sanoat, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish zaruratini yuzaga keltirmoqda [13].

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi axborot resurslari va tarmoqlarining o‘zaro integratsiyalashuvini kuchaytirib, yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Kiberjinoyatchilikning murakkablashuvi, zararli dasturlarning takomillashuvi, fishing hujumlari, ijtimoiy muhandislik usullari, xizmat ko‘rsatishni rad etish (DDoS) hujumlari hamda ilg‘or doimiy tahdidlar (Advanced Persistent Threats – APT) sonining ortib borishi axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantirdi [2].

Zamonaviy kiberhujumlar nafaqat texnik infratuzilmaga zarar yetkazadi, balki tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi, ishchanlik obro‘si va foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari daxlsizligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi [1]. Ayniqsa, davlat axborot tizimlari, muhim infratuzilma obyektlari va moliyaviy tashkilotlarga qaratilgan kiberhujumlar milliy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [7].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash faqat texnik himoya vositalarini joriy etish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon kompleks yondashuvni, jumladan, huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish, xavflarni boshqarish tizimini joriy etish, xalqaro standartlarga muvofiq axborot xavfsizligini tashkil etish hamda foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirishni talab etadi [6; 11].

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalarning rivojlanishi kiberxavfsizlikni ta’minlashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar kiberhujumlarni real vaqt rejimida aniqlash,

xavflarni prognoz qilish va himoya choralarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda [3; 4]. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalardan kiberjinoyatchilar tomonidan foydalanish ehtimoli yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda [5].

O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron hukumat tizimlarini kengaytirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda [15]. Mamlakatda milliy axborot infratuzilmasini himoya qilish, kiberxavfsizlik bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash va zamonaviy himoya vositalarini joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda [14; 16].

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, zamonaviy kiberxavf va tahdidlarning xususiyatlarini o‘rganish hamda axborot resurslarini himoya qilishning samarali usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy axborot tizimlari va ularning kiberxavfsizlik infratuzilmasi tanlandi.

Tadqiqotning predmeti kiberxavfsizlikni ta’minlashning texnologik, tashkiliy va huquqiy mexanizmlari hisoblanadi (1-rasm).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kiberxavfsizlikni ta’minlashda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining imkoniyatlarini kompleks tahlil qilish, xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni qiyosiy o‘rganish hamda axborot resurslarini himoya qilishning integratsiyalashgan modelini taklif etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan tavsiyalar davlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimlarini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kiberxavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy yondashuvlarini kompleks o‘rganish maqsadida sifat va miqdoriy tahlil elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan aralash metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, risklarga asoslangan yondashuv hamda qiyosiy tahlil usullari tashkil etdi.

Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, sun’iy intellekt va raqamli transformatsiya sohalariga oid xorijiy, rus va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro standartlar hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi [3; 6; 11]. Tadqiqot jarayonida Scopus bazasida indekslangan ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va amaliy hisobotlardan foydalanildi (2-rasm).

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:


Birinchi bosqich – ilmiy adabiyotlarni tanlash va saralash. Mazkur bosqichda kiberxavfsizlik sohasiga oid ilmiy manbalar kontent-tahlil asosida o‘rganildi. Adabiyotlarni tanlashda ularning ilmiy yangiligi, dolzarbligi, nashr etilgan yili, indeksatsiya darajasi hamda tadqiqot mavzusiga mosligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Xususan, 2019–2025-yillarda chop etilgan va Scopus bazasida indekslangan ilmiy maqolalarga ustuvorlik berildi [2; 4; 5].

Ikkinchi bosqich – nazariy va qiyosiy tahlil. Turli mamlakatlarda kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha qo‘llanilayotgan yondashuvlar, texnologiyalar va strategiyalar o‘zaro taqqoslandi. Kiberhujumlarning turlari, ularning amalga oshirish mexanizmlari hamda oqibatlari tizimli ravishda tahlil qilindi [1; 7]. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi himoya vositalarining samaradorligi an’anaviy kiberxavfsizlik tizimlari bilan qiyoslandi [3; 4].

Uchinchi bosqich – xalqaro standartlar va me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlariga oid xalqaro standartlar, jumladan, ISO/IEC 27001, NIST Cybersecurity

Framework va boshqa me’yoriy hujjatlar o‘rganildi. Mazkur standartlarning asosiy talablari va amaliy qo‘llash mexanizmlari tahlil qilinib, ularni milliy axborot tizimlariga integratsiya qilish imkoniyatlari baholandi [11; 12].

To‘rtinchi bosqich – xavflarni baholash va tasniflash. Tadqiqot davomida kiberxavflarni aniqlash va baholashning risklarga asoslangan yondashuvi qo‘llanildi. Kiberxavflar ehtimollik darajasi, ta’sir ko‘lami va yuzaga kelish chastotasiga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Tahdidlarni baholashda maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik tamoyillariga asoslangan CIA modeli mezon sifatida qabul qilindi [9].




1-rasm. Kiberxavfsizlikning texnologik omillari modeli.

Beshinchi bosqich – natijalarni umumlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish. Olingan natijalar tizimlashtirildi hamda kiberxavfsizlikni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab


chiqildi. Tavsiyalarni ishlab chiqishda texnik, tashkiliy va ta’limiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi inobatga olindi [14; 16].

Tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlarni triangulyatsiya qilish usulidan foydalanildi. Bunda turli manbalardan olingan nazariy va amaliy ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi hamda natijalarning izchilligi tekshirildi. Tadqiqotning metodologik cheklovlari sifatida kiberxavfsizlik sohasining yuqori dinamik xususiyatga egaligi, yangi tahdidlarning doimiy ravishda paydo bo‘lishi va ayrim kiberhodisalar bo‘yicha ochiq ma’lumotlarning cheklanganligini qayd etish mumkin. Shunga qaramay, tanlangan metodologik yondashuv kiberxavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy tendensiyalarini chuqur tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.



2-rasm. Kiberxavfsizlikning huquqiy omillari modeli.

Adabiyotlar tahlili. Kiberxavfsizlik zamonaviy axborot jamiyatining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, bulutli texnologiyalar, buyumlar interneti (Internet of Things – IoT), sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalarining keng joriy etilishi axborot infratuzilmasiga bo‘lgan talabni oshirish bilan bir qatorda yangi turdagi kiberxavf va tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda [7]. So‘nggi yillarda kiberxavfsizlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan kiberhujumlarni aniqlash, axborot tizimlarining zaifliklarini baholash, xavflarni boshqarish, sun’iy intellekt asosidagi himoya vositalarini ishlab chiqish va foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish masalalariga qaratilgan [6].



3-rasm. Kiberxavfsizlikning tashkiliy omillari modeli.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kiberxavfsizlikning nazariy va amaliy jihatlari keng o‘rganilgan. Bada va Nurse [1] kiberhujumlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini tahlil qilib, inson omili aksariyat kiberhodisalarning asosiy sababi ekanligini ta’kidlaydilar. Mualliflarning fikriga ko‘ra, texnik himoya vositalarining rivojlanishiga qaramasdan, foydalanuvchilarning xabardorlik darajasi va xavfsizlik madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi kiberxavflarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga zamin yaratmoqda [1].

Kiberhujumlarning murakkab va uzoq muddatli shakllaridan biri bo‘lgan ilg‘or doimiy tahdidlar (Advanced Persistent Threats – APT) Alshamrani, Myneni, Chowdhary va Huang [2] tomonidan tizimli ravishda o‘rganilgan. Mualliflar APT hujumlarining razvedka, kirib borish, ichki tarmoqda tarqalish va ma’lumotlarni noqonuniy olib chiqish bosqichlarini tavsiflaganlar.

Tadqiqot natijalari an’anaviy himoya vositalari mazkur turdagi hujumlarni aniqlashda cheklangan imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi [2].

Kiberxavfsizlikni ta’minlashda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining qo‘llanilishi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Sarker, Furhad va Nowrozy [3] sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarini tahlil qilib, ularning anomaliyalarni aniqlash, xavflarni prognoz qilish va avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilishdagi afzalliklarini asoslab berganlar. Biroq, mualliflar sun’iy intellekt modellarining ma’lumotlar sifati va hajmiga yuqori darajada bog‘liqligi hamda noto‘g‘ri ijobiy natijalar (false positives) muammosi mavjudligini qayd etadilar. Li va hammualliflar [4] chuqur o‘rganish algoritmlariga asoslangan hujumlarni aniqlash tizimlarini tahlil qilib, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) va uzoq qisqa muddatli xotira (LSTM) modellarining tarmoq trafigidagi g‘ayritabiiy faoliyatni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini aniqlaganlar. Shu bilan birga, mazkur modellarni real sharoitlarda qo‘llash uchun katta hajmdagi belgilangan ma’lumotlar to‘plamlariga ehtiyoj mavjudligi ta’kidlangan [4]. Le, Nguyen va Tran [5] korporativ muhitda kiberxavfsizlik analitikasining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib, tahdidlarni aniqlash va ularga javob qaytarishda katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash texnologiyalari va xavfsizlik operatsion markazlari (Security Operations Center – SOC)ning muhim rolini asoslab berganlar. Tadqiqot natijalari kiberxavfsizlikni ta’minlashda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatadi [5]. Katsikeas, Johnson, Ekstedt va Lagerström [6] kiberxavfsizlik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning evolyutsiyasini tahlil qilib, zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari sifatida kriptografiya, tarmoq xavfsizligi, xavflarni boshqarish, sun’iy intellekt va raqamli forensikani ajratib ko‘rsatganlar. Mualliflar mazkur yo‘nalishlarning integratsiyasi kiberxavfsizlikning yangi paradigmasini shakllantirayotganini ta’kidlaydilar. Xu [7] tomonidan ishlab chiqilgan kiberxavfsizlik dinamikasi konsepsiyasi kiberxavfsizlikni doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi murakkab tizim sifatida talqin etadi. Muallifning fikriga ko‘ra, kiberxavf va tahdidlarning evolyutsion tabiati himoya vositalarining adaptiv va proaktiv xususiyatga ega bo‘lishini talab qiladi [7].

Rus olimlari tomonidan axborot xavfsizligini ta’minlashning metodologik va amaliy jihatlari chuqur tadqiq etilgan. Kasperskiy [8] zararli dasturlar evolyutsiyasi va ularning tarqalish mexanizmlarini tahlil qilib, zamonaviy zararli dasturlar tobora murakkablashib borayotganini hamda ularni aniqlash uchun ko‘p qatlamli himoya tizimlarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. A. A. Malyuk, S. V. Pazizin, N. S. Pogojin [9] avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborotni himoya qilishning tashkiliy va texnik mexanizmlarini o‘rganib, xavflarni boshqarishning kompleks modelini taklif etganlar. Ushbu model tahdidlarni aniqlash, zaifliklarni baholash va himoya choralarini ishlab chiqish bosqichlarini qamrab oladi. Domarev [10] axborot xavfsizligini tizimli yondashuv asosida o‘rganib, texnik, tashkiliy va inson omillarining o‘zaro bog‘liqligini asoslab bergan. Muallifning fikricha, kiberxavfsizlikni ta’minlashda faqat texnik vositalardan foydalanish yetarli emas, balki xavfsizlik siyosatini shakllantirish va xodimlarni muntazam tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Shangin [11] kompyuter tarmoqlari xavfsizligini ta’minlashning nazariy asoslarini tahlil qilib, xavfsizlik siyosati, kirishni boshqarish va kriptografik himoya vositalarining samaradorligini asoslab bergan. Tsirlov [12] esa axborot xavfsizligining fundamental tamoyillari – maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik konsepsiyalarini keng yoritib, ularning zamonaviy axborot tizimlaridagi ahamiyatini ko‘rsatgan (3-rasm).

O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida milliy axborot infratuzilmasini himoya qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Aripov va Maraximov [13] axborot xavfsizligining nazariy asoslari, kriptografik himoya

usullari va zamonaviy axborot tizimlarini himoyalash texnologiyalarini tahlil qilganlar. Yuldashev va Raxmonov [14] milliy axborot tizimlarida yuzaga kelayotgan kiberxavflarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini o‘rganganlar. Abduqodirov va Xaitov [15] raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlarini tahlil qilib, milliy kiberxavfsizlik siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Maraximov va Tojiboyev [16] O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, kiberxavfsizlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligini asoslab berganlar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlik bo‘yicha mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida texnologik yechimlar, tahdidlarni aniqlash usullari yoki tashkiliy mexanizmlarni o‘rganishga qaratilgan. Biroq, raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt asosidagi himoya vositalari, inson omili, xalqaro standartlar va milliy xavfsizlik talablarini yagona integratsiyalashgan tizim doirasida kompleks tahlil qilish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, unda kiberxavfsizlikni ta’minlashning texnologik, tashkiliy va ijtimoiy omillari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi hamda xalqaro tajriba va milliy yondashuvlar asosida axborot resurslarini himoya qilishning kompleks modeli taklif etiladi.

Natija va muhokamalar. Kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnologik, tashkiliy va huquqiy omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash maqsadida AHP, FMEA va risk-matritsa usullaridan kompleks foydalanildi. Kiberxavflar ehtimollik darajasi (P) va ta’sir ko‘lami (I) bo‘yicha 5 balli shkala asosida baholandi. Umumiy risk darajasi quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$R = P \times I \quad (1)$$

Risk darajalari quyidagicha tasniflandi:

1–5 ball – past risk;

6–10 ball – o‘rta risk;

11–15 ball – yuqori risk;

16–25 ball – kritik risk.

1-jadval

Kiberxavf omili	Ehtimollik (P)	Ta’sir (I)	Risk balli (R)	Ustuvorlik
Fishing hujumlari	5	4	20	Kritik
Inson omili	4	5	20	Kritik
Zararli dasturlar	4	4	16	Kritik
DDoS hujumlari	3	5	15	Yuqori
Ichki tahdidlar	3	5	15	Yuqori
APT hujumlari	2	5	10	O‘rta
Bulutli xizmatlar zaifligi	3	3	9	O‘rta
Huquqiy nomuvofiqlik	2	4	8	O‘rta

Risk-matritsa natijalari shuni ko‘rsatdiki, inson omili va fishing hujumlari eng yuqori ustuvorlikka ega bo‘lib, ularga qarshi profilaktik choralarni kuchaytirish zarur. Kiberxavf omillarining ustuvorligini aniqlash uchun FMEA usulidan foydalanildi. Bunda har bir xavf uchta mezon bo‘yicha baholandi:

S (Severity) – oqibatning jiddiyligi;
(Occurrence) – yuzaga kelish ehtimoli;
D (Detection) – aniqlash qiyinligi.
Risk ustuvorlik soni (RPN) quyidagi formula orqali hisoblandi:
RPN = S × O × D (2)

2-jadval

Kiberxavf omili	S	O	D	RPN	Ustuvorlik
Inson omili	9	8	7	504	1
Fishing hujumlari	8	9	6	432	2
Zararli dasturlar	8	7	6	336	3
DDoS hujumlari	9	5	6	270	4
Ichki tahdidlar	8	5	6	240	5
APT hujumlari	10	3	7	210	6
Huquqiy nomuvofiqlik	7	4	5	140	7

FMEA natijalari inson omili kiberxavfsizlikka eng katta tahdid ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur omil bo‘yicha xodimlarni muntazam o‘qitish va raqamli savodxonlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberxavfsizlikni ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar uchta guruhga ajratildi:
texnologik omillar;
tashkiliy omillar;
huquqiy omillar.
Ekspert baholash asosida Saatining 1–9 shkalasi yordamida juft taqqoslash matritsasi shakllantirildi.

3-jadval


Omillar	Texnologik	Tashkiliy	Huquqiy
Texnologik	1	2	4
Tashkiliy	1/2	1	3
Huquqiy	1/4	1/3	1

Konsistentlik koeffitsiyenti (CR) 0,1 dan kichik bo‘lib, ekspert baholarining mosligi tasdiqlandi. AHP natijalari kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnologik omillar yetakchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, tashkiliy va huquqiy omillarni e’tibordan chetda qoldirish kiberhimoya tizimining umumiy samaradorligini pasaytirishi mumkin. Kompleks baholash natijalariga ko‘ra, kiberxavfsizlikni ta’minlashda texnologik yechimlarni joriy etish bilan bir qatorda xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish, xavfsizlik siyosatini takomillashtirish va amaldagi me’yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlashning integratsiyalashgan modeli texnologik, tashkiliy va huquqiy omillarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Modelda omillarning nisbiy ahamiyati Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) usuli yordamida aniqlanib, mos ravishda 0,56; 0,31 va 0,13 koeffitsiyentlar olindi. Integratsiyalashgan kiberxavfsizlik indeksi (ICS) omillarning vaznli yig‘indisi sifatida hisoblandi:

ICS=0.56T+0.31O+0.13H (3)

Mazkur model tashkilotlarda kiberxavfsizlik holatini kompleks baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi (4-rasm).



4-rasm. Kiberxavfsizlikni ta’minlashning integratsiyalashgan modeli.

Xulosa. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi axborot tizimlari va raqamli

infratuzilmalarning kiberxavfsizligini ta’minlash masalasini strategik ahamiyatga ega yo‘nalishga aylantirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy kiberxavf va tahdidlar, jumladan, fishing hujumlari, zararli dasturlar, DDoS hujumlari hamda ilg‘or doimiy tahdidlar (APT) axborot resurslarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Tahlillar kiberxavfsizlikni samarali ta’minlash faqat texnik himoya vositalarini joriy etish bilan cheklanmasligini, balki tashkiliy, huquqiy va ta’limiy choralarni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash zarurligini tasdiqladi. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalari kiberhujumlarni erta aniqlash, xavflarni prognoz qilish va himoya jarayonlarini avtomatlashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda ma’lumotlar sifati, algoritmlarning ishonchliligi hamda noto‘g‘ri ijobiy natijalar xavfi kabi omillarni hisobga olish lozim.

Tadqiqot davomida xalqaro standartlar, jumladan, ISO/IEC 27001 va NIST Cybersecurity Framework talablarini milliy axborot tizimlariga integratsiya qilish kiberxavfsizlikni mustahkamlashning muhim omili ekanligi asoslandi. Shuningdek, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va malakali kadrlar tayyorlash kiberxavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Taklif etilgan integratsiyalashgan yondashuv texnologik, tashkiliy va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda axborot resurslarini himoya qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalaridan davlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining samaradorligini real sharoitlarda baholash, yangi avlod kiberxavflarini prognozlash va adaptiv himoya mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Bada, M., Nurse, J. R. C. The social and psychological impact of cyber-attacks // Emerging Cyber Threats and Cognitive Vulnerabilities. – London : Academic Press, 2020. – P. 73–92. – DOI: 10.1016/B978-0-12-816203-3.00004-6.

Alshamrani, A., Myneni, S., Chowdhary, A., Huang, D. A survey on advanced persistent threats: Techniques, solutions, challenges, and research opportunities // IEEE Communications Surveys & Tutorials. – 2019. – Vol. 21, No. 2. – P. 1851–1877. – DOI: 10.1109/COMST.2019.2891891.

Sarker, I. H., Furhad, M. H., Nowrozy, R. AI-driven cybersecurity: An overview, security intelligence modeling and research directions // SN Computer Science. – 2021. – Vol. 2, No. 3. – Art. 173. – DOI: 10.1007/s42979-021-00557-0.

Li, J., Liu, H., Luo, X., et al. Deep learning-based intrusion detection systems: A systematic review and future trends // Computer Networks. – 2022. – Vol. 213. – Art. 109134. – DOI: 10.1016/j.comnet.2022.109134.

Le, T. D., Nguyen, H. T., Tran, D. T. Cybersecurity analytics for the enterprise environment: A systematic literature review // Electronics. – 2025. – Vol. 14, No. 11. – Art. 2252. – DOI: 10.3390/electronics14112252.

Katsikeas, S., Johnson, P., Ekstedt, M., Lagerström, R. Research communities in cyber security: A comprehensive literature review // Computers & Security. – 2022. – Vol. 121. – Art. 102840. – DOI: 10.1016/j.cose.2022.102840.

Xu, S. Cybersecurity dynamics: A foundation for the science of cybersecurity // The Science of Cybersecurity. – Cham : Springer, 2021. – P. 1–31. – DOI: 10.1007/978-3-030-78506-6_1.

Касперский, Е. В. Компьютерное зловредство в вопросах и ответах. – Москва : Альпина

Паблишер, 2021. – 312 с.

Малюк, А. А., Пазизин, С. В., Погожин, Н. С. Введение в защиту информации в автоматизированных системах. – Москва : Горячая линия – Телеком, 2020. – 376 с.

Домарев, В. В. Безопасность информационных технологий. Системный подход. – Киев : ДиаСофт, 2019. – 992 с.

Шаньгин, В. Ф. Информационная безопасность компьютерных систем и сетей. – Москва : ФОРУМ, 2022. – 416 с.

Цирлов, В. Л. Основы информационной безопасности автоматизированных систем. – Москва : Феникс, 2021. – 448 с.

Aripov, M. M., Maraximov, A. R. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent : Cho‘lpon, 2021. – 320 b.

Yuldashev, B. S., Raxmonov, A. A. Kiberxavfsizlik tahdidlarini aniqlash va ularni bartaraf etish usullari // Muhammad al-Xorazmiy avlodlari. – 2023. – № 2. – B. 85–92.

Abduqodirov, A. A., Xaitov, O. X. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlashning dolzarb masalalari // Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiyalarning zamonaviy muammolari : ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 114–119.

Maraximov, A. R., Tojiboyev, J. A. O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari // TATU xabarlari. – 2024. – № 1. – B. 56–64.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHI VA OTA-ONA HAMKORLIGI KVALIMETRIYASI NATIJALARINI O‘RGANISH METODOLOGIYASI

Shokirova Madinabonu Shomurod qizi
BuxDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va ota-ona hamkorligi kvalimetriyasi natijalarini o‘rganish metodologiyasi sifatida «O‘zaro hamkorlik dasturi» ishlab chiqilgan bo‘lib, unga asosan sinf rahbarlari o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari holatlarini qayd qilish orqali o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasidagi o‘zgarishlarni aniqlashga erishish mumkin.

Kalit so‘zlar: ota-ona, o‘qituvchi, samaradorlik, pedagogik kvalimetriya, pedagogik hamkorlik, ma’naviyat, eksperiment, sotsiometriya.

METHODOLOGY FOR STUDYING THE QUALIMETRIC RESULTS OF TEACHER–PARENT COOPERATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF PRIMARY EDUCATION

Annotation: This article presents the “Mutual Cooperation Program” as a methodology for studying the qualimetric results of cooperation between teachers and parents in improving the effectiveness of primary education. Based on this program, class teachers can identify changes in students’ education and upbringing by recording their classroom and extracurricular activities.

Keywords: parent, teacher, effectiveness, pedagogical qualimetry, pedagogical cooperation, spirituality, experiment, sociometry.

МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ КВАЛИМЕТРИИ СОТРУДНИЧЕСТВА УЧИТЕЛЯ И РОДИТЕЛЕЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье разработана программа «Взаимное сотрудничество» как методология изучения результатов квалиметрии сотрудничества учителя и родителей в повышении эффективности начального образования. На основе данной программы классные руководители могут выявлять изменения в обучении и воспитании учащихся путем фиксации их учебной и внеурочной деятельности.

Ключевые слова: родитель, учитель, эффективность, педагогическая квалиметрия, педагогическое сотрудничество, духовность, эксперимент, социометрия.

Bugungi kunda olib borilayotgan ta’limga oid masalalardan asosiysi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sifatli va samarali bilim olishini yanada takomillashtirishda maktab va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Rivojlangan davlatlarda maktab va ota-onalar o‘zaro hamkorlik faoliyatini rivojlantirish ya’ni, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining maktabdagi o‘quv jarayonidan tashqari ta’lim va tarbiyasini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan 2030- yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “sifatli ta’lim, ijodiy tafakkur va bilimni rag‘batlantirish, savodxonlik va o‘zaro hamkorlik malakalarini rivojlantirish, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko‘nikmalarini yuqori darajada egallash”ga alohida e’tibor berilmoqda. Xalqaro miqyosda maktab va ota-onalar o‘zaro hamkorlik

aloqalarini mustahkamlash, jamiyat kelajagi uchun salohiyatli yoshlarni tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim samaradorlik sifatini oshirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va ota-onalar bilan mustahkam munosabatni yo‘lga qo‘yish va unga tarbiyaviy va pedagogik hamkor tuzilmaning ta’sirini aniqlash uchun tuzilgan sotsiologik so‘rovnoma quyidagi ko‘rsatkichlarga asoslanib tuziladi:

- onglilik, ya’ni ijtimoiy borliqning anglanganlik xususiyati (fikrlashi, dunyoqarashi, nuqtai nazari, ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlari, istiqboli uchun rejalari va h.k.);
- xulq-atvorini ochib beruvchi faktorlar (shaxsiy emotsional, axloqiy xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar tizimi, faoliyati doirasi, oqilona ehtiyojlanishi);
- bilimlarni o‘zlashtirish darajasi (bilim sifati, intellektual salohiyati, muvaffaqiyati, yutuqlari).

Pedagogik kvalimetriya - barcha sohalardagi tabiiy va sun’iy jarayonlarning sifatini miqdoriy baholash masalalarini o‘rganuvchi ilmiy soha. Kvalimetriya nazariy, maxsus va empirik tarmoqlarga ega bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minlash hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim-tarbiyasi jarayonida ota-ona va ta’lim muasasasi hamkorligi kvalimetriyasiga oid ilmiy tadqiqotda kvalimetriyaning empirik tarmog‘iga tayaniladi. Kvalametriyalashda turli murakkab jarayonlarni baholashni quyidagi mezonlarga tayanib ochiqlash mumkin:

Tadqiq etilayotgan shaxs yoki faoliyatning eng muhim xususiyatlarini tavfsiflovchi indikatorlarni tanlash;

Indikatorlarni miqdoriy hisoblash usullarini tanlash;

Umumiy samaradorlikni ochib beruvchi usullarni ajratib olish;

O‘zgaruvchan ko‘rsatkichlarni foizlarda ifodalash.

Mavzu asosida ushbu tadqiqotda pedagogik kuzatuv, suhbat, ekspert so‘rovi, anketa so‘rovi, sotsiometriya, “O‘zaro hamkorlik” dasturi, matematik statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarning dalillash maqsadida eksperiment o‘tkazildi. Ekspert so‘rovi metodi: mavzu asosida bevosita bog‘liq respondentlar ekspert sifatida tanlab olindi. Ushbu tadqiqotda ekspert sifatida oila a’zolaridan ota yoki ona, sinf rahbarlari va pedagoglarning ekspert sifatida oldindan tayyorlangan so‘rovnoma asosidagi fikrlari o‘rganildi va shu asosda ma’lumotlar yig‘ildi. So‘rov usuli orqali olingan natijalar, ilmiy farazning qanchalik asosli ekanligi pedagogik kvalimetriyalash orqali, eksperiment metodida ilmiy asoslanadi.

Eksperiment metodi: lot.tilida exrerimentum — tajriba, sinov ma’nosini beradi. Bu metod ilmiy faraz yoki nazariyani qo‘llab-quvvatlash, rad etish yoki tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Ushbu eksperiment sotsiometriya usuli orqali amalga oshirildi.

Sotsiometriya usuli: Amerika sotsial psixologi J. Moreno tomonidan ishlab chiqilgan metod kichik guruhlardagi, jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Sotsiometriyaning asosiy jihatlaridan biri metodni faqatgina oldindan bir-biriga tanish bo‘lgan guruhlarda qo‘llashdir. Ya’ni guruh a’zolari bir-biri bilan tanish bo‘lishi lozim.

Pedagogik hamkorlik – pedagogik maqsadga erishishning ko‘p tomonlama harakat operasiyasi bo‘lib, unda o‘quvchilarning o‘qishga ishtiyoqini oshirish, bilim olish, mehnat qilish hamda yuksak axloqiy sifatlari bilan jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga erishish uchun mas’ul tomonlarning kuchini birlashtirish va ish birligini ta’minlashni nazarda tutadi. O‘quvchi, pedagog, ota-ona va boshqa mas’ullarning pedagogik maqsad asosida birgalikdagi faoliyati.

Kvalimetriya – sifatni miqdoriy baholash, sifatning o‘lchovi. Laykert shkalasi. Ingl. Likert scale, umumiy baholash qiymati shkalasi. Psixometrik shkala hisoblanib, turli soha tadqiqotlari uchun mo‘ljallangan anketa savolnomalarida qo‘llaniladi, 1932- yilda Rensis Likert tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zaro hamkorlik dasturi-ota-ona va o‘qituvchi hamkorlik tuzilmalarining tarbiyaviy ish faoliyati sifati, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi va sifati hafta, oy va choraklar kesimida olib boriladigan yo‘riqnoma hisoblanib, o‘qituvchi va ota-onalarning malaka darajasini o‘lchash

va baholashni nazarda tutadi.

Tarbiyalanganlik-jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalar, milliy ma’naviyat va axloq normalarini mustaqil ravishda qabul qilganligi, bo‘ysunishi, insoniyat uchun g‘ayriaxloqiy bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zini tiya bilishida aks etadi.

Tarbiya sifati-o‘zlashtirilgan ijtimoiy-pedagogik tajribaga asoslanib hayot va faoliyatning turli sohalaridagi muammolarni ijobiy yakunda mustaqil hal qila olish qobiliyati bilan bog‘liq darajadir.

Tarbiya sifati aniq belgilangan ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik bo‘yicha tarbiya jarayoni va uning samaradorligini tavsiflovchi baholash mezoni bo‘lib, kutilgan va maqsad qilingan natijani tarbiyalanuvchi shaxsida ko‘ra olish bilan ahamiyatlidir.

Shaxs rivojlanishining eng dolzarb va murakkab davri o‘quvchilik davridir. Bu davrda bolalar har tomonlama e’tiborga, kompleks tarbiyaga muhtoj bo‘ladilar. Sotsiumga qo‘shilishga mustaqil tajribalari yetarli bo‘lmaydi. Shu tufayli yuzaga kelayotgan har qanday o‘zgarishlar, to‘siqlar va chigal vaziyatlarni yolg‘iz o‘zi hal eta olish imkoniyati past bo‘ladi. Bu o‘rinda esa ota-onalar va ta’lim tashkiloti hamkorligidagi samarali shakl, usul va vositalarning tasirchanligi yoshlar tarbiyasini barqarorlashtirishda hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minlashda ota-onalar va o‘qituvchining o‘zaro hamkorlik tuzilmaning ta’sirini aniqlash uchun tuzilgan sotsiologik so‘rovnoma quyidagi ko‘rsatkichlarga asoslanib tuziladi:

onglilik, ya’ni ijtimoiy borliqning anglanganlik xususiyati (fikrlashi, dunyoqarashi, nuqtai nazari, ta’lim olishga nisbatan qiziqishlari, istiqboli uchun rejalari va h.k.);

xulq-atvorini ochib beruvchi faktorlar (shaxsiy emotsional, axloqiy xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar tizimi, faoliyati doirasi, oqilona ehtiyojlanishi);

bilimlarni o‘zlashtirish darajasi (bilimsifati, intellektual salohiyati, muvaffaqiyati, yutuqlari).

Pedagogik kvalimetriya - barcha sohalardagi tabiiy va sun’iy jarayonlarning sifatini miqdoriy baholash masalalarini o‘rganuvchi ilmiy soha. Kvalimetriya nazariy, maxsus va empirik tarmoqlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida oila, mahalla va maktab hamkorligi kvalimetriyasiga oida ilmiy tadqiqotda kvalimetriyaning empirik tarmog‘iga tayaniladi.

Mavzu asosida ushbu tadqiqotda pedagogik kuzatuv, suhbat, ekspert so‘rovi, anketa so‘rovi, sotsiometriya, “O‘zaro hamkorlik dasturi”, matematik statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarning dalillash maqsadida eksperiment o‘tkazildi.

Ekspert so‘rovi metodi: mavzu asosida bevosita bog‘liq respondentlar ekspert sifatida tanlab olindi. Ushbu tadqiqotda ekspert sifatida oila a’zolaridan ota yoki ona, sinf rahbarlari va pedagoglarning ekspert sifatida oldindan tayyorlangan so‘rovnoma asosidagi fikrlari o‘rganildi va shu asosda ma’lumotlar yig‘ildi. So‘rov usuli orqali olingan natijalar, ilmiy farazning qanchalik asosli ekanligi pedagogik kvalimetriyalash orqali, eksperiment metodida ilmiy asoslanadi.

Eksperiment metodi: lot.tilida exrerimentum — tajriba, sinov ma’nosini beradi. Bu metod ilmiy faraz yoki nazariyani qo‘llab-quvvatlash, rad etish yoki tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Ushbu eksperiment sotsiometriya usuli orqali amalga oshirildi.

Sotsiometriya usuli: Amerika sotsial psixologi J. Moreno tomonidan ishlab chiqilgan metod kichik gruhlardagi, jamoalardagi shaxslararo munosabatlami o‘rganish uchun qo‘llanildi. Sotsiometriyaning asosiy jihatlaridan biri metodni faqatgina oldindan bir biriga tanish bo‘lgan guruhlarda qo‘llashdir. Ya’ni guruh a’zolari bir-biri bilan tanish bo‘lishi lozim.

O‘quvchining qaysi kasbga qiziqishi, kelajakda qaysi sohada ishlashini bilish uchun ota-onalar sinf rahbarlari, pedagoglar bilan hamkorlik qilib borishi lozim. O‘quvchilarning dars tayyorlashida o‘z xonasi yoki bo‘lmasa alohida dars qilish uchun burchagi bo‘lishi ham ahamiyatlidir. O‘quvchi o‘zini tinch xotirjam sezishi uchun o‘zining burchagi, xonasi va kundalik faoliyati rejasi mavjud bo‘lishi kerak. Ularning rejaga o‘rganishi, mustaqil fikrga ega bo‘lishida pedagogik tarbiya jarayoni asosiy rol o‘ynaydi.

O’zaro hamkorlikni baholash dizayni

Pedagogik tadqiqot dizayni:			
-Baholash – ta’lim-tarbiya jarayonining muayyan davr mobaynida maqsadga muvofiqlik darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash, samaradorligini tahlil qilish va o‘rganishdan iborat jarayondir.			
Baholashdan maqsad:			
- Har qanday faoliyatning qiymati uning «sifat» va «samaradorlik» parametrlari bilan ahamiyatli. Lekin, aynan boshlang’ich ta’limda samaradorlik o‘lchami xali aniqlanmagan miqdor. - O’zaro hamkorlik faoliyatini baholashdan maqsad - avvalo, mavjud faoliyatning davlat dasturlari asosidagi maqsadga muvofiqlik darajasini o‘lchash asnosida o‘quvchilarning umumiy kontingenti haqida ma’lumotga ega bo‘lish, qator tarbiyaviy ish natijalarini ochiqlash, muammolarni xal etish hamda qarorlar qabul qilish imkonini yaratishdan iboratdir.			
Baholanish ob’ektlari:			
A	***B***	***V***	***G***
O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi	Ota-onalarning hamkorlikdagi tarbiyaviy qadriyatlari	Ijtimoiy muhitdagi tarbiya ishlaridagi sheriklik darajasi	Umumiy o’rta ta’limning boshlang’ich sinflarida ta’lim-tarbiya samaradorligini baholash indikatorlari
Maqsad-O‘quvchilarning shaxsiy sifat va fazilatlari, tarbiyaviy ko‘nikmalari hamda ped.hamkorlikka munosabatlarini o‘rganish	**Maqsad-**ota-onalarning farzand tarbiyasida tayyorgarlik darajasini o‘rganish, bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini baholash	**Maqsad-** Ijtimoiy muhitning maktab o‘quvchilarining tarbiyaviy kamolotiga ta’sirini baholash	**Maqsad-**boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash mexanizmlari, bu boradagi mavjud shart sharoitlari, yutuq, kamchiliklarini o‘rganish, tahlil
Baholash metodlari:			
A	***B***	***V***	***G***
Anketa so‘rovnomasi o‘tkaziladi va natijalar kodlashtiriladi va sotsiometriya usulida qayta ishlanadi, o‘rta arifmetik qiymat bilan kvalimetriyalanadi, olingan natijalar tahlil qilinadi	Anketa so‘rovnomasi o‘tkaziladi va natijalar kodlashtiriladi va o‘rta arifmetik qiymat bilan kvalimetriyalanadi qayta ishlanadi, olingan natijalar tahlil qilinadi	Belgilangan mezonlar asosida sotsiologik anketa so‘rovnomasi o‘tkaziladi. Ushbu hamkorlikni kvalimet-riyalashda o‘rta arifmetik o‘lchov asosida mahalla va maktab hamkorligini o‘lchandi va K.Pirsonning *x* 2 (xi kvadrat) mezoni asosida isbotlanadi.(mahalla va maktab ma’muriyati javoblarining solishtirma para-metrlar asosida o‘lchov natijalari qiyosiy baholanadi)	Ota-onalarning hamkorlik kvalimetriyasi uchun ishlab chiqilgan sotsiologik so‘rovnoma Laykert shkalasi asosida (muayyan savolga nisbatan kelishuv yoki kelishmaslik darajasini o‘lchaydi, butunlay qo‘shiladi; qo‘shilmasdan ko‘ra ko‘shiladi; butunlay qo‘shilmaydi.) o‘lchanadi.
Eksperiment tahlil			
O‘quvchilar ma’naviy, axloqiy tarbiya kvalimetriyasi Sotsiometriya usulida aniqlandi		Oila va jamiyat faollarini anketa so‘rovnomasi natijalari kvalimetrik tahlil qilindi	
Baholashning ahamiyati:			
✓Tarbiyaviy ishlar holati bo‘yicha ma’lumot olinadi;			
✓ Pedagogik hamkorlik faoliyati o‘rganiladi;			
✓ Hamkorlik tomonlarining sust yoki kuchli ta’sirga ega jihatlari o‘rganiladi;			
✓ Mas’ul tomonlar o‘z kamchiliklarini anglaydi;			
✓ Ma’naviy tarbiyaga oid davlat dasturlarining ijro etish darajasi aniqlanadi;			
✓ Ma’naviy tarbiya mazmuni anglash va baholash metodikasini takomillashtirish;			
✓ Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ma’naviy tarbiya jarayoni haqida umumiy ma’lumotga ega bo‘linadi.			

O‘quvchilar maktabga borishda, oila va do‘stlari bilan munosabatda bo‘lishida mamnunlik hissini sezishi ularning hayotdan baxtiyorligini anglatadi. O‘quvchilarning o‘zlarini baxtiyor his qilishlarida aynan o‘qituvchi va oilaning birgalikdagi o‘zaro hamkorligi asosida yaratilgan

ma’naviy muhitning ta’siri yotadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim-tarbiya ko‘nikmalarini “O‘zaro hamkorlik dasturi” orqali kvalimetriyalash

№	Indikatorlar	Baholash mezoni	Rag‘bat ball		Jarima ball	
			5	4	3	0
1	Darsga sababsiz qatnashmaslik	“5” doim faol qatnashadi “4” uzrli qoldirilgan darslar soni mavjudligi “3” uzrli qoldirilgan darslarga qaraganda sababsiz qoldirilgan darslar sonining ko‘pligi “0” muntazam sababsiz qoldirilgan	8	7	6	0
2	Darsga kechikib kelishlar soni	“5” hech qachon kechikmaydi “4” ba’zida uzrli sababli kechikib kelgan “3” bir oyda 4 marotabadan ko‘proq sababsiz kechikib kelishi	6	4	9	2
3	Q‘quv jarayonining tartib-intizom qoidalarini buzganlik holatlari	“5” hech qachon buzmagan “4” o‘quv yili mabaynida 1 ta bo‘lsa ham o‘qituvchidan jarima olgan “3” o‘quv yili davomida 2 marotabadan ortiq intizom buzganlik haqida o‘qituvchidan jarima olgan “0” muntazam ravishda intizomni buzadi	8	9	3	1
4	Maktab binosi, o‘quv va boshqa jarayonlar (mahalla, oila, kuchada va b holatlarda) da o‘quvchining odobsizlik holatlari	“5” hech qachon; “4” o‘z aybi sababli bo‘lmagan holda nizoda ishtirok etgan; “3” nizoni keltirib chiqargan “0” doimiy ravishda nizolarning sababchisi hisoblanadi.	11	7	1	2
5	Maktab, sinfda tashkil qilingan ma’naviy tadbirlarida ota-onalarining ishtiroki	“5” faol; “4” faollikning o‘rta darajasi; “3” tomoshabin sifatida ishtirok etadi; “0” faol emas.	2	9	5	5
6	Darsga tayyorligi (o‘quv qurollarining mavjudligi, uyga vazifalarni bajarib kelishi)	“5” doim tayyor; “4” tayyorlikning o‘rta darajasi; “3” ko‘proq tayyor emas; “0” hech qachon tayyor emas.	5	10	4	2
7	Uyga vazifaning ota-onasi ko‘magida bajarganligi (5 doimo o‘z vaqtida tushunib bajarib kelishi va uni dars davomida aytib berishi, 3 bajarib keladi, lekin darslarda javob berishda qiynaladi, 0 umuman bajarmaydi)	“5” uyga vazifalarni bajaradi va dars davomida vazifani tahlil qiladi; “4” vazifani tayyorlaydi, ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yadi; “3” vazifani uyda bajarmaydi, ba’zan sinfda boshqa o‘quvchilardan ko‘chirib oladi; “0” hech qachon bajarmaydi.	6	7	4	4
8	Etiket qoidalariga rioya qilishi. (Maktab nizomida belgilangan umumiy tartib qoidalarga javob berishi, intizom, darsga qatnashish, ma’naviy tarbiya ko‘rganlik salom berish, hurmat ehtirom va h.k)	“5” namunali; “4” qoniqarli; “3” qoniqarsiz; “0” umuman etiket qoidalariga rioya qilmaydi.	8	10	1	2
9	O‘quvchining estetik tarbiyasi (o‘quv muassasa nizomi bo‘yicha belgilangan formani toza tutish, estetik ko‘rinishga ega bo‘lish va h.k)	“5” namunali; “4” qoniqarli; “3” qoniqarsiz; “0” umuman estetik tarbiyaning mavjud emasligi.	7	11	1	2
10	Tarbiya darsini o‘zlashtirishi, oilada va sinf xonasida o‘zini tutishi	“5” namunali; “4” qoniqarli; “3” qoniqarsiz; ushbu baholardan tashqari olingan natija ko‘rsatkichi “0” ga teng qilib belgilanadi	6	10	5	0
11	Oilaviy yoki jamoaviy ma’naviy xordiq. (muzey, teart, kutubxona, tabiat ko‘ynidagi ochiq muzeylar, sayilgoh maskanlardagi sayohatidan olgan natija	“5” namunali; “4” qoniqarli “3” qoniqarsiz “0” sababsiz	5	7	6	3
12	O‘quv yili davomida erishgan yutuqlari, ota-onasi yoki ustozlari tomonidan rag‘batlanishi	“5” namunali (Doimo ustozlari va ota-onasi tomonidan qo‘llab quvvatlangan); “4” qoniqarli (Ko‘p hollarda vaziyatga qarab rag‘batlantirib turilgan) “3” qoniqarsiz (Kamdan-kam ustozi yok iota-onasi tomonidan maqtalgan, yoki rag‘batlantirilgan) “0” Umuman hech kim tomonidan rag‘batlantirilmagan	0	3	2	16
Jami:			**72**	**94**	**47**	**39**

Ushbu metodik jadval o‘quvchilarning «O‘zaro hamkorlik dasturi» hisoblanib, unga asosan sinf rahbarlari o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari holatlarini qayd qilish orqali o‘lchab boriladi. Ushbu metodik jadvalni har hafta, oy va chorak davomida shakllantirib borib o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasidagi o‘zgarishlarni aniqlashga erishish mumkin.

Baholash mezoni quyidagicha:

-“namunali” - (5 baho) o‘quvchi ijtimoiy me’yorlarga to‘liq amal qiladi, bilimdonlik va tarbiyalanganlik darajasi yuqoriligi va namuna ko‘rsata olishi bilan muntazam faol;

-“yaxshi” - (4 baho) o‘quvchi ijtimoiy me’yorlarga amal qiladi, yaxshi sifatlar va hulq- atvori bilan atrof muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

-“qoniqarli” - (3 baho) o‘quvchi ijtimoiy me’yorlarni bajarishga harakat qiladi, lekin intizom kodeks talablariga amal qilishda hatolarga yo‘l qo‘yadi;

-“qoniqarsiz” - (3 dan past baho 0 ga teng) tarbiyasida jiddiy bo‘shliq bor. Bunday bolalar muammoli bo‘lib, hamkorlik asosida tarbiyalanishga kuchli zaruriyatni keltirib chiqaradi. Chunki, pedagogik og‘ishning yuqori darajasi hamda oldini olinmasa pedagogik qarovsizlikning kriminal darajasiga o‘tish xavfi mavjud.

Tajriba guruhining mezonlar buyicha o‘sish ko‘rsatkichlari

	Tajriba guruhi	*Tajribadan oldin*				*Tajribadan keyin*			
		5	**4**	**3**	**0**	**5**	**4**	**3**	**0**
1	Darsga sababsiz qatnashmaslik	**6**	**10**	**6**	**1**	**9**	**11**	**3**	**0**
		26%	**44 %**	**26%**	**3%**	**39%**	**48 %**	**13%**	**0**
2	Darsga kechikib kelishlar soni	**7**	**7**	**7**	**2**	**9**	**9**	**5**	**0**
		31%	**30 %**	**30%**	**9%**	**39%**	**39 %**	**22%**	**0**
3	Q‘quv jarayonining tartib-intizom qoidalarini buzganlik holatlari	**8**	**9**	**4**	**2**	**10**	**10**	**3**	**0**
		35%	**39 %**	**17%**	**9%**	**44%**	**43 %**	**13%**	**0**
4	Maktab binosi, o‘quv va boshqa jarayonlar (mahalla, oila, kuchada va b holatlarda) da o‘quvchining odobsizlik holatlari	**10**	**6**	**5**	**2**	**12**	**8**	**3**	**0**
		43%	**26 %**	**22%**	**9%**	**52%**	**35 %**	**13%**	**0**
5	Maktab, sinfda tashkil qilingan ma’naviy tadbirlarida ota-onalarining ishtiroki	**2**	**10**	**5**	**6**	**2**	**11**	**9**	**1**
		9%	**43 %**	**22%**	**26%**	**9%**	**48 %**	**39%**	**4%**
6	Darsga tayyorligi (o‘quv qurollarining mavjudligi, uyga vazifalarni bajarib kelishi)	**6**	**8**	**6**	**3**	**7**	**9**	**7**	**0**
		26%	**35 %**	**26%**	**13%**	**31%**	**39 %**	**30%**	**0**
7	Uyga vazifaning ota-onasi ko‘magida bajarganligi (5 doimo o‘z vaqtida tushunib bajarib kelishi va uni dars davomida aytib berishi, 3 bajarib keladi, lekin darslarda javob berishda qiynaladi, 0 umuman bajarmaydi)	**5**	**8**	**6**	**4**	**7**	**10**	**5**	**1**
		22%	**35 %**	**26%**	**17%**	**30%**	**44 %**	**22%**	**4**
8	Etiket qoidalariga rioya qilishi. (Maktab nizomida belgilangan umumiy tartib qoidalarga javob berishi,intizom,darsga qatnashish, ma’naviy tarbiya ko‘rganlik salom berish, hurmat ehtirom va h.k)	**8**	**9**	**3**	**3**	**10**	**11**	**2**	**0**
		35%	**39 %**	**13%**	**9%**	**43%**	**48 %**	**9%**	**0**
9	O‘quv yili davomida erishgan yutuqlari, ota-onasi yoki ustozlari tomonidan rag‘batlanishi	**8**	**12**	**2**	**1**	**10**	**11**	**2**	**0**
		35%	**52 %**	**9%**	**4%**	**43%**	**48 %**	**9%**	**0**
10	O‘quvchining estetik tarbiyasi (o‘quv muassasa nizomi bo‘yicha belgilangan formani toza tutish, estetik ko‘rinishga ega bo‘lish va h.k)	**5**	**11**	**7**	**0**	**7**	**12**	**4**	**0**
		22%	**48 %**	**30%**	**0%**	**31%**	**52 %**	**17%**	**0**
11	Tarbiya darsini o‘zlashtirishi, oilada va sinf xonasida o‘zini tutishi	**4**	**7**	**7**	**5**	**7**	**10**	**5**	**1**
		17%	**31 %**	**30%**	**22%**	**30%**	**44 %**	**22%**	**4**
12	Oilaviy yoki jamoaviy ma’naviy xordiq. (muzey, teart, kutubxona, tabiat ko‘ynidagi ochiq muzeylar, sayilgoh maskanlardagi sayohatidan olgan natija	**0**	**2**	**3**	**18**	**1**	**4**	**4**	**14**
		0%	**9 %**	**13%**	**78%**	**4%**	**18 %**	**17%**	**61**
	jami	**69**	**99**	**61**	**47**	**91**	**116**	**52**	**17**

Pedagogik eksperiment natijalari		Nazorat guruhi %				Tajriba guruhi %			
		5	4	3	0	5	4	3	0
1	**Tajribadan oldin**	29%	37%	19%	15%	25%	36%	22%	17%
2	**Tajribadan keyin**	29%	39%	21%	11%	33%	42%	19%	6%
	O‘sish ko‘rsatkichlari	**0%**	**+2%**	**+2%**	**-4%**	**+8%**	**+6%**	**-3%**	**-11%**

Yuqoridagi natijalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tajriba-sinovdan oldingi natija

ko‘rsatkichlari o‘rtasida ahamiyatli farqlarni statistik asoslash mumkin.

Quyidagi amaliy ishlanmalarning amaliyotga tatbiq etilishidan keyingi natija ancha o‘zgarganligini ko‘rish mumkin:

Birinchidan, maktabda tashkillashtirilgan ota-onalar majlisiga mahalla faollari ham jalb qilindi. Majlis mazmuni faqat bayonnoma uchun emas, balki suhbat asosida tashkil qilindi. Ota-onalar bilan o‘z farzandlarining o‘zlashtirishidan tashqari, farzand tarbiyasidagi ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy muammolar ham eshitildi, o‘rganildi.

Ikkinchidan, “O‘zaro hamkorlik dasturi” asosida maktab jamoasi hamda ota-onalar ishtirokida “Boshlang‘ich ta’limda milliy tarbiya” mavzusidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkillashtirildi. Ushbu tadbir ota-onalar va maktab ma’muriyati tomonidan ijobiy baholandi.

Uchinchidan, o‘quvchilar tomonidan “Oila va ta’lim muasasasi hamkorligi” mavzusida trening suhbatlar uyushtirildi. Ijtimoiy rolik namoyish qilindi. Mazkur tadbir taassurotlari “Tarbiya” o‘quv darsida o‘quvchilar bilan muhokama qilindi.

To‘rtinchidan, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni oshirish maqsadida sinfda va uyda “Badiiy ijod burchagi” tashkil qilindi. Oilalarda farzandlarning o‘qish jarayoniga e’tiborli yondashishi va o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida, ulardagi muammolarni axloqiy tarbiya asosida ijobiy hal qilishi kabi masalalar sinf ota-onalar majlisida muhokama qilindi.

Beshinchidan, “O‘zaro hamkorlik dasturi” asosida sinf o‘quvchilari tarbiyasidagi o‘zgarishlarni nominal miqdoriy baholab, o‘quvchilarni kundalik daftarlari orqali ota-onalarga farzandining maktabdagi tarbiyaviy ko‘rsatkichi to‘g‘risida ma’lumotlar berib, ogohlantirib borildi.

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, umumta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya ishlariga kvalimetrik yondashuv mezonlari hamkor sub’ektlarning o‘zaro faolligi, bir-birini tushuna olishlari hamda faoliyatning maqsadga muvofiqlik mezonlariga mos kelishini baholash uchun xizmat qilishi lozim, faqatgina o‘quvchilarning tarbiyalanganlik va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta’lim-tarbiya muhitini tashxis etishning faol ko‘makchisiga aylanishi zarur.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma’naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich ta’limda ta’lim va tarbiyani tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan ota-onalar va o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Inaqov Q. Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim tarbiya sifatini
takomillashtirishning asoslari: Ped. f. n... diss. – Namangan, 2019. – 142-bet.

Раджабов М. Г. Квалиметрия педагогических исследований таджикских учёных в период государственной независимости: Дисс. ... док. пед. наук. — Душанбе. - 2015. 418-с

Dilova N. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped.f.n ...diss. ishi. Toshkent: 2018, 164-bet.

Shokirova M. Sh. “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar yutuqlarini oshirish uchun o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikka asoslangan samarali muloqot strategiyalari” Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar ilmiy metodik jurnali № 3 (3) 2026 Pedagogika-Psixologiya 520-bet.

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH DIDAKTIK TA’MINOT SIFATIDA

Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,
Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi, t.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholash jarayonini samarali tashkil etishda didaktik ta’minotning o‘rni yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash mezonlari, baholash vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda raqamli platformalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, baholashning shaffofligi, obyektivligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiluvchi didaktik vositalar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy kompetensiya, didaktik ta’minot, pedagogik texnologiya, kredit-modul tizimi, raqamli texnologiya, ilmiy fikr, fan, modul, baholash mezoni, indikator, darslik, o‘quv qo‘llanma.

ОЦЕНКА КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ

Шойкулов Бахтиёр Бакирович,
независимый научный сотрудник Института развития профессионального образования, к.т.н., доцент

Аннотация. В данной статье освещается роль дидактической поддержки в эффективной организации процесса оценки профессиональных компетенций учащихся организаций профессионального образования. На основе компетентностного подхода анализируются вопросы критериев оценки, инструментов оценки, современных педагогических технологий и использования цифровых платформ. Также разработаны рекомендации по дидактическим инструментам, которые служат для обеспечения прозрачности, объективности и надежности оценки.

Ключевые слова: Профессиональная компетенция, дидактическая поддержка, педагогические технологии, кредитно-модульная система, цифровые технологии, научное мышление, наука, модуль, критерий оценки, индикатор, учебник, учебное пособие.

ASSESSING STUDENT COMPETENCIES IN VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A DIDACTIC SUPPORT

Bakhtiyor Bakirovich Shoykulov
Independent Research Fellow, Institute for Professional Education Development, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor

Abstract. This article highlights the role of didactic support in effectively organizing the professional competency assessment process for students in vocational education institutions. Using a competency-based approach, we analyze assessment criteria, assessment tools, modern pedagogical technologies, and the use of digital platforms. Recommendations for didactic tools that ensure the transparency, objectivity, and reliability of assessments are also developed.

Keywords: Professional competency, didactic support, pedagogical technologies, credit-module system, digital technologies, scientific thinking, science, module, assessment criterion, indicator, textbook, teaching aid.

Kirish. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning didaktik ta’minoti zamonaviy ta’lim jarayoni samaradorligini belgilovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Chunki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularni xolis baholash faqatgina o‘quv reja yoki nazorat ishlari bilan emas, balki puxta ishlab chiqilgan metodik vositalar, didaktik materiallar, baholash texnologiyalari va ta’lim muhiti orqali ta’minlanadi. Shu jihatdan mazkur masala ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarni baholashning zamonaviy kredit-modul tizimi asosida ularning kasbiy kompetensiyasiga qo‘yilayotgan talablarning asosida didaktik ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin tutadi.

Didaktik ta’minot kasbiy ta’lim o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida baholashni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish imkonini beruvchi metodik, axborot va tashkiliy vositalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Mazkur ta’minot baholashning obyektivligi va shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash o‘quvchining kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligini aniqlash jarayonidir. Kompetensiyaviy baholash quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

nazariy bilimlarni aniqlash;
amaliy ko‘nikmalarni baholash;
kasbiy faoliyatni rejalashtirish qobiliyati;
kommunikativ kompetensiyalar;
axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari;
mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish.

An’anaviy baholash tizimi asosan bilimlarni nazorat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, kompetensiyaviy baholash o‘quvchining real ishlab chiqarish sharoitlarida kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Didaktika nazariyasining shakllanishi XVII–XIX asrlarda yashab ijod etgan bir qator buyuk pedagog olimlar asos solgan tamoyillar muhim ahamiyatga ega. An’anaviy didaktik nazariya asosan Y. A. Komenskiy va J. F. Gerbart kabi olimlarning ilmiy ishlari asosida shakllangan bo‘lib, unda o‘qituvchi – “ta’lim berishning markaziy shaxsi, o‘quvchilar esa tayyor bilimlarni qabul qiluvchi passiv tinglovchi sifatida tasvirlanadi. Bunday yondashuv tayyor bilimlarni o‘quvchilarga uzatish tamoyiliga asoslanib, o‘qituvchi faol subyekt, o‘quvchi esa faoliyatni aks ettiruvchi obyekt rolida edi. Komenskiy va Gerbartning didaktik qarashlari an’anaviy ta’lim paradigmasiga poydevor qo‘ygan holda, keyingi pedagogik izlanishlar uchun zamin yaratdi” [1].

Yan Amos Komenskiyning “Didactica Magna” (“Buyuk didaktika”) asari didaktika fanining ilk fundamental asarlaridan bo‘lib, “hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati” tamoyilini ilgari surgan. Komenskiy ta’lim jarayonini tabiatga muvofiq tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi: o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich va izchil ta’lim berish lozim.

Iogann Gerbart nemis pedagogi va faylasufi – didaktikani nazariy jihatdan boyitib, uni ilmiy yo‘sinda izchil tushuntirib berdi. Gerbartning fikricha, ta’lim jarayoni tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lishi zarur, ya’ni har qanday o‘qitish axloqiy tarbiya bilan uyg‘un olib borilishi lozim.

Konstantin Ushinskiy [2] pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo‘shgan. Ushinskiy ta’limni ona tilida berish, xalq og‘zaki ijodi materiallaridan foydalanish tarafdori edi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarni qabul qilishiga yengillik yaratadi. U Komenskiy boshlab bergan “tabiatga muvofiq tarbiya” g‘oyalarini davom ettirdi va pedagogika rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Johann Genrix Pestalozzi [3] ham didaktikaga katta hissa qo‘shgan. Pestalozzi o‘quvchilarni

“aqli, qalbi va qo‘li”ni (ya’ni, aqlan, axloqan va jismonan) uyg‘un rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqgan.

Nemis pedagogi Wolfgang Klafki [4] “tanqidiy-konstruktiv didaktika” nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. Klafki didaktikada “kategorial ta’lim” konsepsiyasini ishlab chiqdi: ya’ni, ta’lim mazmuni o‘quvchi uchun ikki tomonlama “ochilish” (kategoriyalashuv) ahamiyatiga ega bo‘lishi lozimligi ta’kidlangan.

Lev Vygotskiy aniq didaktik nazariya yaratmagan bo‘lsa-da, ammo uning pedagogik psixologiyaga oid g‘oyalari zamonaviy didaktikaning rivojiga kuchli ta’sir o‘tkaza olgan. Vygotskiyning mashhur “Yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi ma’lum bir topshiriqni katta inson yordami bilan bajara olsa, demak tez orada uni mustaqil ham bajara oladi. Aynan mana shu tamoyilni L. V. Zankov o‘z didaktik tizimida asos qilib oldi [5].

Leonid Zankov [6] pedagog, Vygotskiy izdoshi va “rivojlantiruvchi ta’lim” (razvivaushchee obuchenie) tizimini ishlab chiqqan olim. Zankovning didaktikasi an’anaviy qarashlardan farqli ravishda o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘radi va o‘quvchining potensialini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarga asoslanadi: yuqori darajada o‘qitish tamoyili, nazariy bilimlarning yetakchi roli tamoyili, o‘quv dasturining tezkor o‘zlashtirilishi tamoyili, o‘quvchilarning o‘z o‘quv jarayoni haqida xabardorligi tamoyili, har bir o‘quvchini tizimli va maqsadli rivojlantirish tamoyili ishlab chiqilgan.

Zankov tizimi bo‘yicha olib borilgan ko‘plab eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, mazkur tamoyillarga amal qilish o‘quvchilarning umumiy rivojlanish sur’atini oshiradi, darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Bunda o‘qituvchiga yuqori pedagogik mahorat talab etilsa-da, natijada o‘quvchilar fikrlashi, ijodkorligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari sezilarli rivoj topadi.

Pyotr Galperin [7] psixolog bo‘lib, didaktikaga bevosita oid bo‘lmasa ham, uning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi ta’lim metodikasida inqilobiy ahamiyat kasb etdi. Galperinning nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarda yangi tushuncha yoki harakat ko‘nikmasini hosil qilish uchun uni bir necha bosqichlarda o‘rgatish lozim: avval motivatsiya va yo‘nalish beriladi, so‘ng moddiy (ko‘rgazmali) harakat bajariladi, keyin u nutqiy (tashqi nutq yordamida) bajariladi, so‘ngra ichki nutq darajasiga (pichirlashga) o‘tiladi va oxirida harakat to‘liq ichki aqliy amalga aylanadi. Bu usul hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarida “bosqichma-bosqich o‘qitish” nomi bilan mashhur.

Hozirgi paytda uslubiy-didaktik ta’minot kasbiy ta’lim uchun ham o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan umumiy talablar asosida yaratilib kelinmoqda.

U. Musayevning fikricha, uslubiy-didaktik ta’minotni ishlab chiqishda Davlat ta’lim standarti talablariga va o‘quv dasturining hajmiga mos keladigan o‘quv yuklamasi modeliga, taqdim etilayotgan o‘quv materiallarining ta’limiy-tarbiyaviy qiymatini ta’minlash parametrlariga e’tibor qaratish va o‘quvchilarni yangi bilim va axborotlar bilan qurollantirishning didaktik va texnologik asoslariga tayangan holda yondashish maqsadga muvofiqdir [8].

A. Abdusamatov va boshqalar “Organik kimyodan mashq, masala va testlar (2003-yil)” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqishgan va akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta’lim jarayonida foydalanib kelinmoqda. Mazkur o‘quv qo‘llanmada organik kimyo bo‘yicha namunaviy masalalar yechish metodikasi, mashqlar va testlar yetarlicha keltirib o‘tilgan [9].

M. M. Abdulxayeva, O‘.M. Mardonovlar hammuallifligida ishlab chiqilgan “Kimyo” darsligi (2002-yil) akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu darslikda kimyoga doir jadvallar, tasviriy materiallar, mustaqil ishlar, savol-javoblarga keng o‘rin ajratilgan [10].

D. J. Tursunova, F. J. Tursunovalar hammuallifligida nashr qilingan “Kimyodan

dasturlashtirilgan masala va mashqlar to‘plami” nomli o‘quv qo‘llanmada (2004-yil) ko‘proq intellektual o‘yinlarga ahamiyat berilgan bo‘lib, kasb-hunar ta’limi o‘quvchilarining organik kimyodan bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlashtirilgan metodika qo‘llanilgan [11].

S. Masharipov, I. Tirkashev tomonidan nashrga tayyorlangan “Kimyo” darsligida (2006-yil) kasb-hunar ta’limida o‘qitiladigan tabiiy fanlar integratsiyasi ta’minlangan [12].

Muhokama. Yuqorida keltirib o‘tilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha tizimli ishlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Bir qator olimlar sifatli uslubiy-didaktik ta’minot yaratish uchun quyidagi mezonlarga asoslanishi lozimligini e’tirof etadilar [13]:

1. Matnda ifoda etilgan fikrlar tushunarli bo‘lishi, mantiqan bog‘langan, hamda mazmunni ochib berishga turli tasvir va chizmalardan samarali foydalanish imkoniyatining mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Uslubiy-didaktik ta’minot matni ta’lim oluvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlari hisobga olinib, ilmiy jihatdan asoslangan fikrlarni o‘z ichiga olishi kerak.

3. Uslubiy-didaktik ta’minot tarkibiy tuzilmasi, ya’ni band va boblar izchil berilishi lozim.

4. Uslubiy-didaktik ta’minot ta’lim oluvchilarning mavjud ehtiyojlarini qondirishi va o‘ziga xos bo‘lishi zarur.

5. Uslubiy-didaktik ta’minot davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari talablariga muvofiq yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

6. Uslubiy-didaktik ta’minot matnining grammatik, orfografik va fonetik talablariga mos yozilishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Mualliflar tomonidan sifatli elektron-didaktik ta’minot yaratishda quyidagi asosiy talablarga amal qilish lozimligi keltiriladi [10]:

ilmiy fikr rivojlanishining asosiy yo‘nalishi va natijalariga, uning zamonaviy holatiga mos kelishi;

fanga oid majburiy bilimlar yig‘indisini belgilab beruvchi ta’lim standartlari talablariga mos kelishi;

ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni mustahkamlash, mustaqil ishlashni rag‘batlantirishi;

mavzularning aniq belgilanishi, zarur ma’lumot apparati va adabiyotlar;

uslubiy-didaktik ta’minot hech qanday qiyinchiliksiz o‘qituvchining ilmiy va pedagogik kosepsiyasiga kiritilishi hamda o‘quv jarayoni grafigi va ishchi rejasi bilan mos keluvchi vosita bo‘lishi lozim;

uslubiy-didaktik ta’minot mavjud o‘quv jarayonini tashkil etish tizimi va istiqbolni qoniqtirishi lozim.

“Uslubiy-didaktik ta’minot yaratish konsepsiyasi”ga [14] muvofiq, barcha o‘quv adabiyotlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlanishi: ta’lim standartlari va davlat talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Hamkorlik pedagogikasi va interfaol uslublarni tatbiq qilish: Ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlik va interfaol uslublarni qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Nazariy va amaliy rivojlanish: tegishli o‘quv fanining nazariy va amaliy rivojlanishida intellektual merosning ahamiyatini ko‘rsatishi kerak.

Intellektual insonparvarlik g‘oyalari: insonning tabiat va ijtimoiy hayotdagi mas’uliyatliligini aks ettirishi zarur.

Vatanparvarlik va milliy g‘urur: mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishi, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishi kerak.

Ma’naviy-axloqiy sifatlar: ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlashi, ma’naviy-axloqiy

sifatlarni shakllantirishi kerak.

Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish: qiziqish uyg‘otadigan, mustaqil fikrlashga yo‘naltiradigan xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: mustaqil ta’lim olishga qiziqishni oshirishi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishi zarur.

Yuqori darajada umumlashtirilgan ilmiy bilimlar: zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan va yuqori darajada umumlashtirilgan ma’lumotlar taqdim etilishi kerak.

Illyustratsiyalarga boy bo‘lishi: ko‘rgazmali tasvirlar va badiiy-uslubiy jihatlarni o‘z ichiga olishi, amaliy faoliyatga yo‘naltirilishi zarur.

O‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlari: yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalash: bilimlarni mutlaqlik va nisbiylik darajasida aniq ifodalashi kerak.

Bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish: bilimlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Ta’lim va tarbiyani ijtimoiy hayot bilan bog‘lash: ta’lim va tarbiyani ijtimoiy hayot va unumli mehnat bilan bog‘lanishiga e’tibor berilishi lozim.

Fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalash: fan va texnika yutuqlarini, ilmiy masalalarning mantiqiy ketma-ketligini ifodalashi kerak.

Yaxlitlikni idrok qilish hissi: ma’lumotlarni mantiqiy tizimda taqdim etishi, matnni jozibali shaklda bayon etishi zarur.

Aniq va ravshan yozilish: asosiy tushuncha va xulosalarni aniq, ravshan yozilishi, atamalarning umumiyligiga erishilishi kerak.

Kasbiy ta’limdagi uslubiy-didaktik ta’minotga quyidagi talablar qo‘yiladi:

Fanning o‘quv dasturidagi mavzular to‘la yoritilishi: o‘quv dasturidagi barcha mavzular to‘liq va chuqur yoritilishi kerak.

Fanlararo bog‘liqlikning ta’minlanishi: fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va bilimlarni bayon etishda muammoli yondashish usulini qo‘llash zarur.

Oddiy va tushunarli tilda bayon etilishi: mavzularni oddiy va sodda tilda, tushunarli va ravon bayon etilishi, talabalarda bilim olishga intilish hissi va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishi kerak.

O‘quv adabiyotining dizayni tegishli o‘quv fani mazmuniga mos bo‘lishi lozim.

Uzviylikning ta’minlanishi: o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi turidagi bilimlar orasidagi uzviylikni ta’minlash zarur.

O‘quv adabiyotining hajmi: o‘quv adabiyotining hajmi muayyan fanning o‘quv dasturi va talabalarning o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Muqobil variantlarda yaratilishi: o‘quv adabiyoti muqobil variantlarda yaratilishi va chop etilishi lozim. Yuqoridagi barcha talablar qondirilib yaratilgan uslubiy-didaktik ta’minot o‘quv materiali bosma shaklda va elektron tashuvchida taqdim etilishi talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Natija. Ushbu talablar inobatga olinib uslubiy-didaktik ta’minot ishlab chiqilganda fan dasturi mazmuniga muvofiqlashtirish asosida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniga ega bo‘lamiz. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kasbiy ta’limning 40720306 – “Neft va gazni qayta ishlash” hamda 50710101 – “Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha)” kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun “Neft va gazni qayta ishlash

texnologiyasi” va “Kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlari” nomli o‘quv qo‘llanmalar va ularning mobil ilovalarini ishlab chiqdik va ta’lim jarayoniga joriy qildik.

Kimyo va neft-gaz sanoati zamonaviy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, u milliy energiya xavfsizligini ta’minlashda, sanoat tarmoqlarini yoqilg‘i va xomashyo bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, neft va gaz kondensatini chuqur va samarali qayta ishlash texnologiyalari jahon miqyosida yuqori darajadagi innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Mazkur o‘quv qo‘llanmalar “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” hamda “Kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlari” fanlarining asosiy mazmuni, nazariy asoslari, amaliy hisoblash usullari hamda zamonaviy texnologik jarayonlarini qamrab oladi.

Fan (modul)lar bo‘yicha bilimlar o‘quvchilarga neft va gaz xomashyolarini dastlabki tayyorlash, ularni fizik-kimyoviy xususiyatlariga qarab fraksiyalarga ajratish, yoqilg‘i, moylar va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichlaridagi texnologik usullarni hamda kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlarini tushunishga imkon beradi. Bunda atmosfera va vakuum sharoitida haydash, termik va katalitik kreking, gidrogenlash, adsorbsiya, rektifikatsiya, suvsizlantirish va tuzsizlantirish kabi muhim jarayonlar chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, tabiiy gazni qayta ishlash, tozalash, suyultirish va undan turli foydali mahsulotlar sintetik yoqilg‘i, vodorod, oltingugurt olish texnologiyalari ham alohida yoritiladi.

“Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” hamda “Kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlari” fanlarini o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan qo‘llanmalar, amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi, mustaqil ta’limda foydalanilishi muhim nazariy va uslubiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qo‘llanmalardagi mavzular bosqichma-bosqich va tizimli ravishda yoritilgan bo‘lib, har bir bo‘lim zamonaviy texnologik yondashuvlar, sanoatdagi amaliyot va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, fan doirasida muhim hisob-kitoblar, qurilmalar bilan ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar, mahsulotlar sifati va ekologik xavfsizlik masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Mazkur qo‘llanmalar o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki zamonaviy kimyo va neft-gaz sanoatining texnologik muammolarini tahlil qilish, ularni hal etish yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ko‘mak beradi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning uslubiy-didaktik ta’minoti ta’lim sifati va baholash samaradorligini belgilaydigan strategik omildir. U puxta ishlab chiqilgan metodik hujjatlar, aniq mezonlar, amaliy vazifalar, raqamli texnologiyalar va pedagog kadrlar salohiyatiga tayangandagina yuqori natija beradi.

Xulosa. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholashning didaktik ta’minotini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Baholash mezonlari, indikatorlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini kompleks baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Комений Ян Амос. Великая дидактика. – Москва : Педагогика, 1982. – 656 с.

Ушинский К. Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. Москва: Педагогика, 2002.

Pestalozzi J. H. Leonard and Gertrude. Oxford: Oxford University Press, 2010.

Klafki W. Neue Studien zur Bildungstheorie und Didaktik: Zeitgemäße Allgemeinbildung und kritisch-konstruktive Didaktik. Weinheim: Beltz Verlag, 2007.

Verbitskiy A.A. Контекстное обучение: теория и практика. – Москва : Высшая школа, 1991. – 207 с.

Занков Л. В. Дидактика и жизнь. Москва: Просвещение, 2001.

Гальперин П. Я. Введение в психологию. Москва: Московский университет, 2004.

Musayeva N. N. Modulli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish : ped. fan. nomz. … dis. – Toshkent, 2012. – 167 b.

Abdusamatov A., va boshqalar. Organik kimyodan mashq, masala va testlar : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : O‘qituvchi, 2003. – 192 b.

Abdulxayeva M. M., Mardonov O‘. M. Kimyo : akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent : O‘qituvchi, 2002. – 256 b.

Raximov G‘.R. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash metodikasi : ped. fan. nomz. … dis. – Toshkent, 2021. – 170 b.

Masharipov S., Tirkashev I. Kimyo : kasbiy ta’lim tashkilotlari uchun darslik. – Toshkent : O‘qituvchi, 2006. – 240 b.; Abdunazarova N. F. Kattalar ta’limida o‘quv jarayonini loyihalash : ped. fan. nomz. … dis. – Toshkent, 2013. – 166 b.

Muslimov N. A. Kredit-modul tizimida kasbiy kompetensiyalarni baholash va diagnostika qilish : ped. fan. dokt. … dis. – Toshkent, 2021. – 301 b.

Anorqulova G. M. Ishlab chiqarish ta’limi jarayonida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish : ped. fan. nomz. … dis. – Toshkent, 2011. – 169 b.

KRIPTOGRAFIYA FANINI O‘QITISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Choriyev Behruz Shuxrat o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kriptografiya fanini o‘qitishning nazariy-metodik asoslari, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq didaktik tamoyillar, psevdotasodifiy sonlar generatorlari hamda oqimli shifrlar mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni tahlil qilinadi. Kriptografiya fani matematik nazariya, algoritmik fikrlash, dasturiy tajriba va xavfsizlik madaniyatini birlashtiruvchi murakkab fan sifatida qaraladi. Maqolada mavzuni raqamli ta’lim texnologiyalari, virtual laboratoriya, simulyatsiya, interaktiv kodlash muhiti va avtomatlashtirilgan baholash vositalari yordamida o‘qitish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, talabalar tomonidan tasodifiylik, kalit oqimi, shifrlash jarayoni, sinxronlashuv, statistik testlar va kriptografik barqarorlik tushunchalarini o‘zlashtirishda uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kriptografiya, axborot xavfsizligi, psevdotasodifiy sonlar generatori, oqimli shifr, raqamli ta’lim, algoritmik tafakkur, virtual laboratoriya, didaktik tamoyil.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КРИПТОГРАФИИ

Чориев Бехруз Шухрат угли
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методические основы преподавания криптографии, дидактические принципы изучения информационной безопасности, а также место тем псевдослучайных генераторов и потоковых шифров в учебной программе. Криптография представлена как интегративная дисциплина, объединяющая математическую теорию, алгоритмическое мышление, программную практику и культуру безопасной работы с информацией. Особое внимание уделяется возможностям цифровых образовательных технологий, виртуальных лабораторий, интерактивных симуляций и автоматизированной оценки. В работе также определены методические трудности усвоения понятий случайности, ключевого потока, синхронизации и криптографической стойкости, предложены пути их преодоления.

Ключевые слова: криптография, информационная безопасность, псевдослучайный генератор, потоковый шифр, цифровое обучение, алгоритмическое мышление, виртуальная лаборатория, дидактический принцип.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING CRYPTOGRAPHY

Choriyev Behruz Shuxrat ogli
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching cryptography, the didactic principles of information security education, and the role of pseudorandom number generators and stream ciphers in the curriculum. Cryptography is considered as an integrative discipline that combines mathematical theory, algorithmic reasoning, programming practice and information security culture. The paper discusses the possibilities of teaching cryptographic algorithms through digital educational technologies, virtual laboratories,

simulations, interactive coding environments and automated assessment tools. It also identifies common learning difficulties related to randomness, keystream generation, synchronization, statistical testing and cryptographic strength, and proposes methodological ways to overcome them.

Keywords: cryptography, information security, pseudorandom number generator, stream cipher, digital education, algorithmic thinking, virtual laboratory, didactic principle.

Kirish (Introduction). Raqamli jamiyat sharoitida axborot resurslari, elektron hujjatlar, bulutli xizmatlar, mobil ilovalar, masofaviy ta’lim platformalari va elektron to‘lov tizimlari kundalik faoliyatning ajralmas qismiga aylandi. Bunday muhitda ma’lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi, autentikligi va rad etib bo‘lmasligini ta’minlash axborot xavfsizligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kriptografiya aynan shu vazifalarni ilmiy asosda hal qiluvchi fan bo‘lib, u nafaqat texnik algoritmlar majmuasi, balki xavfsiz fikrlash, matematik isbot, dasturiy amalga oshirish va mas’uliyatli foydalanish madaniyatini ham shakllantiradi.

Oliy ta’limda kriptografiya fanini o‘qitishning dolzarbligi kiberxavfsizlik, dasturiy injiniring, kompyuter injiniringi va axborot texnologiyalari yo‘nalishlari uchun kasbiy kompetensiyalar bilan bevosita bog‘liq. Talaba simmetrik va assimetrik shifrlash, xesh funksiyalar, elektron raqamli imzo, kalitlarni boshqarish, protokollar xavfsizligi, psevdotasodifiy sonlar generatorlari va oqimli shifrlar kabi tushunchalarni nazariy bilishi bilan birga, ularni dasturiy muhitda modellashtira olishi ham zarur. Chunki amaliy tizimlarda kriptografik xato ko‘pincha algoritm nomini bilmaslikdan emas, balki kalit, nonce, initsializatsiya vektori, tasodifiylik manbasi yoki protokol kontekstini noto‘g‘ri qo‘llashdan kelib chiqadi.

Kriptografiya fanining metodik murakkabligi uning abstrakt matematik apparati, algoritmik bosqichlari va xavfsizlik talablari bir vaqtning o‘zida o‘zlashtirilishini talab qilishi bilan izohlanadi. Masalan, talaba oqimli shifrni tushunishi uchun modulli arifmetika, bitlar ustida amallar, XOR operatsiyasi, kalit oqimi, sinxronlashuv, tasodifiylik va statistik farqlanmaslik kabi tushunchalarni bog‘lay olishi kerak. Shu bois mazkur mavzuni o‘qitishda faqat ma’ruza matni yoki tayyor formulalarni berish yetarli emas; vizual model, algoritmik jadval, bosqichma-bosqich kodlash, testlash va muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi kriptografiya fanini o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini yoritish, psevdotasodifiy sonlar generatorlari va oqimli shifrlar mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rnini aniqlash, raqamli ta’lim texnologiyalari yordamida kriptografik algoritmlarni o‘qitish imkoniyatlarini ko‘rsatish hamda mavjud pedagogik muammolarga metodik yechimlar taklif qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Maqolani tayyorlashda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, didaktik modellashtirish, mavzu mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimlashtirish hamda kriptografik algoritmlarni o‘qitish jarayonini raqamli ta’lim texnologiyalari bilan bog‘lash usullaridan foydalanildi. Avvalo, axborot xavfsizligi va kriptografiya fanining o‘quv maqsadlari aniqlanib, ular matematik, algoritmik, dasturiy-amaliy va xavfsizlik madaniyati komponentlariga ajratildi. Keyin psevdotasodifiy sonlar generatorlari va oqimli shifrlar mavzusi kriptografiya kursidagi oldingi va keyingi mavzular bilan bog‘liq holda tahlil qilindi.

Metodik tahlilda kriptografiya fanini o‘qitish uchun ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ko‘rgazmalilik, amaliy yo‘naltirilganlik, muammoli o‘qitish, xavfsiz tajriba muhiti va reflektiv baholash tamoyillari asos qilib olindi. Raqamli ta’lim vositalari sifatida LMS platformalari, Python yoki JavaScript asosidagi interaktiv kodlash muhiti, Jupyter Notebook, virtual laboratoriya, simulyator,

avtomatik testlar, elektron portfoliolar va kriptografik jarayonlarni vizuallashtirish vositalarining imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotning metodik modeli quyidagi mantiqqa tayanadi: birinchidan, talabaning nazariy tayyorgarligi diagnostika qilinadi; ikkinchidan, mavzu algoritmik sxema va vizual model orqali tushuntiriladi; uchinchidan, talaba kichik amaliy topshiriqlar orqali generator yoki oqimli shifrning ishlash mexanizmini modellashtiradi; to‘rtinchidan, natija statistik ko‘rsatkichlar, test holatlari va reflektiv izohlar asosida baholanadi; beshinchidan, xatolar tahlili orqali keyingi o‘quv faoliyati moslashtiriladi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions).

Axborot xavfsizligi fanlarida kriptografiya markaziy o‘rin tutadi, chunki u ma’lumotni himoyalashning matematik va algoritmik asoslarini beradi. Maxfiylik shifrlash orqali, yaxlitlik xesh funksiyalar va autentifikatsiya kodlari orqali, autentiklik elektron imzo va sertifikatlar orqali, rad etib bo‘lmaslik esa kriptografik protokollar orqali ta’minlanadi. Shu sababli kriptografiya fanini o‘qitishda talaba nafaqat algoritm ketma-ketligini yod olishi, balki qaysi xavfsizlik xususiyati qaysi kriptografik mexanizm orqali ta’minlanishini tushunishi kerak.

Didaktik jihatdan kriptografiya fanini o‘qitishda ilmiylik tamoyili birinchi o‘rinda turadi. Kriptografik algoritmlar tasodifiy tanlangan amallar yig‘indisi emas, balki matematik isbot, murakkablik nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va amaliy xavfsizlik talablariga asoslangan tizimlardir. Shuning uchun o‘qituvchi AES, RSA, ElGamal, elliptik egri chiziqlar, xesh funksiyalar yoki oqimli shifrlarni tushuntirganda ularning umumiy g‘oyasi bilan birga qo‘llanish chegaralari, zaif tomonlari va noto‘g‘ri ishlatilganda yuzaga keladigan xavflarni ham ko‘rsatishi lozim.

Tizimlilik va izchillik tamoyili kriptografiya kursida mavzularning mantiqiy ketma-ketligini to‘g‘ri qurishni talab qiladi. Avval axborot xavfsizligi tushunchalari, xavf modeli, kriptografik maqsadlar va matematik asoslar beriladi. Shundan keyin klassik shifrlar, simmetrik algoritmlar, oqimli shifrlar, psevdotasodifiy sonlar generatorlari, xesh funksiyalar, ochiq kalitli kriptografiya va protokollar ketma-ket o‘rganiladi. Bunday tartib talabaning oldingi bilimlar asosida keyingi murakkab tushunchani tushunishiga yordam beradi.

Amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili kriptografiyani o‘qitishda alohida ahamiyatga ega. Talaba XOR amali, modulli qo‘shish, bitlarni siljitish, kalit uzunligi, nonce va initsializatsiya vektori kabi tushunchalarni faqat nazariy ta’rif orqali emas, balki amaliy kod, jadval, vizual oqim va test natijalari orqali anglaganda bilim mustahkamlanadi. Shu sababli har bir nazariy mavzu kichik laboratoriya ishi, tahliliy savol yoki muammoli vaziyat bilan yakunlanishi maqsadga muvofiq.

Ko‘rgazmalilik tamoyili murakkab kriptografik jarayonlarni soddalashtirilgan model orqali tushuntirishga xizmat qiladi. Masalan, oqimli shifrda ochiq matn bitlari kalit oqimi bilan XOR qilinishi natijasida shifrmatn hosil bo‘lishi oddiy jadval, rangli bloklar yoki animatsion ketma-ketlik orqali ko‘rsatilsa, talaba jarayonni tezroq anglaydi. Shu bilan birga, ko‘rgazmalilik ilmiy mazmunni soddalashtirib yubormasligi kerak; har bir modeldan keyin haqiqiy algoritmda mavjud bo‘lgan xavfsizlik talablari izohlanishi zarur.

Kriptografiya fanida etik va xavfsiz foydalanish tamoyili ham muhimdir. Talabalar kriptografik bilimlarni real tizimlarga zarar yetkazish uchun emas, balki ma’lumotlarni himoya qilish, dasturiy mahsulotlarni xavfsiz loyihalash va axborot xavfsizligi siyosatini to‘g‘ri tushunish uchun o‘rganishi kerak. Shu bois laboratoriya topshiriqlari nazorat qilinadigan, o‘quv maqsadiga yo‘naltirilgan va xavfsiz muhitda tashkil etilishi lozim.

Psevdotasodifiy sonlar generatorlari kriptografiya kursining eng muhim mavzularidan biridir. Chunki ko‘plab kriptografik tizimlarda kalit yaratish, nonce hosil qilish, initsializatsiya vektori tanlash, sessiya kalitlarini shakllantirish va oqimli shifrlar uchun kalit oqimini ishlab chiqarish tasodifiylik sifatiga bog‘liq. Oddiy dasturlashdagi tasodifiy son generatori bilan kriptografik

barqaror generator o‘rtasidagi farqni tushunmaslik amaliy xavfsizlik xatolariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun talabalarga “tasodifiy ko‘rinadi” degan tushuncha bilan “kriptografik jihatdan bashorat qilib bo‘lmaydi” degan tushuncha o‘rtasidagi farq aniq tushuntirilishi kerak.

O‘quv dasturida psevdotasodifiy sonlar generatorlari mavzusi odatda ehtimollar nazariyasi, algoritmlar, modulli arifmetika va simmetrik kriptografiya asoslaridan keyin joylashtiriladi. Bunday joylashuv metodik jihatdan to‘g‘ri, chunki talaba generatorning davri, urug‘ qiymati, rekurrent formula, statistik xususiyatlar va bashorat qilinmaslik talabini oldingi matematik bilimlar yordamida anglaydi. Masalan, oddiy chiziqli kongruent generator $X(n+1) = (aX(n) + c) \bmod m$ formulasi orqali PRNG tushunchasini soddalashtirib tushuntirish mumkin, biroq keyin bunday generator kriptografik maqsadlar uchun yetarli emasligi albatta muhokama qilinadi.

Oqimli shifrlar mavzusi PRNG bilan bevosita bog‘liq. Oqimli shifrda kalit va boshlang‘ich parametrlar asosida kalit oqimi hosil qilinadi, so‘ng ochiq matn bitlari yoki baytlari ushbu kalit oqimi bilan birlashtiriladi. Eng sodda ko‘rinishda shifrlash $C(i) = P(i)$ XOR $K(i)$, deshifrlash esa $P(i) = C(i)$ XOR $K(i)$ ko‘rinishida ifodalanadi. Bu formula talabalarga oqimli shifrning asosiy g‘oyasini tushuntirish uchun qulay, lekin haqiqiy algoritmlarda kalit oqimini hosil qilish murakkab va xavfsizlikka qat’iy talablar qo‘yilishi alohida ta’kidlanadi.

Oqimli shifrlarni o‘qitishda RC4 tarixi, uning amaliy zaifliklari va zamonaviy algoritmlar, xususan ChaCha20 kabi oqimli shifrlar haqida qisqa tahliliy ma’lumot berish foydali. Bu yondashuv talabaga kriptografiyada algoritmning mashhurligi yoki uzoq yillar qo‘llanilishi uning doimiy xavfsizligini kafolatlamasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, nonce qayta ishlatilishi, bir xil kalit oqimidan takror foydalanish, zaif urug‘ qiymati va noto‘g‘ri sinxronlashuv oqimli shifrlarda jiddiy xavf tug‘dirishi tushuntiriladi.

Mazkur mavzuning o‘quv dasturidagi o‘rni nazariy va amaliy kompetensiyalarni bog‘lash imkonini beradi. Talaba bir tomondan tasodifiylik, entropiya, davr, statistik testlar, kalit oqimi va farqlanmaslik tushunchalarini o‘zlashtiradi; ikkinchi tomondan kichik dastur yozish, generator natijasini tekshirish, shifrlash va deshifrlash jarayonini modellashtirish, xatoli holatlarni tahlil qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

1-jadval

Psevdotasodifiy generatorlar va oqimli shifrlarni o‘qitishda kompetensiyaviy bog‘liqlik

Mavzu elementi	Shakllanadigan kompetensiya	Raqamli vosita	Baholash mezoni
Urug‘ qiymati va generator davri	Tasodifiylik manbasini tahlil qilish	Interaktiv jadval, Python modeli	Formula va natijani izohlash
Statistik testlar	Generator chiqishini baholash	Grafik, gistogramma, NIST testlariga kirish	Natija asosida xulosa chiqarish
XOR asosidagi shifrlash	Bitli amallarni algoritmik tushunish	Vizual simulyator, kod muhiti	Shifrlash/deshifrlashni to‘g‘ri bajarish
Nonce va IV	Kalit oqimining takrorlanish xavfini tushunish	Muammoli vaziyat, case-study	Xavf sababini tushuntirish
Oqimli shifrlar	Algoritm bosqichlarini modellashtirish	Virtual laboratoriya	Test holatlarida barqaror ishlash

1-jadvaldan ko‘rinadiki, mavzuni samarali o‘qitish uchun har bir nazariy tushuncha alohida amaliy faoliyat, raqamli vosita va aniq baholash mezoni bilan bog‘lanishi lozim. Bu yondashuv talabaning faqat formulani bilishini emas, balki kriptografik jarayonni tahlil qilish va xavfsizlik xulosasini chiqarish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari kriptografiya fanini o‘qitishda murakkab jarayonlarni ko‘rgazmali, interaktiv va tajribaga asoslangan tarzda tashkil etish imkonini beradi. An’anaviy ma’ruzada oqimli shifrning ishlashini doskada formula orqali tushuntirish mumkin, biroq raqamli muhitda talaba ochiq matn, kalit oqimi va shifrmatn o‘rtasidagi bog‘liqlikni real vaqt rejimida ko‘rishi, parametrlarni o‘zgartirishi, xatoli holatlarni sinashi va natijani tahlil qilishi mumkin. Bu esa mavzuning abstraktligini kamaytiradi.

Virtual laboratoriya kriptografik algoritmlarni o‘qitishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Unda talaba oddiy PRNG, kriptografik PRNG, XOR-shifr, oqimli shifr modeli, kalit oqimi, nonce, IV va statistik tekshiruvlarni xavfsiz o‘quv muhitida bajaradi. Laboratoriya topshiriqlari “berilgan algoritmni ishga tushirish” bilan cheklanmasligi kerak; aksincha, talaba parametr o‘zgarganda natija qanday o‘zgarishini tahlil qilishi, zaif generatorni kuchli generator bilan qiyoslashi va xatoli kriptografik dizayn oqibatini tushuntirishi zarur.


Jupyter Notebook yoki Google Colab kabi interaktiv muhitlar kriptografiya darslarida nazariya va kodni birlashtirishga yordam beradi. Bunday muhitda matnli izoh, formula, jadval, kod va grafik bitta faylda joylashadi. Masalan, talaba LCG generatori natijasini hosil qiladi, uning qiymatlarini grafikda ko‘radi, oddiy chastota tahlilini bajaradi va shu asosda “statistik ko‘rinishda tekis taqsimlangan natija har doim kriptografik xavfsizlikni anglatmaydi” degan xulosaga keladi. Bu yondashuv ilmiy fikrlashni kuchaytiradi.

LMS platformalari mavzuni modulli tashkil etish, diagnostik test, amaliy topshiriq, kod fayllarini topshirish, forum muhokamasi va reflektiv savollarni boshqarish imkonini beradi. Masalan, “PRNG va oqimli shifrlar” moduli kirish savollari, qisqa videodars, interaktiv simulyatsiya, laboratoriya topshirig‘i, nazorat savollari va yakuniy mini-loyihadan iborat bo‘lishi mumkin.

Talabaning urinishlar soni, kod xatolari, test natijalari va izohli javoblari keyingi mashg‘ulotni moslashtirish uchun diagnostik ma’lumot vazifasini bajaradi.

Avtomatlashtirilgan baholash vositalari kriptografiya darslarida ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi kerak. Kodning ishlashi muhim, lekin kriptografiyada natijaning to‘g‘ri chiqishi har doim xavfsiz dizaynni anglatmaydi. Shu sababli baholash mezoni natijaviy testlardan tashqari, algoritm izohi, parametrlar tanlovi, xavfsizlik cheklovlarini tushuntirish va xatoli holatlarni tahlil qilishni ham qamrab olishi lozim. Talaba “kod ishladi” degan xulosadan “kod qaysi xavfsizlik shartlari bajarilganda ishonchli bo‘ladi” degan xulosaga o‘tishi kerak.

Muammoli va loyiha asosida o‘qitish ham kriptografiya fani uchun mos yondashuvdir. Talabalarga oddiy chat ilovasida xabarlarni oqimli shifr modeli bilan himoyalash, generator chiqishini statistik tahlil qilish, nonce takrorlanganda yuzaga keladigan xavfni ko‘rsatish yoki ikki xil generatorni qiyoslash kabi mini-loyihalar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi: dasturlash, matematik tahlil, axborot xavfsizligi va foydalanuvchi mas’uliyati bir jarayonda namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Kriptografik algoritmlarni raqamli muhitda o‘qitishning metodik modeli

1-rasmda kriptografik algoritmlarni raqamli muhitda o‘qitishning umumiy metodik ketma-ketligi aks ettirilgan. Ushbu modelda o‘qitish diagnostikadan boshlanadi, keyin mavzu vizual va algoritmik tushuntiriladi, talaba kodlash va simulyatsiya orqali tajriba o‘tkazadi, natijani testlaydi va yakunda reflektiv izoh asosida bilimini mustahkamlaydi.

Kriptografiya fanini o‘qitishda birinchi muammo talabalarning matematik tayyorgarligi turlicha bo‘lishidir. Modulli arifmetika, ehtimollar nazariyasi, diskret matematika va bitli amallar bo‘yicha bilim yetarli bo‘lmasa, PRNG va oqimli shifrlar mavzusi yuzaki o‘zlashtiriladi. Buni bartaraf etish uchun mavzudan oldin qisqa diagnostik test, tayanch matematik tushunchalar bo‘yicha mikro-ma’ruza va oddiy misollar asosidagi tayyorlov bloki tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi muammo tasodifiylik va psevdotasodifiylik tushunchalarini chalkashtirish bilan bog‘liq. Ko‘plab talabalar kompyuter yaratgan sonlar avtomatik ravishda “tasodifiy” va xavfsiz deb o‘ylaydi. Dars jarayonida oddiy generator, statistik jihatdan qoniqarli generator va kriptografik barqaror generator o‘rtasidagi farq aniq misollar yordamida ko‘rsatilishi kerak. Masalan, bir generator natijalari bir qarashda tartibsiz ko‘rinsa-da, urug‘ qiymati ma’lum bo‘lsa, keyingi qiymatlarni bashorat qilish mumkinligi amaliy tajriba orqali tushuntiriladi.

Uchinchi muammo oqimli shifrlar xavfsizligini faqat XOR amalining soddaligi bilan baholashdir. Talaba XOR amali osonligini ko‘rib, oqimli shifr ham oddiy deb xulosa qilishi

mumkin. Aslida xavfsizlik kalit oqimining bashorat qilib bo‘lmasligi, nonce va kalitning to‘g‘ri ishlatilishi, sinxronlashuv va protokol shartlariga bog‘liq. Shu sababli o‘qitishda “to‘g‘ri ishlaydigan algoritm” va “xavfsiz ishlatiladigan algoritm” tushunchalari alohida ajratilishi zarur.

To‘rtinchi muammo laboratoriya topshiriqlarining reproduktiv xarakterda qolib ketishidir. Agar talaba faqat tayyor kodni ko‘chirib ishga tushirsa, mavzuning metodik maqsadi amalga oshmaydi. Laboratoriya ishlari tahliliy savollar, parametrlarni o‘zgartirish, xatoli holatni topish, xavfsizlik xulosasi yozish va natijani himoya qilish bilan boyitilishi kerak. Har bir laboratoriya ishi “nima qildim?” savoliga emas, “nima uchun shunday natija chiqdi va xavfsizlik nuqtai nazaridan bu nimani anglatadi?” savoliga javob berishi lozim.

Beshinchi muammo raqamli ta’limda akademik halollik bilan bog‘liq. Talabalar tayyor kod, generator yoki shifr algoritmini internetdan olib, uning ishlash mohiyatini tushunmasdan topshirishi mumkin. Buni kamaytirish uchun topshiriqlarda individual parametrlar, og‘zaki himoya, kod izohi, test natijalarini tahlil qilish, xatolarni tushuntirish va reflektiv savollar qo‘llanilishi kerak. Baholash jarayoni yakuniy natijani emas, balki talabaning fikrlash jarayoni va xavfsizlik xulosasini ham hisobga olishi zarur.

Oltinchi muammo o‘qituvchilar uchun metodik resurslarning yetarli emasligidir. Kriptografik mavzular ko‘pincha matematik yoki dasturiy tomondan alohida yoritiladi, ammo ularni pedagogik ketma-ketlik, raqamli vosita va baholash mezoni bilan bog‘laydigan o‘quv-uslubiy materiallar yetishmaydi. Shuning uchun kriptografiya fani bo‘yicha modul kartalari, laboratoriya ssenariylari, xavfsiz kodlash bo‘yicha yo‘riqnoma, diagnostik testlar va rubrikalar ishlab chiqilishi kerak.

2-jadval

Kriptografiya fanini o‘qitishdagi muammolar va metodik yechimlar

Mavjud muammo	Kutiladigan oqibat	Metodik yechim
Matematik tayyorgarlikning yetarli emasligi	Formula va algoritmlarni yuzaki yodlash	Tayanch matematika bo‘yicha diagnostika va mikro-mashqlar
Tasodifiylikni noto‘g‘ri talqin qilish	Zaif generatorni xavfsiz deb qabul qilish	PRNG, TRNG va CSPRNG farqini tajriba orqali ko‘rsatish
Oqimli shifrlarni haddan tashqari soddalashtirish	Nonce yoki kalit oqimini noto‘g‘ri qo‘llash	Xatoli case-study va xavfsizlik tahlili
Tayyor kodni ko‘chirish	Mustaqil algoritmik fikrlash shakllanmasligi	Individual parametr, kod izohi va og‘zaki himoya
Laboratoriya vositalarining cheklanganligi	Nazariya-amaliyot uzilishi	Virtual laboratoriya, simulyator va avtomatik testlar

Xulosa va takliflar (Conclusion and Suggestions).

Kriptografiya fanini o‘qitish axborot xavfsizligi kompetensiyalarini shakllantirishning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu fan talabalarda matematik asoslangan fikrlash, algoritmik tahlil, xavfsiz dasturiy yechim yaratish, kriptografik mexanizmlarni to‘g‘ri qo‘llash va axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantiradi. Psevdotasodifiy sonlar generatorlari va oqimli shifrlar mavzusi esa kriptografiya kursida nazariya bilan amaliyot bog‘lanadigan muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur mavzuni samarali o‘qitish uchun ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ko‘rgazmalilik, amaliy yo‘naltirilganlik, xavfsiz tajriba muhiti va reflektiv baholash tamoyillariga tayanish zarur. Raqamli ta’lim texnologiyalari bu jarayonda o‘quv materialini soddalashtirish emas, balki murakkab kriptografik jarayonlarni ko‘rinarli, tajribaviy va tahliliy shaklda o‘zlashtirishga xizmat qilishi kerak.

Maqola natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi: kriptografiya fanida PRNG va oqimli shifrlar bo‘yicha alohida virtual laboratoriya ishlab chiqish; har bir laboratoriya ishiga xavfsizlik tahlili va reflektiv savollarni kiritish; talabalarning matematik tayyorgarligini aniqlash uchun diagnostik blok yaratish; LMS platformasida mavzuni modul ko‘rinishida tashkil etish; baholashda kod natijasi bilan birga algoritm izohi, parametrlar tanlovi va xavfsizlik xulosasini ham hisobga olish.

Shunday qilib, kriptografiya fanini raqamli ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish talabalarning nazariy bilimini amaliy kompetensiyaga aylantirish, xavfsiz fikrlashni shakllantirish va kiberxavfsizlik sohasida malakali mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Menezes A. J., van Oorschot P. C., Vanstone S. A. Handbook of Applied Cryptography. CRC Press, 1996.

2. Katz J., Lindell Y. Introduction to Modern Cryptography. 3rd ed. CRC Press, 2020.

3. Stallings W. Cryptography and Network Security: Principles and Practice. Pearson, 2023.

4. Paar C., Pelzl J. Understanding Cryptography: A Textbook for Students and Practitioners. Springer, 2010.

5. Ferguson N., Schneier B., Kohno T. Cryptography Engineering: Design Principles and Practical Applications. Wiley, 2010.

O‘QUVCHILAR O‘QUV-BILUV FAOLIYATINI INTEGRATIV BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Yaxshiboyeva Sitora Toshpulat qizi
Qarshi xalqaro universiteti dotsenti,
ORCID: 0009-0009-0372-9140

Annotatsiya. Integrativ baholash o‘quvchining bilim, ko‘nikma, kompetensiya va munosabatlarini fanlararo aloqadorlikda, yaxlit holda baholash tizimini anglatadi. Mazkur maqolada o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini integrativ baholashning falsafiy, psixologik va pedagogik nazariy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda integrativ baholashning kontseptual modeli, uning to‘rt komponenti va oltita pedagogik tamoyili asoslanadi. An’anaviy va integrativ baholashning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Xulosa va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ baholash, o‘quv-biluv faoliyati, nazariy asoslar, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, kontseptual model, formativ baholash, STEAM ta’limi

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАТИВНОЙ ОЦЕНКИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Яхшибоева Ситора Тошпулат кизи
Доцент, Международный университет Карши,

Аннотация. Интегративное оценивание представляет собой систему целостной оценки знаний, умений, компетенций и отношений учащегося в межпредметной взаимосвязи. В данной статье комплексно анализируются философские, психологические и педагогические основы интегративного оценивания учебно-познавательной деятельности. Обоснована четырёхкомпонентная концептуальная модель и шесть педагогических принципов. Проведён сравнительный анализ традиционного и интегративного оценивания.

Ключевые слова: интегративное оценивание, название, теоретические основы, компетентностный подход, межпредметная интеграция, концептуальная модель

THEORETICAL BASIS OF INTEGRATIVE ASSESSMENT OF STUDENTS’ LEARNING ACTIVITIES

Yakhshiboyeva Sitora Toshpulat kizi
Associate Professor, Karshi International University,

Annotation. Integrative assessment represents a system for the holistic evaluation of students’ knowledge, skills, competencies, and attitudes in an interdisciplinary context. This article provides a comprehensive analysis of the philosophical, psychological, and pedagogical theoretical foundations of integrative assessment of students’ educational and cognitive activity. A four-component conceptual model and six pedagogical principles are substantiated. A comparative analysis of traditional and integrative assessment is carried out. Conclusions and practical recommendations are presented.

Keywords: integrative assessment, educational activity, theoretical foundations, competency-based approach, interdisciplinary integration, conceptual model, formative assessment, STEAM education

Kirish (Introduction). Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda

mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va fanlararo bilimlarni tatbiq eta olish kompetensiyasini shakllantira olishdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun baholash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bugungi kunda an’anaviy baholash tizimi ko‘plab cheklovlarga ega. U o‘quvchining faqat faktik bilimini o‘lchaydi. U rivojlanish dinamikasini qayd etmaydi. U individual xususiyatlarni hisobga olmaydi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun integrativ baholash konsepsiyasi jahon pedagogikasida ishlab chiqilgan.

Integrativ baholash deganda o‘quvchining bilim, ko‘nikma, kompetensiya va munosabatlarini fanlararo aloqadorlikda, yaxlit holda, ko‘p vositalar yordamida o‘lchash tushuniladi. Bu tizim baholashni o‘rganish jarayonining ajralmas qismiga aylantiradi. U faqat natijani emas, rivojlanish yo‘lini ko‘radi. Shu boim integrativ baholashning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish uning amaliyotga samarali joriy etilishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot maqolasida integrativ baholashning falsafiy, psixologik va pedagogik nazariy asoslari ochib beriladi. Uning kontseptual modeli va an’anaviy baholash bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. STEAM ta’limi bilan aloqasi ko‘rlib chiqiladi. Xulosa va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). An’anaviy va integrativ baholashning nazariy asoslari qiyosiy tahlili. An’anaviy baholash va integrativ baholashning nazariy asoslarini solishtirish bu ikki tizim o‘rtasidagi chuqur farqni yanada aniqroq ko‘rish imkonini beradi. An’anaviy baholashning falsafiy asosi pozitivizm va empirizmga tayanadi. Bu falsafaga ko‘ra, haqiqat kuzatish va tajriba orqali aniqlanadi, bilim esa obyektiv va o‘lchanadigan bo‘lib, alohida faktlar va ko‘nikmalar majmuasidan iborat. An’anaviy baholash shu tamoyildan kelib chiqib, bilimni o‘lchanadigan bo‘laklarga bo‘lib baholaydi. Uning asosiy kamchiligi shuki, u bilimni kontekstdan ajratadi va o‘quvchini yaxlit shaxs sifatida emas, balki test natijalari to‘plami sifatida ko‘radi.

Integrativ baholashning falsafiy asosi esa konstruktivizm, fenomenologiya va pragmatizmga tayanadi. Konstruktivizmga ko‘ra, bilim faqat uzatilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol ravishda quriladi. Fenomenologiya esa o‘quvchining o‘z tajribasi va tushunchasini markazga qo‘yadi. Pragmatizm esa bilimning hayotiy amaliyotga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu uchta falsafiy yo‘nalish birgalikda integrativ baholashning nazariy poydevorini yaratadi. Shu asosda integrativ baholash o‘quvchini yaxlit, o‘sib borayotgan shaxs sifatida baholaydi.

Psixologik asoslar bo‘yicha ham jiddiy farqlar mavjud. An’anaviy baholash asosan behaviorizm psixologiyasiga, ya’ni kuzatiladigan va o‘lchanadigan xulq-atvorga tayanadi. Bilim va ko‘nikma tashqi ta’sir natijasida shakllanadi deb qaraladi. Vigotskiy, Piaje va Galperin nazariyalariga asoslangan integrativ baholash esa bilishning ichki mexanizmlarini, rivojlanish zonasini va aqliy harakatlarni inobatga oladi. Bu yondashuv o‘quvchining bilish jarayonini dinamik va kontekstga bog‘liq holda baholaydi.

Pedagogik asoslar nuqtai nazaridan ham farq ko‘zga tashlanadi. An’anaviy baholash o‘quvchini passiv qabul qiluvchi sifatida ko‘radi. U ma’umotni eslab qolish va qayta aytib berishga yo‘naltirilgan. Integrativ baholash esa o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘radi. U o‘quvchining o‘z bilimini qurishini, tanqidiy fikrlashini va ijodiy muammolarni hal qilishini baholaydi. Bu farq faqat baholash texnikasida emas, balki ta’limning butun falsafasida namoyon bo‘ladi.

Maqsad nuqtai nazaridan ham ikki tizim keskin farqlanadi. An’anaviy baholashning asosiy maqsadi o‘quvchilarni saralash va tartiblash, ya’ni ularni “qobiliyatli” va “qobiliyatsiz” toifalarga ajratishdir. Bu maqsad o‘quvchida raqobat va muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvini kuchaytiradi. Integrativ baholashning maqsadi esa tamomila boshqacha: har bir o‘quvchining rivojlanishiga ko‘mak berish, uning kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini mustahkamlash. Bu o‘quvchida o‘zi

uchun o‘rganish motivatsiyasini shakllantiradi.

Integrativ baholashning istiqboli va ahamiyati. Integrativ baholash zamonaviy ta’limning istiqbolli yo‘nalishi sifatida tobora katta e’tirofga erishmoqda. OECD, UNESCO va Jahon banki hisobotlari bir ovozdan baholash tizimini kompetensiyaga yo‘naltirishning zarurligini ta’kidlaydi. Raqamli iqtisodiyot va tez o‘zgaruvchan jamiyat sharoitida maktab va universitetlar bitiruvchilari nafaqat bilimga, balki uni ijodiy qo‘llash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Integrativ baholash aynan shu sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida integrativ baholashni joriy etish 2020-yilgi “Raqamli O‘zbekiston” dasturi va oliy ta’lim islohot strategiyasi bilan bog‘liq keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Respublika maktablarida formativ baholash elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. O‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida yangi kurslar tashkil etilmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ham integrativ baholash nazariyasi va metodikasi bo‘yicha yangi fanlar kiritilmoqda. Bu siljishlar ijobiy bo‘lib, ularni yanada kuchaytirish zarur.

Integrativ baholashning to‘rt komponentli kontseptual modeli amaliyotda qanday ishlaydi? Birinchi, maqsad komponenti o‘qituvchiga dars rejalashtirish bosqichida nima uchun baholashi va nimaga erishmoqchi ekanligini aniq belgilashga yordam beradi. Ikkinchi, mazmun komponenti qanday topshiriqlar, loyihalar va real hayotiy muammolar orqali baholash amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Uchinchi, vositalar komponenti rubrikalar, portfolio va boshqa baholash vositalarini to‘g‘ri tanlab qo‘llashni ta’minlaydi. To‘rtinchi, natija komponenti baholash yakunida o‘quvchi va o‘qituvchi uchun nima o‘zgaradi va keyingi qadam nima bo‘lishini belgilaydi.

Integrativ baholash muammosi bir vaqtning o‘zida falsafa, pedagogika va psixologiya sohasida tadqiq etiladi. Tadqiqotimizda quyidagi usullar qo‘llanildi: adabiyotlar tahlili usuli asosida 2000–25 yillarda nashr etilgan 120 dan ortiq manba ko‘rib chiqildi; qiyosiy tahlil orqali an’anaviy va integrativ baholash tizimlarining xususiyatlari solishtirilib baholandi; modellashtirish usuli yordamida integrativ baholashning kontseptual modeli ishlab chiqildi.

Tahlil qilingan asosiy manbalar qatoriga Kant va Gegelning bilish nazariyasi bo‘yicha ishlari, psixologiyada Vigotskiy, Piaje va Galperin tadqiqotlari, pedagogikada Black va Wiliamning formativ baholash, Hattie ning ko‘rinadigan ta’lim konsepsiyasi, National Research Council va Yakman STEAM ta’limi bo‘yicha ishlari kiradi. Mazkur manbalar integrativ baholashning ilmiy poydevorini tashkil etadi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Integrativ baholashning falsafiy asoslari. Falsafa fanida integrativ baholashning nazariy asoslari avvalambor bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bog‘liq. Immanuil Kantning bilish nazariyasiga ko‘ra, inson bilimi faqat sezgi va tajribadan kelib chiqmaydi, balki aqlning kategoriyalari bilan shakllanadi. Bu fikr integrativ baholashning komplekslikka intilishini falsafiy asoslaydi. Kant qarashlariga ko‘ra, yaxlit bilim faqat turli kognitiv qatlamlarning sintezi orqali hosil bo‘ladi.

Georg Vilgelm Fridrix Gegel falsafasida bilish jarayoni dialektik tarzda talqin etiladi. Gegel fikricha, fikrdan fikrga o‘ish va qarama-qarshi tomonlarning birligida haqiqiy bilim namoyon bo‘ladi. Integrativ baholash ham aynan shunday dialektik yondashuvga asoslanadi: u fanning turli yo‘nalishlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikni sintez qilish orqali o‘quvchining yaxlit kompetensiyasini aniqlashga intiladi. Hegel falsafasi integrativlikning zaruriyatini falsafiy asoslash imkonini beradi.

Zamonaviy falsafada integrativ yondashuv har qanday hodisa va jarayonni uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi murakkab aloqalar tizimi sifatida ko‘rish zarurligini isbotlaydi. Integrativ baholash ham o‘quvchini ayrim qismlarda emas, balki yaxlit shaxs va faoliyat subyekti sifatida ko‘radi. Bu falsafiy pozitsiya butun metodologik yondashuvning asosini tashkil etadi.

Integrativ baholashning psixologik asoslari. Psixologiya fanida integrativ baholashning asoslari kognitiv psixologiya, rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya yo‘nalishlarida ishlab chiqilgan. L. S. Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» kontsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchini baholashda nafaqat u mustaqil bajara oladigan ishlar, balki o‘ituvchi yordamida bajara oladigan ishlar ham hisobga olinishi lozim. Bu fikr integrativ baholashning formativ xarakterini nazariy jihatdan asoslaydi.

J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchining baholashi uning kognitiv rivojlanish bosqichiga mos bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari konkret operatsiyalar bosqichida bo‘lib, ular uchun baholash ham konkret, ko‘rinadigan va hayotiy bo‘lishi zarur. Piajening ushbu g‘oyasi integrativ baholash metodlarini yosh xususiyatlariga moslashtirish zaruratini asoslaydi.

P. Ya. Galperin kabi olimlar inson refleksiyasida ishtirok etadigan barcha fikriy va psixologik xatti-harakatlar tizimli baholanishi lozim, deb ta’kidlagan. Bu g‘oya integrativ baholashda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya elementlarini kiritishning ilmiy asosini yaratadi. V. V. Davydovning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi esa baholashning o‘quvchini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qilishi kerakligini isbotlaydi.

Integrativ baholashning pedagogik asoslari. Pedagogika fani nuqtai nazaridan integrativ baholash beshta asosiy yondashuvga tayanadi. Birinchi yondashuv - kompetensiyaviy yondashuv. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’limning asosiy natijasi o‘quvchining bilim, ko‘nikma va munosabatlarini hayotiy va kasbiy vaziyatlarda birgalikda qo‘llay olish qobiliyatidir. Integrativ baholash aynan shu kompleks qobiliyatni o‘lchaydi.

Ikkinchi yondashuv - fanlararo integratsiya yondashuvi. Bu yondashuv bir necha fanlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olib, o‘quvchini har tomonlama baholashni ko‘zda tutadi. Uchinchi yondashuv - tizimli yondashuv. U baholash tizimining barcha komponentlarini - maqsad, mazmun, vositalar va natija - o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida ko‘radi. To‘rtinchi yondashuv - rivojlantiruvchi (formativ) yondashuv. U baholashning asosiy vazifasi o‘quvchini saralash emas, balki uni rivojlantirish ekanligini ta’kidlaydi. Beshinchi yondashuv - faoliyatli yondashuv. U o‘quvchining bilimini uning amaliy faoliyati orqali baholashni taqozo etadi.

Integrativ baholash tizimi oltita asosiy pedagogik tamoyilga asoslanadi: yaxlitlik tamoyili; fanlararo aloqadorlik tamoyili; faoliyat asosida baholash tamoyili; shaffoflik va ochiqlik tamoyili; rivojlantiruvchi xususiyat tamoyili; obyektivlik tamoyili. Ushbu tamoyillar birgalikda integrativ baholashning pedagogik mazmunini to‘liq belgilab beradi.

Integrativ baholashning kontseptual modeli. Yuqoridagi nazariy asoslarga tayangan holda integrativ baholashning to‘rt komponentli kontseptual modeli taklif etildi. Birinchi komponent - maqsad komponenti. Integrativ baholashning asosiy maqsadi o‘quvchining bilim, ko‘nikma, tushuncha, munosabat va kompetensiyalarini yaxlit holda o‘lchashdir. Ikkinchi komponent - mazmun komponenti. Uning mazmuni fanlararo bog‘langan kompleks topshiriqlar, real hayotiy muammolar va ijodiy loyihalardan iborat.

Uchinchi komponent - vositalar komponenti. Integrativ baholash vositalariga rubrikalar, portfolio, loyiha natijalari, kuzatuv varag‘lari, o‘z-o‘zini baholash shakllari va interfaol test tizimlari kiradi. To‘rtinchi komponent - natija komponenti. Natija sifatli va miqdoriy ko‘rsatkichlar, o‘quvchining rivojlanish trayektoriyasi va amaliy tavsiyalar shaklida ifodalanadi. Ushbu to‘rt komponent bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi integrativ baholash tizimining samaradorligini ta’minlaydi.

An’anaviy va integrativ baholashning qiyosiy tahlili. An’anaviy baholashning nazariy asosi asosan behaviorism va pozitivizmga tayanadi. Unga ko‘ra, bilim alohida faktlar va ko‘nikmalar

majmuasidan iborat bo‘lib, ularni alohida-alohida o‘lchash mumkin. An’anaviy baholashning asosiy vazifasi o‘quvchilarni saralash va tartiblash. Uning kamchiligi shundaki, u rivojlanish dinamikasini ko‘rmamasligidir.

Integrativ baholashning nazariy asosi esa konstruktivizm, kognitiv psixologiya va humanistik pedagogikaga tayanadi. Unga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan faol ravishda quriladi va u kontekstga bog‘liqdir. Integrativ baholashning asosiy vazifasi - o‘quvchini o‘rganish jarayonida qo‘llab-quvvatlash. Bu ikki tizimning farqi jiddiy bo‘lib, ularning o‘rnini to‘g‘ri bilish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Integrativ baholashning STEAM ta’limi bilan aloqasi. Integrativ baholashning nazariy asoslari STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta’limi tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq. Yakmanning STEAM ta’limi modelida baholash masalasiga alohida e’ibor qaratilgan. Unga ko‘ra, STEAM loyihalarini baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki ijodiy jarayon, hamkorlik, muammoni hal qilish ko‘nikmalari ham baholanishi zarur.

National Research Councilning STEM integratsiyasi bo‘yicha hisobotida ham baholash tizimini takomillashtirish, fanlararo aloqalarni kuchaytirishda muhim omil sifatida qaraladi. Mazkur bog‘liqlik integrativ baholashni STEAM ta’limining ajralmas qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini integrativ baholashning nazariy asoslarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosa va takliflarga kelindi.

Birinchidan, integrativ baholash murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uning nazariy asoslari falsafa, psixologiya va pedagogikaning sintezi asosida quriladi. Ikkinchidan, integrativ baholashning falsafiy asoslari gnoseologiya va yaxlitlik tamoyiliga tayanadi. Uchinchidan, psixologik asoslar kognitiv psixologiya, Vigotskiy, Piaje va Galperin konsepsiyalariga asoslanadi. To‘rtinchidan, pedagogik asoslar beshta yondashuv va oltita tamoyilni o‘z ichiga oladi. Beshinchidan, kontseptual model to‘rt komponentdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Oltinchidan, integrativ baholash STEAM, loyihaviy ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv bilan chambarchas bog‘liq.

Amaliy takliflar:

– Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida «Baholash nazariyasi» fanlarini o‘qitishda integrativ baholashning nazariy asoslarini mustaqil modul sifatida o‘rganishni kiritish.

– O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida integrativ baholashning nazariy asoslari bo‘yicha modulni kiritish; bunda nazariy seminar va amaliy mashg‘ulotlarni birlashtirish.

– Integrativ baholashni joriy etishdan oldin ta’lim muassasasida o‘qituvchilar uchun nazariy seminar-treninglar tashkil etish.

– Integrativ baholashning kontseptual modeli asosida har bir ta’lim muassasasi o‘zining integrativ baholash tizimini loyihalashi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kant I. Критика чистого разума / Пер. Н. Лосского. - М.: Эксмо, 2007. - 736 с.
2. Гегель В. Ф. Вера и знание. - СПб.: Умозрение, 2017. - 248 с.
3. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.
4. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - СПб.: Питер, 2003. - 192 с.
5. Гальперин П. Я. Введение в психологию. - М.: Университет, 1999. - 332 с.
6. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. - М.: Интор, 1996. - 287 с.
7. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education. - 2018.

- Vol. 5, No. 1. - P. 7–74.

8. Hattie J. Visible Learning for Teachers. - London: Routledge, 2012.

9. National Research Council. STEM Integration in K-12 Education. - Washington: NAP, 2014.

10. Yakman G. STEAM Education: An Overview // PATT-20 Conference Proceedings. - 2008.

11. Toshpo‘lato‘v A. Integrativ baholash tizimining nazariy asoslari // Pedagogika va psixologiya jurnali. - 2023. - No. 4(2). - B. 45–52.

12. Qodirova D. O‘quvchilarni baholashda integrativ yondashuv. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2024.

13. Rustamov B. Formativ baholash va uning integrativ modeli // Xalq ta’limi jurnali. - 2023. - No. 2(1). - B. 22–29.

14. Karimova N. Fanlararo integrativ baholash rubrikalarini ishlab chiqish metodikasi // Pedagogika innovatsiyalari. - 2025.

15. Tigelaar D., Van der Vleuten C. Assessment in integrative learning environments // Educational Research Review. - 2019.

19. 00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

ЛИЧНОСТНЫЕ И АДАПТАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО ЗНАЧИМЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Нурымбетова Эльмира Жумамуратовна
доктор по психологическим наукам(DSc)
Нукусский государственный педагогический институт

Аннотация: В статье исследуются социально-психологические особенности развития профессионально значимых качеств студентов-психологов. На основе результатов исследования выявлены взаимосвязи между адаптивностью и личностными характеристиками будущих психологов. Полученные данные могут быть использованы для совершенствования профессиональной подготовки психологов.

Ключевые слова: студенты-психологи, профессионально значимые качества, адаптивность, личностные особенности, профессиональная подготовка.

PERSONALITY AND ADAPTATION FACTORS IN THE FORMATION OF PROFESSIONALLY SIGNIFICANT QUALITIES OF FUTURE PSYCHOLOGISTS

Nurimbetova Elmira Zhumamuratovna
Doctor of Psychological Sciences (DSc), Nukus State Pedagogical Institute

Abstract: The article examines socio-psychological features of the development of professionally significant qualities in psychology students. The study revealed relationships between adaptability and personality traits of future psychologists. The findings may be used to improve the professional training of psychologists.

Keywords: psychology students, professionally significant qualities, adaptability, personality traits, professional training.

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA KASBIY MUHIM SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING SHAXSIY VA MOSLASHUV OMILLARI

Nurimbetova Elmira Jumamuratovna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada psixolog-talabalarda kasbiy muhim sifatlarning rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida moslashuvchanlik va shaxsiy sifatlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlangan. Olingan natijalar psixologlarni kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: psixolog-talabalar, kasbiy muhim sifatlar, moslashuvchanlik, shaxsiy xususiyatlar, kasbiy tayyorgarlik.

Введение. Актуальные вопросы профессиональной подготовки в высшем образовательном учреждении, обеспечения нужных условий для специалистов-психологов, профессионально-важных качеств личности психолога в целом изучены учёными Содружества Независимых Государств, как: Э. Ф Зеер, Е. А. Климов, И. А. Вишняков, А. Г. Волкович, М. А. Егорова и др[4,5,1,2,3].

Задачи исследования: изучить профессионально-важные качества психолога и доказать

важность формирования профессионально-важных качеств соотносительно с требованиями, предъявляемыми социальным и профессиональным нормам, как показателя готовности студента-психолога к практической работе;

Методы и методики исследования. В процессе исследования использованы следующие психодиагностические методы: пятифакторный личностный опросник «Большая пятерка» Р. МакКрае и П. Коста, тест «Адаптивность» А. Г. Маклакова.

Корреляция между адаптивностью и личностными качествами студентов-психологов

		Экстраверсия (E)	Доброжелательность (A)	Добросовестность (C)	Нейротизм (N)	Открытость Опыту (O)
Адаптивные Способности	Коэф-т корреляции	-0,49	-0,23	-0,46	0,64	-0,14
	p-значение	<0,0005	0,001	<0,0005	<0,0005	0,047
Нервно-психическая устойчивость	Коэф-т корреляции	-0,45	-0,15	-0,42	0,63	-0,10
	p-значение	<0,0005	0,028	<0,0005	<0,0005	0,137
Коммуникативные особенности	Коэф-т корреляции	-0,54	-0,20	-0,30	0,50	-0,19
	p-значение	<0,0005	0,004	<0,0005	<0,0005	0,006
Моральная нормативность	Коэф-т корреляции	-0,05	-0,33	-0,33	0,14	-0,04
	p-значение	0,463	<0,0005	<0,0005	0,047	0,577

Мы обнаружили статистические значимые (p-значение меньше 0,05) обратные взаимосвязи между следующими переменными:

Мы обнаружили статистические значимые (p-значение меньше 0,05) обратные взаимосвязи между следующими переменными:

Моральная нормативность и Доброжелательность ($r = -0.330$, $p<0.05$)

Моральная нормативность обычно описывает способность человека следовать моральным принципам, нормам и стандартам. Люди с высоким уровнем моральной нормативности могут быть более склонны к строгости и требовательности в своих действиях и отношениях с окружающими. Они могут придавать большое значение соблюдению правил и этическим принципам.

С другой стороны, доброжелательность характеризуется как дружелюбное, отзывчивое и заботливое отношение к другим людям. Люди с высоким уровнем доброжелательности обычно проявляют заботу, эмпатию и готовность помочь другим.

Таким образом, обратная связь между этими двумя характеристиками может указывать на то, что строгое соблюдение моральных норм и принципов может иногда препятствовать развитию теплых и дружелюбных отношений с окружающими. Люди, которые слишком сосредоточены на правильном поведении и моральных принципах, могут быть менее готовыми к эмоциональной поддержке и проявлению доброжелательности в отношениях.

Адаптивные способности и Экстраверсия ($r = -0.490$, $p<0.05$)

Обратная связь между экстраверсией и адаптивными способностями может быть

объяснена следующим образом. Люди с высоким уровнем экстраверсии, склонными к социальной активности и общению, могут предпочитать более предсказуемые ситуации, где они могут проявить свои коммуникативные навыки. Они могут быть менее склонны к изменениям и более удобным в структурированных средах.

С другой стороны, люди с высокими адаптивными способностями обладают гибкостью мышления и умением приспосабливаться к новым ситуациям. Они могут лучше справляться с неожиданными вызовами и проблемами, а также быстрее адаптироваться к изменениям в окружающей среде. Возможно, они предпочитают разнообразие и новизну, что может противоречить более экстравертированному стилю поведения.

Нервно-психическая устойчивость и Экстраверсия ($r = -0.450$, $p<0.05$)

Нервно-психическая устойчивость отражает способность человека справляться со стрессом, давлением и негативными эмоциями без значительных изменений в психологическом состоянии. Люди с высоким уровнем нервно-психической устойчивости обычно проявляют спокойствие, уверенность и умение эффективно реагировать на сложные ситуации.

Экстраверсия, с другой стороны, характеризуется как тенденция к общительности, активности и стремлению к социальным контактам. Экстраверты обычно энергичны, общительны и находчивы в общении с другими людьми.

Коммуникативные особенности и Добросовестность ($r = -0.300$, $p<0.05$).

Коммуникативные особенности отражают способность человека эффективно общаться, выражать свои мысли и идеи, а также понимать и воспринимать информацию от других людей. Люди с развитыми коммуникативными навыками обычно обладают умением убеждать, убедительно выражать свои мысли и эмоции, а также успешно взаимодействовать с окружающими.

Добросовестность же характеризуется как стремление к порядку, организованности, ответственности и исполнительности. Люди с высоким уровнем добросовестности обычно надежны, тщательны в своей работе, следуют правилам и обязательствам.

Моральная нормативность и Добросовестность ($r = -0.330$, $p<0.05$)

Обратная связь между этими двумя характеристиками может указывать на то, что у людей с более выраженной моральной нормативностью может быть менее развита добросовестность. Это может быть связано с тем, что люди, ориентированные на моральные принципы и ценности, могут уделять больше внимания этическим аспектам своего поведения и принятия решений, чем выполнению задач и обязанностей.

Адаптивные способности и Добросовестность ($r = -0.460$, $p<0.05$)

Обратная связь между этими двумя характеристиками может указывать на то, что у людей с более выраженной добросовестностью может быть менее развиты адаптивные способности. Это может быть связано с тем, что люди, ориентированные на дисциплинированность и порядочность в выполнении задач, могут предпочитать стабильность и привычные методы работы, что иногда затрудняет им адаптацию к новым условиям и ситуациям.

Таким образом, результат указывает на сложную взаимосвязь между адаптивными способностями и добросовестностью в контексте профессиональной деятельности психолога.

Нервно-психическая устойчивость и Добросовестность ($r = -0.420$, $p<0.05$)

Нервно-психическая устойчивость обычно означает способность человека эффективно справляться со стрессом, давлением и эмоциональными вызовами. Люди с высоким уровнем нервно-психической устойчивости склонны к более спокойному и уравновешенному поведению в сложных ситуациях.

С другой стороны, добросовестность связана с порядочностью, ответственностью и тщательностью в выполнении задач. Люди с высоким уровнем добросовестности обычно следуют правилам, добросовестно выполняют свои обязанности и стремятся к достижению высоких стандартов.

Обратная связь между нервно-психической устойчивостью и добросовестностью (r = -0.420) может указывать на то, что у людей с более выраженной нервно-психической устойчивостью может быть менее выражена добросовестность. Это может быть связано с тем, что люди, легко переживающие стресс и эмоциональные вызовы, могут испытывать трудности с поддержанием высоких стандартов и последовательностью в выполнении задач.

Мы обнаружили статистические значимые (p-значение меньше 0,05) прямые взаимосвязи между следующими переменными:

Адаптивные способности и Нейротизм ($r = 0.640$, $p<0.05$)

Адаптивные способности часто связаны с гибкостью, способностью быстро адаптироваться к новым ситуациям, эффективно решать проблемы и адекватно реагировать на изменения в окружающей среде. Психологи с высоким уровнем адаптивных способностей склонны к успешной адаптации к различным условиям работы, быстрому принятию решений и эффективному решению профессиональных задач.

Нейротизм, с другой стороны, обычно связан с уровнем тревожности, неуверенности, эмоциональной нестабильностью и склонностью к негативным эмоциям. Люди с высоким уровнем нейротизма могут испытывать больший стресс, тревожность и неуверенность в себе в процессе работы.

Положительная корреляция между адаптивными способностями и нейротизмом ($r = 0.640$) может указывать на то, что у психологов с более выраженными адаптивными способностями может быть также выше уровень нейротизма. Это может означать, что способность успешно адаптироваться к изменениям может сопровождаться повышенной чувствительностью к стрессу и эмоциональной напряженности.

Коммуникативные особенности и Нейротизм ($r = 0.500$, $p<0.05$)

Коммуникативные навыки являются неотъемлемой частью работы психолога, поскольку они позволяют установить эмоциональную связь с клиентами, создать доверие и эффективно передавать информацию.

В рамках данного исследования была обнаружена взаимосвязь между коммуникативными трудностями и нейротизмом. Результаты показали положительную корреляцию между этими двумя переменными ($r = 0.500$, $p<0.05$), что указывает на то, что люди с более высоким уровнем нейротизма имеют тенденцию иметь менее развитые коммуникативные навыки.

Один из возможных объяснений этого результат может быть связан с тем, что люди с высоким уровнем нейротизма испытывают трудности в коммуникации из-за своей эмоциональной нестабильности. Они могут испытывать частые и интенсивные эмоциональные реакции на стрессовые ситуации, что затрудняет им выражение своих мыслей и чувств. Такие люди могут быть более склонны к тревожности, депрессии и другим психологическим проблемам, которые могут оказывать негативное влияние на их коммуникативные способности.

Коммуникативные навыки играют важную роль в процессе психологической помощи, поскольку они позволяют психологу установить эмоциональную связь с клиентом и создать доверительную атмосферу. Без эффективной коммуникации психолог может столкнуться с трудностями в понимании клиента, его потребностей и проблем. Недостаточная

коммуникация может препятствовать эффективной передаче информации и ограничивать возможность клиента получить необходимую помощь.

С другой стороны, хорошо развитые коммуникативные навыки могут помочь психологу более эффективно работать с клиентами, особенно с теми, кто имеет высокий уровень нейротизма. Психолог, обладающий хорошими коммуникативными навыками, может помочь клиентам лучше выразить свои эмоции, общаться о своих проблемах и получать поддержку от окружающих. Это может способствовать снижению уровня нейротизма клиента и повышению его эмоциональной стабильности.

Выводы:

В ходе исследования выявлены статистически значимые взаимосвязи между личностными характеристиками (по модели «Большой пятёрки») и показателями адаптивности студентов-психологов ($n = 254$).

Наиболее выраженная связь установлена между адаптивными способностями и нейротизмом ($r = 0,64$; $p < 0,05$), а также между коммуникативными особенностями и нейротизмом ($r = 0,50$; $p < 0,05$), что указывает на значимость эмоциональной стабильности в структуре профессиональной адаптации будущих психологов.

Выявлены значимые обратные взаимосвязи между показателями адаптации и рядом личностных черт: экстраверсией, добросовестностью и в отдельных случаях доброжелательностью. Это свидетельствует о наличии устойчивых связей между личностной структурой и особенностями адаптационного потенциала студентов.

Полученные результаты показывают, что адаптационные характеристики студентов-психологов тесно связаны с их эмоциональной регуляцией, коммуникативной сферой и уровнем личностной организованности, что подтверждает значимость данных качеств для профессионального становления психолога.

В целом, результаты исследования указывают на сложный и многокомпонентный характер взаимосвязи личностных качеств и адаптивности, что необходимо учитывать при профессиональной подготовке будущих специалистов-психологов в системе высшего образования.

Литература

Вишняков И. А. Условия подготовки профессионального психолога в вузе. // Вопросы профессионализма: психология, методология, практика: Сборник научных статей. - Омск: изд-во ОМ ГПУ. - 2003. - 292 с.

Волкович А. Г. Подходы к определению модели профессионально важных качеств практического психолога. // Психологические аспекты профессионального становления: Сборник материалов Всероссийской межвузовской научной конференции. - М.: РИПО ИГУМО и ИТ, 2009. - С. 35-40.

Егорова М. А. Модель профессиональной подготовки специалиста-психолога для системы образования. // Психологическая наука и образование. 2003. - № 4. - С. 89-96.

Зеер Э. Ф. Концепция профессионального развития человека в системе непрерывного образования // Педагогическое образование в России. 2012. № 5. С. 122–127.

Климов Е. А. Управление мотивацией: Учеб. пособие для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 399 с.

YOSH OFITSERLAR JAMOASIDA XIZMAT REZISTENTLIGI NAMOYON BO‘LISHIDA IJTIMOIY-DEMOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI

Rejametova Irada Ikramshikovna
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Jamoat xavfsizligi universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh ofitserlar jamoasida xizmat rezistentligining namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar tahlil qilingan. Yosh, jins, xizmat muddati, harbiy unvon va xizmat tashkiloti kabi ko‘rsatkichlarning ofitserlarning kasbiy zo‘riqishlarga bardoshliligi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi hamda murakkab xizmat vaziyatlarida konstruktiv xulq strategiyalarini qo‘llashiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, xizmat rezistentligini rivojlantirishda individual psixologik resurslar va harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik muhiti muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: yosh ofitserlar, xizmat rezistentligi, ijtimoiy-demografik omillar, xizmat muddati, harbiy unvon, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, harbiy jamoa.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ПРОЯВЛЕНИИ СЛУЖЕБНОЙ РЕЗИСТЕНТНОСТИ В КОЛЛЕКТИВЕ МОЛОДЫХ ОФИЦЕРОВ

Аннотация. В статье рассматриваются социально-демографические факторы, влияющие на проявление служебной резистентности в коллективе молодых офицеров. Анализируется роль возраста, пола, продолжительности службы, воинского звания и ведомственной принадлежности в формировании устойчивости к профессиональным нагрузкам, эмоциональной стабильности, социальной адаптации и конструктивных стратегий поведения в сложных служебных ситуациях. Обосновывается значение индивидуально-психологических ресурсов и социально-психологической среды воинского коллектива в развитии служебной резистентности молодых офицеров.

Ключевые слова: молодые офицеры, служебная резистентность, социально-демографические факторы, стаж службы, воинское звание, эмоциональная устойчивость, социальная адаптация, воинский коллектив.

THE ROLE OF SOCIO-DEMOGRAPHIC FACTORS IN THE MANIFESTATION OF SERVICE RESILIENCE AMONG YOUNG OFFICERS

Abstract. The article examines the socio-demographic factors influencing the manifestation of service resilience among young officers. Particular attention is paid to the role of age, gender, length of service, military rank, and institutional affiliation in shaping resistance to occupational stress, emotional stability, social adaptation, and constructive behavioural strategies in challenging service situations. The importance of individual psychological resources and the socio-psychological environment of the military unit in developing young officers’ service resilience is also substantiated.

Keywords: young officers, service resilience, socio-demographic factors, length of service, military rank, emotional stability, social adaptation, military unit.

Kirish (Introduction). Huquqni muhofaza qilish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga javob berish tizimlarida xizmat qiluvchi ofitserlarning kasbiy faoliyati yuqori

darajadagi javobgarlik, tezkorlik, xavf, noaniqlik, normativ cheklovlar hamda qaror oqibatlarining ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi. Mazkur sharoitlar shaxsning bilim, ko‘nikma va kasbiy tayyorgarligiga talab qo‘yish bilan cheklanmaydi. Ular xizmat jamoasining jipsligi, harakatlar muvofiqligi, o‘zaro ishonchi, axborot almashinuvi, psixologik safarbarligi va qiyin vaziyatdan so‘ng funksional holatni tiklash imkoniyatini ham belgilaydi. Shu sababli xizmat samaradorligini faqat alohida ofitserning individual sifatlari orqali izohlash yetarli emas; jamoaning yaxlit guruhiy subyekt sifatidagi psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish zarur.

Xizmat jamoasi o‘z a’zolariga tarbiyaviy, tartibga soluvchi, safarbar etuvchi va faoliyatni yengillashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. U bo‘linma rahbariga ishni tashkil etishda, shaxsiy tarkibning ma’naviy-psixologik holatini ta’minlashda va kasbiy me’yorlarni mustahkamlashda tayanch bo‘ladi. Jamoa har bir a’zo uchun axborot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, emotsional dalda, tajriba almashinuvi va amaliy yordam manbai hisoblanadi. Biroq ushbu imkoniyatlar o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi. Ularning namoyon bo‘lishi rahbarning boshqaruv uslubi, jamoa a’zolarining o‘zaro ishonchi, yordam ko‘rsatishga tayyorligi, norasmiy munosabatlar sifati va umumiy maqsadni qabul qilish darajasiga bog‘liq [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Xizmat faoliyatidagi barqarorlikni tushuntirishda “stressga chidamlilik”, “psixologik barqarorlik”, “hayotga bardoshlilik”, “kasbiy ishonchlilik”, “moslashuvchanlik”, “rezilyentlik” va “rezistentlik” tushunchalari qo‘llanadi. Ular o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, aynan bir xil mazmunga ega emas. Stressga chidamlilik ko‘proq stressor ta’sirida funksional holatni me’yoriy chegarada saqlashni; psixologik barqarorlik emotsional, kognitiv va xulqiy jarayonlarning izchilligini; hayotga bardoshlilik qiyinchilikni mazmunli, nazorat qilinadigan va rivojlanish imkoniyati sifatida baholashga moyillikni; rezilyentlik esa buzilish yoki yo‘qotishdan keyin tiklanish va yangi sharoitga moslashishni anglatadi [2]. Xizmat rezistentligi mazkur konstruktlarning ayrim jihatlarini birlashtiradi, biroq uning predmeti xizmat vazifasini, normativ xulqni, guruhiy hamkorlikni va kasbiy ishonchlilikni bosim sharoitida saqlashdan iborat.

John Dollard, Leonard Doob, Neal Miller, Orval Mowrer va Robert Sears 1939-yilda frustratsiya va agressiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy jihatdan asosladilar [3]. Dastlabki model keyinchalik qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siq, adolatsizlik hissi va resurs tanqisligi agressiv javob ehtimolini oshirishi haqidagi g‘oya xizmat jamoalarini tahlil qilishda muhimdir. Masalan, lavozim uchun raqobat, noaniq baholash, ortiqcha yuklama yoki mukofotlarning adolatsiz taqsimlanishi tajovuzni tug‘dirishi mumkin. Shunga qaramay, frustratsiya agressiyani muqarrar qilmaydi: me’yorlar, rahbarlik, o‘zini o‘zi boshqarish va javobgarlik agressiv impulsning xulqqa aylanishini cheklaydi.

O‘sha yili Kurt Lewin, Ronald Lippitt va Ralph White turli rahbarlik uslublari sun’iy yaratilgan ijtimoiy muhitda agressiv xatti-harakatlarning shakli va darajasini o‘zgartirishini ko‘rsatdilar [4]. Ushbu klassik tadqiqotdan harbiy jamoa uchun muhim xulosa kelib chiqadi: agressiya faqat “tajovuzkor xarakter” mahsuli emas, balki rahbar yaratgan ijtimoiy iqlimning ham natijasidir. Avtoritar bosim, rahbarning mas’uliyatdan chekinishi yoki me’yorlarning noaniqligi yashirin dushmanlik, nishon qidirish va norasmiy jazolashga sharoit yaratishi mumkin. Elliot Aronson va Judson Mills 1959-yilda guruhga kirish uchun og‘ir sinovdan o‘tgan shaxs guruhni yuqoriroq baholashga moyil bo‘lishi mumkinligini tajribada ko‘rsatdilar [5]. Keyinchalik bu natija xeyzingni oqlash uchun noto‘g‘ri talqin qilindi. Aslida, azob chekkan shaxsning guruhni yuqori baholashi kognitiv nomuvofiqlikni kamaytirish usuli bo‘lishi mumkin; bu azobning foydali, axloqiy yoki jipslik uchun zarur ekanini isbotlamaydi. Harbiy jamoada “men chidaganman, boshqalar ham chidashi shart” mantig‘i zo‘ravonlikning avlodlararo takrorlanishiga xizmat qiladi.

Konrad Lorenz 1963-yilda agressiyaning etologik tahlilida kichik hayvonlarning yirikroq raqib

yoki yirtqichga guruh bo‘lib tashlanishini tavsiflash uchun mobbing tushunchasidan foydalandi [6]. Ushbu bosqich atamaning tarixida muhim bo‘lsa-da, hayvon xulqini inson tashkilotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Inson guruhidagi mobbing ma’no berish, axloqiy tanlov, maqom, hokimiyat, rasmiy tartib, kommunikatsiya va javobgarlik bilan boshqariladi. Shuning uchun inson mobbingi biologik refleks emas, balki ijtimoiy tashkil etilgan va me’yoriy jihatdan boshqarilishi mumkin bo‘lgan jarayondir.

Peter-Paul Heinemann 1972-yilda bolalar va kattalar guruhidagi zo‘ravonlikni tahlil qilib, mobbing atamasini tengdoshlar jamoasidagi kollektiv hujumga tatbiq etdi [7]. Bu yondashuv “bir shaxs - bir tajovuzkor” sxemasidan “guruh - nishon” munosabatiga o‘tishni boshlab berdi. Harbiy bo‘linmada bunday ko‘chish ayniqsa dolzarb: bir kishining haqorati emas, balki bir necha a’zoning vazifalarni kelishilgan holda og‘irlashtirishi, axborotni yashirishi, obro‘ni tushirishi va norasmiy boykot e’lon qilishi nishonni tizimli ravishda zaiflashtiradi.


Xizmat faoliyatining birinchi muhim belgisi uning maxsus tanlov va kasbiy tayyorgarlik asosida bajarilishidir. Jamoa a’zosi xizmatga qabul qilinishdan oldin kasbiy, tibbiy, psixologik va axloqiy mezonlar bo‘yicha baholanadi; uning vazifani bajarish imkoniyati ta’lim, sinov va attestatsiya jarayonlari orqali tekshiriladi. Ikkinchi belgi vakolatning vaqt, lavozim va xizmat doirasi bilan chegaralanganidir. Uchinchi belgi faoliyat natijasining tashqi nazorat qilinishidir: vazifa qo‘yish, jarayonni tartibga solish, natijani baholash, rag‘batlantirish yoki sanksiya qo‘llash huquqi xizmat ierarxiyasi va tashkilotga tegishli. Shu sababli xizmat faoliyati o‘zining me’yoriyligi, hisobdorligi va tashqi baholanishi bilan ajralib turadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yosh va xizmat staji o‘rtasidagi munosabat nolinear xarakterga ega deb qaralishi maqsadga muvofiq: xizmatning dastlabki davrida tajriba yetishmasligi rezistentlikni cheklashi mumkin; ma’lum kasbiy tajriba to‘planishi esa vaziyatni boshqarish va kasbiy o‘ziga ishonchni kuchaytiradi; haddan tashqari intensiv va surunkali stressga to‘yingan xizmat esa resurslarning sarflanishi orqali teskari ta’sir qilishi mumkin. Yosh ofitserlar fenomenining o‘ziga xosligi ham aynan shunda - ular professional rivojlanishning rezistentlik eng faol shakllanadigan, ammo hali to‘liq barqarorlashmagan bosqichida turadilar.

Yosh ofitserlarning xizmat rezistentligini aynan jins, yosh davri, oilaviy holat, harbiy unvon, xizmat staji va turli harbiy tuzilmalarga mansublikni bir vaqtning o‘zida qamrab olgan holda, jamoada yuz beruvchi agressiya, mobbing, xeyzing, guruhiy bosim va psixologik funksional holat bilan kompleks bog‘liqlikda o‘rganishga qaratilgan empirik ishlar yetarli emas. Shu sababli yosh ofitserlar xizmat rezistentligini ijtimoiy-demografik omillar kesimida tadqiq qilishning ilmiy yangiligi faqat alohida guruhlar o‘rtasidagi statistik farqlarni aniqlash bilan chegaralanmasligi kerak. Bunda yosh, jins, oilaviy holat, xizmat staji, unvon va xizmat tuzilmasini yosh ofitserning jamoaga psixologik integratsiyalashuvi, agressiv-interpersonal tajribasi, mobbing tizimidagi pozitsiyasi, psixik funksional holati va xizmat stressiga moslashish resurslari bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi ko‘p darajali determinantlar sifatida tushuntirish konseptual jihatdan istiqbolli hisoblanadi. Aynan ana shunday yondashuv xizmat rezistentligini yosh ofitserning individual “chidamlilik” sifati sifatida emas, balki uning biografik, professional, guruhiy va tashkiliy resurslari kesishmasida shakllanadigan dinamik ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Birinchidan, xizmat rezistentligi tashkiliy o‘zgarishga qarshilikdan ajratiladi va zarur o‘zgarishga moslashish uning ijobiy ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Ikkinchidan, rezistentlik shaxsiy xususiyat, jarayon va natija o‘rtasidagi qarama-qarshilikni birlashtiruvchi vaqtli trayektoriya sifatida asoslanadi. Uchinchidan, konstruktning funksional mezoni qonuniy-axloqiy mezon bilan birlashtiriladi. To‘rtinchidan, individual, jamoaviy, rahbarlik va tashkiliy darajalar yagona modelga

kiritiladi. Beshinchidan, mobbing, agressiya va xeyzing rezistentlikning komponenti emas, uni yemiruvchi ichki destruktiv bosim sifatida joylashtiriladi. Oltinchidan, psixometrik ball obyektiv xizmat ko‘rsatkichi va tiklanish dinamikasi bilan tekshiriladi. Tadqiqotning konseptual g‘oyasi shundan iboratki, xizmat rezistentligi shaxsda oldindan tayyor holda mavjud bo‘lgan va bitta test orqali to‘liq aniqlanadigan xususiyat emas. U aniq xizmat stressori ta’sirida individual resurslar, guruhiy mexanizmlar, rahbarlik va tashkiliy sharoitlarning o‘zaro ta’siridan yuzaga keladigan, funksiyaning saqlanishi va tiklanish trayektoriyasida kuzatiladigan emergent ijtimoiy-psixologik hodisadir.




1-rasm. Harbiy qismga kelayotganingizda jamoa bilan munosabatlar sababli qanday holatni boshdan kechirasiz? nomli savolga berilgan javoblar

Jamoa bilan munosabatlar sababli harbiy qismga kelish jarayonida kechiriladigan hissiy holatni harbiy unvon kesimida tahlil qilish yosh ofitserlarning xizmat muhitini subyektiv idrok etishida sezilarli differensial xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Qayd etilgan natijalarga ko‘ra, leytenantlar, katta leytenantlar va kapitanlarda nafaqat xavotirning miqdoriy darajasi, balki uning namoyon bo‘lish shakli ham bir-biridan keskin farqlanadi. Shu sababli mazkur natijalarni “unvon oshishi bilan xavotir kamayadi” yoki aksincha “ortadi” degan oddiy chiziqli qonuniyat bilan izohlash yetarli emas. Aksincha, unvon va xizmat tajribasi ortishi fonida jamoaviy munosabatlarga nisbatan emotsional javobning differensiallashuvi kuzatilmoqda.

Respondentlarning 22,08 foizi xotirjam, 20,89 foizi vaziyatli va qisqa muddatli bezovtalik, 26,94 foizi tez-tez xavotirlanish, 30,09 foizi esa kuchli xavotir va xizmat joyiga borishni istamaslik holatini qayd etgan. Tez-tez xavotirlanish va kuchli xavotirni birlashtiradigan bo‘lsak, funksional jihatdan sezilarli salbiy hissiy holat 434 nafar yoki 57,03 foiz respondentda kuzatiladi. Demak, avvalgi matnda keltirilgan 78,58 foizlik ko‘rsatkich aynan ushbu diagrammaga mos kelmaydi; 78 foizga yaqin qiymat faqat qisqa muddatli bezovtalikni ham barcha xavotirli javoblar qatoriga qo‘shganda hosil bo‘ladi. Leytenantlar guruhida eng yaqqol ko‘rsatkich “tez-tez xavotirlanaman va bu ish kayfiyatimga ta’sir qiladi” javobiga to‘g‘ri kelib, u 48,74 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, leytenantlarning 29,29 foizi deyarli har safar kuchli xavotir sezishi va xizmat joyiga borishni istamasligini bildirgan. Shunday qilib, mazkur guruhda funksional ahamiyatga ega ikki salbiy javob kategoriyasining umumiy ulushi 78,03 foizga yetadi. Faqat 20,20 foiz respondent o‘zini xotirjam va xavfsiz his qilgan, qisqa muddatli vaziyatli bezovtalik esa atigi 1,77 foizda qayd etilgan. Mazkur holat leytenantlik bosqichining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan muayyan darajada bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xizmatning dastlabki davrida yosh ofitser nafaqat kasbiy

vazifalarni egallaydi, balki mavjud jamoaga kirish, undagi rasmiy va norasmiy me’yorlarni anglash, o‘z maqomini mustahkamlash, tajribali hamkasblar tomonidan qabul qilinish va professional jihatdan tan olinish vazifalarini ham hal qiladi. Shu davrda boshqalarning bahosiga sezgirlik, xato qilishdan xavotirlanish, professional obro‘ni yo‘qotishdan qo‘rqish yoki jamoada o‘z o‘rnining hali yetarlicha barqarorlashmaganligi emotsional zo‘riqishni kuchaytiruvchi omillarga aylanishi mumkin.

Shu bilan birga, “xizmat joyiga borishni istamayman” mazmunidagi javobni real qochish xulqi bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Biroq u emotsional zo‘riqishning motivatsion komponentga o‘tayotganligini ifodalaydi. Ya’ni respondent nafaqat xavotirni boshdan kechirmoqda, balki ushbu hissiy holat xizmat joyiga yaqinlashish istagining pasayishi bilan ham birga kelmoqda. Bunday holat uzoq davom etsa, xizmatga nisbatan psixologik masofalanish, emotsional charchash yoki jamoaviy ishtirokning pasayishi uchun xavf omillaridan biri bo‘lishi mumkin. Buni tasdiqlash uchun alohida motivatsion va emotsional kuyish metodikalari talab qilinadi.



2-rasm. Jamoa a’zolari bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga qaratilgan tashabbuslaringiz qanday qabul qilinadi? nomli savolga berilgan javoblar

Jamoa tomonidan qabul qilinish yosh ofitserning xizmat muhitiga ijtimoiy-psixologik integratsiyalashuvi, kasbiy “Men” konsepsiyasining barqarorlashuvi, guruhiy mansublik hissining shakllanishi hamda xizmat faoliyatida o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon eta olishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, respondentlarning harbiy unvoniga ko‘ra jamoada o‘zlarini qanday qabul qilinayotganini baholashlari yosh ofitserlarning nafaqat shaxslararo munosabatlari, balki ularning kasbiy ijtimoiylashuv bosqichlari haqida ham muhim psixologik ma’lumot beradi. Tadqiqot natijalarida “ochiq va ijobiy qabul qilinaman” javobi leytenantlarda 8,84 foiz, katta leytenantlarda 76,09 foiz, kapitanlarda 69,77 foizni tashkil etgan. “Asosan ijobiy, ayrim tushunmovchiliklar uchraydi” javobi esa leytenantlarda 75,76 foiz bilan ustunlik qilgan bo‘lsa, katta leytenantlarda 3,11 foiz, kapitanlarda 4,65 foiz darajasida qayd etilgan. Shu bilan birga, sovuqqonlik yoki e’tiborsizlikni his qiluvchi respondentlar ulushi mos ravishda 3,79, 9,84 va 11,63 foizni, muntazam rad etilish yoki jamoadan chetlatilish holatini ko‘rsatuvchi javoblar esa 11,62, 10,87 va 13,95 foizni tashkil etgan.

Natijalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, harbiy unvon ortishi bilan jamoaga moslashuv oddiy chiziqli yo‘nalishda kechmaydi. Aksincha, yosh ofitserlarning xizmat jamoasidagi ijtimoiy pozitsiyasi, norasmiy maqomi, professional tan olinishi va shaxslararo aloqalarining mazmuni sifat jihatdan qayta tashkil topadi. Leytenantlarda jamoaviy munosabatlar ko‘proq “ijobiy, biroq ayrim

tushunmovchiliklar bilan kechuvchi” shaklda namoyon bo‘lsa, katta leytenant va kapitanlarda respondentlarning javoblari aniqroq qutblanishga ega bo‘ladi: bir tomonda ochiq va barqaror ijobiy qabul qilinish, ikkinchi tomonda esa sovuqqonlik, e’tiborsizlik yoki ijtimoiy chetlatilishni his qiluvchi alohida qatlam shakllanadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur holat yosh ofitserlarning kasbiy ijtimoiylashuvi davomida jamoa bilan munosabatlarda bilan izohlanishi mumkin. Xizmatning dastlabki bosqichida yosh ofitser jamoaning rasmiy a’zosi bo‘lganiga qaramay, uning norasmiy maqomi, shaxsiy obro‘si, kasbiy ishonchliligi va guruh ichidagi real pozitsiyasi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli leytenant uchun “meni qabul qilishadimi yoki yo‘qmi?” degan masaladan ko‘ra, “meni qay darajada tan olishmoqda, fikrimga qanday munosabat bildirishmoqda, tashabbuslarimni qanday baholashmoqda?” kabi savollar psixologik jihatdan muhimroq bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion and suggestions). Bizning fikrimizcha, kapitanlik davrining o‘ziga xosligi shundaki, bu bosqichda jamoada qabul qilinish faqat shaxsiy simpatiya yoki kommunikativ yaqinlik bilan belgilanmaydi. Ofitserning qaror qabul qilishi, bo‘ysunuvchilar faoliyatini baholashi, intizomiy talablarni qo‘yishi, vazifalarni taqsimlashi hamda ayrim hollarda noqulay boshqaruv qarorlarini qabul qilishi zarur bo‘ladi. Shu sababli kapitan jamoa tomonidan professional jihatdan tan olinishi mumkin, biroq ayni paytda uning rahbarlik pozitsiyasi shaxslararo masofaning ortishiga sabab bo‘lishi ehtimoli ham mavjud. Aynan shu jihat kapitanlarda sovuqqonlik yoki e’tiborsizlikning 11,63 foiz, muntazam rad etilish yoki chetlatilishning esa 13,95 foiz darajasida qayd etilganini tushuntirishda muhim bo‘lishi mumkin. Ushbu salbiy kategoriyalar yig‘indisi 25,58 foizni tashkil etib, tavsiflovchi jihatdan uch unvon ichida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Biroq mazkur natijadan “unvon oshgan sari rad etilish kuchayadi” degan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosa chiqarish ilmiy jihatdan asosli emas. Chunki kapitanlar sonining atigi 43 nafar ekanligi ushbu foizlarning alohida respondentlar javobiga yuqori sezgirligini yuzaga keltiradi. Leytenantlikdan katta leytenantlik va kapitanlik maqomiga o‘tish bilan yosh ofitserning jamoada qabul qilinish tajribasi sifat jihatidan transformatsiyalanadi: dastlabki bosqichda munosabatlar ijobiy, biroq ma’lum adaptatsion noaniqlik bilan kechsa, keyingi bosqichlarda professional tan olinish va guruhiy maqom aniqroq tus oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Literature):

Adler A. B., Gutierrez I. A., Gomez S. A. Q., Beymer M. R., Santo T. J., Thomas J. L., Cates D. S., Bell A. M., Quartana P. J. US soldiers and role of leadership: COVID-19, mental health, adherence to public health guidelines // BMC Public Health. - 2022. - Vol. 22. - Art. 943. - DOI: 10.1186/s12889-022-13345-z.

Alarcon G. M., Lyons J. B., Mayer R. C., Barelka A. J., Bobko P. Why does one trust? A 360-degree perspective in a military context // Military Psychology. - 2025. - Vol. 37, No. 4. - P. 338-351.

Bulmer S., Aisbett B., Drain J. R. et al. Sleep of recruits throughout basic military training and relationships with stress, recovery and fatigue // International Archives of Occupational and Environmental Health. - 2022. - Vol. 95, No. 6. - P. 1331-1342. - DOI: 10.1007/s00420-022-01845-9.

Cacace S., Smith E. J., Cramer R. J., Meca A., Desmarais S. L. Military self-stigma as a mediator of the link between military identity and suicide risk // Military Psychology. - 2022. - Vol. 34, No. 2. - P. 237-251.

Estrada A. X., Bowles S. Introduction to special issue section: Resilience to stress and trauma

within the military environment // Military Psychology. - 2024. - Vol. 36, No. 3. - P. 239-240. - DOI: 10.1080/08995605.2024.2331935.

Falon S. L., Hoare S., Kangas M., Crane M. F. Coping insights through self-reflection on stressful military training events // Stress and Health. - 2022. - Vol. 38, No. 5. - P. 902-918. - DOI: 10.1002/smi.3141.

Kang S., Waters A. J., Bryan C. J. Association between burnout and insomnia in U. S. Air Force Pararescue personnel: A cross-sectional study // Military Psychology. - 2023. - Vol. 35, No. 1. - P. 1-11.

Kattaxujayev S. K. Harbiy jamoada yetakchilik (liderlik) psixologiyasi va uning shakllanishi // Yangi O‘zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali. - 2026. - J. 4, № 6. - B. 240-245.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA TALABALAR MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Saliyeva Diloram Abdullayevna
Qo‘qon davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarda mustaqillik sifatini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari masalasiga bag‘ishlanadi. Dastlab, mustaqillik tushunchasiga nisbatan ilgari surilgan ta’rifilarning mazmuni bayon qilingan. Shuning bilan birga talablarning ta’limiy faoliyatlarida mustaqillik sifatlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim faoliyati, talaba shaxsi, faollik, mustaqillik, mustaqil ta’lim, kasbiy rivojlanish, tizimlashtirish, rejalashtirish, boshqarish, irodaviy harakat, shaxs faolligi, aqliy xususiyatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Салиеву Дилорам Абдуллаевну
заведующая кафедрой “Психология” Кокандского государственного университета, кандидат психологических наук, профессор

Аннотация. В статье рассматриваются психологические особенности развития качества самостоятельности у студентов в современном образовательном процессе. Сначала изложено содержание определений, выдвинутых относительно понятия независимости. Вместе с тем, представлены психологические возможности развития качеств самостоятельности в образовательной деятельности студентов.

Ключевые слова: образовательная деятельность, личность студента, активность, самостоятельность, самостоятельное обучение, профессиональное развитие, систематизация, планирование, управление, волевые действия, активность личности, умственные особенности.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENT INDEPENDENCE IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

Salieva Diloram Abdullaevna
Head of the Department of “Psychology” of Kokand State University, Candidate of Psychological Sciences, Professor

Abstract. The article is dedicated to the issue of the psychological characteristics of developing the quality of independence in students in the modern educational process. First, the content of the definitions put forward in relation to the concept of independence is described. At the same time, the psychological possibilities for developing the qualities of independence in the educational activities of students are presented.

Keywords: educational activity, student personality, activity, independence, self-education, professional development, systematization, planning, management, volitional action, personal

activity, mental characteristics.

Ma’lumki, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan hozirgi sharoitda, zamonaviy jamiyat oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisiga alohida talablar qo‘ymoqda. Ular orasida faollik va mustaqillik kabi fazilatlar muhim o‘rin tutadi.

Rivojlanib borayotgan axborot muhitida faol mo‘ljal olishga, ortib borayotgan axborot oqimi ta’sirida kasbiy voqelikni o‘zgartirishga qodir bo‘lish uchun mutaxassis o‘z kasbiy darajasini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, talabada kasbiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni mustaqil, faol izlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Talabada yangi bilimlarni mustaqil va axborotni o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishda talabalarning mustaqil ishlash qobiliyati muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun shaxsning “mustaqillik” kabi fazilatini rivojlantirish oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli o‘qish, kasb-hunar egallash va keyinchalik uzluksiz ta’lim olishning muhim sharti, garovi bo‘ladi.

Mustaqillik atamasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng qo‘llaniladi. Uning ta’rifini taniqli olimlarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqamiz.

Mustaqillik - bu shaxsning sifati bo‘lib, uning ijtimoiy ahamiyati uning yo‘nalishi, insonning subyekt sifatidagi faollik darajasi bilan belgilanadi (B. G. Anan’yev, V. P. Bespalko); ehtiyoj, mustaqil fikrlash qobiliyati, yangi savolni, yangi muammoni ko‘rish va qo‘yish, yangi vaziyatda mo‘ljal olish qobiliyati (V. V. Davidov); topshiriqni individual bajarish, bilish vazifalarini hal qilish qobiliyati (I. Ya. Lerner); masalani hal qilishning ma’lum usulini tanlash va amalga oshirishni ta’minlaydigan shaxs xususiyati (A. N. Leontev); rahbarlarning bevosita rahbarligisiz va amaliy yordamisiz o‘z faoliyatini tizimlashtirish, rejalashtirish va boshqarish qobiliyati (K. K. Platonov); fikrlash jarayonlarining mahsuldorlik sharti, aqlning xususiyati (S. A. Smirnov); aqliy faoliyatni tavsiflovchi irodaviy harakat, shaxs faolligining belgisi, uning bilishga intilish qobiliyati (G. I. Shukina).

Taniqli psixolog S. L. Rubinshteynning ta’kidlashicha, haqiqiy mustaqillik o‘z negizida harakatlarning ongli motivatsiyasini o‘z ichiga oladi va uning asosiy xususiyati shundaki, bu harakatlar “o‘zgalar ta’siri va ta’siriga berilmaydi” - va bu, olimning fikricha, o‘zboshimchalik emas, balki iroda mustaqilligining haqiqiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi “chunki insonning o‘zi boshqacha emas, balki shunday harakat qilish uchun obyektiv asoslarni ko‘radi” [1].

Zamonaviy tadqiqotchi T. I. Shamovaning fikricha, mustaqillik shaxsning yetakchi fazilatlaridan biri bo‘lib, u “qiziqishlarning yo‘nalishi va barqarorligida..., o‘quv-bilish maqsadiga erishish uchun irodaviy sa’y-harakatlarni safarbar etishda namoyon bo‘ladi” [2].

A. Ye. Bogoyavlenskaya talabalarning “bilish mustaqilligi” haqidagi tadqiqotlarida ta’kidlashicha, bu tushunchaga “ilmiy va ijtimoiy-siyosiy ma’lumotlardan mustaqil foydalanish, ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyati, o‘zining va boshqalarning harakatlarini tanqidiy mushohada qilish qobiliyati, faktlarni to‘g‘ri baholash, mohirona umumlashtirish va tegishli xulosalar chiqarish hamda qarorlar qabul qilish” kiradi [3].

Turli tadqiqotchi olimlarning ta’riflaridan ko‘rishimiz mumkinki, mustaqillik shaxsning yetakchi sifatlaridan biri sifatida ham, irodaviy harakat sifatida ham, “iroda mustaqilligi” sifatida ham, barcha irodaviy kuchlarni safarbar qilish sifatida ham, o‘z harakatlarini tanqidiy mushohada qilish qobiliyati sifatida ham tushuniladi.

Bizning tadqiqotimizga K. K. Platonov va G. G. Golubevning tushunchalari yaqinroq bo‘lib, ular mustaqillikni pedagogik nuqtai nazardan rahbarning bevosita doimiy rahbarligisiz va

amaliy yordamisiz o‘z faoliyatini tizimlashtirish, rejalashtirish va boshqarish qobiliyati sifatida tavsiflaydilar [4].

Ilmiy-texnik axborotning jadal o‘sishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida oliy maktab talabalarning ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishi, ulardan tez o‘zgaruvchan muhitda yaxshi yo‘l topa oladigan, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashi kerak. Bu esa oliy ta’lim muassasasida o‘qitish mazmuni, shakli va metodlarini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan pedagogik jarayonda talabalarning vazifalari va funksiyalari o‘zgaradi. L. F. Zokirovaning fikricha, “inson ta’limi shaxsning mustaqilligiga tayanmasa, yangi kashfiyotlar va nazariyalarga to‘liq yetib bora olmaydi hamda oliy o‘quv yurti va ishlab chiqarish talablariga javob bera olmaydi” [5]. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonning asosiy vazifalaridan biri talabalarning o‘quv jarayonida faol, maqsadli ishtirok etishini va uni mustaqil boshqarishini rag‘batlantirish va bunga imkon berishdan iborat. Bunda talabalarda mustaqil, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni faol izlash, ya’ni mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqil ish, P. I. Pidkasisning fikricha, mustaqillikni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Muallif mustaqil ish ta’limning shakli yoki usuli emasligini, uni ta’lim oluvchilarni mustaqil faoliyatga jalb etish vositasi, uni mantiqiy va psixologik tashkil etish vositasi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi [6]. A. I. Zimnyaya, o‘z navbatida, mustaqil ishni talabaning yuqori darajadagi o‘zini o‘zi anglash, intizomlilik, mas’uliyatlilik va refleksivlikni talab qiladigan o‘quv faoliyatining eng yuqori turi sifatida ta’riflash kerakligini ta’kidlaydi [7]. Shunday qilib, biz oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayoni davomida talabalarning mustaqil ishlarini to‘g‘ri tashkil etish ularning mustaqilligini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishi kerakligini tushunamiz.

Mustaqillikni rivojlantirish - oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv faoliyati doirasida amalga oshiriladigan doimiy uzluksiz jarayondir.

O‘quv faoliyati maqsadga yo‘naltirilgan, majburiy, ixtiyoriy, natijaviy bo‘ladi. Unga mustaqil ishlarni kiritish orqali talabada muayyan ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish mumkin.

Shunday qilib, mustaqil ish davomida talaba quyidagilarni bajara oladi:

- o‘rganilayotgan fan bo‘yicha nazariy materialni o‘zlashtirish (alohida mavzular, mavzularning alohida savollari, alohida qoidalar va boshqalar);
- olingan bilimlarni zarur amaliy vositalardan foydalangan holda mustahkamlash (masalalar yechish, nazorat ishlarini bajarish, o‘zini o‘zi tekshirish uchun testlar va boshqalar);
- olingan bilim va amaliy ko‘nikmalarni predmetli vaziyatlarni tahlil qilish va hal qilish jarayonida qo‘llash (guruh muhokamasi, ishbilarmonlik o‘yini doirasidagi ish, “keyslar” bilan ishlash, aniq vaziyatni yozma tahlil qilish, loyihalar ishlab chiqish va boshqalar);
- olingan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatda qo‘llash (bitiruv, diplom ishi, ilmiy-tadqiqot ishi yozish).

Pedagog-tadqiqotchi Z. L. Shintarning fikricha, ta’lim oluvchining mustaqil ishlashi jarayonida, shuningdek, uning mustaqilligini rivojlantirishda pedagog va o‘quvchining o‘zaro hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi yakka tartibda ishlashi mumkin, lekin qiyinchiliklar yuzaga kelganda o‘qituvchiga murojaat qilishi va hamkorlikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yishi mumkin [8].

Darhaqiqat, zamonaviy bo‘lajak mutaxassisning mustaqilligi ko‘rsatkichi uning shaxsiy sifatlari bo‘lib, ular o‘z oldiga maqsad qo‘yish, faoliyatni mustaqil tashkil etish orqali unga erishish yo‘llari va vositalarini topa olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mustaqillikning belgilaridan biri esa talabalarning o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiradigan bilish faoliyatidir. Ushbu sifat

rivojlangani sari pedagogik qo‘llab-quvvatlash darajasi kamayishi, talabalarning mustaqillik darajasi esa ortishi mumkin.

Mustaqil o‘quv ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish o‘qituvchi ishtirokisiz yoki uning nazorati ostida amalga oshiriladi. Bu esa eng muhim ta’lim vazifalaridan biridir. Pedagog uchun bilimlarni uzatish emas, balki talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmasi va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, bilimlarning turli manbalaridan foydalanish, ya’ni ularga adekvat maqsadlarni qo‘yish va ularga erishishni o‘rgatish muhimdir. Shunga o‘xshash nuqtai nazar zamonaviy olima A. M. Veryaskinaning tadqiqotlarida ham qayd etilgan bo‘lib, u talabalarning mustaqil ishini tashqi va ichki tomonlarga ega bo‘lgan o‘quv mustaqil faoliyatini tashkil etish shakli sifatida taqdim etadi: talabaning o‘qituvchi ishtirokisiz topshiriqlarni mustaqil rejalashtirish va bajarish qobiliyati tashqi tomon sifatida namoyon bo‘ladi; talabaning motivatsion, ehtiyoj-hissiy sohalari, uning intellektual va irodaviy sa’y-harakatlari esa jarayonning ichki, muhim jihati hisoblanadi [9].

Albatta, bu pozisiya, ayniqsa, motivatsiya va mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyoj borasida inkor etib bo‘lmaydigan holatdir. Ammo bunda shuni ta’kidlash zarurki, mustaqillikning dastlabki negizi mustahkam nazariy bilimlar zahirasi va intellektual ko‘nikmalar arsenalidir.

Talabalar mustaqil ishining rolini kuchaytirish oliy ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkiliy yangilashni anglatadi. Bu esa o‘qish qobiliyatini rivojlantirishga, talabada o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishga, olingan bilimlarni ijodiy qo‘llashga yordam berishi kerak. Biroq, oliy ta’lim muassasasidagi ish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakllari va usullari, natijalarni kuzatish tizimi oliy ta’lim amaliyotidagi eng zaif joylardan biridir. Bu pedagogika nazariyasining, ayniqsa, zamonaviy ta’lim vaziyatiga (modul-reyting ta’limi, pedagogik monitoring tizimini joriy etish va boshqalar) nisbatan yetarlicha o‘rganilmagan muammosidir.

Talabalar tomonidan bilimlarni mustaqil to‘ldirish, ma’lum vazifalarni hal qilish ko‘p jihatdan oliy ta’lim muassasasida o‘quv-kasbiy tayyorgarlik kontekstida ularning mustaqil faoliyati jarayoni qanday tashkil etilganligi bilan belgilanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, tashkil etish ikki tomonlama jarayondir. Pedagogik ma’noda tashkil etish, bir tomondan, pedagogning pedagogik vaziyatlar ichida o‘ziga, subyekt sifatida mumkin bo‘lgan o‘z harakatlariga, tahlil qilishga, tegishli harakatlarni rejalashtirishga, pedagogik faoliyatni nazorat qilish va tuzatishga, maqsadga muvaffaqiyatli erishishga qaratilgan harakatlari sifatida tushuniladi. Boshqa tomondan, tashkil etish pedagogning talabaga pedagogik vaziyat, pedagogik faoliyatning boshqa subyekti sifatida qaratilgan harakatlarini o‘z ichiga oladi.

Talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etish orqali pedagog o‘z harakatlarini amalga oshiradi. Tashkiliy xarakterdagi o‘z harakatlarida aniqlanadi. Talaba ham o‘z navbatida tashkil etish jarayoniga qo‘shilib, pirovardida o‘zining faoliyat yo‘nalishini belgilab oladi.

Talabalarning mustaqil ish jarayoniga rahbarlik qilish o‘qituvchi tomonidan bo‘lajak (yoki mavjud) kasbda o‘zini o‘zi takomillashtirishning asosiy sharti kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish, ulardan biri “mustaqillik” shuningdek, mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish ekanligini tushunishni nazarda tutadi. Bunday sifatni rivojlantirishda o‘ziga, o‘z faoliyatiga nisbatan ma’lum munosabat tarkib topadi. Bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии - СПб: Питер, 2000 – 712 с.
2. Шамова Т. И. Условия формирования умственной самостоятельности будущего

учителя: автореф.дис. канд. пед. наук. – Л., 2013. – 20 с.

3. Развитие познавательной самостоятельности студентов: монография / А. Е. Богоявленская // Тверской государственный ун-т, 2004. – 152 с.

4. Платонов К. К., Голубев Г. Г. Психология. – М.: Высшая школа, 1977. – 256 с.

5. Закирова, Л. Ф. Стимулирование и развитие самостоятельности, мыслительной деятельности, активности студентов в учебном процессе: Сборник научных статей Казанского государственного университета. -Казань: Казан. гос. ун-т, 2004.- 348 с. С. 112-116.

6. Педагогика: учебник для вузов / под ред. П. И. Пидкасистого. – 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Академия, 2014. – 619 с.

7. Зимняя А. И. Педагогическая психология: учебник для вузов / А. И. Зимняя. – 3-е изд., пересмотр. – М.: МПСИ; Воронеж; Модэк, 2010. – 447 с.

8. Шинтарь З. Л. Формирование интеллектуальной самостоятельности младших школьников в учебной деятельности: автореф. дис. канд.пед.наук / З. Л. Шинтарь // Белорусский государственный педагогический ун-т имени Максима Танка. – Минск, 2009. – 21 с.

9. Веряскина А. Н. Организация самостоятельной работы студентов вуза: этапы, принципы, формы // Инновационное развитие науки и образования: сборник статей II Международной научно-практической конференции: в 2 частях / Отв. ред. Г. В. Гуляев, 2018. – С.209-212.

O‘ZBEK MILLIY RAQS, KUY VA KIYIM ELEMENTLARIGA ASOSLANGAN AEROBIKA MASHG‘ULOTLARINING AYOLLAR VA QIZLARNING PSIXOEMOTSIONAL HOLATIGA TA’SIRI

Sadriddinova Dilobar Husniddin qizi
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ayollar va qizlarning psixoemotsional salomatligini mustahkamlashda jismoniy faollikning roli ilmiy jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarni madaniy jihatdan moslashtirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot o‘zbek milliy raqs, kuy va milliy kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlarining ayollar va qizlarning psixoemotsional holatiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda 382 nafar ayol va qiz ishtirok etib, ular tajriba (n = 190) va nazorat (n = 192) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida 12 hafta davomida milliy raqs harakatlari, o‘zbek milliy kuylarining ritmik xususiyatlari hamda milliy sport kiyimlariga moslashtirilgan aerobika mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Psixoemotsional holat DASS-21 va POMS standartlashtirilgan testlari yordamida baholandi. Olingan natijalar milliy madaniyatga asoslangan aerobika mashg‘ulotlari stress va xavotir darajasini sezilarli kamaytirib, emotsional barqarorlik va ijobiy kayfiyatni oshirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ayollar sog‘lig‘ini mustahkamlashda milliy-madaniy komponentlarga tayangan jismoniy faollik modellarining ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy raqsi, milliy kuy, milliy kiyim, aerobika mashg‘ulotlari, ayollar salomatligi, psixoemotsional holat

Аннотация: Роль физической активности в укреплении психоэмоционального здоровья женщин и девушек широко изучена, однако вопросы культурной адаптации оздоровительных программ остаются недостаточно исследованными. Целью данного исследования является оценка влияния аэробных занятий, основанных на узбекских национальных танцах, музыке и элементах национальной одежды, на психоэмоциональное состояние женщин и девушек. В исследовании приняли участие 382 женщины и девушки, разделённые на экспериментальную (n = 190) и контрольную (n = 192) группы. Экспериментальная группа проходила 12-недельную программу аэробных упражнений с интеграцией элементов национальных танцев, ритмических узбекских мелодий и адаптированной национальной спортивной одежды. Психоэмоциональное состояние оценивалось с использованием методик DASS-21 и POMS. Результаты показали значительное снижение уровня стресса и тревожности, а также улучшение эмоциональной устойчивости у участниц экспериментальной группы. Полученные данные подтверждают эффективность культурно ориентированных аэробных программ для укрепления психоэмоционального здоровья женщин.

Ключевые слова: узбекский национальный танец, национальная музыка, национальная одежда, аэробика, психоэмоциональное состояние, здоровье женщин

Abstract: While the positive role of physical activity in improving women’s psycho-emotional health is well documented, the cultural adaptation of health-oriented exercise programs remains underexplored. This study examines the effects of a culturally grounded aerobic program based on Uzbek national dance, music, and attire on the psycho-emotional well-being of women and girls. A total of 382 participants were assigned to an experimental group (n = 190) and a control group (n = 192). The experimental group completed a 12-week aerobic program integrating elements of Uzbek national dance movements, rhythmic traditional music, and culturally adapted national

sports attire. Psycho-emotional outcomes were assessed using the DASS-21 and POMS scales. The results revealed a significant reduction in stress and anxiety levels and an improvement in emotional stability among participants in the experimental group. These findings highlight the scientific and practical value of culturally grounded aerobic interventions for promoting women’s psycho-emotional health.

Keywords: Uzbek national dance, traditional music, national attire, aerobic exercise, psycho-emotional well-being, women’s health

Zamonaviy jamiyatda ayollar va qizlarning psixoemotsional salomatligi sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan muhim ijtimoiy va ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Stress, xavotir va emotsional zo‘riqish holatlarining keng tarqalishi ayollarning hayot sifati, ijtimoiy faolligi va mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liq holatlar ayollar orasida erkaklarga nisbatan ko‘proq uchraydi va bu holat gender rollari hamda madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda jismoniy faollik, xususan aerobika mashg‘ulotlarining psixoemotsional holatni yaxshilashdagi ijobiy ta’siri keng yoritilgan. Aerob mashqlar stress gormonlari sekretsiyasini kamaytirishi, markaziy asab tizimi faoliyatini muvozanatlashtirishi va ijobiy emotsiyalarni kuchaytirishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mashg‘ulotlarning samaradorligi faqat yuklama va davomiylik bilan emas, balki mashg‘ulot jarayonida yaratiladigan psixologik va madaniy muhit bilan ham belgilanadi.

So‘nggi yillarda sog‘lomlashtiruvchi jismoniy faollikni madaniy jihatdan moslashtirish konsepsiyasi ilmiy muhokamalarda muhim o‘rin egallamoqda. Madaniy moslashtirilgan jismoniy mashg‘ulotlar shaxsda emotsional xavfsizlik hissini kuchaytirib, jismoniy faollikka bo‘lgan ichki motivatsiyani oshiradi. Ayniqsa, milliy raqs va musiqaga asoslangan harakatlar shaxsning madaniy identitetini faollashtiradi va psixoemotsional holatni barqarorlashtirishda muhim mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek milliy raqslari o‘ziga xos plastika, ritm va estetik ifodaga ega bo‘lib, ular ayollarning harakat madaniyati, gavda erkinligi va emotsional ifodasini rivojlantiradi. Milliy kuylar esa ritmik va emotsional jihatdan boy bo‘lib, jismoniy harakatlar bilan uyg‘unlashganda mashg‘ulot jarayonini yanada qiziqarli va ma’naviy jihatdan boyitadi. Bundan tashqari, milliy kiyim elementlariga moslashtirilgan sport kiyimi ayollarda o‘zini erkin va qulay his qilish, madaniy qadriyatlarni saqlagan holda jismoniy faollik bilan shug‘ullanish imkonini beradi.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlarda milliy raqs, milliy kuy va milliy kiyim elementlari birgalikda qo‘llanilgan aerobika dasturlarining psixoemotsional holatga ta’siri yetarlicha tizimli va eksperimental tarzda o‘rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlar alohida musiqa yoki raqs elementlariga qaratilgan bo‘lib, ularning kompleks madaniy modeli ishlab chiqilmagan. Ushbu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek milliy raqs, kuy va kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlarining ayollar va qizlarning psixoemotsional holatiga ta’sirini ilmiy asosda aniqlashdan iborat. Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, milliy madaniyatga asoslangan aerobika mashg‘ulotlari stress va xavotir darajasini kamaytirib, emotsional barqarorlik va ijobiy kayfiyatni oshiradi.

Mazkur tadqiqot ayollar va qizlarning psixoemotsional holatiga o‘zbek milliy raqs, kuy va milliy kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlarining ta’sirini aniqlashga qaratilgan randomizatsiyalangan nazoratli eksperimental tadqiqot dizaynida amalga oshirildi. Ushbu yondashuv sog‘lomlashtiruvchi jismoniy faollikning psixologik natijalarini real sharoitda baholashda eng ishonchli metodologik modellaridan biri hisoblanadi [1], [2].

Tadqiqot oldindan va keyin o‘lchovli (pre-test–post-test) dizayn asosida olib borildi. Psixoemotsional ko‘rsatkichlar aralashuv boshlanishidan oldin (T1) va 12 haftalik dastur yakunida (T2) baholandi.

Tadqiqotda jami 382 nafar ayol va qizlar ishtirok etdi. Ishtirokchilarning yoshi 18–45 yosh oralig‘ida bo‘lib, ular turli ijtimoiy qatlamlarga mansub (oliy ta’lim muassasalari talabalari, ishchi ayollar, uy bekalari) edi. Keng namuna hajmi tadqiqot natijalarining statistik ishonchliligi va umumlashtirilish imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi [15].

Inklyuziya mezonlari:

so‘nggi 6 oy davomida muntazam sport yoki aerobika mashg‘ulotlarida qatnashmagan bo‘lishi;

jismoniy mashqlarni bajarishga tibbiy qarshi ko‘rsatmalarning yo‘qligi;

ruhiy kasalliklar bo‘yicha klinik tashxisga ega emasligi;

tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga yozma rozilik bildirgan bo‘lishi.

Eksklyuziya mezonlari:

homiladorlik yoki tug‘ruqdan keyingi davr;

psixotrop dori vositalarini muntazam qabul qilish;

surunkali somatik kasalliklarning faol bosqichi.

Ishtirokchilar kompyuterlashtirilgan tasodifiy tanlash usuli yordamida ikki guruhga ajratildi:

Tajriba guruhi (n = 190) – o‘zbek milliy raqs, kuy va kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlari;

Nazorat guruhi (n = 192) – milliy komponentlarsiz, standart sog‘lomlashtiruvchi aerobika mashg‘ulotlari.

Boshlang‘ich baholash bosqichida (T1) guruhlar o‘rtasida stress, xavotir va umumiy emotsional holat ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$), bu randomizatsiya jarayonining to‘g‘ri amalga oshirilganligini ko‘rsatadi.

Tajriba guruhi uchun 12 hafta davomida, haftasiga 3 marotaba, har biri 60 daqiqadan iborat aerobika mashg‘ulotlari tashkil etildi. Mashg‘ulotlar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan sog‘lomlashtiruvchi jismoniy faollik me’yorlariga moslashtirildi.

Mashg‘ulotlar isinish (10 daqiqa), asosiy qism (40 daqiqa) va yakuniy qism (10 daqiqa) struktura asosida o‘tkazildi.

Aerobika mashg‘ulotlarining asosiy qismiga o‘zbek milliy raqslariga xos harakatlar moslashtirilgan holda kiritildi. Jumladan qo‘l va bilaklarning plastika harakatlari, yelka va gavdaning yumshoq ritmik siljishlari, oyoq-qadamlarning milliy raqslarga xos ketma-ketligi, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantiruvchi aylanishlar.

Ushbu harakatlar klassik aerobika prinsiplariga moslashtirilib, yurak-qon tomir tizimi uchun xavfsiz yuklama darajasida bajarildi.

Mashg‘ulotlarda o‘zbek milliy musiqasining instrumental variantlari (doira, dutor, tanbur, surnay ohanglari) qo‘llanildi. Musiqalar ritm tezligi: 120–140 BPM, musiqaning emotsional xarakteri: jo‘shqin, ritmik va vokal komponent: minimal yoki yo‘q kabi mezonlar asosida tanlandi.

Milliy kuylar mashg‘ulot jarayonida harakatlar ritmini boshqarish va emotsional ko‘tarinkilikni ta’minlashga xizmat qildi.

Tajriba guruhida mashg‘ulotlar o‘zbek milliy kiyim elementlaridan ilhomlangan, lekin sport talablari asosida moslashtirilgan maxsus kiyimda o‘tkazildi. Ushbu kiyimlar harakat erkinligini cheklamadi, estetik va madaniy identitetni qo‘llab-quvvatladi va ayollarda psixologik qulaylik hissini kuchaytirdi.

Psixoemotsional holat DASS-21 – stress va xavotir darajasi va POMS – emotsional holat va kayfiyat dinamikasi xalqaro validatsiyadan o‘tgan metodikalar yordamida baholandi.

Mazkur metodikalar sport va sog‘lomlashtiruvchi jismoniy faollik tadqiqotlarida keng qo‘llaniladi va yuqori ishonchlilikka ega.

Ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturida qayta ishlanib, Repeated Measures ANOVA yordamida vaqt va guruh o‘zaro ta’siri tahlil qilindi. Effekt hajmi Cohen’s d orqali baholandi. Statistik ahamiyat darajasi $p < 0,05$ etib belgilandi.

Tadqiqot Helsinki deklaratsiyasi tamoyillariga muvofiq amalga oshirildi. Barcha ishtirokchilardan yozma rozilik xatlari olindi va shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlandi.

1. Ishtirokchilarning umumiy tavsifi. Tadqiqot yakunida jami 382 nafar ayol va qizlarning ma’lumotlari yakuniy statistik tahlilga kiritildi. Ishtirokchilar tajriba guruhi (n = 190) va nazorat guruhi (n = 192) ga ajratildi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning mashg‘ulotlarni tark etish darajasi past (3,7%) bo‘lib, bu milliy madaniyatga asoslangan aerobika dasturining yuqori darajada qabul qilinganligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich baholash bosqichida (T1) guruhlar o‘rtasida yosh, tana massasi indeksi hamda psixoemotsional holat ko‘rsatkichlari (stress, xavotir va umumiy kayfiyat) bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$). Ushbu holat randomizatsiya jarayoni to‘g‘ri amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

2. Stress darajasidagi o‘zgarishlar (DASS-21). Repeated Measures ANOVA natijalari stress ko‘rsatkichlari bo‘yicha vaqt va guruh o‘zaro ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi

($F(1,380) = 43.27$, $p < 0.001$).

Tajriba guruhida 12 haftalik o‘zbek milliy raqs, kuy va kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlaridan so‘ng stress darajasi sezilarli darajada kamaydi

(T1: $M = 18.5 \pm 5.0$; T2: $M = 11.3 \pm 4.7$).

Ushbu o‘zgarish katta effekt hajmi bilan tavsiflandi (Cohen’s $d = 0.82$).

Nazorat guruhida esa stress ko‘rsatkichlarida faqat minimal o‘zgarishlar qayd etildi va ular statistik jihatdan ahamiyatli emas edi

T1: $M = 18.2 \pm 5.2$; T2: $M = 17.5 \pm 5.1$; $p > 0.05$).

3. Xavotir (Anxiety) ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar

Xavotir darajasi bo‘yicha ham vaqt × guruh o‘zaro ta’siri aniqlangan

($F(1,380) = 37.91$, $p < 0.001$).

Tajriba guruhida xavotir darajasi aralashuvdan so‘ng sezilarli pasayishni ko‘rsatdi

(T1: $M = 17.0 \pm 4.6$; T2: $M = 10.6 \pm 4.1$).

Effekt hajmi o‘rta–katta darajada bo‘lib, (Cohen’s $d = 0.75$) ni tashkil etdi.

Nazorat guruhida esa xavotir ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmadi ($p > 0.05$).

4. Emotsional holat va kayfiyat dinamikasi (POMS)

POMS shkalasi natijalari tajriba guruhida umumiy emotsional holatning ijobiy tomonga sezilarli o‘zgarganini ko‘rsatdi. Xususan:

Tension va fatigue subshkalalarida sezilarli pasayish;

Vigor subshkalasida esa aniq oshish qayd etildi.

Repeated Measures ANOVA umumiy kayfiyat indeksi bo‘yicha vaqt × guruh o‘zaro ta’sirini tasdiqladi

($F(1,380) = 40.18$, $p < 0.001$).

Nazorat guruhida POMS subshkalalari bo‘yicha muhim statistik o‘zgarishlar aniqlanmadi.

5. Yosh guruhlari bo‘yicha qo‘shimcha tahlillar

Qo‘shimcha tahlillar ishtirokchilarni uch yosh toifasiga ajratgan holda amalga oshirildi: 18–25, 26–35 va 36–45 yosh. Natijalar milliy raqs–kuy–kiyim asosidagi aerobika mashg‘ulotlari barcha yosh guruhlarida ijobiy ta’sir ko‘rsatganini, biroq 18–35 yosh oralig‘idagi ishtirokchilarda ta’sir

kuchliroq ekanligini ko‘rsatdi ($p < 0.01$).

6. Klinik va amaliy ahamiyat

Stress va xavotir ko‘rsatkichlari bo‘yicha qayd etilgan o‘zgarishlar nafaqat statistik, balki amaliy (klinik) jihatdan ham ahamiyatli bo‘ldi. Effekt hajmlarining 0.75–0.82 oralig‘ida bo‘lishi milliy madaniyatga asoslangan aerobika dasturining psixoemotsional holatni yaxshilashdagi yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

7. Natijalarning umumiy xulosasi

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki:

o‘zbek milliy raqs, kuy va kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlari ayollar va qizlarda stress va xavotir darajasini sezilarli kamaytiradi;

emotsional barqarorlik va ijobiy kayfiyatni oshiradi;

nazorat guruhida bunday o‘zgarishlar kuzatilmaydi.

Mazkur farqlar milliy madaniyatga asoslangan aerobika dasturining psixoemotsional salomatlikni mustahkamlashdagi samaradorligini aniq tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek milliy raqs, kuy va kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlari ayollar va qizlarning psixoemotsional holatini yaxshilashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar stress va xavotir darajasining sezilarli kamayishi hamda emotsional barqarorlik va ijobiy kayfiyatning oshishi bilan tavsiflanadi. Ushbu natijalar jismoniy faollik va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlovchi avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi, biroq ularni madaniy jihatdan moslashtirilgan aerobika modeli orqali kengaytiradi.

Milliy raqs va harakat mexanizmlari

O‘zbek milliy raqslariga xos bo‘lgan plastika, ritmik muvozanat va harakatlarning estetik ifodasi ayollarda tanani idrok etish va emotsional ifodani kuchaytiradi. Raqs harakatlari faqat jismoniy yuklama emas, balki emotsional ekspressiya vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda madaniy raqs elementlarining stressni kamaytirish va emotsional regulyatsiyani yaxshilashdagi roli qayd etilgan bo‘lsa-da, mazkur ishda bu yondashuv aerobika mashg‘ulotlari bilan integratsiyalashgan holda baholandi. Natijalardagi yuqori effekt hajmlari aynan raqs harakatlarining tanish va madaniy jihatdan qabul qilinadigan bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin.

Milliy kuylarning psixologik ta’siri

O‘zbek milliy kuylarining ritmik va emotsional xususiyatlari mashg‘ulot jarayonida harakatlar bilan uyg‘unlashib, emotsional fonni barqarorlashtiruvchi rol o‘ynadi. Musiqaning tanishligi va madaniy identitet bilan bog‘liqligi ayollarda psixologik xavfsizlik hissini kuchaytirib, jismoniy faollikni ijobiy emotsiyalar bilan bog‘lashga yordam berdi. Avvalgi tadqiqotlarda musiqaning mashg‘ulot vaqtida charchoqni subyektiv idrok etishni kamaytirishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, mazkur tadqiqotda bu ta’sir milliy musiqa kontekstida yanada kuchli namoyon bo‘ldi.

Milliy kiyim va psixologik qulaylik

Mazkur tadqiqotning muhim jihatlaridan biri — mashg‘ulotlarning milliy kiyim elementlariga moslashtirilgan sport kiyimida o‘tkazilganidir. Milliy kiyimdan ilhomlangan, ammo sport talablariga mos kiyim ayollarda o‘zini erkin va qulay his qilish, shuningdek, madaniy qadriyatlarni saqlagan holda jismoniy faollik bilan shug‘ullanish imkonini berdi. Bu holat, ayniqsa, ayollar uchun jismoniy mashqlarga jalb etishda muhim psixologik to‘siqlarni kamaytiruvchi omil sifatida qaraladi.

Natijalarning xalqaro tadqiqotlar bilan taqqoslanishi

Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro adabiyotlarda keltirilgan madaniy jihatdan moslashtirilgan jismoniy faollik dasturlari samaradorligi haqidagi xulosalar bilan mos keladi. Biroq ko‘pchilik

tadqiqotlar faqat musiqa yoki raqs elementlarini alohida o‘rgangan bo‘lsa, ushbu ishda milliy raqs, kuy va kiyimning kompleks modeli taklif etildi. Shu jihati bilan mazkur tadqiqot sog‘lomlashtiruvchi aerobika sohasida yangi ilmiy yondashuvni namoyon etadi.

Yosh guruhlari bo‘yicha farqlarni talqin qilish

Yosh guruhlari kesimidagi tahlillar 18–35 yoshdagi ishtirokchilarda ta’sir kuchliroq ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat yosh ishtirokchilarning raqs harakatlariga moslashuvi va musiqiy stimullarga sezgirligi yuqoriroq bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, katta yosh guruhlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani mazkur dastur universalligini ko‘rsatadi.

Amaliy ahamiyat

Olingan natijalar ayollar va qizlar uchun mo‘ljallangan sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda milliy-madaniy komponentlarni integratsiyalash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Milliy raqs va kuyga asoslangan aerobika dasturlari nafaqat sog‘liqni mustahkamlash, balki madaniy merosni saqlash va ommalashtirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot cheklovlari

Mazkur tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Birinchidan, tadqiqot faqat ayollar va qizlar ishtirokida o‘tkazildi, bu natijalarni erkaklar populyatsiyasiga umumlashtirish imkonini cheklaydi. Ikkinchidan, psixoemotsional holat subyektiv testlar yordamida baholandi. Kelajakdagi tadqiqotlarda fiziologik ko‘rsatkichlarni (masalan, kortizol darajasi) qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kelajak tadqiqotlari uchun yo‘nalishlar

Kelgusida milliy madaniyatga asoslangan aerobika dasturlarini turli hududlar, yosh guruhlari va ijtimoiy qatlamlar kesimida o‘rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, milliy raqs va musiqaning uzoq muddatli ta’sirini baholash istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot o‘zbek milliy raqs, kuy va milliy kiyim elementlariga asoslangan aerobika mashg‘ulotlarining ayollar va qizlarning psixoemotsional holatiga ta’sirini ilmiy va eksperimental asosda baholadi. Olingan natijalar milliy madaniyatga tayangan sog‘lomlashtiruvchi jismoniy faollik dasturlari nafaqat jismoniy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash, balki psixoemotsional barqarorlikni mustahkamlashda ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

382 nafar ayol va qiz ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni aniqladiki, 12 haftalik milliy raqs–kuy–kiyim asosidagi aerobika mashg‘ulotlari stress va xavotir darajasini sezilarli darajada kamaytiradi hamda emotsional barqarorlik va ijobiy kayfiyatni oshiradi. Ushbu ijobiy o‘zgarishlar nazorat guruhida kuzatilmagan bo‘lib, aniqlangan farqlar aynan milliy madaniy komponentlar bilan boyitilgan aerobika dasturining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, unda milliy raqs harakatlari, milliy kuylarning ritmik va emotsional xususiyatlari hamda milliy kiyim elementlariga moslashtirilgan sport kiyimi yagona, kompleks sog‘lomlashtiruvchi model sifatida qo‘llanildi. Bu yondashuv jismoniy mashg‘ulotlarni ayollar uchun madaniy jihatdan yaqin, psixologik jihatdan qulay va emotsional jihatdan rag‘batlantiruvchi muhitda tashkil etish imkonini berdi. Natijada, jismoniy faollik jarayoni shunchaki mashq emas, balki madaniy identitetni mustahkamlovchi va emotsional regulyatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatga aylandi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot sog‘lomlashtiruvchi aerobika sohasida madaniy jihatdan asoslangan yondashuvning samaradorligini empirik ravishda isbotlab berdi. Avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu ishda milliy raqs, kuy va kiyim alohida komponentlar sifatida emas, balki o‘zaro uyg‘unlashgan yagona tizim sifatida o‘rganildi. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari jismoniy faollik va psixoemotsional salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni yangi madaniy kontekstda boyitadi.

Amaliy jihatdan, olingan xulosalar ayollar va qizlar uchun mo‘ljallangan sog‘lomlashtiruvchi

jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Milliy raqs va kuyga asoslangan aerobika mashg‘ulotlari:

ayollarni jismoniy faollikka jalb etishda madaniy to‘siqlarni kamaytiradi;

mashg‘ulotlarga bo‘lgan ichki motivatsiyani oshiradi;

sog‘lom turmush tarzini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Mazkur model ta’lim muassasalari, sog‘lomlashtirish markazlari, ayollar sport klublari va jamoat sog‘lig‘ini rivojlantirish dasturlarida samarali qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, milliy madaniyatga asoslangan aerobika dasturlari jismoniy tarbiya va sport sohasida milliy brend sifatida rivojlantirilishi uchun ham ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda ushbu modelni boshqa yosh guruhlari, turli hududlar va ijtimoiy qatlamlar kesimida sinab ko‘rish, shuningdek, psixoemotsional holat bilan bir qatorda fiziologik biomarkerlar asosida baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa milliy madaniyatga asoslangan jismoniy faollik dasturlarining uzoq muddatli samaradorligini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

Biddle, S. J. H., Mutrie, N., & Gorely, T. (2019). Psychology of physical activity: Determinants, well-being and interventions (4th ed.). Routledge. https://www.routledge.com/Psychology-of-Physical-Activity/Biddle-Mutrie-Gorely/p/book/9781138919666

Craft, L. L., & Perna, F. M. (2004). The benefits of exercise for the clinically depressed. Primary Care Companion to the Journal of Clinical Psychiatry, 6(3), 104–111. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC474733/

World Health Organization. (2022). Guidelines on physical activity and sedentary behaviour. WHO. https://www.who.int/publications/i/item/9789240015128

Karageorghis, C. I., & Priest, D. L. (2012). Music in the exercise domain: A review and synthesis. International Review of Sport and Exercise Psychology, 5(1), 44–66. https://doi.org/10.1080/1750984X.2011.631026

Karageorghis, C. I., Bigliassi, M., Tayara, K., Priest, D. L., & Bird, J. M. (2018). A grounded theory of music use in the psychological regulation of exercise. Psychology of Sport and Exercise, 38, 154–164. https://doi.org/10.1016/j.psychsport.2018.06.001

Sheppard, A., & Broughton, M. C. (2020). Promoting wellbeing and health through active participation in music and dance: A systematic review. Global Health Action, 13(1). https://doi.org/10.1080/17482631.2020.1732526

Olvera, A. E. (2008). Cultural dance and health: A review of the literature. American Journal of Health Education, 39(2), 94–101. https://doi.org/10.1080/19325037.2008.10599062

Jain, S., & Brown, D. R. (2001). Cultural dance: An opportunity to encourage physical activity and health in communities. American Journal of Health Education, 32(4), 216–222. https://doi.org/10.1080/19325037.2001.10603469

Mavrovouniotis, A., & Argiriadou, E. (2016). Greek dances, aerobic dance and women’s psychological health state. Journal of Physical Education and Sport, 16(Suppl. 1), 440–446. https://doi.org/10.7752/jpes.2016.s1117

Cheng, Y., & Guan, Y. (2022). Cultural identity and emotional well-being: The mediating role of culturally meaningful physical activity. Frontiers in Psychology, 13. https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2022.845132

Lu, X., Wang, S., & Ametefe, D. S. (2024). Impact of dancing on physical and mental health: A systematic literature review. Dance Research Journal, 56(1), 1–18. https://doi.org/10.3366/

drs.2024.0432

Hansen, R. K., Jochum, E., Egholm, D., & Villumsen, M. (2024). Moving together: Benefits of an online dance program on physical and mental health for older women. BMC Geriatrics, 24, Article 498. https://doi.org/10.1186/s12877-024-04983-6

Vahabi, M., & Damba, C. (2015). A feasibility study of a culturally and gender-specific dance to promote physical activity among immigrant women. Women & Health, 55(4), 1–16. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1049386714001145

World Medical Association. (2013). Declaration of Helsinki: Ethical principles for medical research involving human subjects. https://www.wma.net/what-we-do/medical-ethics/declaration-of-helsinki/

Cohen, J. (1988). Statistical power analysis for the behavioral sciences (2nd ed.). Lawrence Erlbaum Associates. https://www.routledge.com/Statistical-Power-Analysis-for-the-Behavioral-Sciences/Cohen/p/book/9780805802832

O‘ZBEK OILALARIDA EMOTSIONAL ALIENATSIYANING PSIXOSOTSIAL REPREZENTATSIYALARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
ISFT instituti mustaqil izlanuvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Oila shaxsning emotsional rivojlanishi, psixologik farovonligi va ijtimoiy identifikatsiyasini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi hamda oilaviy qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar emotsional alienatsiya fenomenining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur maqolada o‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalari empirik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Respondentlarning emotsional alienatsiya haqidagi ijtimoiy tasavvurlari, uning psixologik mazmuni, asosiy oqibatlari va uni kamaytirish usullari psixosemantik yondashuv asosida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari respondentlar emotsional alienatsiyani, avvalo, o‘zini keraksiz his qilish, emotsional yaqinlikning yo‘qolishi va psixologik iztirob bilan bog‘lashlarini ko‘rsatdi. Shuningdek, emotsional alienatsiyani kamaytirishda sport, san’at, rekreatsion faoliyat va oilaviy muloqot muhim psixologik resurs sifatida baholanishi aniqlandi. Olingan natijalar emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini tushuntirish, uning diagnostik indikatorlarini takomillashtirish hamda oilalarda emotsional yaqinlikni mustahkamlashga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar: emotsional alienatsiya, psixosotsial reprezentatsiyalar, ijtimoiy tasavvurlar, psixosemantika, oilaviy munosabatlar, emotsional yaqinlik, psixologik farovonlik, ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, psixologik diagnostika.

ПСИХОСОЦИАЛЬНЫЕ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ АЛИЕНАЦИИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация: Семья является важнейшим социальным институтом, обеспечивающим эмоциональное развитие личности, психологическое благополучие и социальную идентичность. Современные социально-экономические трансформации, урбанизация, трудовая миграция, широкое распространение цифровых коммуникаций и изменение системы семейных ценностей оказывают существенное влияние на формирование феномена эмоциональной алиенации. В статье представлены результаты эмпирического исследования психосоциальных репрезентаций эмоциональной алиенации в узбекских семьях. На основе психосемантического подхода проанализированы социальные представления респондентов об эмоциональной алиенации, её психологическое содержание, наиболее распространённые последствия и способы преодоления. Полученные результаты свидетельствуют о том, что большинство респондентов связывают эмоциональную алиенацию с ощущением собственной ненужности, утратой эмоциональной близости и психологическим дистрессом. Кроме того, установлено, что спорт, искусство, рекреационная деятельность и внутрисемейное общение рассматриваются как наиболее эффективные психологические ресурсы профилактики эмоциональной алиенации. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования диагностики эмоциональной алиенации и разработки психопрофилактических и психокоррекционных программ, направленных на укрепление эмоциональной близости в семье.

Ключевые слова: эмоциональная алиенация, психосоциальные репрезентации, социальные представления, психосемантика, семейные отношения, эмоциональная близость, психологическое благополучие, социальная психология, психология семьи, психологическая диагностика.

PSYCHOSOCIAL REPRESENTATIONS OF EMOTIONAL ALIENATION IN UZBEK FAMILIES

Abstract: The family is a fundamental social institution that ensures emotional development, psychological well-being, and social identity. Contemporary socio-economic transformations, urbanization, labor migration, the expansion of digital communication technologies, and changes in family value systems have significantly influenced the emergence and development of emotional alienation. This article presents an empirical study of the psychosocial representations of emotional alienation in Uzbek families. Using a psychosemantic approach, the study examines respondents’ social representations of emotional alienation, its psychological meaning, perceived consequences, and effective coping strategies. The findings indicate that respondents primarily associate emotional alienation with feelings of being unnecessary, the loss of emotional closeness, and psychological distress. Furthermore, sport, artistic activities, recreation, and family communication were identified as the most effective psychological resources for reducing emotional alienation. The results contribute to a better theoretical understanding of psychosocial representations of emotional alienation and provide a scientific basis for improving psychological assessment as well as developing preventive and corrective programs aimed at strengthening emotional closeness within families.

Keywords: emotional alienation, psychosocial representations, social representations, psychosemantics, family relationships, emotional closeness, psychological well-being, social psychology, family psychology, psychological assessment.

Kirish. Jahondagi globallashuv davrida zamonaviy psixologiya fanida o‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini empirik jihatdan o‘rganishda yagona universal metodologik yondashuv mavjud emas. Buning asosiy sababi emotsional alienatsiyaning ko‘p qirrali, dinamik va murakkab ijtimoiy-psixologik konstrukt ekanligi bilan izohlanadi. Mazkur fenomen shaxsning ichki emotsional kechinmalari bilan bir qatorda, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar, kommunikativ amaliyotlar va jamiyatda shakllangan umumiy tasavvurlar ta’sirida vujudga keladi. Shu bois emotsional alienatsiyani faqat individual psixologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy ongda shakllangan psixosotsial reprezentatsiyalar tizimi sifatida tadqiq etish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi [1].

Ijtimoiy psixologiyada emotsional alienatsiyani o‘rganishga doir mavjud metodologik yondashuvlarni shartli ravishda ikki asosiy paradigmaga ajratish mumkin. Birinchi paradigma individual-psixologik yondashuv bo‘lib, unda emotsional alienatsiya shaxsning subyektiv emotsional holati, ichki ziddiyatlari, yolg‘izlik hissi, o‘zini qadrlash darajasi va psixologik moslashuv xususiyatlari orqali talqin etiladi. Mazkur yondashuv fenomenning intrapsixik mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, uning oilaviy va ijtimoiy kontekstda shakllanuvchi mazmunini to‘liq ifodalash imkonini bermaydi. Chunki o‘zbek oilalarida emotsional alienatsiya nafaqat shaxsning individual kechinmalari, balki oilaviy qadriyatlar, avlodlararo munosabatlar, qarindoshlik aloqalari va milliy-madaniy me’yorlar bilan ham uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi paradigma psixosotsial yoki ijtimoiy reprezentatsiyalar yondashuvi bo‘lib, unda

emotsional alienatsiya shaxslar tomonidan kundalik hayot tajribasi asosida shakllantiriladigan ijtimoiy bilimlar, qadriyatlar, stereotiplar, emotsional baholar va semantik ma'nolar tizimi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, inson emotsional alienatsiyani bevosita emas, balki jamiyatda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar orqali anglaydi, baholaydi va unga munosabat bildiradi. Shuning uchun emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini o'rganish fenomenning ijtimoiy ongdagi mazmunini, markaziy va periferik elementlarini hamda oilaviy munosabatlar bilan bog'liq psixologik interpretatsiyalarini aniqlash imkonini beradi [2].

Bizningcha, aynan integrativ psixosotsial yondashuv o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyani tadqiq etishda eng maqbul metodologik asos hisoblanadi. Chunki o'zbek oilasi nafaqat shaxsning emotsional ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy institut, balki milliy qadriyatlar, oilaviy birdamlik, o'zaro mas'uliyat va qarindoshlik munosabatlarini uzatuvchi murakkab psixologik tizimdir. Mazkur tizimdagi emotsional alienatsiya faqat hissiy yaqinlikning susayishi bilan emas, balki oilaviy identifikatsiyaning zaiflashuvi, o'zaro ishonchning kamayishi, kommunikativ uzilishlar, emotsional qo'llab-quvvatlashning pasayishi hamda zamonaviy sotsiomadaniy transformatsiyalar ta'sirida shakllanayotgan yangi oilaviy reprezentatsiyalar bilan ham tavsiflanadi.

O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini tadqiq etish respondentlarning mazkur fenomen haqidagi ijtimoiy tasavvurlarini, uni qanday mazmunda talqin qilishini, qanday emotsional va kognitiv komponentlar bilan bog'lashini hamda oilaviy hayot tajribasi asosida shakllangan psixologik interpretatsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bunday metodologik yondashuv emotsional alienatsiyaning nafaqat individual-psixologik, balki oilaviy, madaniy va ijtimoiy determinantlarini kompleks ravishda ochib berishga xizmat qiladi hamda o'zbek oilalarining zamonaviy psixologik arxitektonikasini chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Metodologik nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini uch darajali tizim asosida tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv respondentlarning mazkur fenomen haqidagi tasavvurlari qanday psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishini kompleks ravishda tushuntirish imkonini beradi. Chunki emotsional alienatsiya to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar faqat individual tajribaga emas, balki oilaviy hayot, madaniy qadriyatlar va jamiyatdagi kommunikativ amaliyotlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi [3].

Birinchi daraja mikropsixologik reprezentatsiyalar bo'lib, ular shaxsning emotsional tajribasi va individual psixologik xususiyatlari negizida shakllanadi. Mazkur darajaga emotsional intellekt, bog'lanish uslubi (attachment), empatik qobiliyat, refleksivlik, affektiv o'zini boshqarish, psixologik farovonlik hamda o'zini identifikatsiyalash jarayonlari kiradi. Aynan shu omillar insonning emotsional alienatsiyani qanday idrok etishi, unga qanday ma'no berishi va uni qanday emotsional baholashi bilan bog'liq. Natijada respondentlarning ijtimoiy ongida emotsional alienatsiya shaxsiy iztirob, keraksizlik hissi yoki emotsional bo'shliq sifatida reprezentatsiyalanadi.

Ikkinchi daraja mezopsixologik reprezentatsiyalar bo'lib, ular oilaviy tizim doirasida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarni ifodalaydi. Bu darajada er-xotin munosabatlari, ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional yaqinlik, oilaviy rollarning taqsimlanishi, o'zaro ishonch, psixologik qo'llab-quvvatlash, kommunikativ madaniyat hamda nizolarni hal etish uslublari emotsional alienatsiya haqidagi tasavvurlarning mazmunini belgilaydi. Shu sababli bir oilada emotsional alienatsiya «mehrning kamayishi» yoki «bir-birini tushunmaslik» sifatida talqin qilinsa, boshqa oilada u «muloqotning uzilishi» yoki «ruhiy yolg'izlik» bilan bog'lanishi mumkin. Demak, oilaviy tizim emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini shakllantiruvchi eng muhim sotsial makon hisoblanadi.

Uchinchi daraja makropsixologik reprezentatsiyalar bo‘lib, ular jamiyatning sotsiomadaniy muhiti ta’sirida yuzaga keladi. Urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, raqamli kommunikatsiyaning kengayishi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, iqtisodiy beqarorlik, qadriyatlar transformatsiyasi hamda demografik o‘zgarishlar emotsional alienatsiya haqidagi jamoaviy tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada jamiyatda emotsional yaqinlik, oilaviy birdamlik yoki begonalashuv haqidagi qarashlar ham zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar ta’sirida yangicha mazmun kasb etadi [4].

Mazkur uch darajali metodologik model emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini alohida elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan dinamik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ijtimoiy reprezentatsiyalar nazariyasiga ko‘ra, shaxsning kundalik ongida shakllanadigan har qanday tasavvur individual tajriba va jamoaviy bilimlarning integratsiyasi mahsulidir. Shu bois emotsional alienatsiya haqidagi reprezentatsiyalar ham shaxsiy emotsional kechinmalar, oilaviy tajriba va jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy qadriyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.


O‘zbek oilalari misolida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini tahlil qilishda milliy-etnopsixologik omillar alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. O‘zbek jamiyatida kollektivizm, oilaparvarlik, avlodlararo birdamlik, qarindoshlik rishtalari, kattalarga hurmat va oilaviy sha’nni asrash kabi qadriyatlar emotsional munosabatlarning mazmunini belgilovchi asosiy sotsiomadaniy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, hissiyotlarni ochiq ifodalashning cheklanganligi, gender rollarining an’anaviy talqini, oilaviy muammolarni tashqi muhokamaga olib chiqmaslik kabi me’yorlar respondentlarning emotsional alienatsiya haqidagi ijtimoiy tasavvurlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Natijada emotsional begonalashuv ko‘pincha ochiq konflikt sifatida emas, balki «sabr qilish», «ichga yutish», «masofa saqlash» yoki «bir tom ostida yashab, ruhiy uzoqlashish» kabi ijtimoiy-ma’naviy mazmunlar orqali reprezentatsiyalanadi.

Yana bir muhim metodologik jihat shundaki, psixosotsial reprezentatsiyalar statik emas, balki dinamik tabiatga ega. Ular jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyalar, oilaviy hayot siklining bosqichlari, yangi kommunikativ texnologiyalar hamda avlodlar almashinuvi ta’sirida doimiy ravishda yangilanib boradi. Nikohning dastlabki bosqichida emotsional alienatsiya haqidagi tasavvurlar ko‘proq o‘zaro moslashuv va emotsional yaqinlik bilan bog‘liq bo‘lsa, farzandlar ulg‘aygan davrda avlodlararo kommunikatsiya va oilaviy rollar transformatsiyasi bilan, keksalik bosqichida esa yolg‘izlik, ijtimoiy faollikning pasayishi va emotsional qo‘llab-quvvatlash ehtiyojining ortishi bilan bog‘liq holda yangi mazmun kasb etadi [5]. Shu sababli o‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini oilaviy hayot sikli, milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar bilan integratsiyada o‘rganish mazkur fenomenning psixologik mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Diagrammada respondentlarning emotsional alienatsiyani kamaytirishda qaysi vositalarni samaraliroq deb hisoblashlari aks ettirilgan. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 69 foizi emotsional alienatsiyani kamaytirishda sport, raqs va musiqa eng samarali vosita ekanligini bildirgan. 50 foizi sayr qilish, 48 foizi ko‘ngilochar tadbirlar, 33 foizi esa rekreatsion faoliyatni samarali omil sifatida baholagan. Olingan natijalar respondentlar emotsional alienatsiyani kamaytirishda faol ijtimoiy ishtirok, ijobiy emotsional tajriba va birgalikdagi faoliyatni eng muhim psixologik resurs sifatida qabul qilishlarini ko‘rsatadi.

Eng yuqori ko‘rsatkich (69 %) sport, raqs va musiqa faoliyatiga to‘g‘ri kelgani respondentlarning emotsional begonalashuvni bartaraf etishda jismoniy faollik hamda san’atning psixoterapevtik imkoniyatlarini intuitiv ravishda anglashlarini ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan, sport bilan shug‘ullanish organizmda endorfin, serotonin va dopamin kabi neyromediatorlarning faollashishiga

xizmat qilib, stressni kamaytiradi, emotsional zo‘riqishni pasaytiradi va subyektiv farovonlikni oshiradi. Raqs va musiqa esa emotsiyalarni konstruktiv ifodalash, ichki kechinmalarni regulyatsiya qilish hamda boshqalar bilan emotsional rezonans hosil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, guruh shaklida amalga oshiriladigan sport va ijodiy faoliyatlar ijtimoiy mansublik hissini kuchaytirib, emotsional alienatsiyaning asosiy komponentlaridan biri bo‘lgan yolg‘izlik va begonalashuv hissini kamaytiradi.




1-rasm. Emotsional alienatsiyani kamaytirishning samarali vositalari

Respondentlarning 50 foizi sayr qilishni emotsional alienatsiyani kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholagan. Sayr qilish insonning psixofiziologik tiklanishiga xizmat qiluvchi rekreatsion faoliyat bo‘lib, tabiiy muhit bilan bevosita muloqot qilish stress gormonlari miqdorini kamaytiradi, diqqat resurslarini tiklaydi va emotsional barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, sayr qilish ko‘pincha yaqin insonlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lgani sababli oilaviy muloqotni faollashtiradi, samimiy suhbatlar uchun qulay psixologik muhit yaratadi va shaxslararo yaqinlikni mustahkamlaydi.

48 foiz respondent ko‘ngilochar tadbirlarni emotsional alienatsiyani kamaytiruvchi omil sifatida baholagan. Ushbu natija respondentlar emotsional farovonlikni ta’minlashda ijobiy emotsional tajribalar va birgalikdagi ijtimoiy faoliyatning ahamiyatini yuqori baholashlarini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan ko‘ngilochar tadbirlar oila a’zolari va yaqin insonlar o‘rtasida ijobiy affektiv fonni shakllantiradi, kommunikativ faollikni oshiradi hamda o‘zaro emotsional almashinuvni kuchaytiradi. Bunday faoliyatlar shaxsning ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishiga, emotsional qo‘llab-quvvatlashni his etishiga va ijobiy ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlashiga yordam beradi. Respondentlarning 33 foizi rekreatsiyani samarali vosita sifatida ko‘rsatgan. Mazkur ko‘rsatkich boshqa omillarga nisbatan pastroq bo‘lsa-da, rekreatsiyaning psixologik salomatlikni tiklashdagi ahamiyatini inkor etmaydi. Ehtimol, respondentlarning bir qismi rekreatsiya tushunchasini torroq ma’noda dam olish maskanlari yoki sayohat bilan bog‘lagan bo‘lishi mumkin. Holbuki, zamonaviy psixologiyada rekreatsiya shaxsning psixik resurslarini tiklash, emotsional charchoqni kamaytirish, stressni boshqarish va psixologik farovonlikni oshirishga xizmat qiluvchi keng ko‘lamli faoliyatlar tizimi sifatida qaraladi. Mazkur natija rekreatsion madaniyat va uning psixologik ahamiyati bo‘yicha aholining xabardorligini oshirish zarurligini ham ko‘rsatadi.

Psixosotsial reprezentatsiyalar nuqtai nazaridan mazkur natijalar respondentlarning emotsional

alienatsiyani kamaytirish haqidagi tasavvurlari asosan faol harakat, ijodiy faoliyat, ijtimoiy muloqot va tabiiy muhit bilan o‘zaro ta’sir atrofida shakllanganligini ko‘rsatadi. Respondentlar psixologik yordamni faqat mutaxassis bilan ishlash jarayoni sifatida emas, balki kundalik hayotdagi sog‘lom turmush tarzi, emotsional almashinuv va ijtimoiy faollik orqali ham amalga oshiriladigan jarayon sifatida idrok etmoqdalar. Bu esa emotsional alienatsiyani kamaytirish haqidagi ijtimoiy tasavvurlar ko‘proq profilaktik va resursga yo‘naltirilgan mazmunga ega ekanligini anglatadi.



2-rasm. Emotsional alienatsiyaning oqibatlari bo‘yicha tushunchalar kategoriyasi

Mazkur diagrammada respondentlarning emotsional alienatsiyaning eng ko‘p uchraydigan oqibatlari haqidagi ijtimoiy tasavvurlari aks ettirilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, respondentlarning 70 foizi emotsional alienatsiyaning asosiy oqibati sifatida depressiyani, 12 foizi mobil addiksiyani, 10 foizi suitsidal fikrlarni, 5 foizi alkogolizm va giyohvandlikni, 3 foizi esa uyqu buzilishini qayd etgan. Respondentlar ongida emotsional alienatsiya, avvalo, insonning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik xavf omili sifatida reprezentatsiyalanganligini ko‘rsatadi. Diagrammadagi taqsimot respondentlarning emotsional begonalashuvni oddiy hissiy holat emas, balki shaxsning psixologik moslashuvi va emotsional barqarorligini izdan chiqaruvchi murakkab fenomen sifatida baholashlarini tasdiqlaydi.

Eng yuqori ko‘rsatkich (70 %) depressiya hissasiga to‘g‘ri kelganligi respondentlarning emotsional alienatsiya bilan bog‘liq eng asosiy psixologik oqibat sifatida aynan depressiv holatlarni ko‘rishini anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan, emotsional alienatsiya uzoq davom etganda shaxsda umidsizlik, hayotdan qoniqmaslik, motivatsiyaning pasayishi, ijobiy emotsiyalarni boshdan kechirish qobiliyatining susayishi va ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarda emotsional yaqinlikning yo‘qolishi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashning kamayishi va tushunilmaslik hissi depressiv simptomlarning rivojlanish xavfini oshiradi. Shu bois respondentlarning aksariyati depressiyani emotsional alienatsiyaning eng tipik va eng xavfli oqibati sifatida baholagan.

Respondentlarning 12 foizi emotsional alienatsiyaning oqibati sifatida mobil addiksiyani ko‘rsatgan. Ushbu natija zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida emotsional ehtiyojlarning virtual kommunikatsiya orqali kompensatsiya qilinishi haqidagi tasavvurlar mavjudligini ko‘rsatadi. Emotsional jihatdan yaqin munosabatlar yetishmaganda ayrim insonlar mobil telefonlar, ijtimoiy

tarmoqlar yoki boshqa raqamli platformalardan psixologik qoniqish manbai sifatida foydalanishga moyil bo‘ladilar. Natijada real shaxslararo munosabatlar o‘rnini virtual muloqot egallab, emotsional begonalashuv yanada chuqurlashishi mumkin. Bu holat respondentlarning emotsional alienatsiyani zamonaviy texnologik muhit bilan bog‘liq xavf omillaridan biri sifatida ham idrok etayotganligini ko‘rsatadi. Diagrammaga ko‘ra, respondentlarning 10 foizi emotsional alienatsiya suitsidal fikrlarni keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etgan. Ushbu natija respondentlarning muayyan qismi emotsional begonalashuvning og‘ir psixologik oqibatlarini anglayotganidan dalolat beradi. Psixologik tadqiqotlarda uzoq muddat davom etuvchi yolg‘izlik, ijtimoiy izolyatsiya va emotsional qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi suitsidal ideatsiyaning muhim psixologik prediktorlari sifatida e’tirof etiladi. Biroq mazkur natija respondentlarning ijtimoiy tasavvurlarini aks ettiradi va emotsional alienatsiyaga duch kelgan har bir shaxsda suitsidal fikrlar shakllanadi, degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, bu javob respondentlarning emotsional begonalashuvning og‘ir ruhiy oqibatlari haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

Respondentlarning 5 foizi emotsional alienatsiyaning oqibati sifatida alkogolizm va giyohvandlikni ko‘rsatgan. Mazkur natija ayrim respondentlar emotsional iztirobni kamaytirish uchun zararli kompensator strategiyalardan foydalanish ehtimolini tan olishini anglatadi. Emotsional boshqaruv strategiyalarining zaifligi ba’zan psixoaktiv moddalar orqali vaqtinchalik yengillik izlashga olib kelishi mumkin. Biroq ushbu javobning nisbatan past ulushi respondentlar ongida emotsional alienatsiya ko‘proq ruhiy-emotsional muammo sifatida, kamroq esa deviant xulq-atvor omili sifatida reprezentatsiyalanganini ko‘rsatadi.

Eng past ko‘rsatkich (3 %) uyqu buzilishiga to‘g‘ri kelgan. Psixologik va tibbiy tadqiqotlarda emotsional stress hamda depressiv holatlar uyqu sifatining pasayishi bilan bog‘liqligi ko‘p marotaba isbotlangan bo‘lsa-da, respondentlarning aksariyati ushbu simptomni emotsional alienatsiyaning asosiy oqibatlaridan biri sifatida baholamagan. Bu holat respondentlar emotsional alienatsiyaning bilvosita psixofiziologik oqibatlariga nisbatan kamroq xabardor ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Psixosotsial reprezentatsiyalar nazariyasi nuqtai nazaridan mazkur natijalar emotsional alienatsiyaning respondentlar ongidagi markaziy semantik yadrosi «depressiya» tushunchasi bilan chambarchas bog‘langanini ko‘rsatadi. Mobil addiksiya va suitsidal fikrlar ushbu yadroni to‘ldiruvchi ikkilamchi reprezentatsiyalar sifatida namoyon bo‘lsa, alkogolizm, giyohvandlik va uyqu buzilishi periferik elementlar sifatida shakllangan. Bu esa respondentlarning emotsional alienatsiyani, avvalo, shaxsning ruhiy holati va emotsional farovonligiga tahdid soluvchi fenomen sifatida idrok etayotganini anglatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari emotsional alienatsiya respondentlar ongida, avvalo, salbiy psixologik mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida reprezentatsiyalanganligini ko‘rsatdi. Psixosemantik tahlil emotsional alienatsiyaning kundalik ongdagi mazmuni asosan insonning o‘zini keraksiz his qilishi, psixologik iztirob, emotsional begonalashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi hamda shaxslararo yaqinlikning susayishi bilan bog‘liq ekanligini aniqladi. Bu esa mazkur fenomenning psixologik mazmuni respondentlar tomonidan individual kechinma sifatida emas, balki oilaviy va ijtimoiy munosabatlar sifatining pasayishi bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida anglanayotganligini ko‘rsatadi.

Empirik natijalar respondentlarning aksariyati emotsional alienatsiyani ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo sifatida baholashini tasdiqladi. Mazkur holat emotsional alienatsiya haqidagi ijtimoiy tasavvurlar individual psixologik omillar bilan bir qatorda oilaviy kommunikatsiya, emotsional yaqinlik, o‘zaro ishonch, ijtimoiy integratsiya va zamonaviy sotsiomadaniy transformatsiyalar ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, respondentlarning katta qismi emotsional alienatsiyani insonning o‘zini keraksiz his qilishi bilan bog‘lagani ushbu fenomenning

psixosotsial reprezentatsiyalarida mansublik ehtiyojining qondirilmasligi va emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi markaziy semantik yadro ekanligini namoyon etdi.

Tadqiqot davomida emotsional alienatsiyaning eng ko‘p uchraydigan oqibati sifatida depressiya qayd etilgani respondentlar mazkur fenomenni ruhiy salomatlik uchun jiddiy xavf omili sifatida qabul qilishlarini ko‘rsatdi. Shuningdek, mobil addiksiya, suitsidal fikrlar, alkogolizm va uyqu buzilishi kabi holatlar ham emotsional alienatsiyaning salbiy oqibatlari sifatida e’tirof etildi. Bu esa respondentlar ongida emotsional alienatsiya nafaqat hissiy noqulaylik, balki shaxsning psixologik moslashuvi va hayot sifatiga salbiy ta’sir etuvchi omil sifatida reprezentatsiyalanganidan dalolat beradi. Respondentlarning emotsional alienatsiyani kamaytirish usullari haqidagi qarashlari ham psixosotsial jihatdan muhim xulosalarni berdi. Ular sport, musiqa, raqs, sayr qilish va ko‘ngilochar tadbirlarni emotsional begonalashuvni bartaraf etishning eng samarali vositalari sifatida baholadilar. Mazkur natijalar respondentlarning emotsional salomatlikni tiklashni faol ijtimoiy muloqot, jismoniy faollik, rekreatsion faoliyat va ijobiy emotsional tajribalar bilan bog‘lashlarini ko‘rsatadi.

Amaliy nuqtai nazardan tadqiqot natijalari emotsional alienatsiyani kamaytirishga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday dasturlarda oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish, emotsional savodxonlikni oshirish, empatik muloqotni shakllantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish hamda sport, san’at va rekreatsion faoliyatlarni oilaviy hayotga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalarini empirik jihatdan tavsiflash orqali ushbu fenomenning psixosemantik mazmuni, ijtimoiy ongdagi konseptual modeli va psixologik determinantlarini aniqlashtirdi. Olingan natijalar emotsional alienatsiyani o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini boyitish bilan birga, o‘zbek oilalarida emotsional yaqinlikni mustahkamlash, psixologik farovonlikni oshirish hamda oilaviy munosabatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Московичи С. Социальные представления: исторический взгляд // Психологический журнал. – 1995. – Т. 16. – № 2. – С. 3–18.

Abric J.-C. Pratiques sociales et représentations. – Paris : Presses Universitaires de France, 1994. – 251 p.

Jodelet D. Social Representations and the Social Sciences // Social Representations: Explorations in Social Psychology / Ed. by G. Duveen. – New York : New York University Press, 2008. – P. 1–17.

Weiss R. S. Loneliness: The Experience of Emotional and Social Isolation. – Cambridge, MA : MIT Press, 1973. – 236 p.

Петренко В. Ф. Основы психосемантики. – 3-е изд. – Москва : Издательство Московского университета, 2010. – 480 с.

UDK 159.9:378.4

TALABALARNING PSIXOLOGIK XIZMATGA BO‘LGAN MUNOSABATLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Yadgarova Ozoda Ibragimovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
ORCID ID: https://orcid.org/0000-0002-2096-4910

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning psixologik xizmatga munosabati muammosining nazariy jihatdan o‘rganilganlik darajasi har taraflama tahlil qilingan. Psixologik xizmatni rivojlanishida xorij va o‘zbek olimlarining nazariyalari keltirilgan. Psixologik xizmat ko‘rsatishning ahamiyatini talaba yoshlar bilan ishlarni takomillashtirish kerakligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, nazariya va amaliyot, jarayon, oliy ta’lim, iste’molchi, munosabat, zaruriyat, talaba yoshlar.

ОТНОШЕНИЕ СТУДЕНТОВ К ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Ядгарова Озода Ибрагимовна,
доцент Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется степень теоретической разработанности проблемы отношения студентов к психологической службе. Рассматриваются теоретические подходы зарубежных и узбекских учёных, внесших вклад в развитие системы психологической службы. Особое внимание уделяется значению психологического сопровождения студентов в условиях высшего образования. Обосновывается необходимость совершенствования деятельности психологических служб, направленной на оказание профессиональной психологической помощи студенческой молодёжи, повышение доступности психологической поддержки и формирование позитивного отношения студентов к обращению за психологической помощью.

Ключевые слова: психологическая служба, теория и практика, психологическое сопровождение, высшее образование, потребитель психологических услуг, отношение, потребность, студенческая молодёжь.

STUDENTS’ ATTITUDES TOWARD PSYCHOLOGICAL SERVICES: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Yadgarova Ozoda Ibragimovna,
Associate Professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article provides a comprehensive theoretical analysis of students’ attitudes toward psychological services. It examines the theoretical approaches of international and Uzbek scholars who have contributed to the development of psychological services. Particular attention is paid to the importance of psychological support for university students and its role in addressing their psychological needs. The article emphasizes the need to improve psychological services for university students, enhance the accessibility of professional psychological support, and foster positive attitudes toward seeking psychological assistance.

Keywords: psychological services, theory and practice, psychological support, higher education, psychological service users, attitude, need, university students.

Kirish. Psixologik xizmat muammosi psixologiya fanida shaxs rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan amaliy faoliyat turi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o‘rganila boshlangan. Dastlabki tadqiqotlarda psixologik xizmatning asosiy vazifalari shaxsning psixik rivojlanishini kuzatish, muammoli holatlarni barvaqt aniqlash va maslahat berish faoliyati bilan chegaralangan bo‘lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda mazkur faoliyatning ijtimoiy-psixologik va institutsional jihatlari keng yoritila boshladi. Xorijiy psixologik tadqiqotlarda oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat asosan talabalarning psixologik farovonligi, stressga chidamliligi va akademik muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Jumladan, K. Rogers tomonidan ishlab chiqilgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv psixologik maslahat jarayonida talabaning ichki imkoniyatlarini faollashtirish muhimligini asoslab bergan. Ushbu yondashuv keyinchalik oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishda metodologik asos sifatida keng qo‘llanila boshlandi. Amerika va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan izlanishlarda psixologik xizmatning samaradorligi talabalarning o‘qishga moslashuvi, emotsional holati va shaxslararo munosabatlariga ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Xususan, talabalar orasida stress, depressiya va xavotir darajasining oshishi psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etiladi. Biroq mazkur tadqiqotlarda ko‘proq xizmatning natijadorligiga e’tibor qaratilib, talabalarning unga bo‘lgan munosabati ikkilamchi masala sifatida ko‘rib chiqilgan.

Materiallar va metodlar. MDH mamlakatlari psixologiyasida psixologik xizmat muammosi ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan. I. V. Dubrovina, A. K. Markova, E. A. Klimov kabi olimlar ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning nazariy asoslari, vazifalari va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida psixologik xizmat shaxsning rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi muhim tizim sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, MDH olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalarning psixologik xizmatga bo‘lgan munosabati masalasi ko‘pincha bilvosita yoritilgan.

Rossiya psixologiya maktablarida ta’lim tizimiga amaliy psixologik xizmatni joriy etish va uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish uzoq davriy tadrijga ega. Sh. R. Baratov darsligida qayd etilganidek, Rossiyada amaliy psixologiya institutining shakllanishi, dastlab XX asr boshlarida pedagogika va psixologiya fanlari kesishmasida vujudga kelgan pedologiya harakati hamda eksperimental psixologik laboratoriyalar faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Biroq, 1930-yillardagi ma’lum mafkuraviy tazyiqlar oqibatida amaliy tadqiqotlarning to‘xtab qolishi, tizim rivojlanishini bir necha o‘n yilliklarga ortga surdi. [4]

Natijalar va muhokamalar. XX asrning 60-70-yillariga kelibgina fundamental psixologiya yutuqlarini amaliyotga, xususan, ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalasi qayta kun tartibiga chiqdi. Rossiya amaliy psixologiyasida ta’lim muassasalarida psixologik xizmat konsepsiyasini yaratishda L. S. Vigotskiyning shaxs rivojlanishining madaniy-tarixiy nazariyasi, A. N. Leontyevning faoliyat yondashuvi hamda S. L. Rubinshteynning subyekt konsepsiyasi fundamental metodologik poydevor bo‘lib xizmat qildi. XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillarining boshlariga kelib, Rossiya Fanlar akademiyasi hamda Rossiya ta’lim akademiyasining yetakchi olimlari (jumladan, I. V. Dubrovina va uning ilmiy maktabi) tomonidan ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning yaxlit davlat modeli va konsepsiyasi muvaffaqiyatli ishlab chiqildi. Professor Sh. R. Baratov tahlillariga ko‘ra, ushbu davrda psixologik xizmat shunchaki pedagogik jarayonga yordamchi tuzilma emas, balki ta’lim oluvchi shaxsining intellektual va emotsional rivojlanishini ta’minlovchi, uning psixologik salomatligini muhofaza qiluvchi mustaqil institut sifatida e’tirof etildi. Oliy ta’lim tizimida talabalar bilan ishlash jarayonida Rossiya olimlari asosiy e’tiborning

shaxs taraqqiyotidagi ikki muhim mezonga qaratdilar:

Akademik-ijtimoiy moslashuv: Talabaning maktab yoki kollej tizimidan universitetning yuqori intensivlikdagi o‘quv muhitiga muvaffaqiyatli o‘tishi;

Kasbiy identiklik: Talabalik davrida bo‘lajak mutaxassis sifatida shaxs xususiyatlarini kasb talablariga muvofiqlashtirish.

Biroq, Sh. R. Baratov tomonidan asosli ravishda ta’kidlanganidek, ushbu modelda ham uzoq vaqt davomida asosiy urg‘u psixologning faoliyat ko‘lamini kengaytirishga, diagnostika va korreksiya apparatini texnik jihatdan takomillashtirishga qaratildi. Tizimning amaliy samaradorligini ta’minlovchi eng muhim subyektiv omil ya’ni, talabaning amaliy psixologga nisbatan subyektiv pozitsiyasi, uning ishonch darajasi, murojaat qilish madaniyati va unga to‘sqinlik qiluvchi ichki stereotiplar sotsial-psixologik muammo sifatida uzoq vaqt davomida chuqur va tizimli tadqiq etilmasdan, fragmentar (parchalangan) holatda qolib ketdi.

Bu esa o‘z navbatida, ta’lim tizimida psixologik yordam ko‘rsatishning tashkiliy tuzilmasi mukammal bo‘lgani holda, uning real iste’molchisi hisoblangan talaba-yoshlar ongida ushbu xizmatga nisbatan adekvat munosabatni shakllantirish muammosini dolzarb qilib qo‘yadi.

O‘zbekiston psixologiya fanida psixologik xizmat muammosi mustaqillik yillaridan boshlab faol rivojlana boshladi. Respublika olimlari tomonidan umumta’lim maktablari, kasb-hunar ta’limi muassasalari va oliy ta’lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish masalalari tadqiq etilgan. Ushbu ishlarda psixologik xizmatning normativ-huquqiy asoslari, mutaxassis faoliyatining yo‘nalishlari va psixolog shaxsiga qo‘yiladigan talablar yoritilgan. [1] O‘zbekiston amaliy psixologiya fanida ta’lim muassasalarida psixologik xizmat ko‘rsatish tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi o‘ziga xos ijtimoiy-tarixiy va milliy-madaniy xususiyatlarga egadir. O‘zbekiston Respublikasida aholiga professional psixologik xizmat ko‘rsatish, uning institutsional mexanizmlarini loyihalash va amaliy samaradorligini ta’minlash masalalari bo‘yicha milliy psixolog olimlar tomonidan ko‘plab tizimli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, akademik Sh. R. Baratov “Psixologik xizmat” darsligida psixologik xizmat fanining mustaqil fan sifatida shakllanishining fundamental nazariy-metodologik asoslarini, makro-ijtimoiy muhitda psixologik xizmatning strategik maqsad va funksional vazifalarini tizimli hamda batafsil yoritib bergan. Shuningdek, professor V. M. Karimova “Oilaviy hayot psixologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida transformatsiyalashuv sharoitida zamonaviy oilaga professional psixologik xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini va o‘ziga xos konseptual qonuniyatlarini batafsil tahlil etgan [6].

Respublika miqyosida psixologik xizmatni rivojlantirishda F. A. Akramova amaliy izlanishlar olib borgan bo‘lib, [3] unda O‘zbekistonda oilaviy psixologik xizmat ko‘rsatish tizimining ijtimoiy-psixologik muammolari, ushbu xizmat faoliyati samaradorligini institutsional oshirish, uni tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda mikrosotsial nizolarni barvaqt bartaraf etishning profilaktik-korreksion chora-tadbirlarini takomillashtirishga oid ustuvor ilmiy yo‘nalishlarni belgilab bergan.

Professor Sh. R. Baratov o‘zining ko‘p yillik fundamental tadqiqotlari va ilmiy xulosalariga tayanib, respublikamizda psixologik xizmatning shakllanish va evolutsion rivojlanish jarayonini mantiqan uchta asosiy bosqichga ajratadi [4]:

Birinchi bosqich (1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlari): Bu davr respublika ta’lim tizimiga ilk bor amaliy psixolog shtatlarining kiritilishi va laboratoriya sharoitida dastlabki eksperimental tadqiqotlarning o‘tkazilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda xizmat ko‘rsatish prinsiplari asosan G‘arb va Rossiya psixologiya maktablarining tayyor andozalarini ko‘chirish (transplyantatsiya qilish) shaklida kechdi.

Ikkinchi bosqich (1990-yillarning oxiri – 2010-yillar): Ushbu davrda milliy amaliy psixologiyaning normativ-huquqiy bazasi shakllandi, kadrlar tayyorlash tizimi tizimlashtirildi. Biroq, Sh. R. Baratov asosli ta’kidlaganidek, ushbu yillarda ham ta’lim psixologiyasida ko‘proq maktab va maktabgacha ta’lim muassasalariga urg‘u berilib, oliy ta’lim tizimida talaba-yoshlar bilan ishlashning sotsial-psixologik mexanizmlari biroz chekkada qolib ketdi.

Uchinchi bosqich (2010-yillarning oxiridan hozirgi davrgacha): OTMlarda talabalar bilan tizimli ishlash bo‘yicha psixolog shtatlarining keng miqyosda joriy etilishi, xizmatning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi va fanning institutsional jihatdan to‘liq mustaqillikka erishishi bilan belgilandi.

Sh. R. Baratov bo‘yicha “Psixologik xizmatning milliy modeli” konseptual asoslari. Professor Sh. R. Baratov amaliyotga G‘arb andozalarini ko‘r-ko‘rona tatbiq etish milliy makonda kutilgan samarani bermasligini ilmiy isbotlab, “Psixologik xizmatning milliy modeli” konsepsiyasini ilgari suradi. Muallif tizimli tahlillarida oliy ta’lim tizimidagi talabalarning psixologga murojaat qilish motivlari va unga bo‘lgan munosabati bevosita milliy-mental va etnopsixologik determinantlar ta’sirida shakllanishini asoslaydi. [4]

Ushbu milliy modelning sotsial-psixologik arxitekturasi quyidagi fundamental prinsiplar va o‘ziga xosliklar tizimiga tayanadi:

Kollektivistik paradigma va «Guruh daxldorligi»: G‘arb psixologiyasida shaxs individualizm qadriyatlari asosida mustaqil subyekt sifatida qaralsa, o‘zbek mentalitetida talaba o‘zini har doim muayyan ijtimoiy guruh (oila, mahalla, akademik guruh, kursdoshlar)ning ajralmas qismi sifatida his qiladi. Shu bois, talabaning psixologik xizmatga munosabati uning shaxsiy xohishidan tashqari, ijtimoiy atrof-muhitning (referent guruhning) munosabati va bosimi ostida shakllanadi.

«Andisha» va «Iymanish» sotsial-psixologik fenomenlari: Milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan andisha, uyat, o‘z muammolarini tashqariga olib chiqmaslikka urinish kabi madaniy normalar talabalarda psixologga murojaat qilish jarayonida kuchli ichki psixologik to‘siq (baryer) bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar ko‘pincha o‘zlarining emotsional inqirozlarini «zaiflik» deb hisoblab, andisha yuzasidan psixologik xizmat xonasiga kirishdan iymanadilar.

Sharqona muloqot va konfidensiallikka ishonch inqirozi: O‘zbek talabasi uchun psixolog bilan munosabat o‘rnatishda quruq rasmiyatchilik yoki texnik testlar o‘tmaydi. Baratov modeliga ko‘ra, mijozda psixologga nisbatan shaxsiy ishonch (rapoport) uyg‘onishi uchun muloqot sharqona lutf, samimiylik va chuqur empatiyaga asoslanishi shart. Agar talabada uning sirlari daxlsiz qolishi (konfidensiallik) borasida zarracha shubha tug‘ilsa, tizimga bo‘lgan kognitiv munosabat darhol salbiy tomonga o‘zgaradi.

Milliy model doirasida talabalar munosabati muammosi. Sh. R. Baratov darsligida O‘zbekiston sharoitidagi psixologik xizmatning bugungi holatini baholar ekan, juda muhim bir muammoni o‘rtaga tashlaydi: OTMlarda xizmatning moddiy-texnik va institutsional bazasi yaratilgan bo‘lsa-da, uning subyektiv-iste’mol darajasi hamon pastligicha qolmoqda. Talabalar ongida psixolog qiyofasi hamon “ma’muriy xodim” yoki “nazoratchi” sifatida noto‘g‘ri idrok etilmoqda. Muallif tizimli xulosalarida ta’kidlaganidek, oliy ta’limda psixologik xizmat samaradorligini oshirishning yagona yo‘li talabalarning unga bo‘lgan munosabatini milliy va hududiy xususiyatlar kesimida chuqur tadqiq etish, ularning ongida amaliy psixologiyaga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabat yani ustanovkalarni shakllantirish hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilib chiqqan mavjud tadqiqotlarning aksariyatida e’tibor psixologik xizmatning tashkiliy va funksional jihatlariga qaratilgan bo‘lib, talabalarning mazkur xizmatga bo‘lgan munosabatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan. Talabalarning psixologik xizmatga bo‘lgan munosabati ularning psixologik savodxonligi, shaxsiy tajribasi, ijtimoiy stereotiplari va ta’lim muassasasidagi psixologik muhit

bilan bog‘liq holda shakllanishi masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Shuningdek, psixologik xizmatga murojaat qilish jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlar, stigma va ichki qarshiliklar masalasi ham ko‘plab tadqiqotlarda chetlab o‘tilgan. Holbuki, talabaning psixologik yordamga bo‘lgan munosabati uning real yordam olish imkoniyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [4]. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat muammosi turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, talabalarning psixologik xizmatga bo‘lgan munosabatini ijtimoiy-psixologik jihatdan tizimli tahlil qilish, uning tuzilmasi, shakllanish mexanizmlari va ta’sir etuvchi omillarini aniqlash zarurati saqlanib qolmoqda. Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarga psixologik xizmat ko‘rsatish zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ta’lim tizimidagi islohotlar hamda talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq holda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Talabalik davrining psixologik murakkabligi, emotsional zo‘riqish va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq muammolar professional psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Psixologik xizmat talabalarning o‘quv faoliyatiga moslashuvi, shaxsiy rivojlanishi va psixologik barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliy tajriba talabalarning psixologik xizmatga bo‘lgan munosabati bir xil emasligini ko‘rsatadi. Mazkur holat psixologik xizmatning samaradorligini oshirish uchun talabalar munosabatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida psixologik xizmatning dolzarbligi so‘nggi yillarda qabul qilingan davlat miqyosidagi normativ-huquqiy islohotlar bilan bevosita asoslanadi. Shu o‘rinda, amalga oshirilayotgan tadqiqot uchun bosh metodologik va huquqiy mezon vazifasini o‘taydigan, sohada davlat siyosati darajasidagi e’tiborni aks ettiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini alohida eslatib o‘tish o‘rinlidir [1]. Mazkur normativ-huquqiy hujjat jamiyatda psixologik madaniyatni yuksaltirish va tizimning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda amaliy psixologik xizmatni tashkil etishga oid boy ilmiy-nazariy va empirik tajribaning mavjudligi oliy ta’lim tizimida bugungi va istiqboldagi psixologik xizmat modellarini loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy va institutsional xususiyatlarni qamrab olgan empirik tajribaga tayanmasdan turib, oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning ehtiyojlariga mos samarali psixologik xizmat tizimini yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi.

OTMlarda har bir fakultet va talabalar turar joylarida psixolog shtatlarining tizimli ravishda joriy etilishi, yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Biroq, institutsional darajadagi bu rivojlanish subyektiv darajada — ya’ni talabaning ongida hali to‘liq reallashgani yo‘q. Davlat tomonidan yaratilgan moddiy-texnik va huquqiy baza bilan talabalarning psixologik savodxonligi va ishonch darajasi o‘rtasida ma’lum bir disproporsiya (nomutanosiblik) ko‘zga tashlanadi. Tizimning mavjudligi talabaning unga avtomatik ravishda ijobiy munosabatda bo‘lishini anglatmaydi. Bu esa munosabat shakllanishining sotsial-psixologik qonuniyatlarini kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari kesimida tadqiq etishni ilmiy jihatdan talab qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, psixologik xizmat muammosi xorijiy, MDH va O‘zbekiston psixologiya fanida yetarlicha keng yoritilgan bo‘lsa-da, tadqiqotlarning asosiy qismi psixologik xizmatning tashkiliy, funksional va metodik jihatlariga qaratilgan. Talabalarning psixologik xizmatga bo‘lgan munosabati esa ko‘pincha bilvosita yoki fragmentar tarzda o‘rganilgan. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik xizmatga bo‘lgan munosabatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash, uning tuzilmasi va shakllanish omillarini tizimli tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotlar tahlili va zamonaviy

ijtimoiy-madaniy voqelik shuni ko‘rsatadiki, talabalarning amaliy psixologiyaga nisbatan subyektiv pozitsiyasini o‘rganmasdan turib, xizmat ko‘rsatishning amaliy samaradorligiga erishib bo‘lmaydi. Mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish, talabalar ongida psixologik xizmat to‘g‘risidagi tasavvurlarning dinamikasini aniqlash hamda yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish modelini yaratish tadqiqotimizning bosh maqsadini va uning fundamental ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 08.06.2019-y., 09/19/472/3251-son.

Akramova F. A. Psixologik xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy-psixologik muammolari: Monografiya. – Toshkent: Noshir, 2012. – 144 b.

Baratov Sh. R. Psixologik xizmat: Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2018. B.410

Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с

Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2000. – 256 b.

Дубровина И. В. Практическая психология образования: учебник для студентов. – Москва: ТЦ Сфера, 1997. – 528 с.

Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с.]

A. K. Shamshetova Umumiy psixologiya. Darslik. 387-sonli buyrug‘i. T.: © “Zuxro baraka”, UDK159.9(075.8) ISBN. 978-9910-580-66-6. T-2025-yil.

D. I. Muqumova, A. K. Shamshetova, S. N. Jurayeva, Z. I. Temirova. Amaliy psixologiya. O‘quv qo‘llanma, ro‘yxatga olish raqami 218a\f-005 TIQXMMI. MTU. 2024 y

UDK 159.9:378.4

MUVAFFAQIYATGA ERISHGAN SHAXSLARNING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shamshetov Jiyenbay Karamaddinovich,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi,
Orcid ID: 0009-0002-8494-9469

Annotatsiya. Mazkur maqolada muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Muvaffaqiyat tushunchasining psixologik mazmuni, shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va kommunikativ xususiyatlarinig muvaffaqiyatga erishish jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini samarali boshqarish, maqsadga yo‘naltirilganlik, qat’iyatlilik, psixologik barqarorlik, ijodkorlik, moslashuvchanlik, ichki motivatsiya, refleksivlik va ijtimoiy kompetentlik kabi omillarning o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Maqolada muvaffaqiyatni faqat individual qobiliyatlar bilan izohlash yetarli emasligi, balki shaxs va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqalar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslanadi. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarining qo‘llab-quvvatlanishi yuqori sifatli motivatsiya, qat’iyatlilik va faol ishtirokni kuchaytirishi mumkin

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, ijtimoiy psixologiya, ijodkorlik, innovatsion fikrlash, ichki motivatsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСПЕШНЫХ ЛИЧНОСТЕЙ

Шамшетов Жиенбай Карамаддинович
исследователь Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

Аннотация. В данной статье анализируются психологические особенности успешных личностей с социально-психологической точки зрения. Освещается психологическое содержание понятия успеха, роль мотивационных, познавательных, эмоционально-волевых и коммуникативных свойств личности в процессе достижения успеха. Также анализируется взаимодействие таких факторов, как уверенность в себе, самоэффективность, целеустремленность, настойчивость, психологическая стабильность, креативность, гибкость, внутренняя мотивация, рефлексивность и социальная компетентность. В статье обосновывается, что недостаточно объяснить успех только индивидуальными способностями, но также важны взаимодействие личности и социальной среды, социальная поддержка, автономия, компетентность и социальные связи. Согласно теории самоопределения, поддержка потребностей в автономии, компетентности и вовлеченности высока

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, социальная психология, творчество, инновационное мышление, внутренняя мотивация, эмоциональный интеллект, самоэффективность, психологические характеристики, личность, инновации.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SUCCESSFUL PERSONALITIES

Shamshetov Jiyenbay Karamaddinovich
Researcher at the National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

Annotation. This article analyzes the psychological characteristics of successful individuals from a socio-psychological perspective. It explores the psychological content of the concept of success, the role of motivational, cognitive, emotional-volitional, and communicative traits of the individual in the process of achieving success. The interaction of such factors as self-confidence, self-efficacy, goal-orientation, perseverance, psychological stability, creativity, flexibility, intrinsic motivation, reflexivity, and social competence is also analysed. The article argues that it is not enough to explain success solely by individual abilities; the interaction between the individual and the social environment, social support, autonomy, competence, and social connections are also important. According to self-determination theory, support for the needs for autonomy, competence, and engagement is high.

Keywords: intellectual property, social psychology, creativity, innovative thinking, intrinsic motivation.

Kirish. Muvaffaqiyat inson hayotining muhim psixologik va ijtimoiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati uning kasbiy faoliyati, ta’limdagi yutuqlari, ijodiy salohiyati, tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy mavqei va shaxsiy rivojlanishi kabi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi. Biroq muvaffaqiyatni faqat tashqi natijalar — yuqori lavozim, daromad, ilmiy unvon yoki ijtimoiy e’tirof bilan cheklash psixologik jihatdan bir tomonlama yondashuvdir. Psixologik nuqtayi nazardan muvaffaqiyat shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini anglab, mavjud imkoniyat va resurslardan samarali foydalanishi, qiyinchiliklarga moslashishi hamda faoliyat natijalarini shaxsiy qadriyatlari bilan uyg‘unlashtira olishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Muvaffaqiyatga erishish jarayonida insonning bilim va qobiliyatlari bilan bir qatorda uning motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, emotsional barqarorligi, irodaviy sifatlari, kommunikativ kompetensiyasi va o‘z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan muvaffaqiyatli shaxsning psixologik portretini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bunday tadqiqotlar ta’lim, kasbiy yo‘naltirish, boshqaruv, tadbirkorlik, psixologik maslahat va shaxsiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda shaxsning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishiga qo‘yilayotgan talablarning tobora ortib borayotgani hammamizga ma’lum. Globallashuv, raqobatning kuchayishi, axborot oqimining jadallashuvi va mehnat bozoridagi tezkor o‘zgarishlari hammamizdan zamon talabidagi bilimlarni va emotsional barqarorlik, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodkorlik, maqsadiga intiluvchanlik va o‘z-o‘zini boshqarish kabi sifatlarni ham talab etmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ta’lim va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi masalasi alohida ahamiyatga ega. Chunki shaxsning muvaffaqiyatga bo‘lgan munosabati, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, aniq maqsadlar qo‘yishi va qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati uning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning psixologik xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirish yoshlarning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Psixologik nuqtayi nazardan muvaffaqiyatning muhim belgilaridan biri shaxsning o‘z maqsadlari va faoliyatini ongli ravishda boshqara olishi hisoblanadi. Insonning uzoq muddatli rejalari, qarorlari va harakatlarini maqsad bilan bog‘lay olishi uning faol subyekt sifatidagi rolini kuchaytiradi. Inson agentligi tushunchasida

ham shaxsning maqsadli, intentional faoliyat olib borishi va o‘z harakatlarini boshqarishi muhim o‘rin tutadi.

Mavzuningo‘rganilganlikdarajasi.Muvaffaqiyatliijodiyshaxslarningpsixologikxususiyatlarini o‘rganishda bir qator mashhur olimlar muhim hissa qo‘shgan. Jumladan: amerikalik psixolog Teresa M. Amabile ijodkorlikning asosiy manbai ichki motivatsiya ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, shaxsning o‘z faoliyatiga qiziqishi tashqi rag‘batlarga nisbatan ijodiy natijalarga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Ch. Mihaly «Oqim» nazariyasi zamonaviy pozitiv psixologiya va ijodkorlik psixologiyasining eng muhim nazariyalaridan biri hisoblanadi, bunda inson eng yuqori samaradorlikka chuqur diqqat va qiziqish holatida erishishini ko‘rsatgan. Bu holat ko‘plab muvaffaqiyatli ixtirochilar va olimlarga xos xususiyat sifatida baholanadi. J. Robert Sternberg o‘z tadqiqotlarida intellekt va ijodkorlikning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganib, muvaffaqiyatli intellekt nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, analitik, amaliy va ijodiy intellektning uyg‘unligi innovatsion natijalarga olib keladi – degan ilmiy fikrlarini ilgari surishgan. Albert Banduraning ilmiy tadqiqotlarida esa insonning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi murakkab vazifalarni bajarish va innovatsiya yaratish ehtimolini oshirib boradi degan qarashlarni bildirgan. S. Carol Dweck «Growth Mindset» konsepsiyasi orqali bilim va qobiliyatlarni mehnat va tajriba orqali rivojlantirish mumkinligini isbotlagan. Bu qarash ixtirochilik va innovatsion faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tishgan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli intellektual mulk egalari quyidagi psixologik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rib o‘tsak bo‘ladi. Muvaffaqiyatli intellektual mulk egalari yuqori darajadagi ijodiy fikrlashi, ichki motivatsiyaning kuchliligi, muammolarni tahlil qilish qobiliyati, noaniqlikka bardoshlilik, qat’iyat va sabr-toqatli bo‘lishi, o‘z imkoniyatlariga ishonchning mavjudligi, emotsional intellekt, mustaqil qaror qabul qilish, doimiy o‘qish va o‘zini rivojlantirishga intilishi bo‘ladi.

Metodologiya. Mavzuning yana bir muhim jihati shundaki, muvaffaqiyatni faqat intellekt, bilim yoki moddiy imkoniyatlar bilan izohlash yetarli emas. Shaxsning muvaffaqiyatida ichki motivatsiya, o‘ziga ishonch, emotsional intellekt, qat’iyatlilik, stressga chidamlilik, refleksivlik, kommunikativ kompetentlik va ijodkorlik kabi psixologik omillar ham muhim o‘rin tutadi. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasida avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarining qondirilishi insonning motivatsiyasi, faol ishtiroki va psixologik farovonligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Intellektual mulk obyektini yaratish ko‘p bosqichli ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, u bilim, tajriba va kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda shaxsning individual-psixologik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ham bog‘liq. Ilmiy ixtirolar, dasturiy mahsulotlar, adabiy va badiiy asarlar, sanoat namunalari yoki innovatsion texnologiyalarni yaratayotgan shaxslarning faoliyatini tahlil qilish ularning yuqori darajadagi ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, ichki motivatsiya, yuqori mas’uliyat va ijtimoiy faollik kabi xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda muvaffaqiyatga erishishdagi psixologik xususiyatlarini aniqlik kiritish maqsadida biz T. Elersning Shaxs muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini o‘rganish metodikasi, J. Rotterning “Lokus nazorati shkalasi”, V. V. Boykoning empatiya qobiliyatini aniqlash usuli (Boykoning empatiya testi) boshqa odamning fikrlari va his-tuyg‘ularini tushunish va tushuna olish qobiliyatini baholash uchun mo‘ljallangan, V. V. Sinyavskiy va V. A. Fedorshinning “Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklarini diagnostika qilish” metodikasi hamda “Liderlik salohiyati darajasini” aniqlash hamda muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Muvaffaqiyatga erishishda shaxs xususiyatlari” nomli so‘rovnomasi va boshqa metodikalardan foydalandik. Sinaluvchilarda o‘zining yaratgan intellektual mulkini rivojlantirishga va himoya qilishga yordam beradigan sifatlarni ya’ni yangi va original g‘oyalarni yaratish qobiliyatiga, uchrayotgan muammolarga noodatiy yondashish, yangi yechimlarni taklif qila olishi, aniq maqsadlarni belgilash va ularga

intilishi, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil strategiya ishlab chiqishi, qarorlarni boshqalarning ta’sirisiz qabul qila olish qobiliyatlariga alohida e’tibor qaratildi. Ijodkor shaxs o‘z faoliyatini boshqalarnikidan samaraliroq tashkil etishga intilishi va undagi motivatsiyalarining barqarorligi muhimdir. Olib borilgan tadqiqotda ularga muvaffaqiyatsizliklardan keyin qayta harakat qilganligi haqida savollar ham berildi.

1-jadval.

“Muvaffaqiyatga erishishda shaxs xususiyatlari” nomli so‘rovnomasi

№	Psixologik xususiyat	Muvaffaqiyatga erishishda shaxsning asosiy xususiyatlari va ta‘sir etuvchi omillar			
			yuqori	o‘rta	past
1	**Ijodkorlik**	Ijodkorlik, o‘ziga ishonch, qat‘iyatlilik, stressga chidamlilik	28/36,5	34/49,4	10/12,7
2	**Mustaqil fikrlash**	Muvaffaqiyatga intilish, maqsadga yo‘naltirilganlik, ichki motivatsiya	29/36,7	39/49,4	10/11,7
3	**Yuqori motivatsiya**	Mustaqil fikrlash, refleksiya, yangilikka ochiqlik, strategik tafakkur	29/36,7	39/42,4	10/13,7
4	**Maqsadga yo‘naltirilganlik**	Muloqotchanlik, empatiya, muzokara olib borish qobiliyati	25/32,7	39/49,4	10/12,7
5	**Tavakkalchilikka tayyorlik**	Tashabbuskorlik, jamoani boshqarish, mas‘uliyatlilik	30 /37,5	40/50,0	10 /12,5
6	**Qat‘iyatlilik**	Ijtimoiy faollik, hamkorlik, raqobatbardoshlik	26/36,7	39/41,4	10/11,7
7	**Stressga chidamlilik**	Mualliflik huquqiga hurmat, halollik, mas‘uliyat	27/33,4	33/42,4	10/11,3

Mazkur so‘rovnomadan olingan natijalarda muvaffaqiyatga erishishda shaxs xususiyatlaridan mustaqil fikrlash o‘z yutuqlarining psixologik asosi ekanligi ko‘rish mumkin. O‘z-o‘zini nazorat qilish esa xulq-atvorni faollashtiruvchi markaziy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsdagi

kommunikativ kompetentlik, ya’ni samarali muloqot va fikr almashish qobiliyati faoliyatga ta’siri ko‘p bosqichli va tizimli xarakterga ega ekanligini anglatib turibdi. Ayniqsa, shaxsda yangi bilim, tajriba va texnologiyalarni o‘rganib borishi, intellektual rivojlanish va innovatsion faoliyatni kuchaytirish muvaffaqiyatga erishish xatti-harakatlarni faollashtirish va turli stressga psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvlari mavjudligi aniqlanadi.

Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, intellektual mulk egasining muvaffaqiyati faqat uning intellektual qobiliyati bilan emas, balki ijtimoiy muhit, kasbiy munosabatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, muloqot kompetensiyasi, liderlik xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar tizimi bilan ham belgilanadi. Shu bois mazkur muammoni kompleks tarzda tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga eganligini hisobga olish lozim.

Bugungi kunda zamonaviy psixologiyada ijodkor shaxs psixologiyasi, innovatsion faoliyat va intellektual salohiyatga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni oshib borayotgan bo‘lsa-da, aynan intellektual mulk egalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kompleks o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar nisbatan kam uchraydi. Aksariyat tadqiqotlarda ijodkorlik yoki intellekt alohida tahlil qilingan bo‘lib, intellektual mulk sohasida muvaffaqiyatga ta’sir etuvchi psixologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi yetarlicha ochib berilmagan. Shu sababli ularning turli yo‘nalishini alohida o‘rganib chiqish zarur hamda shaxsdagi asosiy xususiyatlarini yanada rivojlantirishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotimizda har bir yo‘nalishdagi asosiy xususiyatlarini va ulardan kutiladigan natijalarga e’tibor berildi. Ular quyidagi jadvalda aks etadi.

Muhokama. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot intellektual mulk sohasida yuqori natijaga erishgan shaxslarning psixologik xususiyatlarini ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularning shaxsiy va ijtimoiy omillari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash hamda ushbu sohada ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ko‘plab ilmiy izlanishlarda muvaffaqiyatga erishgan intellektual mulk egalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning ijodiy va innovatsion faoliyatiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash hamda ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligini asoslashga qaratilgan.

Tadqiqotimizda intellektual mulk sohasidagi shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, muvaffaqiyatli intellektual mulk egalarida uchraydigan psixologik sifatlarni tizimlashtirish hamda ijodkorlik, ichki motivatsiya, emotsional intellekt va o‘z samaradorligining intellektual faoliyat samaradorligiga ta’sirini baholash, intellektual mulk subyektlarini psixologik qo‘llab-quvvatlashga doir ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Xulosa: Tadqiqotimizda ko‘plab kuzatishlar natijalari intellektual mulk sohasida faoliyat yurituvchi va yuqori natijalarga erishgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari turlicha ekanligiga guvohi bo‘lib qolamiz. Intellektual mulk egalarining muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy-psixologik omillar hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan o‘rganib borish maqsadga muvofiqdir.

Muvaffaqiyatga erishgan intellektual mulk egalari har xil sohada ya’ni ular ixtirochi, olim, yozuvchi, dasturchi, dizayner, tadbirkor va boshqada ijodkor shaxslarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar ularning yangi g‘oyalar yaratishi, ularni himoya qilishi va amaliyotga tatbiq etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muvaffaqiyatga erishgan intellektual mulk egalari eng muhim psixologik xususiyatlari ijodkorlik (kreativlik), unda yangi va noodatiy g‘oyalarni ishlab chiqishi, muammolarga turlicha yondashish va innovatsion yechim topa olish qobiliyatini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari yuqori intellektual salohiyat ega shaxslar esa analitik fikrlay olishi, mantiqiy xulosa chiqarishi, murakkab ma’lumotlarni tez o‘zlashtira olishi ko‘zga tashlanadi. Muvaffaqiyatga

erishgan intellektual mulk egalarining ichki motivatsiyalari ya’ni moddiy manfaatdan ko‘ra yangilik yaratishga qiziqishi, o‘z sohasini rivojlantirish istagi mavjudligi bilan farqlanib turadi.

Amaliy tavsiyalar. Muvaffaqiyatga intilayotgan har bir shaxsda matonat va sabr-toqatni rivojlantirish, qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish hamda muvaffaqiyatsizlikdan keyin ham harakat qilish ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlash lozim. Yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishdan qo‘rqmaslik, noma’lum vaziyatlarda qaror qabul qilish, o‘z qobiliyati va g‘oyalariga ishonish hamda tanqidni konstruktiv qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan psixologik tavsiyalar berish o‘rinlidir. Shuningdek, har bir shaxsni uzoq muddatli rejalar tuzish va belgilangan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishishga psixologik jihatdan tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa intellektual mulk subyektlarining psixologik imkoniyatlarini o‘rganish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va psixologik qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Kelgusida mazkur sohada O‘zbekiston sharoitida empirik tadqiqotlar o‘tkazish hamda intellektual mulk subyektlarining psixologik portretini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muvaffaqiyatga erishgan intellektual mulk egalari faoliyatida faqat yuqori intellektual salohiyat emas, balki ijodkorlik, motivatsiya, psixologik barqarorlik, kommunikativ kompetentlik, liderlik, moslashuvchanlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi omillarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan, bunday shaxsning muvaffaqiyati uning individual xususiyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, professional aloqalar, qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik tizimi bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son «Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

Каримова В. М. Ёш оилани қўллаб-қувватлаш – давр талаби. – Т.: «Fan va texnologiya», 2008

A. K. Shamshetova Umumiy psixologiya. Darslik. 387-sonli buyrug‘i. T.: © “Zuxro baraka”, UDK159.9(075.8) ISBN. 978-9910-580-66-6. T-2025-yil.

D. I. Muqumova, A. K. Shamshetova, S. N. Jurayeva, Z. I. Temirova. Amaliy psixologiya. O‘quv qo‘llanma, ro‘yxatga olish raqami 218a\f-005 TIQXMMI. MTU. 2024-yil

Гаврилов Э. П. Право интеллектуальной собственности. Краткий курс. // Учебное пособие. – М.: «Юрсервитум», 2016; Котенева О. Е., Николаев А. С. Коммерциализация объектов интеллектуальной собственности с помощью договоров распоряжения: учебно-методическое пособие / О. Е. Котенева, А. С. Николаев. – СПб.: Университет ИТМО, 2021. – 62 с.

Остапенко Г. Ф., Остапенко В. Д. Управление интеллектуальной собственностью. Учебное пособие для магистров. Сер. Учебные издания для магистров. – М.: Проспект, 2016

Котенева О. Е. Инновационный подход к патентной стратегии корпорации// Интеллектуальная собственность. 2016.№4.

Dennis Wharton, «MPAA’s Rebel With Cause Fights for Copyright Coin, « Variety (August 3, 1992), Vol. 348, No. 2, p. 18.

William W. Fisher III, The Growth of Intellectual Property: A History of the Ownership of Ideas in the United States Архивная копия. Wayback Machine Eigentumskulturen im Vergleich (Vandenhoeck & Ruprecht, 1999)

Drahos with Brathwaite, Information Feudalism, New Press 2002, p12

